

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH  
INSTITUTI QOSHIDAGI AKADEMIK LITSEY**

**MATKARIMOVA DILDORA  
MAMATQULOVA NARGIS  
MAMATJANOVA NASIBA**

# **ONA TILINI O‘RGANAMIZ**

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari  
uchun o‘quv qo‘llanma*

**Alisher Navoiy nomidagi  
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti  
Toshkent – 2013**

UO'K: 811,512.133.372.8

KBK 81.2 O'zb.

M31

**Dildora, Matkarimova**

**Ona tilini o'rganamiz: akademik litsey va kasb-hunar kollej o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma/ D. Matkarimova, N. Mamatqulova, N. Mamatjanova – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. –576 b.**

II. N. Mamatqulova

III. N. Mamatjanova

- Tuzuvchilar:** *Matkarimova D., Mamatjanova N.* TAQI qoshidagi akademik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari  
*N.Mumatqulova* – O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli akademik litsey o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
- Taqrizchilar:** *Hikmatova Muborak* – TTA qoshidagi akademik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.  
*Ismoilova Marg'uba* – TDSHI qoshidagi Olmazor akademik litseyi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

*TAQI va O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli akademik litsey Pedagogik Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Mazkur o'quv qo'llanmada Davlat ta'lim standartlariga kiritilgan mavzular yoritilgan bo'lib, unda hozirgi o'zbek adabiy tili fanining barcha bo'limlari bo'yicha mavjud ma'lumotlar, mashqlar hamda test topshiriqlari jamlangan. U oliy o'quv yurtlariga o'qishga kiruvchi abituriyentlar, o'рта umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey, o'рта maxsus kasb-hunar kolleji o'quvchilari, repetitorlar hamda o'zbek tilini o'rganuvchi talabalar, shuningdek, o'zbek tili bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislariga mo'ljallangan. Bugungi talab va istaklardan kelib chiqib, qo'llanma o'quvchilarni test sinovlariga chuqur va har tomonlama puxta tayyorlash yo'llarini nazarga olgan holda tuzilgan.

© Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi  
nashriyoti, 2013

## «HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI» FANINING MUNDARIJASI

Bo‘limlar	O‘rganish obyekti
<b>1. Fonetika</b>	Nutq tovushlari tizimi, tovushlarning akustik va talaffuz xususiyatlari, tovush almashinishi va o‘zgarishi, bo‘g‘in va urg‘u, ularning turlari, intonatsiya kabi masalalarni o‘rganadi.
<b>2. Fonologiya</b>	Nutq tovushlarining funksional tomoni-ma‘no farqlash vazifasi: fonema, ularning tasnifi, fonemalar o‘rtasidagi munosabat o‘rganiladi.
<b>3. Orfoepiya</b>	Nutq birliklarining talaffuz me‘yori va qoidalari o‘rganiladi.
<b>4. Grafika</b>	Harf, alifbo, harf va fonema o‘rtasidagi munosabat, harflarning yozilish shakllari, turlari, so‘zlardagi o‘rni va ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari kabi masalalar o‘rganiladi.
<b>5. Orfografiya</b>	So‘z va uning ma‘noli qismlarini to‘g‘ri yozish qoidalari o‘rganiladi.
<b>6. Leksikologiya</b>	Leksema, leksik ma‘no, lug‘aviy birliklarning semantik tuzilishi, shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari o‘rganiladi.
<b>7. Frazeologiya</b>	Frazeologizm, frazeologik ma‘no, frazeologik birliklarning shakli va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari o‘rganiladi.
<b>8. Leksikografiya</b>	Lug‘at va uning turlari, lug‘at tuzish asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar o‘rganiladi.
<b>9. Morfemika</b>	Morfema, uning turlari, so‘zning morfemik tuzilishi kabi masalalarga e‘tibor qaratiladi.
<b>10. So‘z yasalishi</b>	So‘z yasash strukturasi. So‘z yasash usullari haqida ma‘lumot beriladi.
<b>Grammatika:</b>	So‘z turkumlari, grammatik shakl va grammatik kategoriyalar (otlarda egalik, kelishik, son; sifat va ravishlarda darajalanish va otlashish; fe‘llarda zamon, shaxs-son, mayl, nisbat, o‘timli-o‘timsizlik, bo‘lishli-bo‘lishsizlik xususiyatlari; har bir turkumning ma‘no turi kabi tushunchalari) o‘rganiladi.
<b>11. Morfologiya</b>	
<b>2. Sintaksis</b>	Bog‘lanishning turlari (teng va tobe), so‘z qo‘shilmasi, so‘z birikmasi, gap va uning barcha turlari, gap tarkibidagi barcha bo‘laklar; kirish va undalmalar; gapdan yirik bo‘lgan birliklar (mikromatn va makromatn) o‘rganiladi.
<b>13. Punktatsiya</b>	Punktatsiya asoslari va tamoyillari, tinish belgilari va ularning ishlatilish qoidalari haqida fikr yuritiladi.

**Eslatma:** Bulardan tashqari, til tarixi, etimologiya, dialektologiya kabi tilshunoslik bo‘limlari Oliy ta‘limda o‘rganiladi.

---

---

# FONETIKA

## Fonetika va Grafika

Fonetika – o‘zbek tilining tovush tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi. Fonetika so‘zi yunoncha phone – «tovush» so‘zidan olingan. Tovush bo‘linishning oxirgi nuqtasi bo‘lgan, boshqa mayda bo‘laklarga bo‘lish mumkin bo‘lmagan nutq bo‘lagi (akustik-artikulatsion birlik) dir.

### Nutqiy faoliyat haqida

Har bir shaxs ma‘lum bir jamiyat vakili sanaladi. Jamiyat a‘zolari o‘zaro doimo aloqada bo‘ladilar. Biri obyektiv olamda o‘z sezgi a‘zolari orqali his etgan ma‘lum narsa va hodisa haqida boshqalarga tovush to‘lqinlari (yozma nutqda esa harflar ketma-ketligi) yordamida axborotni yetkazadi. Axborot uzatuvchi – so‘zlovchi, eshituvchi esa tinglovchi sanaladi. Tinglovchi olamdagi narsa va hodisaning umumlashgan obrazini so‘zlovchi uzatgan tovush signallarini eshitish sezgi a‘zosi yordamida markaziy asab sistemasida tiklaydi.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ana shunday axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati nutqiy faoliyat sanaladi.

Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni e‘tiborga olgan holda mashhur Shveysariya olimi Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshirishini ta‘kidlydi va tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Til so‘zlashish vositasi, ya‘ni nutq sifatida namoyon bo‘lgandagina ma‘lum vazifani bajaradi. Nutq til materiali unsurlaridan tuziladi va nutqiy faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. Demak, til materiallari nutq faoliyati uchun xizmat qiladi. Til bilan nutqni qiyoslash orqali ularning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

#### Til

1. Til – aloqa materiali.
2. Tilni xalq, millat yaratadi.
3. Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog‘liq holda uzoq bo‘ladi.
4. Til nisbatan turg‘un, barqaror.

#### Nutq

1. Nutq – aloqa shakli.
2. Nutqni har bir shaxs yaratadi.
3. Nutqning hayoti qisqa, og‘zaki nutq so‘zlangan paytdagina mavjud (ammo yozma nutq nisbatan uzoq davr saqlanishi mumkin).
4. Nutq doim harakatda, o‘zgaruvchan.

5. Tilning hajmi noaniq.

5. Nutqning hajmi aniq ( U dialog, monolog, matn shaklida bo'lishi mumkin).

6. Til hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi.

6. Nutq shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi.

### Til va nutqning zidlanishi

Til	Nutq
1. Umumiy	1. Xususiylik
2. Imkoniyat	2. Voqelik
3. Mohiyat	3. Hodisa

Tilning fonologik sathining birligi **fonema** bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan ko'rinishi **fon** (allofon) yoki **tovush** hisoblanadi.

### Nutq tovushlarining uch tomoni

Havo to'liqlari orqali qulog'imiz bilan eshitaladigan barcha hodisalarga tovush deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar sirasiga kiradi.

Har qanday tovush ma'lum tashqi ta'sir yordamida havo oqimining tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, ip yoki simni tarang tortib, uni qo'lingiz bilan chertsangiz havoni tebratadi va tovush chiqadi.

Tovushlar tabiiy va inson tovushlariga bo'linadi. Tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo'lgan barcha tovushlar tabiiy tovushlar sanaladi.

Tabiiy tovushlardan inson tovushlarining farqi shundaki, u inson nutq a'zolari harakati yordamida ma'lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadi. Bu esa, har qanday nutq tovushining **uch tomoni** mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Birinchidan, nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Ikkinchidan, har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma'lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariga ega bo'ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomon deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o'rganiladi.

Uchunchidan, nutq tovushlari ma'lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz etilishidan ma'lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma'noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomondan

shakllantirish va ma'nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, soli bilan sholi so'zlari birinchi tovushlari bilan, sot bilan soch so'zlari oxirgi tovushlari bilan, sot va sut so'zlari o'rtasidagi tovushlari bilan farqlanadi.

Tovushlarning bunday belgilari **vazifaviy belgisi** sanaladi va u faqat inson tovushlarigagina xos belgi hisoblanadi.

Demak, yuqorida sanalgan belgilardan birinchisi tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xos belgi bo'lsa, ikkinchi va uchinchi belgilar faqat inson tovushlarigagina xosdir.

Shunday qilib, nutq tovushlarining uch tomoni mavjud: a) akustik; b) talaffuz (fiziologiya); d) vazifaviy tomonlari. Har qaysi nutq tovushini tavsif qilishda ana shu uch tomon e'tiborga olinadi. Masalan, k tovushi til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi va o'pkadan chiqayotgan havoning bu to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'ladi. Bu tovushning nutq a'zolarining qayerida va qanday yo'l bilan hosil bo'lishi talaffuz (fiziologik) tomoni sanaladi. Uning sof shovqindan iborat ekanligi, jarangsizligi akustik belgisi, k ning g dan va boshqa tovushlardan farqlanishi esa vazifaviy belgisi hisoblanadi. Tilshunoslik fani uchun vazifaviy tomoni muhim sanaladi. Shuning uchun vazifaviy belgi lingvistik (tilshunoslik) belgi deb ham yuritiladi.

Nutq tovushlari bir qancha akustik va artikulation (talaffuz) belgilariga ega bo'ladi. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi, chunki bu belgilarni to'la hisobga olgandagina, u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi. Lekin fonologiya uchun yuqoridagi belgilarning ko'pchiligi muhim sanalmaydi.

Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslanganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarigina ahamiyatli bo'ladi.

Bizning bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash tashkil etadi. Bilish jarayonimizda yangi bilayotgan narsamizni oldin bilgan narsaga qiyoslaymiz, zidlaymiz va ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni topishga harakat qilamiz. Shuning uchun bilish faoliyatida zidlashlarning ahamiyati katta.

*Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar farqlovchi belgilar, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar birlashtiruvchi belgilar sanaladi.*

### ***Qiyoslang***

*t – tij oldi, portlovchi. jarangsiz d – til oldi, portlovchi. jarangli*  
↓ ↓ ↓ ↓  
birlashtiruvchi belgi farqlovchi belgi birlashtiruvchi belgi farqlovchi belgi

Fonemalarni belgilashda yaqin, o'zaro o'xshash tovushlarni bir-biriga zidlash va ular o'rtasidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega bo'ladi.

## Tovush va fonema

Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasi **tovush sanaladi**.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi **fonemadir**.

Grafika-yozma nutqning harflar tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi. **Nutq** – so'zlash va yozish orqali ma'lum fikr bayon qilish.

*Nutqning amalga oshirilish yo'llari ikki xil:*

Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq – og'zaki nutq	Harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq esa, yozma nutq sanaladi.
--	---

## Nutq tovushi va harf

**Nutq tovushi** – og'zaki nutqning eng kichik, boshqa bo'lakka bo'linmaydigan qismi.

**Harf** – tovushning yozuvdagi ifodasi. Nutq tovushlari nutq a'zolari harakatidan hosil bo'ladi.

*Nutq a'zolari:* o'pka, tog'aylar, un paychalari, bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i, til, lablar, tishlar.

### Nutq a'zolari

fa'ol

sust

(*tovush paychalari, til, lab, pastki jag'*) (*ko'krak qafasi, kekirdak, yuqori jag', tanglay, burun, tish*)

Bir tovush bir harf bilan (v,a,o,e) ham, ikki harf bilan (sh, ch, ng) ham ifodalanishi mumkin.

## Unli tovushlar

Tovushlar o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrashi yoki uchramasligiga ko'ra ikki turga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

Qiyoslang:

### Unli

1. To'siqqa uchramaydi
2. Sof ovozdan iborat
3. Bo'g'in uchun asos bo'ladi
4. Cho'ziladi
5. Urg'u tushadi
6. Bir unli so'z bo'lishi mumkin
7. Shartli belgisi – V (vokal)

### Undosh


1. To'siqqa uchraydi
2. Ovoz va shovqindan iborat
3. Bo'g'in uchun asos bo'lmaydi
4. Cho'zilmaydi
5. Urg'u tushmaydi
6. Bir undosh so'z bo'lmaydi
7. Shartli belgisi – C (konsonant)

O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishi natijasida hosil bo'ladigan tovushlarga unli tovushlar deyiladi. Ovoz un (un) paychalarining titrashidan bo'g'iz bo'shlig'ida sof ovoz yuzaga keladi. Unlilarni talaffuz qilganda og'iz bo'shlig'i ochiq bo'ladi, asosiy vazifani esa ovoz paychalari, til va lablar bajaradi. Ovoz paychalarining harakati musiqiy ohangni vujudga keltiradi. Shuning uchun unli tovushlarda musiqiylik, ohangdorlik kuchli bo'ladi. Ularni nutq talabiga ko'ra istagancha cho'zib talaffuz etish mumkin.

Tilimizda oltita unli tovush bor: a, o, e, o', u, i.

### Unlilar tasnifi (bo'linishi)

Unlilar uch xil yo'l bilan tasnif qilinadi:



O'zbek adabiy tilidagi unlilarni 3 xil tasnif nuqtayi nazaridan quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. a – til oldi, keng, lablanmagan.
2. o – til orqa, keng (oraliq holatdagi unli).
3. e – til oldi, o'rtta keng, lablanmagan.



4. o' – til orqa, o'rtta keng, lablangan.

5. u – til orqa, tor, lablangan.

6. i – til oldi, tor, lablanmagan.

**1-mashq.** Nuqtalar o'rniga a yoki o harfini qo'yib yozing.

S...mon, t...mosha, m...bodo, mu...mala, d...la, al...qa, bul...q, b...ho, j...hongir, om...n, f...netika, h...mon.

**2-mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli unli tovushlarni qo'ying, so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing va ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

Z...omagazin, mu...llif, ta...mil, mu...vin, ge...log, d...ira, sho...r, j...iz, ma...sh, mu...mmo, ge...metriya, ...ila, d...imo.

**3-mashq.** Nuqtalar o'rniga i, u harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni daftaringizga ko'chiring. Ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

Kund...z, yuld...zcha, tov...q, tut...n, guv...llamoq, qas...r-qus...r, uchq...n, uch...n, kampirqov...n, chur...llamoq, shov...llamoq.

**4-mashq.** So'zlarning qaysi ko'rinishi to'g'ri ekanligini toping va uni daftaringizga yozib oling.

Tuyg'i\ tuyg'u, uyqu\ uyqi, chopqi\ chopqu, qayg'i\ qayg'u, tulki\ tulku, kulgu\ kulgi.

## Qator kelgan unililar talaffuzi va imlosi

O'zbek tilida ikki unlining bir o'rinda kelishi mutlaqo kuzatilmaydi. Bunday so'zlar o'zbek tiliga arab, rus yoki boshqa tillardan o'tgan hisoblanadi. Masalan, doim, maorif, qiroat, mudofaa, taajjub, stadion, geografiya va b.

Adabiy talaffuz va imlo me'yoriga asosan qator unililar oa, ao, ia, ai, io, aa tarzida aytiladi va shunday yoziladi. Qator kelgan unilili so'zlar boshqa tillardan kirib kelganligi tufayli bunday so'zlardagi qator unililarni og'zaki nutqda yo bir cho'ziq unliga aylantirish (masalan, muallimni ma:lim) yoki qator kelgan unililar o'rtasida ayrim undoshlarni qo'shish yo'li bilan tilimizga moslashtirishga harakat qilinadi. Masalan, soat so'zi Farg'onada sohat, Toshkentda sog'at tarzida.

Oid, tabiat, shoir, doir, Said, ukrain kabi so'zlar talaffuzida unililar orasida «y» undoshi qo'shib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi.

## Undoshlar tasnifi



Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqayotgan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi. Buning oqibatida

esa, undosh tovushlarning hosil bo'lishi uchun yetarli shart-sharoit yaratiladi, ba'zi hollarda unga jarang ham qo'shiladi. O'zbek tilida undosh tovushlar 23 ta:

b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng.

Bu undosh tovushlardan bittasi – ng yozuvda maxsus belgilar bilan berilmaydi.

Undosh tovushlar uch tomondan tasnif qilinadi:



### III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

1. Jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, y, g', l, m, n, ng, r.

2. Jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h.

Quyidagi undoshlar jarangli va jarangsiz juftlariga ega. Ular 8 ta:

Jarangli: b, v, d, g, z, j, j, g'

Jarangsiz: p, f, t, k, s, ch, sh, q

Quyidagi jarangli undoshlarning jarangsiz jufti yo'q. Ular 6 ta: y, l, m, n, ng, r

Quyidagi jarangsiz undoshlarning jarangli jufti yo'q. Ular 2 ta: h, x

Shuningdek, ular tarkibiga ko'ra sof va qorishiq, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra sonorlar va shovqinlilar deb ham tasniflanadi. Qorishiq undoshlar: ch, dj. Sonorlar esa beshta: l, m, n, ng, r. Bularning ichidan l yon tovush, r titroq tovush, m, n, ng burun tovushi sanaladi.

## Undoshlar tavsifi jadvali

Hosil bo'lish o'rni	Hosil bo'lish usuli	Ovoz va shovqin ishtirokida
B – lab-lab	portlovchi	jarangli
v – lab-tish	sirg'aluvchi	jarangli
f – lab-tish	sirg'aluvchi	jarangsiz
m –lab-lab	portlovchi	jarangli
g –sayoz til orqa	portlovchi	jarangli
d –til oldi	portlovchi	jarangli
j - til oldi	sirg'aluvchi	jarangli (jurnal)
dj – til oldi	portlovchi (qorishiq)	jarangli (jn'ra)
z – til oldi	sirg'aluvchi	jarangli
y – til o'rti	sirg'aluvchi	jarangli
k – sayoz til orqa	portlovchi	jarangsiz
l – til oldi	sirg'aluvchi	jarangli
n – til oldi	portlovchi	jarangli
ng – sayoz til orqa	portlovchi	jarangli
p – lab-lab	portlovchi	jarangsiz
r – til oldi	sirg'aluvchi (titroq)	jarangli
s – til oldi	sirg'aluvchi	jarangsiz
ch – til oldi	portlovchi (qorishiq)	jarangsiz
q – chuqur til orqa	portlovchi	jarangsiz
g' – chuqur til orqa	sirg'aluvchi	jarangli
x – chuqur til orqa	sirg'aluvchi	jarangsiz
h – bo'g'iz	sirg'aluvchi	jarangsiz
t – til oldi	portlovchi	jarangsiz
sh – til oldi	sirg'aluvchi	jarangsiz


Undoshlar jadvalini yaxshi o'zlashtirish uchun yuzta so'zning fonetik tavsifini yozib chiqish tavsiya etiladi. Masalan, Timur, tuproq, chiroq so'zlari quyidagicha tasniflangan.

<p>T – til oldi; portlovchi; jarangsiz;  u – til orqa; tor; lablangan;  p – lab-lab; portlovchi; jarangsiz;  r – til oldi; titroq; jarangli;  o – til orqa; keng; oraliqdagi unli;  q – chuqur til orqa; portlovchi;  jarangsiz.</p>	<p>Ch – til oldi; qorishiq; jarangsiz;  i – til oldi; tor; lablanmagan;  r – til oldi; titroq; jarangli;  o – til orqa; keng; (oraliqdagi unti);  q – chuqur til orqa; portlovchi;  jarangsiz.</p>
<p>T – til oldi; portlovchi; jarangsiz;  i – til oldi; tor; lablanmagan;  m – lab-lab; portlovchi; jarangli;  u – til orqa; tor; lablangan;  r – til oldi; titroq; jarangli.</p>	

### Undoshlar tasnifiga oid «charxpalak» o'yini


K tovushi bilan boshlanib, k tovushi bilan tugaydigan so'zlar charxpalagi ostida yashirinib yotgan leksik birliklarni topib, ular tarkibida kelayotgan tovushlarni izohlang. Ochqich:

1. Tanlov so'zining ma'nodoshi.
2. Uy parrandalarini saqlash uchun quriladigan kichkina uycha.
3. Bug'doy chiqindisi.
4. Darkor so'zining ma'nodoshi.
5. Tuproq qotishmasi.
6. Ochilmagan paxta.
7. Yordam so'zining ma'nodoshi.



2. M tovushi bilan boshlanib, m tovushi bilan tugaydigan so'zlar charxpalagi ostida yashirinib yotgan leksik birliklarni topib, ular tarkibida kelayotgan tovushlarni izohlang. Ochqich:

1. Zarur so'zining ma'nodoshi.
2. San'at turlaridan biri.
3. Turg'un so'zining ma'nodoshi.
4. Oshqozon dorisi.
5. Z. M. Boburning rafiqasi ismi.
6. Internetga ulanish qurilmasi.
7. Yetsa m..., yetmasa jonim.



**3- mashq.** Nuqtalar o'rniga tegishli undosh tovushni qo'yib, so'zlarni ko'chiring va ularga izoh bering.

Odo..., farzan..., ...arq, mi...bar, ma...sad, ozo..., obo..., to'...son, dori...ona, ayti...keldi, ...alq.

### **Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi**

Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'zlarning ma'nolarini farqlashdir. Masalan, to – tosh, tog', tom, tok, tor, ton kabi.

### **Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi**

So'z oxirida b-p, d-t, z-s singari jarangli va jarangsiz undoshlar o'rtasidagi farq yo'qolib, bir xil – jarangsiz undosh tovush holida talaffuz etiladi, lekin b, d, z yoziladi. Masalan, hob, yod, tuz, avlod, kitob, maktab.

**4-mashq.** Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo'yib, so'zlarni ko'chirib yozing.

Ta...simot, tala..., xursan..., pas..., baro...ar, ...abab, shar...ona, shar...iy, bola...on, il...om, ka...it.

**5-mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli undosh tovushlarni qo'ying, ularning talaffuzi va imlosi o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.

Tala..., dar...chil, nomar..., bar..., makta..., balan..., pas..., i...timoiy, ma...ba, ta...dimot, o'fto..., farzan...

**6-mashq.** Berilgan so'zlarda qavs ichidagi tovushlar juftligidan mos keladiganini qo'yib ko'chiring.

I(z-s)siz yo'qoldi, tu(z-s)ini o'zgartirmoq, ko'(z-s)ini davolamoq, tu(z-s)siz ovqat, \*Mati(z-s) avtomobili, afsu(z-s) qilmoq.

#### ***Bilib oling!***

**B, M undoshlaridan oldin kelgan n undoshining talaffuzi va imlosi**

B,b va M,m harflaridan oldin kelgan n harfi m holida o'qiladi, lekin n yoziladi. Masalan, shanba, yo'llanma, bo'linma, tanbur, Susambil, qo'llanma, o'n bir, tanbal, o'n besh, yonbosh, jonbozlik, yonma-yon, ko'rinmaslik, sunbula.

Topshiriq: tanbur va tambur so'zlarininig farqini tushuntiring. Bu so'zlar ishtirokida gap tuzing.

### **J, j harfi va tovushi**

J,j harfi Jalil, Jamol kabi so'zlarda til oldi, portlovchi, jarangli tovushni ifodalaydi. Jurnal, jirafa kabi so'zlarda esa til oldi, sirg'aluvchi, jarangli tovushni ifodalash uchun qo'llaniladi.

**Topshiriq: quyidagi so'zlardagi j tovushini farqlab, ikki ustun shaklida yozing.**

Jajji, gijda, jurnal, vijdon, Jamila, ajdar, tiraj, Ja'far, Jorj, sajdagoh, jahon, jimjit, jerkib, projector, jumla, jon, Janni Rodari, jargon, janr, janub, jarima, jarroh, javzo, jang, jemper, jentelmen, jeton, jilva, jips, jonon, juft, jo'yak, jo'shqin, jandarm, jadal, janoza, jarayon.

## **X, x va H, h harflari**

X, x harfi q, g' tovushlari bilan bir xil o'rinda, tilning orqa qismida hosil bo'ladigan undosh tovushni ifodalaydi. Masalan, paxta, xatar, shox, no'xat, taxta, baxt, shaxta, sinfxona, xil-xil.

H, h harfi esa, bo'g'izda hosil bo'ladigan undosh tovushni ifodalaydi. Masalan, ogoh, harf, shoh, halol, havaskor, hayvonot, hayot, hil-hil.

**Bilib oling!** I harfidan keyin ko'pincha x harfi yoziladi. Masalan, ixlos, mix, six, ixtiyor, itxilof, ixtiro, ixtisoslik, ixtiyoriy, ixcham.

E harfidan keyin ko'pincha bo'g'iz undoshi keladi. Masalan, eh, ehrom, ehson, ehtimol, ehtirom, ehtiros, ehtiyot, dehqon, eh-ha, eh-he.

**7-mashq.** Nuqtalar o'miga h yoki x harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni yozing va ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

...ullas, osh...ona, ...ayolparast, ...indiston, a...loq, ...ol- a...vol, ...alokat, e...timol, ...ushyorlik, ...atti- ...arakat, ...alqparvar, mu...lis, ...abar, podsho...

**8-mashq.** Quyidagi so'zlarga h yoki x harflarini to'g'ri qo'yib yozing.

(H/X)irotd, mu(h/x)r, (x/h)ato, (h/x)osil, (h/x)alokat, Abdura(h/x)mon, (h/x)azil, (x/h)itob, dara(h/x)t, (x/h)umor, (h/x)amroh.

**9-mashq.** Nuqtalar o'miga x yoki h harflaridan talab qilinganini qo'yib ko'chiring.

1. Kechga borib, No'...atpolvon o'midan turib, u yoq-bu yoqqa pildirab yura boshlabdi. (Mirza Karim) 2. Ogo...lik — davr talabi. 3. Bolalarim, ...alol va ...aromning farqiga boringlar, — derdilar bobom.(Gazetadan) 4. Alifboda 26 ta ...arf va 3 ta ...arflar birikmasi bor. 5. Ro...at kelinoyi cho'pchakka usta, ajoyib gapdon ...otin.

**10-mashq.** Quyida xato berilgan so'zlarni imlo qoidalariga mos ravishda daftaringizga ko'chiring.

Bahil, hasis, xasad, gox-goh, habar, mexnatkash, xovuz, xosil, xuquq, xiylakor, hato, hokkey, ho'roz, habar, xoxish, hushnud, axborot, nikox.

## **F undoshining talaffuzi va imlosi**

F undoshi fil, futbol singari so'zlarda p holida o'qilsa ham, f bilan yoziladi.

Afzal, afg'on kabi so'zlarda f undoshi p yoki v holida o'qilsa ham, f

bilan yoziladi. Masalan, *Dilafruz, foiz, faqir, fasl, fayz, Fotima, fursat, fartuk, futbol*.

**1-mashq.** Quyida berilgan soʻzlarni oʻqing. F tovushining talaffuzi va imlosini izohlang.

Fidoyi, shafqat, xufton, taraf, iftixor, fitobar, daftar, fazo, toifa, urf, faxr, ifoda, jafokash, telegraf, saf, tanaffus, tufli.

**2-mashq.** Berilgan ikki harfdan zarurini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring.

Tara(f-p),	a(v-f)tomobil,	sha(v-f)qat,
O(v-f)qat,	a(v-f)zal,	na(f-p)as,
Inso(f-p),	ka(p-f)tar,	(p-f)aqat,
(p-f)ilik,	har(f-p),	(f-p)joiz

### Ng, ng harflar birikmasi va uning vazifalari

Ng harflar birikmasi bitta til orqa undoshini ifodalaydi. Bu harflar birikmasini ikkita alohida n va g undoshlarini ifodalovchi harflarning yonma-yon kelishidan farqlash lozim. Solishtiring: shudring, koʻngil, dengiz, singil; menga, osmonga, kongress, shtanga.

**13-mashq.** Avval ng undoshi ishtirok etgan soʻzlarni, keyin alohida n va g tovushlari yonma-yon ishtirok etgan soʻzlarni koʻchiring.

Menga, unga, ingramoq, kenglik, mingashmoq, dengiz, tanga, jiringlamoq, koʻngil, alanga, sening, tonggi, tungi, dangasa, singil, jonga.

**14-mashq.** Quyidagi soʻzlar tarkibidagi ng harflarining bir yoki ikki tovush ifodalashiga qarab, ikki ustunga ajratib yozing (si-ngil va sin-gan kabi)

Anglamoq, angor, angishvona, ohang, bugungi, gangimoq, dangal, dangasa, kitobingiz, dinga, dongdor, durang, tajang, koʻringan, lagan, jangovar, jarangli, zang, zangori, ingichka, ingramoq, indinga, keyingi, kengroq, kengaymoq, kengash, kunga, koʻngil, mang, ming, mingan, mungli.

### Sh,sh va Ch,ch harf birikmalari hamda ularning vazifalari

Sh harf birikmasi bitta til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi.

**Eslatma:** S va h yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasida tutuq belgisi qoʻyiladi. Masalan, *asʻhob, Isʻhoq*.

Ch harf birikmasi bitta til oldi, portlovchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi.

**15-mashq.** *sh, ch, ng* undoshlarini oʻz oʻrniga qoʻyib yozib oling.

Be...ik, ...oy, ...u...moma, ...arq...unos, ...er, ...oynak, tara..., soʻ..., ma...lay, qu..., i...on, ...ahar, ta...lay, ke...a..., ra..., do..., ...unki, ...oir, ...iddat, tin..., ...a..., ma...ʻala, ...inni, ...arf, sata..., jara...li, mu...li, i...tiyoq, a.....iq, ke....

## Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi

O'zbek tilidagi qo'sh undoshli so'zlarning asosiy qismi arab va boshqa tillardan o'tgan. Ba'zan qo'sh undoshlardan birining tushirib qoldirilishi so'zning ma'nosiga ta'sir qiladi: tilla-tila, qattiq-qatiq, ellar-ellar, medalli-medali kabilar.

Tarkibida yonma-yon bir xil undoshlar kelgan so'zlar qo'sh undoshli so'zlardir.

*Katta, hamma* kabi so'zlarda qo'sh undosh qismlari aniq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

*Million, artilleriya* kabi so'zlarda kelgan qo'sh undoshlar bir undoshdek talaffuz etiladi, lekin qo'sh undosh bilan yoziladi.

*Gramm, metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham ikki harf yoziladi, lekin bunday so'zda xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi.

Masalan, metall+lar=metallar, kilogram+mi=kilogrammi, kongress+si=kongressi.

**15-mashq.** Berilgan so'zlar tarkibidagi qo'sh undoshlardan birini tushiring. Ma'noda qanday o'zgarish ro'y berganini ayting.

Ushshoq, yalla, qattiq, tilla, chinni, yo'lla, silla

## Tutuq belgisining ishlatilishi

1. Tutuq belgisi a'lo, Ra'no, ba'zan, ma'yus, ta'zim, ra'y, e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l, Nu'mon, shu'la kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin kelib, uning cho'ziqroq aytilishini ifodalaydi.

2. San'at, in'om, qat'iy, mas'ul, sur'at, qal'a singari o'zlashma so'zlarda tutuq belgisi unidan oldin qo'yiladi va unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi.

3. S va h yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasida tutuq belgisi qo'yiladi. Masalan, Is'hoq, as'hob.

4. Mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziq talaffuz qilinsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi.

**16-mashq.** Quyidagi she'riy parchadagi tegishli so'zlarga tutuq belgisini qo'yib ko'chiring.

Shaklim mitti vergul go'yo,  
Mano, Rano men-la ro'yo.  
Kaba, qala, vada, surat  
Meyor-u etibor, jurat  
Davat, talat, suniy, sanat  
Mensiz yozilmasdir, albat.  
Etiroz-u, elon, ezoz  
Hamisha men bilan hamroz.



**Topshiriq.** 10 ta tutuq belgisi qo'llangan so'zli gaplar tuzing.

Mashq. Berilgan juftlikdagi so'zlarning ma'nosini izohlab, farqini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

San'at — sanat

sur'at — surat

qal'a — qala

She'r — sher

sa'va — sava

ta'na — tana

**Topshiriq:**

1. Tutuq belgisi qo'yilishi bilan ma'nosi o'zgaruvchi so'zlar toping.

Alam, davo, nasha, sanat, surat, etibor, tana, tasir-tusur, taqib, sher, sava, qala, davosiz, qada...

Namuna: Ayon-a'yon.

## **Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi**

O'zbekcha so'zlarning fonetik tuzilishidagi o'ziga xoslik shundaki, so'zning boshida ketma-ket ikki undosh bir joyda kelmaydi. Shuningdek, so'zning oxirida ham *st* (*ost, ust*), *lt* (*yilt, milt*), *rt* (*to'rt, turt, qurt*) kabi qator undoshlardan tashqari boshqa undoshlar yonma-yon kelmaydi.

*Traktor, stakon, stol* kabi so'z boshida qator undosh kelgan so'zlar ovro'pa tillaridan kirib kelgan so'zlardir.

So'z oxirida qator undosh kelgan *go'sht, musht, daraxt, barg, baxt* kabi so'zlar esa, asosan, fors-tojik tilidan o'tgan.

Bir bo'g'inida yonma-yon ikki xil undosh kelgan so'zlar qator undoshli so'zlardir. So'z boshidagi qator undoshlar o'rtasiga yoki oldiga bir qisqa unli qo'shib talaffuz qilinsa ham bu qisqa unli yozilmaydi. *Go'sht, do'st, barg* kabi so'z oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda ifodalanadi. Paxta, nimcha, o'simlik so'zlarida ham yonma-yon kelgan ikki undosh bor, lekin bu undoshlar bir bo'g'inda bo'lmaganligi uchun qator kelgan undoshlar hisoblanmaydi.

**Mashq.** Qator undoshlar kelgan so'zlarni ajratib, daftaringizga ko'churing.

Hikmat, pand-nasihat, maslahat, baxt, do'stlik, g'isht, tabassum, farzand, foyda, qirq, to'xtamoq, broker, kompyuter, o'rtoq, stul, ulkan.

## **Tovush o'zgarishlari**

***Bilib oling!***

Talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli nutq jarayonida tovushlar zanjirida turli fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi fonetik hodisalar deyiladi. Fonetik hodisalar unli'larga ham, undoshlarga ham taalluqlidir. Tovush o'zgarishlarini ikkiga bo'lib o'rganamiz. Faqat og'zaki nutqda kuzatiladigan, og'zaki va yozma nutqda uchraydigan.

## Og'zaki nutqda kuzatiladigan tovush o'zgarishlari

**Assimilatsiya** – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishi. Assimilatsiya ikki xil bo'ladi:

**Progressiv assimilatsiya** – oldingi tovushning ta'sirida keyingi tovushning o'zgarishi: ottan (otdan), aydi (aytti), ketdi (ketti), sotdi (sotti), otgan (otkan)

**Regressiv assimilatsiya** – keyingi tovushning ta'sirida oldingi tovushning o'zgarishi: tuzsiz (tussiz), yozsin (yossin), tanbur (tambur), sunray (sunnay), karnay (kannay), mahkam (makkam)

**Dissimilatsiya** – ikki xil o'xshash tovushning ta'sirida noo'xshash tovushga aylanishi. Dissimilatsiya ikki xil bo'ladi:

**Progressiv dissimilatsiya** – oldingi tovushning ta'sirida keyingi tovush o'zgaradi: zarar (zaral), saldat (sallot), zarur (zaril)

**Regressiv dissimilatsiya** – keyingi tovushning ta'sirida oldingi tovushning o'zgarishi: uchta (ushta), maqtanchoq (maxtanchoq).

**Metateza** – yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o'rin almashishi: sayram (saryam), daryo (dayro), tuproq (turpoq), saryog' (sayroq), supra (surpa)

**Tovush orttirilishi** – so'zning boshi, o'rtasi yoki oxirida biror tovushning qo'shilishi: istakan (stakan), ilim (ilm), fikir (fikir), banka (bank), tanka (tank).

**Tovush tushishi** – so'z tarkibidagi biror tovushning tushib qolishi: bo'sa (bo'lsa), do's (do'st), darax (daraxt).

**Singarmonizm (ohangdoshlik)** – unlilarning uyg'unlashuvi: Muqimiy (Muqumiy), uchinchi (uchunchi), Guliston (Guluston), tug'ildi (tug'uldi)

**Yozuvda aks etadigan tovush o'zgarishlarining, asosan, 2 xili kuzatiladi:** So'z yasalishi va turlanishi bilan bog'liq.

O'zgarish turi	Tovush turi	Tovushlar	Misollar
Tovush almashishi	Unlilar	o- a, a- o, i- u	son-sana, sayla-saylov, sovi-sovuq
	Undoshlar	k-g, q-g'	bilak-bilagi, yutuq- yutug'i
Tovush tushishi	Unlilar	a, i, u	shahar- shahri, qorin-qorni, burun-burni
	Undoshlar	n, t	men- mening, men-meniki, past- pasay, sust-susay
Tovush orttirilishi	Undoshlar	n, y	u+ ga= unga, o' shanga obro'+ im = obro'yim

### Tovush orttirilishi

1. U, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi:

unda, bunday, shunda, o'shanча kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: buningiz, o'shanisi kabi;

2. O, o', u, e unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

Parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo, xudo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzusi kabi

a) orzu so'ziga egalik qo'shimchasi qo'shilganda talaffuzda tovush orttirilishiga qaramay, yozuvda tovush orttirilishi qayd etilmaydi: orzum, orzung, orzusi, orzumiz, orzungiz, orzulari kabi

b) achchiq- achi+q-ch – orttirilgan

Sassiq – sasi + q - s – orttirilgan

Issiq – isi + q - s – orttirilgan.

## Q, g', k undoshi bilan tugagan so'zlarda qo'shimchalarning qo'shilishi va ularning imlosi

tog'		tog'ga
bog'	+ga=	bog'ga
qishloq		qishloqqa
terak		terakka

Q undoshi bilan tugagan o'zakka jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) qo'shilganda, bu qo'shimcha -qa tarzida aytiladi va shunday yoziladi. Masalan, qaymoqqa, toshloqqa kabi.

Xuddi shunday o'zaklarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zak oxiridagi q undoshi g' ga aylanadi va shunday yoziladi: bulog'i, qishlog'i kabi.

G' undoshi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) qo'shilganda o'zak va qo'shimcha qanday aytilishidan qat'iy nazar o'zgarmaydi: bug'ga, bog'ga kabi.

## Tovush o'zgarishlari bo'yicha ayrim izohlar

1. Yarmisi – yarim+i+si – bu so'zda i tovushi tushib qoldi.

2. Sanog'imga- son+a+q'im+ga – bu so'zda o tovushi a ga (son-sana), a tovushi o ga (sana-sanoq), q tovushi g' ga (sanoq-sanog'im) almashadi, ya'ni 3 ta tovush almashinishi hodisasi yuz beradi.

3. Qayrog'ing – qayra+q'ing – bu so'zda a tovushi o ga (qayra-qayroq), q tovushi g' ga ( qayroq-qayrog'ing) almashgan, ya'ni 2 ta tovush almashinishi yuz bergan.

4. Atalgan – ot+a+!+gan – bu soʻzda o tovushi a ga (ot-ata) almashgan.

5. Yashovchan – yosh+a+v+chan – bu soʻzda o tovushi a ga ( yosh-yasha), a tovushi o ga ( yasha-yashov) almashgan, yaʼni 2 ta tovush almashinishi yuz bergan.

6. Boʻyogʻim – boʻya+q+im – bu soʻzda a tovushi o ga (boʻya-boʻyoq), q tovushi gʻga (boʻyoq-boʻyogʻim) almashgan, yaʼni 2 ta tovush almashinishi hodisasi yuz bergan.

Quyida berilgan soʻzlarning tovush oʻzgarishlarini aniqlang. Buning uchun uch narsaga eʼtiborni qarating:

1. Soʻzning asosini aniqlang.

2. Soʻzni maʼnoli qismlarga, yaʼni morfemalarga ajrating.

3. Soʻzda qanday tovush oʻzgarishi boʻlayotganligini aniqlang.

Bulogʻi, tarogʻim, soʻrogʻim, qiyna, qiynoq, qiynogʻi, atoqli, shahrimiz, koʻnglingiz, yashamoq, sayroqi, tilagim, kechagi, undan, bunday, ekkani, tomogʻi, soʻroqsiz, pasaydi, susaymoq, sovuqning, qizarmoq, oʻynoqi, yigʻla, yashar, ekanligini, unga, shahringiz, oshigʻing, ayrim, ayril, xabardorligimni, buyrugʻingiz, sening, seni, seniki, meniki, mening, oʻshanga, quvnoq, sanoq, yuragim, oʻrnat, yigʻloqi, ekkuncha, bitta, obroʻyim, dumalogʻi, boʻgʻirsogʻim, singlimning, ikkala, oʻgʻli, ulgʻayib, oʻrnidan, bagʻrida, chanqoq, guvullashi, yigʻladimi, anglay, qornimga, saylovchi, bolaligim, teragim, terakka, porloq, yashayotgan, ogʻzaki, boʻynim, boʻgʻzimga, choʻzarkan, kichkinagina, oʻtkir, tuproqqa, falakka, ikkovlariga, churullamoq, ishlov, saylovchi, borligʻimni, sargʻaygan, sarigʻi, toʻquv, oʻquv, buloqqa, ogʻzida, tanlov, qoʻyni.

**Topshiriq: 1.** Quyidagi gaplardan tovush oʻzgarishiga uchragan soʻzlarni topib, izohlang.

1. Sening moʻjaz yuraging moʻjizalarga toʻla ekanligini birinchi bor uchratganimdayoq anglagan, his qilgan edim.

2. Uning jussasi kichkina boʻlsa ham, koʻzlari chaqnoq, qarashlari oʻtkir, istarasi issiq, ovozi esa jarangdor edi.

3. Uning chaqnoq koʻzlari, siyrak qoshi, oʻychan turishi katta bardoshi, sadoqatini aks ettirib turardi.

4. Qomimga emas, qadrimga yigʻlayman.

5. Urugʻ aralashib avval tuproqqa

Soʻngra boʻy choʻzarkan osmon-falakka.

1-mashq. Gaplarni oʻqing. Qoʻshimchalar tarkibida sodir boʻlayotgan tovush oʻzgarishlarini belgilang.

Inson oʻz umrining hisobli ekanligini hamisha kech anglaydi. Joʻjani kuzda sanaydilar. Gulla-yashna, mustaqil Oʻzbekiston! Respublikamiz iqtisodiyoti oʻz taraqqiyotining eng qiyin bosqichlarini ortda qoldirib, bugungi kunda yangicha takomil bosqichiga chiqib oldi. Mamlakatimizda mana bir necha yildirki, saylovlar muqobilik asosida oʻtkazilmoqda. Salimjon

qilgan ishidan uyalib, qizarib ketdi. Davr qiynoqlari o'tkinchi — hali hamma narsa oldinda... Kuz kelishi bilan daraxtlarning barglari sarg'ayib, oltin rangini ola boshladi. Radiodan o'ynoqi musiqa yangradi.

**2-mashq.** Quyidagi so'zlarni o'qing, ularning ichidan qaysi birlarida tovush o'zgarishlari sodir bo'layotganini belgilang.

Ozaymoq, ko'paymoq, qizarmoq, bo'zarmoq, pasaymoq, susaymoq, sayramoq, yig'loqi, dumaloq, toshloq, pishloq, qishloq, boshla, ishla, tashla, angla, sana, jo'na, uxla, qiyma, qiyna, gapir, chaqir, tinchi, qaromoq, yashar.


**3-mashq.** Quyida berilgan so'zlarning shakllanishida qanday tovush o'zgarishlari sodir bo'lganligini aniqlang.

Ayrim, bo'yni, buyrug'i, kuragi, ata, bilagi, o'g'li, sarg'aymoq, qaynoq, chanqoqni, susaymoq, chanqog'i, o'yna, sening, mening, yamoq, yig'loq, maqtov, etigi, saylov, ikkala, shahri, bo'yoq, yiqqan, o'quv, yasha, o'lchov, tekkan, sochig'i, sovuq.

## BO'G'IN

Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar yig'indisi bo'g'in deyiladi.

Bo'g'in — so'zlarning talaffuzida havo oqimining bo'linishidir. Bo'g'in unli tovushlar asosida hosil bo'ladi. Har bir bo'g'inda unli qatnashadi, shuning uchun so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. So'zning o'zak va qo'shimchalarga ajralishi bilan bo'g'inlarga ajralishi teng emas. Masalan, fikr + ni, hukm + ga so'zlarida o'zak va qo'shimchalar bilan bo'g'inlar teng kelayotgan bo'lsa, fik +ri, huk +mi so'zlari teng emas.



Bo'g'in ko'chirish va bo'g'in ajratish aynan bir hodisa emas. Bo'g'in ajratilayotganda unli soni hisobga olinadi, bo'g'in ko'chirish esa, qoida asosida bo'ladi.

**Eslatma:**



O'zbek tilida bo'g'inlarning quyidagi turlari bor:

1. Faqat bir unli iborat bo'g'in: o-dob, a-sab, o-goh, i-roq...
2. Bir unli va bir undoshdan iborat bo'g'in: ish, do-na, shi-fo-xo-na..
3. Bir unli va ikki undoshdan iborat bo'g'in: arz, afv, bar-moq, ko'r-sat-moq...
4. Bir unli va uch undoshdan iborat bo'g'in: hukm, xavf, kross-vord, xayr-lash-moq
5. Bir unli va to'rt undoshdan iborat bo'g'in: trans-port, si-lindr, tekst, punkt...

*Savod chiqarishda va yozuvda bo'g'in juda katta amaliy ahamiyatga ega.*

### Bo'g'in ko'chirish qoidalari

1. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, keyingi satrga ko'chirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy.*

2. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

a) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi:

*dia-gramma, mono-grafiya, foto-grafiya.*

b) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik, kon-gress;*

3. bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, mai-shat, pi-choq, si-ngil, ko'-ngil, de-ngiz, ota-ngiz:*

a) ng tovushi ikki unli o'rtasida kelganda ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi va bir satrdan boshqasiga shunday ko'chiriladi: *opa-ngiz, ya-ngi, si-ngil, ko'-ngil, de-ngiz;*

b) agar ng tovushidan so'ng undosh kelgan bo'lsa, ng tovushi birinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi: *sing-lim, teng-qur, ang-lagan.*

4. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, O'zMU, 245, 2005, XIX.*

5. Harflardan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5-«A» sinf, 8-«B» guruhi, 25 sm.*

6. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajralgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *«Navro 'z-92» (festival), «Foton-774» (televizor).*

7. A. J. Jabborov, A. D. Abdullayev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v. b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

## Bo'g'inning ahamiyati

1. Birinchi sinf o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatish bo'g'inga asoslanadi.

2. Yozuvda bir satrga sig'may qolgan so'z keyingi satrga bo'g'in asosida ko'chiriladi.

3. She'riy misralarda bo'g'inlar sonining teng bo'lishi e'tiborga olinadi. (Mas: barmoq vaznida)

1-mashq. Daftaringizga avval bir bo'g'inli, so'ngra ikki, uch, to'rt bo'g'inli so'zlarni ko'chirib yozing.

Sholi, qand, jonbaxsh, sinf, jimirlamoq, laylak, amalparast, dard, lazzat, bog', suvsizlik, a'lochi, qoloqlik, jimjimador, hashamatli.

2-mashq. Avval faqat ochiq bo'g'inli, keyin faqat yopiq bo'g'inli so'zlarni ajrating, farqini tushuntiring.

Latifa, g'alaba, san'at, sardor, qizg'in, kema, hujjat, uka, avj, a'lo.

3-mashq. So'zlar tarkibidan tushirib qoldirilgan bo'g'inlarni tiklang, ularga izoh bering.

Ada...yot, an...qa, ar...mas, be...noh, ...jayra, hoki...yat, mas'u...yat, namu..., sez...moq, yangi...moq, za...vat.

4-mashq. Bo'g'in ko'chirish qoidalarini buzilgan o'rinlarni topib izohlang. Ularni to'g'rilab daftaringizga ko'chirib yozing.

A-ka-de-mik, a-ri-za, o-i-la-viy, o-lam, o-ri-yat-li, mu-do-fa-a, to-le-i, zo-o-park, mu-o-ma-la, e-lak, e-shit-moq.

5-mashq. O'quvchilar hayotidan olingan quyidagi qatralarni o'qing. So'zlarni bo'g'inlarga ajratib ko'chiring.

– Menga ruchkangizni berib tursangiz, – deb iltimos qildi singil akasidan.

– Nega o'zingniki bilan yozmayapsan? – deb so'radi akasi.

– Meniki ko'p xato qilyapti, – deb javob berdi singlisi.

\* \* \*

O'qituvchi o'quvchidan so'radi:

– O'g'irlamoq fe'li o'tgan zamonda qanday tuslanadi?

– O'g'irladi.

– Kelasi zamonda-chi?

– Qamoqda...

6-mashq. Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratib ko'chiring.

Harf, shogird, manba, sunbul, tinglamoq, ko'ngil, qalb, singil, jingalak, dekabr, kiosk, teleks, faks, mustaqillik, xushchaqchaqlik, ma'ruza, jahl, albom, mudofaa, taassurot.

## Topshiriqlar

### 1. Qo'sh undoshli so'zlarga misollar keltiring

Namuna:

arra  
alla

patta  
bitta

yakka  
hassa

2. Teskari o'qilganda ham mazmuni o'zgar olmaydigan so'zlar toping. Topgan so'zlaringiz ishtirokida so'z birikmalari hosil qiling. Gap tuzing.

Namuna: 1) alla, bob, kiyik, arra

2) ...allaning og'ushida...

3) Chaqaloq ona allasining mayin og'ushida beozorgina pishillab uxlardi

3. Matnni o'qing. So'zlarni bo'g'inlarga ajratib va turlarini ayting.

Navoiyning butun oila, qarindosh-urug'lari Boyqaro tarafida bo'lganligi ma'lum. Navoiy Xurosonda ilm-fan, san'at va adabiyot rivojini ta'minlamoq, osoyishta hayot barpo etmoq uchun adolatli va kuchli hukmdor bo'lishi kerak deb hisoblardi. U Husayn Boyqaroni ana shunday hukmdor bo'ladi, deb ishonar edi. Husaynning shoirlilik iste'dodi, ular o'rtasidagi bolalik yillaridan boshlangan do'stlik bu ishonchni yanada mustahkamlar edi. Shuning uchun Navoiy o'z siyosiy faoliyatining boshidanoq, Husayn Boyqaro tarafida bo'ldi va bu mavqeda hayotining oxirgi daqiqasigacha qoldi.

4. Bo'g'inlarning tovush tarkibiga e'tibor bering.

*Topshiriq: 1) Bir bo'g'inli so'zlarga misollar to'plang.*

2) Bir unli va ikki undoshdan iborat bo'g'inli so'zlarga misollar to'plang.

3) Bir unli va uch undoshdan iborat bo'g'inli so'zlarga misollar to'plang.

4) Bir unli va to'rt undoshdan iborat bo'g'inli so'zlarga misollar to'plang.

5. Yopiq bog'inlardan biri unli va faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so'zlarni alohida ajratib yozing.

Balandparvoz, mehnat, botir, maktab, temir, g'alla, toshloq, kitob, po'lat, balki, paxta, allakim, anglamoq, alanglamoq, dilxiroj, yonbag'ir, zamonaviy, kartoshkagul, olqish, payvand, shijoatkorona, o'zbilarmon, qalampirmunchoq.

## Talaffuz va obang

Og'zaki nutq oqimi bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat. Bunday bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi. Lekin og'zaki nutqimiz faqat segment birliklardangina tashkil topmaydi. Bulardan tashqari, ketma-ket joylashgan va bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori ustiga qo'yilgan ustsegment birliklarga ham ega bo'ladi va bu birliklar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Ustsegment birliklar urg'u, to'xtam (pauza), nutqning emotsional bo'yog'i




(darak, so'roq, buyruq, his-hayajon) kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqorida ko'rsatilgan ustsegment birliklarning jami nutq ohangini tashkil etadi.

Og'zaki nutqimiz esa segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o'zaro munosabatidan iborat bo'ladi. Ko'pincha bunga imo-ishoralar, mimikalar qo'shilib, nutqimizni yana ham ta'sirli, bo'yoqdor qilishga xizmat qiladi.

## URG'U

So'z tarkibidagi biror bo'g'in yoki gapdagi biror so'z talaffuzda ajratib, urg'u berib zarb bilan aytiladi.



Gapdagi biror so'zni ta'kidlab, ajratib aytilishi ma'no (logik, mantiqiy) urg'u deyiladi.

Masalan, *Men oliygohga kirmoqchiman*. Mantiqiy urg'u oigan bo'lak har doim kesim oldida bo'ladi. Agar kesim mantiqiy urg'u olsa, gap boshiga chiqariladi. Masalan, *Yashasin tinchlik!*

So'zda biror bo'g'inni ta'kidlab aytilishi so'z urg'usi (leksik urg'u) deyiladi.

So'z urg'usi odatda so'zning oxirgi bo'g'inidagi unliga tushadi. Agar so'z biror yasovchi, turlovchi (kelishik qo'shimchasi), tuslovchi (shaxs-son qo'shimchasi) ni qabul qilsa, urg'u ham odatda oxirgi qo'shimchaga ko'chadi. Shunga ko'ra o'zbek tilidagi urg'u ko'chib yuruvchi urg'u hisoblanadi. Masalan, makta'b, maktabla'r, maktablarga`. Biroq har doim ham bu qoida saqlanmaydi. Ko'rinadiki, urg'u so'zni gap tarkibida boshqa so'zdan ajratish hamda so'z fonetik tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi. O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega. Bu urg'uning o'sha tillardagi ahamiyati bilan bog'liq. Masalan, tadbir, monitoring, reklama, tijorat, ma'lum, bahor va hakoza.

Quyidagi hollarda urg'uning o'rni o'zgaradi:

1. Arab va tojik tilidan o'tgan so'zlarda: ho'zir, a'slo, do'im, ya'ngi...
2. Modal so'zlarda: ze'ro, afsu'ski, alba'tta.
3. Ba'zi yordamchi so'zlarda: ba'zan, le'kin.
4. Olmoshlarda: qa'ysi, qa'ncha, ha'mma, ba'rcha, a'llakim, ki'mdir, ha'r kim, he'ch nima.
5. Fe'lning buyruq shaklida: ke'lsin, ke'ltir, te'gma kabi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydi.
6. Tarkibli so'nlarda: o'n besh, yigirma uch

7. Qo'shma yoki ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida: sotib oldi, yozib oldi, berib yubordi

8. Takror so'zlarda: ka'tta-katta, a'sta-asta

**Eslatma:**

Juft so'zlarda urg'u so'zning oxirida bo'ladi: ota-ona', bola-chaqa'

O'zbek tilida ayrim qo'shimchalar urg'u olmaydi. Ular quyidagilar:

1. Birinchi guruh shaxs-son qo'shimchalari: **-man, -miz, -siz:** biz o'quvchimiz.

2. Dona va chama son yasovchi qo'shimchalar: **-ta, -tacha.** Mas, o'ntacha, yigirma'ta.

3. Ravish yasovchi qo'shimcha: **-cha, -dek, -day, -la'rcha:** o'zi'cha, olti'nday.

4. Fe'lning bo'lishsiz shakli: **-ma:** olma' (ot)- o'lma (fe'l), qaynatma' (sifat) – qayna'tma (fe'l).

5. Yuklamalar: **-mi, -chi, -ku, -da, -a, -ya, -u, -yu, -gina, -oq, -yoq:** qi'zgina.

6. Sof ko'makchilar urg'u olmaydi: kabi, singari, uchun; (bunda urg'u ko'makchi bog'lanib kelgan oldingi mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: qal'am bilan)

7. Familiya yasovchi qo'shimchalar: **-ov, -ova, -yev, -yeva.**

### So'z urg'usining abamiyati

1. So'zni to'g'ri talaffuz qilishda yordam beradi.

2. So'z ma'nolarini farqlashda yordam beradi.

3. So'z shaklini farqlashda yordam beradi.

### Urg'u ma'no farqlaydigan so'zlar lug'ati

Suzma' (ot)	su'zma (fe'l)
Surma' (ot)	su'rma (fe'l)
Atla's (ot)	a'tlas (ot) xarita
Olma' (ot)	o'lma (fe'l)
Fi'zik (ot)	fizi'k (sifat)
Yangi' (sifat)	ya'ngi (ravish)
Yigitcha' (ot)	yigi'tcha (ravish)
Qishloqcha' (ot)	qishlo'qcha (ravish)
Qizgina' (ot)	qi'zgina (yuklama-chegara)
Qushcha' (ot)	qu'shcha (ravish)
Bosma' (ot)	bo'sma (fe'l)
Ho'zir (shu yerda edi)	hozi'r (davrada hozir bo'ldi)
Gramma'tik (ot)	grammati'k (sifat)
Ishla'r (ot)	i'shlar (fe'l)

Bog'la`r (ot)	bo`g'lar (fe'l)
Qo'lla`r (ot)	qo'`llar (fe'l)
Sizsi`z (sifat)	si`zsiz (shaxs-son qo'shimchasi)
Eti`k (ot; oyoq kiyim)	e`tik (axloqiy)
Mexa`nik (ot)	mexani`k (sifat)
Tugma` (ot)	tu`gma (fe'l)
So`zla`r (ot)	so`zlar (fe'l)
Ko`zla`r (ot)	ko`zlar (fe'l)
Chog'la`r (ot)	cho`g'lar (fe'l)

1. Quyidagi urg'u ma'no farqlaydigan so'zlarning ma'nolarini izohlang, gap tuzing.

*Namuna:* Bozordan suzma sotib oldim. Sen sovuq suvda suzma.

orga`nik (ot, mutaxassis) – organi`k (sifat)

banda` (ot) – ba`nda (ot, to`da)

moda` (sifat, makiyon) – mo`da (ot, did)

boti`n (ot, ichki) – bo`tin (fe'l)

ishchi` (ot) – i`shchi (yuklama)

to`za (sifat) – toza` (ravish)

akade`mik (ot) – akademi`k (sifat)

kla`ssik (ot) – klassi`k (sifat)

changi` (ot, egalik qo'shimchasi) – cha`ngi (fe'l)

oti`ng (ot, egalik) – o`ting (fe'l)

otami`z (ot, egalik) – ota`miz (fe'l)

o`quvchimi`z (ot, egalik) – o`quvchi`miz (shaxs-son)

soya` (ot) – so`ya (ot, o`simlik)

qatlama` (ot) – qatla`ma (fe'l)

li`rik (ot) – liri`k (sifat)

2. Keltirilgan so'zlarning talaffuziga e'tibor bering. Urg'uning o'zgarishi bilan ma'noda farqlanadigan so'zlarni ajratib yozing va shular asosida gaplar tuzing.

Tortma, prozaik, moslama, tok, etik, tort, ishchi, bolada, qo'lla, xiyla, belcha, beshala, organ, botir, burun, o'ylar, qizcha, bolagina, mexanik, texnik, olma, gulsiz, atlas, kesma, tugma, matematik...

3. Quyidagi so'zlarning urg'usini qo'yib ko'chirib yozing. So'ng ularning talaffuziga e'tibor bering.

Qachondir, zakovat, yozamiz, do'stlarcha, yuzta, fidokor, hammamiz, hech qanday, har bir, o'qish, o'qishing, o'qishimiz, o'qishimizda.

4. Gaplarni bir-biriga solishtiring. So'z ma'nolarining urg'uga ko'ra farqlanayotganiga diqqat qiling.

1. Chin inson bironva yaxshilik ko'zlar. Ko'zlar inson qalbining oynasidir.

2. Bog'lar yil sayin ko'payib bormoqda. Balki endi arqonni mahkamroq

bog'lar. 3. O'zbek qizlariga atlas ko'ylak juda yarashadi. Geografiya o'qituvchimiz darsga atlas olib kirdi.

5. Quyidagi so'zlar urg'usini qo'ying.

Pillakor, tantana, mamlakatimiz, daryolarga, sog'lomlashtirish, ajodlar, temuriylar, musobaqa, ko'kalamzorlashtirish.

6. Urg'usi oxirgi bo'g'inga tushmagan so'zlarni ko'chirib yozing.

Qizaloq, lekin, binokor, hamma, yoqimli, keldi, ruchka, gazeta, piyola, olma, temirchi, respublika.

7. Quyida keltirilgan gaplardagi tagiga chizilgan so'zlarning urg'usini qo'yib ko'chiring.

1. Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi.

2. Texnik ishlar shuncha ko'payib ketdiki, bosh qashishga vaqt yo'q.

3. Masal, asosan, epik asar turlaridan bo'lib, unda kishilar xarakteriga xos xususiyatlar hayvonlar va o'simliklarga ko'chiriladi.

4. Ey hurmatli, arzimni bir tinglasalar,

Mening hech bir gunchim yo'q.

Menga g'azab qilmasalar.

5. Olma eksa bog'iga har kim,

Mehmoniga ol, ye, demasmi?

«Olma» mening mehmondo'st xalqim

Odatiga yot so'z emasmi?

6. Qani, ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?

Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim?

Nechun kerak rubob, senga shuncha g'am?

7. Jahonda ikki dilbarning biri sensan, biri Laylo,

Jahonda ikki oshiqning biri menman, biri Mainun.

8. Quyidagi so'zlarning qaysi bo'g'iniga urg'u tushayotganligiga diqqat qiling, ularning talaffuzidagi o'ziga xosliklarga e'tibor bering.

Ziyoli, mustamlakachilik, mansabparast, korxonona, brokerlik, anjuman, telefaks, iqtisodiy, anhor, moviylik, o'zbiarmonchilik, vatanparvar, yaltiroq, huzurbaxsh, nashriyot, mag'lubiyat, qardoshlarcha.

**Topshiriqlar:**

1. Bitta fonemasiga ko'ra farq qiladigan so'zlar qatorini aniqlang va qatorni o'zingiz ham davom ettiring.

Ko'z, pona, fin, tong, to'ra, tolmoq, botmoq, ber, bayt, bo'z, sotmoq, xona, tin, bong, solmoq, so'ra, so'z, ko'ra, to'lmoq, jo'ra, shira, sora, so'na, totmoq, to'z, ter, qo'ra, din, to'n, qir, sir, six, kun, poda, shona, qiz, xoda, ko'l, chiz, bo'y, tez, cho'z, tur, sher, bormoq, sochmoq, qotmoq, chin, dong, sin, tonmoq, so'ri, xo'ra, qin, xola, g'o'ra, qayt, shoda, qara, ko'r, tiz, to'r, tor, shar, qolmoq, payt.

2. Nuqtalar o'rniga unli fonemalarni qo'yib so'zlar hosil qiling va ma'nolarini izohlang.

B...l, b...r, b...t, b...y, d...l, d...r, d...b, d...n, d...ng, j...l, j...r, j...m, j...z, z...l, z...ch, y...l, y...q, t...l, t...r, t...z, f...l, f...n, x...l, x...n, ch...l, ch...p, ch...k, ch...y, l...y, m...y, p...y, t...y, q...r, q...p, g'...r.

3. Tarkibi unli va faqat jarangli undoshlardagina hosil bo'lgan so'zlarni ajratib yozing.

Maydon, dor, gul, arzon, ariza, armiya, bayram, barometr, volida, vodiy, yengil, yetmish, jigarband, jiringlamoq, ig'vogar, yilqichilik, maktab, sabab, tovush, karnaygul, majnuntol, maymunjon, g'arbiy.

**Topshiriq.** Nutqning fonetik bo'linishi bo'yicha tahlil.

Har bir gap tarkibida nechta sintagma (takt), so'z, bo'g'in va tovushlar borligini aniqlang.

**Namuna:** Eng buyuk jihat: insonning nafi bilan: shayton bilan qilgan: jihodidir: Sen ham: doim: ularga qarshi kurash.

Izoh: sintagmalardan so'ng ikki nuqta qo'yilgan.

Bu gap 7 ta sintagma (takt) dan iborat bo'lib, 16 ta so'zga, so'zlar esa, 33 ta bo'g'in va 82 ta tovushga bo'linadi.

1. Haq do'stlaring ko'ngillarini aslo ranjitma. Xafa qilsang, dushmanlaringning orzularini bajargan bo'lasan. Natijada, azoblarga qolasan.

2. Ey inson, bilmaganingni hamisha so'ra. Olimning yonidan ayrilma. Undan olgan fayz ila atrofni munavvar ayla.

3. Yolg'iz qolishing yomon odamlar bilan birga bo'lishingdan yaxshiroqdir. Buni uqib ol. Yomon odamlardan hamisha uzoq yur.

4. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi.

5. Yomonliklardan yiroq yurmoqchi bo'lsang, tilingga ehtiyot bo'l. Yo yaxshi gaplardan gapir, yoxud sukut saqla.

## Fonetika bo'yicha test topshiriqlari

### I-variant

1. Shovulladi tun bo'yi shamol,

Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

«Yana keldi do'stinam, bahor». (A. Oripov) Ushbu parchadagi ochiq va yopiq bo'g'inlar soni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. 10 ta ochiq, 12 ta yopiq bo'g'inli

B. 6 ta ochiq, 9 ta yopiq bo'g'inli

C. 18 ta ochiq, 18 ta yopiq bo'g'inli

D. 14 ta ochiq, 12 ta yopiq bo'g'inli

2. Shovulladi tun bo'yi shamol,  
Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.  
Shivirlading yonimda xushhol:  
«Yana keldi do'stginam, bahor». (A. Oripov) Ushbu parchada sonorlar sonini aniqlang.

A. 5 ta      B. 6 ta      C. 8 ta      D. 4 ta

3. Shovulladi tun bo'yi shamol,  
Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.  
Shivirlading yonimda xushhol:  
«Yana keldi, do'stginam bahor». (A. Oripov) Ushbu parchada lab undoshlari bilan boshlanuvchi bo'g'inlar sonini aniqlang.

A. 24 ta      B. 22 ta      C. 25 ta D. 23 ta

4. Shovulladi tun bo'yi shamol,  
Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.  
Shivirlading yonimda xushhol:  
«Yana keldi do'stginam bahor». (A. Oripov) Ushbu parchada lab undoshlari bilan boshlanuvchi yopiq bo'g'inlar sonini aniqlang.

A. 3 ta      B. 4 ta      C. 6 ta      D. 2 ta

5. Shovulladi tun bo'yi shamol,  
Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.  
Shivirlading yonimda xushhol:  
«Yana keldi, do'stginam bahor». (A. Oripov) Ushbu parchada til oldi undoshlari bilan boshlanuvchi yopiq bo'g'inlar sonini aniqlang.

A. 5 ta      B. 6 ta      C. 8 ta      D. 9 ta

6. Shovulladi tun bo'yi shamol,  
Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.  
Shivirlading yonimda xushhol:  
«Yana keldi, do'stginam bahor». (A. Oripov) Ushbu parchada til oldi undoshlari necha marta qatnashgan?

A. 10 marta      B. 16 marta      C. 35 marta      D. 40 marta

7. Hosil bo'lish usuliga ko'ra n va l undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A. n-sirg'aluvchi, l-portlovchi  
B. n-portlovchi, l-sirg'aluvchi  
C. n va l undoshlari jarangli undosh  
D. n- til oldi, l-til o'rta undoshi

8. Quyidagi qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

A. bog'chaga, tasalli, oshxona      B. reklama, respublika, mexanik  
C. osmon, qatlama, o'quvchilar      D. maktab, afsona, charog'on

9. Qaysi soʻzda urgʻu ikkinchi boʻgʻinga tushadi?  
 A. jamoalashtirish                      B. doʻkondor  
 C. qardoshlarcha                         D. faoliyat
10. «Hammamiz» soʻzida urgʻu qaysi boʻgʻinga tushadi?  
 A. 1-boʻgʻinga    B. 3-boʻgʻinga    C. 2-boʻgʻinga    D. C javob
11. Urgʻu maʼno farqlash vazifasini bajargan soʻzlarni belgilang.  
 1. Tugma. 2. Etik. 3. Soʻzlar. 4. Toshma. 5. Banda. 6. Soch. 7. Surma. 8. Yangi.
9. Inson. 10. Bilim.  
 A. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7                      B. 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8  
 C. 1, 2, 3, 4, 7, 9, 10                     D. 1, 2, 3, 4, 6, 8, 9
12. Qaysi gapda ajratilgan soʻzning ikkinchi boʻgʻiniga urgʻu tushadi?  
 A. Chin inson bировga yaxshilik koʻzlar  
 B. Koʻzlar inson qalbining aksidir  
 C. Sayoq yursang, tayoq vevsan  
 D. Biz atlasdan foydalanib, materiklar joylashuvini oʻrgandik
13. Soʻz maʼnosini farqlashda urgʻuning qaysi turi ishtirok etadi?  
 A. Logik urgʻu;                                B. Leksik urgʻu;  
 C. Gap urgʻusi;                                D. Maʼno urgʻusi
14. «osmon uzra» qurilmasida urgʻu qaysi boʻgʻinga tushadi?  
 A. osmon va uzra soʻzlarining ikkinchi boʻgʻinlariga  
 B. osmon va uzra soʻzlarining birinchi boʻgʻinlariga  
 C. osmon uzra birikuvida faqat uzra soʻzining oxirgi boʻgʻiniga  
 D. osmon uzra birikuvida faqat osmon soʻzining oxirgi boʻgʻiniga
15. koʻngil, singlisi, kongress soʻzlarining birinchi boʻgʻini qaysi qatorda toʻgʻri izohlangan?  
 A. har uchala soʻzning birinchi boʻgʻini ochiq boʻgʻin  
 B. har uchala soʻzning birinchi boʻgʻini yopiq boʻgʻin  
 C. koʻngil soʻzida ochiq, singlisi, kongress soʻzlarida yopiq boʻgʻin  
 D. koʻngil, singlisi soʻzlarida ochiq, kongress soʻzida yopiq boʻgʻin
16. Jahonda ikki dilbarning biri sensan. biri Laylo,  
 Jahonda ikki oshiqning biri menman. biri Mainun.  
 Ajratib yozilgan soʻzlarda urgʻu qaysi boʻgʻinga tushadi?  
 A. sensa`n, me`nman, Ma`jnun  
 B. se`nsan, me`nman, Majnu`n  
 C. se`nsan, menma`n, Majnu`n  
 D. sensa`n, menma`n, Ma`jnun
17. Mehnat bilan inoqlashsang, tan ogʻrigʻini koʻrmassan. Ushbu gapda qaysi fonetik oʻzgarish kuzatilmoqda?

- A. tovush tushishi                      B. tovush almashishi  
C. tovush orttirilishi                  D. tovush tushishi va almashishi

18. O'rtiq va yoq (tomon) so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, asosda fonetik o'zgarish sodir bo'ladi?

- A. kelishik va egalik qo'shimchalari  
B. kelishik qo'shimchasi  
C. o'rtiq so'ziga egalik va kelishik, yoq so'ziga egalik qo'shimchasi  
D. egalik qo'shimchasi

19. O'rtiq va yoq (tomon) so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, qo'shimchada fonetik o'zgarish bo'ladi?

- A. kelishik va egalik qo'shimchalari  
B. kelishik qo'shimchasi  
C. o'rtiq so'ziga egalik va kelishik, yoq so'ziga egalik qo'shimchasi  
D. egalik qo'shimchasi

20. O'rtiq va yoq (tomon) so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, asos yoki qo'shimchada fonetik o'zgarish bo'ladi?

- A. kelishik va egalik qo'shimchalari  
B. kelishik qo'shimchasi  
C. o'rtiq so'ziga egalik va kelishik, yoq so'ziga egalik qo'shimchasi  
D. o'rtiq so'ziga egalik, yoq so'ziga kelishik qo'shimchasi.

21. Portlovchilar guruhiga mansub bo'lmagan jarangli undoshlarni toping.

- A. v, z, l, r      B. v, h, l, k      C. j, k, s, z      D. v, z, y, m.

22. Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi. Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida nechta tovush o'zgarishi yuz bergan?

- A. 3 ta      B. 2 ta      C. 4 ta      D. 1 ta

23. Ko'p ishlovchi, ko'p yashaydi. Ushbu gapda fonetik hodisalarning qanday turi mavjud?

- A. tovush almashishi                      B. tovush tushishi  
C. tovush orttirilishi                      D. tovush tushishi va almashinishi

24. Diagramma so'zining 4-bo'g'ini nechta tovushdan tashkil topgan?

- A. 2 ta undosh, 1 ta unli      B. 3 ta undosh, 2 ta unli  
C. 3 ta undosh, 1 ta unli      D. 1 ta undosh, 1 ta unli

25. Shovulladi tun bo'yi shamol,

Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

«Yana keldi, do'stginam, bahor». (A. Oripov) Ushbu parchada burun tovushi bilan tugagan yopiq bo'g'inlar sonini aniqlang.

- A. 5 ta      B. 6 ta      C. 8 ta      D. 4 ta



26. Diagramma so'zining 3-bo'g'ini nechta tovushdan tashkil topgan?  
 A. 2 ta undosh, 1 ta unli                      B. 3 ta undosh, 2 ta unli  
 C. 3 ta undosh, 1 ta unli                      D. 4 ta undosh, 1 ta unli
27. Musavvirning bo'yog'ida hayot chizgilari aniq ifoda etgan edi. Ushbu gap tarkibida qanday fonetik hodisalar yuz bergan?  
 A. tovush tushishi  
 B. tovush tushishi, tovush almashishi  
 C. tovush almashishi, tovush ortishi  
 D. tovush almashishi
28. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib saboq olib tajribamni oshirdim. Ushbu gapda qanday fonetik o'zgarishlar kuzatilmoqda?  
 A. bitta tovush ortishi va ikkita tovush almashishi  
 B. ikkita tovush ortishi  
 C. bitta tovush tushishi va ikkita tovush almashishi  
 D. ikkita tovush almashishi
29. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib saboq olib tajribamni oshirdim. Ushbu gapda nechta fonetik o'zgarish kuzatilmoqda?  
 A. 4 ta                      B. 2 ta                      C. 1 ta                      D. 3 ta
30. Qaysi javobda jarangli jufti yo'q jarangsiz sirg'aluvchi undosh qatnashgan so'zlar berilgan?  
 A. Taxminan, hilol                      B. Makon, safar  
 C. Xitob, kitob                      D. Jahon, to'liqin
31. Qaysi javobda jarangsiz jufti bo'lmagan til orqa jarangli undosh berilgan?  
 A. m                      B. g                      C. s                      D. ng
32. Til va nutqning farqi noto'g'ri izohlangan javobni belgilang.  
 A. Ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi – til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi nutqdir  
 B. Til jamiyatga, nutq ayrim shaxsga tegishli  
 C. Til – voqelik, nutq – imkoniyat  
 D. Nutq – voqelik, til – bimkoniyat
33. Berilgan so'zlar tarkibidagi jarangli tovushni jarangsiz jufti bilan almashirilganda paronimlik hodisasi kuzatiladigan qatorni toping.  
 1. Adib.    2. Bob.    3. Bod  
 4. Bud.    5. Darz.    6. Dub  
 7. Ganj.    8. Abzal.    9. Tub  
 A. 2. 3. 4. 5. 6    B. 1.2. 3.4. 5. 6.7. 9    C. 4. 6. 8. 3.7    D. 3. 4. 5. 7. 8
34. Qaysi qatordagi so'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan bo'lib, ularning

jarangsiz tovushini jarangli jufti bilan almashtirilganda lug'aviy ma'no o'zgaradi?

- A. bog', chang B. qovoq, adolat C. bosh, tup D. anor, kurmak

35. Qaysi qatordami so'zlarda til oldi jarangli undoshni lab tovushi bilan almashtirilganda lug'aviy ma'no o'zgaradi?

- A. bodom, makon, novvoy B. joni, yo'lak, romi  
C. savat, banan, shahar D. qaynoq, doni, koni

36. Tovushning qaysi tomoni, ya'ni belgisi tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xos belgi sanaladi?

- A. Fiziologik B. Akustik C. Vazifaviy D. A va B

## 2-variant

1. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz bermaydigan ko'p bo'g'inli so'zlar qatorini belgilang.

- A. saboq, muvaffaqiyat B. ishtiyoq, go'zallik  
C. ittifoq, huquq D. qadrdon, qishloq

2. Quvvat so'zidagi qo'sh undosh haqidagi to'g'ri fikrni toping.

- A. til undoshi, sirg'aluvchi, jarangli  
B. lab undoshi, portlovchi, jarangsiz  
C. til orqa undoshi, sirg'aluvchi, jarangli  
D. lab undoshi, sirg'aluvchi, jarangli

3. Do'stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra, shunda hamma narsa ayon bo'ladi. Shu ikkalasidan keyin ham u qovog'ini solmasa, bunday do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak. Ushbu matnda fonetik o'zgarishlarning qaysi turi kuzatiladi?

- A. Tovush tushishi, ortishi  
B. Tovush almashinishi, tushishi  
C. Tovush almashinishi, ortishi, tushishi  
D. Hech qanday o'zgarish bo'lmagan

4. Do'stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra, shunda hamma narsa ayon bo'ladi. Shu ikkalasidan keyin ham u qovog'ini solmasa bunday do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak. Ushbu matnda fonetik o'zgarishlar soni haqidagi to'g'ri javobni belgilang.

- A. Tovush tushishi- 2, tovush ortishi- 3  
B. tovush almashishi- 1, tovush tushishi- 2, tovush ortishi- 2  
C. hech qanday o'zgarish bo'lmagan  
D. tovush tushishi-1, tovush ortishi- 2, tovush almashishi- 2

5. Sovuqni sovuq saqlar,  
Issiqni issiq saqlar. (Termos). Ushbu topishmoqda qanday fonetik o'zgarish yuz bergan?
- tovush ortishi, tovush almashishi
  - tovush tushishi, tovush ortishi
  - tovush almashishi, tovush tushishi
  - hech qanday o'zgarish bo'lmagan
6. Qaysi gapdagi undalmada til oldi, portlovchi, jarangli tovush mavjud?
- Yurtim, senga she'r bitdim bugun
  - Qizim, yalpiz terib kelsang-chi
  - Shahzoda, men sulh harpo qilish kayfiyatida keldim
  - Ey o'g'lim, idishda nima olib borursan?
7. Tovush tushish hodisasi yuz bergan gapni toping.
- Maktabda «O'tkir zehnlilar» musobaqasi bo'lib o'tdi
  - Hech bo'lmagandan ko'ra kech bo'lgani yaxshi
  - Qorong'i kechada ko'kka ko'z tikib,  
Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman
  - Idoraga bor, senga ham pul berishadi
8. Qaysi gapdagi so'zda tovush almashinish hodisasi yuz bergan?
- Bu orada qiziq ishlar bo'lib o'tdi
  - Qumloqda saksovul ildizlari chuqurlab ketgan edi
  - Dushmani tag-tugi bilan yo'qotib yubordi
  - Son-sanoqni bildiruvchi so'zlar sanoq sonlar deyiladi
9. Adabiy me'yor saqlangan so'zlar qatorini belgilang.
- artis, gri p, drama, darax
  - giyohvan, xayr, g'ish, mas
  - pasay, chapdas, qayrilmoq, sanalmoq
  - yarmi, bag'ri, ayrilmoq, ikkala
10. Faqat lab undoshlaridan tashkil topgan ochiq bo'g'inli so'zlarni belgilang.
- |                        |                          |
|------------------------|--------------------------|
| A. ma'no, mabodo, bobo | B. hayot, bayot, badaviy |
| C. vafo, vabo, ma'vo   | D. popop, moviy, palos   |
11. Boy, mart, chirk so'zlaridagi ma'noni farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlarni aniqlang.
- |                        |                       |
|------------------------|-----------------------|
| A. b, t, ch tovushlari | B. o, r, k tovushlari |
| C. y, m, r tovushlari  | D. b, a, i tovushlari |
12. Bo'g'inlarga ajratish bilan asos va qo'shimchalarga ajratish teng keladigan qatorni toping.

- A. boshim, taxti                      B. bog'im, bog'ga  
C. tongga, bog'da                      D. boshqa, qoshni

13. Bo'g'inlarga ajratish bilan asos va qo'shimchalarga ajratish teng kelmaydigan qatorni toping.

- A. fikrim, baxtim                      B. boshga, toshda  
C. shahri, kuchli                      D. faxri, aqldan

14. Unlilarni talaffuz qilganda asosiy vazifani qaysi nutq a'zosi bajaradi?

- A. og'iz bo'shlig'i, bo'g'iz, un paychalari  
B. un paychalari, tanglay, til  
C. un paychalari, til va lablar  
D. tishlar, lablar va un paychalari

15. S tovushi qaysi unidan oldin kelganida yumshoq talaffuz qilinadi?

- A. a, o                      B. u, o                      C. e, i                      D. a, i

16. Quyidagi qaysi fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shib so'z yasalganda tovush o'zgarishi yuz bermaydi?

- A. og'rimoq, ilimoq, qaviq  
B. sanamoq, isimoq, taramoq  
C. sovimoq, sasimoq, qaynamoq  
D. qaynamoq, charchamoq, bo'yamoq

17. 1. Qornimga emas, qadrimga yig'layman.

2. Odamning ko'ngli nozik.

3. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar,

To'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini undirar.

Berilgan gaplarda qaysi so'zlarda tovush o'zgarishi hodisasi yuz bergan?

- A. qornimga, yig'layman, ko'ngli, oltovlon  
B. qornimga, ko'ngli, oltovlon, to'rtovlon, og'zidagin, ko'kdagini  
C. yig'layman, ko'ngli, og'zidagin, ko'kdagini  
D. qornimga, yig'layman, ko'ngli, oltovlon, og'zidagin

18. Qaysi qatordagi yasovchi qo'shimcha ta'sirida fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa tovush almashadi?

- A. tuproq, o'rtoq                      B. taroq, bilak  
C. to'lg'oq, qistov                      D. qayroq, chanqoq

19. Tilga xos xususiyatlar qayd etilgan to'g'ri javobni belgilang.

1. Hali voqelanmagan imkoniyat.

2. Faollashgan bevosita yuzaga chiqqan til.

3. Jamiyat a'zolariga barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy vosita.

4. Shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'luvchi hodisa.

- A. 1, 3                      B. 1, 2, 4                      C. 2, 3, 4                      D. 1, 4

20. Eng gullagan yoshlik chog' imda

Sen ochilding ko'ngil bog' imda. Ushbu gapdagi yasama so'zlarda qanday til undoshlari ishtirok etgan?

- A. Til oldi, til o'rta                      B. Til o'rta, til orqa  
C. Til oldi, til o'rta, til orqa            D. Til oldi, til o'rta, chuqur til orqa

21. Qaysi gapdagi yasama so'z asosida sirg'aluvchi tovush mavjud emas?

- A. Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib  
B. Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi  
C. Xalqlar birligi-po'lat qudrat  
D. So'z so'zlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak

22. Sut-sud, yot-yod paronim so'zlaridagi t va d undoshlarining farqini aniqlang.

- A. Til yoki lab undoshi  
B. Til oldi yoki til orqa undoshi  
C. Jarangli yoki jarangsiz tovush  
D. Portlovchi yoki sirg'aluvchi tovush

23. Yasama so'z tarkibidagi ko'makchi morfema jarangsiz undoshdan tashkil topgan so'zni toping.

- A. Betaraf            B. Bog'li            C. Tortiq            D. Qarindosh — urug'

24. Axloqiy fazilatlarining yuqori estetik diding bilan uyg'unlashgan-dagina husningga husn qo'shiladi. Ushbu gapda chuqur til orqa tovushlarining soni nechta?

- A. 6 ta            B. 8 ta            C. 4 ta            D. 5 ta

25. Tovushning qanday tomonlari bor? 1) fiziologik; 2) akustik; 3) vazifaviy.

- A. 1, 2            B. 2, 3            C. 1, 2, 3            D. 1, 3

26. Nutq tovushlarining nutq a'zolari harakati natijasida maydonga kelishi tovushning qanday tomoni hisoblanadi?

- A. Fiziologik            B. Akustik            C. Lingvistik            D. Vazifaviy

27. Tovushning balandlik, kuch, miqdor va tembr kabi belgilarga ega bo'lishi uning qanday tomoni?

- A. Fiziologik            B. Akustik            C. Lingvistik            D. Vazifaviy

28. Tovushning ma'lum maqsadda talaffuz etilishi va ma'lum axborot uzatishga qaratilishi uning qaysi tomoni sanaladi?

- A. Fiziologik            B. Akustik            C. Talaffuz            D. Vazifaviy

29. «k» tovushining talaffuz (fiziologik) tomonini toping.

1) «k» ning «g» va boshqa undoshlardan farqlanishi; 2) sof shovqindan iborat ekanligi; 3) til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi natijasida hosil

bo'lishi; 4) jarangsizligi; 5) o'pkadan chiqayotgan havoning to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'lishi

A. Faqat 1      B. 2, 4      C. 2, 4, 5      D. 3, 5

30. «k» tovushining akustik tomonini toping.

1) «k» ning «g» va boshqa undoshlardan farqlanishi; 2) sof shovqindan iborat ekanligi; 3) til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi natijasida hosil bo'lishi; 4) jarangsizligi; 5) o'pkadan chiqayotgan havoning to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'lishi

A. 2, 4      B. 2, 5      C. 2, 4, 5      D. 3, 5

31. Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar qanday belgi hisoblanadi?

A. Birlashtiruvchi belgi      B. Farqlovchi belgi  
C. Umumiy belgi      D. Zidlovchi belgi

32. Zidlanayotgan ikki birlikning har ikkida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar qanday nomlanadi?

A. Birlashtiruvchi belgi      B. Farqlovchi belgi  
C. Umumiy belgi      D. Zidlovchi belgi

33. «d» va «t» belgilari uchun qaysi belgilar birlashtiruvchi belgi bo'la oladi?

A. Til oldi      B. Portlovchi  
C. Jarangli-jarangsizlik      D. A va B

34. Unli tovushlarning undosh tovushlardan farqli tomonlari qaysilar?

1) to'siqqa uchramay hosil bo'lishi; 2) faqat ovozdan iborat bo'lishi; 3) so'z ichida kelib, bo'g'in hosil qilishi; 4) ovoz va shovqindan iborat bo'lishi

A. 1, 2      B. 1, 2, 3, 4      C. 1, 2, 3      D. 1, 3, 4

35. Tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini bir-biridan farqlagan olim nomini toping.

A. A. Hojiyev      B. F. Sossyur  
C. P. Pavlov      D. Sh. Rahmatullayev

36. Soli bilan sholi so'zlarining birinchi tovush orqali farqlanishi tovushning qaysi tomoni hisoblanadi?

A. fiziologik      B. akustik      C. fizik      D. vazifaviy

---

## ORFOGRAFIYA

### Yozuv va uning tarixi

**Bilib oling!** Yozuv fikrning tashqi shakily ifodasidir. Yozuv orqali kishilar o'z fikrlarini bir-birlariga bildiradilar, avlodlarga qoldiradilar. Yozuv orqali biz minglab yillar oldin o'tgan voqealar, shaxslar, ilm va odatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lamiz. Ana shunday qiymatga ega bo'lgan yozuv birdan paydo bo'lmagan.

Dastlabki yozuv rasmlar orqali (bu xil yozuv piktografik, «pictus» — chizilgan, «graphie» — yozaman, yozuv deyiladi) bo'lgan. Bunda har bir rasm (yoki narsa) biror ma'no ifodalagan (quyosh-kunduzni, oy-tunni, toshbaqa-baxtni kabi).

Yozuvning keyingi davri — ideografik yozuvdir (grekcha «idea»-tushuncha, «graphie» — yozaman). Bu xil yozuvda har bir yoki bir guruh tushuncha uchun bir xil ramziy simvolik shakl olinadi. Masalan, ko'z — O, asir — O, oy — C, tog' — h kabi.

Piktografik va ideografik (uning birinchi bosqichlarini logografik («logo» — so'z, «graphie» — yozaman) yozuv ancha murakkab bo'lib, yuzlab shakllarni chizish va ularning mazmunini bilishni talab etgan. Shuning uchun kishilar yozuvning yangi bosqichi — fonografik (yun. «phane» — tovush, «graphie» — yozaman) yozuvga — avvalo ayrim bo'g'inlarni, keyinroq ayrim tovushlarni biror belgi bilan ifodalash usuliga o'tadilar. Fonetik yozuvning kelib chiqishi qadimgi Finikiya yozuvi bilan bog'lanadi.

Xalqlar fonetik yozuvning turli — lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvlari va ularning ayrim o'zgargan turlari kabi shakllarini yaratganlar.

Qadimgi yozuvlar tosh, suyak, yog'och, qamish kabi qattiq jismlarga, so'ngra pergament va qog'ozga yozilgan. Yozuvlar o'ngdan chapga, chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga qarab o'qilishi mumkin.

Tarixda o'rxun-enasoy, so'g'd, xorazm, uyg'ur, Avesto kabi yozuv turlaridan foydalanilgan. O'rta Osiyoda VIII—IX asrlarga kelib arab yozuvi tarqala boshlagan va qariyb 1200 yil qo'llanib kelingan.

**1930-yildan to 1940-yilgacha lotin yozuvidan foydalanilgan.**

**1940-yil may oyidan rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi amalga tatbiq etildi.**

**1993-yilning 2-sentabr kuni «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.**

## Turkiy va o‘zbek yozuvlarining tarixi

**Bilib oling!** Sobiq Ittifoq tarkibidagi turkiy va boshqa xalqlar (arman, gruzin, Boltiqbo‘yi xalqlaridan tashqari) 1940-yil 8-may kuni qabul qilingan farmonga ko‘ra rus (kirill) alifbosi asosida tuzilgan alifbodan foydalanib keldilar. Ungacha O‘zbekiston va boshqa respublikalarda lotin alifbosi joriy etilgan edi.

O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining 1928-yil mart oyidagi III sessiyasida lotin alifbosini davlat alifbosi deb qaror qabul qilindi. Sobiq Ittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi va Xalq Komissarlar Soveti bu qarorni 1929-yil 7-avgustdagi maxsus qarori bilan ma‘qulladi.

Lotin alifbosiga o‘tishdan avval butun musulmon xalqlari va elatlari arab yozuvini qo‘llar edilar. XX asrning 20-yillari arab alifbosi ma‘lum darajada isloh qilindi. Chunki arab alifbosida unli tovushlarni ko‘rsatadigan alohida belgilar yo‘q edi. Zer-u zabar (harfning osti va ustida qo‘llanadigan belgilar) faqat «Qur‘on» va arab tilida yozilgan diniy asarlardagina qo‘llanar edi. 1921-yil 1–5-yanvarda Toshkentda chaqirilgan til-imlo qurultoyi, boshqa masalalar bilan birga, arab harflarining so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida qo‘llanish shakllarini soddalashtirdi. O‘zbek tiliga xos bo‘lmagan sod, zod, itqi, izg‘i harflari alifbodan chiqarildi, u, o‘, i, a tovushlari uchun alohida harflar belgilandi. 1922-yil aprel oyida bo‘lgan maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyi ham birinchi qurultoy qarorlarini ma‘qulladi.

Eski Turkiston xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi, qadimdan yuksak madaniyatli xalq sifatida dunyoga tanilgan. Movarounnahrda run, uyg‘ur, sug‘d, moniy va braxma (braxmon) yozuvlari qo‘llanilgan. Diniy mazmundagi asarlar braxma yoki moniy yozuvida, rasmiy hujjatlar uyg‘ur yoki sug‘d yozuvida yozilgan.

Qayd etilgan yozuvlarda bitilgan ko‘p yozma yodgorliklar hozirgacha saqlanib keladi. Runiy yozuvda – O‘rxun-Enasoy tosh bitiklari, uyg‘ur yozuvida (uni Mahmud Koshg‘ariy «turkcha yozuv» deb nomlaydi)- qadimgi turkiy yodnomalar (VIII–X asrlar); «Oltin yorug‘», «Maytri simit», budda va xristian diniga oid yodnomalar, yuridik hujjatlar esa sug‘d yozuvida bitilgan. Moniy yozuvida «Xuastuanift» yodgorligi yozilgan. Uyg‘ur yozuvi, arab yozuvi bilan barobar, XV asrgacha qo‘llanadi. «Qutadg‘u bilig»ning Vena (Hirot) nusxasi (XI asr), «Hibatul haqoyiq» (XII asr) ning A nusxasi, «Og‘uznoma»ning qadimiy nusxasi (XIII asr oxiri), Xorazmiy qalamiga mansub «Muhabbatnoma» (1353-yil) asarining qadimgi nusxasi, «Latofatnoma», «Dahnoma», «Mahzanul asror» (XIV–XV asrlar) kabi asarlarning ayrim nusxasi yoki parchalari uyg‘ur yozuvida bitilgan. Uyg‘ur yozuvi sug‘d yozuvi asosida kelib chiqqan. Runiy yozuvi ham qadimgi oromiy yozuvi asosida kelib chiqqan, degan nazariya hozir asosiy o‘rinni egallaydi.



## ALIFBO

**Bilib oling!** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasi (1993-yil 2-sentabr) «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida» Qonun qabul qildi. Bu dunyo fani va texnikasiga yaqinlashish, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini to'laroq va aniqroq ifodalash maqsadida bo'ldi. Dunyo xalqlarining 30% lotin yozuvidan foydalanishadi.

Yangi o'zbek alifbosi 29 harf va bir tutuq belgisidan iborat bo'lib, ayrim harflarning shakliga o'zgartirishlar kiritildi va alifbo sirasidagi yolashgan unlilar (yo, yu, ye, ya) hamda yumshoqlik va qattqlik belgilari (ь, Ъ), shuningdek, u harfi chiqarildi. Ayrim tovushlar harflar birikmasi bilan berildi (sh, ch, ng). Harflar sirasi ham o'zgaradi.

### Yangi o'zbek alifbosi

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
1. Aa	<i>Aa</i>	a	16. Qq	<i>Qq</i>	qe
2. Bb	<i>Bb</i>	be	17. Rr	<i>Rr</i>	er
3. Dd	<i>Dd</i>	de	18. Ss	<i>Ss</i>	es
4. Ee	<i>Ee</i>	e	19. Tt	<i>Tt</i>	te
5. Ff	<i>Ff</i>	ef	20. Uu	<i>Uu</i>	u
6. Gg	<i>Gg</i>	ge	21. Vv	<i>Vv</i>	ve
7. Hh	<i>Hh</i>	he	22. Xx	<i>Xx</i>	xe
8. Ii	<i>Ii</i>	i	23. Yy	<i>Yy</i>	ye
9. Jj	<i>Jj</i>	je	24. Zz	<i>Zz</i>	ze
10. Kk	<i>Kk</i>	ke	25. O'o'	<i>O'o'</i>	o'
11. Ll	<i>Ll</i>	el	26. G'g'	<i>G'g'</i>	g'e
12. Mm	<i>Mm</i>	em	27. Shsh	<i>Shsh</i>	she
13. Nn	<i>Nn</i>	en	28. Chch	<i>Chch</i>	che
14. Oo	<i>Oo</i>	o	29. Ngng	<i>Ngng</i>	nge
15. Pp	<i>Pp</i>	pe	,	,	tutuq belgisi

### Topshiriqlar

#### 1. Quyidagi so'zlarni alifbo tartibida yozing.

Azm, aysh, arz, aft, aql, badnafs, bahs, boks, bazm, bayt, irq, metr, naqsh, brak, vazn, kasr, vahm, kasb, vaqf, gips, keks, globus, dafn, kibr, dahr, mayl, jazm, lutf, nasr, jalb, janr, jahil, jahd, mashq, zulm, zikr, juft, fikr, ilm, ufq, matn, iliq, etik, beshik, bilim.

2. *t-d* tovush juftlari ishtirokida soʻzlar yasang. Ushbu soʻzlar yordamida jumla tuzing.

Namuna: tor-dor, tosh-dosh.

3. Bir tovush orttirib, yangi soʻzlar yasang.

Namuna: ot-ota-otam-hotam-ihota.

4. Bir tovushni oʻzgartirib, yangi soʻz yasang. Soʻzlar maʼnosini sharhlang.

Namuna: tosh-tish-tush-toʻsh.

5. «Tilsim»ga terilgan 6 ta harf ishtirokida koʻproq soʻz yasang.

T	I	r
Sh	O	e

Namuna: Masalan: tor,tir,tish...

6. Kitob soʻzini «Tilsim» ish maydonida tik holda tering. Soʻzdagi har bitta harfga oʻng va chap tomondan harflar ulab soʻz yasang. Soʻzlarning soʻnggi harflari yangi soʻz hosil qilsin.

			K		
			I		
			T		
			O		
			B		

7. «Zinapoya» oʻyini. Tik terilgan soʻzning har bir harfidan yangi soʻz yasang, soʻzlar koʻrinishi «zinapoya» shaklida boʻlsin. Hosil qilingan soʻzlar ishtirokida birikmalar va gaplar tuzing.

M						
a						
k						
t						
u						
b						

1. Matnni lotin yozuviga asoslangan yangi oʻzbek alifbosida koʻchirib yozing. Unli va undoshlarning ifodalanishiga diqqat qiling.

Дилларни нурга, кўнгилларни сурурга тўлдириб она юрт бўйлаб ажиб бир қўшиқ қанот қоқади. Шукроналик билан кўз очган эрта тонгдан бошлаб ана шу қўшиқ қалбимизга ҳамроҳ бўлди, юрагимизни байрам туйгуларига тўлдирди, гул тўла йўлга чорлади, сайл-саёҳатта етаклади. Бу қўшиқ «юрт ўзингники», «тиниқ осмон ҳам», «ўзлигинг

ўзингники», дея ҳаволанади гўё. Бу қўшиқ, бу оҳанг дилга ғоят манзур, руҳга ёқимли, кўнгилнинг қувончи, тонг ва оқшом, тун ва кун осойиштали-гининг овозидир.

Бу қўшиқ елади она юрт бўйлаб,  
Қанотлари оппоқ, оҳанги манзур,  
Одамлар кўнглини кўкларда куйлаб,  
Руҳга улашади гўзаллик ва нур.

**2. Quyidagi soʻzlarda e(e) va e(y+e) harflarini farqlab, ikki ustunga ajratib yozing:**

Ezgu, yemoq, tergov, teatr, eng, ezmoq, elektr, poyezd, kechdi, pechak, zehn, chekka, keldi, yer, yetarli, yelka, yemoq, yetakchi, yengil, sement, keng, deyarli, chegara, terak, Gulchehra, mehr, texnika, yelkan, spektakl, mehnat, dehqon, sehrgar, yelvizak, egar, ertak, trolleybus, kelin, berkinmashoq, meros, fermer, yetti, beshik.

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

*Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida*

O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan.

Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929–1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har tarflama karnol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan quyidagi 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof) dan iborat alifbosi joriy etilsin.

**2-modda.** Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek yozuvini joriy etish bilan birga O‘zbekiston xalqining milliy iftixori bo‘lmish bebaho ma‘naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o‘rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti  
I. A. Karimov**

*Toshkent shahri,  
1993-yil 2-sentabr.*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «LOTIN YOZUVIGA  
ASOSLANGAN O‘ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH  
TO‘G‘RISIDA»GI QONUNIGA O‘ZGARTIRISHLAR  
KIRITISH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi: O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrida qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 331-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1. 1-moddadagi «31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof) dan» so‘zlari «26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan» so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. Cc, Jj harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarilsin.

3. Öö, harfi O‘o‘ shaklida, Gg‘ harfi G‘g‘ shaklida, Şş harfi Shsh shaklida, C,c, harfi Chch shaklida, Nn harfi Nngng shaklida, Q harf belgisi q shaklida ifodalansin.

4. Aa, Ii, Gg, G‘g‘, Qq, O‘o‘, Zz harflari va Chch harflar birikmasining yozma shakli tegishlicha Aa, Ii, Gg, G‘g‘, Qq, O‘o‘, Zz, Chch tarzida ifodalansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti**

**I.A.Karimov**

*Toshkent shahri,*

*1995-yil 6-may.*

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori  
339-son, 1995-yil 24-avgust. Toshkent sh.**

**O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARINI  
TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu

qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat Matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini, kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko'rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo'limlariga yuklansin.

*Vazirlar Mahkamasining Raisi  
I. Karimov*

## **O'ZBEK TILIINING ASOSIY IMLO QOIDALARI**

So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yakdillikka, ma'naviy jipslikkayetaklaydi. Shu ma'nodahar bir xalq o'z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956- yilda tasdiqlangan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining beritishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

- a) unlilar imlosi (1-7 bandlar);
- b) undoshlar imlosi (8-32 bandlar);
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-bandlar);
3. Qo'shib yozish (38-50-bandlar);
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar);
5. Ajratib yozish (57-65-bandlar);
6. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar);
7. Ko'chirish qoidalar (75-82-bandlar).

### **Unlilar imlosi**

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan.

A a harfi savol, zamon, bahor so'zlarida «o» kabi aytilsa ham doim «a» yoziladi.

**O** o harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi soʻzlarda «a» kabi talaffuz etiladi, biroq harnisha «o» yoziladi: kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist...

Yoki tonna, noyabr, boks kabi soʻzlarda «o» «oʻ» kabi aytiladi.

**I** i harfi bilan, til, tilak, har xil, qism kabi soʻzlarda qisqa aytiladi; badiiy, ommaviy, Lutfiy kabi soʻzlarda choʻziq aytiladi, lekin doim «iy» yoziladi.

**U** u harfi yutuq, butun, tovuq, sovun kabi soʻzlar, «i» ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan «u» yoziladi.

**Oʻoʻ** harfi oʻzbek, oʻlka, oʻsimlik kabi soʻzlardan old qator, oʻrta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

**E** e harfi eʼlon, ehtirom, feʼl, bermoq, meros, mone, tole, kofe kabi soʻzlarda old qator, oʻrta keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

## Undoshlar imlosi

1. «B» tovushi bazi soʻzlarda «p», «v» tarzida aytilsa ham «b» yoziladi.  
2. Baʼzi soʻzlarda «v» tovushi «f» tarzida talaffuz qilinsa-da, doimo «v» yoziladi.

3. Ayrim hollarda «f» tovushi «p» kabi aytiladi, lekin har doim «f» yoziladi.

4. Koʻp soʻzlarda «d» tovushi «t» tarzida aytilsa-da, har vaqt «d» yoziladi.

5. Koʻpgina soʻzlarda «z» tovushi «s» deb oʻqilsa-da «z» deb yoziladi.

6. J j harfi jon, jahon, juma, gʻijjak, vaj soʻzlarida til oldi, jarangli, portlovchi «dj», jurnal, ajdar, garaj, tiraj soʻzlarida esa til oldi, jarangli, sirgʻaluvchi «j» undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. Sh sh harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qoʻyiladi: Isʼhoq, asʼhob kabi.

8. Ch ch harfi chumoli, choy, achchiq, soch kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.

9. R r, L l, N n, G g, K k, Y y, Ng ng, Q q, Gʻ gʻ, X x, H h harflari soʻzlarda muayyan tovushni ifodalash uchun yoziladi.

10. Ayrim soʻzlarda «d» va «t» undoshlari tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.

11. Xuddi shuningdek, metall, kilovatt, kongress kabi soʻzlar oxiridagi qoʻsh undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. Tutuq belgisi ayrim soʻzlarda unidan keyin kelib, uning choʻziqroq aytilishini taʼminlaydi.

13. Moʻjiza, moʻtadil, moʻtabar kabi soʻzlarda «oʻ» unlisi choʻzib oʻqiladi, lekin tutuq belgisi qoʻyilmaydi.

14. Sanʼat, inʼom, masʼul kabi soʻzlarda unidan oldin qoʻyilib, uning undosh tovushdan ajratib aytilishini taʼminlaydi.

## Mashq va topshiriqlar

**1. Gaplarni o'qing, ularni til va yozuv taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tartib bilab ko'chiring.**

1. VIII asrda O'rta Osiyoda islom dini bilan birga arab yozuvi ham tarqaldi. O'zbek xalqi bu yozuvdagi 28 harfga yana qo'shimcha to'rta harf kiritib, o'z tiliga moslashtirdi. 2. 1940-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan kirill yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan edi. 3. 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» Qonun qabul qilinishi mustaqil Vatanimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o'zgarishlar asosida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi. 4. O'zbek yozuvi dastlab 1929-yilda lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko'chirilgan edi. 5. Turkiy xalqlarning ko'plab bebaho yodgorliklari qadimgi turk va uyg'ur yozuvlarida bitilgan. O'rxun-Enasoy yozuvi harf (tovush) yozuvining ancha mukammal shakli bo'lib, har bir tovush uchun maxsus shakl qo'llangan. 6. O'rta Osiyo xalqlari eng qadimdan o'z yozuv madaniyatiga ega bo'lganlar, harf (tovush) yozuvining eng qadimgi shakllari hisoblangan sug'd va xorazmiy yozuvlaridan foydalanганlar. Bu yozuvlar oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.

**2. Nuqtalar o'rniga «e» harfi yoki «ye» harflar birikmasidan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring, ular asosida gaplar tuzing.**

...tishtirmoq, ...kin, ...tarli, ...gov, ...tim, ...chmoq, ...lak, ...lin, ...lik, ...bto'ymas, ...lka, ...lvizak, ...lat, ...taklamoq, ...ndi, ...rimoq, ...rtak, ...slatma, ...vropa, ...chinmoq, ...rkak, ...gizak, ...shik, ...chkemar, ...tik, ...nsa, n...vara, qa...r, voq...a, karat..., mavq..., mut..., mavz..., ...lkan.

**3. Nuqtalar o'rniga «h» yoki «x» harflaridan mosini qo'yib ko'chiring.**

A...lat, a...tarmoq, an...or, alo...ida, a...moq, ba...ona, ba...amji...at, ba...s, be...i, boj...ona, dil...iroj, dir...am, be...uda, duo...on, de...qon, e...tiros, e...son, fat..., fa...r, foti...a, fotomu...bir, go...ida, gumro..., guru..., go'la..., ...adik, ...ammom, ...arakat, ...asad, ...ikmat, doni...ona, ...usni...at, i...ota, i...tisoslik, ja...on, ma...si, mas...ara, mad..., malo...at, ma...luq, me...nat, no'...at, o...u, o...irat.

**4. Berilgan so'zlardagi nuqtalar o'rniga «i» yoki «u» unlilarining mosini qo'yib ko'chiring.**

a) 1. Bir oqshom, kut...lmagan vaqtda, ko'chamizda tuyalarning baqirishi, havoni yangratgan qandayd...r notanish ovozlar eshitildi. 2. Ko'r...b tur...bmiz, birimiz ikki bo'layotgani yo'q. Yer bo'lgani bilan xudo barakani ko'tarsa qiyin, hali ham o'sha «bult...rgi Eshmatmiz». 3. Naima

to'g'risidan tashvish yo'q; husn, odob,,yum...sh, hammasidan ko'ng...l to'q. 4. Xo'sh, kulollikning itlari nimani qizg'anadi? Men qur...q, bo'sh xumni, oshsiz sopol tovoqni yoki suv tegmagan quv...ni yeb qo'yamanmi?

b) Arg'...mchoq, atirsov...n, ajabto'v...r, bahuza...r, bemavru...d, bo'l...m, bo'y...n, juld...r, zul...k, kuch...k, ko'm...sh, kum...sh, mur...d, muxb...r, muh...m, mud...r, muh...t, nuf...z, nuq...l, put...r, puch...q, suz...k, suk...t, sunb...la, sup...rgi, surg...n, sur...shirmoq, sur...nkali, so'rg'...ch, suqs...r, sug'...rta, tug...n, tuzl...q, tuz...m, tuz...sh, tuyn...k, tumsh...q, tun...ka, turk...m, turm...sh, turg'...n, tut...n, tut...q, tux...m, tush...ncha, xur...j, chumch...q, chuch...k, ho'k...z.

5. Nuqtalar o'rniga «a» yoki «o» harflaridan mosini qo'yib ko'chiring va so'zlarning to'g'ri yozilishini bilib oling.

Agr...texnika, adv...kat, ajabt...vur, and...va, ant...logiya, aer...drom, aer...port, t...mosh..., bak...vul, bar...var, b...horikor, bed...vo, bekinm...choq, be...dab, be...dob, bep...yon, bef...ros...t, bex...votir, bi...logiya, b...shoq, g...vda, g...vjum, g...vhar, g...rmon, d...vomat, d...vron, dipl...mat, d...von, d...mino, do'l...na, j...vlon, j...vob, j...von, j...mol, jang...v...r, j...hon, z...vq, z...mon...viy, zir...v...r, zo'r...von, ijob...t, k...vsar, k...lleksiya, k...mbinat, k...nfet, k...ridor, k...nspekt, lab...rant, m...n...log, m...rf...logiya, r...vn...q, p...rtret, f...netika.

1. Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib ko'chirib yozing.

Mas...id, i...tido, g'i...jak, sara...jom, k...itansiya, ta...suf, istibdo..., muto...a, me...yor, ta...jub, min...s, krep...eshin, simpoz...um, vol...ybol, sup...rgi, maj...ua, a...ditoriya, suver...nitet...

## Qo'shib yozish va ajratib yozish.

### Qo'shib yozish

1. Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umuman, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo'ymijoz, maymunsifat, kamhosil, umumdavlat, bug'doyrang va h.k.

2. -r, -ar, -mas qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: o'rinbosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas kabi.

3. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma otlar va sifatlar qo'shib yoziladi: toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sherdil, otquloq singari.

4. Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo'ljalanganligi kabi ma'nolarni bildiruvchi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: ko'ksulton, oqboosh, achchiqtosh, ko'zoynak, suvilon kabi.

5. Ikkinchi qismi turdosh ot yoki obod so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo'shib yoziladi: Oqtepa, Uchqo'rg'on, Davlatobod, Xo'jaobod kabi,



lekin Markaziy Osiyo, Ko'hna Urganch, G'arbiy Yevropa kabi joy nomlari ajratib yoziladi.

6. Ruscha, baynalmilal yoki tarjima qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: telestudiya, fotoapparat, radioto'lqin, etektrarra kabi.

7. Qisqartma so'zlar har doim qo'shib yoziladi: O'zMU, ToshDPU.

### **Ajratib yozish**

1. Qo'shma fe'l, shuningdek, ko'makchi fe'lli qo'shilmalar doimo ajratib yoziladi: kirib chiqdi, olib keldi, oshkor etdi, aytib qo'ya qoldi, o'qib chiqdi kabi.

2. Har, hech, bir, u, shu, o'sha, hamma kabi so'zlar o'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi: har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o'sha joyda, hamma vaqt kabi.

3. Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan ajratib yoziladi: vatan uchun, siz bilan, shahar tomon.

4. Sifatning orttirma darajasini yasovchi to'q, och, tim, lang, jiqqa kabi so'zlar ajratib yoziladi: tim qora, och ko'k, to'q sariq kabi.

5. Qo'shma sonlar ajratib yoziladi: o'n to'qqiz, bir yuz yigirma besh, ikki ming birinchi va hokazo.

6. Yildan yilga, kundan kunga kabi ko'rinishdagi birliklar ham ajratib yoziladi.

7. Nuqtayi nazar, tarjimai hol, dardi bedavo kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi.

1. Quyidagi qo'shma so'zlarning qanday yozilishini aniqlang va ko'chirib yozing.

Qirq-bo'g'im, qashqar-gul, chala-savod, xush-bichim, ish-yoqmas, omma-bop, millatlar-aro, tez-oqar, havo-rang, ayta-oladi, qayta-qurish, chanqov-bosdi, umum-davlat, odam-sifat, Tyan-Shan, Chil-ustun, muz-qaymoq, ser-daromad, Nyu-York, olib-sotar, oynayi-jahon, Markaziy-Osiyo, temir-yo'l, oy-noma, kalta-kesak...

2. So'zlarni qo'shib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga bo'lib ko'chirib yozing.

Ko'z//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, xom//semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//so'z, jigar//rang, besh//kokil, otash//qalb, g'ayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, Olti//ariq, Qum//qo'rg'on, Sot//voldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanlov.

### **Bosh harflar imlosi**

1. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi.

2. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharchalar, daryo, dengiz, tog', tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi

3. Korxonalar, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san'at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi

4. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi.

5. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomi.

6. Mudofaa vazirligi, Davlat test markazi, «Umid» jamg'armasi, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kabi tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

7. Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so'zlar har biri bosh harf bilan yoziladi: «O'zbekiston Qahramoni» unvoni, «Oltin Yulduz» medali

8. Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi.

**Mashq.** Bosh harflarning ishlatilish sabablarini tushuntirib bering.

Sayfi Saroyi, Shuhratbek, Tohirjon, Habib Abdullayev; Xiva, Zarafshon, Mirzacho'l, Amudaryo, Norin, Chortoqsoy; Qurama, Bobotog', Hisor; Markaziy Osiyo, Shimoliy Amerika, Janubiy Koreya; Quyosh, Merkuriy, Saturn; «Mahalla» jamg'armasi, «Matiz» avtomobili, «Turon» ishlab chiqarish birlashmasi; «Mustaqillik» ordeni, «O'zbekiston Respublikasi xalq artisti», Navro'z bayrami; O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Don mahsulotlari davlat-aksionerlik korporatsiyasi «O'zdonmahsulot», YUNESKO tashkiloti, Sog'liqni saqlash vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Majlisi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent traktor zavodi, «Bahor» konsert zali, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Oliy xo'jalik sudi, Buxoro viloyati hokimligi, «Damas» avtomashinasi, «O'qituvchi» nashriyoti, «Umid» firmasi, «Istiqbol» fermer xo'jaligi, «Malika» ishlab chiqarish birlashmasi, «Nuroniy» jamg'armasi, Samarqand chinni zavodi, Quvasoy sement zavodi, «Turkiston» saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Guliston davlat universiteti, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, «Qo'shchinor» mas'uliyati cheklangan ishlab chiqarish birlashmasi, Bulung'ur tumani hokimligi, Urganch davlat universiteti, «Lazzat» oshxonasi, «Afrosiyob» mehmonxonasi, Toshkent agrar universiteti.

## **Chiziqcha bilan yozish va ko'chirish qoidalari**

1. Juft yoki takroriy so'zlarning o'rtasida chiziqcha ishlatiladi

2. Juft so'zlar orasida -u, -yu yuklamalari ishlatilsa, ular birinchi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: erta-yu kech, osh-u non...

3. Qop-qora, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi.

4. Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam kabi o'rtasida **-ma** yoki **-ba** qo'shimchalari kelgan so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.

5. **-mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq)** yuklamalaridan tashqari barcha affiks yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, biz-a, keldi-da, ukasi-ku...

6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, chiziqcha ishlatiladi: 28-uy, 6-xona, 2012-yil, 8-mart...

Rim raqamlaridan so'ng chiziqcha ishlatilmaydi.

**Mashq. So'zlarni o'qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing, so'ng daftaringizga ko'chirib yozing.**

Orzu-umid, aka-uka, chol-kampir, issiq-sovuq, kecha-kunduz, el-yurt, asta-sekin, baxt-u saodat, ota-yu ona, qop-qora, ko'm-ko'k, rang-barang, men-a, bor-e, bolam-ey, biz-chi...

**«Men boshlayman, sen davom ettir» o'yini:**

O'quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdan qarama-qarshi ma'noli so'zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so'zning qarama-qarshi ma'nosini topish talab etiladi (masalan: do'st, baland-, yosh-, tez-, qattiq-,...)

Bu o'yin partadoshlar orasida ham o'tkazilishi mumkin. Shunga o'xshash o'yinlardan yana biri boshlanish qismi berilgan xalq maqollarini mustaqil davom ettirishdir. Masalan:

1. Ko'z – qo'rqqoq...
2. Egri – ozadi...
3. Birlashgan o'zar...

### **Ko'chirish qoidalari**

1. Satrga sig'may qolgan so'zlar keyingi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi.

2. So'z boshida kelgan yolg'iz unli hech vaqt yakka o'zi qoldirilmaydi.

3. So'z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya...

4. Sh, ch, ng harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi.

5. Qisqartma so'zlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga ko'chirilmaydi.

6. 10-«A» sinf, 36-uy, 100 gr, 35 sm, 20 mm kabi ko'rinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.

### **Mashq va topshiriqlar**

**1. So'zlarni bo'g'inlarga ajratib daftaringizga ko'chiring.**

Ma'lumot, maxsus, ta'kidlamoq, ko'ngilchan, singil, taassurot, taajjub, saodat, taxt, kelingiz, ingliz, gramm, metall, matn, trolleybus, kitobxon, jurnalist, daftar, O'zMU, XXI asr, Navro'z-2001, 9-«A» sinf.

2. Ko'chirish qoidalariga zid ravishda qismlarga ajratilgan so'zlarni belgilang va ularni to'g'rilab daftaringizga ko'chiring.

Den-giz, ta-a-lluq, ke-tin-giz, o-ta-la-ri, Nam-Du, ko'n-gil, transport, mesh-chan, sa-o-dat, ma'lumot, B-MT, Er-on, a-ka-xon, u-kam, ton-ggi, sanoq-li...

*Yodda tuting!* «Imlo qoidalari» va «Imlo lig'ati» ga

## ILOVA

O'zbek kirill alifbosidagi ayrim harf va belgilar o'zbek lotin alifbosida quyidagicha aks ettiriladi:

1. **ë, ю, я** harflari o'rniga qaysi harflarni yozish ular bajaradigan vazifaga bog'liq:

1) ikki tovushni (y + unli) ifodalashga xizmat qilsa, **yo, yu, ya** harflari yoziladi: ёмғир – yomg'ir, заём – zayom; ютуқ – yutuq, юрист – yurist; яхши – yaxshi, ядро – yadro kabi;

2) o'zidan oldin kelgan undoshning yumshoq ekanini ko'rsatishga xizmat qilsa, ikki xil:

a) asosan bir harf **ë** harfi o'rniga **o** harfi, **ю** harfi o'rniga **u** harfi, **я** harfi o'rniga **a** harfi yoziladi: стажёр – stajor, бюджет – budjet, фляга – flaga kabi;

b) so'zning talaffuzi keskin o'zgarib kelmasligi uchun qisman **ë** harfi o'rniga **yo** harflari, **ю** harfi o'rniga **yu** harflari, **я** harfi o'rniga **ya** harflari yoziladi: плёнка – plyonka, бюрократ – byurokrat, славян – slavyan kabi.

Demak, **ë, ю, я** harflarini ikkinchi vazifasida qanday yozish bo'yicha aniq qoida berib bo'lmaydi, bunday harf qatnashgan so'zning to'g'ri yozilishi «Imlo lug'ati»da aks ettiriladi.

4. **ь** belgisi:

a. undosh tovushning yumshoqligini ko'rsatsa, yozilmaydi: альбом – albom, апрель – aprel kabi;

b. ayirish belgisi vazifasini bajarsa, ikki xil:

c. **ю, я, е** harflaridan oldin kelganida tushirilib, harf o'rniga **yu, ya, ye** harflari yoziladi: интервью –intervyu, фортепьяно – fortepiano, премьера –premyera kabi;

d. **o, u** harflaridan oldin kelganida belgi o'rniga **y** harfi yoziladi: павильон – pavilyon, Ильин – Ilyin kabi.

5. **ъ** belgisi:

1) rus tilidan olingan so'zlarda tashlanib, undan keyin kelgan **е, ю** harflari o'rniga **ye, yu** harflari yoziladi: разъезд – razyezd, адъютант – adyutant kabi;

2) arab tilidan olingan so'zlarda bu belgi tutuq belgisiga almashtiriladi: маъно – ma'no, санъат – san'at kabi.

## 6. и harfi o'rniga:

so'z oxirida, so'z boshida, old qo'shimchadan keyin, undoshdan keyin s harfi yoziladi: кварц — kvars, целлофан — sellofan, антициклон — antisiklon, конструкция — konstruksiya kabi.

7. Ш harfi o'rniga sh yoziladi: община — obshina, ямщик — yamshik kabi (faqat мешан so'zi quyidagicha yoziladi: meshchan);

8. ы harfi o'rniga i yoziladi: вымпел — vimpel, вышка — vishka kabi.

9. Kirilcha ю harfi ikki harf yu bilan (yurak); я harfi ya (yashik, yashil) va a shaklida (oktabr, sentabr); harfi yo (yordam, yosh) va o (rejissor, likor) shaklida yoziladi.

10. Kirilcha и harfi so'z boshi va oxirida, so'z o'rtasida (undoshdan keyin) s harfi bilan yoziladi: цирк — sirk, центнер — sentner, акцент — aksent, абзац — abzas kabi.

Unli tovushdan so'ng ts yoziladi: милиция — militsiya, агглютинация — agglutinatsiya.

11. Kirilcha е harfi: 1) so'z boshida ye shaklida (ер — yer); 2) so'z o'rtasida e tarzida o'qiladi (keldi).

12. Chet el so'zlarida qo'llanadigan yumshoqlik (ь) va qattqlik belgisi (Ъ) yangi o'zbek alifbosida tushirib yoziladi: альбом — albom, июнь — iyun, рельс — rels, съезд — syezd, субъект — subyeckt.

## IMLO TAMOYILLARI

**Bilib oling!** Tilda so'zlar va qo'shimchalar ma'lum bir qoidalar asosida yoziladi. Bu qoidalar mutaxassislar tomonidan tuzilib, jamoatchilik ma'qullagach, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Imlo quyidagi qoidalar (prinsiplar)gaasoslanadi:

### Fonetik yozuv qoidasi

O'zbek tili imlosining qoidalaridan biri fonetik yozuv bo'lib, ko'p so'z va qo'shimchalarni eshitganimiz bo'yicha yozish mumkin. Masalan, odatda jo'nalish kelishigi -ga qo'shimchasi bilan yoziladi: o'tga, ishga; -k, -q tovushi bilan tugagan so'zlarga -ka, -qa shaklida qo'shiladi, shunday o'qiladi va yoziladi: ko'kka, terakka, buloqqa kabi. Lekin pedagogga, Lafargga, mitingga kabi ruscha (va b.) so'zlar -ga bilan yoziladi.

1. Og'iz, ko'ngil, burun, singil, o'g'il kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, negizidagi -i yo -u tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi: o'g'lim, singlim, ko'nglim; og'zida boli bormi, burni, ulg'ay (ulug'), sarg'ay (sariq) kabi.

2. Yosh, ot, son, ong kabi so'zlarda -a yoki -la qo'shimchalari qo'shilganda, o tovushi a tovushiga aylanadi va shunday yoziladi: angla, ata, yasha, sana.

3. Ikki, yetti sonlariga **-ov** qo'shimchasi qo'shilganda, so'z oxirida **-i** tushib qoladi va shunday yoziladi: ikkov, yettov. 4. **-a** yoki **-ya** bilan tugagan so'zlarga **-v** yoki **-q** qo'shimchalari (ot yasaydigan) qo'shilsa, o'zakdagi a tovushi o tovushiga aylanadi va shunday yoziladi: *so'ra+q-so'roq, bo'ya+q-bo'yoq, sayla+v-saylov, tanla+v-tanlov, sana+q-sanoq.*

5. Fe'l nisbatlari yasovchi qo'shimchalar qanday eshitilsa, shunday yoziladi: kuldir, o'tkaz, ko'rgaz, tutqaz, eshittir, oldir...

6. Qo'shma fe'llarning ayrimlari ajratib ham, talaffuzga ko'ra qo'shib ham yozilaveradi: *ishlay ber - ishlayver, kela oldi- keloldi, o'qiy oldi-o'qiyoldi.*

## Morfologik yozuv

**! Bilib oling.** Morfologik yozuv qoidasi — so'z o'zagi va qo'shimchalarni aynan yozish demakdir. Masalan, fe'lning zamon va shaxs qo'shimchasi **-di** qanday aytilishi va eshutilishidan qat'iy nazar, doimo **-di** yoziladi: *ketti- aytilishi, ketdi - yozilishi; o'qipti-eshitilishi, o'qibdi - yozilishi; aytipti - aytilishi, aytibdi - yozilishi* kabi.

**-dan** va **-da** qo'shimchalari aynan talaffuz qilishdan (dalada, eldan) tashqari, **-tan**, **-ta** tarzida ham aytiladi, lekin hamisha **-dan**, **-da** yoziladi: ishda, maktabdan, balandda, Toshkentda va b.

Jo'nalish kelishigi (**-ga**) negizida **-k**, **-q** tovushlari bo'lgan so'zlarda fonetik yozuv qoidasi asosida yoziladi (buloqqa, terakka); **g**, **g'** tovushlar bo'lgan so'zlarga qo'shilganda morfologik qoida asosida yoziladi (tog'ga, pedagogga). Qolgan o'rinlarda bir xilda (**-ga**) yoziladi: boshga, ishga, maktabga, Samarqandga, o'tga, tuzga va b.

**-iston**, **-inchi** (tartib son yasovchi), **-ib** (ravishdosh), **-il**, **-in** (fe'l nisbatlari) yasovchi qo'shimchalar, **-ish**, **-im** qo'shimchalari negizida **-u** bo'lgan fe'llarga qo'shilganda **-u** (**-yu**) tovushlariga moyil aytiladi: kulub, tug'uldi, uchunchi. Lekin har vaqt aslicha (**-ib**, **-il**, **-inchi**) yoziladi: kulib, tug'ildi, uchunchi, urishdi va b. Lekin urush (ot), yuvundi (ot) so'zlari **-u** bilan yoziladi. Shuningdek, bir o'zak tarzida o'qiladigan va yoziladigan kuyundi, tushunmoq, qutulmoq fe'llarining har ikki bo'g'inida **-u** yoziladi.

Qo'shma va juft so'zlar ko'm-ko'k, qip-qizil kabi sifatlar chiziqcha bilan, har vaqt kabi ravishlar ajratib yoziladi.

## Shakliy yozuv

**Bilib oling!** O'zbekcha so'zlarning boshida va oxirida ikki undosh yonma-yon kelmaydi, ular orasida juda qisqa aytilsa ham **-i** yoziladi: *bir, sir, qizil, bilan, qiz, chiroq va b. Ammo stol, stul, drama, shtab, klub, kross, prokuror, trolleybus, stenografiya, traktor, fikr, zikr* kabi ko'plab so'zlar boshida va oxirida ikki undosh yonma-yon yoziladi va bunday yozuvni shakily yozuv deymiz. Boshqa tillardan olingan bunday so'zlarni o'sha tillarda qanday

yozilsa, shunday shaklda yoziladi: *Nyu-York, gidrometr, gramm, kilovatt-soat, monolog, filologiya; bibliograf, geologiya, zoologiya, monografiya, litografiya, stansiya, sentner, konstitutsiya, koeffitsient, pasport, institut, universitet, fakultet, stadion* kabi soʻzlar ham grafik yozuv asosidadir.

1. Topshiriq: Quyida berilgan soʻzlarni guruhlarga ajratib, jadvalni toʻldiring.

Yoshligidanoq, ziyarak, oʻsibdi, uchib, qoʻnibdi-da, qolibdi, berishibdi, gappa, keltiribdi, buyuribdi, chiqibdi, pishdi, hayratga, tushgan, soʻrabdi, xabar, sayliga, sanogʻiga, qayrilgan, buyrugʻingiz, achchigʻim, boʻyogʻi, fikr, zikr, zoologiya, filologiya, shtab, prokuror, morfologiya, fonetika.

Fonetik tamoyil	Morfologik tamoyil	Shakliy tamoyil

## Orfografiyaga oid lugʻat-diktant

### Soʻzlarni toʻgʻri yozing.

- |                  |                 |                 |                     |
|------------------|-----------------|-----------------|---------------------|
| 1. Rejisor       | 34. Likyor      | 68. Abzast      | 100. Nuqtai na-     |
| 2. Aglitunatsiya | 35. Alʼbom      | 69. Relʼs       | zar, tarjimayu hol  |
| 3. Subekt        | 36. Xamma       | 70. Baxo        | 101. Sez            |
| 4. Buhero        | 37. Ateʼe       | 71. Zehn        | 102. Ihtisos        |
| 5. Elibsoid      | 38. Ayrostat    | 72. Vaakum      | 103. Materiyol      |
| 6. Manfat        | 39. Batxoʻr     | 73. Marvorit    | 104. Roya           |
| 7. Iʼshoq        | 40. Ashob       | 74. Jaxon       | 105. Pishq          |
| 8. Xoxish        | 41. Hushnud     | 75. Baht        | 106. Habar          |
| 9. Xosil         | 42. Islox       | 76. Nikox       | 107. Ahborot        |
| 10. Kilogram     | 43. Mayus       | 77. Rʼay        | 108. Metal          |
| 11. Etʼibor      | 44. Numʼon      | 78. Shula       | 109. Tab            |
| 12. Moʼtadil     | 45. Moʼʼtabar   | 79. Inom        | 110. Moʼʼjiza       |
| 13. Maʼsul       | 46. Uziq        | 80. Yutiq       | 111. Qaʼtiy         |
| 14. Burushuq     | 47. Bulduruq    | 81. Qayr        | 112. Uyushuq        |
| 15. Orzuying     | 48. Orzuyimiz   | 82. Orzuyingiz  | 113. Orzuyim        |
| 16. Masʼharaboz  | 49. Shovilla    | 83. Lovilla     | 114. Parvoing       |
| 17. Tokga        | 50. Yoʼlakchaga | 84. Konikgach   | 115. Gurilla        |
| 18. Chopiqga     | 51. Qoʼrqudek   | 85. Achchiqqina | 116. Kechikgudak    |
| 19. Bugʼqa       | 52. Sogʼqa      | 86. Fanlar Aka- | 117. Barkka         |
| 20. Xush xabar   | 53. Xamsuhbat   | demiyasi        | 118. Sigʼquncha     |
| 21. Soviq mijoz  | 54. Oʼrin bosar | 87. Orom baxsh  | 119. Bugʼdoy rang   |
| 22. Hay-hayla    | 55. Gij gijla   | 88. Ish yoqmas  | 120. Pir-pirak      |
| 23. Qirgʼiy koʼz | 56. Qiyma taxta | 89. Sher yurak  | 121. Bodom qavoq    |
| 24. Choʼl yalpiz | 57. Qashqar gul | 90. Osh rayxon  | 122. Koʼz oynag     |
| 25. Soʼz boshi   | 58. Ming boshi  | 91. Qor yogʻdi  | 123. Kilovat soat   |
| 26. Mirzaobot    | 59. Oʼrta osiyo | (marosim)       | 124. Yangi yoʼl     |
| 27. Foto apparat | 60. Bayram oldi | 92. Olma qoqi   | 125. Oʼrta chirchiq |

28. TOSHdu ning	61. O'XDPMK	93. Ko'xna urganch	126. SAMdu
29. Xayrxo'shlash	63. Yozdi oldi	94. Yarim ovtamat	127. Kechayu-
30. Dar-badar	64. Ochildastirxon	95. Him	kunduz
31. XX-asr, X-sinf	65. Ochiqdan ochiq	96. K o ' c h a m a	128. Ro'-baro
32. Guli beor,	66. S h i m o l i y	ko'cha	129. Ko'rgan-ov
33. Mudovaa Vaziri	kavkaz	97. O'g'limey	130. Milisiya
	67. «O'zbekiston	98. Ko'pdan ko'p	131. Og'qan
	qahramoni» unvoni	99. R a m a z a n	
		Hayiti	

## Orfografiyaga oid bilimingizni test topshiriqlari asosida nazorat qiling I -variant

1. Yarog', dog', tog' so'zlariga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa, qaysi yozuv asosida yoziladi?

- A. fonetik  
B. shakily  
C. morfologik  
D. morfologik va fonetik

2. Tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tavsiflab, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarini aniqlagan holda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik deb nomlanuvchi yo'nalishga asos solgan shaxsni aniqlang.

- A. Alisher Navoiy  
B. Mahmud Qoshg'ariy  
C. Yusuf Xos Hojib  
D. Abdurauf Fitrat

3. Qaysi qatordagi so'zlarda «o» unlisi «a» singari talaffuz qilinadi?

- A. zamon, bahor, savol  
B. tonna, to'rt, okulist  
C. dekoratsiya, monitoring, omonim  
D. boks, noyabr, antonim

4. Qaysi gapdagi so'zlar imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan?

- A. Hammamiz bir payola bir payola bug'i chiqib turgan sutdan ichdik  
B. Qorong'uda turtingan holda otinbibi paydo bo'ldi  
C. Keling shoirdan bir sher eshitsak  
D. Axir u biror marta bo'lsin yoniga kelganmi, ovqat berganmi, iltifot ko'rsatganmi?

5. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A. fidoiy, tushkin, hursand  
B. tushuntirmoq, komolot, tushkin  
C. farzand, mulohaza, zamon  
D. zaval, shiyor, hukim

6. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A. oynayi jahon, tarjimayi hol, nuqtayi nazar  
B. oynai jaxon, tarjimayi hol, nuqtai nazar  
C. oynayi jaxon, tarjimai hol, nuqtai nazar  
D. oynayi jaxon, tarjimai xol, nuqtai nazar



7. Oshpichoq, qiymataxta, ko'zoynak yasama so'zlarining qo'shib yozilishi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A. o'zida bor belgi asosida yasalganligi sababli
- B. biror narsaga nisbatlash asosida yasalganligi sababli
- C. ot-ot tarzida yasalgan qo'shma gap bo'lganligi sababli
- D. narsaning biror maqsad uchun mo'ljallanganligini bildirgani sababli

8. Qaysi qatordagi so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?

- A. Krepdeshin, oliyjanob
- B. Parfumeriya, simpoziy
- C. Supirgi, istibdo
- D. Parfumeriya, oliyjanob

9. Qaysi so'zlarda bo'g'iz undoshi qo'llanilmaydi? 1. Homsemiz. 2. Halqparvar. 3. Har kim. 4. Kamhosil. 5. Hushbichim.

- A. 1, 3, 5
- B. 2, 4
- C. 4, 5
- D. 1, 2, 5

10. G'azapdan o'zingni asra, chunki u tufayli inson o'z ishlarini, ezgu maxsatlarini unitadi. Ushbu gapda nechta so'zda imloviy xatoga yo'l bor?

- A. 3 ta
- B. 2 ta
- C. 1 ta
- D. 4 ta

11. Noto'g'ri yozilgan so'zni toping.

- A. manfaatdorlik
- B. iztirob
- C. maxliyo
- D. mutaxassis

12. 1. Qirqbo'g'im. 2. Chala savod. 3. Millatlar aro. 4. Havo rang. 5. Chanqov bosdi. 6. Qashqar gul. Berilgan ushbu qo'shma so'zlar qanday yoziladi?

- A. Barchasi ajratib yoziladi
- B. Barchasi qo'shib yoziladi
- C. 1-3-5 ajratib, 2-4-6 qo'shib yoziladi
- D. 3-4-5 ajratib, 1-2-6 qo'shib yoziladi

13. Narsani boshqa narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qanday yoziladi?

- A. Qo'shib yoziladi
- B. Ajratib yoziladi
- C. Chiziqcha bilan yoziladi
- D. Ayrim hollarda qo'shib, ayrim hollarda ajratib yoziladi

14. Qaysi so'zda tutuq belgisi unlini undoshdan ajratib aytilishi uchun xizmat qiladi?

- A. ma'raka
- B. ta'zim
- C. in'om
- D. Is'hoq

15. Berilgan so'zlardan qaysi biri noto'g'ri yozilgan?

- A. dardisar
- B. achchiqdan achchiq
- C. yildan yilga
- D. tim qora

16. Noto'g'ri yozilgan so'zni ko'rsating.

- A. rang-barang
- B. dar-badam
- C. dam-badam
- D. toshdan toshga

17. Qaysi soʻzlarning 2-boʻgʻinida u yoziladi? 1. Tush..rmoq. 2. Tugʻ..lmoq.  
3. Qur..lmoq. 4. Tush..rmoq.

A. 1, 2, 3, 4    B. 1, 3    C. 1, 3, 4    D. 1

18. Qaysi soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi? 1. Qip qizil. 2. Qanchadan qancha. 3. Uyma uy. 4. Toʻppa toʻgʻri.

A. 1, 3    B. 1, 2, 4    C. 1, 3, 4    D. 1, 2, 3, 4

19. Qaysi soʻzlarning ikkinchi boʻgʻinida u yoziladi? 1. Kul..shmoq. 2. Yug..rmoq. 3. Bur..lmoq. 4. Ulg..rmoq.

A. 2, 3    B. 2, 4    C. 1, 2, 3, 4    D. 1, 2, 3

20. Qaysi soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi? 1. Yangidan yangi. 2. Dum dumaloq. 3. Dam badam. 4. Ochiqdan ochiq.

A. 1, 2, 3, 4    B. 1, 2, 3    C. 1, 2, 4    D. 2, 3

21. Qaysi qatordagi soʻzda chiziqcha notoʻgʻri berilgan?

A. Toʻppa-toʻgʻri B. 26-uy 6-xona  
C. Erta-yu kech    D. Toshidan-toshga

22. Berilgan gaplarning qaysi birida imloviy xatoga yoʻl qoʻyilgan?

A. Imloviy xatoga yoʻl qoʻyilmagan  
B. Sening istiqboling, saodating deb, kurashadi mardonavor qarilar, yoshlar.  
C. Chol oʻgʻlining oʻychan koʻzlariga tikilib, Botirolidan gapira ketdi.  
D. Adolatning bu soʻzlari brigada qizlarining jangavor shiori boʻlib qoldi.

23. «Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari» (1995) ga asosan har bir soʻzi bosh harf bilan yoziluvchi birliklar qatorini belgilang.

A. Oʻzbekiston qahramoni  
B. Barchasidagi soʻzlar bosh harf bilan yoziladi  
C. Xotira va qadrlash kuni  
D. Mustaqillik kuni

24. Qaysi javobdagi soʻz toʻgʻri yozilgan?

A. maʼsul    B. maʼsud    C. maʼshum    D. maʼyus

25. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga koʻra qaysi soʻzlarga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qoʻshilsa, u morfologik qoida asosida yoziladi?

A. Soʻroq, qarmoq    B. Eshik, teshik  
C. Eshik, soʻroq, barg, bogʻ    D. Barg, togʻ

26. Notoʻgʻri yozilgan soʻz qaysi javobda berilgan?

A. Xushhazm    B. Obroʻli  
C. Obroʻytalab    D. Mutadil

27. Ey farzan! Mulohaza bilan ish qil. Zamonga munosib boʻl. Doyimo kamtar boʻl. Kamtarga komol, manmanga zavol, degan maqolni also unitma.

Bu sening shiyoring bo'lsin. Ushbu parchadagi nechta so'zda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?

A.6 B.5 C.4 D.7

28. Sifat oldidan kelib belgining ortiq yo kamligini bildiradigan birliklarning qaysilari qo'shib yoziladi? 1. To'q 2. Jiqqa 3. Tim 4. Liq 5. Lang 6. Och

- A. Barchasi qo'shib yoziladi
- B. 1, 2, 5 ajratib; 3, 4, 6 qo'shib yoziladi
- C. Barchasi ajratib yoziladi
- D. 1, 2 ajratib, 3, 4, 5, 6 qo'shib yoziladi

29. Yangi imlo qoidasiga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri qo'shib yoziladi?

- A. Kam quvvat
- B. Liq to'la
- C. Lang ochiq
- D. Och sariq

30. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A. Byurakrat, broker, biznes
- B. Valyuta, inflyatsiya, byudjet
- C. Abstrakt, aksioner, arbitr
- D. Litsensiya, shosse, kompensatsiya

31. So'zlarni to'g'ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmuyi...

- A. Fonetik qoidalar deyiladi
- B. Orfoepiya qoidalari deyiladi
- C. Orfografiya qoidalari deyiladi
- D. Grammatik qoidalar deyiladi

32. Imlo qoidasiga ko'ra qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi xato yozilgan?

- A. Alp-ali p
- B. Adl-adil
- C. Ahl-ahil
- D. Qism-qisim

33. Qaysi o'rinda bosh harflar imlosiga oid xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A. Yevropa Ittifoqi Kengashi
- B. O'zbekiston respublikasi xalq artisti
- C. «Sog'lom avlod uchun» ordeni
- D. «Oltin Yulduz» medali

34. Qaysi qatorda barcha so'zlarda nuqtalar o'miga o unlisi yoziladi?

- A. Ashq...l, dashq...l, tan...var, zalv...rli
- B. Z...mon, s...vol, j...vob
- C. Taq...zo, taks...motor, par...voz
- D. Jangov...r, mardonov...r, devonav...r

35. Qaysi qatordagi so'z imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan?

- A. Bazur
- B. Bazo'r
- C. Bahuzur
- D. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan

36. Qaysi qatordagi juft sifatlar yangi imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan?

- A. Balandu past
- B. Kattayu-kichik
- C. Yaxshi-yu yomon
- D. Oqu-qora

## 2-variant

1. Imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan so'zni toping.  
A. Qat'i nazar    B. Hasharot    C. Qaynana    D. Zalvorli
2. Qaysi so'zlar imlo qoidasiga ko'ra noto'g'ri yozilgan?  
A. Tayziq, qovirg'a    B. Qavariq, evfemizm  
C. Shaxdam, ham    D. Qabariq, xatti-harakat
3. Imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan so'zni belgilang.  
A. Sa'y-harakat    B. Say'i-harakat  
C. Saiy-harakat    D. Saiy-harakat
4. Qaysi qatorda barcha so'zlarda nuqtalar o'rniga bo'g'iz undoshi ishlatiladi?  
A. ...ad-...isobsiz, ...aridorbop, ...iyonatkor  
B. ...avoza, ...ilpiramoq, ...alloslamoq  
C. ...ufiyona, ...urliqo, ...urkovuch.  
D. ...arom-...arish, ...uzur-...alovat
5. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri xato yozilgan?  
A. Parvoyim    B. Avzoyim    C. Orzuyim    D. Obro'yim
6. Imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan so'zlarni toping.  
A. Integral, hoshiya    B. Demokratik, fahimli.  
C. Injiner, hayifsan    D. Indiks, hayxot
7. Qaysi so'zlarda qo'sh unli xato qo'llanilgan?  
A. Taalluqli, vakuum    B. Taassuf, inshoot  
C. Taaqib, tajoovuz    D. Shuursiz, taajjub
8. Qaysi gap tarkibida fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan ot mavjud?  
A. Barcha javoblar to'g'ri  
B. Vujudimda hokimlik qilayotgan o'sha hislar o'rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi.  
C. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, dadillik baxsh etgandek bo'ldi.  
D. Mehmonlarning oldiga shirinlik va issiq choy keltirib qo'ydi.
9. Imlo qoidasiga ko'ra berilgan so'zlarning qaysi birida ikki undosh orasidagi i tovushi ortiqcha qo'llangan? 1. Matin 2. Xiroj 3. Faqir 4. Jazim 5. Zig'ir 6. Muhir  
A. 2, 4, 5    B. 1, 2, 3, 4, 5, 6    C. 1, 5, 6    D. 1, 4, 6

10. Xato yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A. Mo''tadil, mo''tabar      B. Ta'na, tana  
C. Nasha, nash'a              D. Surat, sur'at

11. Qaysi so'zlar tarkibidagi harflarning joylashuvi alifbo sirasidagi harflarning ketma-ketligiga mos keladi?

- A. atir, asir, arzon              B. anor, adil, amr  
C. birov, bet, bela                D. mahr, mehr, muhr

12. Qaysi qatordagi so'zlarga(yangi imlo qoidasiga ko'ra) I.II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilsa, o'zakdan so'ng tovush qo'shib aytiladi va yoziladi?

- A. tilak, bek, tayoq  
B. parvo, obro', mavqe  
C. qorin, o'g'il, singil.  
D. barcha so'zlarga egalik qo'shimchasi to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi

13. Men esa oshig'ing

Sening eng g'arib,  
Tundan so'z qarz olib  
Tonga tutguvchi,  
Sening yoningda ham  
Seni axtarib,  
Sening yoningda ham  
Seni kutguvchi.

Ushbu misralarda egalik qo'shimchasi qo'shilgan fonetik yozuv asosidagi nechta so'z mavjud?

- A. 6      B. 1      C. 4      D. 2

14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 1993-yil 2-sentabrda      B. 1989-yil 21-oktabrda  
C. 1995-yil 24-avgustda      D. 1996-yil 1-sentabrda

15. Imlo qoidasiga ko'ra qaysi so'z to'g'ri yozilgan?

- A. mumiyo      B. uzur      C. mayil      D. maker

16. «O'zbek tilining asosiy imlo-qoidalari» (1995) ga asosan qaysi qatordagi so'zlar ajratib yozilishi kerak?

- A. Qum qog'oz, Buloq boshi      B. hamma vaqt, har kim  
C. dev sifat, ish yoqmas              D. bir pas, bir yo'la

17. eg(qayir), ek(ko'chat ek) so'zlariga -gan qo'shimchasi qay tarzda qo'shiladi?

- A. eggan, ekgan  
B. eggan, ekkan

C. egkan, ekan

D. ekan, ekan shaktda qo'shilib, shakldosh so'zlar hosil bo'ladi.

18. Quyidagi so'zlardan qaysi biri bo'g'iz undoshi bilan boshlanishi kerak? 1. Xurkak 2. Xarir 3. Xushhol 4. Xo'ppak 5. Xalqob

A. 1,2,5

B. 2,3

C. Barchasi

D. 5

19. Imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

A. Mudofaa Vazirligi, Tibbiyot Birlashmasi

B. Barcha so'zlar imlo qoidasiga muvofiq yozilmagan

C. O'zbekiston Respublikasi, Davlat Test Markazi

D. «Umid» jamg'armasi, Yevropa Ittifoqi

20. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

A. xushomadgo'y, shod-xurram

B. xukumat, xasharot

C. jahongashta, qaxqaxa

D. sabzavot, ilxom, xavf-xatar

21. Berilgan so'zlardan qaysi birining ikkinchi bo'g'inida u yoziladi?

A. Mushf...q, muh...m

B. Muq...m, muh...t

C. Mushk...l, mug...z

D. Mutr...b, musl...m

22. Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga urilib, shovillab oqayapti. Berilgan gapda qaysi turkumga oid so'zni yozishda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?

A. Ravish

B. Fe'l

C. Ravishdosh

D. Ot

23. Nuqtalar o'miga bo'g'iz tovushi yoziladigan so'zlarni toping. 1) xayr...ohlik; 2) xayr-e...son; 3) hoy-u...avas; 4) mav...um; 5) ma...fiy

A. 1, 2, 3, 4, 5

B. 2, 3, 4

C. 1,3,5

D. 1, 4

24. Quyida keltirilgan qaysi so'zlarda nuqtalar o'miga «d» yoziladi? 1. Ta...biq 2. Ta...bir 3. Ta...qiq.

A. 1, 2, 3

B. 2, 3

C. 1, 2

D. 1, 3

25. Nuqtalar o'miga «h» yoziladigan so'zlarni toping. 1. E...son 2. Iso... 3. Xo...lamoq 4. Ru...sat

A. 1, 2, 3, 4

B. 1, 2

C. 1, 3, 4

D. 1, 2, 3

26. Qaysi qatorda narsaning biror ish, maqsad uchun mo'ljalanganligini bildiruvchi qo'shma otlar berilgan?

A. Tokqaychi, nosqovoq, achchiqtoq

B. Kirsovun, qiymataxta, bodomqovoq

C. Tokqaychi, ko'zoynak, kirsovun

D. Qiymataxta, oshrayhon, oybolta

27. Qaysi qatorda narsani boshqa biror narsaga nisbatlash, qiyoslash, o'xshatishni bildiruvchi qo'shma otlar berilgan?

- A. Qo'ziqorin, mingoyoq, otquloq
- B. Devqomat, sheryurak, qirg'iyko'z
- C. Achchiqtosh, karnaygul, suvilon
- D. Oshrayhon, olaqarg'a, qizilishton

28. Qaysi qatorda narsani joyga nisbat berishni bildiruvchi qo'shma otlar berilgan?

- A. Olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh
- B. Karnaygul, achchiqtosh, suvilon
- C. Olaqarg'a, qo'ziqorin, qirg'iyko'z
- D. Suvilon, qashqargul, tog'olcha

29. 1) shahar; 2) tosh; 3) Ishoq; 4) shodlik; 5) ashob. Ushbu so'zlardan qaysi birida s va h harfi orasiga tutuq belgisi qo'yiladi?

- A. Faqat 3
- B. 2, 3, 5
- C. Faqat 5
- D. 3, 5

30. Berilgan so'zlardan qaysi biri ajratib yoziladi?

- A. Bodomqovoq
- B. Temureshik
- C. So'zboshi
- D. Hammasi ajratib yoziladi

31. «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» necha banddan iborat?

- A. 80 banddan
- B. 82 banddan
- C. 84 banddan
- D. 72 banddan

32. To'g'ri yozilgan so'zni toping.

- A. Uyqu
- B. Taqozo
- C. Muvaffaqiyat
- D. Hammasi to'g'ri yozilgan

33. Qaysi so'zda tutuq belgisi noo'rin qo'llangan?

- A. Ta'qiq
- B. Ta'm
- C. Ma'mur
- D. Ma'yus

34. Qaysi qatordagi so'z xato yozilgan?

- A. Adil
- B. Adj
- C. Uzv
- D. Tayziq

35. Xato yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A. Qimmatbaho, shahsuvor
- B. Qaytadan, hoynahoy
- C. Qaynsingil, hayhot
- D. Lalimikor, hamrox

36. «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» (1995)ga asosan qaysi so'z ajratib yoziladi?

- A. Bug'doy rang
- B. Sovuq mijoz
- C. Tim qora
- D. Yarim avtomat

---

---

## ORFOEPIYA (TALAFFUZ) HAQIDA UMUMIY MALUMOT

Og'zaki nutqda bir necha xil talaffuz qilinuvchi tovush, qo'shimcha va so'zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yori sanaladi.

To'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga orfoepiya (yunoncha: orfo – «to'g'ri», epos – «so'zlamok», «nutq») deyiladi.

Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarurdir. Talaffuzni belgilashda esa, tovushlarning to'g'ri aytilishi ahamiyatlidir. Tovushlar buzib talaffuz qilinsa, so'zning ma'nosi buziladi, ta'siri yo'qoladi. Adabiy talaffuz qoidalarini belgilash tovushlar, urg'u, intonatsiya kabi vositalarga asoslanadi.

O'zbek tilida so'zlashuvchilar o'zbek adabiy tilida, shuningdek, o'zbek tilining mahalliy sharoitiga xos sheva va dialektida ham so'zlashadilar. Shunga ko'ra o'zbek adabiy tili talaffuzi dialekt va sheva talaffuzidan farq qiladi. Masalan, adabiy tildagi keldik so'zi shevalarda keldu, kelduvuza, kelduvuz, keldimiz, galdik kabi; adabiy tildagi u yerga, bu yerga so'zlari shevalarda o'tga, bo'tga, aqqa, baqqa kabi talaffuz qilinadi. Bu so'zlarning shevalardagi bunday talaffuz variantlari adabiy til an'analari mos kelmaydi, yani bunday talaffuz bir yoki bir tipli shevalarga xos bo'lgani uchun umumxalq tilining talaffuzini o'zida aks ettirmaydi, og'zaki nutqda har xillikni ko'paytiradi.

Og'zaki nutqning to'g'ri talaffuz qilish me'yori sifatida ko'pchilik shevalarga xos bo'lgan, umumxalq tilining talaffuzini o'zida aks ettiradigan holatlar olinadi. Masalan, maktab, odob, kitob kabi so'zlarning oxirida b undoshining og'zaki nutqda jarangsizlashib p tarzida talaffuz etilishi; do'st, go'sht, g'isht, xursand, baland kabi so'zlarning oxiridagi t, d tovushlarining og'zaki nutqda tushib qolishi ko'pchilikning, umumxalq tilining talaffuzini o'zida aks ettiradi. Albatta, bunday holatlarni to'g'ri talaffuz orfoepiya me'yoriga mos keladi deyish mumkin. O'zbek tili orfoepiyasining to'g'ri talaffuz normalarini belgilashda fonetikaning, ayrim tovushlar talaffuzi qonuniyatlarining o'rmi kattadir.

### Adabiy talaffuz qoidalari

#### Bilib oling!

1. Adabiy talaffuz butun shevalar uchun umumiy bo'lgan qoidalar asosida belgilanadi. Adabiy talaffuz so'z bo'g'inlariga urg'uni to'g'ri qo'yishga bog'liq bo'ladi. Odatda, ona tilidagi so'zlarning oxirgi bo'g'iniga urg'u tushadi: *kito b'kitobxo n- kitobxonta'r*.

2. Yuklamalar urg'usiz talaffuz qilinadi: *si'z-a, si'z-da, si'zmi* kabi.

3. O'zlashgan so'zlarning ko'pida urg'u birinchi yoki ikkinchi bo'g'inga



tushadi: *a'ql, fi'kr, va'qt, u'zr, hu'km, to'nma, muhi'm, mudi'r, muni's, tipolo'giya* kabi.

4. Chet so'zlarning urg'u olmagan oldingi o tovushi a tarzida, keyingi bo'g'indagi urg'uli o va e tovushlari to'g'ri talaffuz etiladi: dotse`nt (datsent), izoto`p (izatop), morfe`ma (marfema) kabi.

5. Obraz, traktor, direktor kabi so'zlarning oxirgi bo'g'inidagi a, o unilari talaffuz qilinmasa ham yoziladi.

6. Tutuq belgisidan oldingi unli yoki undosh cho'ziq, ajratib talaffuz qilinadi: a'lo, Ra'no, ta'zim, ta'b, ra'y, mas'ul, qat'iy, san'at kabi.

Demak, orfoepiya adabiy til uchun yagona talaffuz me'yori bo'lishini talab qiladi. Orfoepiyaning adabiy talaffuz qoidalari to'plamiga unli tovushlarning talaffuzi, ayrim undosh tovushlarning talaffuzi, ayrim grammatik shakllar talaffuzi kiradi. Urg'u va intonatsiya ham to'g'ri talaffuz qilishda muhim ahamiyatga ega.

## 1. Unli tovushlar orfoepiyasi

**I unlisi.** I unlisining quyidagi talaffuz holatlar mavjud: a) i tovushi tilak, bir, tish, dil kabi so'zlarda qisqa; b) ilmiy, adabiy, lirika, idealist, radiy kabi so'zlarning urg'uli bo'g'inida cho'ziq; v) qish, qir, g'isht, xirmon, g'ilof kabi so'zlarda ruscha o'tovushiga moyil qattiq; g) arab-fors va rus tilidan o'zlashgan bir bo'g'inli so'zlarning qo'sh undosh oraliq'ida qisqa i tovushi qo'shib talaffuz etiladi: *aql, bahs, litr, metr, vazn, gips, mehr* kabi.

**U unlisi.** Bu unli quyidagi talaffuz xususiyatlariga ega: a) ufq, umr, ukrop, ustoz kabi so'zning boshida; mas'ul, mash'um kabi so'zlarda tutuq belgisidan keyin kelsa, u unlisi aniq aytiladi; b) kul, kun, xum, xulosa, xumor, g'urbat kabi so'zlarda qisqa; v) suv, mazmun, mafkura, maftun, ma'mur, tikuv, to'quv, quvvat kabi hamda tundra, manufaktura kabi ruscha-internatsional so'zlarning urg'uli bo'g'inida cho'ziq aytiladi; g) uzum, uzuk, tutun, butun, turmush, chuqur kabi so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi hamda sovun, qovun, dovul, omuxta kabi so'zlarda u unlisi qisqa i tarzida talaffuz qilinadi. Ayrim holatlarda bu unli parallel tarzda ham u, ham i tarzida aytiladi.

**O'unlisi.** O'unlisi quyidagicha talaffuz qilinadi: a) so'lim, po'choq, to'plam, no'noq kabi so'zlarda qisqa; b) mo'l, zo'r kabi bir bo'g'inli so'zlarda, ro'baro', xushro'y, gulro'kabi so'zlarning oxirgi bo'g'inida, mo'tabar, mo'tadil kabi so'zlarda cho'ziq aytiladi;

**E unlisi.** Bu unli quyidagicha talaffuz xususiyatlariga ega: a) erta, ekin, meva, tekin kabi so'zlarda keng aytiladi; b) ketmon, mergan, tepki, sezgir kabi ikki undosh o'rtasida bir oz qisqa; v) yetti, yelkan, yetmish kabi so'zlarning boshidagi «e», «y» tarzida; g) adres, attestat, delegatsiya, vazelin kabi ruscha-internatsional so'zlarda «i» ga moyil talaffuz etiladi:

adris, attistat, deligatsiya, vazilin kabi; d) e'lon, e'tibor, e'tiqod, e'tiroz kabi so'zlarda tutuq belgisidan oldin cho'ziq talaffuz qilinadi.

**A unlisi.** A unlisi quyidagi talaffuz holatlariga ega:

A) aql, asr, askar, atlas kabi, qand, qarz, xat, g'am kabi hamda sur'at, qal'a, bil'aks kabi tutuq belgisidan keyin kelganda, aniq zarb bilan aytiladi; b) a'lo, ma'no, ta'na, ta'zim kabi tutuq belgisidan oldin kelgan "a" cho'ziq; v) manfaat, taassurot, taajjub, taassuf kabi, mudofaa, matbaa kabi yonma-yon kelgan «a» unlisidan biri talaffuzda tushib qoladi; g) mubolag'a, muzokara, muhokama, munosabat kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inidagi «a» unlisi «i» ga moyil aytiladi; d) shavkat, shavla, gavda, davlat, mavsum kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi «a» unlisi «o» ga moyil talaffuz qilinadi.

**O unlisi.** O unlisi quyidagicha talaffuz xususiyatlariga ega:

1) o'zbekcha so'zlarda orqa qator keng o unlisi sifatida (ota, xola, fido), chet so'zlarda old qator tor o (o) unlisi (tonna, talon) kabi talaffuz qilinadi;

2) ona, ov, osh, anor, bola, bodom, inson, tog', qor kabi so'zlarda aniq zarb bilan aytiladi; b) avzo, zebo, sabo, fido, xato kabi so'zlarning oxirida; zotan, notiq, valida, joriya kabi so'zlarning urg'uli bo'g'inida kelgan o unlisi cho'ziq talaffuz qilinadi; 3) opera, nota, rol, tok kabi ruscha-internatsional so'zlarda o'tarzida; botanika, gastronom, kolxoz, kompot kabi hamda televizor, ekvator, novator kabi ruscha-internatsional so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi a, i tovushlariga moyil talaffuz qilinadi.

## 2. Ayrim undosh tovushlar orfoepiyasi

Undosh tovushlar talaffuzida hech qanday o'zgarishga uchramasdan so'zning turli o'rinlarida kelib aynan aytiladi va yoziladi. Lekin, shu bilan birga, ayrim undosh tovushlar talaffuzda o'zgarishga uchraydi, bu ularning so'zda kelgan o'rniga, qanday tovushlar bilan yonma-yon kelishiga bog'liq bo'ladi.

Undoshlarning quyidagi talaffuz holatlari orfoepiya me'yoriga kiritilgan:

1) so'z oxirida kelgan b undoshi jarangsizlashib, p tovushiga moyil aytiladi: *maktab-maktap, odob-odop, sarob-sarop kabi;*

2) so'z oxirida kelgan d undoshi jarangsizlashib t tarzida aytiladi: *iqtisod-iqtisot, daromad-daromat kabi;*

3) Jj undoshi juda, tijorat, vaj so'zlarida jarangli qorishiq undosh kabi, jurnal, mujda, tiraj kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undosh sifatida talaffuz etiladi. So'z o'rtasida va oxirida kelgan qorishiq portlovchi j undoshi ch tarzida aytiladi: *lahja-lahcha, avj-avch, mavj-mavch, iloj-iloj kabi;*

4) ruscha-internatsional so'zlar tarkibidagi v undoshi f undoshiga moyil talaffuz qilinadi: *avtomat-afstomat, avtoruchka-afstorchka, avtobus-afstobus, ustav-ustaf, passiv-passif kabi;*

5) **Ff** undoshi fursat, talaffuz, sof so'zlarida **p** emas, **f** kabi talaffuz qilinadi;

6) **Xx va Hh** undoshlarining yozilishi va talaffuzida farq bo'ladi: **Xx** - chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undosh bo'lib, **Hh** - jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshidir. Bu undoshlarni farqlamaslik ma'no o'zgarishiga olib keladi: *shox - shoh, har - xar, hil - xil* kabi.

7) ayrim so'zlarning o'rtasida, oxirida qo'llangan **z** undoshi **s** undoshi tarzida aytiladi: izhor-ishor, iztirob-istirop, faraz-faras kabi; shuningdek, ruscha-internatsional so'zlarda ham shunday holat kuzatiladi: *gipnoz - gipnos, karniz - karnis, narkoz - narkos* kabi;

8) ayrim undoshlardan oldin qo'llangan **q** undoshi **x** tarzida aytiladi: *vagt-vaxt, naqd-naxt, to'qson-to'xson, maqsad-maxsat, taqsimot-taxsimot*;

9) so'z oxirida kelgan **k, q** jarangsiz undoshlari bazan jarangli **g, g'** tovushiga moyil aytiladi: *-bilak-bilag, yurak-yurag, o'roq-o'rog', sariq-sarig'* kabi; shuningdek, ruscha-internatsional so'zlarda ham **k** undoshi jarangli **g** tarzida aytiladi: *znachok-znachog, galstuk-galstug* kabi.

10) ayrim so'zlarda so'z oxirida kelgan **t, d** undoshlari talaffuzda tushib qoladi: *go'sht-go'sh, g'isht-g'ish, xursand-xursan, baland-balan* kabi;

11) birinchi va ikkinchi bo'g'in oxirida kelgan **n** undoshi o'zidan keyin kelgan **b** undoshining ta'sirida **m** tarzida aytiladi: *tanbur-tambur, sunbul-sumbul, yakshanba-yakshamba, manba-mamba* kabi;

12) o'zlashma so'zlar so'z o'rtasida, oxirida yonma-yon kelgan ikki bir xil undoshdan biri talaffuzda tushib qoladi: *mujassam-mujasam, munavvar-munavar, taassurot-taasurot; grammatika-gramatika, metall-metal* kabi.

13) so'z bo'g'inlaridagi urg'uni o'z o'rnida qo'yib talaffuz qilmaslik, so'z ma'nolarini o'zgartirishi mumkin: *bo'g'lar - bog'lar, su'rma - surma, qishlo'qcha - qishloqcha, a'tlas - atlas, eti'k - e'tik, o'lma - olma, mexa'nik-mexani'k* kabi.

## Ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi

O'zbek tilida unli tovushlar, ayrim undosh tovushlarning orfoepik me'yorlari bilan birga, so'zga qo'shiladigan grammatik shakllarning ham quyidagi orfoepik talaffuz me'yorlari mavjud. Ayrim grammatik shakllarning talaffuz holatlari yozuvga ta'sir qilmagan holda, ayrimlar grammatik shakllarning talaffuziga binoan yozuvda berilishi orfoepiyaning imlo qoidalariga kiritilgan.

Grammatik shakllarning talaffuzi yozuvda aks etmaydigan quyidagi ko'rinishlar ham mavjud:

1) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**: *sinfga-sinfka, kuchga-kuchka, ishga-ishka, darsga-darska* kabi so'zlarda **-ka** tarzida aytiladi;

2) o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari **-da, -dan**: *universitetda-universitetda, gilosdan-gilostan, kurashda-kurashda, yog'ochdan-yog'ochtan*

*kabi -ta, -tan* tarzida aytiladi. *Bahorda, kuzdan, bozordan* kabi soʻzlarda -da, -dan tarzida aytiladi;

3) uch, toʻrt sonlariga *-ov, -ala* qoʻshimchalari qoʻshilganda, bir *ch, t* tovushlari orttirilib talaffuz qilinadi: *uchala-uchchala, toʻrt-toʻrtala* kabi;

4) *-cha, -chan* qoʻshimchalari oxiri *t, d* undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda: *adabiyatchi-adabiyochchi, harakatchan-harakachchan, tanqidchi-tanqichchi* kabi talaffuz qilinadi;

5) *-boz, -bon* qoʻshimchalari *dorboz, kaptarboz, masxaraboz, darvozabon* kabi soʻzlar tarkibida *-voz, -von* shaklida aytiladi: *dorvoz, kaptarvoz, masxaravoz, darvozabon* kabi;

6) oʻtgan zamoni hamda III shaxsni koʻrsatuvchi *-di* qoʻshimchasi, oxiri *b* undoshi bilan tugagan fellarga qoʻshilganda *yozibdi-yozipti, boribdi-boripti, chopdi-chopti* kabi jarangsiz undosh *t* undoshi bilan tugagan soʻzlarda ham *aytdi-aytti, koʻrsatdi-koʻrsatti, bekkidi-bekitti* kabi aytiladi;

7) oʻtgan zamon sifatdosh qoʻshimchasi *-gan* jarangsiz *t, sh, ch* undoshi bilan tugagan fellarga qoʻshilganda, *ketgan-ketkan, shoshgan-shoshkan, kechgan-kechkan* kabi aytiladi;

8) *-lik* ot yasovchi qoʻshimchasi ogʻzaki nutqda *tinchlik-tinchli, yaxshilik-yaxshili, shodlik-shodli* kabi talaffuz qilinadi.

## LEKSIKOLOGIYA

Maʼlum bir tildagi soʻzlar yigʻindisi shu tilning lugʻat tarkibini tashkil qiladi. Leksika atamasi ikki maʼnoda qoʻllaniladi:

a) tilning lugʻat tarkibi, soʻzlar yigʻindisi;

b) lugʻat tarkibini oʻrganuvchi tilshunoslikning alohida boʻlimi.

Leksika atamasining ikkinchi maʼnosi uchun leksikologiya atamasi ham qoʻllanadi.

! Leksikologiya grekcha *lexikos* «soʻz, soʻzga doir» va *logos* «taʼlimot» soʻzlarining birikuvidan olingan boʻlib, leksika (soʻz) haqidagi taʼlimot demakdir. Demak, soʻz va uning maʼnolarini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimiga leksikologiya (baʼzan leksika) deyiladi.

Maʼlum tovush va tovushlar birikmasi maʼno bilan bogʻlangandagina soʻzga aylanadi...

Soʻzning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va maʼno tomoni mavjud.

Maʼlum maʼno bilan bogʻlangan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi soʻz sanaladi.

Soʻz ikki xil maʼno bildiradi. Bu ikki xil maʼnoni opa soʻzi misolida koʻrib chiqaylik.

Opa soʻzi aka, uka, singil singari soʻzlar bilan qarindoshlik maʼnosi bilan bir guruhga birlashadi. Ayni paytda bir guruhga mansub boʻlgan yuqoridagi soʻzlar bir-biriga zidlanganda, maʼlum maʼnolari bilan oʻzaro farqlanadi.

Xususan, opa soʻzi oʻgay opaga zidlanganda, qon-qarindoshlik (oʻgay emaslik) maʼnosini bildirishi bilan bir boʻgʻinga mansublik maʼnosini bildirishi bilan; aka, uka soʻzlariga zidlanganda, ayol jinsiga mansublik maʼnosi bilan; singil soʻziga zidlanganda esa opaning mendan kattalik, singilning esa kichiklik maʼnosiga egaligi bilan farq qiladi.

Nutq jarayonida har bir soʻz leksik va grammatik maʼnolar uygʻunligidan tashkil topadi.

Odatda, **leksik va grammatik maʼnolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan soʻz atamasi qoʻllaniladi.**

Grammatik maʼnosiz, faqat leksik maʼno bildiruvchi soʻzning qismi uchun leksema atamasi qoʻllaniladi.

Bunday vaqtda soʻz morfologiya birligi sifatida, leksema esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.

Demak, gap tarkibidan soʻzlarni ajratamiz. Soʻzlar esa leksema va grammatik qoʻshimchalarga boʻlinadi. **Soʻzning grammatik maʼno bildiruvchi qoʻshimchalarsiz qismi leksema sanaladi.** Lugʻatlarda bosh soʻz sifatida leksemalar beriladi.

**Topshiriq:** Quyida berilayotgan soʻzlarning atash va grammatik maʼnolarini izohlang.

*Namuna: yugurmoq – atash maʼnosi: yugurish harakati; grammatik maʼnosi: feʼl, nima qilmoq?*

Bino, kollej, yashil, beshinchi, kutmoq, baland, uchta, qalam, javob bermoq, chiroyli, sakramoq, sakkiz, ikki, quvnoq, aytmoq, oʻn ikki, deraza, oʻntacha, daraxt, olma, gullar.

## Nutqda soʻzni toʻgʻri tanlash va qoʻllash

Nutqda soʻzni toʻgʻri tanlash va qoʻllash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda soʻzni toʻgʻri tanlash lozim.

Soʻz tanlashda quyidagilarga eʼtibor beriladi:

- Soʻzning ligʻaviy maʼnosini bilgan holda tanlash;
- Tanlangan soʻzni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;
- Soʻzning suhbatdoshlarga tushunarli boʻlishini hisobga olish;
- Soʻzning maʼno xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq – tarzda tanlash.

## **Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar (monosemiya va polisemiya)**

Tildagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma'noni ifoda etuvchi so'zlar bir ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan, kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g'oya, mimika, qobiliyat, fonema va b.

So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni, gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin. Masalan, pasaymoq so'zi gapdan tashqarida olinganda yerga tomon yaqinlashmoq ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida esa bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi kabi boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun ko'p ma'noli so'z sanaladi. Demak, nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi, ya'ni nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar yoki polisemiya deyiladi. Bir ma'nolilik – monosemantizm (*gr. monos – «bir», sementikos – «belgi», «ma'no»*) deb yuritiladi.

Ko'p ma'nolilik – *«polisemantizm»* (*gr. poli – «ko'p», sementikos – «belgi», «ma'no»*) deb yuritiladi.

Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo, biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z taraqqiyoti ma'no tufayli ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin. Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonli tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinni foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

## **So'zning o'z va ko'chma ma'nolari**

Ko'p ma'noli so'zlarda 2 xil ma'no farqlanadi: 1) bosh (asl, asosiy ma'no, o'z) ma'no; 2) yasama (ko'chma) ma'no. Bosh ma'no so'zning nutqdan tashqarida ifodalagan ma'nosi bo'lib, u boshqa ma'nolarning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi. Nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosi asosiy ma'no bo'lib qoladi. Ko'chma ma'no bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, *og'iz* so'zining bosh ma'nosi *insonning tana a'zosi, g'orning og'zi, qopning og'zi* ko'chma ma'no.

### **Mashq.1. Berilgan so'zlarni ikki ustunga bo'lib ko'chiring.**

**Ko'p ma'noli**  
(*polisemantik*)

**Bir ma'noli**  
(*monosemantik*)

Atlas, xosiyat, kompyuter, xurmo, xunuk, parcha, xoreografiya, patir, pasta, patnis, g'ildirak, g'isht, g'oz, g'uncha, gazeta, grammatika, urg'u, dunyo, tilxat, paxta, soya, shaxs, olmosh, doya, qoshiq, qoya, xat, qo'y, davlat, qo'shni, marketing, vertolyot, timoq, maqol, uy, tom, kirish, so'z, undalma, yuvg'ich, dars, haykal, topishmoq, aruz, tish, til...

**2. Avval bir ma'noli, keyin esa ko'p ma'noli so'zlarni ko'chiring. Ko'p ma'noli so'zlarning har xil ma'nosi asosida gap tuzing.**

Kitob, qo'l, geografiya, geometriya, oyoq, maktab, tom, bo'g'in, o'tmas, dasturxon, oshxona, non, iflos, og'iz.

### **So'z ma'nosining ko'chish yo'llari**

**Ma'no taraqqiyoti qonunlariga ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi hodisalari kiradi.**

So'z ma'nosining ko'chishi besh xil bo'lib, ular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik yo'li bilan ko'chish.

**Metafora (grekcha metaphora – «ko'chirma») narsa va hodisalar orasidagi o'xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo'lgan so'zni ikkinchisini ifodalash uchun qo'llashdir, metaforada shakliy o'xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. Shu tufayli ot, sifat va fe'l turkumlarida metafora yo'li bilan ko'chish hodisasi mavjud. Masalan, tish, yengil, pasaydi so'zlarining ma'nosini kuzating: Tish: 1) odamning tishi (bosh ma'no); 2) arraning tishi (ko'chma ma'no). Yengil: 1) yengil eshik (bosh ma'no); 2) yengil ta'zim (ko'chma ma'no). Pasaydi: 1) samolyot pasaydi (bosh ma'no); 2) bilimi pasaydi (ko'chma ma'no).**

**Metaforaga quyidagilar asos bo'ladi:**

1) odamning tana a'zolari nomlari: bet, yuz, burun, quloq, ko'z, lab, tish, yelka, oyoq, og'iz kabi;

2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;

3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror a'zosining nomi: qanot, dum, tumshuq;

4) o'simlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;

5) qurol nomi: nayza, pichoq;

6) turli belgi, harakat nomlari bo'lgan so'zlar: baland, past, olmoq, chaqmoq kabi.

Inson ismlaridan Yoqutoy, Asalxon, Bobur, Gilosxon, Charos, Ozoda, Oyxon, Lochinoy, Burgutbek, Bo'riboy, Yo'lbars, Qoplonbek, Gulnora, Feruza kabi larda ham metafora usuli bilan ma'no ko'chgan.

## Topshiriq

**Gaplarni o'qing, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni toping va izohlang.**

1. Bola orasining oldiga tushib, pildirab ketdi. (Oybek) 2. Otam yetimlarning boshini siladi. 3. Mungli kuy yurakni tinar edi. 4. Soraxon qo'l siltab, — onamning o'zlari ham urushqoqlar, — dedi. (A.Qahhor) 5. Yo'Ichining so'zlariga hayratlanib, chol yoqasini ushladi. (Oybek) 6. Bolalar yopishavergach, xaltani ochishga majbur bo'ldi-da, labini burib vaysay boshladi. (Oybek) 7. Kuyov qo'lini ko'ksiga qo'yib: «...ishoning, dada, Karomatni boshimga ko'taraman», — dedi. (S.Ahmad) 8. O'shanda ham Yusuf amaki dadamni yolg'izlatmay, holidan xabar olib turgan. (H.Nazir) 9. Kuyov bo'lmay qaro yer bo'lgur na o'ligini ko'rsatadi, na tingini. (A.Qahhor)

**Metonimiya — grekcha metonymia «qayta nomlash» demakdir. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chishi metonimiya hisoblanadi. Metonimiyada aloqadorlik o'rin va vaqt jihatdan bo'ladi. Unda bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo'ladi.**

Metonimiya asosida ko'chma ma'no hosil qilish fikrimizni lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi. Ko'pincha inson ismlaridagi Ramazon, Jumaboy, Hayitvoy, Ro'zajon kabilarda ham ana shunday ma'no ko'chish usuli mavjud. Quyidagi gaplardagi so'zlarning ma'no munosabatini kuzating:

«Rossiya»ga qanday borsam bo'ladi? (Bekatladi yo'lovchining murojaati)

Ichak-chavog'im tugadi, endi kalla sotaman. (Qassobning gapidan)

Mabodo «Besh bolali yigitcha» kelmadimi? (Kitobxonning sotuvchiga bergan savolidan)

Navbatim sumka ko'targan «jinsi»dan keyin. (Xaridorning javobi)

Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribman». (O'quvchining nutqidan)

**Topshiriq:** «Oltin vodiy» poyezdi, «Zarafshon» futbol komandasi, Hojimatov damlamasi, «Hamza» teatri, rentgen apparati, «Ford» avtomobili birikmalaridan metonimiya asosida gap tuzing. Birikmadagi turdosh otning tushib qolishiga e'tibor bering.

**Sinekdoxa — grekcha synecdoche «birgalikda anglash» so'zidan olingan bo'lib, narsa yoki shaxs qismini nomini aytish bilan o'zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma'no ko'chish hodisasidir. Masalan: Besh qo'l barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda o'zimizdan qoladigan tuyog'imiz... (A.Qodiriy)**

**Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tig', ketmon — «jangchi» ma'nosida), hayvonlarning biror a'zosi nomini o'sha hayvonni ifodalash uchun (bosh,**



tuyoq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni anglatish uchun (yong'oq, olma, nok, uzum) qo'llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo'l so'zini «barmoq» ma'nosida) qo'llash kabi miqdor munosabatlariga asoslanadi.

**Quyidagi misollardagi sinekdoxa yo'li bilan ko'chgan ma'noni izohlang.**

1. Olma archayotib qo'lini kesib olmoq.
2. Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib kelmoq.
3. G'ildirakni yurgizmoq.
4. Cho'loqqa achinish.
5. Sajda aylar zohid ul mehrob aro, Men qilurman sajda egma qoshima.
6. Olma guli – gul emas, taqsam, chakkamda turmas.

**Topshiriq:** Mumtoz she'riyatda «yor», «dildor» tushunchalarini anglatuvchi oy yuz, qorako'z, oq bilak, sarv qad so'zlariga sinekdoxa asosida gap tuzing.

**Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi.** Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalaniishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish deyiladi. Ma'noning bunday ko'chishi metaforadagi kabi o'xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta'sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslanadi. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o'q, siyoh, qalam kabi so'zlarning ma'nolaridagi ko'chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan o'xshashlikka asoslangan.

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Grafitli yozuv quroli paydo bo'lgandan so'ng, uni karandash qalam deb, keyin esa, to'g'ridan-to'g'ri qalam deb atay berganlar.

*O'q-yoy o'qi; o'q – milli q o'qi* (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o'xshashdir.

Siyoh so'zi tojik tilida «qora» degan ma'noni bildiradi. Yozuv quroli sifatida ishlatilgan suyuqlik qora rangda bo'lgani uchun siyoh deb nomlangan. Hozirgi kunda yozuv uchun qo'llanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, ko'k, yashil) ham vazifasining o'xshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl ma'nosi qizil qora), ko'k siyoh (asl ma'nosi ko'k qora). Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish, ularni ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his etishga yordam beradi.

**Quyidagi gaplardagi vazifadoshlik asosidagi ma'no ko'chishini izohlang.**

Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi.

**Kinoya** – so'zlarning aks ma'noda qo'llash hodisasi. Bunday ko'chishlar yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi. Masalan: *Shunaqa «do'stlar»ning kamroq bo'lgani ma'kul.*

Metafora va metonimiya mahsuldor ko'chish yo'li, sinekdoxa, kinoya, vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi esa, kammahsul hodisalardir.

## Topshiriqlar

1. Qanot, yurak, oyoq, ko'z, bosh so'zlarini vazifadoshlik asosida ko'chma ma'nolarda ishlatib.

2. Gaplarni ko'chirib. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi zarur so'zlarni qo'ying. Ma'nosini izohlang. Ma'no ko'chish turini ayting.

1. Farzandlari yo'q, haligacha ... zor ular.

2. Yo'ldoshboy soy ... pastga tomon qiyalab yurdi.

3. Eshitgan ... nima deydi.

4. Ishning ... bilishini qarang-a. (tirnoqqa, quloq, ko'zini, yoqasidan).

3. a) quyidagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nodagi qo'llanishini ko'rsatuvchi gaplar tuzing; b) ular o'rtasidagi ma'no tafovutiga e'tibor bering.

Qosh, maktab, ko'z, bel, bosh, yer, etak, quloq, oyoq...

4. Quyidagi gaplardagi ko'chma ma'no turini aniqlang.

1. Talabalik – oltin davrim. 2. Eski buloqning ko'zi ochildi. 3. O'n qo'li o'n hunar. 4. Qo'lingni bigiz qilma. 5. Adashgan it kabi Furqat, qayon borgum bilolmasman.

6. Rahmi kelib bulutning,

Yig'lab to'kar yoshini.

Qushlar qochar, majnuntol

Ko'taradi boshini.

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi,

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi.

7. Ovqat qilayotib, qo'limni kesib oldim. 8. Bedilni o'qir edim. 9. Samovarda osh yedik. 10. Navoiyni qo'lga oldim. 11. Daryoni yoqasida bir o'tinchi bor edi. 12. Eshikka kiring, aka, choy-poy ichib keting. 13. Tuyog'imiz ko'paysa ko'paydiki, kamaygani yo'q. 14. Gunohi ne edi, bu tilla boshning? Gunohi ne edi porloq quyoshning?

5. Gaplarni o'qing, sinekdoxa yoki vazifadoshlik usuli bilan so'z ma'nosi ko'chirilgan o'rinlarni topib izohlang.

1. Sekinroq gapirib, aylanay, devorning ham qulog'i bor. 2. Hozirgi yoshlarimizga ko'z tegmasin, ular bizdan ko'ra aqlliroq, bilimdonroq bo'lib o'sishyapti. 3. Guruhimizning birlashishi uchun unga bir bosh kerak bo'lib qoldi. 4. Samolyotning qanoti o'ta pishiq materialdan ishlangan. 5. Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning qo'li baland keldi. 6. Olimpiadada birinchi o'ringni bu gal Buxoro olib ketdi. 7. Avtomobilning eshigini ochib, do'stini chiqarib oldi. 8. Askarlarimiz Vatan sarhadlarini ko'z bo'lib, quloq bo'lib tun-u kun sergaklik bilan qo'riqlamoqdalar.

## Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari

Tildagi soʻzlar shakl va maʼno xususiyatlariga koʻra quyidagi guruhlarga boʻlinadi: omonim (shakldosh), sinonim (maʼnodosh), antonim (zid maʼnoli), paronim (talaffuzdosh), uyadosh soʻzlar.

### Omonim soʻzlar

Shakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, maʼnosi har xil soʻzlar omonimlar deyiladi. Omonim soʻzi grekcha «bir xil» degan maʼnoni ifodalaydi. *Masalan: ot – hayvon, ot – uloqtirmoq, ot – ism; ogʻiz – insonning tana aʼzosi, ogʻiz – yangi tuqqan sigir sutidan tayyorlanadigan taom; chang – toʻzon, gard, gʻubor, chang – toʻrtburchak, yassi quti shaklidagi tortlar tortilgan qoʻsh choʻp bilan chalinadigan musiqa asbobi; qovoq – insonning tana aʼzosi, (ot), qovoq – poliz ekini, (ot).*

Omonim soʻzlar bir soʻz turkumiga hamda turli soʻz turkumiga (yuz – insonning tana aʼzosi, (ot); yuz – miqdor bildiruvchi son) oid boʻlishi mumkin.

Omonimlar 2 turga ajratiladi: 1) lugʻaviy omonimlar; 2) grammatik omonimlar. Lugʻaviy omonimlar:

1) soʻzlar doirasida; 2) iboralar doirasida boʻladi.

1. Omonimlik hodisasi soʻz bilan soʻz doirasida boʻlsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) – biror narsaning yonishi natijasida hosil boʻladigan kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (*P. Tursun*) Kul (feʼl) – zavq shovqini, xursandchilik bildiruvchi tovushlar chiqarmoq. Nega Aziz bu qadar shod: Yuzi kuladi, koʻzlari yonadi? (*H. Gʻulom*)

2. Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida boʻlsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: *bosh koʻtarmoq – qarshi qoʻzgʻolon koʻtarmoq, bosh koʻtarmoq – tuzalmoq, sogʻaya boshlamoq.*

Grammatik omonimlar qoʻshimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. Shakli bir xil, maʼnosi har xil qoʻshimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. *Masalan: -im qoʻshimchasi bilim – feʼldan ot yasovchi qoʻshimcha. Kitobim – I shaxs, birlik, egalik qoʻshimchasi; -ki (tepki) – ot yasovchi qoʻshimcha, -ki (kechki) – sifat yasovchi qoʻshimcha.*

Baʼzi omonim soʻzlar qoʻshimchalar olganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladi. Masalan, ter+im, ter+im. Birinchi soʻz -ter ot turkumiga oid soʻz boʻlib, I shaxs, birlik, egalik qoʻshimchasini olgan, ikkinchisi feʼl turkumiga oid soʻz ot yasovchi -im qoʻshimchasini olgan. Agar shakldoshlik bir soʻz turkumi doirasida boʻlsa, grammatik shakllar qoʻshilganda ham omonimlik munosabati saqlanaveradi. Omonimlar badiiy adabiyotda tuyuq janrida, ogʻzaki soʻzlashuv nutqida soʻz oʻyinlari, askiyalarda qoʻllanadi.

Omonimlar koʻp maʼnoli soʻzlar maʼnosidagi bogʻlanishning yoʻqolishi, soʻzlardagi fonetik oʻzgarishlar va boshqa tildan soʻz oʻzlashishi jarayonida

yuzaga keladi. Masalan: 1) bog' (mevazor) tojik tilidan kirgan, bog' (bog'ich) o'zbekcha so'z; 2) dam – nafas (o'z ma'nosi), dam – bosqon (ko'chma ma'no), dam – xordiq (ko'chma ma'no). 2-misolda polisemiya hodisasi yo'qolib, omonimiya hodisasi yuzaga keldi.

Quyida bir qator omonim so'zlar lug'atini keltiramiz.

### Shakldosh so'zlar

1. Qayin I - erga xotinning, xotinga erning qarindoshi – ot;  
Qayin II - terakka o'xshab tik o'sadigan po'sti oq shimol daraxti – ot.
2. G'oz I - o'rdakdan katta, bo'yni uzun suv qushi – ot;  
G'oz II - issiqlik ajratish, kuch-quvvat berish darajasi – ot.
3. Shira I - mevaga shirinlik xususiyati beruvchi moddalar – ot;  
Shira II - o'simlikka tushadigan parazit, hasharot, shakarak – ot.
4. Palla I - muayyan davr, vaqt – ot;  
Palla II - tarozining tosh va tortiladigan narsa qo'yiladigan likop – ot.
5. Nota I - muzikashunoslik termini – ot;  
Nota II - diplomatiya termini. Rasmiy diplomatik murojaatnoma – ot.
6. Nor I - bir o'rkachli erkak tuya – ot;  
Nor II - eskirgan – ot;  
Nor III - anor tusli xol – ot.
7. Elchilik I - (el+chilik) – xalqchilik, ko'pchilikka qarab ish tutish – ot;  
Elchilik II - (elchi+lik) – elchi bo'lib xizmat qilish – ot.
8. Bel I - (asli «o'rt» ma'nosini anglatgan) – 1. Gavdaning ko'krak qafasi bilan bo'ksorasidagi eng xipchaqismi – ot;  
2. Badanda qorinning aksi tomoni, 3. O'rtalik, oraliq.  
Bel II – kurakning kichik turi – ot;
9. Do'st I – (tojikcha) – do'stlik aloqasi bilan bog'langan kishi – ot;  
Do'st II – zavq olayotganini bildirish uchun aytiladigan so'z – undov.
10. Chars I – betgachopar, qo'rs – sifat;  
Chars II – biror narsa yorilganda chiqadigan tovushni bildiradi – taqlidiy so'z.
11. Sug'ur I – yer ostiga in qurib, qishda uyquga yotuvchi, o'simlik bilan ovqatlanuvchi, o'zi olmaxonga o'xshash kemiruvchi hayvon – ot;  
Sug'ur II narsani tortib chiqarmoq – fe'l.
12. Hadis I – biror ishni ustalik bilan bajarish malakasi – ot;  
Hadis II – payg'ambar hayotidan hikoya – ot.
13. Havo I – 1. Yer atmosferasini hosil etuvchi azot, kislorod kabi gazlar qotishmasi – ot;  
2. Yer kurrasini o'rab turuvchi fazo – ot;  
Havo II – kibr, g'urur, kattalik – ot.
14. Bosim I – biror sathga, suyuqlikka, gazga bosish kuchi – ot;  
Bosim II – ketma-ket, ust-ustiga uzluksiz – ravish.

15. Davlat I – mamlakatning mavjud tuzumini muhofaza qiluvchi siyosiy tashkilot, shunday tashkilotga ega mamlakat – ot;  
 Davlat II – boylik, mol-mulk, dunyo – ot.
16. Yosh I – umrning yilma-yil hisobi – ot;  
 Yosh II – umrning vaqt hisobi nisbatan oz – sifat;  
 Yosh III – ko‘zdan chiqadigan suyuqlik – ot.
17. Yuz I – boshning burun, og‘iz joylashgan old tomoni, aft – ot;  
 Yuz II – son, raqam.  
 Yuz III – so‘zlash – fe’l.
18. Mol I – uy hayvoni, sigir – ot;  
 Mol II – narsa-buyum – ot.
19. Tut I – bargi i pakqurtiga ovqat bo‘ladigan daraxt; shu daraxtning mevasi – ot;  
 Tut II – ushlamoq – fe’l.
20. Sana I – biror voqea sodir bo‘lgan, alohida ta’kidlanadigan yil, oy, kun – ot;  
 Sana II – donalab hisoblamoq – fe’l.
21. Uch I – biror narsaning boshlanish yoki tugash qismi – ot;  
 Uch II – son, raqam  
 Uch III – 1. Havo bo‘ylab harakatlanmoq; 2. Biror qirrasi cho‘rt uzilib tushmoq; 3. Beixtiyor berilmoq, laqillamoq.
22. O‘ch I – alamini olish uchun qilinadigan xatti-harakat, qasos, intiqom – ot;  
 O‘ch II – qo‘lga kiritish uchun astoydil intiluvchi, to erishmaguncha qo‘ymaydigan – sifat;  
 O‘ch III – yonishdan to‘xtamoq – fe’l.
23. Quloq I – 1. Eshitish organi – ot; 2. Tutqich ; 3. Katta ariqdan kichik ariqqa ochilgan yo‘l;  
 Quloq II – kishi kuchidan foydalanib boylik orttiruvchi katta yer egasi; mushtumzo‘r – ot.
24. Un I – donni tegirmonda tortib hosil qilinadigan kukun holatidagi mahsulot – ot;  
 Un II – ovoz – ot;  
 Un III – III-shaxs birlik kishilik otmoshining ba’zi affikslar qo‘shiladigan asosi – otmosh;  
 Un IV – o‘sib, yuzaga chiqmoq – fe’l.
25. Xoli I – yuzdagi qora dog‘ – ot; Xoli II- alohida olmoq-fe’l
26. Oqibat I – mehr-oqibat – ot;  
 Oqibat II – natijasi – ot.
27. Rasta I – (tojikcha) – bir-biriga ulanib ketgan va bir xil mol bilan savdo qiladigan do‘konlar qatori – ot;  
 Rasta II – balog‘atga yetish – ot.

28. Kadr I – kinoplyonka yoki fotoplyonkadagi ayrim surat – ot;  
Kadr II – biror tashkilot yoki muassasaning uzoq muddat ishlab kelayotgan tajribali xodimi, umuman, barcha xodimlari.
29. Mushak I – (tojikcha) – odam yoki hayvon tanasidagi qisqarish xususiyatiga ega to‘qimalar – ot;  
Mushak II – yonganda turli rang bilan yorug‘lik sochib jilolanadigan buyum – ot;  
Mushak III – bo‘yi qisqa, uchi to‘mtoq – sifat.
30. Soch I – tuk tolalari – ot;  
Soch II – mayna, chug‘urchuq – ot;  
Soch III – qismlarga bo‘lib tashlamoq – fe‘l.
31. OI I – qo‘li bilan tutmoq, o‘z ixtiyoriga o‘tkazmoq, o‘z iniki qilmoq – fe‘l;  
OI II – mustaqil fe‘l anglatgan leksik ma‘noga: 1. «Nutq qaratilgan shaxs manfaatini ko‘zlash» grammatik ma‘nosini qo‘shadi; 2. «qodirlik» grammatik ma‘nosini qo‘shadi – ko‘makchi fe‘l.  
OI III – qizil – sifat.
32. Qil I – soch, yol, dum tolası – ot;  
Qil II – amalga oshirmoq, bajarmoq, ro‘yobga keltirmoq – fe‘l;  
Qil III – qo‘shma fe‘l yasashida qatnashadi – yordamchi fe‘l.
33. Shim I kiyiladigan ust kiyim – ot;  
Shim II – suyuq holatdagi narsani o‘ziga singdirmoq – fe‘l.
34. Yara I – chiqiq, jarohat – ot;  
Yara II – kerak bo‘lib qolmoq, asqotmoq, kor kelmoq – fe‘l.
35. Yut I – yer muzlab, yem-xashak yo‘qligidan uy hayvonlarining qirilib ketishi, shuning natijasida yuz beradigan ocharchilik – ot;  
Yut II – yutish (ichiga) – fe‘l;  
Yut III – musobaqa, o‘yin kabilarda ijobiy natijaga ega bo‘lmoq, g‘olib chiqmoq – fe‘l.
36. Oyoq I – organ – ot; Oyoq II – kosa, qadah – ot.
37. Asar I – iz, ta‘sir – ot;  
Asar II – estetik, aqliy ijod mahsuli – ot.
38. Karam I – rahmdillik, mehr-shafqat, yaxshilik – ot;  
Karam II – sabzavot – ot.
39. Bas I – yetar, kifoya – predikativ so‘z;  
Bas II – erkaklarda eng past tovush – ot;  
Bas III – bas bog‘lashmoq – «o‘zi haq ekanini da‘vo qilmoq, haq ekanini isbotlashga intilmoq» – ot.
40. Band I – bo‘sh emas, nima bilandir mashg‘ul – sifat;  
Band II – 1. Tutqich; 2. Cho‘p; 3. She‘ming qofiya va mazmun jihatdan yaxlitlanib turuvchi qismi – ot.
41. Bog‘ I – biror narsaning to‘dalab bog‘langan holati -ot;  
Bog‘ II – mevali daraxt ko‘p ekilgan yer – ot.

42. Kurash I – 1. Kurash tushmoq – fe'l; 2. Kurash olib bormoq;  
Kurash II – 1. Sport musobaqasi – ot; 2. Bir-birini yengish, yo'q qilishga qaratilgan aktiv harakat – ot.
43. Jar I – sel o'yib ketgan yer – ot;  
Jar II – farmonni yoki biror hodisani baland ovoz bilan e'lon qilish – ot.
44. Partiya I – biror sinfning siyosiy tashkilotga uyushgan ilg'or qismi – ot;  
Partiya II – 1. Bir yo'la jo'natilgan yoki qabul qilib olingan tovarlar;  
2. Tugal o'yin – ot.
45. Savdo I – oldi-sotdi – ot;  
Savdo II – 1. Ehtiros, iztirob – ot; 2. Tashvish – ot.
46. Palata I – qonun chiqaruvchi davlat organining tarkibiy qismi – ot;  
Palata II – shifoxonada kasallar yotadigan har bir xona – ot.
47. Ruh I – 1. Kayfiyat – ot; 2. Psixik holat; 3. Arvoh, jon – ot;  
Ruh II – yumshoq, egiluvchan, oq-ko'kish tusli metall – ot.
48. Rux I – bet, yuz – ot;  
Rux II – to'ra (shaxmat donasining nomi) – ot.
49. Sandal I – polda maxsus chuqurcha yasab, unga cho'g' solib, to'g'ri to'rt burchakli kursi qo'yib, ustiga ko'rpa yopilgan isinish qurilmasi – ot;  
Sandal II – yuzi yo'q, taglikning o'zidan iborat, barmoqlarga tasmalar bilan ilinadigan oyoq kiyimi – ot.
50. Kuy I – cholg'u asbobida ijro etiladigan tarona, navo – ot;  
Kuy II – olov kuymoq – fe'l.
51. Oz I – kam, miqdori nisbatan ko'p bo'lmagan – ravish;  
Oz II – oriqlamoq, etidan yo'qotmoq – fe'l;  
Oz III – noxush bo'lmoq, kuchsizlanmoq, holsizlanmoq – fe'l;  
Oz IV – adashmoq, to'g'ri yo'ldan chetga chiqmoq – fe'l.
52. Dastalamoq I – ketmon, tesha, bolta kabilarga sop solmoq – fe'l;  
Dastalamoq II – dasta-dasta qilmoq – fe'l.
53. Tush I – uyquda ko'rinadigan narsalar – ot;  
Tush II – peshin, to'potar payti – ot;  
Tush III – teng (teng-tush) – sifat;  
Tush IV – yuqoridan quyiga tomon harakatlanmoq – fe'l;  
Tush V – mustaqil fe'l anglatgan leksik ma'noga: 1. «Harakatning nihoyasiga yetganligi, tugallanganligi» grammatik ma'nosini qo'shadi; 2. «Qo'qqisdan, keskin sodir bo'lganlik» grammatik ma'nosini qo'shadi; 3. «Monandlik» grammatik ma'nosini qo'shadi.
54. Bor I – mavjud – predikativ so'z;  
Bor II – marta, karra, dafa ;  
Bor III – 1. Ma'lum maqsad bilan biror yerga yo'nalmoq – fe'l;  
2. Davom etib turmoq – fe'l;  
Bor IV – mustaqil fe'l anglatgan leksik ma'noga «davomli yo'nalish» grammatik ma'nosini qo'shadi – ko'makchi fe'l.

55. Qirq I – to‘rtinchi o‘nlik – son;  
 Qirq II – kishi vafotidan keyin o‘ttiz yettinchi yoki o‘ttiz to‘qqizinchi kuni o‘tkaziladigan marosim – ot;  
 Qirq III – qirqmoq – fe‘l.

**Topshiriq: 1.** Quyidagi omonim so‘zlardan faqat bir so‘z turkumi doirasida uchraydiganlarini ustun shaklida yozing.

Asr, achchiq, balo, bez, bel, bit, bosh, burun, gap, dam, devon, do‘st, yoz, yosh, yog‘, issiq, ish, kecha, kul, luqma, nafas, oz, oq, rom, safar, sep, sir, son, soch, sumalak, taxt, ter, tol, tur, to‘y, to‘p, o‘y, o‘ng, o‘r, o‘sma, o‘t, qir, qop, qoq, qo‘y, havo, qovoq, qozon, qirq, qadoq, qazi, to‘r, to‘q, tosh, tish, dog‘.

**2. Gaplarni o‘qing. Shakldosh so‘zlarni aniqlah, izohlang.**

A. 1. Do‘st achitib gapiradi, dushman kuldirib.  
 2. «Rohat»ni eshitib, Tantiboyvachcha «Ezib yubordingiz, jonidan!» deb qichqirdi va bangilar kabi bir «do‘st!» tortdi.

B. 1. Ko‘chani ikki yog‘ida daraxtlar yashnab turibdi.

2. Sabzining to‘g‘ramchasini oldim, o‘choqqa o‘t yoqsak bo‘laveradi.

3. Sening taklifing unga yoqdi.

4. Birinchi so‘zlarini eshitganimdayoq menga yoqdi.

S. 1. Darhaqiqat, kishining qiyofasi va so‘zlariga qarab uning ruhini bilish boshqa.

2. Ruhim yengil tortdi.

3. Opa jajigina ruh elektr samovarni qo‘yib yubordi-da, yozuv stoli tortmasidan pechenye terilgan likop oldi.

D. 1. Hozirgi zamon shunaqa, podsholar taxt talashganda, yuz minglab odamlar bola-chaqasi bilan qirilib ketganiga qaramaydi.

2. Bu dargohda senga hamma shart-sharoit taxt ekaniga shubha yo‘q.

E. 1. Tog‘da Sotim yilqichiga toy boqtirib qo‘ydim.

2. Bo‘riyev kecha u bilan kuni bo‘yi bazada qop, toy, yashik, bochkalar orasida turishdi.

3. U sirpanib, toyib ketishdan juda cho‘chib qoldi.

G. 1. Kasallikdan hech qanday asar qolmadi.

2. Oybekning «Tanlangan asarlar» to‘plami 20 jildan iborat.

3. Gaplarni ko‘chiring. Shakldosh va ko‘p ma‘noli so‘zlarni izohlang.

I. 1. Toyni toy deb xo‘rlama, erta-indin ot bo‘lur.

2. To‘rt toy paxta sotib oling.

3. U sirpanib, toyib choyxonaga jo‘nadi.

II. 1. Ko‘cha to‘la odam.

2. To‘la yuzli bola.

3. Qarzini to‘lamoq.

III. 1. O‘riklar shira bog‘labdi.



2. Bodring palagini shira bosibdi.
3. Xolamning gaplari biram shiraliki.
- IV. 1. O'zim bilaman.
2. Poygada o'zmoq.
- V. 1. Ular mening qayin inilarim, kambag'al, uyatchan kishilar.
2. Daraxtlar ichida oq qayindan chiroyligi bo'lmasa kerak deb o'ylayman.
- VI. 1. Qiz chiqaruvchiga kuyov tomon beradigan narsa va pul qalin deyiladi.
2. Po'chog'i qalin tarvuz.
3. Beti eshakning terisidan ham qalin ekan.
- VII. 1. Quloq pardasi.
2. Qozonning qulog'i.
3. Quloq qilmoq.
- VIII. 1. Toza havo.
2. Havo rang.
3. Havosi baland yigit.
- IX. 1. Sen bu ishning hadisini olib qolibsan.
2. U ... qancha oyatlar, hadislar o'qidi.
- X. 1. Olmani ikkiga bo'lmoq.
2. Gapni bo'lmoq.
3. Men soat yettida uyda bo'laman.
4. Bu voqea qachon bo'ldi.
5. Chiroq o'chib bo'ldi.
- XI. 1. O'choqqa o't yoqmoq.
2. O't o'rmoq.
3. O't pufagi.
4. Ko'prikdan o'tmoq.
- XII. 1. Aytilgan so'z — otilgan o'q.
2. Aravaning o'qi.
3. Yer o'z o'qi atrofida aylanadi.
- XIII. 1. Uning ruhi baland.
2. Ruhim yengil tortdi.
3. Ruhiga baxshida qilmoq.
4. Ruh poroshogi.
- XIV. 1. Ko'tara savdo.
2. Ishq savdosi.
- XV. 1. Boshini olmoq.
2. Boshi og'riyapti.
3. Boshini aylantirmoq.
4. Ikki bosh piyoz.
5. Nishonaga ikki bosh uzum qildi.
6. Terakning boshi.
7. Ko'chaning boshi.

8. Bosh bofa.

9. Bosh vrach.

10. Bosh masala.

XVI. 1. Arig'larki, ul bahrdin ayrilur.

2. Bu g'azal aruz vaznining qaysi bahrida yozilgan?

3. Bahridan kechmoq.

4. Bahri dil — «ko'ngilning havosi, qiziqishi».

XVII. 1. Yoshingiz nechada? Yoshini yashab, oshini oshagan.

2. Qiz yosh, kamtarin va go'zal edi.

3. Chin ko'ngildan yig'lasa, so'qir ko'zdan yosh chiqar.

XVIII. 1. Belingda belbog'ing bormi?

2. Haqiqat bahsda tug'iladi. Biroq tavakkalchilik ishning beliga tepib qo'yishi mumkin.

3. Ketmondan ko'ra bel bilan yer ag'dargan oson.

**Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Omonim yoki polisemantik so'z ekanligini aniqlang.**

Tut, bel, yuz, oyoq, gul, sher, sana, uch, o'ch, quloq, yoqa, ildiz...

Namuna:

1. Bugungi kechamizga shoir Do'st Hamdam ham tashrif buyurgan.

2. Olti narsa rohatda yashashga yordam beradi, shulardan bir haqiqiy do'sting bo'lmoqligidir.

3. Do'st!!! Yana bir juft qo'shiq bo'lsin!

### **Topshiriq**

1. Avval shakldosh so'zlar qo'llangan gaplar juftligini, keyin ko'p ma'noli so'zlar ishtirok etgan gaplar juftligini ko'chiring.

1. Maktabda «O'tkir zehnlilar» musobaqasi bo'lib o'tdi. O'tkir boltasi bo'lsa-yu, shart bir daraxtni kesib yelkaga olib jo'nasa.

2. Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.

3. Hech bo'lmaganidan ko'ra kech bo'lgani yaxshi. Bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning.

2. **Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning shakldoshlarini toping.**

1. Qing'ir ish qirq yildan keyin ham fosh bo'laveradi.

2. Idoraga uch, senga ham pul katta.

3. Belni aldab-aldab ishga solmasak bo'lmas.

4. Go'ro'g'li och qoldi, enasiga qarab bir so'z dedi.

### **Sinonim so'zlar**

**Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar sinonim deyiladi. Sinonim so'zlar bir predmet hodisaning (taom, ovqat; baxt, iqbol, tole, saodat), belgining (sezgir, ziyrak, tuyg'un; aniq, ochiq-ravshan, yorqin,**

oydin, ayon), harakatning (yordamlashmoq, ko'maklashmoq) bir necha nomi. Sinonim so'zi grekcha «bir nomli» degan ma'noni ifodalaydi. Shuning uchun sinonimik hodisa bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi.

Sinonim so'zlar aynan bir predmet, belgi, harakat tushunchasini ham, qo'shimcha ma'no ottenkalari bilan farqlanadigan predmet, belgi, harakat tushunchalarini ham anglatadi. Masalan, tilshunoslik – lingvistika sinonimlarining ma'nosi aynan bir xil. Yig'lamoq, yig'lamsiramoq sinonimlarining ma'nosida farq mavjud.

Bir ma'no atrofida birlashgan so'zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Masalan: *odam – kishi – inson – bashar; davolamoq-tuzatmoq; yorug' – nurlil – charog'on, yorqin – munavvar.*

Sinonimik qatorni tuzishda ma'nodosh so'zlar uchun asos qilib olingan so'z bosh so'z (dominant) – uslubiy xoslanish va baho bildirishiga ko'ra neytral) deyiladi. Bunday so'z har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan holi bo'lgan so'z sanaladi. Sinonimik guruhdagi barcha nutq uslublarida qo'llanadigan, adabiy tilga mansub, ma'no doirasi keng bo'lgan so'z bosh so'z sifatida tanlab olinadi: *botir – qahramon – dovyurak – qo'rqmas – jasur.*

Sinonimik qatorni belgilashda so'zlarning yagona umumiy belgisiga asoslanadi. Masalan: uy va bino so'zlari bir-biriga yaqin ma'noli bo'lsa ham, uy so'ziga xos asosiy tushuncha bilan (odam yashaydigan joy) «bino» so'zi ifodalaydigan tushuncha (imorat) o'rtasida umumiylik yo'qligi uchun ular sinonim bo'la olmaydi.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud: 1) lug'aviy sinonimlar; 2) grammatik sinonimlar.

**1. Lug'aviy sinonimlar:** 1) so'zlar doirasida (bezak, ziyinat, hasham); 2) so'z va iboralar doirasida (ayyor – mug'ambir – pixini yorgan, ilonning yog'ini yalagan); 3) iboralar doirasida (og'ziga talqon solmoq - og'zida qatiq ivitmoq) bo'ladi. Lug'aviy sinonimlar garchand bir umumiy ma'noni bildirsa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Masalan, Inson bosh qismining oldi tomoni oraz, uzor, ruxsor, yuz, bet, aft, bashara, nusxa, turq singari so'zlar orqali ifodalanadi. Ushbu qatorda yuz so'zidan chap tomondagi to'rtta so'zda (oraz, uzor, ruxsor, chehra) ijobiy baho va uchtasida (oraz, uzor, ruxsor) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, o'ng tomondan beshta so'zda (bet, aft, bashara, nusxa, turq) salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (betga nisbatan aftda salbiy baho kuchliroq, turqda esa, hammasidan kuchliroqdir. Demak, bu beshta so'zda salbiy baho kuchayib boradi.) Yuqoridagi sinonimlar qatorida yuz dominant sanaladi.

**2. Grammatik sinonimlar qo'shimchalar doirasida bo'ladi.** Masalan, *o'riksiz-noo'rin, itoatli-itoatkor, shirali-shirador, savlatli-basavlat, sutli-sersut.*

Sinonim so'zlar o'zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida (*kun – quyosh, ish – yumush, qari – keksa*) va boshqa tildan so'z olish natijasida o't (*o'zbekcha – olov (tojikcha), oftob (tojikcha) – quyosh (o'zbekcha), osmon (o'zbekcha) – ko'k(tojikcha)*), adabiy tilga xos so'z bilan shevaga xos so'zlar (*go'zal – suluv – ko'hlik – xushro'y*) yoki shevaga oid bir necha so'zlar doirasida (*chelak – satil – paqir*) yuzaga keladi.

*Masalan;* og'ir, vazmin, zalvarli. Sinonimlar barcha so'z turkumlarida uchraydi.

Ot sinonimlar: uy, hovli, uchastka, eshik

Sifat sinonimlar: aqli, esli, miyali

Olmosh sinonimlar: u, o'sha

Fe'l sinonimlar: shivirlamoq, pichirlamoq, shi pshimoq

Ravish sinonimlar: keyin, so'ng

Yordamchi so'zlar: ammo, lekin, biroq

## Sinonimlarning turlari

Sinonimlarga baho berishda tubandagi uch mezondan kelib chiqish foydadan xoli bo'lmaydi.

**I. Ma'no qirrasiga ko'ra.** Sinonimlar ma'no jihatidan bir biriga yaqin tursa-da, ayrim o'rinlarda ulardan birini ikkinchisining o'rni mutlaqo ishlatib bo'lmaydi. Mana shu jihatiga asoslangan holda ularni to'liq sinonimlar, ya'ni qisman birining o'rni ikkinchisini ishlatish mumkin bo'lgan sinonimlar (*yalqov, dangasa, ishyoqmas*)ga va ma'noviy sinonimlar (*yugurdi, g'izilladi*)ga ajratamiz. Ma'noviy sinonimlar ichki ma'no nozikliklari bilan bir biridan ajralib turadi. Ularni matnda birining o'rniga ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi. Ma'nodosh so'zlar bir umumiy ma'noni ifodalasa ham shu umumiy ma'noni qanday ifodalash nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Masalan, *shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo'kirmoq* so'zlari so'zlash umumiy ma'nosi bilan bir xil bo'lsa ham, ular ovoznining baland-pastligiga ko'ra farq qiladi, shuningdek, *to'ng'illamoq, ming'irlanoq, javramoq, vaysamoq* so'zlari ham so'zlash umumiy ma'nosi bilan yuqoridagi so'zlar bilan birlashadi, lekin ulardan salbiy bahoga egaligi bilan farq qiladi.

Ayrim adabiyotlarda ma'no o'ttenkasiga putur yetkazmasdan birining o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin bo'lgan sinonimlarni absolyut sinonimlar, ma'noviy sinonimlarni esa semantik sinonimlar deb ajratish holatlariga ham duch kelinadi.

**II. Sinonimlarni uslubiy baho jihatidan ham ma'lum bir turlarga ajratish mumkin.**

Sinonimlar uslubiy jihatdan o'zaro bir-biridan farqlanib tursa, ularga uslubiy yoki stilistik sinonimlar deyiladi. Uslubiy baho ularda ikki yo'nalishda

bo'ladi. Birinchi yo'nalishga kirgan sinonimlarda uslubiy betaraflik bo'ladi: ketdi, jo'nadi kabi. Ikkinchi turdagi sinonimlarda esa uslubiy xoslanganlik kuzatiladi: kuldi, jilmaydi, iljaydi, tirjaydi, irshaydi; irod etmoq, bayon qilmoq singari so'zlar kitobiy uslubga xoslanishi bilan farqlanadi.

Uslubiy xoslik yana o'z navbatida ikkiga ajraladi: a) ijobiy baho mavjud bo'lgan sinonimlar: yuz, chehra, bet; b) salbiy baholi sinonimlar: turq, aft, bashara.

**III. Sinonimlarni nutqiy xoslanish jihatidan ham muayyan turlarga ajratish mumkin.** a) umumxalq leksemasi – nutqning barcha ko'rinishlarida ishlatila olinadigan sinonimlar: odam, kishi, inson; b) so'zlashuv nutqiga xos sinonimlar yoki dialektal sinonimlar: xit, ment, tog'a (militsoner) v) rasmiy nutqqa xos sinonimlar: ishdan bo'shatildi, ozod qilindi kabi.

Sinonimlardan o'rinli foydalanish so'zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.

## Topshiriq

### 1. Ma'nodosh so'zlar qatorini ajrating.

Iliq, gangimoq, yemoq, gavdali, dovdiramoq, diyor, issiq, tanovul qilmoq, yurt, zamon, iste'mol qilmoq, sezgir, jussali, esankiramoq, yugurmoq, g'ajimoq, vatan, dardchil, ziyrak, kavshamoq, vaqt, chopmoq, jazirama, barvasta, hushyor, kalovlanmoq, norg'ul, dardkash, oshalamoq, talmovsiramoq, barzangi, payt.

2. Sinonimlarni ajrating. Nima maqsadda ma'nodosh so'zlarning qator keltirilganini ayting.

1. Qildi Furqatni xarob-u, xastayi, zori, zabun, Xoli xatting, qaddi ruxsoring, na tanho ko'zlaring. 2. Ajab hasrat, ajab qayg'u, ajab g'amxonalar bo'ldim. 3. Zulm ila qahr-u g'azab, ozori qilmoq shunchalar. 4. Menga qondosh, jondosh bo'lgan el. Gado edi, qashshoq edi, xor. Qildi to'la nafrat, alam, zor.

3. Nuqtalar o'rniga talab etilgan so'z – sinonim qo'yib ko'chiring.

1. Mana bugun ... xalqing Seni chaqirdi – fashist degan ... kelibdi Vatanga. 2. Baxtim borki, har narsa ... ko'rinadi ko'zimga. 3. El dilidan ketsin ..., ... 4. Bobolarga ... xitob: – Siz uchun nima tabarruk? – ... yurtning matlabi buyuk.

4. Berilgan iboralar o'rniga sinonim toping va gap tuzing. Farqini tushuntiring.

Belini mahkam bog'lab (ishlash), bo'yi baland (yigit), qo'li ochiq, ko'zi to'q, ko'ngli oq, og'zi katta, ko'z ochib - yumguncha, oyoqqa turib, ko'ngli g'ash, ko'z ilg'arnas (dalalar), ko'z tutadi, (bahor), ko'z boylash, ko'z tashlash, ko'zingga qarab yur, oyoqni qo'lga olib (yugur), ko'z ochmoq.

**Topshiriq. 1. Quyidagi sinonim so'zlardan bosh so'zni belgilang.**

Ilgari, avval, oldin, qadim, burun; bitirmoq, tugatmoq, tamomlamoq,

yakunlamoq; yalinmoq, yoibormoq, iltimos qilmoq; yuz, aft, chehra, bet, bashara, turq, oraz, jamol, ruxsor, uzor; katta, ulkan, bahaybat; chiroyli, ko'rkam, go'zal, xushsurat; kasal, bemor, xasta, betob; shirin, mazali, xushta'm; Vatan, yurt, diyor, mamlakat, maskan, o'lka; osmon, ko'k, samo; yemoq, iste'mol qilmoq, tanovul qilmoq; qaramoq, ko'z tashlamoq, nazar solmoq, nigoh tashlamoq; gavdali, jussali, barvasta, norg'ul, barzangi; gangimoq, dovdiramoq, esankiramoq, kalovlanmoq, talmovsiramoq; ozod, hur, mustaqil, ustoz, muallim, o'qituvchi.

**1. Quyidagi so'zlarning sinonimlarini topib, izohlang.**

Kuchli, epchil, zaif, qobiliyat, hissa, guvoh, tinch, rost, soqchi, mashaqqat, tanti, ayovsiz, asil, vaqt, dang'illama, g'amgin, ittifoq, yorug', istamoq, ozod, ixlosmand.

**2. Quyidagi sinonimik qatorlarni yodda tuting va ular ishtirokida gap tuzing.**

Azamat, polvon, kuchli; azob, aziyat, jabr, zahmat, alam, iztirob, uqubat, sitam; ayb, gunoh, jinoyat, yoziq; ayyor, mug'ambir, hiylagar, quv, ustamon, makkor, dog'uli, mo'ftoni, qitvir, shayton, tulki, tullak, qirriq, qirpa, maston; aylanay, aylansin, o'rgulay, girgiton, qoqindiq, sadaqa; aytishmoq, janjalfashmoq, koyishmoq, mojarolashmoq, urishmoq, qizarishmoq, tiklashmoq, olishmoq, so'kishmoq.

## **Antonimlar va ularning hosil bo'lishi**

Olamdagi narsa va hodisalarni kuzatsangiz, ular taraqqiyotining asosida muntazam qarshiliklar, ziddiyatlar yotganligining guvohi bo'lishingiz mumkin. Qarama qarshiliklar qonuni dunyo taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sanaladi. Turgan gapki, bu qarama-qarshiliklar tilda ham o'z aksini topgan. Yaxshilik bilan yomonlik, oqlik bilan qoralik, yorug'lik bilan qorong'ilik o'rtasidagi ziddiyatlar asosida son-sanoqsiz qarama-qarshiliklar yuzaga kelganki, ularni ifodalash uchun har bir holatda alohida til birliklari jalb qilingan. Bu esa o'z navbatida tilda yangi bir hodisaning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu til hodisasi antonimiya, qarama-qarshi ma'noli so'zlar esa antonimlar atamasi bilan yuritiladi. Antonimiya so'zi grekcha *anti-zid*, *onyma-nom* so'zlaridan olingan. Antonimiya hodisasini belgilashda tilshunoslikda bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, zid fikrlar ham yo'q emas. Har qanday qarama qarshi turgan so'zlarni antonimlar sifatida talqin qilish ham o'rinli emas. Masalan, *oq-qora*, *baland-past*, *sekin-tez* so'zlaridagi qarama-qarshi ma'nolar yaqqol sezilib turibdi. Ularda har ikki jihat: ham ifoda plani, ham mazmun plani bir biriga zid qo'yilgan. Shunga ko'ra, ularni lug'aviy antonimlar deyish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, antonimiyada ikkita til birligi ishtirok etmoqda. Biri ikkinchisi ifodalagan ma'noniig aks ma'nosini, teskarisini ifodalamoqda.

Ikki til birligi orasidagi ma'noviy munosabat antonimiya hodisasini keltirib chiqarmoqda. Ikkisi birgalikda antonimik juftlikni tashkil qilmoqda.

Tol-terak, opa-singil, aka-uka ko'rinishlarida ham o'ziga xos ziddiyatlar bor, lekin ularni antonimlar deb bo'lmaydi

Odatda, belgini bildiruvchi so'zlar orasida farqlar yaqqol sezilib turadi:

*baland-past, katta-kichik, uzun-qisqa, achchiq-shirin, tungi-kunduzgi* kabi. Zid ma'noli so'zlar birgalikda qo'llanib, yangi so'z hosil qilishi mumkin. *Masalan, yosh-u qari – bari, achchiq-chuchuk ovqat, uzoq-yaqindan – hamma yoqdan.*

## Antonimlarning turlari

Lingvistik adabiyotlarda antonimlarning turlari haqida har xil qarashlar bor. Ularga asoslangan holda birinchi galdagi antonimlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish lozim.

1. Lug'aviy antonimiya: og'ir-yengil, keng-tor, uzun-qisqa va shu kabilar.

2. Grammatik antonimiya: *uyli-uysiz, boobro '-obro 'siz, noo 'rin-o 'rinli* kabi.

Lug'aviy antonimiyada asos holatida til birliklarining qarama qarshi ma'nolarni ifodalashi hisobga olinadi. Grammatik antonimiya esa morfemalar bilan yasash asosida ro'y beradi.

Lug'aviy antonimiyani uchga bo'lib o'rganish mumkin.

a) leksik antonimiya; kech-erta, oq-qora, ingichka-yo'g'on;

b) frazeologik antonimiya: yerga ursa, ko'kka sakraydi — qo'y og'zidan cho'p olmagan, oq ko'ngil — ichi qora kabi;

v) leksik — frazeologik antonimlar: xursand — ichini it tatalaydi, xafa-og'zi qulog'ida.

Nutqimizda lug'aviy antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni qo'llab, tazod san'ati hosil qilinadi.

**Mashq. 1. Quyida berilgan so'zlarni ikki gurubga ajratib ko'chiring.**

**1. Sinonimlar. 2. Antonimlar.**

Baland-past, uzun-qisqa, osh-ovqat, botir-qo'rqmas, chehra-oraz, issiq-sovuq, kambag'al-bechora, ishchan-mehnatsevar, falak-osmon, so'zladi-gapirdi, xafa-xursand, xom-pishiq, xat-xabar, keksa-qari, kiyim-libos, urush-tinchlik, semiz-ozg'in, muloyim-badjahl, shirin-totli, shirin-achchiq, bosh-kalla, asta-sekin, keng-tor...

**2. Berilgan maqollarni ko'chiring. Antonimlarning ostiga chizing.**

1. Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur.

2. Bolali uy-bozor, bolasiz uy-mozor.

3. Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur.

4. Do'st achitib gapirar, dushman — kuldirib.

5. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l.

6. Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

7. Kam ga jirsang, ko'p eshitasan.

8. Oyoq kiyiming tor bo'lsa, dunyoning kengligidan ne foyda.

9. Ern: er qilgan ham xotin, qaro yer qilgan ham xotin.

10. Qo'y bir terining ichida necha ozib, necha semiradi.

11. Holvani hokim yer, kaltakni yetim yer.

12. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

3. Berilgan zid ma'noli so'zlarning qanday turkumga mansub ekanligini aniqlang.

Mehnatsevar-dangasa, kelmoq-ketmoq, yolg'onchi-rostgo'y, ost-ust, toza-iflos, qisqa-uzun, urush-tinchlik, kulmoq-yig'lamoq, kecha-kunduz, yo'g'on-ingichka, katta-kichik, avval-keyin, ozg'in-semiz, ilgari-hozir, baland-past, tonggi-tungi, toza-kir.

## Paronimiya hodisasi (talaffuzdosh so'zlar) haqida

Paronimlar aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi hamda ma'nosi har xil so'zlar. Oxur-axir-oxir, yoriq-yoruq, borlik-borliq kabi. O'zbek tilidagi paronimlar deyarli yasama so'zlarda uchraydi. Paronimiya hodisasining paydo bo'lishida nutqiy jarayonlar, xususan, intonatsiya, urg'u, bo'g'in muhim rol o'ynaydi. Paronimlik bir va bir necha so'z turkumida uchrashi mumkin. Paronimiya hodisasi badiiy adabiyotda so'z o'yinlari, qochirimlar yasashda keng ishlatiladi. Masalan: kurort so'zining ko'r ot, uzum so'zining o'zim, jinoyat so'zining jin oyat tarzida qo'llanilishi bunga misol bo'la oladi. Umuman olganda, tilda paronimlarning ham o'z o'rni bor.

**Mashq. 1.** Quyida berilgan paronim so'zlarning ma'nosini bilib oling, ularning talaffuziga e'tibor bering.

1. Abzal — ot-ulovni egarlash yoki aravaga qo'shish uchun zarur asboblarning jami.

Afzal — yaxshi, a'lo, ortiq so'zlarining ma'nodoshi.

2. Daho — kuchli zehn va iste'dod. Daha — shaharning ma'muriy bo'linishi.

3. Amr — buyruq, farmon. Amir — o'tmishdagi davlat rahbari.

2. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi paronimlarning mos keladiganini qo'yib ko'chiring, kerakli o'rinlarga qo'shimchalar qo'shing.

1. Boburning Kobul ... topilgan emas. Mashina ... tepasiga ko'tarilar ekan, derazadan salqin shamol urildi. (devon-dovon)

2. Mirzakarimboyni Toshkentning to'rt ...si biladi. O'zbek xalqi ichidan o'nlab ...lar yetishib chiqqan (daha-daho).

3. Ot ...in shayladi, o'q-anjomin boyladi. Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan ... (abzal-afzal).

3. Ko'chiring, matndagi paronimlarni toping, ma'nolarini izohlang.

1. Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. 2. Ayni biz bop



ketmon ekan, endi hech ham qiynalmaymiz. 3. Ularning tub maqsadini bilib olishimiz kerak. 4. Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chatidan ekdik.

4. Quyidagi paronimlarning ma'nolarini izohli lug'atdan toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yoqilg'i-yonilg'i, nufus-nufuz, yolqin-yorqin, sayil-sayr, sada-sado, ram2-razm.

### Quyida paronimlar lug'atini keltiramiz

Abadiy – mangu (sifat)	adabiy – badiiy adabiyotga oid (sifat)
Abro' – qosh (ot)	obro' – e'tibor, hurmat (ot)
Abzal – ot, eshak egar-jabdug'i (ot)	afzal – a'lo, yaxshi (sifat)
Abgor – nochor, xarob (sifat)	afkor – fikrlar (ot)
Adib – yozuvchi (ot)	adip – ko'rpa, to'n chetidagi mag'iz
Adl – adolat, odillik (ot)	adil – tik, egilmagan (sifat)
Adresat – xat, telegramma oluvchi (ot)	adresant – xat, telegramma yuboruvchi
Azm – qat'iy qaror, jazm (ot)	azim – g'oyat katta, ulkan (sifat)
Ayon – ma'lum, ravshan (sifat)	a'yon – amaldorlar (ot)
Alamon molomon (ot)	al'amon – omonlik uchun murojaat (r)
Alo – ustiga: "Nur alo nur" (sifat)	a'lo – eng yuqori, eng yaxshi (sifat)
Alam – jismoniy og'riq (ot)	a'lam – diniy arbob, bosh mufti (ot)
Alpoz – axvol, vaziyat, holat (sifat)	alfoz – lafzlar, so'zlar, iboralar (ot)
Amr – buyruq, farmon (ot)	amir – podsho, xon (ot)
Ariq – suv oqadigan joy (ot)	oriq – ozg'in (sifat)
Artish – tozalash (fe'l)	archish – po'stlog'idan ajratish (fe'l)
Asl – tub, negiz, haqiqiy (sifat)	asil – a'lo sifatli, eng yaxshi, toza (sifat)
Ato – in'om, sovg'a (ot)	ota – farzandli er kishi (ot)
Achipti – oshiq o'yini turi (ot)	achibdi – (qatiq) achibdi – (fe'l)
Ahil – totuv, inoq (sifat)	ahl – bir soha odamlari (ot)
Bad – yomon, yaramas (sifat)	ba'd – keyin, so'ng (ravish)
Badnafs – nafsi buzuvchi (sifat)	badnafas – nafasi sovuq (sifat)
Bayon – yozma ish (ot)	bayan – musiqa asbobi (ot)
Bazur – bahuzur, bemalol (ravish)	bazo'r – zo'rg'a (ravish)
Bakor – koriga yaramoq (ot)	bekor – ishsiz (sifat)
Bal – raqs kechasi (ot)	ball – baho o'lchovi birligi (ot)
Band – modda, paragraf; mashg'ul (ot)	bant – sochga taqiladigan lenta (ot)
Barmoq – a'zo (ot)	bormoq – borish (fe'l)
Biyron – so'zamo'l, gapdon (sifat)	biron – biror (olmosh)
Bikr – iffatli qiz, bokira (ot)	bikir – pishiq, baquvvat (sifat)
Birov – kimdir (olmosh)	burov – burash, buramoq (fe'l)
Bob – kitobning qismlari (ot)	bop – munosib (sifat)
Bod – kasallik (ot)	bot – tez; botmoq (fe'l)

Borlik – mavjudlik (ot)	borliq – mavjudot (ot)
Boshda – avval (ravish)	boshida – yonida, oldida (ot)
Bog'li – bog'i bor (sifat)	bog'liq – bog'langan (sifat)
Bud – bor-yo'q narsa (ot)	but – to'liq, bekam-u ko'st (sifat)
Burj – 12 ta yulduz turkumi (ot)	burch – majburiyat (ot)
Buril – burilmoq (fe'l)	burul – xoldor, ko'kish (sifat)
Burgi – parma (ot)	burg'u – qadimgi cholg'u asbobi (ot)
Buqa – yosh erkak qoramol (ot)	buq'a – madrasadagi xujra (ot)
Davo – dori-darmon (ot)	da'vo – arz, talab (ot)
Davr – vaqt oralig'i (ot)	dovur – ot yopinchi (ot)
Dazmol – kiyim tekislaydigan asbob (ot)	dastmol – qozon yuvg'ich (ot)
Devon – shoirning she'rlari to'plami (ot)	divan – yumshoq mebel turi (ot)
Dala – ekin ekiladigan joy (ot)	dara – ikki tog' oralig'idagi jarlik (ot)
Darz – yoriq, yorilgan (ot)	dars – mashg'ulot, saboq (ot)
Dadil – dovyurak (sifat)	dalil – isbot (ot)
Diplomat – davlat xizmatchisi (ot)	diplomant – diplom yozuvchi kishi (ot)
Dub – daraxt (ot) dup – tovushga taqlid	bild. so'z (ot)
Ellik – raqam (son)	enlik – ikki enlik (xat) (ot)
Esiz – attang, afsus (ot)	essiz – esi yo'q nodon (sifat)
Ehzon – qayg'u hukm surgan kulba (ot)	ehson – hayrli ish, ezigulik (ot)
Faqir – kambag'al (ot)	paqir – chelak (ot)
Ganj – boylik, xazina	ganch – suvoq material, alebastr (ot)
Gilos – meva (ot)	go'los – to'q jigarrang (sifat)
Ilk – avvalgi (sifat)	ilik – suyak ichidagi yog'simon modda (ot)
Jodi – o't qirqadigan asbob (ot)	jodu – sehr (ot)
Juda – eng, g'oyat (ravish)	judo – ayriliq (ot)
Kampaniya – ma'lum kishilar tizimi (ot)	kompaniya – korxonalar birlashmasi (ot)
Kaft – qo'lning qismi (ot)	kift – yelka (ot)
Kat – yog'och karavot (ot)	kart – kart dumba (ot)
Kvadrat – teng yoqli to'rtburchak	kvadrant – doiraning choragi (ot)
Kontakt – aloqa, bog'lanish (ot)	kontrakt – shartnoma (ot)
Kuyindi – kuyishdan qolgan iz (ot)	kuyundi – kuyunmoq (fe'l)
Lahm – suyaksiz go'sht (ot)	lahim – yer osti yo'li (ot)
Lop – birdan (ravish)	lof – mubolag'a (ot)
Matal – hikmatli so'zlar (ot)	ma'tal – kutib qolgan, muntazir (r)
Metr – uzunlik o'lchovi: 100 sm (ot)	metr – hurm.bildiruvchi so'z (frans)

Nasha – narkotik modda (ot)	nash'a – estetik jazzat, huzur (ot)
Naq – xuddi, ayni (yuklama)	naqd – puli darhol to'lanadigan – (ot)
Nufuz – obro', e'tibor (ot)	nufus – aholi (ot)
Olu – olxo'ri (ot)	oluv – olish (fe'l)
Ora – o'rtta (vazifadosh ko'makchi)	oro – pardoz (ot)
Oxir – chegara, poyon (ot)	oxur – hayvonlarga yem solinadigan joy (ot)
Oqlik – oq ranglik (ot)	oqliq – sut mahsulotlari (ot)
Orasida – o'rtasida, ichida (ravish)	orasta – bezatilgan, yasatilgan (sifat)
Qad – qomat (ot)	qat – qavat, qatlam (ot)
Qayd – ta'kid (ot)	qayt – o'qchish, qusish (ot)
Qala – o'tinni taxla (fe'l)	qal'a – shahar (ot)
Qalmoq – millat (ot)	qolmoq – qolish (fe'l)
Qarz – qaytariladigan pul, buyum (ot)	qars – tovush: qars etdi (taqlid so'z)
Qari – kekxa, mo'ysafid (ot)	qa'ri – chuqur yeri, osti, ichi (vaz.ko'makchi)
Qat'i – qat'i nazar (sifat)	qat'iy – uzil-kesil (ravish)
Qiyq – tovush: qiyq etdi (taqlid so'z)	qiyiq – qiyilgan; ro'mol (ot)
Qiyamat – baho (ot)	qimmat – narhi baland (sifat)
Qism – bo'lak (ot)	qisim – siqim (ot)
Qolib – qolmoq (fe'l)	qolip – oyoq kiyimi moslamasi (ot)
Quyildi – oqdi (fe'l)	quyuldi – quyulashdi (fe'l)
Qura – qura boshladi (fe'l)	qur'a – chek (ot)
Qurt – hasharot (ot)	qurut – suzma, qurut (ot)
Sayd – ov (ot)	Sayid – Muhammad payg'ambar avlodlari (ot)
Sanat – sanatmoq (fe'l)	san'at – badiiy ijodiyot turi (ot)
Saqov – ot, eshaklar kasalligi (ot)	soqov – gung, tilsiz (ot)
Suyilmoq – sevilmoq (fe'l)	suyulmoq – suyuqlashmoq (fe'l)
Surat – rasm (ot)	sur'at – tezlik, temp (ravish)
Surgin – surmoq (fe'l)	surgun – badarg'a (ot)
Ta'b – kishining ichki tabiati; mijoz (ot)	tab – taft, harorat (ot)
Talat – talatmoq (fe'l)	tal'at – yuz, chehra (ot)
Tambur – vagon kiraverishidagi bo'lma (ot)	tanbur – cholg'u asbobi (ot)
Tana – gavda (ot)	ta'na – gina-gudurat (ot)
Tarif – baholar ko'rsatkichi (ot)	ta'rif – tavsif, tasvir (ot)
Tasir – tasir-tusir (taqlid so'z)	ta'sir – tazyiq (ot)
Taqib – taqib qo'ydi (fe'l)	ta'qib – yashirincha kuzatish (ot)
Tib – meditsina (ot)	tip – toifa (ot)
Tub – tag, ost (ravish)	tup – o'simlik, daraxtning donasi (ot)
Tutin – tutinmoq (fe'l)	tutun – olov tutuni (ot)

Uzik – uzilgan (sifat)	uzuk – taqinchoq (ot)
Uyim – mening uyim (ot)	uyum – to‘da (ot)
Ulish – ulimoq (it, bo‘ri) (fe‘l)	ulush – bo‘lak, hissa (ot)
Unim – (mening) unim (ot)	unum – hosil, baraka (ot)
Urish – urmoq (fe‘l)	urush – jang (ot)
Vaqf – diniy muassasa mulki (ot)	voqif – xabardor (ot)
Vaqe – sodir (bo‘lmoq) (fe‘l)	voqea – hodisa (ot)
Xayoli – o‘yi, fikri (ot)	hayoli – iffatli (sifat)
Xalq – el, ulus (ot)	halq – halqum (ot)
Xam – egik, quyi solingan (sifat)	ham – (men) ham (yuklama)
Xar – eshak (ot)	har – har kim (olmosh)
Xiyol – sal, ozgina (ravish)	xayol – o‘y, fikr (ot)
Xiyla – ancha (ravish)	hiyla – makr, firib (ot)
Xil-xil – turli-tuman (sifat)	hil-hil – hil-hil (pishgan) (sifat)
Xirs – ayiq (ot)	hirs – kuchli istak, Intilish (ot)
Xol – badandagi qora tug‘ma dog‘ (ot)	hol – ahvol (ot)
Xoli – yolg‘iz, bo‘sh, band emas (sifat)	holi – ahvoli (ot)
Xosiyat – xosiyat(li) (ot)	hosiyat – his etish (ot)
Xur – tovush; xur-xur (taqlid so‘z)	hur – erkin, ozod (sifat)
Xush – yaxshi, ma‘qul, durust (sifat)	hush – ong, aql, idrok, es-hush (ot)
Yagana – ekinni siyraklatish (ot)	yagona – yakka, tanho, yolg‘iz (sifat)
Yetdi – yetib bordi (fe‘l)	yetti – son
Yondash – yaqinlash (fe‘l)	yondosh – yonidagi (ot)
Yoriq – yorilgan (sifat)	yorug‘ – nur (sifat)
Yuvindi – suv bilan tozalandi (fe‘l)	yuvundi – iflos suv (ot)
Zafar – g‘alaba (ot)	za‘far – sap-sariq rang (sifat)
Sher – hayvon: arslon (ot)	she‘r – vazn, qofiyali kichik badiiy asar (ot)
Shox – daraxt yoki hayvon shoxi (ot)	shoh – podsho (ot)
Shuba – mo‘ynali qishki kiyim (ot)	sho‘ba – bo‘lim, idora (ot)

**Mashq. 1. So‘zlarni o‘qing. Ularning o‘rtasidagi farqlarni aniqlang.**

Azm-azim	bazur-bazo‘r	ganj- ganch
Ahl-ahil	sut-sud	surat-sur‘at

**2. Berilgan gaplardagi so‘zlarning xatosini toping.**

1. Besh asirkim nazmiy saroyni  
Titratadi zanjirband bir she‘r.
2. Sanat saroyiga konsert tomosha qilgani bordik.
3. Terim suratini kuchaytiraylik.
4. Urish, noming o‘chsini jahonda...

Paronimlarni variantdosh soʻzlardan farqlash kerak. Variantdosh soʻzlar bir soʻzning ikki, uch xil toʻgʻri yozilish shaklidir.

### Variantdosh soʻzlar (Leksik dubletlar)

Adab	odob	karta	qarta
Ajdaho	ajdarho	oyoq osti	oyogʻosti
Ayqirmoq	hayqirmoq	podsho	podshoh
Alifbo	alfavit	soʻlqilloq	soʻlqildoq
Arava	aroba	suyunish	sevinish
Aso	hassa	suymoq	sevmoq
Asta	ohista	san-man	sen-men
Assalomalaykum	assalomu alaykum	abo	saboh
Astagʻfirulloh	astafirullo	tegizmoq	tekkizmoq
Ash-pash	hash-pash	teva	tuya
Baayni	baaynihi	terrarium	terrariy
Badtar	battar	tupuk	tupuruk
Bayir	bayri	toʻnka	toʻngak
Baytulhazan	baytulhazan	toychoq	toychiq
Bamaʻni	bamaʻno	xayolat	xayolot
Baravar	barobar	chuchuk	suchuk
Barahman	braxman	taqillamoq	taqirlamoq
Benihoya	benihoyat	teravermoq	tera bermoq
Bekinmoq	berkinmoq	toʻlgʻazmoq	toʻlgʻizmoq
Boykot	boyqut	faylasuf	filosof
Bolgar	bulgʻor	chivin	chibin
Boobroʻ	boobroʻy	shahanshoh	shohanshoh
Bosh barmoq	boshmaldoq	shohtut	shotut
Buzurg	buzruk	shundoqqina	shundaygina
Bugun	bukun	yugan	jugan
Valiyulloh	valiulloh	yung	jun
Vajh	vaj	yuravermoq	yura bermoq
Valangor	valangir	yuqa	yupqa
Gavhar	guhar	oʻtirish	oʻftirish
Gado	gadoy	oʻtiringʻich	oʻltirgʻich
Dumaloq	yumaloq	qabariq	qavariq
Yetkaz	yetkiz	qabat	qavat
Yovon	yobon	qaynona	qaynana
Isirgʻa	sirgʻa	qaynota	qaynata
Kaptar	kabutar	qaytaga	qaytanga
qaytadan	qaytatdan	machit	masjid
quvalamoq	quvlamoq	moh	mah

## Uyadosh soʻzlar

**Bir mazmuniy uyaga (gurubga) mansub boʻlgan soʻzlar uyadosh soʻzlar deyiladi.**

Tilimizdagi barcha soʻzlar ongimizda maʼlum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa soʻzlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. Masalan, kiyim turlari – koʻylak, shim, doʻppi. Uyadosh soʻzlarni maʼnodosh soʻzlardan farqlash kerak. Sinonimlar bir tushunchaning turli maʼno qirralarini ifodalaydi, uyadosh soʻzlar esa bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalaydi.

**Mashq. Quyida berilgan soʻzlarni qoʻy va qoramol soʻzlari ostiga birlashtirib yozib chiqing.**

Sigir, qoʻchqor, buzoq, qoʻyehivon, huzoqboqar, qoʻzichoq, qorakoʻl terisi, sovliq, novvos, jun, buqa.


## OʻZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI

Oʻzbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) oʻz ichki imkoniyatlari asosida; 2) boshqa tillardan soʻz olish asosida. Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar sanaladi.

1. Oʻzbek tili leksikasining birinchi yoʻl bilan boyib borish imkoniyatlari juda kengdir. Masalan, a) ilgari qoʻllanilib, keyin isteʼmoldan chiqib ketgan soʻzlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman kabi; b) yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi soʻz yasash: uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner) va boshqalar; v) dialektal soʻzlarni faollashtirish orqali: mengzamoq (Xorazm) «oʻxshatmoq», «tenglashtirmoq», «qiyoslamoq» maʼnosida.

2. Oʻzbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Tashqi manbaga arab, fors-tojik, moʻgʻul, uygʻur va rus tillaridan olingan soʻzlar kiradi. Buni quyidagi sxema orqali koʻrsatish mumkin.

Boshqa tillardan oʻtgan soʻzlar olinma (oʻzlashma soʻzlar ) deyiladi. Masalan, litsey, kollej, kompyuter, radio, avtomobil, menejment, biznes, faks, magistr.



Quyidagi so'zlarni yodda tuting.

**1. Tojik tilida**

Chorpoya  
Olov  
Chopon  
Kissa  
Dasta  
Buqa  
Jilt  
Oftob  
Osmon

**2. O'zbek tilida**

so'ri  
o't  
to'n  
cho'ntak  
sop  
novvos  
muqova  
quyosh  
ko'k

Tojik tilidan so'z o'tish natijasida qo'shma va juft so'zlar ham paydo bo'lgan.

Bosh (pana), qon (xo'r), qo'sh (nay), shirin (so'z), yalang (bosh), qahr-g'azab, to'y-tomosha, sog'-salomat, achchiq-chuchuk.

**Topshiriq:**

1. Quyida berilgan o'zlashma so'zlarning qaysi tilga oid ekanligini topib, jadvalga joylashtiring. (arabcha, forscha, ruscha)

Saodat, taxt, mashina, a'lo, she'r, karaxt, badjahl, shoir, maorif, xo'roz, gazeta, baxt, ruchka, sehr, stol, bioximiy, dazmol, ruxsat, ro'za, qoida, sur'at, obyekt, donishmand, parta, paravoz, muomala.

## Qo'llanish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan so'zlar

So'zlar qo'llanilish doirasiga ko'ra chegaralangan va chegaralanmagan so'zlarga bo'linadi.

Umumxalq tilida keng qo'llaniladigan va shu tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lgan so'zlarga qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar deyiladi. Ular neytral leksika atamasi bilan ham yuritiladi. Masalan, non, un, qalam, daftar, qor, bulut...

Faqat ma'lum sotsial guruh hamda ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, umumxalq tiliga xos bo'lmagan so'zlar chegaralangan so'zlar sanaladi.

Bunday so'zlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. *Hududiy chegaralangan so'zlar (dialektizmlar).*

2. *Sotsial chegaralangan so'zlar.*

Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib boshqa hududda yashovchi o'zbek tili vakillari uchun xos bo'lmagan so'zlar hududiy chegaralangan (shevaga xos) so'zlar yoki dialektizmlar deyiladi. Masalan, eshik «hovli», «uy» (Andijon), shoti «narvon» (Andijon, Farg'ona, Namangan), takya «do'ppi» (Xorazm) va boshqalar.

Bir tilning faqat ma'lum hududiga xos bo'lib, boshqa joylarda o'zgacha nom bilan yuritiladigan so'zlar shevaga xos so'zlar sanaladi. Bu so'zlardan bittasi umumxalq tili bo'lgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu so'z adabiy til uchun me'yor sanaladi. Masalan, do'ppi so'zi adabiy me'yor, kallapo'sh, qalpoq, takya so'zlari esa, shevaga xos so'zlardir.

### Topshiriq:

1. Shevaga xos so'zlarni belgilab, ularga izoh bering.

Toshkentda – dovuchcha, Farg'onada g'o'ra; adabiy tilda – chumoti, Samarqand, Buxoroda – mo'rcha, Xorazmda – qarindja; adabiy tilda – tuxum, qi pchoq shevalarida – mayak, Xorazmda – yumirta.

2. Shevaga xos so'zlarni aniqlab, ularni adabiy tildagi shakliga solishtiring.

1. Uchakka chiquvdim ayni go'rmakka, Ayning bahanasinda yorni go'rmakka. 2. Inakni o'tlatgani dalaga olib ketdi. 3. Bolalar daraxtga shoti qo'yib, qushlar uchun in o'rnatdilar.

Xorazmda: uchak-tom, ay-oy, go'rmak-ko'rmoq; Buxoroda: inak-sigir; Farg'ona vodiysida: shoti - narvon.

3. She'rlarni o'qing, shevaga xos so'zlarni aniqlang, ularga izoh bering. O'zingiz ham shunday so'zlarga misollar toping.



1. Buxoroda inak derlar,  
Qi pchoq elda uydur oti.  
Doim suyub go'shtin yerlar,  
Sut beradi har bir zoti.  
Xashak ushlab unga choping,  
Nimadir u qani, toping?

2. Andijonlik «shoti» desa,  
Toshkentliklar «narvon», deydi.  
Xonim yoki o'ramani,  
Yana kimdir «huvnon», deydi.  
Qo'qonliklar: — Kanalga yur,

Bibijonlar nabirasin  
Atrofida ovoradir.  
Bola uchun bebaho taxt-  
Milliy buyum gavoradir.  
Bola yig'lar, qani, choping,  
Bu nimadir, tezda toping?

Hopitamiz, chop-chop, — deydi.  
Xorazmlik kulib: — Qurg'ur,  
Kanal emas, bu — yop, — deydi  
Bolalarim, qani, o'ylang,  
Qaysi biri to'g'ri? So'ylang.

## SHEVA VA LAHJALAR

Har bir qishloq, shahar va viloyat aholisi tilida umumxalq tili bilan barobar shu joyga xos so'zlar, iboralar qo'llanadi. Bu xususiyatlarni tilshunoslik fanining shevashunoslik bo'limi o'rganadi. O'zbek shevalarini o'rganishda G'ozzi Olim Yunusov, D. Polivanov, V.V.Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, M.Mirzaev, A.Aliyev, F.Abdullayev va boshqa olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

O'zbek shevashunoslik fanining ma'lumotlariga ko'ra, o'zbek sheva va lahjalari 3 guruhga bo'linadi:

1. *Janubi-sharqiy guruh: qarluq-chigil-uyg'ur shevalari.* Bunga ko'pchilik shahar shevalari kiradi.

2. *Janubi-g'arbiy guruh: o'g'uz shevalari — Xorazm, Qozog'iston, Turkmanistondagi o'zbek shevalari.*

3. *Shimoli-g'arbiy guruh: bular qipchoq shevalari nomi bilan yuritiladi.* Bu shevalarda y tovushi j ga o'tadi: *yo'l, yo'q* kabi *so'zlar jo'l, jo'q* tarzida aytiladi.

Har bir sheva yana bir necha lahjalarga bo'linadi. Masalan, shahar shevalari (Toshkent, Namangan, Qo'qon, Farg'ona) umumiy tomonlarga ega bo'lsa ham, ayrim so'zlarda (tancha, turshak-Toshkent) va ba'zi qo'shimchalarda, unlilar talaffuzida (kevotti, kelutti, kelyapti; Sho'kat, Do'vlat, ating nima? Kitobdi o'qidingizmi?) farqlanib turadi. Shevadagi u yoki bu so'z umumxalq lug'atiga kirib, adabiy tildagi so'zga sinonim bo'la oladi: *dovuchcha-g'o'ra, eshik-uy* ma'nosida, *uy-hovli, tancha-sandal* va b.

Ammo kelutti, alma, apa, ong'lar, biza, mayliya, nondi, devotsiz kabi talaffuz adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydi. Ular faqat biror asar qahramonlari (biror shevaga mansub shaxslar) nutqida uchrashi mumkin: Ikkalasi bamisoli yalakat mag'iz. Adashmasam, ocharni boshqa hech joyda qilishmaydi.

**Ma'lum ijtimoiy guruh doirasidagina ishlatiladigan so'zlarğa sotsial**

chegaralangan soʻzlar deyiladi. Masalan: «otarchi»lar doirasida qoʻllaniladigan soʻzlar: *yakan* «pul», *danap* «qiz bola»; temir yoʻl kuzatuvchilari doirasida qoʻllaniladigan soʻzlar: *qaychi* «taftishchi», *koʻkhoz* «chiptasiz yoʻlovchi».

Bunday soʻzlar argolar deb yuritiladi.

Shuningdek, ayrim tabaqa vakillari tilida faol ishlatiladigan leksemalar ham uchrab turadi, bular jargonlar deyiladi. Masalan: olampanoh, volidai muhtarama, padari buzrukvor, manzirat qilmoq va hokazo.

## Noadabiy soʻzlar

Lugʻatimiz manbalaridan yana biri jonli uchraydigan, lekin matnda qoʻllanmay, ayrim shaxslarning xulq-atvorini, tabiatini koʻrsatib turadigan soʻzlar, iboralardirki, ularni zarur oʻrindagina ishlatish maʼqul: innaykeyin, hoʻp boʻlmasa, haligi, shu desangiz, deylik, endi, xoʻsh.

Bu ifodalar ayrim obrazlarni taʼriflash uchun adabiy asarlarda ham qoʻllanadi: *Kechirasiz, oʻrtoq rais! Boshqa vaqtda zvonit qiling.*

Momoy, boboy, mamulya, bratishka, gardkam, zamri, atanta, errayim, xumpar, takasaltang, neudachnik. To yes, znachit, dalagay, mersi, danke kabi «shaxsiy» ijod soʻzlari, oʻrinsiz ogʻizga olinadigan iboralar, argolar, jargonlar, varvarizmlarni qoʻllash notoʻgʻri boʻladi.

## Tasviriy ifoda (Parafraza)

**Biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga oʻxshatish orqali tasvirlab ifodalashga tasviriy ifoda deyiladi.** Tasviriy ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa koʻtarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib lugʻat tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan qochish imkonini beradi. Tasviriy ifodalarning hosil boʻlishida soʻz maʼnosining koʻchish yoʻllari – metafora, metonimiya, sinekdoxaning ahamiyati katta: *oq oltin – paxta* (metafora usulida), *oʻzbek romanchiligi maktabining asoschisi – Abdulla Qodiriy* (metonimiya usulida), *charm qoʻlqop ustasi – bokschi* (sinekdoxa usulida) kabilarda muayyan narsa-predmetga xos belgining nomi boshqa narsa-predmetdagi belgiga nom sifatida koʻchgan.

Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi hisoblanadi.

Masalan: *oʻrmon podshosi – sher.*

Quyida tasviriy ifodalar lugʻatini keltiramiz:

Paxta – oq oltin

Fazogirlar – samo lochinlari

Makkajoʻxori – dala malikasi

Yetimlar – davlat bolalari

Mexanizatorlar – zangori kema kapitanlari

Pillakorlar – zarshunoslar

Ziyolilar – ilmi kishilar

Kino yulduzlar – mashhur kino aktyorlar  
Rassom – mo‘yqalam sohibi  
Sut sog‘uvchilar – oq chashma sohibalari  
Insonning 63 yoshi – payg‘ambar yoshi  
Tilshunoslar – til muhandislari  
Mashhur bokschi – charm qo‘lqop ustasi  
Prezident – yurtboshi  
Shaxmat, matematika – aql gimnastikasi  
Chigit – baraka urug‘i  
Neft, ko‘mir – qora oltin  
Archa – o‘rmon malikasi  
Gaz – zangori olov  
Qor – kumush choyshab  
Televizor – zangori ekran yoki oynayi jahon  
Shifokorlar – salomatlik posbonlari  
A.Navoiy – g‘azal mulkinging sultoni  
Konstitutsiya – hayotimiz qomusi  
Cho‘ponlar – yaylov bahodirlari  
Bug‘doy – oltin boshog‘  
Traktor – po‘lat ot  
Bunker – po‘lat etak  
Qushlar – qanotli do‘stlar  
Pilla – kumush tola  
SPID, Narkomaniya – asr vabosi

## Eskirgan so‘zlar

Tilimizda ma‘lum davrda qo‘llanilib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so‘zlarga eskirgan so‘zlar deyiladi. Masalan, eski o‘zbek tiliga xos cherik (askar), o‘kush (ko‘p), talim (bir qancha) singari so‘zlar bugungi kunda qo‘llanilmaydi.

So‘zlarning eskirishi ikki xil yo‘l bilan amalga oshadi.

1. So‘z o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi. Bunday so‘zlarga tarixiy so‘zlar deyiladi.

2. So‘z eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so‘z bilan nomlanadi. Ularga arxaik so‘zlar deyiladi.

**Mashq.** Gaplarni o‘qing, eskirgan so‘zlarni topib, ma‘nosini tushuntiring.

1. Ulug‘bek usturlab va undan foydalanish haqidagi so‘zlarni tugatgach, zij tuzmoq hunaridan so‘zlay boshladi.

2. Yana bir istagim shuki, falakiyot, riyoziyot, handasa, tibbiyot, jug‘rofiya, adabiyot ilmidan xabar topsagina alloma deb tan olinsa.

Quyida ba‘zi eskirgan va tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini keltiramiz  
Chingilin – kelishgan

Bod – sharnol  
Ajuva – xu ruk, ko'rimsiz  
Ibtido – boshlanishi  
Injimoq – ranjimoq  
Dilovar – qo'rqmas, botir  
Mas'ud – baxtiyor  
Ochun, ofoq – dunyo  
Osig' – foyda  
Amr – farmon  
Kalom – so'z  
Istiloh – termin, atama  
Mufassal – to'liq, batafsil  
Muxtasar – qisqa, lo'nda  
Fardlik – yolg'izlikka intilish  
Bexirad – beaql, nodon  
Munis – hamdam, sirdosh  
Izm – ixtiyor  
Sobit – qat'iy  
Bois – bahona, vaj, sabab  
Tal'at – chehra  
Ganj – xazina, boylik  
Ma'tal – muntazir bo'lmoq, kutib qolmoq  
Dom – tuzoq  
Nash'a – huzur  
Nasim – shaboda  
Ko'lanka – soya  
Nekqadam – yaxshi qadam  
Nashida – qo'shiq  
Beadad – bisyor, mo'l  
Adil – tik  
Lojuvard – tiniq, ko'k  
Za'faron – sap-sariq  
Arg'uvon – qip-qizil  
Ranj – ozor, alam; mehnat  
Fan – rasm, odat  
Intiho – tugashi  
Olqor – yovvoyi tog' echkisi  
Ayg'ir – erkak ot  
G'o'nani – 2 yasharli ot  
Novvos – erkak buqa  
Intiboh – ogohlik, ogohlantirish  
Puchmoq – ovloq, burchak

Zarofat – hozirjavoblik  
Sarafroz – magʻrur, yuksak  
Shuur – idrok  
Buromad – chiqim, sarf  
Xilqat – yaratilish, bunyodga kelish  
Ibtilo – muhtalo boʻlish  
Nor – erkak tuya, badandagi qishgʻish dogʻ  
Biya – urgʻochi tuya  
Armugʻon – sovgʻa  
Juzʻiy – qisman  
Ushshoq – musiqa yoʻli  
Munavvar – nurli, yorugʻ  
Xiradmand – dono, aqlli  
Ustixon – suyak  
Moʻjiza – yangilik  
Arjumand – aziz, qadrlı  
Diyonat – vijdon  
Loppos – toʻladan kelgan  
Tamaddun – madaniyat  
Ogʻon nuri – olloh nuri  
Ne tong – ne ajab  
Musallah – qurollangan  
Bot – yana, tez  
Muqimiy – doim bir yerda turuvchi  
Olud – qorishgan  
Tomugʻdan – doʻzaxdan  
Tuygʻun – sezgir  
Andalib – bulbul  
Ifor – hid  
Besubut – vaʼdasida turmaydigan  
Diyda – koʻz  
Maygun – qizil  
Dovot – siyohdon  
Falakiyot – osmon ilmi, astronomiya  
Handasa – geometriya  
Masih – jon bagʻishlovchi, tiriltiruvchi  
Riyoziyot – matematika  
«Ushshoq» – kuy nomi  
Veterinar – hayvonlar doktori  
Xonumon – uy-joy, uy jihozlari  
Zij tuzmoq – yulduzlar jadvalini tuzmoq  
Chin – Xitoyning eski nomi

Bitik – kitob  
 Fasohat – chiroyli va yoqimli so‘zlash  
 Fikh – islom huquqshunosligi  
 Yovuq – yaqin  
 Yog‘iy – g anim, dushman  
 Dubulga’ – tig‘ yoki o‘qdan saqlanish uchun temir yoki po‘latdan  
 ishlangan bosh kiyimi  
 Firqa – partiya  
 Qadoq – og‘irlik o‘lchovi  
 Pud – og‘irlik o‘lchovi  
 Donish – bilim, ma‘lumot  
 Jig‘a – bosh kiyimga taqiladigan ukpar va qimmatbaho toshlar bilan  
 bezatilgan ziynat buyumi  
 Kulliyot – biror narsaning yig‘indisi, to‘plam  
 Magoq – o‘rnak, namuna, mash‘al  
 Saltanat – biron bir hukmdor qo‘l ostidagi mamlakat  
 Sardoba – usti gumbaz shaklidagi g‘isht qurilma bilan berkitilgan sun‘iy  
 hovuz  
 Sarbon – 1. Karvonboshi, karvon 2. Yo‘lboshchi, rahnamo  
 Zavja – rafiq, qayliq  
 Chilvir – ingichka pishiq arqon, arg‘amchi  
 Paykon – kamon uchidagi metall, bashoq  
 Xiromon – chiroyli yurish  
 Dushvor – qiyin  
 Boshidin evrulur – aylanmoq  
 Na‘l – tobut  
 Aylandur – aylantir  
 Lak – yuz ming  
 Tuman – o‘n ming

*Navoiy asarlari lug‘atidan keltirilgan misollar:*

Bosh oqarmoq – sochi oqarmoq, qartaymoq  
 Bosh olib chiqmoq – hamma narsaning bahridan o‘tmoq, kechmoq,  
 tark qilmoq  
 Bosh uchurmak, bosh tushirmoq – o‘ldirmoq, boshini kesmoq  
 Bosh ura kirishmoq – ko‘rina boshlamoq  
 Bosh o‘g‘irlamoq – bosh olmoq, o‘ldirmoq  
 Bosh o‘ynamoq – o‘yinda boshni tikmoq, qurbon bo‘lmoq  
 Bosh indurmak – 1.ta‘zim qilmoq 2.pisand qilmoq  
 Bosh tortmoq – ko‘tarilmoq, yuqorilashmoq  
 Bosh chiqarmoq – o‘zini tortmoq, o‘zini ayamoq, saqlamoq  
 Ollida bosh qo‘ymoq – o‘zini kichik olmoq, itoat qilmoq, iltijo etmoq

Boshidin quyymoq – esidan, yodidan chiqmoq  
Boshdin quyymoq – bahridan o'tmoq, kechmoq, tark etmoq  
Boshiga yetmoq – tepasiga kelmoq, oldiga kelmoq  
Boshi falakdin o'tmoq – ulug' martaba hosil qilmoq  
Xotindin bosh ko'tarmak – itoatda bo'lmoq, chizgan chizig'idan chiqmaslik


## Yangi so'zlar (neologizm)

Hozirgi kunda yangilik belgisini saqlab turgan so'zlarga yangi so'zlar deyiladi. Masalan, birja, monitor, «sichqoncha», internet, bakalavr, «kuchukcha», magistr...

### Atamalar

Atama ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanadigan so'zlar.

Atamalar ikki yo'l bilan hosil bo'ladi.



1. Umumxalq tilidagi so'zlardan ma'nosini maxsuslashtirish orqali hosil qilinadi. Natijada, bunday so'zlar umumxalq tilida bir ma'noni, fan tilida esa boshqa ma'noni bildiradi. Masalan: *ot, ildiz, hol, fe'l*.

2. Boshqa tillardan ilmiy tushuncha uchun atama olish orqali. Bular faqat shu fan sohasidagina ishlatilib, umumxalq tilida ishlatilmaydi. Masalan: *kasr, musbat, manfiy*.

**Ma'lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladigan so'zlarga kasbiy atama deyiladi.**

Atamalarni tartibga solish har bir tilda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning maxsus bo'limi borki, bunday bo'lim atamashunoslik (terminologiya) deyiladi.

*Atamashunoslikning o'rganish birligi atamalardir.*

Har bir fan, kasb-hunar tarmog'i atamalarsiz ish ko'ra olmaydi. Shuning uchun atamashunoslik muammolari faqat tilshunoslikninggina muammosi bo'lib qolmay, u barcha fan va kasb-hunarning ham asosiy masalalaridandir. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi qoshida barcha fan, kasb-hunar sohalarida atamalarni tartibga solish muammosi bilan shug'ullanuvchi atamashunoslik qo'mitasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Atamalarni mumkin qadar milliyalashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish (kichik korxonalar,

jamo'a xo'jaligi, tadbirkor, qo'shma korxonalar), shu bilan birga, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tilidan kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish (kompyuter, fermer, dizayn) hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili sanaladi. Shuning uchun ham xalq o'rtasida keng iste'molda bo'lgan radio (ovoznigir emas), aeroport (tayyoragoh emas), institut (oliygoh emas), avtobus (ko'pkursi emas), telefon (durovoy emas), samolyot (uchoq emas) kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi.

**Ma'lum fan yoki kasb-hunar sohasidagi muayyan bir tushunchani aniq ifodalash uchun ma'nosi maxsuslashtirilgan so'z yoki so'z birliklariga atama (termin) deyiladi.**

### **Atamashunoslik muammolari**

Har qanday fan sohasining rivojida shu fanga doir atamalarni izga solish katta ahamiyatga ega.

Atamalarni tartibga solish harakati mustaqillikning ilk davrlarida turli yo'sinda olib boriladi: a) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o'rniga arab-fors tilidan atamalar tanlash: aeroport o'rniga tayyoragoh; samolyot o'rniga tayyora; institut o'rniga oliygoh, rayon o'rniga nohiya, radio o'rniga ovoznigir, telefon o'rniga durovoz kabilar; b) rus tilidan va til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini qidirib, o'zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobili bo'lmasa, boshqa tillardan olingan atamalarni o'zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirib qo'llash. Masalan, aksiya-hissa, aksioner-hissador, kanslyariya-devonxonalar, pechat-muhr, gimn-madhiya, tamojnya-bojxonalar, bank-banka, samolyot-samolyot, vertolyot-vertolyot, raketa-raketa, tank-tank, telefon-telefon, kompyuter-kompyuter kabi. Atamalarni izga solishning keyingi yo'li istiqbolli yo'l ekanligi hammaga ayon bo'ldi, chunki boshqa tillardan atama qabul qilmaydigan birorta ham til yo'q. Masalan, telefon, kompyuter atamaları dunyoning hamma tillariga kirib borgan.

Hozirgi kunimizda o'zbek tili birja, dizayn, lizing, marketing, menejment, monitoring, audit singari yuzlab boshqa tillardan olingan atamalar hisobiga boyib bormoqda.

### **Nomshunoslik (onomastika)**

**Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limiga onomastika (lot. onuma «nom» so'zidan olingan) deyiladi.**

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra, bir nechta guruhga bo'linadi:

1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar antroponimlar (lot. antropos «shaxs», «odam», onuma «nom»): Nasiba, Dildora...



2. Geografik obyektlar va ularning nomlari **toponimlar** (*lot. topos qishloq, shahar, maydon, ko'cha onuma «nom»*): Toshkent, Yunusobod, Qorako'l, Qarshi kabi.

3. Hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar **zoonimlar** (*lot, soom «hayvon», onuma «nom»*): to'rtko'z, bo'ribosar kabi.

4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo'yilgan nomlar (*daryo, ko'l, dengiz nomlari*) **gidronimlar** (*lot, gidro daryo, «suv», onuma «nom»*): Orol dengizi, Balxash ko'li, Qashqadaryo kabi.

## Iboralar

Ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi.

Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. Iboralar tarkibida eng kamida ikki so'z qatnashadi, ammo ular o'zaro bog'langan holda umumlashgan bitta ko'chma ma'no bildiradi, masalan, zo'raymoq – so'z, avj olmoq – ibora, qiynalmoq – so'z, azob chekmoq- ibora. Frazeologiya tilshunoslikning iboralarni o'rganadigan bo'limidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'lsa-da, lekin ular nutq birligi bo'lgan bu sintaktik birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi. So'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular huddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi, demak, iboralar nutq hodisasi emas, til hodisasi hisoblanadi: kapalagi uchib ketdi, oyog'i kuygan tovuqdek, oshig'i olchi kabilar tildagi tayyor holdagi lug'aviy birliklardir. Frazeologizmlar so'zlar kabi gapda bir bo'lak vazifasini bajaradi. Iboralar barcha gap bo'laklari bo'lib kelishi mumkin. Masalan, Uning oyoq olishi menga yoqmadi (ega). Sening gaplaringdan boshim osmonga yetdi (kesim). Unda og'zining tanobi qochadigan odat bor (aniqlovchi). Litseyga ko'z ochib yunguncha yetib boraman (hol). Bu gapdan qizning tepa sochi tikka bo'lishini kutmagan edim (to'ldiruvchi). Iboralarda odatda uslubiy bo'yoq kuchli bo'ladi, shuning uchun ularndan fikrni jonli, ta'sirchan qilib ifodalashda keng foydalaniladi. Badiiy va so'zlashuv uslublari ibora eng ko'p qo'llanadigan uslubdir. Tilimizda asrlar davomida sayqal topib shakllangan, xalqimiz turmush tajribasidan o'tgan iboralar juda ko'p. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev «O'zbek tilining frazeologik lug'ati»ni tuzgan.

Iboralarda ham shakldoshlik, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik hodisalari mavjud. Bir xil so'zlardan tuzilgan boshqa-boshqa tushuncha anglatuvchi iboralar shakldosh iboralardir. Masalan, boshga ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq, ko'z yummoq, og'ziga olmaslik. Ilgari bir qatra ham og'zimga olmas edim.

Komissiya hayron bo'lib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni og'ziga olmas edi.

Ma'nodoshlik hodisasi frazeologiya uchun ham xarakterli. *Masalan, kayfi buzuz – ta'bi tirriq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil hermoq. Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar : ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, yuzi yorug' – yuzi shuvut, ko'ngli joyiga tushmoq – yuragiga g'ulg'ula tushmoq.*

Quyida nutqimizda faol qo'llaniladigan iboralar lug'atini keltiramiz:

1. Ko'zini bo'yamoq – aldamoq
2. Oyoq osti bo'ldi – xo'rlandi
3. Dovi yurgan – omadli
4. Dili pora – xafa
5. Terisiga sig'may ketdi – juda quvondi
6. Ko'ngli to'ldi – mamnun bo'ldi
7. Mum tishlab qoldi – gapira olmay qoldi
8. Chehrasi ochildi – xafagarchiligi tugadi
9. Lafzi halol – va'dasida turadigan
10. Qo'y og'zidan cho'p olmagan – o'ta yuvosh
11. Og'zi qulog'ida – xursand
12. Po'stagini qoqmoq – ayovsiz tanqid qilmoq
13. Bo'yniga olmoq – iqrar bo'lmoq
14. Boshga ko'tarmoq I – hurmat qilmoq
15. Boshga ko'tarmoq II – to'polon qilmoq
16. Dam bermog I – hordiq bermog
17. Dam bermog II – havo yubormog
18. Tutgan yeridan kesadi – o'jar
19. Ko'ngli joyiga tushdi – tinchidi
20. Burni ko'tarilmog – dimog'i shishmog
21. Yulduzni benarvon uradigan – uddaburon
22. O'z yog'ida o'zi qovurilmog – ruhan ezilmog
23. Barmog'ini tishlab qolmoq – afsuslanmog
24. Qo'l ko'tarmoq I – ovoz bermog
25. Qo'l ko'tarmoq II – urmog
26. Xamirdan qil sug'urganday – oson
27. Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi – xira, tegajoq
28. Tepa sochi tikka bo'ldi – jahli chiqdi, achchiqlandi
29. To'nini teskari kiyib oldi – arazladi, o'pkaladi
30. Baland oxurdan yem yemoq – hayot darajasi, maishati yuqori bo'lmoq
31. Kovushini to'g'rilab qo'yomoq – haydamog
32. Ot qo'yomoq – nom qo'yomoq
33. Jini suymaydi – ta'biga to'g'ri kelmaslik
34. Pinakka ketmoq – uxlab qolmoq
35. Og'ziga olmaslik I – gapirmaslik

36. Og'ziga olmaslik II – yemaslik, ichmaslik
37. Og'ziga qatiq ivitmoq – damini chiqarmoq
38. Kosasi oqarmadi – bir to'ni ikki bo'lmadi
39. Quloq solmoq – eshitmoq
40. Kapalagi uchib ketmoq – qo'rqmoq
41. Ko'klarga ko'tarmoq – maqtamoq
42. Qovog'idan qor yog'moq – xafa
43. Yerga ursa ko'kka sakraydi – o'ta ketgan sho'x
44. Yaxshi ko'rmoq, muhabbat bog'lamoq – sevmoq
45. Zabtiga olmoq – juda kuchayib ketmoq
46. Me'dasiga tegmoq – yoqmay qolmoq
47. Yuragi toza – sofdil
48. Ko'nglida kiri yo'q – kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q
49. Og'ziga tolqon solmoq – mutlaqo gapirmaslik
50. Podadan oldin chang chiqarmoq – ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan ilgari gapirmoq
51. Oq ko'ngil – yaxshi niyatli
52. Ko'nglini yozdi – g'am-g'ussani unutdi
53. O'takasi yorildi – qattiq cho'chimoq
54. Tishini-tishiga qo'ymoq – chidamoq
55. Ipidan ignasigacha – batafsil
56. Og'zini tanobi qochadigan – behad sevinadigan
57. Ishtahasi karnay – yeb-ichish istagi kuchli
58. Qo'ling dard ko'rmasin – qo'li gul ijrochiga
59. Og'zi ochilib qoldi – behad hayratlanmoq
60. Gullab qo'ydi – sirni aytib qo'ymoq
61. Ko'kragini yerga bermoq – kasal bo'lmoq
62. Loy bo'lmoq I – loy tegib ifloslandi;  
II – hijolatdan, uyatdan, yerga qaradi;  
III – noqulay holatda qoldi
61. Misi chiqmoq – soxtaligi fosh bo'lmoq
62. Tuyog'ini shiqillatmoq – jo'nab ketmoq
63. Aravani tortmoq – jo'nab qolmoq
64. Tegirmonga tushsa butun chiqmoq – har qanday qiyin sharoitda ham uddaburonlik bilan chiqib ketmoq
65. Boshi osmonga yetmoq – behad sevinmoq
66. Labiga uchuq toshdi – qattiq qo'rqib ketmoq
67. Quloq solmoq – eshitmoq
68. Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq – nihoyatda sezgir, ziyrak
69. Ichini mushuk tatalamoq – tashvishlanmoq
70. Ko'zini bo'yamoq – o'z foydasi uchun faktlarni buzib, noto'g'ri ko'rsatmoq, aldamoq

71. Ko'zi to'rt bo'lmoq – nihoyatda intizorlik bilan kutmoq  
 72. Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq – umidi puchga chiqmoq, bo'shashmoq  
 73. Ikki oyog'ini tirab turmoq – o'z fikrini amalga oshirishni talab qilmoq  
 74. Hafsalasi pir bo'lmoq – biror ishni qilishga istak, intilish yo'qolmoq  
 75. Ko'zi ochilmoq – yaxshi-yomonni tushunadigan bo'lmoq  
 76. Qulog'i tom bitmoq – eshitaverib charchamoq  
 77. O'pkasini cho'pga ilgan – hovliqma  
 78. Oyog'ini qo'lga olmoq – tez kelmoq  
 79. Ko'zi uchib turgani yo'q – ko'rish ishtiyoqi yo'q  
 80. Tulki qiziga to'y berdi – aldamchi  
 81. Yerga urmoq – xo'rdamoq  
 82. Qo'li egri – o'g'ri  
 83. Pixini yorgan – quv, o'ta uddaburon  
 84. Sirkasi suv ko'tarmaydigan – tanqidga mutlaqo chiday olmaydigan  
 85. Qildan qiyiq topmoq – yomon niyat bilan arzimagan mayda-chuyda kamchiliklarni pisanda qilmoq  
 86. Terisiga sig'may ketdi – behad sevinmoq  
 87. Yer bilan yakson qilmoq – butunlay yo'q qilmoq  
 88. Almisoqdan qolgan – juda eski, qadimgi  
 89. Aravani quruq olib qochmoq – vadasidan chiqa olmaydigan darajada ish yoki narsa haqida ortiqcha maqtanmoq  
 90. Baraka topmoq – omad tilab tahsin bildirmoq  
 91. Boshi yostiqqa yetganda – kasal bo'lib yotib qolganda  
 92. Joniga oro kirmoq – bir o'limdan qutqarib qolmoq  
 93. Bosh ko'tarmoq I – qaramoq, kurashmoq; II – unib chiqmoq; III – yostiqdan bosh ko'tarmoq  
 94. Dili siyoh bo'lmoq – qattiq xafa bo'lmoq  
 95. Damini kesmoq I – ta'sir kuchini qaytarmoq; II – gapirmaslik  
 96. Qo'l uzmoq – qilib turgan mehnatini to'xtatmoq  
 97. Ko'zi yetmoq – ishonch hosil qilmoq  
 98. Yuragi orqasiga tortib ketmoq – qattiq qo'rqmoq  
 99. Boshini aylantirib qo'ymoq – esankiragan  
 100. Gap sotmoq – zarur bo'lmagan gaplarni uzoq ko'p gapirmoq  
 101. Andoza olmoq – namuna sifatida qabul qilmoq  
 102. Ko'zi uyquga ketibdi / – uxlay boshladi  
 103. Yuragini ochmoq – dardini ochmoq  
 104. Yuragi og'ridi – ruhan ezildi  
 105. Sariq chaqalik – hech  
 106. Ko'zi ilinmoq – mizg'imoq  
 107. Ko'zlari qinidan chiqmoq – g'azabi ko'zida aks etib chaqchaydi  
 108. Izdan chiqarib yubormoq – normal holati buzildi

109. Gap otmoq – suhbatga tortish maqsadida tegajoqlik bilan gapirmoq  
 110. Xo'rligi kelmoq – o'ksinib yig'lab yuborish holatiga bormoq  
 111. Qazisan, qartasan, asl zotingga tortasan – qanchalik yuqori ko'tarilsang ham, asli zoting past bo'lsa, shunday qolasan  
 112. Gap ko'p, ko'mir oz – maza-matrasiz, ta'sirsiz, hech qanday samarasiz gap  
 113. Qo'li ochiq – saxiy  
 114. Ko'zi to'q – ovqatga tashlanmaydigan, oz ovqatga to'yadigan  
 115. Og'zi katta – maqtanchoq  
 116. Ko'z ochib yumguncha – juda qisqa muddatda  
 117. Oyoqqa turmoq I – sog'ayib yurib ketmoq;  
 II – o'nqlanib yashashga qodir darajaga yetmoq;  
 III – aktiv harakatga qo'zg'almoq  
 118. Ko'ngli g'ash – tashvish qilmoq  
 119. Ko'z ilg'amas (dalalar) – I – cheksiz, poyoni ko'rinmaydigan;  
 II-bilinar-bilinmas, mayda  
 120. Ko'z bog'lash – aldov, soxta gaplarga ishontirmoq  
 121. Ko'z tashlash – qaramoq  
 122. Ko'zingga qarab yur – ehtiyot bo'lmoq  
 123. Duniyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaslik – beg'am, beparvo  
 124. Ko'ziga cho'p solmoq – aldamoq  
 125. Soyasiga salom bermoq, soyasiga ko'rpacha solmoq – laganbardorlik  
 126. Do'ppisi yarimta – beparvo, beg'am  
 127. Soyaga qarab to'n bichmoq – baho bermoq  
 128. Og'ziga qoqmoq – og'ziga urmoq – do'q bilan yoki dalil bilan biror kishining yana so'zlashiga yo'l qo'ymaslik  
 129. Og'ziga olmaslik – umuman gapirmaslik  
 130. Damini chiqarmaslik – hech narsa demaslik, indamaslik  
 131. Dong qotmoq I – kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo'lib qolmoq; II – hech narsani sezmas darajada qattiq uxlamoq  
 132. Qo'yi mingga yetdi – behad sevinmoqda  
 133. Yulduzni benarvon uradigan – o'ta ketgan olg'ir  
 134. Qulog'idan kun ko'rinadi – juda ozg'in

### **Barqaror birikmalar (paremiologiya)**

**Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.**


Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi.

**Barqaror birikmalarni** o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi *paremiologiya* (*lotincha parema* – «barqaror», «logos» ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa, paremiografiya (*lot. Parema-barqaror, grofho «yozmoq»*) sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir.



Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi.

*Masalan, qulog'i ding bo'lmoq – hushyor bo'lmoq, qovog'i osilmoq – xafa bo'lmoq, og'zining tanohi qochmoq – quvonmoq...*

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so'zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

*Masalan, Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi.* Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

## Maqollar

Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi.

*Masalan, Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to'nka dam oladi.*

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi.

So'zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi.

Maqollar fikrni ta'sirchan, bo'yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o'rinli foydalanish so'zlovchining mahorati sanaladi.

## Matallar

Matallar grammatik jihatdan gap holdida shakllangan, to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar. Matallar ham shakl va mazmun jihatdan maqollarga juda o'xshash janr hisoblanadi. Ularning matni, hajmi, badiiyligi jihatdan maqollarga yaqinligini juda ko'p olimlar tasdiqlaganlar. Hatto ko'pincha matal atamasi maqol bilan almashgan holda qo'llanilishi ham ko'zga tashlanadi. Matallar so'zlovchi nutqining ta'sirchanligini oshiradi, shaklan go'zallashtiradi. Ammo maqol bilan matalni janr jihatdan o'ziga xos xususiyatlari borki, ularni hamisha bir-biridan farqlagan holda tasavvur qilish mumkin. Gap shundaki, maqollarda hayotda ro'y bergan bir voqecaga umumlashtirilgan holda hukm chiqariladi. Bu hukm tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiradi, ayni paytda xalq maqollari mazmunan tugal fikrga ega bo'ladi va ular alohida qo'llanilsa ham ma'no anglataveradi. Matallar esa, so'zlovchi nutqi tarkibining biron muhim qismi sifatida ishlatiladi. Matallarni alohida qo'llash mumkin bo'lmaydi, chunki ular mazmunan tugal fikr anglatmaydi. Masalan: «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» jumlasini olaylik. Agar «ilon inidan chiqadigan» matali bu jumladan olib tashlansa, uning o'rniga yaxshi so'zini qo'yish mumkin. Natijada, «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» jumlasini «falonchi yaxshi gapirdi»ga teng bo'ladi. Ammo «ilon inidan chiqadigan» so'z birikmasi alohida qo'llanganda mustaqil ma'no anglatmaydi. Shu bilan birga «yaxshi so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan qilich qinidan chiqar» maqolini ham esga olish mumkin. Mazkur misoldagi «ilon inidan» so'zlariga diqqat qilaylik, chunki bu so'zlar mustaqil qo'llanganda bo'lak fikr anglatuvchi maqolning tarkibiy qismidir. Ma'lum bo'ladiki, maqol va matal aslini olganda xalq hayotida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarni ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat ularning biri tarixan maqol bo'lib shakllanishga ulgurgan, ikkinchisi esa, matal sifatida yashayvergan. Demak, maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin turadi, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr bo'lsa, matalda bu mustaqillik ko'zga tashlanmaydi.

Masalan, *Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.* *Qimirlagan qir oshar.*

Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

## Hikmatli so'zlar (aforizmlar)

Grammatik jihatdan gap holdida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so'zlar (aforizmlar) deyiladi.

Masalan, *Odami ersang demağil odami,*  
*Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.* (A.Navoiy)

Hikmatli so'zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya'ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko'ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham, aniq muallifining borligi bilan ulardan farq qiladi.

Hikmatli so'zlarni o'rganib, xotirada saqlab, nutqda o'rinli qo'llay bilish kishining so'z san'atkori, donishmand bo'lishini ta'minlaydi.

### Topshiriq:

1. Quyidagi iboralarni yozing. Ular yordamida gaplar tuzing.

Ishtahasi karnay, qo'ling dard ko'rmasin, og'zi ochilib qoldi, gullab qo'ydi, ko'kragini yerga bermoq, loy bo'lmoq, misi chiqmoq, tuyog'ini shiqillatmoq, aravani tortmoq, og'zi qulog'iga yetmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, boshi osmonga yetmoq, arpasini xom o'rmoq, taqdirga tan bermoq, quloq solmoq, kapalagi uchmoq.

2. Keltirilgan frazeologizmlarga antonimik juft bo'ladigan til birliklari tanlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qildan qiyiq topmoq, yerga urmoq, ichi qora, qo'li egri, pixini yorgan, sirkasi suv ko'tarmaydigan, terisiga sig'may ketdi, yer bilan yakson qilmoq, i pidan ignasigacha.

3. Frazeologik iboralarning sinonimlarini toping, ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Ko'zini bo'yamoq.
2. Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq.
3. Ichini mushuk tatalamoq.
4. Boshi ko'kka yetmoq.
5. Ko'zi to'rt bo'lmoq.
6. Tapa sochi tikka bo'lmoq.
7. Tomdan tarasha tushganday.
8. Xamirdan qil sug'urmoq.
9. Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq.
10. Ikki oyog'ini tirab turmoq.

4. Quyida berilgan maqollar va matallarning ma'nosini sharhlang.

1. Ayolning sarishtasi — odamning farishtasi.
2. Ko'ngli qoraning yuzi qora.
3. Do'sting bo'lsa bog'ing chamandir,  
Do'sting bo'lmagani fe'ling yomondir.
4. Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan.
5. To'g'ri o'zadi, egri to'zadi.
6. Saxiy bilan baxil bir bu'loqdan suv ichmas.
7. Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda.



8. Er yigitning quvvati- el quvvati.
9. To'g'ri yurdim, yetdim murodga,  
Egri yurdim, qoldim uyatga.
10. Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.
5. O'zingiz donolik, manmanlik, ochko'zlik, do'stlik, mehnat-sevarlik, dangasalik kabi mavzularga oid o'nta maqol topib yozing va ma'nosini izohlang.
6. Gaplarni o'qing. Ularda ilgari surilgan g'oya haqida fikr yuriting. Matallarni belgilang.

Aql aqldan quvvat oladi. Ahmoqning aqli – to'pig'ida. Davlat bitar, bilim tugamas. Go'zallik – ilm-u ma'rifatda. Timnashgan tog'dan oshar. Yurti boynig o'zi boy. Eldan ayrilguncha, jondan ayril. Ari zahrini chekmagan bol qadrini bilmas. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. Yigit husni mehnatda. Kiyirning yangisi yaxshi, do'stning – eskisi. Dono bilan nodon bitta buloqdan suv ichmas. Teran daryo tinch oqar. Ilm – tubsiz quduq. Yolg'onning umri qisqa. Do'stlik – barcha boylikdan afzal. Sabr tog'ni yiqitar. Marddan ot qolur, nomarddan – dod. Hunar oshatar, mehnat yashnatar.

Ko'klam – mehnat bilan ko'rkam. Kumushdek ter to'ksang, gavhardek dur olasan.

## LEKSIKOGRAFIYA

Tilimizdagi so'zlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lug'at, lug'at tuzish qoidalarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasiga esa lug'atshunoslik (leksikografiya) deyiladi.

*Leksikografiya* lotincha *lexikos* «so'z», *grapho* «chizmoq», «yozmoq» so'zlaridan olingan bo'lib, lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limidir.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug'at tuzish tamoyillari va usuliyotlaridir.

Tildagi barcha so'zlarning qanday ma'nolarni bildirishini tanishtiruvchi lug'at izohli lug'at hisoblanadi.

Bir tildagi so'z ikkinchi tilda qanday so'zga teng kelishini ko'rsatuvchi lug'at tarjima lug'ati sanaladi.

So'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatuvchi lug'atga imlo lug'ati deyiladi.

Leksikografiya amaliyoti esa lug'at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so'zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o'z ichiga oladi.

Leksikografiya nazariyasida lug'at turlari, so'zlik tarkibi va so'z maqolasining tuzilishi asosiy o'rinni egallaydi.

Avvalo, lug'atlar ikki turli bo'ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar; 2) filologik (lingvistik) lug'atlar.

Bu ikki turdagi lug'atlar lug'at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug'atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug'at; ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug'at hisoblanadi.

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o'z ifodasini topadi. Umuman, ensiklopedik lug'atlar ma'lum bir xalqning madaniy-ma'naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o'z izohini topadi.

Qomusiy lug'atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi. Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kartalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atog'li shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

Misol uchun 14 jildlik O'zSEning 1-jildini tayyorlash ishida 14 ta akademik, 13 ta akademiyaning muxbir a'zosi, 88 ta fan doktori, professor, 539 ta fan nomzodi va boshqa ko'plab mutaxassislar qatnashgan. Unda 3350 ta maqola mavjud. Mazkur jild ustida 1965–1971-yillar mobaynida tayyorlov ishlari olib borilgan.

1971–1980-yillar oralig'ida O'zSE ning 14 jildi nashrdan chiqqan. O'sha davr uchun bu juda katta voqea edi, lekin ushbu qomusiy lug'atdagi ko'plab maqolalar bugungi kun talabiga javob bermaydi, eskirdi. Ularni qayta ishlash, mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan yoritish lozim bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbek Milliy ensiklopediyasi»ni yaratish to'g'risida maxsus qaror qabul qilgan bo'lib, hozirda bu ish jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Ensiklopediyaning bir nechta tomlari o'quvchilar qo'liga borib yetdi.

Toshkent shahrida qomusiy lug'atlar va kitoblarni nashr etish bilan shug'ullanayotgan alohida tashkilot — Qomusiy lug'atlar Bosh redaksiyasi ish olib bormoqda.

Filologik lug'atlar ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga oladi. So'zlar muayyan bir tartibda joylashtiriladi.

Filologik lug'atlarning o'zi, eng avvalo, izohli va tarjima lug'atlarga bo'linadi.

Tildagi so'zlarni izohlashga qaratilgan lug'atlar izohli lug'at, muayyan tildagi so'zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug'atlar esa tarjima lug'at sanaladi.

1981-yili Moskvadagi «Ruskiy yozik» nashriyotida nashr qilingan 2 jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2001-yili Toshkentdagi «Sharq» nashriyot-matbaa konsemi bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan «O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati» yoki o'zbekcha-ruscha, inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'atlari bunga misol bo'la oladi.

Izohli lug'atlar so'zlikning tanlanishiga ko'ra umumiy va tarmoq lug'atlarga

bo'linadi. Tilning barcha so'zlarini izohlashga qaratilgan lug'atlar umumiy izohli lug'atlar, ma'lum bir tarmoqqa doir so'zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug'atlar tarmoq lug'at hisoblanadi (masalan, kasb-hunarga doir lug'atlar, ma'lum fan sohasi bo'yicha atamalar lug'ati va boshqalar).

Har qanday lug'at shu lug'atning egasi bo'lgan xalqning katta madaniy va ma'naviy boyligi sanaladi.

**Topshiriq:** Quyidagi berilgan izohli lug'atlarning nomini va nashr ma'lumotlarini daftaringizga yozib oling. Ularni topib, mazkur lug'atlar bilan ishlashni o'rganing.

Navoiy asarlari lug'ati — Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972, 784 bet.

O'zbek tilining izohli lug'ati — Moskva, «Russkiy yazik» nashriyoti, 1981, 1-jild, 632 bet, 2-jild, 715 bet.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati — Toshkent, FAN nashriyoti, 1-jild, 656 bet, 1983; 2-jild, 644 bet, 1983; 3-jild 622 bet, 1984; 4-jild 634 bet, 1984.

Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati — Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1998, 318-bet.

O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati — Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2001.

## Imlo lug'ati va undan foydalanish

Har bir tilda shu tildagi so'zlarni to'g'ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmui bo'ladi. Bunga imlo yoki orfografiya qoidalari deyiladi. Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek yozuvi uchun bugungi kunga qadar 1956-yilda yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini o'tab kelmoqda.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tilishi munosabati bilan imlo qoidalariga ham sezilarli darajada o'zgartirishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995-yili prof. A.Hojiyev muharrirligida yangi «O'zbek tilining imlo lug'ati» nashr qilindi.

Imlo lug'atlarida so'zlar orfografiya qoidalari asosida alifbo tartibi bilan beriladi.

**Topshiriq:** Quyidagi imlo lug'atlarining nashr ma'lumotlarini daftaringizga ko'chirib oling va ular bilan ishlash ko'nikmasini o'zlashtirib olishga harakat qiling.

«Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi». — T., O'z FAN, 1940.

S. Ibrohimov, M. Rahmonov. Imlo lug'ati. — T., O'qituvchi, 1956, 1964.

S. Ibrohimov, E. Begmatov, A. Ahmedov. «O'zbek tilining imlo lug'ati». — T., FAN, 1976.

A. Hojiyev muharrirligi ostida chiqarilgan «O'zbek tilining imlo lug'ati».  
– T.: O'qituvchi, 1995.

A. Hojiyev «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati».

Tildagi har bir so'z o'zining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega. Masalan, ichkari so'zi ich o'zagida tomon ma'nosini beruvchi- gari qo'shimchasidan iborat.

Toshkent so'zi qadimda Shosh, Choch nomlari bilan yuritilgan. Aytishlariga qaraganda, bug'doy, sholi yanchiladigan xirmonning o'mini, maydonni choch, shosh deb atashgan ekan. Unga joy ma'nosini bildiruvchi kent so'zi qo'shilib, Chochkent-Shoshkent deb atay boshlashgan. Tildagi so'zlarning kelib chiqish tarixini o'z ichiga olgan lug'atlar etimologik lug'atlar sanaladi.

Professor Sh. Rahmatullayevning ko'p yillik samarali mehnatlari tufayli o'zbek tilida ham dastlabki etimologik lug'at paydo bo'ldi.

Hozirgi kunga qadar o'zbek tilida izohli, imlo, orfografik, orfoepik, chappa, omonimlar, sinonimlar, antonimlar, iboralar, faol so'zlar, dialektal, tasviriy ifodalar, chastotali, etimologik, ensiklopedik, terminologik, morfem, o'zlashma so'zlar lug'ati, paronimlar lug'ati, Navoiy asarlari lug'ati kabi lug'atlar yaratilgan.

Qo'shma so'zlar lug'ati hamda etnografik lug'at yaratilmagan.

Izohli lug'atlarda fe'llar harakat nomi (qilmoq) shaklida beriladi.

## Leksikologiya bo'yicha test topshiriqlari

### 1-variant

1. Berilgan qaysi atamalarning o'zbek tilida muqobili mavjud?

- A. Aksioner, konselariya      B. Ko'pkursi, durovoz  
C. Ovoznigor, uchoq          D. Tayyoragoh, konsalting

2. Qaysi so'zlar ham metofora ham vazifadoshlik asosida ko'chma ma'noda qo'llaniladi?

- A. Uvoq, bosh, ko'z              B. Fonema, valentlik, sinus  
C. Do'st, oyoq, durbin          D. Vulqon, atlas, karta

3. Eski o'zbek tiliga xos bo'lgan o'kush, talim so'zlarining ma'nosini izohlang.

- A. O'kush – ko'p, talim – bir qancha  
B. O'kush – yaxshi, talim – ta'lim  
C. O'kush – yomon, talim – tilim  
D. O'kush – bir qancha, talim – ko'p

4. Tojik tilidan so'z qabul qilish natijaida hosil bo'lgan qo'shma so'zlarni belgilang.

- A. Shirinso'z, boshpana          B. Uyali telefon, muqovasoz  
C. Ko'ksoqol, cho'ntakkesar      D. Erksevar, raqobat

5. Dilni o'rtar hamon g'am-u g'urbatlari, Yoy Marda qolib ketdi turbatlari, «fig'onim» deb o'tdi qancha furqatlari, Yorkentlarda ko'zi vayron yurt edi bu. She'riy parchada qo'llanilgan turbat so'zining ma'nosini belgilang

- A. Farzandlari B. Tuproq, yer C. Boylik D. Ilm

6. Sog'lomlik ma'nosini anglatuvchi eskirgan so'zni belgilang.

- A. Mijmar B. Zarofat C. Sarafroz D. Behbud

7. Eski o'zbek adabiy tiliga xos «kilk» so'zining ma'nosi to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang.

- A. Qamish, qalam B. Daraxt, siyohdon  
C. Qo'l, qalam D. Qog'oz, siyoh

8. Eski turkiy tildagi «art» so'zi qanday ma'noni ifodalaydi?

- A. Osmon, chiroyli B. Do'nglik, tog'lik  
C. Tapa, dovon D. San'at, rasm

9. Do'ppisini osmonga otmoq iborasiga sinonim bo'lgan so'zni toping.

- A. Boyib ketmoq B. Yuqori cho'qqiga chiqmoq  
C. Obro'yi baland bo'lmoq D. Xursand

10. Ko'ngli joyiga tushdi iborasiga zid bo'lgan lug'aviy birlikni toping.

- A. Yuragiga g'ulg'ula tushdi  
B. Ko'ngli xotirjam bo'ldi  
C. Tegirmonga tushsa butun chiqmoq  
D. Do'ppisini osmonga otmoq

11. Yer tagida ilon qimirlasa biladi iborasiga sinonim bo'lgan so'zni toping.

- A. Mug'ombir B. Ayyor C. Ziqna D. Sezgir

12. Yer tagida ilon qimirlasa biladi iborasiga zid bo'lgan so'zni toping.

- A. Sezgir B. Ziqna C. Ziyrak D. Reparvo

13. Ilonning yog'ini yalagan iborasiga zid bo'lgan so'zni toping.

- A. Sodda B. Ayyor C. Mug'ombir D. Ziyrak

14. Qo'rqqoq keta turib maqtansa, jasur kelib maqtanadi. Ushbu gapda zid ma'noli so'zlar qaysi gap bo'lagi bo'lib kelgan?

- A. Kesim B. Ega C. Aniqlovchi D. To'ldiruvchi

5. Uzoq yurdim keksa tog' sari,  
Goh odimlar gohida chopdim.

Nuragan tosh qoya tagidan

Go'yoki tog' ko'zlarin topdim. Berilgan she'riy parchadagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A. Metafora B. Metonimiya C. Sinekdoxa D. Vazifadoshlik

16. Hayot shu ekan–da yog‘du va zulmat,  
Qish-u yoz o‘ng–u tush, tirik va o‘lik.  
Shusiz bo‘lmas ekan tugallik sira,  
Hatto qush na‘masi go‘zal va xunuk.

Berilgan she‘riy parchada nechta zid ma‘noli so‘zlar bor?

A. 1      B. 2      C. 4      D. 5

17. Qaysi gapda quloq so‘zi o‘z ma‘nosida qo‘llangan?

- A. Qo‘chqor qo‘ng‘iroqli quloqlarini erkalanib silkidi
- B. Qozonning qulog‘idan ushla
- C. Bola onasining gapiga quloq solmadi
- D. Quloqsiz bolani otasi jazolashga buyurdi

18. Qaysi qatorda iboraning ma‘nosi noto‘g‘ri berilgan?

- A. Do‘ppisi yarimta – bechora
- B. Do‘ppisi yarimta – beparvo
- C. Ko‘z yummoq – e‘tibor bermaslik
- D. Og‘zing qani desa qulog‘ini ko‘rsatadi – lapashang

19. Rahsh himmat men tutib mahkam yo‘lin,

Yor izidan yet, karam qil, de yolin.

Yo‘g‘-u borini yoqib kul ayladi

Ishq o‘tidin ko‘kka chirmashgan yolin.

Ushbu misradagi yolin so‘zi shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra qanday so‘z?

- A. Yagona shaklga ega bir necha so‘z
- B. Bir xil shaklga ega ko‘p ma‘noli so‘z
- C. Bir so‘zning turli ma‘nolari
- D. Bir xil shaklga ega bitta so‘z

20. Qaysi javobda barqaror birikmalarni belgisi xato ko‘rsatilgan?

- A. Barqaror birikmalar tarkibidagi so‘zlar o‘zaro erkin bo‘ladi
- B. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kiriladi
- C. Barqaror birikma tarkibiy qismlari ajralmas bo‘ladi
- D. Barqaror birikmalarni o‘rganuvchi bo‘lim paremiologiya deyiladi

21. Mengzamoq so‘zining ma‘nosi qaysi javobda berilgan?

- A. Qiyoslamog      B. O‘xshamoq      C. Ko‘rmog      D. Olmog

22. O‘n qo‘lima o‘n bir uzuk

Taqib qo‘yinglar, qizlarim,

Zarli kovish chang bo‘lmasin,

Qoqib qo‘yinglar, qizlarim.

Ushbu she‘rda ma‘no ko‘chishning qaysi turi mavjud?

- A. Metafora      B. Metonimiya      C. Vazifadoshlik      D. Sinekdoxa

23. Oftob, osmon soʻzlari qaysi tildan kirib kelgan?  
 A. Arab                      B. Tojik                      C. Moʻgʻul                      D. Turkiy
24. Quyidagi qaysi sonlar oʻzaro omonimlikni yuzaga keltiradi? 1. Qirq.  
 2. Yuz. 3. Toʻrt. 5. Oʻn. 6. Bir. 7. Yetti.  
 A. 1, 2, 4                      B. 1, 2, 3                      C. 1, 5, 6, 7                      D. 3, 4, 5
25. Lekin sanʼatimiz hozir oʻsmirlik chogʻidayoq qudratli qanot paydo qilyapti. Ushbu gapda maʼno koʻchish hodisasini aniqlang.  
 A. Metafora                      B. Metonimiya                      C. Sinekdoxa                      D. Vazifadoshlik
26. Qaysi qatorda omonim soʻzlar berilgan?  
 A. Tuz va kadr                      B. Yoqa va koʻylak                      C. Etak va koʻz                      D. Ogʻiz va lab
27. Yanvarning oʻn beshlarida butun qishloq toʻgʻon qurishga otlandi. Ushbu gapda ostiga chizilgan soʻzda maʼno koʻchishining qaysi turi mavjud? :  
 A. Metonimiya                      B. Metafora                      C. Sinekdoxa                      D. Vazifadoshlik
28. Qaysi gapda ibora qoʻllanilmagan?  
 A. Usta oʻtkir asbob bilan simni qirqdi  
 B. Bilaman, taʼrifing soʻzga sigʻmaydi  
 Goʻzallik haqida gap sotmoq bekor  
 C. Bir kun koʻzlarimdan qochdi uyqular  
 D. Tez orada uncha-muncha mexanikka ham soʻz bermay qoʻyadi
29. Quyidagilardan metonimiya asosida maʼno koʻchgan birlikni aniqlang.  
 A. Bulutning orasidan quyosh kulib qaraydi  
 B. Olmaning afrosiyob navlari, rentgen apparati, elektr chirogʻi, hojimatov damlamasi, Bedil asari  
 C. Tuzsiz sheʼrlarim deb shirindan-shakar  
 Bolalarim yurar oyoq uchida  
 D. Mungli kuy yurakni timar edi
30. Predmetlar oʻrtasidagi shakliy oʻxshashlik asosida maʼno koʻchgan qatorni belgilang.  
 A. Samovarga chiqmoq                      B. Qozon qulogʻi  
 C. «Rossiya»ga qanday borsam boʻladi?                      D. «Navoiy»ni oʻqib chiqdim
31. Predmetlar oʻrtasidagi joylashgan oʻrniga nisbatan oʻxshashlik asosida maʼno koʻchgan qatorni aniqlang.  
 A. Samolyot dumi                      B. Odam qulogʻi  
 C. Itning dumi                      D. Qozon qulogʻi
32. Quyidagi soʻzlardan nechtasi omonim? Doʻst, yosh, yuz, oyoq, sana, uch, oʻch, palla, qovoq, sheʼr, gʻoz.  
 A. 10 ta                      B. 9 ta                      C. 8 ta                      D. 7 ta

33. Quyidagi qaysi javobda paronim so'z ma'nosi metafora usulida ko'chgan?
- A. Ko'ngliga qattiq olmoq  
 B. Yo'lchiga qarab hayratlandi  
 C. Otam yetimlarning boshini siladi  
 D. Iblisni rahbar deb qarshi oldilar
34. Yuz so'zining salbiylik kuchayib borishi to'g'ri berilgan qatomi toping.
- A. Oraz, uzor, ruxsor, chehra      B. Yuz, chehra, bashara, oraz  
 C. Uzor, chehra, ruxsor      D. Bet, aft, bashara, nusxa, turq
35. Eski o'zbek tilida dor so'zi qanday ma'noda qo'llanilgan?
- A. Uy, hovli    B. Ip, arqon    C. Kiyim-bosh    D. Bosh egmoq
36. «Nasrulla, siz Xasanboydan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasini so'rab yuribsiz, u bo'lsa, «Darakchi»ni olib kelibdi». Ushbu gapda qaysi ma'no ko'chishi kuzatiladi?
- A. Metonimiya    B. Metafora    C. Sinekdoxa    D. Kinoya

## 2-variant

1. Qaysi qatorda faqat lug'aviy ma'no anglatadigan so'zlar berilgan?
- A. Chekmoq, ot, uxlamoq, aziz, aft  
 B. Faqat, balki, aftidan, ehtimol  
 C. Bilan, uchun, va, kerak  
 D. Eh, dod, taqir-tuqur, voy
2. Qaysi qatorda paronimlar qo'llash bilan bog'liq xatolik bor?
- A. Tamburimning ovozi yorga xush yoqdi  
 B. Gul o'tqazdim bog'imga  
 C. Hayvonot bog'ida jayron ham bor  
 D. Otasi endi qarib kuchdan qolgan edi
3. To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi. Ma'no ko'chish turini belgilang.
- A. Metonimiya      B. Kinoya      C. Metafora      D. Sinekdoxa
4. Shunday qilib majlis qaror qabul qildi. Ma'no ko'chish turini aniqlang.
- A. Vazifadoshlik      B. Sinekdoxa  
 C. Metafora      D. Metonimiya
5. Ehtiyot bo'lib gapir, bo'tam. Axir oramizda quloqlar yo'q emas. Ma'no ko'chish turini aniqlang.
- A. Metafora      B. Metonimiya      C. Sinekdoxa      D. Kinoya
6. Charxi kajraftor elidin yozamen,  
 Chiqmadim hijron qishidin yoza men.  
 Bir meni yorliq bilan yod etmas ul,  
 Har necha ul shohga qulluq yozamen.



Ushbu tuyuqdagi qaysi soʻzlar bir xil soʻz turkumiga xos?

- A. 1 va 4 misradagi yozamen soʻzlari
- B. Barchasi bir xil soʻz turkumiga mansub
- C. 2 va 4 misradagi yozamen soʻzlari
- D. 2 va 3 misradagi yozamen soʻzlari

7. Ahli suhanlar koʻp juda, lekin bahsi mazmundan judo. Ushbu gapda soʻzlarning shakli va maʼno munosabatiga koʻra qaysi turi qoʻllanilgan?

- A. Paronim
- B. Sinonim
- C. Antonym
- D. Shakldosh

8. Ul oyki kula-kula qirogʻlatdi meni. Ushbu baytdagi ul oy soʻzi orqali qaysi maʼno koʻchishi sodir boʻlgan?

- A. Metafora
- B. Metonimiya
- C. Sinekdoxa
- D. Vazifadoshlik

9. Iboralar berilmagan qatorni aniqlang. 1. Quloq solmoq. 2. Bayon etmoq. 3. Koʻzini yogʻ bosmoq. 4. Qoʻl uchida. 5. Togʻning boshi. 6. Tilini uzun qilmoq.

- A. 1, 3, 5
- B. 2, 4, 6
- C. 1, 4
- D. 2, 5

10. Rustam otasini chopibdi degan «lanqa» gapni, qoʻzim, oʻzingga olma. Lanqa soʻzining maʼnosi...

- A. Taʼna
- B. Uyat
- C. Yomon
- D. Dahshat

11. Bormi sendan oʻksuz yoʻqsulning qonin... Fitratning «Mirrix yulduziga» sheʼrida ajratib koʻrsatilgan soʻzning maʼnosini toping.

- A. Baxtsiz
- B. Shoʻrpeshona
- C. Dangasa
- D. Vatanparvar

12. 1. Kishilar oʻrtasidagi iliq munosabat kamayib ketmoqda. 2. Mustaqillik tufayli millatning gʻururi, obroʻ-eʼtibori oʻsdi. 3. Zamira bugun darsga kech qolib keldi. 4. Tinchlik xalqni farovon qiladi, yurtni gullatadi, uning istiqboliga keng yoʻl ochadi. Ushbu gaplarning qaysilarida koʻchma maʼnoli soʻzlar qoʻllanilgan?

- A. 1. 2. 4
- B. 2. 4
- C. 1. 2
- D. 2. 3

13. Quyidagi birikmalardagi tutmoq soʻzining shakli va maʼno turini ayting.

1. qochoqni tutmoq. 2. parda tutmoq. 3. roʻza tutmoq. 4. suv tutmoq.

- A. 1. 2. 3. 4- koʻp maʼnoli soʻz
- B. 1. 2. 3. 4- shakldosh soʻz
- C. 1. 2-koʻp maʼnoli soʻz, 3. 4-shakldosh
- D. 2. 3-shakldosh, 1. 4-koʻp maʼnoli soʻz

14. Qaysi soʻzlar ham koʻchma maʼno, ham shakldoshiga ega: 1. koʻz. 2. oltin. 3. ogʻiz. 4. tom. 5. uch. 6. oq.

- A. 1. 2. 3.
- B. 3. 4. 5. 6.
- C. 3. 5.
- D. 4. 5.

15. Tojik tilidan o'zlashgan so'zlar qatorini toping.

- A. Chopon, olov, oftob      B. Saodat, shoir, she'r  
C. Ro'za, dazmol, a'lo      D. Saodat, maorif, muomala

16. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar qatorini belgilang.

- A. Mo'min, havo, vujud      B. Karaxt, taxt, xo'roz  
C. Baxt, donishmand, daraxt      D. Dazmol, taxt, ruxsat

17. Tojik tilidan o'zlashgan so'zlar qatorini toping.

- A. xo'roz, olov, farzand      B. saodat, a'lo, shoir  
C. ruxsat, qoida, sur'at      D. muomala, maorif, sehr

18. To'g'ri hukmni belgilang.

- A. Ma'nodoshlik 2-3 xil so'z turkumida kuzatiladi  
B. Ayrim argolar umumtil leksikasidan olinadi  
C. Shakldoshlik faqat bir so'z turkumiga oid bo'ladi  
D. Paronimlar faqat bir so'z turkumida bo'ladi

19. Noto'g'ri hukmni belgilang.

A. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi leksema sanaladi

B. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z deyiladi

C. Grammatik ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi so'zning qismi uchun leksema atamasi qo'llaniladi

D. So'zning grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimchalarsiz qismi leksema sanaladi

20. *Kechalar fig'onimdan tinmadi kavokiblar,*

*Arz to samo uzra mojaro Uvaysiymon.*

Ushbu baytda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llanilgan?

- A. Zid ma'noli so'zlar      B. Sinonim      C. Paronim      D. Shakldosh

21. Aql-u fahm-u idrokim sazovor o'ldikim, mijmari bardosh ichinda nordurmen. Ajratilgan so'zlar qaysi so'zda tog'ri izohlangan?

- A. Mijmar – chog'don, nor–anor      B. Mijmar – olov, nor – tuya  
C. Mijmar – gul, nor – anor      D. Mijmar – qattiq, nor – she'r

22. Quyidagi berilganlardan sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chishi mavjud gaplarni belgilang.

1. besh qo'lni og'ziga tiqmoq.
2. besh qo'l barobar emas.
3. ko'zlar, yuzlar boqar edi biz tomon
4. keling mehmon, eshikka kiraylik.

- A. 1. 2.      B. 3. 4.      C. 1. 2. 3. 4.      D. 2. 3.

23. Faqat ma'lum sotsial guruh hamda ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, umumxalq tiliga xos bo'lmagan so'zlarni bildiruvchi atama qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A. Chegaralangan so'zlar                      B. Shevaga xos so'zlar  
C. Umumiste'moldagi so'zlar                D. Noadabiy so'zlar

24. Qaysi javobda barqaror birikmalarning belgisi xato ko'rsatilgan?

- A. Barqaror birikmalar tarkibidagi so'zlar o'zaro erkin bog'lanadi  
B. Barqaror birikmalar tarkibidagi so'zlar o'zaro turg'un bog'lanadi  
C. Barqaror birikmalar tilshunoslikning paremiologiya bo'limida o'rganiladi

D. Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi

25. «Do'ppi tor kelganda» iborasi qaysi so'roqqa javob bo'ladi?

- A. Qayerda?                                      B. Qachon?  
C. Qay holatda?                                D. Nima sababdan?

26. Hayvon nomlari va ularga qo'yilgan nomlar qanday ataladi?

- A. Gidronimlar                                    B. Antroponimlar  
C. Zoonimlar                                      D. Toponimlar

27. «Chiptasiz yo'lovchi» ma'nosida ishlatiladigan argoni toping.

- A. Danap    B. Yakan  
C. Kolxoz    D. Qaychi

28. Andalib bir savt ila bo'ldi giriftori qafas. (Hamza) Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nodoshini toping.

- A. Qumri    B. To'ti  
C. Bulbul    D. Sa'va

29. Quyidagi qaysi qatorda ot (ism), ot (hayvon), ot (fe'l) so'zlarining noto'g'ri tavsifi berilgan?

- A. Bir xil shakldagi alohida ma'noga ega bo'lgan so'zlar  
B. Bir xil shaklga ega bo'lgan uchta so'z  
C. O'zaro shakldosh (omonim) so'z  
D. Bir xil shaklga ega bo'lgan ko'p ma'noli so'z

30. Shakldoshlik (omonimlik) xususiyatiga ega bo'lmagan tasviriy vositalar berilgan qatorni aniqlang.

- A. Samo lochini                                    B. Dala malikasi  
C. Qora oltin                                        D. Aql gimnastikasi

31. Qaysi qatorda gullar so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri berilgan?

- A. O'simlik ma'nosida                            B. III shaxs ko'plik shaklida  
C. Bosh kelishidagi so'z                        D. Ot so'z turkumiga tegishli

32. Omonim soʻzlar berilgan qator qaysi?  
 A. Tort, dangasa, tanho      B. Muzlar, noma, pul  
 C. Gʻamsiz, tong, och      D. Yot, yoq, yon
33. Tilshunoslikning leksikologiya boʻlimiga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?  
 A. Umumxalq soʻzlari, koʻp maʼnoli soʻz, atama  
 B. Grammatik maʼno, undovlar, bogʻlovchi  
 C. Yordamchi soʻzlar, bogʻlama, hol  
 D. Ajratilgan boʻlak, undalma, kirish soʻz
34. Soʻz qoʻllash bilan bogʻliq xato mavjud boʻlgan gapni toping.  
 A. Milliard yillar sari yoʻl olgan Avlodlarning ibtidosiman  
 B. Anzirat xola oʻzi-oʻzidan javrab, qorongʻida ivirsib yurar edi.  
 C. Quadrat koʻcha aylanib kelib uyga kirsam hech zogʻ yoʻq  
 D. Zilola yodsirab, qovogʻini solib, teskari burildi
35. Bezovta soʻzining antonimi (zidi) bilan maʼnodosh (sinonim) boʻla oladigan ibora qaysi javobda keltirilgan?  
 A. Choʻntagi baquvvat      B. Qoli ochiq  
 C. Koʻzi och      D. Koʻngli toʻq
36. Bir turkum doirasidagi shakldosh soʻzlar qaysi javobda keltirilgan?  
 A. Palata, soch, nor      B. Oq, savdo, oqibat  
 C. Karam, sandal, palla      D. Yoz, palla, rasta

# MORFEMIKA

## Morfemika

### So'z tarkibi

Yetakchi morfema

Asos (o'zak)

Ko'makchi morfema

(qo'shimcha)

1. So'z yasovchi morfema:

2. Shakl yasovchi morfema

a) so'z yasashga asos qism;

b) yasovchi qism: ot, sifat, fe'l, ravish

a) sintaktik munosabat

bildiradigan:

sintaktik shakl

yasovchi morfema

aloqa-munosabat

shakllari:

1. Egallik

2. Kelishik

3. Shaxs-scn —

turlovchi

tuslovchi

aloqa-munosabat

qo'shimchalari

so'z o'zgartiruvchi

b) sintaktik munosabat

bildirmaydigan:

lug'aviy shakl

yasovchi morfema

shakl yasovchi

So'zlar asos va qo'shimcha qismga ajraladi. Bil-im-don-lik yoki litsey-dosh so'zlaridan birinchi qism asos sanaladi, qolgan qismlar esa qo'shimcha qismdir. So'z tarkibi asos va qo'shimchalardan iborat. So'zning ma'noli qismlari deyilganda asos va qo'shimchalar nazarda tutiladi. Masalan, bilimdon so'zida uchta ma'noli qism mavjud.

So'zlamning eng kichik ma'noli qismlarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limiga morfemika deyiladi. Asos va qo'shimchalar morfema atamasi bilan yunitiladi.

So'zning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qo'llana oladigan tub ma'noli qismiga asos deyiladi. Mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shilib, unga yangi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan, shuningdek, so'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qismga qo'shimcha deyiladi. Asosga qo'shimchalar qo'shish natijasida turli xil ma'nolar yuzaga chiqariladi. Masalan: **tin-ch**, **tin-ish**, **tin-ch-lik**, **tin-im-siz**, **be-tin-im** kabi so'zlarning asosi «tin» so'zidir, lekin qo'shimcha qo'shilishi bilan ma'no o'zgarib bormoqda.

Ayrim so'zlar tarixiy taraqqiyot natijasida o'zining tub-asos qismini o'zgartirishi, boshqacha shaklga kirishi mumkin. Yomg'ir (yom-g'ir), ko'mir (ko'm-mir), olg'a (ol(d)-ga) kabi so'zlarni asos va qo'shimcha qismga ajratib bo'lmaydi. O'zbek tilida asos ko'pincha birinchi bo'lib keladi.

Bir asosdan yasalgan so'zlar asosdosh sanaladi: *fikrdosh*, *fikriy*, *hamfika*, *fikran*...

Qo'shimcha qo'shilishi bilan ba'zan asosda o'zgarish ro'y berishi mumkin:

1. Tovush tushadi: past-ay=pasay.
2. Tovush o'zgaradi: ong-la=angla.
3. Tovush orttiriladi: shu-da=shunda.

Asos litsey adabiyotlarida yetakchi morfema shaklida, qo'shimcha ko'makchi morfema shaklida berilgan.

**Mashq.** So'zlarni ma'noli qismlarga, ya'ni morfemalarga ajrating.

Inson yo'li uzun emas. Har bir inson yo'lining so'nggida bir uyum tuproq bilan belgi qo'yishadi. Ammo hech kim o'sha bir uyum tuproqni o'z qo'llari bilan uya olmaydi. Buni boshqalar o'zlarining behad parishonxotirliklaridan saqlanishi uchun ado etadilar. Inson o'z yo'li so'ngida qo'yilgan bu belgidan boshqa hamma to'siqlardan o'ta oladi. (*Chori Avaz*)

### **Ko'makchi morfemalar tasnifi**

Ko'makchi morfemalar, (qo'shimchalar) vazifasiga ko'ra, ikki turli bo'ladi: 1. So'z yasovchi morfemalar, masalan, gul asosiga -la qo'shimchasining qo'shilishidan gulla – yangi so'z hosil qilingan. 2. Shakl yasovchi qo'shimchalar, masalan, -lar qo'shimchasi gul asosiga qo'shilib, uning ma'nosidan boshqa yangi ma'no yasamaydi, gulning birdan ortiq ekanligini bildiradi.

## So'z yasovchi morfemalar (qo'shimchalar)

Asosga qo'shilib yangi ma'no hosil qiluvchi qo'shimchalar so'z yasovchi morfemalar (qo'shimchalar) deyiladi. Masalan, *kitob + xon, ser + un+um, ish + li, taqsim + la* kabi.

Yangi-yangi tushunchalarni ifodalashda ilgari tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarga ko'makchi morfemalarni qo'shib, yangi so'z hosil qilish usuli keng qo'llaniladi. Ana shunday usul bilan yangi so'z hosil qilish so'z yasalishi sanaladi.

Ko'makchi morfemalar qo'shish yo'li bilan yangi so'z yasalishi doimo ikki qismning bo'linishini talab qiladi:

1. So'z yasashga asos qism.

2. Yasovchi qism.

Yasovchi qismni tashkil etgan morfemalar so'z yasovchi morfemalar deyiladi.

*Masalan.* Terim so'zi ter so'ziga **-im** so'z yasovchi morfemasini qo'shish orqali hosil qilingan. Terimchi so'zi esa terim so'ziga **-chi** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan. Birinchi so'zda yasovchi asos ter, ikkinchi so'zda esa terimdir.

Bir asosdan hosil bo'lgan so'zlar so'z yasalish uyasini tashkil etadi. Yasovchi morfema asosida yangi yasalgan so'z yasashga asos bo'lgan so'zning ma'nosiga asoslanadi, uning ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi.

Agar yasalgan so'z bilan yasashga asos qism o'rtasida ana shunday bog'lanish bo'lmasa, yasama so'z hisoblanmaydi. So'z yasovchi qo'shimchalar bilan ot, sifat, fe'l, ravish yasaladi. Son va olmosh yasalmaydi.

Quyida hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydigan so'z yasovchi morfemalar jadvalini keltiramiz.

Siz misollar yoniga so'zlar yozib jadvalni to'ldiring.

### Ot yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
<b>Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar</b>			
-chi	ishchi,...	-do'z	po'stindo'z,...
-dosh	kursdosh,...	-soz	soatsoz,...
-kor	g'allakor,...	-xo'r	oshxo'r,...
-kar	miskar,...	-go'y	maslahatgo'y,...
-gar	kimyogar,...	-parast	mansabparast,...
-gor	talabgor,...	-furusht	nosfurusht,...
-kash	suratkash,...	-vachcha	ammavachcha,...

-kash	suratkash,...	-vachcha	ammavachcha,...
-dor	mulkdor,...	-(u)vchi	o'quvchi,...
-bon	bog'bon,...	-(o)vchi	ishlovchi,...
-boz	maskaraboz,...	ham-	hammaslak,...
-paz	somsapaz,...	-shunos	adabiyotshunos,...
-xon	kitobxon,...	-dak	yugurdak,...

### Narsa-buyum oti yasovchi qo'shimchalari

-gich	suzgich,...	-gi	supurgi,...
-kich	muzlatkich,...	-ki	tepki,...
-qich	tutqich,...	-qi	chopqi,...
-g'ich	o'chirg'ich,...	-g'i	tomizg'i,...
-doq	qovurdoq,...	-g'u	cholg'u (asbob),...
-ma	qatlama,...	-iq	pishiriq,...
-m, -im	o'rim, qatlam,...	-ik	o'lik,...
-um	unum,...	-uq	qusuq,...
-ak	qarsak	-q, -oq	quroq, timoq,...
-oq	o'roq	-don	guldon,...
-t	qurt	-qin	toshqin,...
-it	chiqit	-qun	tutqun,...
-at	ko'chat	-g'in	quvg'in,...
-ot	sizot	-g'un	yulg'un,...
-in	yog'in	-qoq	botqoq,...
-un	quyun	-kak	eshkak,...
		-gak	tirgak,...
-k, -ak	elak, varrak	-(i)sh	burilish,...
-(u)v	chizuv		
-(o)v	maqtoq		
-ildoq	paqildoq,...	-a	g'arg'ara,...
-os	chuvvos,...	-(i)ndi	chiqindi,...
-poya	g'allapoya,...	-moq	quymoq,...



-mahoq	quvlashmahoq,...	-moq	quymoq,...
-kilik	yotkilik,...	-iz	bo'g'iz,...
-miq	bulamiq,...	-noma	xabarnoma,...
-mish	kechmish,...	-gilik	ko'rgilik,...

### O'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalar

-zor	uzumzor,...	-iston	Tojikiston,...
-loq	qumloq,...	-goh	sihatgoh,...
-xona	dorixona,...	-obod	Bekobod,...

### Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar

-chilik	bog'dorchilik,...	-lik	do'stlik,...
-garchilik	yog'ingarchilik,...	-ch	o'kinch,...
-i	o'kinchi,...	-i (sh)	qurilish,...
-(u)v	yozuv,...	-liq	bo'shliq,...

### Faoliyat-jarayon oti yasovchi qo'shimchalari

-lik	ezmalik,...	-garchilik	serobgarchilik,...
-chilik	g'allachilik,...	-(i) m	terim,...
-(i)k	ko'rik	-iq	chopiq,...

Ismlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi **turlanish** deyiladi.

Kelishik va egalik qo'shimchalari **turlovchilar** deyiladi.

Quyida ot yasovchi qo'shimchalar bilan boshqa so'z turkumlaridan ot yasalishi bo'yicha mashqlar keltiriladi:

**Mashq.** Namuna. Asos (ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish, taqlid so'z, undov, modal so'z)+ ot yasovchi+lug'aviy shakl (-lar ko'plik)+egalik (sintaktik.shakl hosil qiluvchi)+kelishik (sintaktik.shakl hosil qiluvchi) = yasama ot.

Masalan: *kitob+xon+lar+im+ni* - 5 morfema.

Asos (ot)+shaxs oti yasovchi+lug'aviy (ko'plik)+I-shaxs birlik. **Egalik(sintaktik)+tushum kelishigi (sintaktik) = yasama ot.**

*Ish+chi+lar+ingiz+dan*

Asos (ot)+ot yasovchi+lug'aviy shakl (ko'plik)+II-shaxs ko'plik (sintaktik)+chiqish kelishigi (sintaktik) = 5 morfema, yasama ot.

*Shaxs+iy+at+parast+lar+ingiz+ni*

Asos (ot)+ sifat yasovchi + ot yasovchi+ot yasovchi+ko'plik (lug'aviy shakl)+II-shaxs ko'plik (sintaktik)+ tushum kelishigi (sintaktik) = 7 morfema, yasama ot.

**Quyidagi so'zlarni yuqoridagi namuna kabi ishlab chiqing.**

- |                         |                       |
|-------------------------|-----------------------|
| 1. Sinfdozlarimni       | 26. To'plamimni       |
| 2. Paxtakorlaringizga   | 27. Kiyimimizni       |
| 3. Miskarlarimni        | 28. Unumi             |
| 3. Zargarlarga          | 29. Ko'chatlarimizdan |
| 4. Talabgorlarimdan     | 30. Yig'inlaringizni  |
| 5. Aravakashimizda      | 31. Supurgilaringizni |
| 6. Chorvadorlardan      | 32. Tepkilaringizni   |
| 7. Saroybonlarning      | 33. Tutatqilarimdan   |
| 8. Dorbozlarimni        | 34. Cholg'iga         |
| 9. Oshpazlarimga        | 35. Tuyg'ularimni     |
| 10. Hamsuhbatidan       | 36. Teshigingizdan    |
| 11. Etikdo'zlarimizni   | 37. Tarog'imizning    |
| 12. Aravazoslaringizda  | 38. O'roqlari         |
| 13. Choyxo'rlarimizni   | 39. Qalamdonlari      |
| 14. Gazetxonlarimizning | 40. To'lqinlariga     |
| 15. Tilshunoslaringizni | 41. Yong'inni         |
| 16. Duogo'ylaringizda   | 42. Botqoqlardan      |
| 17. Mevafurushini       | 43. Kuragimizni       |
| 18. Tog'avachchasidan   | 44. Varragingizni     |
| 19. Tinglovchi          | 45. Shaqildog'im      |
| 20. Tishkovlagichimni   | 46. Guldurosi         |
| 21. Ko'rsatkichlari     | 47. Bedapoyasidan     |
| 22. Qisqichimizda       | 48. Burchagimiz       |
| 23. Chizg'ichlarga      | 49. Ichkilikka        |
| 24. Yugurdagi           | 50. Ko'rgiligimiz     |
| 25. Qovurdog'im         |                       |

**Sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar  
Egalik qo'shimchalari**

<b>Birlik</b>	<b>ko'plik</b>	
I-shaxs: -m, -im	-imiz, -miz	
II-shaxs: -ng, -ing	-ingiz, -ngiz	turlovchi
III-shaxs: -si, -i	-lari	

Hovli+m - asos+egalik. I-shaxs birlik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+ng - asos+egalik. II-shaxs birlik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+si - asos+egalik. III-shaxs birlik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+miz - asos+egalik. I-shaxs ko'plik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+ngiz - asos+ egalik. II-shaxs ko'plik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+lari - asos+egalik. III-shaxs ko'plik (sintaktik shakl hosil qiluvchi).

### Kelishik qo'shimchasi

Bosh kelishik - kitob – asos  
 Qaratqich kelishigi – ning - kitob+ning  
 Tushum kelishigi – ni - kitob+ni  
 Jo'nalish kelishigi – ga, -ka, -qa - terak+ka  
 O'rin-payt kelishigi – da - kitob+da  
 Chiqish kelishigi – dan - kitob+dan

Hovli – asos

Hovli+ning - asos+qaratqich kelishigi (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+ni - asos+tushum kelishigi (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+ga - asos+ jo'nalish kelishigi ( sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+da - asos+o'rin-payt kelishigi ( sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Hovli+dan - asos+ chiqish kelishigi ( sintaktik shakl hosil qiluvchi ).

Sifat yasovchi qo'shimchalar. Misollar yoniga so'z qo'shing.

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
<b>Otdan alfat yasovchi qo'shimchalar</b>			
-li	gulli,...	-lik	samarqandlik (qiz),...
-siz	mevasiz,...	-iy, -viy	oilaviy (yig'in), ilmiy (kengash),...
-gi	kuzgi yig'im,...	-aki	jirtaki,...
-ki	ichki kiyim,...		
-qi	tashqi ishlar,...		
-yi	biyozi (dek qiz),...	-chan	uyatchan (qiz),...
ser-	sergap bola,...	ba-	basavlat, ...
be-	beandisha,...	-sumon	to'rsimon, ...
-dor	gumondor,...	-kor, -gar	jafokor, firibgar,...
-i	kashmiri,...	-cha	buxorocha (kiyim),...
-namo	telbanamo,...	-parvar	elparvar
-dek	asaldak (shirin), oydek	-lik, -liq	paxtalik (to'n), otaliq (tashkilot),...
-day	(go'zal), gulday (nozik),...		
-shumul	jahonshumul,...	-mand	davlatmand,...

-don	qadrdon,...	-kash	mehnatkash,...
-bop	yoshlarbop,...	xush-	xushmanzara,...
-in	erkin,...	bar-	barkamol,...
-parast	molparast,...	-vor	ardonavor,...
-chil	dardchil,...	bad-	badjahl,...
-i	jannati,...	-q	dumaloq,...
-chi	ginachi,...	-von	zo'rvon,...
-qa	quyqa,...	-omuz	pichingomuz (gap),...
-xo'r	o'txo'r,...	-soz	kemasoz (odam),...

### 2. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar

-gir	sezgir,...	-kun	fushkun,...
-g'ir	olg'ir,...	-qin	sotqin,...
-kir	keskir,...	-g'in	so'lg'in,...
-qir	topqir,...	-g'un	tuyg'un,...
-qur	uchqur,...	-qun	futqun,...
-choq	maqanchiq,...	-k	chirik,...
-chak	kuyunchak,...	-ik	teshik,...
-chiq	sirpanchiq,...	-uk	suzuk,...
-q	tarqoq,...	-qoq	yopishqoq,...
-uq	yumuq,...	-g'oq	toyg'oq,...
-iq	so'niq,...		
-qi	vaysaqi,...	-oq	qo'rqoq,...
-ag'on	topag'on,...	-mon	toparmon (odam),...
-ma	qovurma (sho'rva),...	-(a)li	ishonarli,...
-ch	tinch,...	-g'ich	yuvg'ich,...
-ong'ich	tishlong'ich,...	-ovuch	iskovuch,...
-mas	ishyoqmas,...	-(i)ndi	asrandi (bola),...
-a	ko'tara (savdo),...	-msiq	achimsiq,...

### 3. Sifat, ravish, taqlid so'zlardan sifat yasovchi qo'shimchalar

-gi	bugungi (ravishdan),...	no-	noma'qul (sifatdan),...
-lom	sog'lom (sifatdan),...	-ildoq	shiqildoq (taqliddan),...

**Sifat yasovchilar so'z yasalish qolipida quyidagi tarkibda joylashadi:**  
 Asos (ot, sifat, fe'l, ravish, taqlid) + sifat yasovchi + lug'aviy shakl (-gina, -kina, -qina, -roq, -mtir, -imtir, -ish) = yasama sifat.

Quyidagi so'zlarni namunadagidek yozing.

Namuna: kuch+li+roq - asos (ot) +sifat yasovchi + lug'aviy shakl (qiyosiy daraja shakli) = 3 morfema, yasama sifat.

Jizzakiroq, serhosil-ku, havoyiroq, sezgirroq, iliqroq, qarimsiq, bijildoqroq, achimsiq, ko'tara (savdo), noma'lum, teshik, kechagi, dastlabki, erkin, g'amxo'r, devonavor, bilag'on, sayroqi, ozg'in, asrandi, qizg'anchiq,

qoloq, kechagi, likildoq, fidoyi, aybdor, maymunsimon, ig'vogar, tinch, tirishqoq, muzdek, gapdon, o'tmas, tuzuk, sog'lom, bahorgi, ishchan, badavlat, zulmkor, devoriy, o'tkir, hurkovuch.

### Fe'l yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misolalar	Qo'shimcha	Misolalar
-la	boshla, ko'kla, tezlamoq, pichirla, sizlamoq, behlamoq, ...	-lan -lash	kalovlandi, jilovlandi, o'rtoqlashdi, ...
-illa	piqillamoq, ...	-ira	gurkiradi, hilpiradi, ...
-a	qiyna, ...	-sira -sa	sizsira, talmovsiramog, suvsa, ...
-(a)r	qizar, tunar, ...	-(a)y	sarg'ay, ...
-(i)k	toliqmoq, ...	-(i, o)k	bo'shat, berkit, ...
-(i)q	birikmoq, ...		
-i	toyimoq, tinchi, ...	-ir	gapir, tufir, ...

### Shaxs-son qo'shimchalari (tuslovchilar)

#### I guruh tuslovchilari

Bor+di+m – asos+zamon+I-shaxs birlik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Bor+di+ng – asos+zamon+II-shaxs birlik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);

Bor+di – asos+zamon

Bor+di+k – asos+zamon+I-shaxs ko'plik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);  
 Bor+di+ngiz – asos+zamon+ II-shaxs ko'plik (sintaktik shakl hosil qiluvchi);

Bor+dilar – asos+ (tuslovchi+zamon).

#### II guruh tuslovchilari

Bor+a+man – asos+zamon+I-shaxs birlik (sintaktik);

Bor+a+san – asos+zamon+II-shaxs birlik (sintaktik);

Bor+adi – asos+zamon

Bor+a+miz – asos+zamon+I-shaxs ko'plik (sintaktik);

Bor+a+siz – asos+zamon+II-shaxs ko'plik (sintaktik);

Bor+adilar – asos+zamon+ III-shaxs ko'plik.

#### III guruh tuslovchilari

Bor+ay – asos (fe'l)+I-shaxs birlik (mayl qo'shimchasi);

Bor+gin – asos+ II-shaxs birlik (mayl qo'shimchasi);

Bor+sin – asos+ III-shaxs birlik (mayl qo'shimchasi);

Bor+aylik – asos+ I-shaxs ko'plik (mayl qo'shimchasi);  
 Bor+ingiz – asos+II-shaxs ko'plik (mayl qo'shimchasi);  
 Bor+ sinlar – asos+III-shaxs ko'plik (mayl qo'shimchasi).

**Fe'l yasovchilar so'z yasalishi qolipida quyidagi tartibda joylashadi:**  
 Asos (ot, sifat, son, olmosh, undov, taqlid, modal) + fe'l yasovchi + lug'aviy shakl + sintaktik shakl hosil qiluvchi = yasama fe'l.

**Quyidagi so'zlarni namunadagidek tahlil qiling.**

Namuna: ish+la+di+k - asos (ot) + fe'l yasovchi + zamon (lug'aviy shakl) + I-shaxs ko'plik (sintaktik shakl hosil qiluvchi) = yasama fe'l, 4 morfema.

Oq-la-di-ngiz - asos (sifat) + fe'l yasovchi + zamon (lug'aviy shakl) + II-shaxs ko'plik (sintaktik shakl hosil qiluvchi) = yasama fe'l, 4 morfema.

Sekinlayapti, shivirlagansiz, chuhamoqdasiz, senlayapti, chirqillayapti, tunamoqchiman, bo'shayapman, o'ynamoqdasiz, qiziqyapti, qisqargan, ko'karmoqda, birikmoqchi, yo'liqqan, boyidik, tinchidingiz, faxrlandim, ikkilanyapman, ko'maklashdingiz, suhbatlashmoqda, yارقiradi, sensirayapman, suvsadim, qoraygan, kuchayadi, yo'qotdim, to'latdingiz, berkitmoqchi, gapirmadim, tupurmagansiz.

### Ravish yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	misollar	Qo'shimcha	misollar
-cha	o'zgacha,...	-larcha	mardlarcha,...
-dek	kulgandek,...	-siga	uzunasiga,...
-day	charchaganday ...		
-ligicha	namligicha,...	-chasiga	farg'onachasiga,...
-lab	haftalab,...	-ona	mardona,...
-an	aqlan,...	-gacha	tonggacha,...
-simon	uyalgansimon,...	-namo	uyalgannamo,...
-lay(in)	butunlay,...	-siz, be-	ilojsiz, betinim,...
-incha	ko'pincha,...	-chang	uyatchang,...

**Ravish yasovchilar so'z yasalishi qolipida quyidagi tartibda joylashadi.**  
 Asos (ot, sifat, fe'l, olmosh, ravish) + ravish yasovchi  
 Qisqa+cha – asos (sifat) +ravish yasovchi = 2 morfema  
 O'z+i+cha – asos (olmosh) + 3 shaxs egalik+ ravish yasovchi= 3 morfema

**Mashq.** Quyidagi so'zlarni yuqoridagi namunadagidek yozing.


Yangicha, hozircha, uningcha, tushuncha, qardoshlarcha, haftalab, itoatkorona, tiriklay, butunlay, ostin-ustun, betinim, erkakchasiga,

do'stona, jisman, ko'pincha, oldin, yodaki, erkalangansimon, tikkasiga, hirdaniga, baravariga, ko'plab, tushgacha, oliftanamo, yashiriqcha, kovushchan, shikoyatomuz, buguncha, o'rtoqlarcha.

### Shakl yasovchi morfemalar va ularning tasnifi

Shakl yasovchi morfemalar yetakchi morfemalarga qo'shilib, yangi so'z hosil qilmaydigan, so'zning turli xil shakllarini vujudga keltiradigan morfemalardir. Masalan, yaxshigina, Nodiraxon, akamni...

#### Shakl yasovchi morfemalar sintaktik munosabatni bildirish-bildirmasligiga ko'ra



O'qigach so'zidagi -gach morfemasi o'qi so'ziga qo'shilib, undan yangi so'z ham yasamaydi, bu so'zni boshqa so'zga bog'lash uchun ham xizmat qilmaydi. Shuning uchun u lug'aviy shakl yasovchi morfemadir.

Lug'aviy shakl yasovchi morfemalar yetakchi morfemaga qo'shilib, undan yangi so'z yasamaydigan va o'zi qo'shilgan so'zni boshqasiga bog'lash uchun xizmat qilmaydigan shakl yasovchi morfemalardir.

Sintaktik shakl yasovchi morfemalar so'zga qo'shilib, uning ma'lum morfologik shaklini ko'rsatuvchi va boshqa so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi shakl yasovchi morfemalardir. Masalan, egalik, kelishik, shaxs-son morfemalari sintaktik shakl yasovchi morfemalar tarkibiga kiradi.

### Tub va yasama so'zlar

Tarkibi asos va yasovchi qo'shimchalarga bo'linmaydigan so'zlarga tub so'zlar deyiladi. Masalan, olma, temir, quyosh kabi. Asosga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi orqali hosil qilingan yangi asos sodda yasama so'zlar deyiladi. Masalan, toshloq, temirchi, bilimsizlik, sertashvish.

Mashq.1. So'zlarni tub va yasama so'zlarga ajratib, jadvalga joylashtiring.

Ixtirochi, kuldon, suhbatlashmoq, ixtiro, tinim, qisqich, to'g'ri, gul, ixtirochilik, tinmoq, qisilmoq, tindirmoq, noto'g'ri, to'g'rilanmoq, tinimsiz, guldor, gulchilik.

Tub so'zlar	Yasama so'zlar

## 2. Gaplardan yasama soʻzlarni ajratib koʻchiring.

Umr bagʻoyat qisqa va u mohiyat-eʼtibori bilan zoʻr saodatdir. Eng qiyini oʻzingni anglay bilishingdir. Bilim yodlash bilan emas, fikrlash bilan orttirilganagina haqiqiy bilimdir. Jami narsaga oʻzingni mashaqqatli tajribang orqali yetishmogʻing lozim. Odam nima yegani bilan emas, nimani hazm etsa, oʻsha bilan yashaydi. Aksari bilagʻonlar aqlsizdir. Gʻirt nodonlik bu hali u qadar illat emas, sayoz oʻzlashtirilgan bilimlarni jamlash undan batarroqdir. Aqlli kishilar- bebaho qomus. Oqilona ish tutish uchun birgina aqlning oʻzi kamlilik qiladi. Sergaplik istagi joʻn aql alomatlaridan biridir.

Quyida oʻzbek tilida qoʻllanadigan shakl yasovchi qoʻshimchalarni yod oling va jadvalni toʻldiring.

### Feʼllarda shakl yasovchi qoʻshimchalar

N <sup>o</sup>	Qoʻshimcha	Misolalar	Xususiyati
1	-a I	bura,...	maʼnoni kuchaytiradi
2	-a II	qoqila-qoqila,	ravishdosh shaklini yasaydi
3	-ajak	boʻlajak,...	sifatdosh shaklini yasaydi
4	-asi	kelasi (yil),...	sifatdosh shaklini yasaydi
5	-b yoki -ib	yozib, kelib,...	ravishdosh shaklini yasaydi
6	-gan, -kan, -qan	kelgan, chekkan, boqqan,...	feʼlning oʻtgan zamon sifatdoshi shaklini hosil qiladi
7	-gaz, -kaz, -qaz, giz, -qiz	yurgiz, yutqaz, oʻtkaz, yotqiz, bitkaz,...	ortirma daraja shaklini yasaydi
8	-gani, -kani, -qani	yozgani, tukkani, boqqani,...	kelasi zamon maqsad maʼnosidagi ravishdosh shaklini hosil qiladi
9	-gancha	chopgancha, halloslagancha,...	holat yoki payt ravishdoshlarini hosil qiladi
10	-gach, -kach, -qach	borgach, oʻqimagach, yoqqach,...	payt yoki sabab ravishdoshlarini yasash uchun xizmat qiladi
11	-gi I	oʻqigim keldi,...	egalik qoʻshimchalari bilan birgalikda xohish, istak maʼnosini ifodalaydi
12	-gi (-gʻi)II	yurgisi bor, toʻzgʻirmoq,...	feʼlga qoʻshilib, takroriylik, davomlilik maʼnolarini ifodalaydi
13	-giz, -iz, kaz, -qaz, gʻaz, -gʻiz	toʻlgʻizmoq, botqizmoq, borgizmoq, ketqazmoq,...	feʼllardagi ortirma nisbatni hosil qiladi
14	-gil, -gin	ketgin, yurgil,...	feʼllardagi buyruq-istak maylini hosil qiladi
15	-guncha, -quncha, -kuncha	ochguncha, chekduncha, chiqquncha,...	payt ravishdoshlarini hosil qiladi
16	-gur	qurmagur, ...	feʼllardagi istak maʼnosini ifodalaydi
17	-gusi (-gʻusi)	kelgusi, boʻlgʻusi,...	eskirgan qoʻshimcha boʻlib, kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
18	-di	oʻqidi,	yaqin oʻtgan zamon feʼlini hosil qiladi



19	-dir III yoki -tir	tuzdir, chizdir, otir, ortir,...	ortirma daraja hosil qiluvchi qo'shimcha
20	-digan	boradigan,...	kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
21	-yotgan	kutayotgan,...	sifatdosh shaklini hosil qiladi
22	-yotir	kelayotir,...	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
23	-i	qutimoq,...	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha
24	-b, (-ib)	ketib, to'qib,...	holat ravishdoshlarini hosil qiladi
25	-in, -n	yuvimmoq, qilindi,...	o'zlik yoki majhul nisbat yasovchi qo'shimcha
26	-in II	yozaym,...	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha
27	-ir	oshirmoq,...	fe'llardagi ortirma nisbat qo'shimchasi
28	-ish yoki -sh I	yurish, yozish,...	fe'llarning harakat nomi shaklini yasovchi qo'shimcha
29	-ish yoki -sh II	kelishdi, o'qishmoqda,...	fe'lning birgalik nisbat qo'shimchasi
30	-ish IV	yorishdi,...	kuchsiz harakatni ifodalaydi
31	-iq	yo'liqmoq,...	fe'lning o'zlik nisbatini hosil qiladi
32	-y I	ishlay boshladi,...	ravishdosh hosil qiluvchi qo'shimcha
33	-y yoki -ay II	o'lay desda, kulay deydi; tikay, yozay,...	fe'lning buyruq-istak mayli shaklini yasaydi
34	-ka	iskadi,...	fe'lning kuchaytirma shaklini hosil qiladi
35	-l yoki -il	va'z o'qildi,...	fe'lning o'zlik yoki majhul darajasini hosil qiladi
36	-la	savala, quvla,...	fe'llarning kuchaytirish shaklini yasaydi
37	-lik	gapirmoqlik,...	harakat nomiga qo'shilib, ma'noni kuchaytiradi
38	-ma	borma, yozma,...	fe'lning bo'lishsiz shaklini hosil qiladi
39	-mish	bormish, yozmish,...	eskirgan shakl bo'lib, o'tgan zamon sifatdoshini hosil qilgan
40	-moq	o'qimoq, kelmoq,...	harakat nomini hosil qiladi
41	-moqda	o'qimoqda, bormoqda,...	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
42	-moqchi	bormoqchi,...	kelasi zamon maqsad fe'llarini yasaydi
43	-on	ko'ribon, olibon,...	eskirgan qo'shimcha bo'lib, ravishdosh shaklini hosil qilgan
44	-r yoki -ar	kelar, yozar,...	kelasi zamon sifatdoshini yasaydi
45	-sa	o'qisa,...	fe'llardagi shart mayli shaklini hosil qiladi
46	-sin	kelsin,...	fe'llardagi buyruq-istak maylini yasaydi
47	-t	qizit,...	fe'llardagi ortirma nisbatini hosil qiladi
48	-uv	oluv, o'quv,...	fe'lning harakat nomi shaklini hosil qiladi
49	-yap	o'qiyapman,...	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi

<b>Otlarda lug'aviy shakl yasovchilar</b>			
1	-lar I	xonalar,...	ko'plik ma'nosini hosil qiladi
2	-lar II	dadamlar, ...	hurmat ma'nosini hosil qiladi
3	-loq yoki -aloq	qizaloq, bo'taloq,...	Kichraytirish va erkalash ma'nosini hosil qiladi
4	-niki	seniki, kutubxonniki,...	qarashlilik shaklini hosil qiladi
5	-oy	Diloromoy, Go'zaloy,...	ayol ismlariga qo'shiladi va erkalash-hurmatlash ma'nolarini ifodalaydi
6	-xon	Nasibaxon, ...	odam ismlariga qo'shilib, hurmat ma'nosini hosil qiladi
7	-chak	belanchak, tugunchak, ...	otlardagi kichraytirish ma'nosini ifodalaydi
8	-cha	qizcha, sandiqcha,...	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi
9	-choq	qo'zichoq, ...	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi
10	-jon	Murodjon, ...	otlardagi hurmat ma'nosini hosil qiladi
11	-gina, -kina, -qina	bolaginam, do'mboqqina, dunustgina, popukdekkina, ...	a) otlardagi erkash-kichraytirish, achinish ma'nosini ifodalaydi; b) sifatlardagi ozayirma darajani hosil qiladi
<b>Sifatlarda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar</b>			
1	-imtir yoki -mtir	oqimtir, ko'kimtir, qoramtir,...	sifatlardagi ozayirma darajani hosil qiladi
2	-ish III	oqish, ...	sifatlardagi ozayirma daraja hosil qiluvchi qo'shimcha
3	-roq	uzunroq, kichikroq,...	sifatlarning qiyosiy daraja shaklini hosil qiladi
<b>Sonlarda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar</b>			
1	-ala	beshala, ikkalasi,...	jamlovchi son shaklini yasaydi
2	-inchi yoki -nchi	birinchi, yettinchi,...	tartib son yasovchi qo'shimcha
3	-ta	bitta, yigirmata, ...	dona son shaklini hosil qiladi
4	-tacha	sakkiztacha, yigirmatacha,...	chama son shaklini hosil qiladi
5	-ov	uchov, ikkov,...	jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha
6	-ovlon	oltovlon,...	xuddi shunday jamlovchi sonlarni yasaydi
<b>Olmoshlarda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar</b>			
1	-dir II	qaysidir, kimdir, ...	gumon olmoshini hosil qiladi
<b>Ravishlarda lug'aviy shakl yasovchilar</b>			
1	-roq	tezroq, ...	ravishlarda daraja ko'rsatkichi
2	-gina (-kina, -qina)	tezgina, ...	ravishning modal shaklini yasaydi

## Lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar

Bur+a+moq – asos (fe'l)+ ma'no kuchaytiruvchi(lug'aviy shakl)+harakat nomi (lug'aviy shakl) = 3 morfema, tub fe'l

Yugur+a- yugur+a - asos (fe'l)+ ravishdosh (lug'aviy shakl)+asos (fe'l)+ ravishdosh (lug'aviy shakl) = 4 morfema, tub fe'l

Kel+ajak – asos (fe'l)+sifatdosh (lug'aviy shakl) = 2 morfema.tub fe'l

Uch+ala – asos (son)+jamllovchi son (lug'aviy shakl) = 2 morfema, tub son

O'qi+b – asos (fe'l) +ravishdosh (lug'aviy shakl) =2 morfema, tub fe'l

Qiz+gina +m – asos (ot)+ erkalash. Kichraytirish (lug'aviy shakl)+I-shaxs egalik (sintaktik shakl hosil qiluvchi) = 3 morfema, tub ot

**Mashq.** Quyidagi so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating va namunadagidek yozing.

Tuyg'usi – tuy+ g'u+si – asos (fe'l) + ot yasovchi+ III shaxs egalik (sintaktik shakl yasovchi)= 3 ta morfema, yasama so'z.

Fidoi, fuqarosi, bo'lmoqqa, intilish, xalqning, sanog'iga, sanab, to'plamda, tinchlik, hazillashmoq, ommalashmoq, go'zallashmoq, tayinlashmoq, tuproqqa, nihollarni, ko'targan, gulzorga, chiqmoqchi, zargarlik, duradgorlik, suvoqchilik, ustachilik, botiniy, botir, botiq, botqoq, botartib, o'tloq, yo'ldosh, pishiqchilik, qarsak, ginachi, suyanchiq, qurilish, oromgoh, misgar, guvullab, kasbdoshining yutug'i, obro'sini ko'rolmaydigan, tirnoq, izlaydiganlar, yasama, quvnoq, so'zlashib, o'ylaydiganlar, poyingizni, qirqishni, adabiyot, o'qituvchisi, taroqqa, so'roqqa, buloqqa, terakka, sarg'ish, ko'kimtir, chaqnoq, bo'yoq, unutmagin, o'ychan, turishi, bardoshi, sadoqatini, barmog'ida, izlari, sarguzashtlari, tanishish, tabiatiga, hajviy, mayllarga, turtki, beradi, terimchilarga, qoramtir, boshladi, qishlog'imizda, yaxshilik, tuzuklarni, tiklanarmiz, yechimlarni, topgay, tugun, tuzgan, joylashtirmoq, terilmoq, quvontirmoq, buzuq, pishiq, yo'luq, yumuq, befoyda, foydali, aytasiz, so'zsis, opam, bordim, kutubxonaga, sertilakdir, serduo, shukrona, guldek, erkalagan, ajablandi, afsuslandi, olindi, ko'rindi, oshig'ing, yoningda, sening, seni, O'zbekiston, tiyraklik, ko'pchilik, nomdor, insonlarda, uchraydigan, samimiyat, bolalarcha, beg'uborlik, gaplarini, tasdiqladi, ulug'vor, sersuv, bo'ydor, yerlarda, tiniq, otxonaning, fikrlamoq, ma'qullamoq, sergaklanmoq, olqishlaydi, chirqillash, chug'urlyaydi, osilib, shohlarida, to'qlikda, ochlikni, o'yla, boyiganda, muhtojlikni, tilim, dilim, bevafoing, kitobxonlaridan, baravariga, raqibini, iliq, tomchilar, qamchilar, o'ynar, bag'rim, ko'nglim, ziyoratingga, yashash, bog'lam, aylanma, achitma, kesatiq, qizingizning, bolalikdan, semizlikni, badavlatlik, chiroyli, daraxtzor, sovuq, jiddiylashdi,

isbotlamoqchi, keskin, o'g'irlamoq, tirishqoq, haraklatchan, kulgili, xalqaro, tog'larga, rostgo'ylik, adabning, ustuni, insoniylikning, asosidir, sergaplik, ayovsiz, dushmandir, odatlanishmoq, yoqilg'i, yaxshisi, baxtsizlikda, qormimga, eskicha, o'zicha, ko'nikma, ishlovchi, gapirdi, kumushsimon, mafkuraviy, sanadi, yaltiraydi, ko'paymoqda, serjahl, sababsiz, istagidami, hosildor, kelinchak, erinchak, ishla, savala, to'kin, yashirin, do'sti, boyi (fe'l), bezorilik, bezattirmoq, begonasiramoq, beorlik, qizardi, beiz, odamlarimizning, haqini, tanisa, taroqchilik, o'tlatmoq, yugurtirmoq, o'tkazmoq, chaqirtirmoq, bitirmoq, jo'nattirmoq, taramoq, to'latmoq, kuylashmoq, hisoblatmoq, bezatilmog, kichkina, yolg'ondakam, bejirim, lolazor, gulsiz, chidamliligi, suvsizlikka, chayqa, borish, ko'kish, ekinlar, sovuqdan, qovjirab, oqimi, arralashmoq, so'zlashmoq, suhbatlashmoq, qiqirlashmoq, ulg'ay, fazilatlar, o'qiganimda, barqarorlik, vatandoshimiz, faxrlanishiga, qiyofasini, sog'inchning, g'ururlanishdi, avaylaylik, asrandi, dog'lab, kuchaytirdi, umrlaringizni, yaralibdiki, yaxshilshga, sog'lomlashtirish, zamondosh, ko'kardi, ishbilarmon, hamfikir, salmoqdor, mashaqqatli, aqllilik, hurfikir, zardo'zlik, insoniylik, foydalanmoqda, tekislash, sug'urtalash, oqilona, jinoyatchilik, idrokli, ibodatxona, kamolot, majnuntol, masxaraboz, noahil, oshxamir, oqpadar, sassiqpopishak, serg'ayrat, g'o'zapoya, qultum, o'zakdosh, kitoblarim, bilimdonlik, yigitcha, ko'pchilikdan.

**Mashq.** Quyidagi qo'shimchalarni jadvalga joylashtiring.

-ni, -roq, -lab, -in, -miz, -dan, -k, -lan, -lar, -dor, -ing, -gan, -r, -sira, -ay, -don, -chi, -iy, -aki, -illa, -ona, -cha, -imtir, -tadan, -guncha, -choq, -loq, -gani.

So'z yasovchi	Lug'aviy shakl yasovchi	Sintaktik shakl yasovchi

### Morfemalarning agglutinativ tabiati

O'zbek tilida ko'makchi morfemalar, ya'ni qo'shimchalar yetakchi morfemadan so'ng keladi. Masalan,

Zamon-dosh

Zamondosh-lar

Zamondoshlar-im

Zamondoshlarim-ga.

Asosga eng avval so'z yasovchi qo'shimcha, so'ng lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha, eng oxirida esa sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi.

Masalan, sholi-kor, muqova-soz, kamtar-ona; tadbir+kor+lar, son+a-moq, yalt+ira+sh, fido+kor+lar+ga, o'rin+a+sh+di+m, uyqu+sira+b+man.

Asosga so'z yasovchi qo'shimcha, shakl yasovchi qo'shimchalar

ikkitadan qo'shilsa, ular ketma-ket ulanadi, yuqoridagi tartib buzilmaydi. Masalan, *mulk-dor-lik, bil-im-li, jo'sh-qin-lik, ko'k-ish-roq, o'yin-a-t-di, ket-a-yotir-man, sinf-dosh-lar-im-dan, hor-a-yotgan-ingiz-ni, varaq-la-sh-ni*.

Ba'zi bir hollarda so'z yasovchi qo'shimcha asosga old tomondan kelib qo'shilishi ham mumkin (masalan, no-o'rin), lekin bunday old qo'shimchalar o'zbek tilida juda kam.

Shuningdek, ayrim so'zlarda umumiy tartib buzilishi ham kuzatiladi: o'chirg'ich, achitqi, isitma, yopinchiq kabi so'zlarda asos+lug'aviy shakl+so'z yasovchi, es-la-gan-lik, qo'llanma kabi. Bunda yuqoridagi tartib o'zgaradi, asos + so'z yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilmoqda.

Umuman olganda, qo'shimchalarning qo'shilishida o'ng qo'l qoidasiga rioya qilinadi.

## Morfemikaga oid mashq va topshiriqlar

**1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni morfemalarga ajrating. O'zak va affikslarning ma'nolarini, vazifalarini aniqlang.**

1. Anvarning maxdum hovlisida turishini joysizlikdan va yoshlikdan shunda o'sib o'rgangandan, deb yurgan Sultonali mirzo bu kun ertalab o'z uyiga kelgan maxdumning so'zidan keyin bir oz haqiqatga tushungandek bo'ldi. 2. Saidiy Munisxonning haligi so'ziga muvaffaqiyatli javob qilgandan so'ng yana o'shanday so'zlatib javob qilishni xohladi. 3. Quvonchimdani terimga sig'may Turg'un degan o'rtog'imnikiga yugurdim. 4. Kuz iliq kelgani uchunmi, Hirot tojdorlari hali ham qal'a tashqarisidagi bog'larda yashamoqda edilar. 5. Qiz mojarosi boshlanishidan ikki kun oldin Chavandoz Komila bilan birga tog'ga chiqib ketgandi. 6. Qizlar sandiqchalaridan, yostiqlarining ostlaridan tugunchalarini keltirib, nonlarini o'rtaga to'kib, nonushtaga o'tirganlaridan keyin ham o'zaro pichirlash tugamadi. 7. Yulduzlar bekinmashoq o'ynayotgandek, onda-sonda yalt-yalt etib qoladi. 8. Ko'ngilli o'tgan bir hafta, ayniqsa, Qo'qondan hatlab nariga chiqa olmagan Salimda katta taassurot qoldirgan edi.

**2. Matndagi so'zlarni morfemik tahlil qiling, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarni aniqlang.**

Qasida o'qib tugatilganda Bobur ta'sirlanganidan qayerda o'tirganini ham unutgan edi. U atrofiga qarab, go'yo mehmonxonaga uzoqlardan qaytib kelganday bo'ldi.

— Mavlono, bu qasidani Alisherbekka nega yubormaysiz?

— Hirotga boradigan tayinli odam yo'q, amirzodam.

— Biz yaqinda Hirotga elchi yubormoqchimiz. Kaminaga Alisherbekdan kitobat kelgan edi. Javobini yozib yubormoqchiman.

- Amirzodam, qani edi, qulingizning bu qasidasini ham...
- Marhamat, xattotga berib ko'chirtirmoq zarur bo'lsa, men buyururmen. So'ng elchidan berib yuborurimiz.

Gap shunga qaror topdi-yu, mulla Binoiy xursand bo'lib chiqib ketdi. Bobur yana xonayi xosga kirib, chala qolgan she'rini qo'lg'a oldi.

## Old qo'shimchalar va ularning xususiyatlari

O'zbek tili asrlar davomida arab, fors-tojik, rus tillari bilan o'zaro aloqada yashab keldi. Buning natijasida tilimizda o'sha tillarga xos bo'lgan yasalmalar va so'z yasaliş qolipi ham o'zlashdi. Shulardan biri old qo'shimchali so'zlar va old qo'shimchalar sanaladi. Bular quyidagilar:

ba- batafsil, badaviat, bahaybat;

be- bexavotir, beg'ubor, befarosat;

no- noumid, noqulay, norozi

ser- serzavq, sergap, serhosil


Shuningdek, kam qo'llaniluvchi badfe'l, badjahl, badnafs, xushxabar, xushro'y, xushvaqt, hamfikir, hamshahar, hamsuhbat singari so'z yasaliş holatlari ham mavjud.

-ba, ser- qo'shimchalari, asosan, otga qo'shilib, asosdan anglashilgan belgi-xususiyatning me'yordan ortiq ko'p ekanligini bildirsa, be-, no-qo'shimchalari xuddi shi narsalarga ega emaslikni anglatadi. Solishtiring: baquvvat, serma'no, behayo, noo'rin. Mazkur qo'shimchalar -li, -siz, -dor qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi. Masalan, badavlat-davlatli, beqiyos-qiyossiz, noo'rin-o'rinsiz, sertashvish-tashvishli.

**Mashq. Gaplarni o'qing. Old qo'shimchalarni aniqlang.**

Serjahl va serzarda bo'lmang, odamlar e'tiboridan qolasiz. Noo'rin aytilgan so'z boshga kulfat keltiradi. Baquvvat va kuchli farzandlari bor xalqni hech kim yengolmaydi. Serquyosh o'lkamizning har bir qarich yeri biz uchun muqaddas. Nomard do'st dushmanidan yomon.

## Qo'shimchalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi



## Qo'shimchalarda shakldoshlik

Shakldoshlik nafaqat leksemalarga, balki qo'shimchalarga ham xos xususiyat hisoblanadi. Qo'shimchalarning ayrimlari ifodalanishiga ko'ra aynan bir-biriga o'xshasa-da, mazmun-mohiyati bilan keskin farqlanadi. Masalan, -in qo'shimchasi:

<b>a) ot yasovchi</b>	<b>b) sifat yasovchi</b>	<b>d) ravish yasovchi</b>	<b>e) fe'lining nisbat shaklini yasovchi</b>
tiqin	to'lin	ostin-ustin	artin
yig'in	erkin	birin-ketin	ko'rin
chaqin	yashirin	qishin-yozin	yuvin

Bunday qo'shimchalar o'zbek tilida ko'plab uchraydi: -ma, -chi, -dor, -ch, -ish, -ar, -ik, -qin, -choq, -ay, -siz kabi.

### **Shakldosh qo'shimchalar quyidagi ko'rinishlarda uchraydi.**

#### **1. So'z yasovchilar o'rtasida**

Qalamdon (ot)	qarddon (sifat)
Toshqin (ot)	jo'shqin (sifat)
Tepki (ot)	kechki (sifat)
Qatlama (ot)	bo'g'ma (sifat)
O'roq (ot)	qo'rqqoq (sifat)
Yoshlik (ot)	sirdaryolik (sifat)
Yuzsiz (sifat)	so'zsiz (ravish)
Yugurik (sifat)	ko'rik (ot)

#### **2. So'z yasovchi qo'shimcha so'z shakli yasovchi qo'shimcha bilan shakldosh bo'ladi**

Kelinchak (erkalash, hurmatlash shakli)	erinchak (sifat yasovchi)
Gapirma (fe'lining bo'lishsizlik shakli)	burma (sifat yasovchi)
Yuzlab (chama son shakli)	haftalab (ravish yasovchi)
Qizcha (kichraytirish shakli)	erkakcha (ravish yasovchi)
Dilafro'xon (hurmat shakli)	kitobxon (ot yasovchi)
Do'sti (III shaxs, birlik shakli)	boyi (fe'l yasovchi)

#### **3. Har qanday holatda so'z shakli yasaydi**

Oqish (ozaytirma shakl)	kelish (harakat nomi shakli)
Otam (egalik shakli)	ko'rdim (shaxs-son shakli)
Ukang (egalik shakli)	bording (shaxs-son shakli)

### **Quyida o'zbek tilida uchraydigan omonim qo'shimchalarni keltiramiz**

#### **Omonim (shakldosh) qo'shimchalar**

**-chi** — so'z yasovchi: shaxs oti yasovchi — ishchi  
so'z yasovchi: sifat yasovchi — ayirmachi

- yuklama soʻz turkumi — kel-chi
- dor** — soʻz yasovchi, shaxs oti yasovchi: mulkdor  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: rangdor
- kash** — soʻz yasovchi, shaxs oti yasovchi: suratkash  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: dilkash
- ma** — soʻz yasovchi, ot yasovchi: tenglama  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: yozma(ish)  
lugʻaviy shakl hosil qiluvchi: boʻlishsiz shakl (oʻqima)  
soʻz yasovchi, ravish yasovchi: yonma — yon
- in** — soʻz yasovchi, narsa-buyum oti yasovchi: ekin  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: toʻlin (oy)  
soʻz yasovchi, ravish yasovchi: ochin-toʻqin  
lugʻaviy shakl hosil qiluvchi, oʻzlik nisbati: kiyindi  
lugʻaviy shakl hosil qiluvchi, majhul nisbat: olindi
- m** — soʻz yasovchi, ot yasovchi: toʻplam  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: qaram  
sintaktik shakl yasovchi, I shaxs egalik: onam  
sintaktik shakl yasovchi, I shaxs-son: bordim
- iq** — soʻz yasovchi, ot yasovchi: chiziq  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: tiniq  
soʻz yasovchi, feʼl yasovchi: zoʻriq  
lugʻaviy shakl hosil qiluvchi, feʼl shakli: siniq
- dir** — lugʻaviy shakl yasovchi, orttirma: kuldir  
lugʻaviy shakl yasovchi: gumon olishi: kimdir  
kesimlik qoʻshimchasi: shahardir  
yuklama qoʻshimcha: kelgandir
- kor** — soʻz yasovchi: ot yasovchi: gʻallakor  
soʻz yasovchi: sifat yasovchi: ehtiyotkor
- gar** — soʻz yasovchi: shaxs oti yasovchi: zargar  
soʻz yasovchi: sifat yasovchi: ishvagar
- lik** — soʻz yasovchi: ot yasovchi: doʻstlik  
soʻz yasovchi: sifat yasovchi: paxtalik (chit)
- loq** — soʻz yasovchi: ot yasovchi: oʻtloq  
lugʻaviy shakl yasovchi, erkalash, kichraytirish: boʻtaloq
- don** — soʻz yasovchi: ot yasovchi: kuldon  
soʻz yasovchi: sifat yasovchi: qarddon
- k** — soʻz yasovchi, ot yasovchi: elak  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: chirik  
sintaktik shakl yasovchi, shaxs-son shakli: bordik
- ik** — soʻz yasovchi, ot yasovchi: koʻrik  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: teshik  
soʻz yasovchi, feʼl yasovchi: birik



- q — soʻz yasovchi, ot yasovchi: taroq  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: yumshoq
- gi — soʻz yasovchi, ot yasovchi: sezgi  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: qadimgi  
lugʻaviy shakl yasovchi, feʼl shakli: borgim
- qi — soʻz yasovchi, ot yasovchi: chopqi  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: sayroqi
- ki — soʻz yasovchi, ot yasovchi: turtki  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: qishki  
yuklama qoʻshimcha: biladilar-ki
- choq — soʻz yasovchi, ot yasovchi: oʻyinchoq  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: erinchoq  
lugʻaviy shakl, erkalash, kichraytirish: toychoq
- chiq — soʻz yasovchi, sifat yasovchi: sirpanchiq  
lugʻaviy shakl yasovchi, erkalash, kichraytirish: qopchiq
- oq — soʻz yasovchi, ot yasovchi: oʻroq  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: qoʻrqoq  
yuklama qoʻshimcha: bugunoq
- ch — soʻz yasovchi, ot yasovchi: sevinch  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: tinch
- siz — soʻz yasovchi, sifat yasovchi: ishsiz  
soʻz yasovchi, ravish yasovchi: tinimsiz  
sintaktik shakl hosil qiluvchi: borasiz
- uq — soʻz yasovchi, ot yasovchi: buyruq  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: yumuq
- qir — soʻz yasovchi, feʼl yasovchi: hayqir  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: topqir
- qoq — soʻz yasovchi, ot yasovchi: botqoq  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: tirishqoq
- qin — soʻz yasovchi, ot yasovchi: bosqin  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: sotqin
- a — soʻz yasovchi, feʼl yasovchi: oʻyna  
lugʻaviy shakl hosil qiluvchi: bora  
lugʻaviy shakl, zamon shakli: boraman  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: koʻtara (savdo)  
soʻz yasovchi, feʼl yasovchi: tuna  
yuklama qoʻshimcha: men-a
- ak — soʻz yasovchi, ot yasovchi: qarsak  
soʻz yasovchi, sifat yasovchi: qirmizak
- ar — soʻz yasovchi, feʼl yasovchi: koʻkar  
lugʻaviy shakl hosil qiluvchi: kelar
- ga — sintaktik shakl yasovchi, joʻnalish: bolaga

- lug'aviy shakl hosil qiluvchi: surgamoq
- gina** – ctning erkalash, kichraytirish shakli: qizginam  
ayiruv-chegaralov yuklamasi: Ahmadgina
- da** – sintaktik shakl yasovchi, o'rin-payt kelishigi: uyda  
so'z yasovchi, fe'l yasovchi: undamoq  
ta'kid yuklamasi: keldi-da
- day** – so'z yasovchi, sifat yasovchi: kaftday  
so'z yasovchi, ravish yasovchi: oqday
- i** – sintaktik shakl yasovchi, egalik, III-shaxs, birlik: kitobi  
so'z yasovchi, sifat yasovchi: jannati  
so'z yasovchi, fe'l yasovchi: tinchimoq  
lug'aviy shakl yasovchi, fe'l shakli: to'zi
- il** – lug'aviy shakl yasovchi, o'zlik nisbat: egildi  
lug'aviy shakl yasovchi, majhul nisbat: ichildi
- im** – sintaktik shakl yasovchi, I-shaxs, egalik: uyim  
so'z yasovchi, ot yasovchi: bilim  
so'z yasovchi, sifat yasovchi: ayrim  
so'z yasovchi, ravish yasovchi: chekim
- ing** – sintaktik shakl yasovchi, egalik, II-shaxs, birlik: uying  
sintaktik shakl yasovchi, shaxs-son qo'shimchasi: oching
- ingiz** – sintaktik shakl yasovchi, egalik, II-shaxs, ko'plik: uyingiz  
sintaktik shakl yasovchi, shaxs-son, ko'plik: ochingiz
- ir** – so'z yasovchi, fe'l yasovchi: gapir  
lug'aviy shakl yasovchi: o'chir
- ish** – lug'aviy shakl, sifatning ozaytirma shakli: ko'kish  
lug'aviy shakl, harakat nomi: yozish  
lug'aviy shakl, birgalik nisbati: olishdi
- ka** – otlardagi lug'aviy shakl hosil qiluvchi: yo'lka  
sintaktik shakl yasovchi, jo'nalish kelishigi: etikka  
so'z yasovchi, fe'l yasovchi: iska  
lug'aviy shakl, fe'l shakli: surkadi
- kin** – so'z yasovchi, ot yasovchi: epkin  
so'z yasovchi, sifat yasovchi: keskin  
lug'aviy shakl yasovchi: to'kkin
- la** – so'z yasovchi, fe'l yasovchi: boshladi  
lug'aviy shakl, fe'l shakli: quvladi  
ko'makchining qisqargan shakli: sen-la
- miz** – sintaktik shakl yasovchi, I-shaxs, egalik, ko'plik: onamiz  
sintaktik shakl yasovchi, I-shaxs, shaxs-son: olamiz
- moq** – so'z yasovchi, ot yasovchi: quymoq  
lug'aviy shakl, fe'l shakli: isimoq
- n** – sintaktik shakl yasovchi, tushum va qaratqich qisqargan

- shakli: (she'riy):o'zin
- on – lug'aviy shakl, fe'l shakli: yasanmoq  
so'z yasovchi, ot yasovchi: to'zon
  - sa – so'z yasovchi, sifat yasovchi: shodon  
so'z yasovchi, fe'l yasovchi: suvsadi  
lug'aviy shakl yasovchi, mayl qo'shimcha: kelsa
  - t – so'z yasovchi, fe'l yasovchi: to'latdi  
lug'aviy shakl hosil qiluvchi: o'qitdi
  - cha – lug'aviy shakl, kichraytirish: kitobcha  
so'z yasovchi, ot yasovchi: qizilcha  
so'z yasovchi, sifat yasovchi: farg'onacha  
so'z yasovchi, ravish yasovchi: o'zicha
  - chan – so'z yasovchi, sifat yasovchi: yashovchan  
so'z yasovchi, ravish yasovchi: maxsichan
  - qa – sintaktik shakl yasovchi, jo'nalish kelishigi: o'qqa  
so'z yasovchi, sifat yasovchi: qisqa  
lug'aviy shakl yasovchi, fe'l shakli: chayqa
  - g'oq – so'z yasovchi, ot yasovchi: to'lg'oq  
so'z yasovchi, sifat yasovchi: toyg'oq
  - be – so'z yasovchi, sifat yasovchi: bevafo  
so'z yasovchi, ravish yasovchi: betinim
  - chak – lug'aviy shakl hosil qiluvchi: kelinchak  
so'z yasovchi, sifat yasovchi: kuyunchak
  - xon – so'z yasovchi, ot yasovchi: g'azalxon  
lug'aviy shakl, erkalash: Dildoraxon
  - lab – so'z yasovchi, ravish yasovchi: ertalab  
lug'aviy shakl hosil qiluvchi: minglab
  - ug – sintaktik shakl, egalik, II-shaxs, birlik: onang  
sintaktik shakl, shaxs-son, II-shaxs, birlik: bording
  - ay – so'z yasovchi, fe'l yasovchi: sarg'ay  
lug'aviy shakl yasovchi: boray

### **Mashq. 1. Qo'shimchalardagi shakldoshlikni izohlang.**

Sayroqi- tutatqi, oqshomgi-sezgi, kechki-tepki, erinchoq-o'yinchoq, chizg'ich-yulg'ich, qishlik-yoshlik, aybdor-mulkdor, yashirin-bo'g'in, yasama-bostirma, chiziq-tiniq, bosqin-sotqin, sezgi-qadimgi, otashin-ekin, qirg'in-so'lg'in, chirik-elak.

### **2. Shakldosh qo'shimchalarni topib, namunadagidek yozing.**

Namuna: Hunar ado bo'lmas boylikdir.

- lik – boylik -ot yasovchi
- lik – ko'rpalik (chit) - sifat yasovchi
- dir – boylikdir - kesimlik shakli

-dir – kuldirdir - lugʻaviy shakl, orttirma nisbat qoʻshimchasi

-dir – borgandir - gumon yuklamasi

1. Ilm kelinchakka oʻxshaydi: u xilvat va pinhoniylilikni yoʻqtiradi. 2. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozonolmaydi. 3. Ishsizlik illatning uyasi. 4. Barvaqt turishga odatlaning, baraka topasiz. 5. Vafoli odamning doʻstlari ham samimiy boʻladi. 6. Bevafo doʻstdan jabrli dushman afzal. 7. Vafosizda hayo yoʻq, hayosizda vafo yoʻq. 8. Qiziga qalamdon sotib oldi. 9. Bilimdon va tadbirkor, raqobatbardosh yoshlar vatanimizning kelajagi sanaladi. 10. Jonimdan oʻzga yori vafodor topmadim, Koʻnglimdin oʻzga mahrami asror topmadim.

3. Shakldosh qoʻshimchalar juftligini ajratib yozing.

Ishchi-xizmatchi, mulkdor-rangdor, suratkash-dilkash, gʻazalxon-otaxon, yigʻin-ekin, toʻlin(oy), ochin-toʻqin, yoʻliq-chopiq, chiziq-siniq, koʻrik-birik, doʻstlik-bolalik, oʻtloq-toshloq, toyloq-boʻtaloq, kuldon-bilimdon, guldun-qadrudon, sanoq-taroq, iliq- taroq, supurgi-bahorgi, maqtanchoq-toychoq, oʻyinchoq- erinchoq, ata-sana, kuyunchak-kelinchak, bilim- kitobim, yigʻin-chaqin, erkin-yashirin, birin-ketin, qishin-yozin, koʻrin-yuvin, oʻyinchoq-maqtanchoq.

### Shakldosh qoʻshimchalar boʻyicha test topshiriqlari

1. Qaysi misollarda soʻz yasovchi qoʻshimcha shakl yasovchi qoʻshimcha bilan omonimlik hosil qilgan? 1.oʻroq, qoʻrroq 2.tepki, kechki 3.gapirma, burma 4.yuzlab, haftalab.

A. 3, 4                      B. 1, 2, 3, 4                      C. 1, 2                      D. 1, 3, 4

2. 1.oʻyinchoq - erinchoq; 2.toychoq -maqtanchoq; 3. chaqin- qishin - yozin; 4.qizcha -erkakcha soʻzlarida omonimlik qanday qoʻshimchalar asosida hosil boʻlyapti?

A. 1, 3 soʻz yasovchi orasida; 2, 4 lugʻaviy shakl hosil qiluvchi hamda soʻz yasovchi orasida

B. Hammasi soʻz yasovchilar orasida

C. Hammasi lugʻaviy shakl hosil qiluvchilar orasida

D. 1, 4 soʻz yasovchi; 2. 3 lugʻaviy shakl hosil qiluvchi

3. -cha, -xon, -lab qoʻshimchalarining qaysi biri ham soʻz yasovchi, ham shakl yasovchi shakldosh qoʻshimcha vazifasini bajarishi mumkin?

A. -cha, -xon                      B. -ch, -lab                      C. -cha, -xon, -lab                      D. -lab

4. -chak, -ar, -oq qoʻshimchalarining qaysi biri ham soʻz yasovchi, ham shakl hosil qiluvchi shakldosh qoʻshimcha vazifasini bajarishi mumkin?

A. -chak, -ar                      B. -oq                      C. -chak, -oq                      D. -ar

5. -in, -choq, -ma, -ay qo'shimchalarining qaysi biri ham so'z yasovchi, ham shakl yasovchi shakldosh qo'shimcha vazifasini bajarishi mumkin?

- A. hammasi  
C. -ma, -ay
- B. -in, -choq  
D. -in, -ma, -choq

6. Qaysi qatorda sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar o'zaro shakldoshlik hosil qilgan?

- A. Kelinchak -kryunchak  
C. Bolang - ko'rding
- B. Bog'lam -onam  
D. Dildoraxon - g'azalxon

7. 1.jizza - ko'tara; 2.kuldon-guldon; 3.uyingiz -ochingiz; 4.paxtakor -fusunkor; 5.ukamiz -onamiz; 6.to'lg'oq -toyg'oq berilgan juftliklarning qaysi birida ot va sifat yasovchi shakldosh qo'shimchalar ishtirok etgan?

- A. 1, 4, 6  
D. Hammasida omonim qo'shimchalar ishtirok etgan
- B. 2, 3, 4, 5  
C. 4, 6

8. Supurgi- yozgi, sezgi- kuzgi. Ushbu so'zlar tarkibidagi -gi qo'shimchasi ma'no hamda vazifasiga ko'ra qanday qo'shimcha?

- A. Ot yasovchi va sifat yasovchi  
B. Ot yasovchi va lug'aviy shakl hosil qiluvchi  
C. So'z yasovchi va sintaktik shakl hosil qiluvchi  
D. Ot yasovchi va ravish yasovchi

9. Qaysi qatorda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha orasida omonimlik (shakldoshlik) munosabati yuzaga kelgan?

- A. Ukang - bording  
C. Toyg'oq -to'lg'oq
- B. Ko'kish -ko'rish  
D. Kitobim -bilim

10. Qaysi qatorda lug'aviy va so'z yasovchi qo'shimcha orasida omonimlik (shakldoshlik) munosabari yuzaga kelgan?

- A. To'plam - boylik  
C. Chorvador - puldor
- B. Minglab - haftalab  
D. Otam - onam

11. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar shakldosh (omonim) qo'llangan qatorni toping.

- A. Gulla -quvla  
C. To'zon -shodon
- B. Erkin -keskin  
D. Sarg'ish -solish

12. 1.terim; 2.bilim; 3.kitobim; 4.ko'zim. Ushbu so'zlar tarkibidagi qo'shimchalardan qaysilaridan omonim qo'shimchalar juftligi hosil qilish mumkin?

- A. Terim -kitobim, bilim -ko'zim  
B. Terim -bilim, ko'zim -kitobim  
C. Bilim -ko'zim, kitobim -ko'zim  
D. Terim -ko'zim, ko'zim -kitobim

13. Omonim qo'shimcha qo'shilganda tovush o'zgarishiga uchraydigan so'zlar qatorini belgilang.

- A. Susay -boray, angla -quvla
- B. Qo'rroq -o'roq, chidam -to'plam
- C. Oqish -sarg'ish, kitobxon -otaxon
- D. Qalamdon -bilimdon, jo'shqin -toshqin

14. Omonim qo'shimcha qo'shilganda tovush o'zgarishi bo'ladigan so'zlar qatorini belgilang. 1.ata; 2.sana; 3.sarg'ay; 4.terim; 5.kelinchak; 6.supurgi.

- A. 1, 2, 3
- B. 3, 4, 5
- C. 2, 3
- D. hammasida tovush o'zgarishi bo'ladi

15. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar shakldosh qo'llangan qatorni belgilang.

- A. Toshqin- jo'shqin- bosqin
- B. Chiziq -siniq- tiniq
- C. Erkakcha -kitobcha -o'zbekcha
- D. Chirik -elak -tilak

16. -li qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin bo'lgan qo'shimchani belgilang. 1.-kor; 2.-dor; 3.-bo; 4.ba-; 5.ser-; 6.no-.

- A. 1, 2, 5
- B. hammasi
- C. 3, 4
- D. 1, 2, 3, 4, 5

17. -chi qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin bo'lgan qo'shimchani belgilang. 1.-shunos; 2.-kash; 3.-kor; 4.-siz; 5.be-; 6.no-.

- A. 1, 2, 3
- B. 1, 2
- C. 1, 2, 4, 5, 6
- D. 1

18. Qaysi qatorda ot va fe'l yasovchi omonim (shakldosh) qo'shimchalar berilgan?

- A. Yo'liq, chiziq
- B. gapirma, burma
- C. qatlama, bo'g'ma
- D. do'sti, bo'yi

19. Berilgan misollarning qaysi birida ot va sifat yasovchi qo'shimchalar orasida shakldoshlik (omonimlik) hodisasi yuz bermagan?

- A. Guldon-bilimdon, chiziq-siniq
- B. Tiniq -yopiq, yumshoq- suvoq
- C. Yopishqoq -botqoq, chirik -elak
- D. Iliq -yaltiroq, yig'iq -o'siq

20. Qaysi qatorda shaxs oti yasovchi qo'shimcha bilan sifat yasovchi omonimlik hosil qilgan?

- A. Zargar -ishvagar
- B. Yoshlik -sirdaryolik
- C. Tepki- dastlabki
- D. Bosqin -sotqin

21. Shaxs oti va sifat yasovchi omonim qo'shimchani belgilang.

- A. -kor, -gar
- B. -chak, -choq
- C. -lik, -k
- D. -qin, -xon

22. Qaysi qatordagi so'zlar tarkibidagi qo'shimchalar o'zaro shakldosh (omonim) qo'shimchalar hisoblanmaydi?

- A. ishla, savala                      B. erkin, yashirin  
C. kelinchak, kuyunchak          D. aytasiz, so'zsiz

23. Turli vazifada kelgan bir xil qo'shimchalar yordamida hosil bo'lgan qatorni belgilang.

- A. Ekin, sog'in, kiyin                B. Ishla, uxla, so'zla  
C. Puldor, sabrli, basavlat        D. Yedir, yegiz, aqli

24. So'z yasovchi qo'shimcha bilan sintaktik shakl hosil qiluvchi orasidagi shakldoshlik (omonimlik) qaysi qatordagi so'zda kuzatiladi?

- A. Tinim, ko'zim                      B. O'tloq, bo'taloq  
C. Kitobing, bording                D. Sarg'ish, yozish

25. So'z yasovchi va shakl yasovchi xususiyatga ega bo'lgan qo'shimchalar qatorini toping.

- A. -ga, -da, -ni                      B. -a, -in, -ir  
C. -liq, -ala, -tir                    D. -sh, -n, -ov

26. -ma, -sa, -moq qo'shimchalarining qaysilari so'z yasovchi vazifasini bajarishi mumkin?

- A. -sa, -moq    B. -ma    C. -ma, -sa, -moq    D. -ma, -moq

27. So'z tarkibidagi -ma qo'shimchasiga urg'u tushsa, u qanday vazifa bajarishi mumkin?

- A. Sifat va ot yasovchi              B. Ot yasovchi  
C. Ot va fe'l yasovchi                D. Fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi

28. Qaysi so'z tarkibida -moq shakldosh (omonim) qo'shimcha sifatida ishlatilgan?

- A. Bormoq    B. solmoq    C. yashamoq    D. chaqmoq

29. Qaysi qatordagi so'zlarda shakldoshlik (omonimlik) so'z yasovchi bilan shakl yasovchi qo'shimchalar doirasida kuzatiladi?

- A. Qoray, so'ray                      B. Bilim, bichim  
C. Ekin, qo'shin                      D. Chiqit, ko'chat

30. Qaysi qatordagi qo'shimchalar ot, sifat, fe'l yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi?

- A. -i, -im    B. -m, -oq    C. -q, -ma    D. -ik, -a

31. -la qo'shimchasi vazifasiga ko'ra qanday qo'shimcha?

- A. Faqat fe'l yasovchi                B. Ot va fe'l yasovchi  
C. Fe'l yasovchi va shakl yasovchi    D. Ot va shakl yasovchi

32. 1.chiziq- tiniq; 2.bosqin-sotqin; 3.yutuq-quruq; 4.qirg'in-so'lg'in; 5.chirik-ko'rik; 6.istak-tilak. Ushbu berilganlardan qaysilarida qo'shimchalar omonimlik hosil qilgan?

A. 1, 2, 3, 4, 5      B. 1, 2, 3, 4      C. 3, 5, 6      D. 1, 2, 4

33. -ik qanday qo'shimcha?

- A. Ot va sifat yasovchi      B. Sifat yasovchi  
C. Ot yasovchi      D. Ot, sifat, fe'l yasovchi

34. Qaysi qatorida qo'shimchalar omonim sanaladi?

- A. Kuyunchak-iymanchak      B. Qisqacha-hozircha  
C. Bo'ychan-uyatchan      D. Tugunchak-erinchak

35. Turli vazifada kelgan shakldosh qo'shimchalar yordamida hosil bo'lgan so'zlar qatorini belgilang.

- A. Tiqin, yig'in, chaqin      B. To'lin, erkin, yashirin  
C. Yig'in, ko'rin, erkin      D. To'kin, yashirin, erkin

36. -loq qo'shimchasi ...

- A. Faqat so'z yasovchi  
B. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi  
C. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi  
D. So'z yasovchi, ot, sifat yasovchi

## QO'SHIMCHALAR MA'NODOSHLIGI

Qo'shimchalarda shakldoshlikdan tashqari ma'nodoshlik hodisasi ham uchraydi. Ba'zan ma'lum bir so'z yasash ma'nosini ifodalash uchun birdan ortiq qo'shimchalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan, -li qo'shimchasi o'rniga -kor, -dor, bo-, ba-, ser- qo'shimchalarini qo'llash mumkin:

Itoatli – itoatkor

Shirali – shirador

Savlatli – basavlat

Sutli – sersut

Obro'li – boobro'

Shuningdek, -chi o'rnida, -shunos, -kash, -kor; -siz o'rnida esa be-, no- old qo'shimchalarni qo'llash kuzatiladi.

Adabiyotchi – adabiyotshunos

Aravachi – aravakash

G'allachi – g'allakor

Hayosiz – behayo

O'rinsiz – noo'rin

Hamma holatlarda ham yuqoridagicha ma'nodoshlik yuzaga kelavermaydi. Masalan, nodavlat tashkilotlari deyish o'rniga bedavlat tashkilotlari deyilsa, uslubiy g'alizlik yuzaga keladi.

Demak, qo'shimchalardagi ma'nodoshlik nutqning muayyan davrdagi me'yorlari asosida yuzaga keladigan til hodisasi sanaladi.



### **Mashq. Ma'nodosh qo'shimchalarni topib, izohlang.**

Ulamolar suhbatida bo'l, sof niyatli kishilarga talpin. Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi, keraksiz so'zni ko'mib tashlaydi. Ilmsiz inson — mevasiz daraxt. Mevali daraxtga tosh otadilar. Obro'li, izzattalab bo'lishni istasang ilm o'rgan. Bilimsiz kishilarni ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi. Sabrli odam uzoq yashaydi, sabrsiz odam o'z boshiga falokat keltiradi. Uning otasi mahallaning tag-tugli, baobro'odamlaridan edi. El g'amiga dardkash bo'lgan inson hech qachon hayotda qoqilmaydi. Dardchil yuraklarga sevinchlar yog'di.

### **Qo'shimchalarda zid ma'nolilik**

Nutqni ravon, ta'sirchan, emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor bo'lib chiqishida zid ma'noli qo'shimchalardan foydalanishning ahamiyati katta. Masalan, -li qo'shimchasi -siz, be- no- qo'shimchalariga nisbatan qarama-qarshi qo'yiladi. Aqlli -aqlsiz, iboli -beibo, o'rinli — noo'rin kabi.

Bunday qo'shimchalar, asosan, sifat so'z turkumida ishlatiladi. Ser-qo'shimchasi be- qo'shimchasiga, ba-qo'shimchasi -siz qo'shimchasiga, bo- qo'shimchasi -siz va be- qo'shimchalariga, -dor qo'shimchasi -siz va be- qo'shimchalariga nisbatan zid ma'nolidir.

Bunday qo'shimchalarni ikki guruhga bolish mumkin: biror belgi-xususiyatga, shakl-shamoyilga yoki rang-tusga egalikni bildiruvchi qo'shimchalar (-li, bo-, ser-, ba-, -dor); shunday belgiga ega emaslikni ifodalovchi qo'shimchalar (-siz, be-, no-).

#### **Masalan:**

Badavlat — davlatsiz

Shirador — beshira, shirasiz

Sero't — o'tsiz

Baobro' — beobro', obro'siz

Ko'ngilli — ko'ngilsiz

Qo'shimchalar shakldoshligi, ma'nodoshligi va zid ma'noliligi nutqni ko'rkam qiladi, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, uning uslubiy jihatdan rang-barang bo'lishini ta'minlaydi, ta'sirchanligini oshiradi.

### **Mashq. Qo'shimchalarga xos bo'lgan xususiyatni aniqlang.**

Odobni beodobdan o'rgan. Bemaza qovunning urug'i ko'p. do'stsiz boshim — tuzsiz oshim. Aqlsiz do'stdan aqlli dushman afzal. Serdaraxt qishloqni suv olmas. Oriyatsiz odamdan qoch. Sababsiz kulgi — yomon tarbiya natijasidir. Mevasiz shox osmonga tirmashur, mevali shox yerga engashur.

## Soʻz yasalishi

Tilning lugʻat tarkibi doimo oʻzgarishda, rivojlanishdadir.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida paydo boʻlgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilda yangi soʻzlar paydo boʻladi.

Yangi soʻzlar ikki xil yoʻl bilan vujudga keladi:

1. Har bir tilning oʻz ichki imkoniyati asosida.
2. Boshqa tillardan soʻz olish asosida.

Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi soʻzlarning hosil qilinishida shu tilda oldin mavjud boʻlgan soʻzga qoʻshimcha qoʻshish usuli katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan uning nomi ingliz tilidan toʻgʻridan toʻgʻri olingan. Endi «kompyuter bilan ishlovchi shaxs» tushunchasini ifodalash ehtiyojini qondirish uchun kompyuter soʻziga oʻzbek tilida oldindan «maʼlum mashgʻulot bilan shugʻullanuvchi shaxs» maʼnosini ifodalovchi -chi qoʻshimchasidan foydalanildi. Kompyuterchi «kompyuter bilan shugʻullanuvchi shaxs» maʼnosini bildirdi.

Tilda oldin mavjud boʻlgan soʻzga maʼlum yasovchi vositalar qoʻshish bilan yangi soʻz hosil qilinishiga soʻz yasalishi hodisasi, shunday hodisani oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimiga esa soʻz yasalishi deyiladi.

Demak, soʻz yasalishi atamasi ikki maʼnoda: a) soʻz yasalishi hodisasi maʼnosida va b) soʻz yasalishi hodisasini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi maʼnosida qoʻllaniladi.

## Soʻz yasalishining tuzilishi

1. Ter, terim, terimchi. 2. Tara, taroq, taroqchi soʻzlariga eʼtibor bersangiz, shuni sezasizki, *birinchi guruh*dagi soʻzlarning hammasida ter soʻzi takrorlanadi, ikkinchi guruhdagilarida esa tara qismi hammasi uchun umumiy sanaladi.

Koʻrinadiki, soʻz yasalishi hodisasi oʻzining ichki tuzilishiga ega boʻladi va ikkita tarkibiy qismni oʻz ichiga oladi: a) *yasashga asos qism*; b) *yasovchi vosita*. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birgalikda yasalmanni tashkil qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan terim soʻzida ter qismi yasashga asos, -im qismi yasovchi vosita, ikkala qismning qoʻshilishidan hosil boʻlgan hosila esa, terim yasalma hisoblanadi. Terimchi soʻzida esa terim yasashga asos qism, -chi yasovchi vosita, terimchi esa yasalma sanaladi.

Soʻzning yasalish tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi. Soʻzning maʼnoli qismlarga boʻlinishi uning morfemik tuzilishi sanaladi.

Soʻzda nechta maʼnoli qism boʻlsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi. Masalan, terimchi uchta maʼnoli qismdan tashkil topgan: *ter-im-chi*. Terimchilar soʻzi esa toʻrtta maʼnoli qismdan iborat: *ter-im-chi-lar*. Terimchilarga soʻzi beshta maʼnoli qismdan iborat: shuning uchun u morfemik tuzilishga koʻra besh qismga boʻlinadi: *ter-im-chi-lar-ga*.

Ko'rinadiki, so'zning morfemik tuzilishi yasovchi qo'shimchalarni ham, sintaktik shakl yasovchi, qo'shimchalarni ham o'z ichiga oladi. So'zning morfemik tuzilishini belgilashda ma'noli qismlarning so'z yasovchi yoki sintaktik shakl yasovchi, ekanligining ahamiyati bo'lmaydi. Qanday ma'noli qismlardan - morfemalardan iborat ekanligi e'tiborga olinadi.


So'zning yasalish tuzilishi esa faqat yasovchilarnigina o'z ichiga oladi. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar so'z yasalishi tuzilishiga kirmaydi.

So'z yasalishi tuzilishi doimo ikkita tarkibiy qismni – yasashga asos va yasovchi vositani o'z ichiga oladi. Agar so'zda birdan ortiq yasovchi qo'shimchalar ishtirok etsa, eng oxirgisi yasovchi vosita sanaladi, oldingilari esa yasashga asos qism tarkibiga kiradi. Masalan, taroqchi so'zida -chi yasovchi vosita, taroq yasashga asos, taroqchi yasalma, taroq so'zida esa, -q yasovchi vosita, tara yasashga asos, taroq yasalma hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'z yasalishi tuzilishida yasashga asos qism bilan yasalma o'rtasida mazmuniy bog'liqlik, mazmuniy davomiylik bo'ladi. Yasalmada yasashga asos davom etadi. Masalan, tepki so'zida yasalma bo'lib, -ki yasovchi vositasida tep so'zidan yasalgan. Tepki yasashga asos qism ma'nosini davom ettiradi: 1. Tepki uchun xoslangan moslama (otish qurolida). 2. Tepki zarbasi (teпки yedi).

## So'z yasalish usullari

So'z yasashga asos qismning qanday xususiyatga ega ekanligiga ko'ra



Masalan, ishla so'zi ish qismiga (yasashga asos) -la qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan; qo'shma korxon, ishlab chiqarish singari so'zlar esa ikki so'zni bir-biriga qo'shish asosida hosil qilingan.

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning mahsuldor usuli qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan so'z yasash affiksatsiyadir. Bu usul tilda mavjud bo'lgan muayyan so'z yasash qoli plari asosida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham so'zlovchi xotirasida so'z yasashning qoli plari mavjud bo'ladi. Masalan, ot+chi «shaxs oti yasovchi» (ishchi, temirchi, suvchi); ot+li «belgining mavjudligi yoki ortiqligi» (suvli, mevali) va boshq. Ana shu so'z yasash qoli plari asosidaturli-tuman yasama so'zlar hosil qilinadi.

So'zlovchi xotirasida, so'z yasash qoli plari va ularning ma'nolari haqida ko'nikmaning mavjud bo'lishi har qanday yangi yasalmaning oson tushunilishiga imkon beradi.

So'z yasash qoli plari vaularning ma'nolari bir xil yasovchi qo'shimchali so'zlarni ma'lum uyalarga birlashtirish asosida aniqlanadi.

*Masalan:*

Traktorchi	yig'la	binokor
Kombaynchi	sizla	g'allakor
Suvchi	qo'lla	paxtakor
Ekskavatorchi	oqla	o'ymakor
Tikuvchi	ishla	sholikor

### Yasama so'z qoliplari

**Affiksatsiya usuli** - morfologik usul, qo'shimcha qo'shish usuli bilan yasama so'z hosil qilinadi:

Asos + so'z yasovchi: ish+la;

Asos + so'z yasovchi+so'z yasovchi: bil+im+don;

Asos+so'z yasovchi+ so'z yasovchi + so'z yasovchi: bil+im+don+lik.

Asos + so'z yasovchi +sintaktik shakl hosil qiluvchi: bil+im+ni;

Asos + so'z yasovchi +lug'aviy shakl +sintaktik shakl: bil+im+lar+ni;

Asos + so'z yasovchi+ lug'aviy shakl +sintaktik shakl +sintaktik shakl: bil+im+lar+im+ni;

Asos + lug'aviy shakl + so'z yasovchi +sintaktik shakl hosil qiluvchi: isi+t+kich+ni; o'ch+ir+g'ich+ni.

**Kompozitsiya usuli** - sintaktik usul, so'zlarni bir-biriga qo'shish usuli, asos+asos= qo'shma so'z: qo'lqop, belbog'.

Asos+ asos+ asos: gul/toji/xo'roz;

Sifat+sifat: olaqizil;

Ot +ot: qo'larra;

Fe'l +fe'l: sotib olmoq

Ot+fe'l: taklif qilmoq

Ot+fe'l: tashrif buyurmoq

Ot+fe'l: ogoh aylamoq

Sifat+fe'l: yaxshi bo'lmoq

Taqlid+fe'l: chirs etmoq

Shu yerda — qo'shma ravish;

Shirinsuxan — qo'shma sifat;

Markaziy Osiyo — qo'shma ot;

Har gal — qo'shma ravish.

### So'z yasalishiga oid mashqlar:

1. Hikmatli gaplarni o'qing, so'zlardagi yasalish hodisalarini aniqlab, ularni izohlang.

## ***Hayo va andisha haqida***

Andishali odam yaxshilik doyasidir.

Hayo bilan andisha — qo'sh ziynat.

Andisha — yaxshilik yo'liga poyandoz.

Andisha — kelajak yo'llarini munavvar etuvchi mash'ala.

Hayosiz o'zining uyalmasligi bilan do'stini uyaltiradi.

Andishali odam iffatli bo'ladi.

Andishali muloqot — ulug'lik belgisi.

Odamning hayo va andishasi — uning ko'rkidir.

Vafo yo'q yerda hayo yashamaydi.

Uyalish — insoniylikdan.

O'rinsiz uyalib, maqsadni ro'yobga chiqara olmaslik — noshudlikdir.

Uyat — boshni yerga egadi.

Andishasizlikning hosili — xijolat.

### **2. Matni o'qing. Yasama so'zlarni aniqlang, ularning yasalish holatlarini izohlang.**

Mening bolalik yillarim Farg'ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolloq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan. O'ttizinchi yillarning o'rtalarida, bolaligimni o'ylaganimda chalakam-chatti tush ko'rganday bo'lar edim: dumli yulduz chiqqan edi; Babar degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o'lmagan edi, shunda otqorovul odamlarga yuzlanib: «Yopiray, bunaqa battol o'g'irini birinchi marta ko'ryapman, men unga o'q uzibman-u, kiprikqoqmadi-ya!» — degan edi.

Zehnimda shunga o'xshash qalqib yurgan xotiralardan tashqari, qalqimasdan toshdek cho'kib yotgan xotiralar hali hisobsiz ekanidan uzoq vaqt bexabar ekanman. Bundan meni Anton Pavlovich Chexov domla xabardor qildilar.

Bundan o'ttiz yil burun men u kishining 22 tomlik to'plamini qo'limdan qo'ymay o'qib chiqdim. Shunda alomat bir hodisa yuz berdi: shu bilan muhtaram ustod menga go'yo muborak ko'zoynaklarini berdilar-u: «Ma, buni taqib, o'z xalqingning o'tmishiga nazar sol!» dedilar.

### **3. So'zlarni qo'shish orqali yasalgan leksik birliklarni aniqlang, ularga tavsif bering.**

Ammamning eri mo'ynado'z-kosib. Bola-chaqalari bo'lmaganidan, uylari biznikiga o'xshash to's-to'polon emas — yig'inchoqli, innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor.

Ovga kirishadigan sohibchanga qushlardan: qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; urishadigan qushlardan: dakan xo'roz, oddiy xo'roz, amirxon xo'roz, kaklik, bedana; sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q...

Gulbahor, gulra'no, gulsapsar, gulhamishabahor, qalampirgul,

namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul- ishqilib sanab tugatib bo'lmaydi. Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydalaridek parvarish qiladilar.

4. *Kompozitsion usul bilan yasalgan so'zlarni namunadagidek ko'chirib yozing.*

Qo'shma otlar: oqqush... Qo'shma ravishlar: har yerda...

Qo'shma sifatlar: sheryurak... Qo'shma fe'llar: borib kelmoq...

Bilaguzuk, olachi por, tamom bo'lmoq, shirinso'z, achchiqtosh, sakkizoyoq, bodomqovoq, oltingugurt, tillaqo'ng'iz, e'lon qilmoq, kamunum, obod aylamoq, olib kelmoq, sarson etmoq, tumanlararo, biryo'la, umumxalq, bir zumda, kinonigoh, sadarayhon, o'zibo'larchilik, tekintomoq, ikkiyoqlama, ta'zim aylamoq, kinoyulduz, olibsotar, g'ayrat qilmoq, kirib chiqmoq, havorang, oshpichoq, kamsuv, biokimyo, umumshahar.

**Topshiriq. 1. Quyidagi gaplarni namunadagidek tahlil qiling.**

U+lar ili+q kun+lar+da bir+pas ish+la+sh+ar harorat past+ay+i+shi bilan o'z ish+lari+ni bajar+ish+ga qaror qil+ish+ardi

Ili+q, ish+la, past+ay – affiksatsiya usuli bilan yasalgan yasama so'z

Birpas, qaror qilishardi – kompozitsiya usuli bilan yasalgan yasama so'z. Jami yuqoridagi gapda 5 ta yasama so'z mavjud.

1. Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo aboddir.

2. Salimjon qo'ylarni birma-bir erinmay sanadi.

3. Boboxon goh o'chirg'ichga, goh bug'doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolasiga qarab hang-mang bolib qolgan edi.

4. Bir bola ulg'aygach, otasi unga ishlab pul topib kelishni buyurdi.

5. Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar bilan hayot go'zal.

6. Aqli o'zini ayblar, aqlsiz do'stini.

2. Yasama so'zlarni aniqlang.

1. Oramizda kasbdoshining yutug'i, obro'sini ko'rolmaydigan, tirnoq ostidan kir izlaydiganlar, oldingizda yasama kulib quvnoq so'zlashib, aslida poyingizni qirqishni o'ylaydiganlar ham bor.

2. Ekinlar sovuqdan qovjirab qolgan edi.

3. Ona sertilakdir, ona serduo.

4. Ular o'zlarining eng nodir asarlarida do'stlikni, vatanparvarlikni, mehr-muhabbatni ulug'laganlar.

5. Adabiyot o'qituvchisi jurnalni stol ustiga qo'ydi-da, dumaloq ko'zoynagini burni uchiga qo'ndirib sinfga razm soldi.

6. Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,

Seni guldek erkalagan chaman uchun.

7. Siz tuzgan ul tuzuklarni o'qib kun-tun,

Tiklanarmiz, yechimlarni topgay tugun.

8. Sababsiz kulgi yomon tarbiya natijasidir.

9. Salim aka bu yerlarni hosildor yerga aylantirish istagidami?
10. Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi.
11. Mahmonlarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko'zlari katta ochildi.
12. Ushbu to'plamda tinchlik haqida she'rlar bor.
13. Sanab sanog'iga yetolmadi.
14. Mehmon jiddiylashdi, nimanidir isbotlamoqchi bo'lganday keskin gapirdi.
15. Barmog'ida sarg'ish, ko'kimtir bo'yoq izlari bor edi.
16. Uning chaqnoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'ychan turishi katta bardoshi, sadoqatini aks ettirib turadi.
17. Daryoga doimiy ravishda irmoqlar kelib qo'shilib turmasa, uning oqimi jo'shqin bo'la olmaydi.
18. Vatan tuyg'usi – bu ozod xalqning munosib farzandi mustaqil mamlakatning fidoyi fuqarosi bo'lmoqqa intilish tuyg'usidir.
19. Rostgo'ylik adabning ustuni, insoniylikning asosidir, sergaplik esa ayovsiz dushmandir.
20. Bilimdon va madaniyatli odam bilan, johil, nodon, savodsiz o'rtasida katta farq bor. Bu dunyoning go'zalligi, boyligi, betakror saxovati, ilm-hunar, san'at tufaylidir.
21. Men uning bu uyda yolg'izlikda qiynalib yashaganligini angladim.
22. Otin bibi qari, jiddiy, sersavlat xotin.
23. Uning jussasi kichkina bo'lsa ham, ko'zlari chaqnoq, qarashlari o'tkir, istarasi issiq, ovozi esa jarangdor edi.
24. Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi.
25. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun xalq mafkuraviy jihatdan qurollangan bo'lishi kerak.
26. Dunyoviy bilimga ega odobli, ilmi, barkamol va shijoatli farzandlarni tarbiyalash shu kunning bosh vazifasidir.
27. Iste'dodli, bilimdon yoshlar o'qish uchun chet ellarga yuborilmoqda.
28. Oqqirov kaslligi g'o'za barglarida uy quradi, tuproqda o'simlik chirindilari orasida qishlaydi.
29. Odobli va adolatli inson qo'lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qilib yurgan odamlarni zavqlantiradi, bir-biriga yaqinlashtirib, do'stlikni mustahkamlaydi.

## **So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari**

So'zlar tuzilishiga ko'ra to'rtta turga bo'linadi:

1. *Sodda so'zlar.*
2. *Qo'shma so'zlar.*

3. *Juft so'zlar.*

4. *Takroriy so'zlar.*

5. *Qisqartma so'zlar.*

Sodda so'zlar faqat bir asosdan tashkil topgan so'zlardir. Masalan: bordi, kelishdi, bolalarga, paxtachilik, jangari, birinchi, mevazor kabi.

Qo'shma so'zlar ikki va undan ortiq o'zaklardan tashkil topgan so'zlardir. Masalan: baqaterak, qo'lqop, gultojxo'roz, imzo chekmoq kabi.

Qo'shma so'zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida aslida ikki va undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan bu birikuv o'z kuchini yo'qotib bir so'zga aylanib qolgan bo'ladi. Shuning uchun qo'shma so'z tarkibida alohida so'z bo'lib ko'ringan qismlar (tosh-baqa, gul-toji-xo'roz, safsar-gul) hozirgi o'zbek tilida so'zlik xususiyatini yo'qotgan, bir so'z tarkibidagi ma'noli qism (morfema)lar sanaladi.

Qo'shma so'zlar bitta so'z bo'lganidan, ularning qismlari orasiga boshqa ma'noli qismni kiritib bo'lmaydi. Masalan, kungaboqar so'zining kunga qismidagi -ga ni boshqa kelishiklar bilan almashtirib bo'lmaydi. Shuningdek, bu qism egalik, ko'plik shakllarini ham olmaydi. Ana shu xususiyati bilan so'z birikmasidan va sodda so'zning ko'makchi fe'lli shaklidan farq qiladi. Solishtiring: uxlab chiqdi- uxlamay chiqdi; kunga qaradi- kun qaradi (so'z birikmasi). Qo'shma so'zlar qismlari birikib bitta so'zning tarkibiga aylangani uchun ular ko'pincha sodda so'zlar bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, o'sal qilmoq- uyaltirmoq, qo'l qo'ymoq – imzolamoq, bayon qilmoq – so'zlamoq; hamxona- xonadosh, kamchiqim – pishiq va boshqalar.

Juft so'zlar ikki so'zni yonma-yon qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan, opa-singil, erta-indin, oldi-qochdi va boshqalar. Bunday so'zlar ko'pincha yangi ma'noga ega bo'ladi va sodda so'zlar bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: qishin-yozin – doimo, erta-kech – hamisha, bugun-erta – yaqinda. Yoki umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi: idish-tovoq (ro'zg'or buyumlari), qalam-daftar (o'quv quroli), ko'ylak – lozim (sarpo) kabi.

Juft so'zlar doimo ikki qismdan iborat bo'ladi. Bu qismlar zid ma'noli so'zlardan (masalan, uzun-qisqa, kun-tun), o'zaro yaqin ma'noli so'zlardan (ota-ona, osh-ovqat, daftar-qalam) tashkil topadi. Sodda so'zlar bilan sinonim bo'lgan juft so'zlarda tasviriylik, ta'kid ma'nosi kuchliroq bo'ladi. Masalan, erta-kech tinim bilmaydi jumlasida doimo tinmaydi jumlasiga nisbatan tasviriylik, ta'sirchanroqdir.

Takroriy so'zlar bir so'zning qo'shaloq kelishidan hosil bo'lgan so'zlardir: tez-tez, shirin-shirin, non-pon, uzun-uzun. Takroriy so'zlar ko'plik, davomiylik, takror kabi ma'nolarni bildiradi: uyum-uyum paxta, gapira-gapira toldim. Bundan tashqari, so'z ma'nosini kuchaytirish (ildam-



ildam), ta'kidlash(sira-sira), umumlashtirish ( yo'l-yo'l ) ma'nolarini ham bildiradi. Takroriy so'zlarda ayni bir so'zning takror holda qo'llanishi natijasida grammatik ma'no ifodalanadi. Ma'noni kuchaytirish uchun ketma-ket keltiriladigan so'zlar takroriy so'zlar hisoblanmaydi: Uyg'a bor dedim, uyg'a!

Juft va takroriy so'zlardan o'rinli foydalanish nutqning ifodaliligini, ta'sirchanligini oshiradi. Yuqoridagi takrorlangan yoki juftlashgan so'zlardan ko'pincha yangi ma'no hosil bo'ladi: nari-beri (tez), uncha-muncha (sal, oz) kabi. Ba'zilar esa so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash, umumlashtirish uchun ishlatiladi: tez-tez (tezlikni kuchaytirish), sira-sira (ma'noni ta'kidlash), tun-kun (umumlashtirish) kabi.

So'z takrorida qismlar turli shaklda bo'ladi, shunga ko'ra ular quyidagi turga bo'linadi:

1. Har ikki qism bir xil shaklda: tog'-tog', tez-tez, ko'p-ko'p kabi.
2. Birinchi qism chiqish kelishigida, ikkinchi qism bosh va jo'nalish kelishigida: ko'pdan-ko'p, naridan-beri, yildan-yil(ga) kabi.
3. Birinchi qism bilan ikkinchi qism o'rtasida ba,-ma qo'shimchalari qo'yiladi: yuzma-yuz, qadam-baqadam, dam-badam, eshikma-eshik.
4. Ikkinchi qismning birinchi tovushi fonetik o'zgarishga uchraydi: osh-posh, ora-chora, odam-podam kabi.

Juft va takroriy so'zlar qismlari o'rtasiga yozuvda chiziqcha qo'yiladi.

Takroriy so'zlar qismlari o'rtasida -ma, ba- qo'shimchalari qo'yiladi -ma birinchi qism oxiriga, ba- esa, ikkinchi qism boshiga qo'shiladi. Masalan, *orqama-ketin*, *dam-badam*, *zo'r-bazo'r*, *zinhor-bazinhor* kabi.

So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ravish yasalganda ular quyidagi so'z turkumlaridan bo'ladi:

1. Ot-ot (qator-sator, tun-kun, yildan-yilga).
2. Sifat-sifat (uzundan uzun, ochiqdan-ochiq).
3. Fe'l-fe'l (uzil-kesil, turib-turib, qo'sha-qo'sha, qo'yarda- qo'ymay, bilinar-bilinmas).
4. Olmosh-ravish (oldinma-keyin, nari-beri).
5. Olmosh-olmosh (o'z-o'zidan, o'z-o'zicha, o'zidan-o'zi).
6. Son-son (birma-bir).
7. Taqlid so'z-taqlid so'z (taqa-taq, shart-shurt) va boshqalar.

## **Qisqartma so'zlar va ularning uslubiy xususiyatlari**

Inson o'z faoliyatida doimo o'z mehnat sarflab, ko'proq natijaga erishishga urinadi. Bunday nutqiy faoliyat natijasida bir qancha barqaror birkmalarni qisqartirish yo'li bilan qisqartma so'zlar vujudga keladi va bu bilan nutqiy ixchamlikka erishiladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti – BMT, Ichki ishlar boshqarmasi – IIB kabi.

Qisqartma soʻzlarga **abbreviatura** ham deyiladi. Darhaqiqat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti deyishdan koʻra, BMT deyish ixchamroq.

Shuni takidlash kerakki, qisqartirish yangi soʻz yasash emas, chunki qisqartirish faqat soʻzning shakliga oid boʻlib, maʼnoga taʼsir etmaydi. Shuning uchun qisqartirish soʻz barqaror soʻz birikmasining, toʻgʻrirogʻi, murakkab nomning qisqartirilgan varianti (koʻrinishi)dir. Qisqartma soʻzlarni ayitishimiz bilan uning toʻliq kengaygan koʻrinishi xotiramizga keladi. Masalan, DAN – Davlat Avtomobil nazorati, DTM – Davlat Test markazi, DTS – Davlat Taʼlim standartlari.

Qisqartirish turli yoʻl bilan amalga oshiriladi.

1. Barqaror soʻz birikmasi qismlarining birinchi tovushlari (yozuvda harflari) asosida: BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), YTRK (Yoshlar Teleradio kompaniyasi) kabi.

2. Barqaror soʻz birikmasi birinchi qismning birinchi boʻgʻini qolgan qismlarning birinchi tovushlari (harflari) asosida: Oʻz ROAK (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi), OʻzAS (Oʻzbekiston Adabiyoti va sanʼati).

3. Barqaror soʻz birikmasi birinchi va ikkinchi qismlarning birinchi boʻgʻini, qolgan qismlarning toʻla koʻrinishi: Oʻzmashxolding.

4. Birinchi qismning birinchi boʻgʻini, qolgan qismlarning toʻla koʻrinishi: Oʻzmevaxolding, Oʻzdunrobita kabi. Mustaqillik davrida Respublikamizning boshqa davlatlar bilan munosabatining kengayishi, yangi qoʻshma korxonalarining koʻpayotganligi tilimizni ham turli-tuman qisqartma soʻzlar bilan boyitmoqda. Masalan, OʻzDEUavto, Oʻzmashxolding, Anteks, Kibo kabi. Qisqartma soʻzlar asosan, yozma nutq uslubiga xosdir. Bunday soʻzlar dastlab yozma nutq uslubida vujudga keladi va nutqimizda faollashib, hamma uchun tushunarli boʻlgandan soʻng keyinchalik ogʻzaki soʻzlashuv uslubiga oʻtadi.

## Morfemika boʻyicha test topshiriqlari

### 1-variant

1. Asosdosh soʻzlar berilgan qatorni toping.

- A. Qiz, qizcha, qizaloq      B. Ish, ishni, ishga, ishda  
C. Oq, oqla, oqish      D. Osh, oshpaz, oshxoʻr

2. Qaysi yasama soʻz tarkibidagi birinchi qoʻshimcha sintaktik shakl, yasovchi qoʻshimcha bilan omonimlik hosil qilgan?

- A. Qaynatma      B. Bilimdon      C. Qoʻrqoqlik      D. Sanoqsiz

3. Qaysi gapda yasama soʻz ishtirok etmagan?

- A. Dor qurilgan maydonda bolalar arqonlarga osilib oʻynashmoqda  
B. Koʻchaning narigi yuzidagi oshxonaga bordik  
C. Endi qayrilish bilmasin bu qanot  
D. Bir umr xonadonga oʻrganib olishga harakat qildi

4. Qaysi gapda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi ta'sirida asos fonetik o'zgarishga uchraydi?

- A. Dor qurilgan maydonda bolalar arqonlarga osilib o'ynashmoqda
- B. Bir umr shu xonadonga o'rganib olishga harakat qildim
- C. Endi qayrilish bilmasin bu qanot
- D. Ota olov va suv girdobidan maydonga chiqa oladigan o'g'li borligidan g'ururlanadi

5. Qaysi qatordagi so'zlar tarkibida 2 ta ko'makchi morfema bor?

- A. Ishchi, gulni
- B. Muzlatkich, isitkichni
- C. Yig'loq, qayrilish
- D. Chaqirdi, qizardi

6. Qaysi so'zda to'rtta k' omakchi morfema bor?

- A. Muzlatkichni
- B. Qizardi
- C. Qayrilishni
- D. Eslaganlik

7. Ahmoqlarning tili og'zida, donolarning tili yuragidadir. Berilgan gapda qanday qo'shimcha qatnashmagan?

- A. So'z yasovchi
- B. Sintaktik shakl yasovchi
- C. Lug'aviy shakl yasovchi
- D. So'z o'zgartiruvchi

8. Qaysi qatordagi gapda kesim tarkibi asosdan, so'z yasovchidan, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalardan tashkil topgan?

- A. Nechun, g'amnok ko'rinasiz?
- B. Seni hur va ozod kuylayman
- C. Saxiylik va oliyjanoblik ulug' fazilat
- D. Ega va kesim gapning grammatik asosidir

9. Bir oz yurishganidan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'radilar. Ushbu gapdagi qo'shimchalar soni va turi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A. 17 ta lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi, so'z yasovchi
- B. 18 ta lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi, so'z yasovchi
- C. 16 ta lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi, so'z yasovchi
- D. 16 ta lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi

10. O'rinsiz uyalib, maqsadni ro'yobga chiqara olmaslik noshudlikdir. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang.

- A. 2 ta: -siz, -lik
- B. 1 ta: -siz
- C. 3 ta: -siz, -lik, -dir
- D. 5 ta: -ni, -ga, -maslik, -siz, -lik

11. Bolalarning beg'tubor qalbi to'lib-toshib oqayotgan daryo kabi jo'shqin. Ushbu gapda nechta sifat yasovchi qo'shimcha mavjud va qaysilar?

- A. 2 ta: be-, -gin
- B. 3 ta: ning, be-, -gin
- C. 1 ta: gin
- D. 4 ta: -i, -yotgan, -gin, be-

12. Xolasinikida qandaydir bir mehmondorchilik o'tkaziladigan bo'ldi-

yu, hammamimiz o'sha yerga otlandik. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi qatorda ma'noli qismlarga to'g'ri ajratilgan?

- A. Xola-si-niki-ga, mehmon -dorchilik
- B. Xola-si+ni-ki-ga, mehmon -dor-chi-lik
- C. Xola - sinikiga, mehmondor-chilik
- D. Barcha javobda to'g'ri ajratilgan

13. Qaysi qatordagi so'zda shakldosh qo'shimchalar qo'llangan?

- A. Gullar, bog'lar
- B. Tonnalab, minglab
- C. Gulla, oqla
- D. Ishsiz, beish

14. Sening tug'ilib o'sgan qishlog'ingdan ayrilmasligingni bilar edim. Berilgan gapdagi tovush tushish hodisasi to'g'ri izohlangan javobni toping.

- A. Bir o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida bir o'rinda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida
- B. Ikki o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida
- C. Bir o'rinda lug'aviy, bir o'rinda sintaktik, bir o'rinda so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida
- D. Bir o'rinda sintaktik shakl yasovchi, bir o'rinda so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida

15. Qaysi qatordagi so'zlar ma'noli qismlarning umumiy tartibi buzilgan hol kuzatilgan?

- A. O'mashmoq
- B. Jo'shqintlik
- C. Eslaganlik
- D. Borayotgan

16. Quyidagi qaysi fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shib so'z yasalganda tovush o'zgarishi yuz bermaydi?

- A. Og'rinoq, ilimoq, qaytmoq
- B. Sanamoq, isimoq, taramoq
- C. Sovimoq, sasimoq, qaynamoq
- D. Qaynamoq, charchamoq, bo'yamoq

17. Qaysi qatordagi yasovchi qo'shimcha ta'sirida fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, tovush almashadi?

- A. Tuproq, o'rtoq
- B. Taroq, bilak
- C. To'lg'oq, qistov
- D. Qayroq, chanqoq

18. So'z yasash jarayonida so'z yasash asosiga qaysi yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda asos qismining tovush tarkibida o'zgarish ro'y beradi?

- A. -illa, -a, -q, -qi, -ar, -ay, -la
- B. -a, -q, -qi, -ay, -oq, -sa
- C. -a, -qi, -q, ay, -y
- D. -illa, -im, -a, -qi, -oq

19. Rostgo'ylik adabning ustuni insoniylikning asosidir. Sergaplik esa, ayovsiz dushmandir. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha bor?

- A. 9 ta
- B. 8 ta
- C. 5 ta
- D. 6 ta

20. Qaysi javobda -choq qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan?

- A. O'yinchoq, ovunchoq      B. Maqtanchoq, erinchoq  
C. Toychoq, maqtanchoq      D. O'yichoq, toychoq

21. Qaysi qatordagi so'zlar 2 xil so'z turkumi vazifasida kelishi mumkin?

- A. Bo'yi, o'qish      B. Guli, sinfim  
C. Sendek, menman      D. Davomi, tinch

22. Ot va sifat yasovchi shakldosh qo'shimchali so'zlar qaysi qatorda berilgan?

- A. Kelinchak, erinchak      B. Erinchak, kuyunchak  
C. Toychoq, o'yinchoq      D. O'yinchoq, maqtanchoq

23. O'ynatdim so'zida nechta ko'makchi morfema bor?

- A. 1      B. 2      C. 3      D. 4

24. Qaysi javobda tub so'z berilgan?

- A. Kunduzi, suyuq      B. Oqla, achchiq  
C. Issiq, sovuq      D. Tonnalab, ishlab

25. Qaysi qatorda sodda yasama so'z berilgan?

- A. Yashang      B. Belkurak      C. Ishlarimizdan      D. Tishkovlagich

26. Qaysi qatorda tub so'z berilmagan?

- A. Yamoq      B. Silliq      C. So'lim      D. Gulim

27. Qaysi qatorda so'z yasovchi qo'shimcha sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qilgan?

- A. Bolang, bording      B. To'plam, bordim  
C. Bilim, chekim      D. Bolam, ko'zim

28. Adabiyot o'qituvchisi jurnalni stol ustiga qo'ydi-da dumaloq ko'zoynagini burni uchiga qo'ndirib, sinfga razm soldi. Ushbu gapdagi yasama so'zlar nechta so'z turkumiga mansub?

- A. 1 ta      B. 4 ta      C. 3 ta      D. 2 ta

29. Qaysi qatordasos+so'z yasovchi qoli pida yasalgan so'zlar berilgan?

- A. Bo'yoqchi, tilakdosh, epchillik      B. Sanoqsiz, ilmsizlikni, ko'kimtir  
C. Yashang, yashovchan, yashadi      D. Ko'paysin, ozaymoq, ilmoqni

30. Lekin ko'ngilchan ona: «O'g'lim qo'lini qavartirib qiyalib yurmasin» deya eridan o'g'rincha unga pul berdi. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha bor?

- A. 1 ta      B. 2 ta      C. 3 ta      D. 4 ta

31. Suvoqchilarni so'zida nechta ko'makchi morfema bor?

- A. 3 ta      B. 4 ta      C. 2 ta      D. 5 ta

32. Mag'lubni tepib o'tmak mardlik emas. Ushbu gapda nechta lug'aviy shakl yasovchi bor?

- A. 1 ta    E. 3 ta    C. 2 ta    D. 4 ta

33. Qaysi javobda tarkibida asos+so'z yasovchi+so'zyasovchi+lug'aviy shakl yasovchi shaklidagi so'z berilgan?

- A. Kitoblarim    B. Bilimdonlar    C. Yigitcha    D. Ko'pchilikdan

34. Siz tuzgan ul tuzuklarni o'qib kun-tun

Tiklanarmiz, yechimlarni topgay tugun. (*Zamira Ro'ziyeva*). Berilgan parchada nechta so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?

- A. 4 ta    B. 2 ta    C. 3 ta    D. 5 ta

35. Kamolotga erishgan vazir ul kim, davlat muammolarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan asli-nasli tozaligini ko'rsatib ajoyib tarzda ko'rsatadi. Ushbu gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalami belgilang.

- A. 5 ta    B. 4 ta    C. 3 ta    D. 2 ta

36. Qaysi qatordagi so'zlarda yasovchi qo'shimcha ta'sirida fonetik o'zgarishga uchragan so'z mavjud bo'lib, ularga egalik qo'shimchasi qo'shilsa tovush almashadi?

- A. Tuproq, o'rtoq    B. Taroq, bilak  
C. To'lg'oq, qistov    D. Qayroq, chanqoq

## 2-variant

1. 1. terim (ot) 2. olma (fe'l) 3. gapirma(fe'l) 4. olma (ot,) 5. qaynatma (sifat) 6. tortma(ot). Berilganlarning qaysilarida urg'u so'z yasovchiga tushadi?

- A. 1.2.4.5    B. 2.3.4    C. 1.3.5.6    D. 3.4.5.6

2. Berilgan so'zlarni tegishli guruhlariga ajrating. 1) sassiqpopishak; 2) sovuqqonlik; 3) bilimdonlik; 4) sachratqi; 5) ko'paytma; 6) tinchitmoq.

a) 2 morfemadan iborat so'z

b) 3 morfemadan iborat so'z

s) 4 morfemadan iborat so'z

d) 5 morfemadan iborat so'z

A. 1-a, 2.4.5- b, 3-d, 6-s    B. 1-a, 4.5-b, 3-d, 6-s

C. 1.4-b, 2.3.5-s, 6-d    D. 1.4-a, 2.5-b, 3.6-s

3. Faqat yasama so'zlarni belgilang.

A. gilyohlarni, birinchi, kuzda    B. dorishunos, adolatli, bog'bon

C. ajratildi, bag'riga, mehnatdan    D. topilgan, mevazor, sezgir

4. -choq, -loq, -ingiz, -dan, -ning, -gani qo'shimchalarini ajrating.

A. -choq, -loq- so'z yasovchi; -dan, -ning - sintaktik shakl hosil qiluvchi, -gani - lug'aviy shakl

B. -choq, -loq - shakldosh qo'shimchalar bo'lib, so'z yasovchi hamda lug'aviy shakl hosil qiluvchi; -dan, -ning -sintaktik shakl hosil qiluvchi; -gani -lug'aviy shakl hosil qiluvchi

C. barchasi lug'aviy shakl hosil qiluvchi

D. barchasi so'z yasovchi hamda lug'aviy shakl hosil qiluvchi

5. -imtir, -tadan, -guncha, -lar qo'shimchalari vazifasiga ko'ra qanday qo'shimchalar?

A. So'z yasovchi

B. Lug'aviy shakl

C. Sintaktik shakl hosil qiluvchi

D. So'z yasovchi hamda lug'aviy shakl hosil qiluvchi

6. Asos+so'z yasovchi tarkibli so'zni belgilang.

A. Ovoragarchilik, mo'lichilik

B. Ipakchilikdan, siyohdoni

D. Oshpazlarga, kitobxonlardan

D. Kutubxonaga, yigitcha

7. Narsa oti yasovchi qo'shimchalar qaysi so'z turkumlaridan ot yasaydi?

A. Fe'l, ot, sifat

B. Fe'l, taqlid, sifat

C. Fe'l, ot, taqlid, sifat

D. Fe'l, ot, taqlid

8. Ushbu gapdagi yasama so'zni belgilang. Boyliging ko'p bo'lmasa ham, biliming ko'p bo'lsin.

A. 2      B. 1      C. 3      D. 4

9. Suvchi va suvga so'zlaridagi qo'shimchalarning vazifalaridagi farqni izohlang.

A. Suvchi — -chi so'z yasovchi, suvga - sintaktik shakl yasovchi

B. -chi -so'z yasovchi, -ga -lug'aviy shakl hosil qiluvchi

C. -ga - so'z yasovchi, -chi - lug'aviy shakl hosil qiluvchi

D. Har ikkalasi so'z yasovchilar

10. Asosdosh so'zlarni belgilang.

A. Ko'ngilli, ko'ngilsiz, ko'ngilchan

B. Ko'nglim, ko'ngling, ko'ngli

C. Ko'ngillari, ko'nglingiz, ko'ngil

D. Ko'nglini, ko'nglidan, ko'ngilni

11. Qaysi so'z tarkibida ikkita so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?

A. Shildiroq

B. Suvqochilik

C. Qavariqroq

D. A va B

12. -la qo'shimchasi qanday so'zlarga qo'shilganda shakl yasovchi vazifasida bo'ladi?

A. Taqlid so'zlarga

B. Olmoshlarga

C. Fe'llarga

D. Sifatlarga

13. -la qo'shimchasi qaysi so'zga qo'shilganda shakl yasovchi vazifasida bo'ladi?

A. Dod                      B. sen                      S. oq                      D. sava

14. Qaysi qatordagi gaplar tarkibida shakldosh qo'shimchalar ishtirok etgan?

A. Barcha javoblarda shakldosh qo'shimchalar ishtirok etgan

B. Qiziga siyohdon sotib oldi. Bilimdon va tadbirkor yoshlar vatanimizning kelajagi sanaladi.

C. Ilm kelinchakka o'xshaydi: u xilvat va pinhoniylitni yoqtiradi. Dangasa, erinchak odamlar ilm yo'lida hech vaqt muvaffaqiyat qozonolmaydi.

D. Ilmsizlik -illatlarning uyasi. Barvaqt turishga odatlansangiz, baraka topasiz.

15. Andishali muloqot- ulug'lik belgisi. Ushbu gapdagi qo'shimchalarni izohlang.

A. 2 ta so'z yasovchi, 1 ta sintaktik shakl hosil qiluvchi

B. 2 ta so'z yasovchi

C. 1 ta so'z yasovchi, 1 ta sintaktik shakl hosil qiluvchi

D. 1 ta sintaktik shakl hosil qiluvchi

16. Vafo yo'q yerda hayo yashamaydi. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?

A. 1 ta      B. 2 ta      C. So'z yasovchi qo'shimcha yo'q      D. 4 ta

17. Andishasizlikning hosili- hijolat. Ushbu gapdagi qo'shimchalar tarkibini aniqlang.

A. 2 ta so'z yasovchi, 2 ta sintaktik shakl hosil qiluvchi

B. 3 ta so'z yasovchi

C. 4 ta so'z yasovchi

D. 1 ta so'z yasovchi, 2 ta sintaktik shakl hosil qiluvchi

18. Majburan qilingan yaxshilikning qimmatini yo'q. Ushbu gapda nechta yasama so'z mavjud?

A. 2 ta      B. 3 ta      C. 1 ta      D. Yasama so'z mavjud emas

19. Saodat soatini soatsozga sozlatdi. Ushbu gapda qanday so'z yasovchi qo'shimchalar mavjud?

A. Ot yasovchi va fe'l yasovchi

B. Faqat ot yasovchi

C. Faqat fe'l yasovchi

D. Sifat, ot, fe'l yasovchi

20. Ikki ta tovush o'zgarishiga uchragan so'z qatnashgan gapni belgilang.

A. Kuz kelishi bilan daraxtlarning barglari sarg'ayib, oltin rangini ola boshladi

B. Jo'jani kuzda sanaydilar.

C. Yer kabi dumaloq, o'zi esa o'yinchoq

D. Sanab sanog'iga yetolmayapman



21. Qaysi qatordagi yasama soʻzda soʻz yasovchi shakl yasovchidan soʻng joylashgan?

- A. Yigʻloqi      B. Koʻpaymoq      C. Boʻzarmoq      D. Oʻchirgʻich

22. Qalbaki doʻst ochiq dushmanidan yomon. Ushbu gapda nechta soʻz yasovchi qoʻshimcha ishtirok etgan?

- A. 1 ta      B. 2 ta      C. 3 ta      D. Soʻz yasovchi berilmagan

23. Asos+soʻz yasovchi+soʻz yasovchi qoʻshimcha shaklidagi soʻzlar qatorini toping.

- A. Qizarmoq, pasaymoq, yigʻloqi      B. Pishloq, sayramoq, koʻpaymoq  
C. Yashar, tinchi, gapir      D. Elchilik, oʻynoqi, qiynoq

24. Davr qiynoqlari oʻtkinchi- hali hamma narsa oldinda. Ushbu gapda birgina nutq tovushidan iborat qoʻshimchalar miqdorini aniqlang.

- A. 1 ta      B. 3 ta      C. 2 ta      D. 4 ta

25. Qaysi qatordagi ravishdosh tarkibida soʻz yasovchi qoʻshimcha mavjud?

- A. Sanab, aytib, yopib      B. Hoʻplab, ishlab, foydalanib  
C. Chiqmoq, atamoq, toʻplamoq      D. Aytish, quyuv, qarov

26. Qaysi qatordagi gapda soʻz yasovchi qoʻshimcha qatnashmagan?

- A. Asadbek ana shu anglamaganlardan biri edi  
B. Haq doʻstlaring koʻngillarini aslo ranjitma  
C. Yo yaxshi gaplardan gapir, yo sukut saqla  
D. Olimning yonidan ayrilma

27. Faxrlanishga soʻzidagi qoʻshimchalarning toʻgʻri izohini toping.

- A. 1 ta soʻz yasovchi, 1 ta lugʻaviy shakl yasovchi, 1 ta sintaktik shakl yasovchi  
B. 1 ta sintaktik shakl yasovchi, 2 ta lugʻaviy shakl yasovchi  
C. 3 ta lugʻaviy shakl yasovchi  
D. 2 ta sintaktik shakl yasovchi, 1 ta soʻz yasovchi

28. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan soʻzlar qatorini belgilang.

- A. Bir yoʻla, moʻynadoʻz, tokzor  
B. Kamunum, doʻstlari, sogʻlomlashtirish  
C. Borib kelmoq, sakkizoyoq, sheryurak  
D. Biokimy, muomalalarimizni, tindirmoq

29. Qaysi qatorda kompozitsiya usuli bilan yasalgan soʻz mavjud?

- A. Daraxt ildizi bilan kuchli, inson- doʻstlari bilan.  
B. Xushyorlik - mustahkam qoʻrgʻon  
C. U choyxona yonidan oʻtib borarkan, ichkaridan taralayotgan kuy tovushlarini eshitib, toʻxtab qoldi  
D. Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs kabobpaz kabob olib keldi

30. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma otlarni belgilang.  
 A. Oqqush, har yerda, sheryurak, shirins'o'z  
 B. Sakkizoyoq, oltingugurt, kinoyulduz  
 C. Kamsuv, bilaguzuk, achchiqtosh  
 D. Tumanlararo, tekintomoq, tillaqo'ng'iz
31. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma sifatlarni belgilang.  
 A. Olachipor, shirins'o'z, havorang  
 B. Achchiqtosh, ikkiyoqlama, sakkizoyoq  
 C. Tillaqo'ng'iz, oltingugurt, tumanlararo  
 D. Biryo'la, umumxalq, bodomqovoq
32. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma ravishlarni belgilang.  
 A. Qo'qqisdan, kirib chiqmoq, biokimyo  
 C. Ikkiyoqlama, kamunum, kamsuv  
 D. Olibstotar, kechagina, bir necha  
 D. Har yerda, biryo'la, birzumda
33. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma fe'llarni belgilang.  
 A. Oldi-berdi, yozdi-oldi, suhbatlashib turmoq  
 B. Gupullamoq, yaqinlashmadi, gapirganda  
 C. Obod aylamoq, borib kelmoq, sarson etmoq  
 D. Silab qo'ydi, sirg'alib ketadi, yog'a boshladi
34. Qaysi qatorda yasama otlar berilgan?  
 A. Gulnoraxon, bolaginam      B. Gazetxon, g'azalxon  
 C. To'plam, kitobim              D. Xo'randa, ishbilarmon
35. Inson butun bir olam, faqat unda asosiy tuyg'u olijanoblik bo'lsa bas. Ushbu gapda qaysi so'z turkumiga oid yasama so'z berilgan?  
 A. Sifat, ot                              B. Ot, sifat, fe'l  
 C. Ot, sifat, ravish                    D. Faqat sifat
36. Quyidagi gapdagi qo'shimchalar turi va miqdorini toping.  
 Vatan tuyg'usi – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatning fidoyi fuqarosi bo'lmoqqa intilish tuyg'usidir.  
 A. 3 ta so'z yasovchi, 2 ta lug'aviy shakl yasovchi, 8 ta sintaktik shakl yasovchi  
 B. 1 ta so'z yasovchi, 1 ta lug'aviy shakl yasovchi, 6 ta sintaktik shakl yasovchi  
 C. 2 ta so'z yasovchi, 2 ta lug'aviy shakl yasovchi, 7 ta sintaktik shakl yasovchi  
 D. 2 ta so'z yasovchi, 2 ta lug'aviy shakl yasovchi, 8 ta sintaktik shakl yasovchi

---

---

## GRAMMATIKA

**Grammatika** (*grekcha grammatika «harf o'qish va yozish san'ati», «harf»*) atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishi va bu qurilishni o'rganadigan tilshunoslikning bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Demak, grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi.

### Morfologiya

**Morfologiya** *grekcha morfhos «shakl», logos «ta'limot»* so'zlaridan olingan bo'lib, so'z shakllari haqidagi ta'limotdir.

Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi ham morfologiya bo'limi ham so'z haqida bahs yuritadi, lekin bu ikki bo'lim so'zning qaysi tomoniga e'tibor qaratishi bilan bir-biridan farq qiladi. Leksikologiya leksik so'z (leksema)larni, ularning atash ma'nolarini o'rgansa, morfologiya so'zning grammatik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarni, ya'ni so'zning morfologik shakllarini o'rganadi. Masalan,

*leksikologiya*

kitob+lar+imiz+ni

*morfologiya*


kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobdan, kitobda shakllari bir so'zning (kitob so'zining) turli shakllari hisoblanadi. Bu so'z shakllarining hammasida takrorlanayotgan kitob qismi ikkita ma'noga ega. Birinchi ma'nosi o'qish uchun mo'ljallangan, muqovali, turli fanlarga oid va boshqa mazmundagi bilim manbaini bildiradi. Bu kitob leksemasining (leksik so'zning) atash ma'nosi sanaladi. Leksik so'zning atash ma'nolari leksikologiyada o'rganiladi. Shu bilan birgalikda kitob so'zi daftar, qalam so'zlari singari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma'nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo'limida o'rganiladi. Shunday qilib, morfologiya so'z turkumlari va ularning grammatik shakllari bo'yicha bahs yuritadi. Ko'rinadiki, so'zning leksik ma'nosi bilan ularning predmetlik, belgi, harakat singari ma'nolarini ifodalovchi umumiy grammatik ma'nolari o'rtasida uzviy aloqa mavjuddir. So'zlarni turkumlarga ajratishda so'zlarning leksik ma'nosi ustiga qo'yilgan umumiy grammatik (predmet, belgi-xususiyat, harakat-holat kabi) ma'no asosiy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda morfologiya bilan sintaksis o'rtasida ham chambarchas bog'liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so'z shakli gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifa bajaradi, ma'lum gap bo'lagi vazifasida keladi. Grammatik shakllar gap tarkibidagi bo'laklarni bir-biriga bog'lovchi yoki gap bo'lagiga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tilshunoslikning leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud.

## So'z turumlari

Tildagi so'zlarning ma'no va grammatik shakllari jihatdan o'xshashliklariga ko'ra guruhlarga ajratish so'z turumlari deyiladi. So'zlarni turumlarga ajratishda dastlab, ma'no ifodasi, morfologik xususiyatlari va gapdagi vazifasi hisobga olinadi. So'z turumlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:



**Mustaqil so'z turumlari** lug'aviy ma'noga ega bo'lib, morfologik jihatdan o'zgaradigan, gap ichida ma'lum sintaktik vazifa bajaradigan so'zlardir. Bu guruhga ot, sifat, son, o'limosh, fe'l, ravish kiradi.

**Ot** – predmetlik tushunchasini bildiruvchi so'zlar: qalam, stol, ko'cha, Samarqand.

**Sifat** – predmet belgisini bildiradi: qora, katta, yuksak, nordon.

**Son** – predmetning sonini (sanog'ini) bildiradi: bir, o'ttiz, yuz, million.

**Olmosh** – ot, sifat, son singari so'zlar o'rnida qo'llanuvchi, umumlashtiruvchi xarakteriga ega bo'lgan so'zlar: sen, jami, qanday, kim, qaysi...

**Fe'l** – harakat-holat bildiradi: kel, ket, yoz, chiz...

**Ravish** – harakat belgisini bildiradi: mo'l, kam, bugun, erta, to'satdan va hokazo.

2. **Yordamchi so'zlar** yakka holda ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi bo'la olmaydigan, grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlardir. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so'zga va gapning mazmuniga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shadi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kiradi.

**Ko'makchi** – maqsad, sabab, vaqt, makon kabi munosabatlar bildiruvchi so'zlardir: kabi, uchun, tomon.

**Bog'lovchi** – gaplar yoki uyushiq bo'laklarni bog'lovchi, ular orasidagi munosabatlarni ifodalovchi yordamchi so'zlar: va, hamda, lekin, chunki...

**Yuklama** – ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadigan so'zlar: nahotki, axir, hatto, xuddi.

3. **Alohida so'z turkumi (oraliqdagi so'zlar)** lug'aviy ma'no bildirmaydigan, lekin ba'zan gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zlardir. Bularga modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar kiradi.

**Modal so'z** – so'zlovchining o'z fikriga munosabatini bildiruvchi so'zlar: afsuski, shubhasiz, darhaqiqat, albatta.


**Undov so'z** – his-tuyg'u, buyruq-xitob, chaqirish kabilarni ifodalaydigan so'zlar: eh, oh, barakalla, ofarin.

**Taqlid so'zlar** – turli tovushlar, ko'rinish va holatlarga taqlidni bildiradigan so'zlar: lov-lov, taq, shaq...

## OT

**Ot** – shaxs, narsa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, *kim? nima? qayer?* so'roqlariga javob bo'ladi.

Kim? so'rog'i shaxsni bildiruvchi so'zlarga, nima? so'rog'i narsa-buyumni bildiruvchi so'zlarga, qayer? so'rog'i joy nomini bildiruvchi so'zlarga beriladi. Shunga ko'ra otlar shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rin-joy otlariga bo'linadi.



Faqat bir asosdan tarkib topgan otlar **sodda ot** hisoblanadi. *Masalan:* qalpoq, olma, daftar, gul, suv, tuproq.

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan otlar **qo'shma ot** sanaladi. *Masalan:* bilaguzuk, toshbaqa, suvilon, gultojxo'roz.

Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlarga **juft otlar** deyiladi. *Masalan:* aka-uka, opa-singil, ota-ona, ko'rpa-to'shak.

Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar **takroriy otlar** sanaladi. *Masalan:* osh-posh, un-pun, ovqat-povqat, tuz-puz.

## Qo'shma otlar

Quyidagi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar har doim qo'shib yoziladi: toshbaqa, qorbo'ron, qizilishton, ko'ksulton, suvilon, kungaboqar, o'rinbosar. Ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo'lgan atoqli otlar qo'shib yoziladi: Uchqo'rg'on, Qorbobo, Surxondaryo, Oltiariq. Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgan qo'shma otlar esa, ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Oltin O'rda, Quyi Chirchiq.

Juft va takroriy otlar qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

## Atoqli otlarning turlari va imlosi

Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo'yilgan nomlar atoqli otlar sanaladi. Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko'ra shaxs nomlari va joy nomlariga bo'linadi. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar shaxs nomlari sanaladi. Familiyalar shaxs ismidan so'ng otasining ismini qoldirish (Usmon Azim), otasining ismiga -ov(a), -yev(a) qo'shimchasini qo'shish (Abdulla Oripov) bilan ifodalanadi.

*Quyidagi atoqli otlar imlosini esda saqlang:*

Sog'liqni saqlash vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Majlisi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent traktor zavodi, «Bahor» konsert zali, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Oliy xo'jalik sudi, Buxoro viloyati hokimligi, «Damas» avtomashinasi, «O'qituvchi» nashriyoti, «Umid» firmasi, «Istiqbol» fermer xo'jaligi, «Malika» ishlab chiqarish birlashmasi, «Nuroni» jamg'armasi, Samarqand chinni zavodi, Quvasoy sement zavodi, «Turkiston» saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Guliston davlat universiteti, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, «Qo'shchinor» mas'uliyati cheklangan ishlab chiqarish birlashmasi, Bulung'ur tumani hokimligi, Urganch davlat universiteti, «Lazzat» oshxonasi, «Afrosiyob» mehmonxonasi, Toshkent agrar universiteti.

## **Joy nomlari va ularning imlosi**

Ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar joy nomlari hisoblanadi. Mamlakat, o'lka nomlari qo'shma so'z shaklida bo'lganda tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi.

Tarkibida bo'yi, orti, oldi so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi.

## **Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari**

Xalqaro tashkilot, oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi. Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi.

Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlar, transport vositalari kabilarga berilgan shartli nomlar qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan (birikmali holatlarda faqat birinchi so'z) yoziladi: «Turkiston» (saroy), «Sharq gullari» (firma).

## **Tarixiy sana va bayram nomlari**

Tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi. Masalan: Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, Qurbon hayiti.

## **Suv havzalari va inshootlari nomlari**

Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi. Masalan: Sirdaryo, Zolariq, Qoradaryo o'zani, Nuqrasoy.

## **Turdosh otlar**

*Bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar turdosh otlar sanaladi.*

## **Turdosh ot turlari:**

### **1. Shaxs oti**

Shaxs otlari kim? so'rog'iga javob bo'lib, shaxslarning yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko'ra nomlab keladi.

## **Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi**

Shaxs otlarining bir guruhi asosga -chi, -soz, -kor, -xon, -dosh, -boz (-voz), -vchi, -lik qo'shimchalarini qo'shish yordamida yasaladi. -vchi qo'shimchasi -i unlisi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda -i unlisi -u shaklida, -a bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda -a unlisi -o shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Undosh bilan tugagan fe'llarga -uvchi shaklida qo'shiladi: quruvchi, suzuvchi.

-lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlarga qo'shilgan -lik qo'shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi.

### **2. Narsa oti**

*Nima?* so'rog'iga javob bo'lib, jonli va jonsiz narsalarni bildirgan otlarga narsa otlari deyiladi.

Narsa otlarini yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi

Narsa otlari -gich (-qich, -kich, -g'ich), -gi (-qi, -ki, -g'i), -k, -q, -oq, (i)ndi, -ma, -don va boshqa qo'shimchalar yordamida yasaladi. -q qo'shimchasi -a unlisi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda -a unlisi -o shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: bo'ya+q=bo'yoq kabi.

### **3. O'rin-joy oti**

*Qayer?* so'rog'iga javob bo'lib, o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi otlar *o'rin-joy otlari sanaladi*. Bunday otlar o'rin-joy ma'nosi bilan birga narsalik ma'nosini ham bildiradi, shuning uchun qayer? so'rog'i bilan *birga nima?* so'rog'ini olishi ham mumkin. -zor, -loq, -iston, -goh, -xona qo'shimchalari o'rin-joy otlarini yasaydi.

### **4. Faoliyat- jarayon oti**

Shaxs va narsalarning faoliyat jarayonini nomlovchi otlarga faoliyat-jarayon otlari deyiladi.

Faoliyat-jarayon otlari -lik, -chilik, -garchilik, -(i)m, -(i)k (-q) qo'shimchalari yordamida yasaladi: ezmalik, g'allachilik, serobgarchilik, terim, unum va hokazo.

### **Aniq va mavhum otlar**

Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lgan narsalarni bildirgan otlarga aniq otlar deyiladi: daftar, deraza, tanbur, xona va hokazo.



Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlarga mavhum otlar deyiladi: xayol, dev, aql, o'y, go'zallik va hokazo.

Aniq otlar birlik va ko'plik shaklda qo'llana oladi, ammo mavhum otlar ko'plik shaklda qo'llanganda, ko'plik ma'nosi emas, balki ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolari ifodalanadi.

Mavhum otlar -lik, -ch, -inch, -at, -ot qo'shimchalari yordamida yasaladi. Masalan: ovunch, tinchlik, xurramlik, ahillik, yupanch, yaxshilik, o'kinch.

## Otlarning lug'aviy shakllari

### Son shakllari

Otlarning -lar qo'shimchasini olgan shakli ko'plik shakli, -lar qo'shimchasisiz shakli esa birlik shakli sanaladi. Otlarning ko'plik shakli ko'plik ma'nosidan tashqari hurmat, umumlashtirish, kuchaytirish ma'nolarini ham ifodalashi mumkin.

#### Bilib oling!

*Otlar son-miqdor ma'nosiga ega va u birlik yoki ko'plik shakllari orqali ifodalanadi. Birluk nol ko'rsatkichga (maxsus grammatik ko'rsatkichi yo'q) ega.*

Ko'plik -lar qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Bunga **morfologik yo'l** deyiladi. Masalan, uylar, do'stlar, binolar. Shuningdek, birlikdagi ot oldidan birdan yuqori bo'lgan sanoq sonlarni yoki daraja-miqdor ravishlarini; ko'p, ancha kabi so'zlarni qo'shish yordamida ham ko'plikni ifodalash mumkin. Bunga esa **sintaktik yo'l** deyiladi. Masalan, ko'p odamlar, yigirmata maktab, ancha yillar kabi Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plik shakli sanaluvchi -lar otlarga qo'shilib doimo ko'plikni bildiravermaydi. U birlik ma'nosini o'zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda -lar hurmat, tasviriylkni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan, ko'zlarimga ishonmayman («O'tgan kunlar») Bu jumladagi ko'zlarimga so'zini birlik shaklga - ko'zimga shakliga almashtirib ko'ring. Ikkinchi holat bilan birinchi holat bir xil ma'noni — birlik ma'nosini (bir kishining ko'zini) ifodalasa ham, lekin bu ikki holat ta'sirchanlik, ifodalilik belgisiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilar bor, ikkinchi holatda esa yo'q. Yana solishtiring:

Bolalarning shovqinidan boshlarim og'rib ketdi — bolalarning shovqinidan boshim og'rib ketdi. Har ikki holatda ham bir kishining boshi haqida fikr yuritiladi, lekin birinchi gapda boshlarim so'zidagi -lar ko'plikni bildirmasdan, bosh so'zining ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajaradi. Bunday ma'no esa ikkinchi holatda yo'q.

Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklda

kelsa ham, aslida jamlikni bildiradi. Masalan, Ko'chaga qum to'kilgan yoki Ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam.

Bunday so'zlar ko'plik shaklini olganda ko'pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. Suvlar (gazli suv, mineral suv kabi); bozordagi joylar unlar. Ba'zan tasviriylik, ifodalilikni kuchaytiradi: ko'z yoshini artdi - ko'z yoshlarini artdi.

Ko'plik atoqli otlarga qo'shilganda o'zi qo'shilgan otning ko'pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligi yoki geografik nomlarga qo'shilganda shu geografik nomning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligini bildiradi: Olimjonlar kelishdi. (bir nechta Olimjon emas, Olimjon va uning yaqinlari); Mirzacho'llar obod bo'ldi (Mirzacho'l va unga yaqin joylar).

Qarindoshlik bildiruvchi so'zlarga ko'plik shakli qo'shib hurmat ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtda egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llanilishiga ko'ra ko'plik va egalik qo'shimchalarining o'rintashishi farqlanadi:

1. I shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelganda ko'pincha egalik qo'shimchasi oldin, ko'plik qo'shimchasi esa undan keyin keladi: masalan, Dadamlar keldilar. Opamlar salom aytdilar. Agar bu tartib o'zgarib, ko'plik shakli oldin, egalik keyin kelsa, shaxsning ko'pligini ifodalash mumkin: Qiyoslang: Opatarim kelishdi.

2. Ko'plik shakli. III shaxs egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llanilganda, ko'plik shakli oldin, egalik shakli esa keyin keladi va ko'plik shakli hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *Xayriniso dadamning opalari bo'ladilar.*

## Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari

Otlarning -cha, -choq, -chak qo'shimchalari olgan shakli **kichraytirish shakli**; -gina (-kina, -qina) -jon, -xon, -oy kabi qo'shimchalarni olgan shakli esa **erkalash shakli** hisoblanadi.

## Otlarda egalik shakllari va ularning imlosi

Ismlarga qo'shib, asos qismida igodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildirgan qo'shimchalar egalik qo'shimchalari hisoblanadi.

Viloyat, shahar, tuman, korxon, muassasa nomlarida qo'llanilgan III shaxs egalik qo'shimchasi shaxsga qarashlilik ma'nosini emas, balki xoslik, umumdin ajratilganlik ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun bunday birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qo'llanilmaydi. Masalan, Boburning bog'i emas, Bobur bog'i; Orolning dengizi emas, Orol dengizi,

Alisher Navoiy bog'i, o'qish kitobi, Toshkent shahri, Do'stlik tumani, Jizzax viloyati, Mustaqillik bayrami.

**Bilib oling!**

**-i, -si egalik qo'shimchasi bir qator so'zlarda qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanmaydi. Bunday so'zlarda ular yaxlitlanib qolgan. O'z vazifasini yo'qotgan. Masalan, 1. Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaydi. 2. Kunduz kunlari aniq ko'rinadi. 3. Kecha dam olishimiz juda maroqli o'tdi. 4. Tuni bilan mijja qoqmadi. 5. Bu yerlarning yozi juda so'lim.**

### **Egalik qo'shimchali so'zlarning imlosi**

Tilak, varaq, kurtak singari ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda asos qismning oxirgi -k, -q tovushi -g va -g' tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Qorin, o'g'il, singil kabi ikkinchi bo'g'inida -i unlisi ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi -j unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi. Nok, chok singari bir bo'g'inli, idrok, ishtirok singari ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, asos qismda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

### **Egalik shakllarining uslubiy xususiyatlari**

Egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik ma'nolari asosida yuqoridagi kabi zidlanish ayrim vaqtlarda buziladi. Bunday vaqtda ko'plik shakli o'zi qo'shilayotgan narsa-hodisaning birdan ortiqiligini emas, balki hurmat ma'nosini bildiradi. Masalan, Onamiz dam olgani ketdilar.

II shaxs egalik qo'shimchasining ko'plik shakli ko'pincha «siz»lash ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, opang («sen»siraganini bildiradi) – opangiz («Siz»lashni bildiradi)

Bunday hodisa III shaxs egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik shakliga ham daxldordir. Masalan, opasi («Sen»lash) – opalari («Siz»lashni bildiradi)

Badiiy uslubda tilimizning bunday imkoniyatidan personajlar karakterini ochishda ustalik bilan foydalanadilar. Masalan, Xo'jayinning itlari (A.Qahhor). It hurmatga sazovor emas. Lekin xo'jayiniga laganbardorlik shunday kuchliki, uning itiga ham ana shunday munosabat bildiriladi.

## Kelishik shakllari

Kelishik	Affikal	So'roqlar	Bog'lanishi	Gapdagi vazifasi
Bosh	-	Kim? Nima? Qayer?	Boshqa so'zlarni o'ziga tobelaydi	Ega: Onam- o'qituvchi Kesim: O'qituvchi - onam. Sifatlovchi va izohlovchi Zarifa opa – oltin ayol.
Qaratqich	-ning, (-ni) She'riy shakli -n, -im	Kimning? Nimaning?	Egalikdagi ot bilan bog'lanadi. Ot+ot -ning+si qaratqich+egalik	Qaratqich-aniqlovchi: Ukamning o'rtog'i keldi. O'zbekiston – Vatanim <i>manim. (A. Oripov)</i>
Tushum	-ni, -l, (-n), - (i)g, -(i)g'	Kimni? Nimani?	Fe'l bilan bog'lanadi Ot+fe'l va boshqalar	Vositasiz to'ldiruvchi: <i>Kitobni seving.</i> O'par edim Vatan tuprog'in. <i>(H Olimjon)</i>
Jo'nalish	-ga, -qa, -ka, -g'a, -na, -a, -ru, -g'aru, -garu	Kimga? Nimaga? Qayerga? Qachonga? Qanchaga?	Fe'l bilan bog'lanadi. Ot+fe'l va boshqalar	Vositali to'ldiruvchi: Onamga yordam herdim. O'rin holi: Qishloqqa qaytdim. Payt holi: Yig'ilish soat beshga belgilangan
O'rin-payt	-da, -ta	Kimda? Nimada? Qayerda? Qachon?	Fe'l bilan bog'lanadi Ot+fe'l va boshqalar	Vositali to'ldiruvchi: Mashina akamda qoldi payt holi: yozda tog'da dam oldik. O'rin holi. Litseyda uchrashamiz.
Chiqish	-dan, -din, -tan, -nan	Kimdan? Nimadan? Qayerdan? Qachondan?	Fe'l ba'zan ot bilan bog'lanadi. Ot+fe'l va boshqalar.	Vositali to'ldiruvchi <i>Onamdan maktub oldim.</i> O'rin holi: shahardan mehmon keldi Kesim: Umidim sizlardan. Payt holi: Yozdan o'qishni boshlaymiz.

Ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar kelishik shakllari sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi. O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisining o'z nomi va shakli bor. Ismlarning bosh kelishik shakli maxsus qo'shimchaga ega emas. Bu shakl **kim? nima? qayer?** so'roqlarining biriga javob bo'ladi. Gapda ko'pincha ega, ot kesim, undalma vazifalarida keladi.

**Qaratqish kelishigi** shaklidagi so'z — qaratqich, qaratqich bog'lanib kelgan so'z — qaralmish deyiladi. Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelashtirib bog'lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanligini bildiradi.

Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganda ko'p hollarda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin. Lekin qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa so'z qo'llansa, qaratqich kelishigi atoqli otlar, olmoshlar va sifatdoshlarga qo'shilganda tushib qolmaydi.

**Tushum kelishigi** shaklini olgan so'z doimo o'timli fe'lga bog'lanadi. Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l yonma-yon turganda ko'pincha tushum kelishigi qo'shimchasi tushib qoladi. *Masalan, olmani yedim - olma yedim.*

Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l o'rtasida boshqa bir so'z ishlatilsa, tushum kelishidagi so'z atoqli ot, olmosh yoki sifatdosh bo'lsa, tushum kelishigi qo'shimchasi tushib qolmaydi.

Tushum kelishidagi so'z gapda doimo to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Egalik qo'shimchasini olgan ismlarga bog'lanuvchi so'z qaratqich kelishigi shaklida, o'timli fe'llarga bog'lanuvchi so'z tushum kelishigi shaklida keladi.

**Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi** qo'shimchasi o'rin-joy otlariga qo'shib, *qayer+ -ga, -da, -dan?* so'rog'iga javob bo'lib, o'rin holi, payt otlarga qo'shib *qachon+ -ga, -dan?* so'rog'iga javob bo'lib, payt holi, shaxs va narsa otlariga qo'shib *kim+ -ga, -da, -dan? nima+ -ga, -da, -dan?* so'rog'iga javob bo'lib, to'ldiruvchi vazifasida qo'llaniladi. Ba'zan ayrim otlar, sifatdoshlar va boshqa so'zlarga qo'shib *nima sababdan?* so'rog'iga javob bo'ladi va sabab holi vazifasida keladi.

Ba'zan tushum kelishigi o'rnida chiqish kelishigi shakli ishlatilishi mumkin. Lekin ularning ma'nosida ma'lum farq bor. Tushum kelishigidagi so'z butunni, chiqish kelishigidagi so'z qismni bildiradi.

## **Kelishik qo'shimchalari va ularning uslubiy xususiyatlari**

Ot va otlashgan so'zlarga qo'shib, uni boshqa so'zlarga bog'lab keladigan grammatik shakllar tizimi kelishik qo'shimchalari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, tobe so'z hokim so'zning ma'nosi talab etgan kelishik qo'shimchasini oladi. Masalan, o'tirmoq

so'zida o'tirish joyi bilan bog'lanish imkoniyati bor. Shuning uchun unga bog'langan so'z o'rin kelishigini oladi. Yemoq so'zida esa, bunday ma'no yo'q. Shuning uchun u o'rin kelishigi olgan so'z bilan bog'lana olmaydi. Yemoq so'zida yeyiladigan narsa (obyekt) ma'nosi borligi uchun xuddi shunday ma'noga ega bo'lgan tushum yoki chiqish kelishigini olgan so'z bilan bog'lana oladi.

Kelishik qo'shimchalari biri o'rinda ikkinchisi ko'pincha almashinib kelishi va birikma ma'nosiga ta'sir etishi mumkin.

Avvalo, og'zaki nutqda qaratqich kelishigi shakli bilan tushum kelishigi shakli farqlanmaydi. Har ikki kelishik uchun tushum kelishigi shakli qo'llaniladi, lekin bunday qo'llanish ma'honi o'zgartirmaydi.

Qaratqich kelishigi va tushum kelishigi shakllari bosh kelishik shakli bilan almashinishi mumkin. *Masalan, o'rikning guli – o'rik guli. Uzumni yedi – uzum yedi*

Qaratqich qo'shimchasining bunday ikki xil qo'llanilishi o'rtasida quyidagicha ma'no farqlanishi bor: ikkinchi holatda umuman o'rik guli ma'nosi bildirilsa, birinchi holat, ya'ni qaratqich kelishigi bilan kelgan holatda predmetning aniqligi va bu predmetning ta'kidlanishini bildiradi. Xuddi shunday ma'no farqlanishi tushum kelishigi bilan bosh kelishik almashgan holatda ham kuzatiladi: uzumni yedi (so'zlovchi va tinglovchi ma'lum bo'lgan aniq uzum) – uzum yedi (umuman uzum).

Tushum kelishigi bilan chiqish kelishigi o'zaro almashinib kelishi mumkin. *Bunday vaqtda tushum kelishigi qo'llanilgan birikma uch xil ko'rinishga ega bo'ladi:*

Uzumni yedi – uzum yedi – uzumdan yedi. Birinchi va ikkinchi holatda butun (ya'ni uzumning hammasi) ma'nosi bo'lasa, uchinchi holatda qism ma'nosi (uzumning bir qismi) ifodalanadi.

Ko'rinadiki, kelishik qo'shimchalaridan o'rinli, maqsadga muvofiq foydalanish fikrni aniq ifodalashga katta yordam beradi.

### **Otning grammatik tahlili**

1. Ot. 2. So'rog'i. 3. Ma'no turi (atoqli, turdosh, turdosh bo'lsa, turi: shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon oti). 4. Kelishik. 5. Egalik qo'shimchasi bo'lsa, aniqlanadi. 6. Erklash-kichraytirish bo'lsa, yoziladi. 7. Tuzilish turi. 8. Gapdagi vazifasi.

Namuna: O'lmasning onasi uyda o'tiradi. O'lmasning -ot, kimning?, atoqli ot, qaratqich, sodda, tub, aniqlovchi.

Onasi – ot, kimi? turdosh, shaxs oti, bosh kelishikda, III shaxs egalik, birlik, sodda, tub, ega.

Uyda – ot, qayerda? turdosh, o'rin-joy oti, birlik, o'rin-payt, sodda, tub, hol.

### **Topshiriq: 1. Berilgan matndan otlarni ajrating.**

Agar dunyoga ilmiy nuqtayi nazardan qarasaq, ya'ni barcha narsaning nisbiy ekanini inobarga olsak, noshukrlik qilmagan bo'lardik. Bu haqda Qudsiy hadisda Allohning ogohlantirishi bor: «Ey, Odam farzandi! Hamisha ovqatlanishga o'tirganingda qorni och bechoralar ham esingda bo'lsin. Shunda Allohning bergan ne'matlariga shukr qilishing osonroq bo'ladi». Nabiy muhtaram dedilar: «Mol-dunyo borasida sizdan ustunroq odamni ko'rganingizda o'zingizdan quyiyoqda bo'lganga ham nazar soling».

Kelinposhsha, siz shunday qila olasizmi? Ovsiningiz barmog'ida olmos ko'zli tilla uzukni ko'rib, havasdan yoki hasaddan yuragingiz yongan onda tilla bezaklarsiz ham baxtli yashayotgan dugonangizning saodatli chehrasi ko'z oldingizga keladimi?

#### **1. Matndan otlarni ajrating.**

Mo'min kishining sifatlaridan biri — uning qanoatkorligi va oz yemak bilan to'yishi barchaga ma'lum fazilat. Musulmon farzandi ovqat yeyishni «Bismilloh» bilan boshlaydi. Iymon sohiblari me'dalarini to'ldirmaydilar, ko'p yeyishga hirs qo'ymaydilar. Faqatgina toat-ibodatlarini bajarishga quvvat oladigan darajada ovqatlanadilar, xolos. Turfa xil yemishlarga va sharbatlarga iltifot etmaydilar. Zotan, mo'min kishiga yarashadigan ish ham shudir. Kofir esa, hirsining shiddatidan yeb to'ymaydi, to'ysa-da, qo'ymaydi. Chunki u nafsiga bandi.

#### **2. «lar» anglatgan ma'nolarini toping.**

Barcha mamlakatlar uchun bolaning bo'sh vaqti masalasi muhim muammolardan hisoblanadi. Maktabdan keyingi yarim kunda bolaning nima bilan shug'ullanishi uning taqdirini belgilaydi. Shahardagi mahallalarda, qishloqlarda bola kattalar e'tiborida bo'ladi. Bu bola kimning farzandi ekanini kattalar bilishadi va undagi nojo'ya harakatni e'tiborsiz qoldirishmaydi. Ko'p qavatli uylarda esa, buning aksi. Qo'shnilar bir-birlarini tanishmaydi. Nojo'ya ish qilayotgan bolani tartibga chaqirishmaydi. Shundanmi, qamoqdagi bolalar yashash joylariga ajratilib o'rganilganda mahalla va qishloqqa nisbatan ko'p qavatli uylarda istiqomat qiladiganlari ko'proq ekani aniqlandi.

**3. Quyidagi so'zlarni otlarning tuzilishiga ko'ra, jadvalga joylashtiring. (sodda, qo'shma, juft, takror)**

Choy-poy, aka-uka, muattarlik, oshqozon, pul-mul, opa-singil, belbog', oshnolik, tilak, kungaboqar, nomozshomgul, non-pon, ost-ust, er-xotin, idish-tovoq, mamlakat, saboq, el-yurt, afsus-nadomat, sarf-harajat, tog'-u tosh, ota-yu ona, osh-xamir, oy-ko'l, mardikor, komolot, jinoyatchilik, zavq-shavq, meva-cheva, o'rin-joy, toshbaqa, majnuntol.

#### **4. Matndan tub va yasama otlarni ajratib yozing.**

Baxtga intilish insonning tug'ma xususiyatidir, shuning uchun ham bu har qanday axloqning negizi bo'lmog'i lozim. Har bir kishi o'z baxt-saodatining ijodkori. Inson har doim quvnoq yashashi kerak. Agar

quvonching tugasa, nimada yanglishganingni axtar. Inson hayotida eng ko'p foyda beradigan narsa — umid. Umr bo'yi bizga hamroh bo'lgan umid hatto o'lim to'shagida ham bizni tark etmaydi. Kitoblar xazinasi, umuman olganda, hayotning o'ziga xos badiiy ko'zgidir. Inoqlikning eng birinchi sharti — samimiyat. Xuddi do'stlik singari davlat ishlarida ham mug'ombirlik va riyokorlikka o'rin bo'lmasligi kerak. O'zgaga azob bermay, faqat ezgulikka intilgan muhabbatgina adolatlidir.

#### **5. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.**

1. Pazandasi yopadi shirmon, qarilari kutadi mehmon. 2. Otlaringni katta-katta qilib yozishibdi. 3. Ikkalasi yoshlikdan birga o'sishgan. 4. Madaniyat rivojining birinchi sharti tinchlikdir. 5. Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda. 6. Dam olish kunlari uyda bo'laman. 7. Bizning xonadonda ayolga qo'l ko'targan kimsani bilmayman. 8. Dasht o'rtasida bir tog' cho'qqisi ko'rindi. 9. Kechga borib havo sovib ketdi. 10. Yaxshi did haqiqat yo'lini tutadi, yomon did esa, soxtalikka homiylik qiladi.

#### **6. Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'yib, matnni ko'chiring.**

Yaxshi tarbiya ko'rgan odam... xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati... boshqalar... bir qadam oldin... o'tsa, darrov orqaga qaraydi, sheriklari... yordam qo'li... uzatadi, safi... kengaytirib, yangi g'alaba... ko'zlaydi.

#### **7. Nuqtalar o'rniga mos tushum yoki qaratqich kelishigi shakllarini qo'yib, matnni ko'chiring.**

Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytdan, yurt muhabbati... hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi.

Muhammad... she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yoziladiganga o'xshab tuyuladi. U... oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislari... yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga oladi.

Odamlar u... she'rlari... hayajonsiz o'qimaydigan, kitoblari... do'konlardan qidirib yuradigan bo'ldilar.

#### **8. Ko'chiring, belgili va belgisiz qaratqich shaklli so'zlarni aniqlang.**

1. «Boburnoma» personajlar tavsifi, ularning shakl-shamoyilini ta'riflashdan boshlanadi.

2. Maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini ko'r.

3. Dangasaning vaji ko'p.

4. Bu gaplarning barisini Hafiza xomush va oqilona tinglab, Umidning hamma fikrlariga qo'shilishini bosh qimirlatib bildirardi.

5. Bolalarimiz urush davrining azob-uqubatlarini, o'kinch-alamlarini ko'rmaganligi bizning baxtimizdir.

6. Prezidentimiz: «Har qanday inson uchun eng katta boylik bu uning o'z tilidir. Navoiy ijodi o'zbeklar uchun katta boylik», - degan edi. Darhaqiqat,



Navoiyni tushunish uchun millat tilining barcha shevalaridan xabardor bo'lmog' lozim.

7. Boyagi yigitning, Avazning, qo'li gul ekan.

8. Hayotim lazzati, qalbim qo'risan, Vatanim!

9. Noming qalbim so'rog'indadur, jamoling ko'z qarog'imdadur.

10. Bir lahza jimlikdan keyin allaqayerdan qo'ylarning, sigirlarning ma'rashi, ho'kizlarning o'kirishi eshitildi.

11. Saidiy o'zining ish bo'lmasiga kirib, deraza yonidagi kresloga o'tirdida, stol ustidagi kitobni oldi.

9. Tushum kelishigidagi so'zlarni aniqlang. Tushum kelishigi shaklining belgisi va belgisiz ishlatish sabablarini ayting.

1. Onam har gal xokandozni bo'shatganida qop-qora chang ko'tariladi.

2. Ukamni siltab ko'rpachaga o'tqazdi-yu, ikki kafti bilan yuzini to'sganча o'kirib yubordi.

3. Uning bunaqangi bor ovoz bilan kulganini hech qachon eshitgan emasdim.

4. Tolda chumchuq ko'rdim. Sherzod har safar hind kuylarini eshitganda rohat qilardi.

5. U g'ashi kelib yuz o'girdi-da, deraza oldiga borib, o'y surdi.

6. U erkin muhabbat degan gapni noto'g'ri tushunayotgan, sevgidek tabarruk hisni oyoq osti qilayotgan odamlar to'g'risida yozishni ko'pdan buyon izlar edi. (O. Hoshimov)

7. Agar men ul allomai davronni o'z gulshanimda ko'rmoq istaganimda, yetti qavat yerning ostidan bo'lsa ham, toptirib keltirar edim.

8. Abdulvafo Sariq bu og'ir o'ylardan charchab boshini yostiqqa qo'ydi, qo'ygan zahoti pinakka ketgan ekan, bir mahal allaqanday shov-shuv eshitib, ko'zini ochdi. (O.Yoqubov)

10. Gaplarni o'qing. Qaratqich va tushum kelishigi shakllari o'rinli qo'llanganmi? Har bir kelishik shaklini o'z o'rniga qo'yib, ko'chiring.

1. Ma'rifatchilar elimizga ma'rifat urug'ini sochishda fidoiylik ko'rsatdilar.

2. Xalqparvar va insofli, diyonatli, boy-badavlat kishilarni moddiy yordamsiz ma'rifatchilar faoliyat ko'rsata olmas edilar.

3. Tijorat, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan boyigan elimizni ishbilarmon kishilari o'z davrini millionerlaridir.

4. Muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatni tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy qarashlarni butun bir tizimiga mafkura deyiladi.

5. Xalqimiz Alloh taolaga ibodat qilishning biladilar, yaxshi tilaklar tilaydilar.

6. Tushuntirishni hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix hamda falsafa, mafkura uchun qanchalar muhim ekanligi hayot ko'rsatmoqda.

7. Odamlarning ma'naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish,

har bir fuqaroning uni yoshidan qat'i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish bizni eng samarali yo'limizdir. (I.G'afurov)

8. Makoning bo'libdi tog'lar orasi,  
Sensan go'zallikni asli, sarasi,  
Ma'yus yuragingda ishqning yarasi,  
Sen ham oshiqmisan yoki ohujon

1. «Mustaqillik o'g'itlari»ni ko'chiring. O'rin-payt kelishigining ma'nolarini izohlang.

1. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir. 2. Dunyoda o'zbek zaminiga teng keladigan zaminning o'zi yo'q. 3. Mehr va qadr bor yerda hamma narsa bor. 4. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. 5. Vatan har bir insonning yuragida, qalbida bo'lmog'i lozim.

2. Quyida berilgan so'zlarni ma'nolariga ko'ra jadvalga joylashtiring. Qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting. O'rin-payt kelishigi shaklining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Tongda, o'rtada, pasida, orqada, kuzda, saharda, tushda, ishda, maktabda, uyquda, peshinda, mashinada, o'roqda, dastgohda, senda, Ahmadda.

O'rin	Payt	Shaxs-narsa

3. Matndan otlarni topib, tahlil qiling.

Majnunolning bosh egib sukut saqlashi donoligi va chayirligidan. Qamishning g'oz turib shovullashi nodonligi va mo'rtligidan... Qiziq, ikkalasi ko'pincha yonma-yon o'sadi...

Olohd insonni eng mukammal, eng mukarram zot qilib yaratgan. Bas, shunday ekan, nega hirovlar yaxshi-yu, birovlar yomon?

Nachora, nur bor ekan, soya ham bo'laveradi. Birov nurni tanlaydi, birov soyani...

4. Ot so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlang.

O'lmasning onasi uyda o'tiradi, do'ppi tikadi. Qizlari ham onasiga qarashadigan bo'lib qolgan. Biri igna tortadi, biri piltakach uradi, bitgan do'ppi taxtakachgabostiradi, yanabiri i pak qaynatadi, quritadi, xullas, namozgarda boshlangan do'ppi ertasiga tayyor bo'ladi.

5. Otlarning tuzilishga ko'ra turlarini quyidagi jadvalga joylang.

Sodda		Qo'shma	Juft	Takror
Tub	yasama	Belkurak	idish-tovoq	non-pon
Ish	ishchi	Markaziy Osiyo	ota-ona	osh-posh, pul-mul

1. Boychechakning tovlanib turgan gulbarglari hammaning ko'nglidagi gina-adovatga barham berdi. 2. Oradan uch-to'rt kun o'tgach, dadam Qi pchoqlardan hovli topib keldi. Ammam ko'rpa-yostiqlik, amakim qozon-tovoqlik, boshqa tanish-bilishlar choynak-piyola deganday, har kim baholi qudrat qarashib, o'sha hovliga ko'chdik. 3. Somonsuvoqlik qilingan tekis tomning ustiga o'rikning bir shoxi egilib turardi. 4. Bahoroy juda go'zal, hamma fasldan o'zar. Gul-chechakdan libosi, yoqimlidir havosi. 5. Bog'da zotli, asl olmalar, xilma-xil gilos-olchalar, kursillama nashvati, yumshoqlik xushbo'yi noklar, achchiqlik va chuchuk tuyatish anorlar va boshqa-boshqa meva daraxtlari ko'p. Tokzorga kelsak, husayni, yakdona, shivirg'oni, charosdan boshlab tanako'zi, qorajangal, bedona kishmishga qadar turli-tuman navlar bor. 6. Buloqlik, tokzor, ekin-tikin, to'rtburchak, dunyoqarash, yor-birodar, do'stlik, o'y-xayol, gulchambar, kurash, aql-hush, merosxo'r, bilim, gulhamishabahor, ko'klam, savdo-sotiq, oy. 7. Farg'onada bizning Oltiariqlikdan tashqari Uchariqlik, Beshariqlik, Qo'shariqlik, Oqariqlik, Soyariqlik, Jinariqlik, Belariqlik singari joylar ko'p. Shu bois oltiariqliklar biron-bir musofirni ko'rishi: «Keling, akaxon, marg'ilonlikmilar?» deb so'raydi. «Yo'q», degan javobni eshitishsa, birdan hafsalalari pir bo'lib: «Unda qaysi ariqdansiz?» deyishadi. 8. Qizlar tillaqosh, bargak, zehigardon, qo'ltiqtumori, marjon, uzuk, bilaguzuk taqib, shoyi ko'ylak, nimcha, kamzul kiyib yasanar edilar. 9. Laylakqori urib turgan bir kun edi. Birdan bozorboshida dod-faryod ko'tarilib qoldi. 10. Elmurod so'rab-surishtirib, nihoyat, ko'pgina chiroqlar charaqlab turgan hovliga kirib keldi. 11. Ariqlik bo'yida hamisha, har yoz ikkita jaydari atirgul, pastda namozshomguli, gultojixorozi, sadarayhon o'sib yotadi.

### Shaxs otlarini ajratiqlik.

1.1. Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o'g'li Otabek! 2. Bahor oxirlab qolayotgan kunlarda shahzoda Abusaid qirq yigiti bilan ovga chiqdi. 3. Dehqonchilik sirini professorlar o'rgatgan emas bizga. Paxtakorning o'z kitobi bor. Bu kitob uning ko'kragida. 4. Shavkat eng oldin enasi bilan qichoqlashib, xayr-xo'shlashdi.

2.1. Kampir uning boshini silab, peshonasini yuziga bosib sekin dedi:

– Qayoqlarda yurgan eding, bolaginam? Ko'zim ochiq paytlarida qayoqlarda eding, tentagim?

Tolibjonning ko'zlaridan yosh quyilib kelaverdi, quyilib kelaverdi.

Kampir uni bag'ridan bo'shatib hovli tomonga qichqirdi:

– Nima qilib turibsang, ayangni chaqirmaysanglarmi? Dadalaringga xabar qilmaysanglarmi? Yugur, pochchangga chop, tog'am keldi, deb ayt.

Bir hovli bola dupur-dupur qilib to'rt tarafa yugurib ketdi.

3. 1. Uning yaxshi o'quvchi bo'lib, to'rtinchi sinfni «to'rt» baholarga yakunlayotganidan dadasi bilan onasi, buvisi ham xursand. 2. Men o'qimay

turib ham, boshimda shu qadrdon qalpoqcham bor ekan, albatta, agronom ham, injener ham, artist ham bo'la olaman, deb qattiq ishonar edim. 3. Hoji buvi qo'lidan kelgan cha dori-darmon qildi, keyin oyim tuzaldi.

**1. Tub va yasama shaxs otlarini ajrating.**

1. Shayxontohurda baqqollar, sartaroshlar, zargarlar juda serob. 2. Aravakash mo'mingina, muloyim, kamgap kishi. 3. Taqachilar tinmaydi. Ish ko'p. 4. Uloqchilargina emas, hatto otlar ham bu tortishuvning zavqini anglagandek, shavq bilan chopadi. 5. Jazirama oftob. Baqqollar, nosvoychilar, samovarchilar issiqdan garang. 6. Yo'q, men zargar emasman. Zargarlik tarozisi ota meros aslida. 7. Qo'shiq aytganim faqat otamga yoqqan emish: «Qo'shiq aytolsa, demak, cho'ponlikka yaraydi», — debdi u cho'lig'iga. 8. Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog' ortiga jo'nadi. 9. Yaxshilikka yomonlik deganlari shu ekan, — bu gapini mirobga qarab aytdi.

**2. Tub va yasama narsa otlarini ajrating.**

1. Mundoq qarab razm solsam, ko'pchilikning qo'lida kosov, bolta, o'roq... 2. Mashinada kichkina sovutgich ham bor edi. 3. Oqqirov kasalligini yuzaga keltiruvchi organizmlar g'o'za barglariga uya quradi, tuproqda, o'simlik chirindilari orasida qishlaydi. Bahorda yana ekinlarni kasallantiradi. 4. Direktor o'sha terilar uchun xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining oltin medalini oldi. 5. Eshikni ochishim bilan dadam qo'lidagi gazetasini, oyim supurgini tashlab menga qaradi.

**3. Quyidagi narsa otlarini qaysi so'z turkumidan yasalayotganini aniqlang.**

Ochqich, qo'lyozma, quymoq, suvdon, kiyim, gazlama, yelpig'ich, uzangi, yoqilg'i, bezak, qisqich, to'plam.

**4. Quyidagi matndan o'rin-joy otlarini aniqlang.**

1. Har qalay, o'zi tug'ilib o'sgan qishloq. Bolaligini eslatadigan guvala devorlar bilan qurshalgan ko'chalar, suvga cho'milgan jimjit soylar, olisda sadafdek chaq nab turgan cho'qqilar, yam-yashil o'tloqlar ko'ngliga taskin berar-ku! 2. Darvozadan chiqib, katta yo'ldan biroz yurilgach, chap tomondagi tolzor ko'chaga burilishdi. 3. O'ktam Komila orqasidan yurib, olchazor orqali keng, tekis, behavo maydonga chiqdi... 4. Cho'pon otaning katta hovlisi, otlar bog'langan hostirmasi, sigirlar boqiladigan molxonasi va qo'ylar turadigan ikkita katta qo'rasi bor edi. 5. Qutidor do'koniga jo'nagandan keyin Oftoboyim To'ybekani mehmonxonaga buyurdi va o'zi xamir qilishga o'tirdi. 6. U shosha-pisha kiyinib, endi tashqariga chiqayotgan ham ediki, eshik ohista taqillab, ostonada Mehriniso ko'rindi. 7. Biz ko'chib kelgan hovli katta edi. Qator qilib solingan ikki uy, bir ayvon. 8. Bu yerlarni qo'riqxonaga aylantirar emish, shuning uchun uy hayvonlarini boqish mumkin emas ekan.

**5. Quyidagi gaplardan faoliyat-jarayon otlarini ajrating.**

1. O'rindiqning bir chekkasida o'tirgan ayol unga mehribonlik bilan tikilib

turardi. 2. Dadam kunduzi g' o'zani chopiq qilib juda charchagan ekan, sira uyg'onmadi. 3. Ta' tilda o'qituvchi opamiz sayohatga olib boradigan bo'ldi. 4. Shoferlik kursini bitirib, konda ishlay boshladim. 5. Yoshlikdagi gunohlari uchun yangamdan kechirim so'ramoqchilar. 6. Otaqo'zi bo'lajak kuyovining bachkana qiliqlariga ichida bir g'ijini qo'ydi.

**6. Quyidagi gaplardan tub va yasama faoliyat-jarayon otlarini ajrating.**

1. Bilim kishining ko'nglini yoritadi, unga ro'shnoqlik beradi. 2. Yoshlik qaytib kelmaydi. 3. Bu dunyoda uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q: duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik-hammasini eplaydi. 4. Ancha ovoragarchilik bilan bir mashina paxta olib qaytdik. 5. Huriniso i pakchilikzvenosining boshlig'i bo'lgan ekan.6.Shomurod asli yilqichining bolasi, dehqonchilikni xushlamaydi. 7. Yo'lqin akam traktor terimidan bo'shagandan keyin hovlining kamchiliklarini tuzatadi.

**7. Quyidagi gaplardan aniq va mavhum otlarni ajrating.**

1. U o'z qalbida kechayotgan tuyg'ularning nomini bilmas, shu daqiqadagi holatini o'rtoqlariga ham izohlab berolmas edi. 2. Hunarlarini, didlarini rosa ishlatib, chiroyli bino solib bersalaring, bas. 3. Mening Jasur ismli ukam bor. U hayvonlarni, ayniqsa, itlarni yaxshi ko'radi. 4. Ular qushchalarni tomosha qilishadi.

**8. Quyidagi gaplardan tub va yasama aniq va mavhum otlarni ajrating**

1. Hasad-yurakning zanglashi, qaysarlik mag'lubiyat sababchisidir. 2. Oyog'ingiz yugursa, maqsadingizga yetkazadi, tilingiz yugursa boshingizga falokat keltiradi. 3.Yalqovlik muhtojlik eshigidir. 4. Narsa deb odamlar e'tiboridan qolish yomon. 5. Hayo qalbning haqiqiy ko'zgidir.6. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, ham dadillik baxsh etgandek bo'ldi. 7.Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydek tuyulgan to'tli havosi hammamizning ruhiyatimizni ko'tarib yubordi. 8. Osmon hadsiz, ufqlar, qitlar jimirlaydi zarrin yog'duda. Osmon kabi tiniq tuyg'ular mavj uradi bu yosh ko'nglimda.

**9. Quyidagi mavhum otlarning qaysi so'z turkumidan yasalayotganini aniqlang.**

Ovunch, tinchlik, hurrampik, ahillik, ahmoqlik, yupanch, yaxshilik, yomonlik, o'kinch.

**10. Mavhum otlarning yasalishini aniqlang.**

1. Vujudimga hokimlik qilayotgan o'sha tuyg'ular o'rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi. 2. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. 3. Mardlik – insonning husni.

**11. Quyidagi gaplardagi birlik va ko'plik sonda kelgan otlarni aniqlang, -lar qo'shimchasining ma'nolarini izohlang.**

1. Nigora Saidlarnikiga kirganda uyning chiroqlari yoqilgan, Said bilan dadasi televizor ko'rib o'tirishar edi. 2. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardек guvillab Usmonlarnikiga

jo'nashdi. 3. Ko'zlarim hali harf tanimas edi, qalam ushloymasdi hali qo'llarim. Kapalak izidan quvib tinmasdan, Yulduzlarni sanar edim tunlari. 4. Ey farzandlar-g'unchalar! Sizga mehrim shunchalar. 5. Shavkatning kattagina uzumzor bog'i bor. 6. Dadamlar: — Xo'sh, qalay, bu yerlar yoqdimi? Qara, hamma yoq sokin. Qushlar, baliqlar - bizniki, — dedilar. 7. Bahor keldi. Ariqlarda suvlar to'lib, sharqirab oqa boshladi. 8. Hamma ishlarning boshi to'g'rilik va halollikdir.

## 12. Otlarning kichraytirish va erkalash shakllarini aniqlang.

1. Yoyilib oqayotgan suvning u yer-bu yerida top-toza orolchalar ko'rinib turardi. 2. Qishloqda Aykadan chiroyli kuchukcha yo'q. Sobirjon zerikkan paytlarida quchoqlab o'tirib u bilan gaplashadi. 3. Obbo, azamat-ey, Qo'zivoymas, Qo'chqorvoy ho'lib ketibsan-ku! — deya tog'asi girdikapalak bo'layotgan bolakayni baland ko'tardi. 4. Huriniso ketib, Saidaga qarashib turgani Kifoyatxonni yubordi...

13. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, otlarning erkalash va kichraytirish shakllarini yasang.

1. Ertaga yaxshilab uy... (-choq, -cha, -voy) yasab berib ketaman. 2. Voy, bo'y...(-xon, -gina, -jon)ngdan aylanib ketay seni. Sog'intirib qo'yding-ku aya...(-niso, -xon, -jon)ingni! 3. Qo'zi...(-loq, -choq, -kay)lar boshlarini hurjundan chiqarib jim yotishardi. 4. O'rmon...(-oy, -jon, -gina) Sidiq... (-xon, -toy, -jon)ning diliga yorug'lik solib birinchi marta kuldi. 5. Bu Olim...(-toy, -loq, -xon) yaratgan robot.

## Ot so'z turkumi bo'yicha test topshirig'i

### 1-variant

1. Ko'plik shakli qaysi shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelsa va hurmat ma'nosini ifodalasa, ko'plik shakli oldin, egalik shakli keyin keladi?
  - A. I shaxs egalik qo'shimchasi bilan
  - B. II shaxs egalik qo'shimchasi bilan
  - C. III shaxs egalik qo'shimchasi bilan
  - D. Barcha shaxs egalik qo'shimchasi bilan
2. Ko'plik shakli III shaxs egalik qo'shimchasi bilan qo'llanib hurmat ma'nosini ifodalaganda egalik va ko'plik shakllari qay tarzda o'rinishadi?
  - A. Egalik shakli oldin, ko'plik shakli keyin keladi
  - B. Koplilik shakli oldin, egalik shakli keyin keladi
  - C. Ko'plik va egalik shakllarining o'rinishida farqlar kuzatilmaydi
  - D. Ko'plik shakli qo'llanib, egalik shakli qo'llanilmaydi
3. Qaysi qatordagi gapda hurmat ma'nosi ifodalangan gap qo'llanilgan?
  - A. Boburning yoniga Hofiz Ko'ykiylar tashrif buyurdilar
  - B. Bulbuli go'yo shoirlarning shon-shuhrat ko'yida o'rtanib aytguvchi dilrabo baytlari ham uning ko'ngillariga zavq bag'ishlamas edi.

C. Zoti shariflari ijozat etsalar.

D. Tabarruk bitiklari nomuborak quloqlarimizga sazovor ko'rsa, boshlarimiz ko'kka yeturdi.

4. Qaysi hukm noto'g'ri?

A. -lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi

B. -lik qo'shimchasi atoqli otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi

C. -lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi atoqli otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi

D. -lik qo'shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi

5. Qaysi qatorda mavhum ot yasovchi -inch qo'shimchasi qo'llanilgan?

A. Yupanch      B. Quvonch      C. Qo'rqinch      D. Sevinch

6. Qaysi qatordagi otlarda ko'plik morfologik yo'l bilan hosil qilingan?

A. Uylar, do'stlar      B. Ko'p odamlar, ancha yo'llar

C. Ko'p imkoniyatlar, gullar      D. Birgalik

7. Bolalarning shovqinidan boshlarim og'rib ketdi.

Berilgan gapda ko'plik qo'shimchasi qanday ma'noni anglatgan?

A. Ma'noni kuchaytirish      B. Hurmat

C. Jamlik, umumiylik      D. Birgalik

8. Qaysi gaplarda -lar tasviriylik, ifodalilikni kuchaytirgan?

A. Ko'z yoshlarini artdi.      B. Ko'chaga qum to'kilgan.

C. Olimjonlar kelishdi.      D. Mirzacho'llar obod bo'ldi.

9. Berilgan gaplarning qaysi birida mavhum ot aniqlovchi bo'lib kelgan?

A. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi.

B. Hamma ishlarning boshi to'g'rilik va halollikdir.

C. Dard xurujidan xoli bo'lganda Mahmud akasining ko'ziga qaraboq, noxushlik hamda ko'ngilsizlik yuz berganini aytarmidi...

D. Hofiz ayni damda shu zulm va adovat tikanlari ilk nishona mevasini berdi.

10. Qaysi qatordagi gapda shaxsning hududga mansubligini bildiruvchi qo'shimchasi bor so'z qatnashgan?

A. Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o'g'li Otabek!

B. Sekin-sekin yurib, ichkari hovliga kiradigan eshikni berkitdi.

C. Bilim kishining ko'nglini yoritadi, unga ro'shnolik beradi.

D. O'ktam gulzor yoniga joy hozirladi.

11. Qaysi javobda faoliyat-jarayon oti berilmagan?

A. Tanlov      B. Saylov      C. Ishlov      D. Chaquv

12. Otlarning ma'no turlaridan qaysi biri nima? so'rog'i bilan birga qayer? so'rog'iga ham javob bo'ladi?

- A. Shaxs otlari                      B. O'rin-joy otlari  
C. Faoliyat-jarayon otlari        D. Narsa otlari

13. Berilgan gaplarning qaysi biri ega+aniqlovchi+kesim qoli pda bo'lib, tarkibida faqat ot turkumiga mansub so'zlar qatnashgan?

- A. Kitoblar aqlning farzandlaridir.    B. Duo olgan omondir  
C. Kuch bilim va tafakkurdadir        D. Ozod va obod vatan bizniki.

14. Berilgan gaplarning qaysi birida faqat ot turkumiga mansub so'zlar ishtirok etgan bo'lib, kesimi yasama ot bilan ifodalangan?

- A. Xushmuomalalik yarim baxtdir    B. Yalqovlik muhtojlik eshigidir  
C. Baxtsizlik belgisi nodonlikdir      D. Vatanni sevmog' iymondandir

15. Qaysi qatordagi gapda qo'shma so'zdan yasalgan mavhum ot qatnashgan?

A. Vujudimga hokimlik qilayotgan o'sha tuyg'ular o'rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi.

B. Mardlik insonning husni

C. Shirinsuxanlik - insonning ko'rki

D. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, dadillik baxsh etgandek bo'ldi.

16. Berilgan gaplarning qaysi birida ikkita yasama ot qo'llangan?

A. Tejamlilik — pulni faqat yaxshilik keltiradigan ishlariga sarflash, ya'ni hech narsani isrof qilmaslik

B. Maxdum shunga ham qanoat qiladigan bo'lib, hisob-kitobni esidan chiqardi (A. Qodiriy)

C. O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon: u yerni, tabiatni sevadi. (I.A. Karimov)

D. Hovlining janubiy-g'arbiy burchagida joylashgan xona - uy bekasining yotog'i

17. Berilgan gaplarning qaysi birida juft ot vositali to'ldiruvchiga bog'lanib kelgan?

A. El-yurt manfaati uchun kurash barchamizning burchimizdir.

B. Insonlarning aql-zakovati, fe'l-atvori, ma'naviy-ma'rifiy kamoloti mamlakat taraqqiyotini belgilaydi.

C. Ota-onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilar edi.

D. Muallim ilm-u fan va maorifimiz jonkuyarlaridir.

18. Tarkibidagi barcha bo'laklar ot turkumiga mansub bo'lgan gapni toping.

A. Qarilar izzatda, yoshlar xizmatda.

B. Sog'lom tanda — sog' aql.



C. Til – dil kaliti.

D. Vatanni sevmuq iymondandir.

19. Ozod va obod, erkin va farovon hayotni barpo etish har bir yurtdoshimiz e'tiqodiga aylangan. Gapdagi yasama ot haqida bildirilgan qaysi fikr to'g'ri?

1) shaxs oti; 2) qaratqich aniqlovchi bo'lib kelgan; 3) egaga bog'lanib kelgan; 4) sifatlovchi aniqlovchi bo'lib kelgan.

A. 1,3      B. 2,4      C. 1,2      D. 2,3

20. Berilgan so'zlardan qaysi birida paronimlik ot turkumi doirasida yuzaga kelgan?

1) dars-darz 2) barmoq-barmoq 3) yod-yot 4) sud-sut 5) urish-urush  
6) qars-qarz 7) da'vo-davo 8) sof-sop 9) palak-falak 10) sa'va-sava

A. 1,4,7,9      B. 2,3,6,7      C. 1,3,5,10      D. 1,4,9,10

21. So'zlardan qaysi biri omonimlik xususiyatiga ega bo'lib, egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush tushishi hodisasi kuzatiladi?

1) o'rin; 2) og'iz; 3) qorin; 4) mag'iz; 5) burun; 6) quloq

A. 1,3,5,6      B. 2,4,5      C. 2,4,6      D. 1,2,3,4,5,6

22. Qaysi qatorda ot turkumi doirasida omonimlik hosil qiladigan so'zlar berilgan?

A. og'iz, burun, quloq

B. og'iz, mag'iz, quloq

C. qorin, quloq, tirnoq

D. burun, og'iz, quloq

23. Bular yordamida ot choptirib, changitib o'tish insoniylik sha'niga isnoddir. Ushbu gapda qaysi kelishik qo'shimchalari belgisiz qo'llangan?

A. tushum, qaratqich, tushum

B. qaratqich, tushum, qaratqich

C. qaratqich, tushum

D. tushum, tushum, qaratqich

24. Bular yonida ot choptirib o'tish insoniylik sha'niga isnoddir. Ushbu gapda lug'aviy shakl yasovchi bilan qo'llangan so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

A. aniqlovchi, hol, aniqlovchi, to'ldiruvchi

B. hol, to'ldiruvchi, to'ldiruvchi

C. aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi

D. aniqlovchi, hol, hol, ega

25. Bu jahonning mazmunin bilmoqchi bo'lsang, o'rtoq, Yuragingga kitobning mehr mash'alin yoq.

Ushbu misralardagi qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

A. 2 ta belgili va 1 ta belgisiz qaratqich, 1 ta belgili tushum

B. 2 ta belgili qaratqich, 2 ta belgili tushum

C. 3 ta belgili qaratqich, 1 ta belgili tushum

D. 2 ta belgili qaratqich, 1 ta belgili va 1 ta belgisiz tushum

26. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi – asillik, toza nasillilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi – sabr chidamlilik va tinchliksevarlik.

Ushbu gapdagi necha so'z tarkibida sifat yasovchi qo'shimchadan so'ng ot yasovchi qo'shimcha qo'shilgan?

- A. 5      B. 6      C. 3      D. 4

27. Qaysi qatorda egalik affiksi qo'shilganda, keyingi bo'g'indagi i unlisi tushib qoladigan otlar ko'rsatilgan?

- A. Bilim, vazir, bog'ich      B. vakil, voris, do'stlik  
C. idish, ilik, ayiq      D. o'rin, bo'yin, o'g'il

28. Agar oshiqligim aytсам, kuyub jon-u jahon o'rtar,

Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Ushbu parchada belgisiz qo'llangan kelishiklar soni nechta?

- A. 3 ta      B. 2 ta      C. 5 ta      D. 4 ta

29. Berilgan qaysi qo'shimchalar shaxs oti yasovchi qo'shimcha hisoblanmaydi?

- A. -soz, -dosh      B. -dor, -xo'r      C. -gar, -xon      D. -don, -gich

30. Asraymiz o'simlik xillarini tayin,  
Asraymiz hayvonlar kamyob zotini.

Hatto atroflarini o'rab atayin,

Qo'riqxonada deymiz so'ngra otini.

Qaratqich va tushum kelishigi yuqoridagi to'rtlikda qay tarzda qo'llangan?

A. Bir o'rinda qaratqich, bir o'rinda tushum kelishigi belgisiz, ikki o'rinda qaratqich belgili qo'llangan

B. Ikki o'rinda qaratqich belgisiz, to'rt o'rinda tushum belgili qo'llangan.

C. Ikki o'rinda belgili, ikki o'rinda belgisiz tushum kelishigi qo'llangan

D. Bir o'rinda qaratqich va tushum kelishigi belgili qo'llangan

31. - ch qo'shimchasi qaysi qatordagi so'zlardan ot yasaydi?

- A. qo'rq, tin, quvon      B. ishon, tayon, quvon  
C. o'tin, shoshil, aya      D. jirkan, tin, sevin

32. Qaysi yasama so'z tarkibidagi birinchi qo'shimcha sintaktik shakl yasovchi ikkinchi qo'shimcha ot yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi?

- A. qaynatma      B. bilimdon      C. qo'rqqoqlik      D. sanoqsiz

33. Quyidagi gapda qo'llanilgan chiqish kelishigi qaysi kelishik bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'lishi mumkin? Shunday kichik teshikdan sigirning sig'ishi aqlga sig'maydi?

- A. qaratqich kelishigi bilan      B. o'rin-payt kelishigi bilan  
C. jo'nalish kelishigi bilan      D. tushum kelishigi bilan

34. -lar qo‘shimchasining uslubiy xususiyatlari qaysi qatorda noto‘g‘ri izohlangan?

A. Qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarga ko‘plik shakli qo‘shilib, hurmat ma‘nosini bildiradi.

B. Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlarga - lar qo‘shimchasi qo‘shilganda narsa va hodisaning xilma- xil ekanligini bildiradi.

C. Atoqli otlarga qo‘shilganda o‘zi qo‘shilgan otning ko‘pligini ifodalamaydi, balki hurmat ma‘nosini bildiradi.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

35. Qaysi gapda sodda yasama mavhum ot qo‘llangan?

A. Seni hur va ozod kuylayman

B. Saxiylik va olijanoblik ulug‘vor fazilatdir

C. Nedin g‘amnok ko‘rinasiz?

D. U baxtidan sarmast ko‘rinardi

36. Berilgan gaplarning qaysi birida nuqtalar o‘miga faqat bir xil kelishik qo‘shimchasi ishlatiladi?

A. G‘iyosiddin Jamshid... aytishicha u ... otasi bu asar ... aksariyat qismi... yoddan biladilar.

B. Netkay erdi o‘z otasi ... o‘zi tosh otgan padarbezorlar... qo‘llari shol bo‘lsa.

C. Tarix... anglash orqali inson ... hayot ... anglash qobiliyati shakllanadi.

D. Koshkiydi, ozod qush... aylansam-u qoshingiz ... uchib borsam, diydoringiz yarasi ... dilingiz jarohati... malham bo‘lsam

## 2-variant

1. Birlik shakli jamlik ma‘nosi ifodalangan ot qaysi gapda qatnashgan?

A. Bolalarning shovqinidan boshlarim og‘rib ketdi

B. Ariq to‘la suv, ichgani tashna bolam

C. Yomon so‘z tinglovchining ko‘nglini xira qiladi

D. Hamma ishning boshi to‘g‘rilik va halollikdir

2. Hayotdan ham qadrliroq narsa bor bo‘lsa, bu – sog‘liq, o‘limdan ham qo‘rqinchliroq narsa bor bo‘lsa, bu – kasallik, hayotga teng narsa – boyluk, o‘lim bilan barobar narsa – faqirlik. Ushbu gapdagi yasama so‘zlarning qaysi biri ot turkumiga mansub?

A. 4      B. 5      C. 6      D. 7

3. Tushum kelishigiga xos xususiyatlar to‘g‘ri qayd etilgan javobni belgilang.

1. Tushum kelishigidagi so‘z faqat o‘timli fe‘llarga bog‘lanadi.

2. Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe‘l yonma-yon turganda kelishik tushib qolmaydi.

3. Tushum kelishigi bilan o‘timli fe‘l o‘rtasida boshqa so‘z qo‘llana oladi.

4. Tushum kelishigidagi soʻz taqlid bilan ifodalanganda kelishik tushib qolmaydi.

5. Tushum kelishigidagi soʻz atoqli ot, olmosh va sifatdosh bilan ifodalanganda kelishik tushib qolmaydi.

- A. 1,3,4,5      B. 1,3,5      C. 1,2,3,5      D. 2,3,4,5

4. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasini olgan soʻzlar gapda qanday vazifani bajaradi?

- A. Vositali toʻldiruvchi, oʻrin holi, payt holi,  
B. Vositali toʻldiruvchi, oʻrin holi  
C. Vositali toʻldiruvchi, oʻrin holi, vaziyat holi  
D. Faqat vositali toʻldiruvchi

5. Quyidagi soʻzlarning qaysi birida shakldoshlik (omonimlik) ot va feʼl turkumi oʻrtasida vujudga kelmaydi?

- A. Tut      B. Tush      C. Toʻr      D. Toy

6. Tushum kelishigidagi soʻzlarni ergashtirib keluvchi feʼllar qanday ataladi?

- A. Koʻmakchi feʼllar      B. Oʻtimsiz feʼllar  
C. Oʻtimli feʼllar      D. Toʻliqsiz feʼllar

7. Qoʻshma ot tarkibida feʼl turkumiga oid soʻz mavjud boʻlmagan javobni toping.

- A. husnbuzar      B. kaltakesak      C. iskabtopar      D. beshotar

8. Qaysi gapda -gina qoʻshimchasi otga xos lugʻaviy shakl yasovchi vazifasini bajargan?

- A. Tarvuz va qovunginalar suvsizlikdan qovjirab turibdi.  
B. Boʻtaloqlargina har qancha ildam yursa-da, onasiga yetolmas ekan  
C. Fevral oyigina har toʻrt yilda bir marta 29 kundan iborat boʻladi.  
D. Mardlarga oʻz Vatamlari uchun mardona kurasha oladilar.

9. Amr qildimki, vazirlar ushbu toʻrt sifatga ega boʻlgan kishilardan bolishi lozim: birinchisi – asillik, toza nasillilik; ikkinchisi – aql- farosatlilik, uchinchisi – si poh-u el ahvolidan xabardorlik, toʻrtinchisi – sabr- chidamlilik va tinchliksevarlik.

Ushbu gapdagi ot yasovchi qoʻshimchalar sonini aniqlang.

- A. 7      B. 6      C. 5      D. 8

10. Narsa otlarining tuzilishi haqida berilgan hukmlarning qaysi biri notoʻgʻri?

- A. Narsa otlari tuzilishiga koʻra sodda tub yoki yasama boʻlishi mumkin  
B. Narsa otlari tuzilishiga koʻra qoʻshma boʻlishi mumkin  
C. Narsa otlari tuzilishiga koʻra juft yoki takroriy boʻlishi mumkin.  
D. Barcha hukmlar toʻgʻri

11. -lar qo'shimchasi hurmat ma`nosini anglatganda egalik qo'shimchasiga nisbatan qanday holatda joylashadi?

A. Barcha hollarda egalik qo'shichasidan oldin qo'shiladi

B. Barcha hollarda egalik qo'shimchasidan keyin joylashsa, hurmat, oldin joylashsa ko'plik ma`nosi anglashiladi

C. I,II shaxslarda egalik qo'shimchasidan keyin, III shaxsda egalik qo'shimchasidan oldin qo'shiladi

D. Barcha hollarda egalik qo'shimchasidan keyin qo'shiladi

12. Qaysi qatorda qismlari o'zaro ma`nodosh bo'lmagan juft otlar berilgan?

A. ota-ona      B. izm-ixtiyor      C. lutf-marhamat      D. or-nomus

13. Ushbu to'plamda tinchlik haqida she`rlar bor.

Mazkur gapdagi so'zlar tarkibida nechta ot yasovchi qo'shimcha bor?

A. 4 ta      B. 2 ta      C. 5 ta      D. 3 ta

14. Chiqish kelishigidagi so'zning sintaktik belgisi qaysi javobda noto'g'ri ko'rsatilgan?

A. vositali to'ldiruvchi vazifasida kelishi mumkin

B. o'rin yoki payt holi vazifasida kelishi mumkin

C. barchasi to'g'ri

D. sabab holi vazifasida kelishi mumkin

15. Qaysi so'zlarda ko'p ma`noli ot yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?

A. siyohdon, bilimdon, qadrdon

B. chiziq, siniq, yo'liq

C. Feruzaxon, kitobxon, dasturxon

D. yaxshilik, darslik, jarlik

16. Kampir Tolibjonni bag'ridan bo'shatib hovli tomonga qichqirdi:

– nima qilib turibsanlar, ayangni chaqirmaysanlarmi? Dadalaringga xabar qilmaysanlarmi? Yugur, pochchangga chop, tog'am keldi, deb ayt.

Berilgan matnda nechta shaxs oti bor va ular qanday sintaktik vazifani bajargan?

A. 5ta; ega va to'ldiruvchi

B. 6ta; ega, hol, to'ldiruvchi

C. 6ta; ega va to'ldiruvchi

D. 4ta; to'ldiruvchi

17. -ch qo'shimchasi qaysi qatordagi so'zlardan ot yasaydi?

A. qo'rq, tin, quvon

B. ishon, tayan, quvon

C. o'tin, shoshil, aya

D. jirkan, tin, sevin

18. Qaysi gapda -gina qo'shimchasi otga xos lug'aviy shakl yasovchi vazifasini bajarmagan?

A. Yakshanba kunlarigina Mehriroz buvisinikiga borib turardi

B. Oyoqqinanga rahming kelmaydimi?

C. Sarvinoz butun yozni shahardan ancha uzoqda – sokingina go'shada o'tkazdi

D. Bolaginam kasalxonada uzoq davolandi

19. Qaratqich kelishigi qaysi so'zlarga qo'shilganda tushib qolmaydi?  
 A. atoqli otlar, turdosh otlar va olmoshlar  
 B. atoqli otlar, olmoshlar va sifatdoshlarga  
 C. atoqli otlar, olmoshlar va harakat nomiga  
 D. atoqli otlar, otlashgan so'zlar va harakat nomiga
20. Qaysi gapda belgisiz qaratqich kelishigi xato qo'llangan?  
 A. Ahyon-ahyonda polizdan qovunlar tars-turs yorilgani eshityapti  
 B. Bobur ham bolaligi o'tgan Andijon osmonini esladi  
 C. Bobur o'smirligida Hulkar yulduzlarini olmosdan yasalgan varrakka o'xshatardi  
 D. Yuzimdagi yomg'ir tomchilarini yengim bilan sidirib, tepamga qaradim
21. Mehnat bilan topilgan boylik qadrini tushunib yetgan o'g'il pulni o'ylab ishlatadigan bo'ldi.  
 Ushbu gapda nechta yasama so'zning asosi ot turkumiga oid?  
 A. 2 ta    B. 4 ta    C. 1ta    D. 3 ta
22. Qaysi gaplarda tushum kelishigini belgisiz qo'llash mumkin?  
 1. Botirlari kanalni qazadi.  
 2. Men seni qutlayman.  
 3. Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim.  
 4. Yaxshini maqtaydilar.  
 5. Birpasda ovqatni yeb bo'ldim.  
 6. Ozni ko'p yengibdi.  
 A. 1, 4, 5, 6    B. 1, 3, 5, 6    C. 1, 5    D. 1, 3, 4, 5
23. Quyidagi so'zlardan qaysilarida paronimlik ot turkumi doirasida yuzaga kelgan?  
 1) abzal-afzal; 2) daho-daha; 3) nufuz-nufus; 4) sut-sud; 5) urish-urush; 6) qars-qarz; 7) da'vo-davo; 8) hush-xush; 9) har-xar; 10) yonilg'i-yoqilg'i  
 A. 1, 4, 7, 9    B. 1, 3, 5, 10    C. 2, 3, 6, 7    D. 3, 4, 10
24. Qaysi gapdagi juft ot qismlari yasama otlardan tuzilgan?  
 A. Maxdum shunga ham qanoat qiladigan bo'lib, hisob-kitobni esidan chiqardi (A. Qodiriy)  
 B. Hovlining janubiy-g'arbiy burchagida joylashgan xona – uy bekasining yotog'i  
 C. O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon: yerni, tabiatni sevadi (I. A. Karimov).  
 D. Mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surayotgani bizning baxtimizdir

25. Otlarda ko'plik ma'nosi qanday hosil qilinadi?

1) -lar qo'shimchasi orqali; 2) birlikdagi ot oldidan birdan yuqori bo'lgan sanoq sonlarni qo'shish bilan; 3) birlikdagi ot oldidan darajamiqdor ravishlarini qo'shish bilan; 4) so'zlarni juftlash bilan

A. 1, 3    B. 1, 2, 3    C. 1, 2, 3, 4    D. 1, 2

26. Ot so'z turkumi qatnashmagan gapni toping.

- A. Yomon so'z tinglovchining ko'nglini xira qiladi  
B. Hech qayerda, hech kimga umuman gapirmang, jim bo'ling.  
C. Nima qilsak tinch va rohatda umr o'tkazamiz  
D. Ortiqchasi zarar keltiradi

27. -lik qo'shimchasi yordamida qaysi so'z turkumlaridan otlar yasab bo'lmaydi?

- A. berilgan so'z turkumlaridan otlar yasaladi  
B. sonlardan    C. fe'llardan    D. ravishlardan

28. bolaginam so'zida -gina qo'shimchasi qanday qo'shimcha hisoblanadi?

- A. lug'aviy shakl yasovchi    B. sintaktik shakl yasovchi  
C. so'z yasovchi    D. yuklama hisoblanadi

29. Illat izlaganga illatdir dunyo,

G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo,

Kim neni izlasa, topgay begumon,

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo. (*S. Salimov*)

Ushbu to'rtlikda kelishik qo'shimchalarining qo'llanishi haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

- A. 3 ta belgili, 4 ta belgisiz    B. 3 ta belgili, 3 ta belgisiz  
C. 4 ta belgili, 4 ta belgisiz    D. 4 ta belgili, 3 ta belgisiz

30. -lik qo'shimchasi haqidagi to'g'ri fikrni belgilang. 1) -lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi; 2) -lik qo'shimchasi atoqli otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi; 3) -lik qo'shimchasi mavhum otlar yasaydi; 4) -lik qo'shimchasi faoliyat-jarayon otlarini yasaydi

A. 1, 3, 4    B. 1, 2, 3, 4    C. 1, 2    D. 1, 2, 3

31. Narsa oti yasovchi qo'shimchalar qaysi so'z turkumlaridan ot yasaydi?

- A. fe'l, ot, sifat    B. fe'l, taqlid, sifat  
C. fe'l, ot, taqlid, sifat    D. fe'l, ot, taqlid

32. Sening xotirangni unutmas aslo

Mening yuraklarim, O'ra Osiyo.

Ushbu parchada -lar qo'shimchasi qanday ma'noni anglatgan?

- A. hurmat    B. ko'plik    C. tur    D. kuchaytirish

33. Qaysi kelishik qo'shimchalarini shakldosh holatda qo'llash mumkin?  
A. jo'nalish, o'rin-payt                      B. tushum, jo'nalish  
C. qaratqich, tushum                          D. tushum, chiqish
34. Qaysi qatorda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladigan ot yasovchi qo'shimchalar berilgan?  
A. -xon, -ma, -in                                  B. -cha, -lab, -ma  
C. -choq, -chak, -lik                              D. -choq, -chak, -ma, -cha
35. Kelishik qo'shimchalari qaysi qo'shimchalar sirasiga kiradi?  
A. so'z yasovchi  
B. munosabat shakllarini hosil qiluvchi  
C. lug'aviy shakl yasovchilar  
D. so'zga qo'shimcha ma'no yuklovchi qo'shimchalar
36. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz bermaydigan ko'p bo'g'inli so'zlar qatorini belgilang.  
A. ittifoq, huquq                                  B. idrok, xalq  
C. quloq, taroq                                      D. ishtirok, zavq



---

---

## SIFAT

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi.

### Sifatning yasalishi

Sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama sifatlarga bo'linadi. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan sifatlar tub sifatlar, asos va yasovchi qismdan iborat bo'lgan sifatlar yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

### Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi

-li, -ser-, -dor-, -siz, no-, -chan-, -ma-, -iy(-viy) kabi qo'shimchalar sifat yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi.

-li, -dor, ba-, ser-, -mand qo'shimchalari asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiradi. Bu qo'shimchalar (-mand qo'shimchasidan tashqari) asosda ifodalangan belgiga ega emaslikni bildiruvchi no-, -siz, be-qo'shimchalari bilan zid ma'nolidir.

-gi (-ki, -qi) qo'shimchasi payt va o'rin bildiruvchi otlarga qo'shilib, payt va o'ringa xos belgini (kechagi), -simon qo'shimchasi o'xshashlik belgisini (shishasimon), -(v)iy (ma'noviy, ilmiy) qo'shimchasi xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi.

### Sifatning tuzilishiga ko'ra turlari



### Sodda sifat

Sodda sifat bir asosdan iborat bo'ladi: ko'kimtir, oqimtir, iliqroq.

### Qo'shma sifat

Qo'shma sifat ikki va undan ortiq asosdan tarkib topadi: shirinsuxan, bug'doyrang. Qo'shma sifatlar, asosan, qo'shib yoziladi.

### Juft sifatlar va ularning imlosi

Juft sifatlar o'zaro yaqin yoki zid ma'noli ikki asosning juft kelishidan hosil bo'ladi. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

Juft sifat qismlari-u, -yu vositasida bog'lansa, ular ajratib yoziladi: yakka-yu yagona.

## **Takroriy sifatlar va ularning imlosi**

Takroriy sifatlar bir asosning aynan takrorlanishidan hosil bo'ladi. Takroriy sifatlar belgini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalaydi. Takroriy sifat qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

### **Asliy va nisbiy sifatlar**

Belgini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydigan va uni darajalab ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan sifatlar **asliy sifatlar** deyiladi: go'zal, chiroyli, shirin, oq, aqlli, yuzaki. Belgini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlangan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan sifatlar **nisbiy sifatlar** deyiladi: qishki, ko'chma, derazali, devoriy.

## **SIFAT DARAJALARI**

Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday ma'no ifodalovchi shakllar esa daraja shakllari deyiladi.

Sifatning quyidagi to'rt xil darajasi mavjud: **1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja.**

### **Sifatlarning oddiy daraja shakli**

Oddiy daraja belgining odatdagi me'yorda ekanligini bildiradi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Sifatning orttirma daraja shakli**

Ottirma daraja belgining me'yordan ortiq ekanligini bildiradi. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi:

1. Oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan eng, g'oyat, juda, nihoyat, bag'oyat so'zlari keltiriladi: juda qizil, g'oyat shirin.

2. Oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: bus-butun, kap-katta, to'ppa-to'g'ri.

### **Sifatlarning qiyosiy daraja shakli**

Qiyosiy daraja belgining me'yordan biroz kam ekanligini qiyosan ifodalaydi. Qiyosiy daraja shakli **-roq** qo'shimchasi yordamida yasaladi .

### **Sifatlarning ozaytirma shakli**

Ozaytirma daraja belgining me'yordan kam ekanligini bildiradi. Ozaytirma shakl sifatning oddiy daraja shakli oldiga sal, biroz, picha, xiyla, nim so'zlarini qo'shish orqali hosil qilinadi.

Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan **-(i)mtir, -ish** qo'shimchalari yordamida ham ozaytirma daraja shakli yasaladi.

## Sifatlarning ma'no guruhlari

Ma'no turi	Misollar
Xususiyat sifatleri	<i>Kamtar, quvnoq, sho'x, ziqna, chopog'on, tirishqoq, odobli, ziqna, sho'x yangi, qopog'on, g'amg'in, sergak, choloq, kar, eski, ko'r, xursand, dangasa, nodon, baxil, karamli</i>
Rang-tus sifatleri	<i>Oq, qizil, moviy, pushti, zangori, moshrang, havorang, ala-chipor</i>
Hajm-o'lchov sifatleri	<i>Keng, tor, baland, past, katta, uzun</i>
Hid sifatlar	<i>Yoqimli, qo'lansa, xushbo'y, sassiq</i>
Makon-zamon sifatleri	<i>Yozgi, kuzgi, kechki, devoriy</i>

## Sifatlarning otlashuvi

Sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi. Bunday vaqtda uning ma'nosi ham sifatga yuklanadi. Natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'ladi va ot bajargan sintaktik vazifalarda keladi:

Otning **yaxshi** zoti uloqda bilinadi. – Otning **yaxshisi** uloqda bilinadi.

Otlashsa ega: Yaxshilar ko'paysin

to'ldiruvchi: Yaxshiga ergash

qaratqich aniqlovchi: Yaxshining so'zi moy

undalma: Yaxshilar, eslang

## Sifatning uslubiy xususiyatlari

Ma'lum belgi bir necha so'zlar orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan: katta, ulug', ulkan, buyuk, gigant; chiroyli, go'zal, xushro'y, bejirim va boshq. Bunday so'zlar muayyan bir umumiy ma'no asosida birlashsalar ham, lekin ular bir-biridan ma'lum farqlanishga ham ega. Bunday farqlanish ularning boshqa so'zlar bilan bog'lanishida, ma'lum uslubga xoslanishida aniq namoyon bo'ladi. Masalan, odam so'zi katta, buyuk, ulkan, ulug' sifatlarini qabul qila oladi, lekin gigant sifati odam bilan bog'lana olmaydi. Chunki u qurilishlarda binolarning shakl-belgisini ifodalashga xoslangan. Shuningdek, ulug', buyuk so'zlari shakl belgisidan tashqari xususiyat belgisini ham ifodalaydi. Bunday vaqtda ular bilan ma'nodosh bo'lib keladi. Ulkan, gigant so'zlarida esa bunday ma'no yo'qligi uchun ular bilan ma'nodoshlikni hosil qila olmaydi.

Shuning uchun ham, sifatlarning ma'nodoshlarini bilish va o'z o'rnida qo'llay bilishi so'zlovchining nutqiy mahoratini ko'rsatadi.

## Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari

(Akademik litsey)

Odatda, sifatlarning uch darajasi ajratiladi: a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma daraja.

Belgining ortiq-kamlik munosabati ifodalanmaydigan sifatlarda oddiy darajadagi sifatlarda sanaladi. Bunday sifatlarda maxsus daraja hosil qiluvchi vosita bo'lmaydi. Shirin, go'zal, oq, qora singari sifatlarda oddiy darajaga mansubdir.

Belgining mo'ljaldan ortiqligini, kuchliligini bildirgan sifatlarda orttirma darajadagi sifatlarda hisoblanadi.

Bunday sifatlarda:

1. Oddiy darajadagi sifatlarning birinchi bo'g'inidagi oxirgi undoshning *m* yoki *p* undoshiga almashtirib yoki shunday undosh qo'shib sifatlarda oldidan takrorlash orqali: ko'm-ko'k; sariq – sap-sariq, qizil – qi p-qizil kabi;

2. Tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho'zish yo'li bilan: achchiq – a:chchiq, uzun – uzu:n; chiroyli – chiro:yli kabi;

3. Sifat oldidan juda, g'oyat, nihoyatda, behad singari so'zlarni qo'shish yo'li bilan: yaxshi-juda (behad, g'oyat, nihoyatda) yaxshi kabi.

Belgining mo'ljaldan kamligini, kuchsizligini ifodalaydigan sifatlarda ozaytirma darajadagi sifatlarda hisoblanadi.

Bunday sifatlarda quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi: 1) sifatlarda oldidan sal, picha, ozgina, xiyol, biroz kabi so'zlarni keltirish yo'li bilan: to'la – sal to'la, achchiq – ozgina achchiq. 2) sifatlarda oxiriga -roq, -(i)sh, (i)mtir qo'shimchalarini qo'shish orqali: sariq – sariqroq (sarg'ish, sarg'imtir) kabi.

Bular ichida -roq qo'shimchasi biroz, sal, ba'zan, nim, och so'zlari bilan sinonim bo'lib keladi. Shuning uchun ularni ko'pincha birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, qizilroq – sal qizil, biroz qizil, och qizil kabi.

## Sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari

Sifatlarning tub va yasama bo'lishidan xabardorsiz. Hech qanday yasovchi qo'shimchalarsiz belgi bildiruvchi so'zlar tub sifatlarda sanaladi. Masalan, go'zal, xunuk, oq, qora kabi. Yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan hosil qilingan sifatlarda yasama sifatlarda hisoblanadi. Masalan, suv so'ziga -li qo'shimchasini qo'shish orqali o'zak ifodalagan narsaning mavjudligini, me'yordan ortiqligini (suvli) bildiradi, -siz qo'shimchasini qo'shish orqali esa aksincha, o'zak ifodalagan narsaning yo'qligi yoki me'yordan kamligini (suvsiz) bildiradi.

Sifat yasovchi -li qo'shimchasi -dor, -kor, qo'shimchalari va ba- old qo'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi, shuning uchun ularni birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin.

Masalan, go'shtli-go'shtdor, gunohli-gunohkor, mazasiz-bemaza kabi; lekin doimo ham ularni bir-biri bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, yurakli, kuchli so'zlarini bayurak, yurakdor, yurakkor, kuchdor, bakuch, kuchkor deb bo'lmaydi. Sifat yasovchi -siz qo'shimchasi be-, no- old qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ularni ko'pincha birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, umidsiz, beumid -noumid; lekin ularni ham doimo bir-biri bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan, aqlsizni beaql deyish mumkin, lekin noaql deb bo'lmaydi. Shuningdek, nomard, noma'lum singari so'zlardagi no- old qo'shimchasini be- old qo'shimchasi va -siz qo'shimchasiga almashtirib bo'lmaydi, chunki bu so'zlar fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tayyor holda o'tgan. Hozirgi o'zbek tilida yasalgan emas.

Shunga ko'ra sifat yasovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega.

### Sifatning grammatik tahlili

1. Sifat. 2. So'rog'i. 3. Ma'no turi (xususiyat, hajm-o'lchov, hid, makonzamon, shakl-ko'rinish). 4. Asliy/ nisbiy. 5. Otlashgan/ otlashmaganligi. 6. Tuzilish turi (sodda, qo'shma, juft, takror). 7. Darajasi. 8. Gapdagi vazifasi. Mayin shamol esdi.

Mayin – sifat, qanday?, xususiyat, asliy, oddiy daraja, otlashmagan, sodda, tub, aniqlovchi.

Baxilning bog'i ko'karmas.

Baxil (odamning) – sifat, kimning?, xususiyat, asliy, oddiy, otlashgan, birlik, qaratqich, sodda, tub, aniqlovchi.

#### Topshiriq.

1. Berilgan matndan sifatlarni ajrating.

### Baxt saroyi

Ruslarning ulug' yozuvchisi Lev Tolstoyning «Anna Karenina» deb nomlangan asari shunday satrlar bilan boshlanadi: «Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, baxtsiz oilalarning esa, har biri o'zicha baxtsizdir». Bu yaxshi falsafiy fikrga o'xshagan bilan bahslashish mumkin. Chunki baxtni ham har bir oila o'zicha tushunadi. Masalan, harom yo'llardan qaytmay, boy yashayotgan oila haromdan parhez qilib, oziga qanoat qilayotgan qo'shnisini baxtsiz deb hisoblaydi. Bu qo'shni esa, uning oxiragini o'ylab, baxtsizligidan afsuslanadi. Demoqchimizki, oilalarning baxti va

baxtsizligi ham faqat o'zlariga xos, bir-biriga o'xshamaydi. Hatto bir oila a'zolarining baxt haqidagi tushunchasida ham farq bo'ladi. Er baxtni ilm olishda, deb bilsa, xotin bilakni bezovchi tilla bilaguzukda deb hisoblaydi. Qani, barcha tushunchalarni bitta qolipga solib ko'ring-chi! Ikki toliba dugonaning biri hayo tarbiyasini mukammal olgan, ikkinchisi esa, sayoz. O'sha ikkinchisi bazm-u ziyofatlarda yayragan paytida kutubxonada o'tirgan dugonasidan kuladi, chiroyli ko'ylak sotib olishga puli yetmagani uchun uni baxtsiz deb hisoblaydi.

## **2. Sifatning ma'no turlarini aniqlang.**

Xudoga shukrki, yonimizda yomondan ko'ra yaxshi ayollar ko'proq. Xo'sh, kimlarni yaxshi deymiz?

- olijanob, pokiza va qalbi go'zallarni;
- aqlli, qanoatli, iffatli, vafolilarni;
- barcha harakatlarini o'ylab qiladigan, erining borida ham, yo'g'ida ham hurmatlab, o'zini va nomusini saqlaydiganlarni;
- yaxshi va yomon kunlarda fidokor bo'lishni o'zlariga shior qilib olganlarni;
- yuzidan kulgi arimaydigan, tili shirin, qo'li barakali, qadami qutlug' bo'lganlarni...

## **3. Sifat yasovchi qo'shimchalarni aniqlang.**

Inson – aqlli. Inson – donishmand... Shu qadar donishmandki, xat-savodi chiqmay turib, omoch o'ylab topdi... G'ildirak ixtiro qildi... Narvon... Keyin suvda suzdi. Osmonda uchdi. «Oynai-jahon»ni yaratdi... Ko'p bedavo dardlarga shifo topdi. Qadami Oygacha yetdi...

Inson – aqlli. Inson – donishmand... Shu qadar «donishmand»ki bir zarb bilan butun boshli shaharni kultepaga aylantiradigan atom bombasini o'ylab topdi. Shu qadar «donishmand»ki, bir zarb bilan butun boshli mamlakatni yer bilan yakson qiladigan vodorod bombasini yaratdi. Shu qadar «donishmand»ki, bir zarb bilan million odamni, mol-holni, qurt-qumirsqani qirib tashlab, «jonsiz» boyliklarga – uy-joy, mol-mulk, oltin-kumush, temir-tersakka ziyon yetkazmaydigan «aqlli» neytron bombasini kashf etdi...

## **4. Tub va yasama sifatlarni aniqlang.**

1. O'quvchi asar qahramonlarini tirik odam deb qabul qilsa, ularning quvonch va iztiroblariga shenk bo'lsagina o'sha haqiqiy asardir. 2. O'z xalqi tanimagan, o'z xalqi sevmagan yozuvchini jahon kitobxonni sevishiga ishonmayman. 3. Qog'oz oq bo'lgani uchun unga So'z bitadilar. Paytava kir bo'lgani uchun unga So'z yozib bo'lmaydi. 4. Qalbi qog'ozdek oppoq, qog'ozdek lovullab yonadigan odamdangina chinakam adib chiqadi. 5. She'riyat go'zal va ixcham koshonaga o'xshaydi. 6. Dunyoda eng bebaho, ammo hamisha benazir tarqatiladigan xazina bor. Bu - Ona mehri! 7. Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo'ydi. 8. Bir mahal kiyik cho'qqi tepasiga

yetganda tubsiz dara ustidan sakradi-da, narigi cho'qqiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. 9. Qani edi, yoshligingda keksalardek donishmand, keksayganda yoshlardek baquvvat bo'lsang... 10. Goho aql qancha qisqa bo'lsa, til shuncha uzun bo'ladi...

### 5. Sifatni tahlil qiling.

Andishasiz azbaroyi beandisha bo'lgani uchun dasti uzun, tili burro bo'lsa-da, andishali azbaroyi andishali bo'lgani uchun qo'li qisqa, tili qisiq bo'lsa... alam qilarkan!

### Berilgan matndan sifatni ajrating.

Baqqol amaki o'zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, yakkam-dukkam soqolli, burni puchuq, iyagi kalta odam. Qorni ham haddan tashqari katta bo'lganligi uchun o'tirganda xuddi bir qop go'shtdek bo'lib qoladi. O'ziyam juda g'alati odam, sergapmi, kavgapmi, bilib bo'lmaydi. Bir qarasangiz, qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o'tiradi, bir qarasangiz, gung bo'lib boshini egib oladi.

**Sifat yasovchi qo'shimchalarni qo'ying va tub hamda yasama sifatlarni ajratib yozing.**

1. I.Otin bibi qari, jiddiy, (bo-, ser-, no-)... savlat xotin. 2. O'yma... (-gar, -li, -kor) gullari bilinmaydigan darajada o'chgan, qo'sh tabaqa... (-siz, -li, -miy) eski eshikka kiramiz. 3. Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasal... (-chan, -kash, -mand), rangpar kishi. 4. Cho'ponlar sez... (-qur, -gir, -kir), itlar ham ziyrak, bo'ridan ayyor. 5. Do'mbirachi qadim... (-iy, -gi, -dor) qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda.

2. 1. Oldimizda mevali va mevasiz daraxtlari ko'p bo'lgan o'nmon. Archa ham serob. O'riklarning yaprog'i qizil, qontalash. Xuddi birov ular shoxiga bir satil qizil bo'yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq i pakday mayin. Ko'zga shunday jozibali ko'rinadiki, uzib-uzib, g'arch-g'urch tishlaging keladi. 2. Hindubek turkiy, forsiy tillarni mukammal o'rgangan ilmi, ma'rifatli, dilkash kishi bo'lganligi uchun Boburning eng yaqin beklari qatoriga kirgan edi. 3. Suv shishadek tiniq. 4. Hozir ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.

3. 1. Inson tabiatning eng ong... farzandi. 2. Pastdagi bog'dan yumsho..., namxush xazon hidi ko'tarilib, uning xayollarini to'l... oy sehlragan tog' vodiy daralariga olib ketardi. 3. Oybek domla nihoyatda tiyraklik bilan, ko'pchilik nom... insonlarda juda kam uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg'uborlik bilan opaning gaplarini tasdiq etdi. 4. Bu o'lkada iqlim o'rtacha, suv mo'l, yer unum..., quyosh nuri yetarli. 5. Ariqlarda suv emas, o'yno... nur oqadi. Qo'shimchalar: -li, -in, -q, -dor, -qi.

### Sifatning qaysi so'z turkumidan yasalganini ko'rsating.

1. 1. Yo'ning ikki betidagi qoramtir, oq, qizil daraxtlarning tanga-tanga barglari iliq quyosh nuridan marvariddek tovlanadi. 2. Uning chaqnoq ko'zlari, o'ychan turishi katta bardoshini, sadoqatini, aqlini aks ettirib

turardi. 3. G'iyos yumshoq ajriq ustiga yonboshladi. 4. Mehmon degan unaqa sergap bo'lmaydi,- dedi u ayyorlarcha kulib. 5. Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi. 6. Avaz dahlizdan rangdor vassal, sertokcha uyga kirdi.


2. 1. Kechki payt hujrada Boburning yolg'z o'zi o'tirar edi. 2. Daryoga doimiy ravishda irmoqlar kelib qo'shilib turmasa, uning oqimi jo'shqin bo'la olmaydi. 3. Shahzodaning dilini ma'yus, ammo har kungi mudhish tuyg'ularga o'xshamagan, allaqanday pokiza hislar chulg'ab oldi. 4. Dastlabki kunlar yo'l unchalik mashaqqatli bo'lmadi. 5. Bu o'rmonda odamsimon maymunlar yashaydi.

3. Sifat va ot yasovchi qo'shimchalar orasidagi shakldoshlikni aniqlang.

Namuna: Sayra+qi - tutat+qi - sifat va ot yasovchilar omonimligi.

Sayroqi - tutatqi, oqshomgi - sezgi, kechki - tepki, erinchoq - o'yinchoq, chizg'ich - yulg'ich, qishlik - yoshlik, aybdor - mulkdor, yashirin - bo'g'in, yasama - bostirma.

### Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari



**I. Quyida berilgan mashqlardagi sifatlarni jadvalga joylashtiring:**

1. 1. Barcha ezguliklar zamirida xosiyatli orzular yotadi. 2. Tuproq qatlami qalin, sersuv yerlarda o'sgan archalar yo'g'on va bo'ydor bo'ladi. 3. Atrofdagi hovlilardan ko'tarilgan tutunlar ko'kimtir, mayin mavj bilan tiniq, sovuq havoda suzadi. 4. Qo'limda bitta sigir bor. Jonivor juda sersut, qaymog'i suzsangiz bir enlik keladi. 5. Bu bog'lar ichida oq qizg'ish, nafis, havorang marmardan qurilgan ko'rkam binolar, ko'shklar, kichik-kichik saroylar ko'zga tashlanadi.

2. Cho'l-u biyobon. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan-ufqqa tutashgan. Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esadi. Tiniq, ko'm-ko'k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi. Yuksak tog'lar tumanda. Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go'yo sahrolar, tog'lar kezaman. Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o'zgaradi. «Tabiatning siri, ma'nosi chuqur», deyman ichimda.

3. 1. Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi. 2. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. 3. Milliy mafkuramizda milliylik umumbashariy



g'oyalar bilan uyg'unlashib ketgan. 4. Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag'ishlaydi. 5. Ona yerning xushbo'y tafti mast qiladi kishini. 6. U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo'lsa, bu xushqad, xushsurat.

4. 1. Samig' aka elliklardan oshgan, tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash, shirinso'z odam. 2. O'zbek xalqi mehmondo'st xalq. 3. Ko'z oldimdan ichakuzdi qiliqlar qilayotgan qiziqchilar, toshlarni osmonga irg'itib o'ynayotgan polvonlar ketmasdi. 4. Osmono'par koshonalar, yangi libos kiygan cho'l-u sahrolar tasviri qo'shiq parvoziga esh bo'ladi.

1. Quyidagi gaplardagi qo'shma sifatlarning qaysi so'z turkumidan hosil bo'layotganini aniqlang.

1. Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi. 2. Nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi. 3. Mehnatsevar, zahmatkash insonlar odamlarning ko'rki, ishyoqmaslar esa ularning og'riq joyidir. 4. Toshbag'ir odamdan yaxshilik kutma. 5. Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir. 6. Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bamaza qovunga o'xshaydi.

2. Quyidagi gaplardagi juft sifatlarning yasalishini aniqlang.

1. Menga o'xshash esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan. 2. Qo'llari ketmon, o'roq, ayri ushlayverganidan g'adir-budur, haqiqiy dehqon edilar. 3. Ba'zan plitka shokoladmi, arzon-garov qo'g'irchoqmi olib keladi. 4. Shag'al to'kilgan o'ydin-chuqur yo'ldan yurish it azobini bersa-da Yigitali chidadi. 5. Alg'ov-dalg'ov shamol esib turar edi. 6. Shoxlar qurib, ularda yakkam-dukkam yaproqlargina qoladi.

3. Quyida berilgan takror sifatlarni hosil bo'lishini izohlang.

1. Yirik-yirik tomchilar yer-u ko'kni savalay ketdi. 2. To'p-to'p daraxtlar tag'in li pillab orqadaqolib ketdi. 3. Ko'chani sho'x-sho'x bolalar to'ldirib o'tishdi. 4. Sayyohlar chaqqon-chaqqon harakatlar bilan qirga ko'tarila boshlashdi.

II. Asliy va nisbiy sifatlarni ajratimg.

*Namuna:*

asliy



aqlli  
shirin

nisbiy



g'ishtin  
qishki

1. I. Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina, g'ishtin uycha bor. 2. Temur yuksak insoniylik xususiyatlariga ega bo'lgan buyuk shaxs edi. 3. Uning jussasi kichkina bo'lsa ham yuzlari jiddiy, boqishlari o'tkir, ovozi esa jarangdor. 4. Yonbag'irlarda rango-rang tovlanib, xushbo'y atrini taratayotgan gullarga nazar tashlayman. 5. U oltmishlarga borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qi p-qizil, serg'ayrat vatavakkalchi odam edi.

2. Tog' etaklarida ko'm-ko'k maysalar uzra nafis gullar, turli xushbo'y giyohlarning hidlari anqiydi. Daraxtlar siyrak, onda-sonda pakana daraxtlar uchrab qoladi. Otlar balandlik, tepalikka intilib, oyoqlarini g'urur bilan chiroyli tashlaydi, boshlarini ko'rkam tutadi. Shu sayrdan, tabiatning go'zalligidan nash'a va safo turgan bu aqli jonivorlarning tiniq ko'zlarida xushnudlik ifodasini ko'raman. Naqadar go'zal jonivor bular... Sevaman, ko'ngildan, chindan sevaman otlarni!..

3. Dam olish kunlaridan biri edi. Ko'chaga chiqdim. Kech kuz bo'lsa ham havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go'yo ko'chaga chiqishingizni kimdir bilgan-u yo'lingizga gilam to'shab qo'ygan.

Har yil kuzda, xazonrez paytida menga shunday tuyuladi, shuning uchun ham ko'chaga chiqaman, serdaraxt xiyobonlarni uzoq aylanaman.

### Sifat darajalari

Oddiy	Qiyosiy	Orttirma	Ozaytirma
qizil	Qizilroq	qip-qizil juda qizil to'q qizil	qizg'ish -mtir -imtir -gina, -kina, -qina

#### I. Quyidagi mashqlarni yuqoridagi jadvalga joylashtiring:

1. Beruniy uchlari jingalak, qalin moshguruch soqolini tutamlaganicha o'yga toldi. Tokchadagi shamlar shu'lasida uning bir-biriga tutashgan o'siq qoshlari, cho'zinchoq, qoramtir yuzi, chamberak qalpoqchasi tagidan bo'rtib chiqqan do'ng peshonasi, uzun qiyg'ir burni- butun qiyofasi qandaydir juda shiddatli ko'rinar, zotan, dong'i ketgan allomalardan ko'ra suronli janglarda toblangan lashkarboshiga o'xshab ketardi.

2. Sariq, yam-yashil, bahavo, ulkan, juda uzun, eng baland, jasur, dangasaroq, xayolchan.

3. 1. Hamma yoq top-toza. 2. Yomg'irda cho'milgan ko'z ilg'amas ulkan bog', qizil qum sepilgan xiyobonlar, hilol va yulduz shaklidagi gulzorlar yanada go'zalroq, yanada so'limroq ko'rinar. 3. Dunyoda eng orzumand xalq o'zbek bo'lsa ajabmas. 4. Onamning ismi Enaxon, nihoyatda ko'ngilchan, zahmatkash ayol.

4. 1. Agar birorta kichikroq baliq suv yuziga suzib chiqsa, mushuk bir hamla bilan ushlab olar ekan. 2. Dunyoda do'stlikdan afzalroq, yoqimliroq narsa yo'q. 3. Go'zallikdan ezgulik yaxshiroqdir. 4. Dunyoda johillikdan

dahshatliroq narsa yo'q. 5. Insonning aqli mushtidan ko'ra kuchliroqdir. 6. Nomus jondan ham qimmatliroq.

5. 1. Gulzorda to'kilgan bulturgi xazon ilma-teshik bo'lib, jigarrang tus olgan. 2. Shamning qizg'ish shu'lasi kulbaga fayz berib turar edi. 3. Maxsum kichkinagina, ozg'in, siyrak soqoli-yu qop-qora yuzidan yoshini chamalab bo'lmaydigan bir odam edi. 4. Shunda ulg'aydi bo'yi, Ko'ring bo'ldi yigitcha. Vazmin, tiyrak, chaqnoq ko'z, Sarg'ish soch-u oppoq yuz.

6. 1. U duduq, xiylagina duduq bo'lishiga qaramay sho'x, xushchaqchaq, yaxshigina askiya ham qilar ekan. 2. Xira yorug' ichkariga to'kiladi, gugurcho'p alanga olib Olim Qodirovning kulcha, oqish yuzlarini, quyuk ki priklari va bezovta chaqnayotgan ko'zlarini bir zum yoritib, asta-asta pasayib o'chadi. 3. Kalishlarni kiyib olaman. – Sag'al katta-ku! – deyman sevinganimdan entikib. 4. Qoramtir osmon asta-sekin yorisha boshladi.

**Sifatlarning ma'no guruhlari:**

Xususiyat bildiruvchi sifatlari	Rang-tus bildiruvchi sifatlari	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlari	Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlari	Hid bildiruvchi sifatlari	Makonzamon belgisini bildiruvchi sifatlari

**Quyidagi mashqlarni yuqoridagi jadvalga joylashtiring:**

1. Bir cholning to'rtta navqiron o'g'li bor ekan. Bir kuni chol:

– Men qarib qoldim. Ichingizdan kim aqlli va davlatmand bo'lsa, menga merosxo'r bo'ladi, – debdi.

Eng katta o'g'il qizil yoqut ko'zli uzugini, ikkinchi o'g'il zarbof choponini, uchinchi bebaho kamarini ko'rsatib maqtanibdi.

Chol indamay turgan kenja o'g'ilga qarabdi.

– Menda bunday boyliklar yo'q, lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, – debdi u.

Uning javobi cholga yoqibdi. Kenja o'g'ilga bor merosini qoldirishini aytibdi.

2. Uzun, qisqa, keng, baland, tungi, xursand, quvnoq, g'amgin, sho'x, kamtar, bulturgi, qishki, kechki, kuzgi.

3. Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug'orayotgan edim, yangi «Moskvich» kelib to'xtadi. Mashina eshigi ochilib, bahaybat gavdali yigit tushib keldi, taniy olmadim.

– Hormang, dehqonchilik zo'r-ku! – dedi notanish yigit do'rillagan ovoz bilan.

Shunda hayratdan baqirib yubordim:

– Iya, Toymisan?

Ha, xuddi o'sha Toyning o'zi. Faqat shuncha bo'y, bunaqa zabardast qo'l-oyoqlarni qayoqdan oldi ekan?

– Poshsha oyimlarni ko'rgani keldim! – dedi uzun qomatiga uncha mos kelmaydigan alpozda muloyim jilmayib.

4. 1. Sap-sariq oltinday cho'girilar, ko'k beqasam to'n kiyishib yotgan ananaslarni yegani ko'zingiz qiymaydi. 2. Mamat olachi por, yashil tepalikdan pastlikka tomon yayov kelmoqda. 3. Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm–ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi. Suvning etagi ko'k bilan birlashib ketgan. 4. Samoning bulutlar siyrak, zangorisimon sahnida ham to'lishmagan qandaydir beshakl oy xira, rangsiz yiltiradi. 5. Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarni oq, pushti gullar bilan bezadi. 6. Yo'llarimda zangori ko'llar, oyna kabi tiniq va bejon.

**Topshiriq: Sifatlarning otlashmagan holatiga qo'yish.**

*Namuna: yoshroqlari – yoshroq odamlari.*

1. 1. Yoshroqlari olovga yaqinroq, keksalari bo'lsa, olovdan uzoqroq o'tirishar edi. 2. Dono, aqllilar hech qachon yo'ldan adashmaydi. 3. Endi senlar o'qib, oq-qorani taninglar, – deydi Xoliyor amaki. – Hozir dunyo ilmi odamlarniki. 4. Bilimli biladi bilim hurmatin, Bilimsiz ne bilgay bilim qiymatin. 5. Yomon-u yaxshini xulqidin anglag'il, Yomonni yomon, yaxshini yaxshi bil.

2. 1. Yomon bilan yo'ldosh bo'lsang, Yomondan burun o'lasan. Yaxshi bilan sirdosh bo'lsang, Yaxshilik bilan unasan. 2. Dono – durdan a'lo. 3. Baxilning qo'lida oy bo'lsa, olamni yoritmas. 4. Kattaga katta bo'l, kichikka – kichik. 5. Hunarli o'lmas, hunarsiz kun ko'rmas. 6. Achchiqni achchiq kesar.

**Quyidagi gaplarni sifat tahlili bo'yicha izohlab yozing.**

Baxil boyga borguncha,  
Karamli tog'ga borar.  
Baxildan tosh so'raguncha,  
Gadoydan osh so'ra.  
Nomardga yalinma,  
Bir baloga chalinma.  
Aqlsiz do'stga kular,  
Aqli do'stini suyar.  
Johil ulfat – boshingga kulfat.  
Yaxshi do'sting kuldirar,  
Yomon do'sting kuydirar.  
Aybsiz do'st izlagan do'stsiz qolar.  
Issiq kiyim tannika,  
Issiq so'z jonni ilitar.

## Sifat bo'yicha test topshirig'i

### 1-variant

1. Qaysi qatordagi gapda yasama sifat mavjud?  
A. Kech kirib, ajib bir so'lim payt boshlandi  
B. Otin bibi qari, jiddiy, sersaviat xotin  
C. Do'mbirachi qadim qozoq kuylaridan dostonlar kuylamoqda  
D. Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go'yo sahrolar, tog'lar kezaman.
2. Yaxshining yaxshiligi har yerda tegar.  
Gapdagi otlashgan sifatning sintaktik vazifasini aniqlang.  
A. Hol B. Kesim C. Aniqlovchi D. Aniqlovchi, ega
3. Qaysi qo'shimchalar rang-tus sifatlarigagina qo'shilib, belgining me'yordan ozligini ifodalaydi?  
A. -mtir, (-imtir) B. -roq C. -ish D. -mtir, (-imtir), -ish
4. Qaysi qatorda juft sifatlar yangi imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan?  
A. Balandu past B. Oqu-qora  
C. Yaxshi-yu yomon D. Kattayu-kichik
5. Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi.  
Yasama sifatlar miqdorini toping.  
A. 2 ta B. 3 ta C. 4 ta D. 1 ta
6. Qaysi gapda yasama takroriy sifat mavjud?  
A. Shirmonning qulog'iga uzuq-yuluq so'zlar chalindi-yu, hech narsa uqolmadi (S. Zunnunova)  
B. Yangi-yangi orzular,  
Bilan tepar yuragim  
C. Yo'lovchi issiq-issiq choy ichdi  
D. Yonboshim sekin-sekin qizib bormoqda edi (G'.G'ulom)
7. Otlashgan sifat qaysi gapda keltirilgan?  
A. Oramizda bilimdon o'quvchilar ko'p  
B. Yomon odamni yomon, yaxshi odamni yaxshi bil  
C. Dono, aqlli odamlar hech qachon yo'ldan adashmaydi  
D. Bilimli biladi bilim hurmatin
8. Qaysi gap tarkibida ikki o'rinda yasama sifat qo'llangan?  
A. Ayniqsa, Nasriddinning quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi

- B. Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esardi  
 C. Qo'limda bitta sigir bor. Jonivor juda sersut, qaymog'ini suzsangiz bir kosa keladi  
 D. Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi
9. Qaysi gaplar tarkibida yasama sifat mavjud?  
 1. G'iyos aka yumshoq ajriq ustida yonboshladi.  
 2. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan.  
 3. Barcha ezguliklar zamirida xosiyatli orzular yotadi.  
 A. 1, 2, 3      B. 1 va 3      C. 1 va 2      D. 2 va 3
10. Sodda yasama sifatlar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida qaysi so'z turkumlaridan yasalishi mumkin?  
 1. Otlardan 2. Fe'llardan 3. Ravishlardan 4. Sifatlardan 5. Taqlidlardan  
 A. 1, 2, 3, 5      B. 1, 2, 3, 4, 5      C. 1, 2, 5      D. 1, 3, 4, 5
11. Quyidagi so'zlarning qaysilarida sifat yasovchi qo'shimcha jarangli undoshdan so'ng qo'shilgan?  
 1) iliq; 2) siniq; 3) egik; 4) tiniq; 5) ochiq; 6) yoyiq; 7) yopiq; 8) teshik  
 A. 2, 3, 4, 6      B. 2, 3, 5, 6, 7      C. 2, 3, 4, 5, 8      D. 1, 2, 3, 4, 6
12. Berilgan so'zlarning qaysilariga ot yasovchi -lik, qaysilariga sifat yasovchi -li qo'shimchasi qo'shiladi? 1) tashna.; 2) kuch.; 3) ohangdor.; 4) moyil.; 5) aql...  
 A. 1, 4-so'zlarga -lik, 2, 3, 5-so'zlarga -li  
 B. berilgan barcha so'zlarga -lik qo'shimchasi qo'shiladi  
 C. 1, 3-so'zlarga -lik, 2, 4, 5-so'zlarga -li  
 D. 1, 3, 4-so'zlarga -lik, 2, 5-so'zlarga -li
13. Sifat yasovchi qo'shimchalardan qaysilari sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qilishi mumkin? 1) -siz; 2) -ma; 3) -in  
 A. 2      B. 1      C. 2, 3      D. 1, 2
14. Jumladagi sifatning ma'no turini toping.  
 Uning yonoqlari uzunchoqroq edi.  
 A. hid bildiruvchi      B. hajm-o'lchov bildiruvchi  
 C. shakl-ko'rinish bildiruvchi      D. holat bildiruvchi
15. Sifat harakat belgisini bildirgan qatorni aniqlang.  
 A. ko'k parda, oq qog'oz, sariq gul  
 B. qattiq ta'sirlanmoq, yaxshi o'qimoq, sodda kiyinmoq  
 C. iliq tabassum, sovuq muomala, sho'x bola  
 D. mehribon ona, ziqna odam, yo'rg'a ot
16. Predmetning xususiyatini bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?  
 A. shirin, achchiq, nordon      B. novcha, og'ir, katta

C. kamtar, xushfe'l, sho'x      D. devoriy, tonggi, xushbo'iy

17. Qaysi so'zlar xususiyat bildiruvchi sifatlar hisoblanadi?

A. andishali, sho'x      B. qimmatli, egri  
C. pushti, qirmizi      D. mazali, yumaloq

18. Asliy sifatlar berilgan javobni toping.

A. qishki, derazali, ko'chma, devoriy      B. go'zal, chiroyli, shirin  
C. oq, aqlli, yuzaki      D. B va C

19. Orttirma daraja shaklidagi sifalarni aniqlang.

A. tim qora, qi p-qizil, oqish  
B. sarg'ish, ko'kimtir, qoramtir  
C. yumshoqqina, och yashil, to'q ko'k  
D. juda baland, g'oyat yaxshi, eng kichik

20. Quyidagi qaysi fe'l o'zaklaridan -iq qo'shimchasi orqali sifat yasash mumkin?

1. Buz 2. Pish 3. Yoy 4. Yul 5. Yum

A. 2, 3, 4      B. 2, 4, 5      C. 1, 2      D. 2, 3

21. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?

A. -qi, -viy, -k      B. -aki, -oq, -a  
C. -li, -ma, -gir.      D. -oq, -ik, -ma

22. Tub sifat berilgan qatorni toping.

A. kuydi-pishdi      B. jirkanch      C. haqiqiy      D. tibbiy

23. -in qo'shimchasi bilan yasalgan sifatlar qaysi qatorda berilgan?

A. tiqin, yig'in      B. chirkin, yog'in  
C. to'kin, erkin.      D. keskin, otashin

24. Otlashgan sifat qaysi gapda?

A. Ichki go'zallik bilan yo'g'rilmagan har qanday tashqi husn mukammal bo'la olmaydi

B. Izchil mehnat hamma to'siqlarni yengadi  
C. Otning yaxshisi uloqda bilinadi  
D. Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir

25. Otlashgan so'zni toping.

A. Bilmaslik ayb emas, o'qimaslik ayb  
B. Birov yonbag'irdan gul terгани, birov buloq suvidan ichgani tarqalib ketdi

C. Dunyoda el va yerga xiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi?

D. Donolikning bir belgisi — adolat

26. Otlashgan sifat qaysi gapda?  
 A. Dilshod tun-u kun tinmay ishladi  
 B. Chiroyli kiyingan bolalar saf tortishdi  
 C. Safimizda qoloqlar qolmadi  
 D. Kasal bolani darrov shifokorga ko'rsatdik
27. Qaysi qatordagi gapda sifat otlashmagan?  
 A. Yomonni tanqid qiladi, yaxshi kishiga taqlid.  
 B. G'oliblar majlis to'ridan joy olishdi.  
 C. Undan ko'ra munosibrog'ini topolmaysiz.  
 D. Eskilarini yamaguncha, yangilarini tezroq yasaymiz.
28. Qaysi qatorda sifat otlashmagan?  
 A. Boy qursin uyat-andishani bilmaydimi?  
 B. Quv, ichidan pishgan, fidoyi, jasur komandirini hamma sevadi.  
 C. Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dog'.  
 D. Bu xabarni eshitgach, onasi dovdirab, nochor qoldi.
29. Qaysi qatordagi qo'shma sifat ravish+ot birikuvidan tashkil topgan?  
 A. mushtumzo'r                      B. hozirjavob  
 C. yolg'izoyoq                        D. xomsemiz
30. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlarni hisoblanadi?  
 1. katta 2. chiroyli 3. ishyoqmas 4. shishasimon 5. ko'kimtir  
 A. 1, 2, 3                      B. faqat 1                      C. 1, 2, 3, 4, 5                      D. 1, 2, 4, 5
31. Qaysi qatordagi qo'shma sifat ravish+ot birikuvidan tashkil topgan?  
 A. mushtumzo'r                      B. kamquvvat  
 C. yolg'izoyoq                        D. xomkalla
32. Quyidagi gapda nechta juft sifat bor?  
 Yakka-yu yagona farzanding yaxshi-yomon kuningga yaramasa, katta-yu kichik oldida yuzingni yerga qaratsa-ya!  
 A. 1 ta                      B. 3 ta                      C. 2 ta                      D. 4 ta
33. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?  
 A. -aki, -oq, -choq                      B. -qi, -viy, -k  
 C. -li, -iq, -a                      D. -q, -iq, -iy
34. Qaysi gap tarkibida ikkita o'rinda yasama sifat qo'llangan?  
 A. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan.  
 B. Tuproq qatlami qalin, sersuv yerlarda o'sgan archalar yo'g'on va bo'ydor bo'ladi  
 C. Tiniq, ko'm-ko'k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.  
 D. Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi.



35. Otlashgan sifat ishtirok etgan gapni toping.
- A. Elmurod chaynaganini yutib, nonga tikilib qoldi.  
 B. Shu yaqindan o'tib ketayotgan ikkita ovchi urushqoqni aravaga ortib ketishdi.  
 C. Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchigligini bilishsa kerak.  
 D. Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi.
36. Qaysi qatordagi gapda nisbiy sifat qo'llangan?
- A. Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina g'ishtin uycha bor.  
 B. G'iyos aka yumshoq ajriq ustiga yonboshladi  
 C. Cho'ponlar sezgir, itlar ham ziyrak, bo'ridan ayyor.  
 D. Inson tabiatning eng ongli farzandi.

## 2-variant

1. Qaysi qatordagi gap tarkibida ot+ot tipidagi qo'shmasifatlar berilgan?
- A. Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir  
 B. Toshbag'ir odamdan yaxshilik kutma  
 C. Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi.  
 D. Nodon va kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi
2. Qaysi gapda xususiyat bildiruvchi sifat qo'llangan?
- A. Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchigligini bilishsa kerak  
 B. Mamat olachi por, yashil tepalikdan pastlikkatomon yayov ketmoqda  
 C. Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug'orayotgan edim, yap-yangi «Moskvich» kelib to'xtadi  
 D. Hovli tor, devorlari baland edi.
3. Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo odobdir.  
 Ushbu gapdagi sifatlar miqdori va turini aniqlang.
- A. 4 ta; 2 ta qo'shma, 2 ta soda tub  
 B. 3 ta; 2 ta qo'shma, 1 ta soda yasama  
 C. 3 ta; 2 ta qo'shma, 1 ta soda tub  
 D. 4 ta; 2 ta qo'shma, 2 ta soda yasama
4. Qaysi qo'shimcha xoslik belgisini bildiruvchi sifat yasaydi?
- A. -simon    B. -iy(-viy)    C. -mand    D. -gi(-qi)
5. Qaysi gapdagi juft sifatlar yasama+yasama so'z shaklida tuzilgan?
- A. U paytda qing'ir-qiyshiq ko'chalar ko'p bo'lgan  
 B. Kasbning katta-kichigi bo'lmaydi  
 C. U yoshligidan ota-onosiz katta bo'lgan  
 D. Menga o'xshash esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan
6. Sifat+ot shaklidagi qo'shma sifatlar qatnashgan gapni toping
- A. Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag'ishlaydi

- B. Shirinsuxan, oq ko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi
- C. Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik yugurdi
- D. Toshbag'ir odamdan yaxshilik kutma

7. Qaysi qatorda yasama sifat bor?

- A. Do'mbirachi qadim qozoq kuylaridan dostonlar kuylamoqda
- B. Kech kirib, ajib bir so'lim payt boshlandi
- C. Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go'yo sahrolar, tog'lar kezaman

D. Otinbibi qari, jiddiy, sersavlat xotin

8. Qaysi qatoprda nisbiy sifatlar berilgan?

- A. mazmundor, xayoliy, chiroyli
- B. mevali, tonggi, oilaviy
- C. xushbichim, yasama, aqli
- D. chillaki, serunum, chaqqon

9. Qaysi qatorda asliy sifatlar berilgan?

- A. achchiq, chuchuk, qishki
- B. mayda, aqli, yuzaki
- C. yangi, do'ppili, devoriy
- D. xushbo'y, ko'chma, jahldor

10. Qaysi qatorda orttirma darajadagi sifat berilgan?

- A. Nomus jondan ham qimmatliroq
- B. Mevasi yetilib pishganda sershira bo'ladi
- C. Uning nazarida bundan ham suyumliroq, bundan ham zavqliroq va shavqliriroq ish yo'q edi

D. Hovli ham, uy ham bo'm-bo'sh, hamma yoq suv quygandek jimjit edi

11. chizg'ich, yulg'ich so'zlaridagi qo'shimchalar qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A. ot va sifat yasovchi qo'shimcha bo'lib, o'zaro shakldosh
- B. sifat va ot yasovchi qo'shimcha bo'lib, o'zaro shakldosh
- C. har ikkalasi ot yasovchi bo'lib, o'zaro shakldosh
- D. ot yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha bo'lib, o'zaro ko'p ma'noli

12. Quyidagi gaplarning qaysi birida yasama sifat asosi shakldosh hisoblanadi?

- A. G'iyos aka yumshoq ajriq ustiga yonboshladi
- B. Inson tabiatning eng ongli farzandi
- C. Oldimizda mevali va mevasiz daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon.
- D. Tasviriy san'at asarlari yaratilgan davridan bizga unsiz hikoya qilib beradi

13. Yopiq bo'g'inlaridan biri faqat sirg'aluvchi undoshlardan tashkil topgan nisbiy sifat ishtirok etgan gapni aniqlang?

- A. Daraxtlar siyrak, onda-sonda pakana daraxtlar
- B. Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina, g'ishtin uycha bor

- C. Bobur temuriylar sulolasining so'nggi yirik vakili edi  
D. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar

14. Asliy sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A. qishki, ko'chma                      B. derazali, devoriy  
C. chiroyli, aqlli                        D. g'ishtin, tonggi

15. Fe'ldan yasalgan sifatlarni toping.

- A. siyrak qosh, sergap odam  
B. sentokcha uy, pokiza kishi  
C. tirishqoq bola, chanqoq g'o'zalar  
D. kechki payt, yolg'iz kishi

16. Bu bog'lar ichida oq, qizg'ish, nafis, havorang marmardan qurilgan ko'rkam binolar, ko'shklar, kichik-kichik saroylar ko'zga tashlanadi. Berilgan gapda sifatning qanday ma'no turlari qo'llangan?

- A. hajm-o'lchov, rang-tus, xususiyat sifatlari  
B. hid bildiruvchi, makon-zamon, xususiyat bildiruvchi  
C. hajm-o'lchov, rang-tus, makon-zamon  
D. maza-ta'm, hajm-o'lchov, xususiyat

17. Javoblarning qaysi birida -in qo'shimchasi bilan yasalgan sifatlarni berilgan?

- A. to'kin, erkin                      B. chirkin, yog'in  
C. tiqin, yig'in                        D. keskin, otashin

18. Otlashgan sifat ishtirok etgan gapni toping.

- A. Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi  
B. Shu yaqindan o'tib ketayotgan ikkita ovchi urushqoqni aravaga ortib ketishdi  
C. Ko'pi ketib, ozi qoldi  
D. Elmurod chaynaganini yutib, nonga tikilib qoldi

19. Yasama sifatlar miqdorini toping.

Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi.

- A. 2 ta    B. 4 ta    C. 1 ta    D. 3 ta

20. Qaysi qatorda ot va sifat yasovchi omonim qo'shimchalar berilgan?

- A. -don, -qin, -ik, -li                      B. -ch, -uq, -qi, -m  
C. -oq, -ik, -ki, -in                        D. -chak, -cha, -ma, -iq

21. -viy sifat yasovchi qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlarni aniqlang.

1) ashyoviy; 2) hajviy; 3) samoviy; 4) xayoliy; 5) kimyoviy; 6) mafkuraviy.

- A. 2, 3, 5, 6                              B. 1, 2, 3, 4, 5, 6  
C. 1, 3, 5, 6                              D. 1, 3, 4, 5, 6

22. Qaysi qatordagi gapda yasama sifat mavjud?  
A. Otin – bibi qari, jiddiy, sersavlat xotin  
B. Do‘mbirachi qadim qozoq kuylaridan dostonlar kuylamoqda  
C. Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go‘yo sahrolar, tog‘lar kezaman  
D. Kech kirib, ajib bir so‘lim payt boshlandi

23. Ot va sifat yasovchi sifatida shakldoshlik hosil qiladigan qo‘shimchalarni aniqlang.

- 1) -oq; 2) -ki; 3) -ik; 4) -lik; 5) -siz; 6) -xon; 7) -qin  
A. 1, 2, 4, 7                      B. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7  
C. 1, 2, 3, 4, 7                      D. 1, 2, 3, 4, 6, 7

24. Quyidagi gaplarning qaysi birida yasama sifat to‘ldiruvchiga bog‘lanib kelgan?

- A. Dorilamon kunlarga qayt, onam, yumib ko‘z,  
O‘ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat.  
B. Qandoq bardosh berib yashayman keyin,  
Baxtsiz kimsalarning nigohlariga.  
C. Sening nigohlaringda ajdodlaringning,  
Keskin nigohlari jamuljam bo‘lsin.  
D. Bilim, ma‘rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i lozim

25. Qaysi gap tarkibida ikki o‘rinda yasama sifat qo‘llangan?

A. Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esardi  
B. Qo‘limda bitta sigir bor. Jonivor juda sersut, qaymog‘ini suzsangiz bir kosa keladi

C. Ayniqsa, Nasriddinning quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi

- D. Bo‘m-bo‘sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi

26. Quyidagi so‘zlarning qaysilarida sifat yasovchi qo‘shimcha jarangli undoshdan so‘ng qo‘shilgan?

1) iliq; 2) siniq; 3) egik; 4) tiniq; 5) ochiq; 6) yoyiq; 7) yopiq; 8) teshik.

- A. 2, 3, 4, 6                      B. 2, 3, 5, 6, 7                      C. 2, 3, 4, 5, 8                      D. 1, 2, 3, 4, 6

27. Qaysi qatorda sifat+ot shaklidagi qo‘shma sifatlar berilgan?

- A. bodomqovoq, qirqoyoq, kunbotar  
B. ochko‘z, sho‘rtumshuq, balandparvoz  
C. erksevar, sheryurak, devqomat  
D. toshbag‘ir, sofdil, uzunquloq

28. Qaysi javobda 2 o‘rinda sifat otlashgan?

- A. Sifat otlashish xususiyatiga ega emas

- B. Birpasda uni mash'ala ko'targanlar o'rab olishdi
- C. Otning yaxshisi uloqda bilinadi
- D. Yomonlarga tiz cho'kish mardning ishi emas

29. Quyidagi qaysi sifatlar fe'ldan yasalgan?

- A. kulgili voqea, siniq idish
- B. ochko'z tulki, xalqaro ahvol
- C. tirishqoq bola, chanqoq ko'zlar
- D. harakatchan yoshlar, kulgili voqea

30. Qaysi qatorda ravish+ot shaklidagi qo'shma sifatlar berilgan?

- A. kamhosil, hozirjavob, kamxarj
- B. uzunquloq, tezlik, qirqoyoq
- C. kamxarj, yoqavayron, kamquvvat
- D. kamquvvat, tezotar, devqomat

31. Olmoshlar asosida yasalgan sifatlar berilgan javobni aniqlang.

- A. manmanlik, o'zboshimcha
- B. o'shunday, shunaqa
- C. har xil, shunchaki
- D. o'zboshimcha, o'zbiarmon

32. Sifat bilan ifodalangan vaziyat holi qaysi gap tarkibida qo'llangan?

- A. Yo'llarimda zangori ko'llar, oyna kabi tiniq va bejon
- B. Samoning zangorisimon sahnida hali to'lishmagan qandaydir beshakl oy xira, rangsiz yiltiradi
- C. Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar
- D. Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi. Suvning etagi ko'k bilan birgalashib ketgan

33. Qo'llari ketmon, o'roq, ayri ushlayverganidan g'adir-budir, haqiqiy dehqon edilar.

Gapdagi imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan so'z qaysi turkumga tegishli?

- A. fe'l
- B. sifat
- C. ravish
- D. ot

34. Sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan ayrim so'zlarda qanday tovush o'zgarishlari kuzatiladi?

- A. tovush tushishi va ortishi
- B. tovush tushishi, ortishi va almashishi
- C. tovush almashishi
- D. tovush ortishi va almashishi

35. Quyida berilgan so'zlarning qaysilarida -li, -kor qo'shimchalarini sinonim sifatida qo'llash mumkin? 1) go'sht; 2) gunoh; 3) yurak; 4) kuch; 5) jafjo;

- A. 2, 4
- B. 2, 5
- C. 1, 3
- D. 3, 5

36. Qaysi qatorda yasama sifat bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan?

- A. Bola allanimalar to'g'risida tinimsiz so'zlardi
- B. Bulutlar orasidan xira oy rangsiz porlaydi
- C. Sayyohlar chaqqon-chaqqon harakatlar bilan qirga ko'tarila boshladilar
- D. Samig' aka ellikdan oshgan, tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash, shirinso'z odam

## SON

Narsalarning son-sanog'i va tartibini bildirib qancha? necha? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar son deyiladi.

Sonlar necha? qancha?, nechta? nechanchi? qancha? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan, sakkiz, olti, yetti; o'nta ruchka, uchinchi sinf, ikkitan daftar, ikkala o'quvchi kabi.

Hozirgi o'zbek tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq yigirma uchta tub sondan bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz; to'qqiztasi o'nlik sonlar: o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson; beshtasi yuzlik, minglik va yuqori sonlarni bildiradi. Yuz, ming, million, milliard. Bu sonlarning barchasi miqdorga yetarlik ma'nosini ifodalovchilar sifatida «nol»ga zidlanadi. Nol son miqdorga ega emaslikni bildiradi. Qolgan sonlar birlik sonlarning o'nlik songa qo'shiluvidan (o'n bir, yigirma uch, to'qson olti) shuningdek, yuzlik va o'ndan yuqori son oldidan birlik, o'nlik sonlarning keltirilishidan (bir yuz ellik ming, sakkiz milliard uch yuz million, o'n ikki ming to'rt yuz) hosil bo'ladi.

### Sonlarning ma'no guruhlari

Ma'no turi	Qo'shimchasi	Misollar
Tartib son	-nchi, -inchi	Birinchi, ikkinchi
Dona son	-ta	Uchta, to'rtta
Taqsim son	-tadan	Beshtadan, o'ntadan
Chama son	-lab, -tacha, -larcha	O'nlab, yuztacha, minglarcha
Jamlovchi son	-ov, -ala, -ovlon	Ikkov, uchala, beshovlon
Sanoq son	«	Bir, o'n, uch, to'rt

### Sanoq son

Son-sanoqni bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi. Sanoq sonlar yozuvda, ko'pincha, arab raqami bilan yoziladi.

### Dona son, uning yasalishi

Narsalarning miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar dona son deyiladi. Ular -ta qo'shimchasi yordamida yasaladi. Masalan, uch -uchta, ikki-ikkita. Bu qo'shimcha faqat donalab sanalishi mumkin bo'lgan predmetlarni sanash uchun qo'llaniladi. Masalan, o'nta daftar, to'rtta qalam, lekin o'nta kerosin, oltita benzin deb bo'lmaydi. O'nta suv deyilishi

ham mumkin, lekin bu vaqtda o'nta soni shisha ma'nosini ham o'z ichiga oladi. O'nta suv «o'n shisha suv» ma'nosida qo'llaniladi. Shuningdek, mashinaga quyilgan benzin haqida gap ketganda, o'nta quy, yigirmata quydim, degan jummalarni eshitamiz. Bunday vaqtda dona son «litr» ma'nosini ham o'z ichiga oladi. Beshta quydim jumlasida «besh litr quydim» ma'nosini ifodalaydi.

Donalash ma'nosi **-ta** qo'shimchasidan tashqari **dona** so'zi bilan ham ifodalanadi.

Donalab sanalayotgan narsalarning turini ta'kidlash uchun **-ta** qo'shimchasi o'rnida yana **bosh** (hayvonlar), **nafar** (shaxslar), **tup** (o'simliklar), **litr** (suyuqlik), **gramm** (og'irlik) kabi so'zlar ham ishlatiladi.

### **Chama son, uning yasalishi**

Narsaning miqdorini taxminlab, chamalab ko'rsatadigan sonlar chama son deyiladi. Ular **-tacha**, **-lab**, **-larcha** kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi.

### **Jamlovchi son, uning yasalishi**

Narsalarning miqdorini jamlab ko'rsatadigan sonlar jamlovchi sonlar deyiladi. Ular **-ov**, **-ala**, **-ovlon** kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi.

**-ov**, **-ala** qo'shimchalari faqat ikkidan o'ngacha bo'lgan sonlarga qo'shilib, jamlilik ma'nosini ifodalaydi. Bu qo'shimchalarda unli bilan tugagan sanoq sonlarga qo'shilgan asos qismidagi **i** unlisi tushib qotadi. Jamlovchi sonlar otlashgan xususiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun jamlovchi son qo'shimchalari ko'plik va uch shaxsdagi egalik qo'shimchalaridan birini olib keladi. Masalan, *uch-uchalasi-uchalalari*, *besh-beshovi-beshovlari*, *ikki-ikkovlon-ikkalasi* kabi. Misol: *To'rtovlon tugat bo'lsa, ko'kdagini undirar, oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar*. Ko'rinib turibdiki, **-ov**, **-ovlon** birlik sonlarga, ikkidan yuqorisiga qo'shiladi. Bir soniga **-ov** qo'shimchasi qo'shilib jamlovchi «kimdir» degan ma'noda qo'llanadigan birov so'zi son ma'nosini yo'qotib, olmosh turkumiga o'tgan.

**-ala** qo'shimchasini olgan son egalik qo'shimchasini olmasligi ham mumkin. U vaqtda son otlashmagan bo'ladi. Masalan, *ikkala qiz*.

### **Taqsim son, uning yasalishi**

Narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan sonlarga taqsim son deyiladi. Ular sanoq songa **-tadan** qo'shimchasini qo'shish yordamida yasaladi va ikkita ortiq predmetlarning bo'laklarga teng ajratilganini bildiradi. Masalan, *uchtadan*, *o'ntadan* kabi.

## Kasr sonlar

Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar kasr son deyiladi. Butun miqdorni bildiruvchi qism ko'pincha chiqish kelishigida keladi: *o'ndan bir uchdan ikki*.

Ifodalari ikkidandan bir, to'rttdan bir, sakkizdan bir tarzida, shuningdek, yarim, chorak, nimchorak tarzida o'qiladi.

**Eslatma:** Akademik litsey darsligida kasr son o'rniga tartib son oltinchi ma'no turi hisoblanadi.

## Tartib sonlar

Narsalarning ketma-ketlik tartibini bildiradigan sonlar tartib sonlar deyiladi. U -(i)nchi qo'shimchasi yordamida yasaladi.

Tartib sonlar arab raqami bilan yozilganda -(i)nchi qo'shimchasi o'rnida arab raqamidan so'ng chiziqcha yoziladi: 5-sinf, 15-yanvar. Tartib sonlar rim raqamlari bilan ifodalanganda chiziqcha qo'yilmaydi.

## Hisob so'zlari

Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so'z o'rtasida qo'llanib, bu narsaning o'lchovini bildiradigan so'zlar hisob so'zlari sanaladi. *Masalan, besh kilo (gramm) shakar, besh tonna paxta, o'n kilometr yo'l kabi.*

Tilimizda turli xil o'lchovlar va shu o'lchovlarning o'z birliklari bor. Ular quyidagilar:

N	O'lchov turlari	O'lchov birliklari (hozirgi)	Tarixiy o'lchov birliklari
1.	Og'irlik o'lchovlari	Milligramm, gramm, kilo(gramm), litr, tonna, sentner	Misqol, botmon, paysa, dahsar
2.	Uzunlik o'lchovlari	Millimetr, santimetr, detsimetr, kilometr	Chaqirim, qarich, yog'och, gaz, qalam
3.	Donalik o'lchovlar	Dona, bosh, nafar, tup	Dona, bosh, nafar
4.	Maydon o'lchovlari	Sotix, gektar	Tanob

*Butunning, guruhning yoki to'daning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar:*



Burda, para, varraq (sahifa), og'iz, luqma, siqim, tilim (karch), chindim, qultum, tomchi, qatra, chaqmoq, nimta, to'g'ram, poy, bo'lak, shingil.

*To'dalab, guruhlab ko'rsatuvchi hisob so'zlari:*

Gala, to'p, guruh, to'da, dasta, bog' (bog'lam), quchoq, moda, nafar, hovuch.

Yuqorida sanab o'tilgan o'lchov birliklarining ayrimlari o'lchanayotgan, sanalayotgan predmetning qandayligiga xoslangan bo'ladi. Masalan, nafar shaxslarning, bosh hayvonlarning, litr suyuqliklarning, tup o'simliklarning miqdorini ifodalashga xoslangan: o'n tup daraxt (olma), yigirma bosh qo'y, besh nafar o'quvchi kabi.

Hisob so'zlar ichida ayrimlari faqat o'lchov-hisob ma'nosini bildirsa, ayrimlari alohida olinganda predmet nomini, matn ichidagina o'lchov birligi ma'nosini bildiradi. Masalan, suyuqlik o'lchovi uchun paqir (chelak), shisha, bochka; hashak-o'tinlarni o'lchash uchun tutam, quchoq, bog'; uzunlikni o'lchash uchun qarich, qadam, yog'och singari so'zlar faqat matn ichidagina qo'llaniladi. Masalan, uch shisha mineral suv, besh bochka pivo, bir paqir yog'; qirq bog' beda, bir quchoq o'tin, bir tutam hashak; uch qarich gazmol, besh qadam yo'l kabi.

Alohida olinganda esa, narsa va hodisalarning nomini bildiradi.

## Sonlarning uslubiy xususiyatlari

Sonlar predmetlarning aniq miqdoriy belgilarini bildiradi. Ana shu xususiyati bilan miqdor bildiruvchi so'zlardan farq qiladi. Masalan, Magazindan daftar oldim (miqdori bittami, undan ortiqmi, noma'lum). Magazindan ko'p daftar oldim (miqdori bittadan ortiq, lekin nechtaligi noma'lum). Magazindan beshta daftar oldim (miqdorning nechtaligi aniq).

Birdan boshqa sonlarning barchasi predmet bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, uning bittadan ortiqligini, ko'pligini ifodalaganligi uchun son bilan birga kelgan otlar ko'plik shakllarini olmaydi. Masalan, olma -olmalar. Lekin ikkita olma, o'nta olmani ikkita olmalar, o'nta olmalar deb bo'lmaydi. Bu o'zbek adabiy tili uchun me'yorning buzilishi bo'ladi.

Sonlarga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilib jamlik ma'nosi anglashiladi. Bu qo'shimchalar jamlik ma'nosini ifodalay ekan, demak, ular bir sonidan boshqa sonlarga qo'shiladi. Masalan, ikkovimiz deyish mumkin, lekin biralamiz deyilmaydi. **-ov** bir soniga qo'shilib jamlikni emas, balki gumon-taxmin ma'nosini bildiradi va olmosh so'z turkumiga o'tadi: *Birov (kimdir) keldi.*

**-ov, -ala** qo'shimchalari ikki sonidan yigirma sonigacha qo'shiladi, lekin yigirma soni bu qo'shimchalar bilan qo'llanilmaydi. O'n – o'novi deyish mumkin, biroq yigirma – yigirmovi – yigirmalasi deyilmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, sonlar tuzilishiga ko'ra ikki turi bo'ladi: 1. Sodda sonlar; 2. Qo'shma sonlar. Faqat bir tarkibdan (bitta sondan) tashkil topgan sonlar sodda sonlar deyiladi. Masalan, ikki, uch, o'n, yigirma va boshqalar.

Ikki va undan ortiq tarkibdan (sondan) tashkil topgan sonlar qo'shma sonlar deyiladi. Masalan, o'n besh, bir yuz o'ttiz, ikki million, uch ming besh yuz ellik uch. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma son tarkibiy qismlarining qat'iy joylashish o'rni bor: yuzgacha bo'lgan sonlardan oldin katta son, undan so'ng kichik son keladi. Masalan, o'n bir, o'ttiz besh kabi. Yuzlikdan keyingi sonlarda birlik va o'nlik sonlar ulardan oldin kelishi ham, keyin kelishi ham mumkin. Birlik va o'nlik sonlar yuzlik, minglik sonlarning qayerida kelishiga ko'ra, juda kuchli farqlanadi:

Birlik va o'nlik sonlar, yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelsa, yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelgan son qancha bo'lsa yuzlik va undan ortiq sonlar shuncha barobar ortiq ekanligi anglashiladi. Masalan, ikki yuz degani ikkita yuz deganidir. Aksincha, birlik va o'nlik sonlar yuzlik va undan ortiq sonlarning birlik o'nlik sonlar bilan ortganligini bildiradi. Masalan, ikki yuz uch degani ikkita yuz-u va unga uchning qo'shiluvi deganidir.

#### **Bir so'zining ma'nolari va vazifalari:**

Bir soni aniq miqdordan tashqari quyidagi ma'nolarni ham bildiradi: 1. Noaniq miqdorni bildiradi: Uni bir xunuk xabar bilan qarshilashdi. 2. Harakatning belgisini bildiradi: Mashina bir lapangladi. 3. Kesim bo'lib kelganda predmetning bir turdaligini bildiradi: Ularning tili bir. 4. Ma'noni kuchaytiradi: Bir chiroyli, bir yoqimli gapirdi. 5. Chegaralov ma'nosida yuklama o'rni qo'llanadi: Hamma keldi, bir Ahmad ko'rinmadi. 6. Ayiruv bog'lovchisi vazifasini bajaradi: Bir o'qiydi, bir yozadi.

### **Sonning grammatik tahlili**

1. Son. 2. So'rog'i. 3. Ma'no turi. 4. Otlashgan / otlashmaganligi. 5. Hisob so'zi bilan qo'llangan/ qo'llanmaganligi. 6. Tuzilish turi. 7. Gapdagi vazifasi. Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to'rt piyola choy ichdi.

Bir-ikki tilim – qancha? – son, chama son, otlashmagan, tilim – hisob so'zi, butunning bo'lagini hisoblash uchun ishlatilgan, juft son, gapda aniqlovchi bo'lib kelgan.

Tayog'i yo'g'on birni urar, so'zi yo'g'on mingni urar.

Birni, mingni – son, sanoq son, otlashgan, tushum kelishigida, birlik, sodda, to'ldiruvchi.

## Topshiriq: 1.

Sanoq son	Dona son	Chama son	Jamlovchi son	Taqsim son	Kasr son
bir	-ta, nafar, tup, dona	o'nlarcha, yuzlab, o'ntacha  juft son +tacha	-ov, -ala, -ovlon	-tadan, sanoq son takrori	yarim, chorak, nimchorak  $\frac{1}{2}$ $\frac{1}{4}$ $\frac{1}{8}$

### Quyidagi mashqlarni yuqoridagi jadvalga joylashingiz:

1. Nihoyat, butunlay holdan toyib, ikkovining qimirlashga ham majoli qolmay, taxtaday qotib turaverishibdi. 2. Qulupnayning mevasi naviga qarab, uchtadan – saksontagacha bo'lishi ham mumkin. 3. Besh-oltita tinish belgi kelib bugun, o'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in.

1. Birinchi bor kelganimda Yetti yoshdaydim u choq. Boshqalarga ochgan kabi Ochding menga ham quchoq. O'z bag'ringda ulg'aytiriding, Hozir kirdim o'n to'rtga. 2. Birinchi badiiy asarim – «To'rt maktub» hikoyasi edi. 3. Rosa o'n olti yil «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishladim. 4. Ikki she'r daftarning ikki betida, Bir yonda – aruziy, Bir yonda – barmoq.

1. Yetti o'lchab, bir kes. 2. Qishpolvon o'z vazifasini uch oy ichra o'tarkan, Xizmat qilish navbat bilan Bahoroyga o'tarkan. 3. Kuzatishimcha, odamlar gapirayotgan gapning, taxminan, yetmish-sakson foizi ortiqcha ekan. 4. Ular yana besh qadam bosishgach, o'ra labiga kelishdi. 5. Bu sopol ko'zachi, so'zimga ishon, Sodiq xizmat qildi ming yil odamga.

1. Kecha tog'ang berib ketgan zog'oradan ikkitasini olib qo'yganman, birgalashib choy ichamiz. 2. Nafis chayqaladi bir tup na'matak Yuksakda shamolning belanchagida, Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul, Viqor-la o'sshaygan qoya labida. 3. Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi. 4. Bir tup kessang, o'n tup ek. 5. Jo'jalardan ikkitasini kalxat oldi, qolgan ikki kam o'ttitzasi o'sib tovuq bo'ldi. Sakkiztasini olib qolib, yigirmatasini bozorga olib borib sotib, bitta ona-bola echki olib kelib, bulami ham boqa berdi.

1. So'ylasin Afrosiyob-u So'ylasin O'rxun xati, Ko'hna tarix shodasida bitta marjon, o'zbekim. 2. Saidiy kelganda Murodxo'ja domla to'rttagina sigimi sog'ib eplamagan xotinining palpisligidan koyib urishmoqda edi. 3. Bir kampir Ahmadjonni ikkita sherigi bilan uyiga olib kirdi. 4. Meni qo'rqitayotgandir desam, ikkalasi chindan sudrab chiqib avtomobilga soldi. 5. Birinchi arava g'ildiraklariga bog'langan uchta ot bor-u, qolgan otlardan darak yo'q.

1. Bekatda o'n odam avtobus kutib turishardi. 2. Barvasta, yoshi ellikka borib qolgan bo'lsa ham, qomati sambitdek tik. 3. Mashrab bilan Akmal esa, o'n besh-yigirma bolaga javobgar. 4. Ichkaridan yoshi yetmishlardan oshgan nuroniy bir chol chiqib kelibdi. 5. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'ragan edi. 6. Yo'q, uning oldida bundan besh-olti yil ilgari yarimta tana emas, katta qalb, katta hayot egasi go'zal hayot qo'shig'ini kuylardi.

1. Ikkovining orasida hech qanday sir yotmaydi. 2. Sizlar mana shu to'qqizta xivichni birga qo'shib sindirib ko'ringlar-chi! 3. U yig'lab, to'rt tomonga yuguribdi. 4. Bunyod yetti kun kezdi. Yetti qora tun kezdi. Eng oxiri tun chog'i Bir hid sezdi dimog'i. 5. Po'lat qizga nisbatan bir yosh katta bo'lsa ham bir-biriga yondosh bo'lib, qadrdon qo'shni edilar. 6. Yuragi shuvillab, cheklanib o'tarkan, uch-to'rt yashar qizchaga ko'zi tushdi. 7. Durroj ham Sherning so'zini ma'qul ko'rди va shu o'rmonda ikkovi do'stona yashay boshladi. 8. To'ntko'z bo'lsa bizdan o'n qadamcha ilgariroqda chopib borar, goh bizga yaqin kelib, atrofimizda o'ynoqlar edi.

1. Bulbulning maqomlari, kuylari to'qqiz yuz to'qson to'qqiz emish... 2. Hamma yerim o'ttiz yetti gektar. 3. Bitta qovun kamida o'n so'm turadi. 4. Go'yo quyoshning botishini birinchi marta ko'rayotgandek ko'zlarida hayrat aks etdi. 5. Poyezddan tushgan uch-to'rt yo'lovchi tarqalib, bekatda Yigitalining yolg'iz o'zi qoldi.

1. Bolalar eshaklarga yem berib, o'zlari ham oz-ozdan non yeb olishguncha yarim soatcha vaqt o'tdi. 2. Oilada kimda-kim sahar soat to'rt yarim-beshlarda uyg'onsa, o'sha kartochkani olib, yuzga yaqin odamdan iborat navbatga chopadi. 3. Yo'lning kengligi 10,5 metrni tashkil qiladi. 4. Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi.

### **Quyidagi gaplardagi hisob so'zlarini aniqlang.**

1. Ikki hafta davomida erta tongdan qorong'i tushguncha loy tashishdi. 2. Nekman, serhosilman, har dona mevam 200-250 gramga boradi. 3. Shu orada mezbon ikki hovuch arpa solingan tog'orachani keltirib Eshakning oldiga va bir bog' beda keltirib, Ho'kiz ning oldiga qo'yibdi. 4. Umri xola bir qoli bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar edi. 5. Qo'limda bir metr keladigan irg'ay tayoq. 6. Ko'rsatkich barmog'i bilan tirnoq yuzasi burchagidagi nuqtani 3-4 daqiqa mobaynida bosib turing, shunda tish og'rig'i taqqa to'xtaydi.

### **Sonlarni tahlil qiling.**

1. Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to'rt piyola choy ichdi. 2. Uch-to'rt qadam narida yotgan aravani endi ko'rди. 3. Hali o'ngga, hali so'lga burilib, ikki soat, uch soat yo'l yurdik. 4. Olti sotix maydonda 2500 tup pomidor bo'ladi. 5. Abdulla qovunchiga o'sha va'da qilingan 50 gektar yer berildi.

1. Tayog'ini yo'g'on birni urar, so'zi yo'g'on mingni urar. 2. To'qqizida bo'lmagan aql, to'qsonida ham bo'lmas. 3. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagini oldirar. To'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini undirar. 4. To'rtovlon ancha suhbatlashdi, keyin ikkitasi uy ichida qoldi, yana ikkitasi esa otiga minib yo'lga ravona bo'ldi. 5. Mingta shirin nasihatdan bitta o'mak yaxshi. 6. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan. 7. Beshovining ham fikri bir yerdan chiqdi. 8. Ikki yomon qo'shilsa, keng dunyoga sig'maydi.

**Hisob so'zlarini ot turkumidagi so'zlardan iborat bo'lishiga misollar ayting.** Ma'lumki, nutqimizda hisob so'zlarining ishlatilish doirasi keng va turli-tumandir. Qadimdan predmetlarni o'lchash uchun turli idishlar yoki boshqa o'lchov vositalari ishlatilgan. Ulardan ayrimlarining ishlatilishi toraygan yoki kengaygan.

**Yozing:**

*Toraygan*

*Kengaygan*

Qadoq, jon, tanob, gaz, sarjin, paysa, taxta, enlik, so'lkavoy, tosh, pud, mahal (vaqt), yumaloq, mehnat kuni, gektar, kubametr, soat, sotix, metr, kilo, minut, foiz, nafar, tup, shisha, paqir, bog', quchoq.

### **Son so'z turkumi bo'yicha test topshirig'i**

1. Kasr sonni toping.
  - A. Ikki hovli qo'shib yuborilgan edi
  - B. ... qizarib-bo'zarib, ketmondek oyning yarmi ko'rinadi
  - C. To'rt beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi
  - D. Novvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay
2. Bir so'zi qaysi gapda chegaralash ma'nosini bildirgan?
  - A. U Toshkentdan vakil bo'lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda
  - B. Choy mahalida bir kulib, bir yig'lamsirab, o'zi, bolalari to'g'risida gapirdi
  - C. Vodiyilarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi menda
  - D. Hammamiz imtihonlardan yaxshi o'tdik, bir Ahmadning mazasi bo'lmadi
3. Chama sonni toping.
  - A. Ularning har ikkalasi ham shu to'g'rida o'ylar edi
  - B. To'rt-beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi
  - C. Lekin ular yig'gan kitoblar chal yiqqan kitoblarning o'ndan biriga ham to'g'ri kelmaydi
  - D. Hozir ular bo'lajak shiyponning to'rtinchi ustunini tayyorlashyapti
4. Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quyimoqda edi. Shu gapdagi tartib sonning sintaktik vazifasini belgilang.
 

A. Kesim      B. Ega      C. To'ldiruvchi      D. Aniqlovchi

5. Jamlovchi son qaysi qatorda?
- So'ring shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi
  - Saida uyiga kech soat o'n birlarda qaytdi
  - Shunday qilib, to'ttala nomzod ham ro'yxatda qoldi
  - Patnida to'rtta kulcha, ikki bosh qizil chillaki va bir bosh oq uzum bor edi
6. Qaysi sonlardan jamlovchi sonlar yasalganda tovush tushishi sodir bo'ladi?
- Ikki, uch, olti
  - Ikki, to'rt, yeti
  - Ikki, olti, yeti
  - Ikki, besh, olti, yeti
7. Olti so'zidan sonlarning ma'no va grammatik turlaridan qay birini hosil qilishda tovush tushishi yuz bergan?
- Miqdor sonlar
  - Chama sonlar
  - Tartib sonlar
  - Jamlovchi sonlar
8. Tarixiy kelib chiqishiga ko'ra jamlovchi son shakli bo'lgan biron so'zi hozirgi kunda qanday so'z?
- Olmosh
  - Yordamchi so'z
  - Jamlovchi so'z
  - Ravish
9. Bir so'zining chegaralov (ayiruv) ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
- Bir gektar yerni bog'u bo'stonga aylantirdi.
  - Choy mahalida bir kulib, bir yig'lamsiradi
  - U bir kuni ovga chiqdi
  - Hamma keldi, bir Hakimjon ko'rinmadi
10. -ov qo'shimchasi yordamida hosil qilingan jamlovchi sonlar qaysi egalik qo'shimchalari bilan doim birga qo'llanadi?
- Barcha egalik qo'shimchalari bilan
  - Faqat 3-shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalari bilan
  - 2 va 3-shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalari bilan
  - 2va 3- shaxs birlik va 1,2,3-shaxs
11. Sonlarning ma'noviy guruhlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar vazifasiga ko'ra qanday nomlanadi?
- Shakl hosil qiluvchi qo'shimcha
  - So'z yasovchi qo'shimcha
  - Sintaktik shakl yasovchi
  - Kelishik qo'shimchalari
12. Qaysi qatordagi gapda bir so'zi faqat (yuklama) ma'nosini bildirgan?
- Darsga bir Karim kelmadi
  - Bir yomg'ir yog'di, asti qo'yaver
  - Sizni ko'chada bir kishi chaqiryapti
  - Bir qor yog'adi, bir yomg'ir

13. Qaysi gapdagi birinchi tartib sonini ilk, dastlabki avvalgi kabi ma'nodoshlari bilan almashtirish mumkin?

- A. Y.A. Gagarinning nomi tarixda birinchi kosmonavt sifatida qoladi.
- B. Ota majlisda birinchi so'zga chiqishi ekan.
- C. Qonunlarga qat'iy rioya etish fuqarolarning birinchi burchidir
- D. Milliy istiqolga birinchi qadam 1989-yil 21-oktabr «Davlat tili haqidagi» qonunni qabul qilish bilan qo'yildi

14. Numerativ (hisob) so'zlar qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?

- A. Son, sanoq, sonlar
- B. Sifatlar, asosan, yasama sifatlar
- C. Gumon olmoshlari bilan
- D. Otlar bilan

15. Donalab sanaladigan narsalarning turini ta'kidlash uchun qo'llanadigan nafar so'zi asosan qanday holatda ishlatiladi?

- A. Jonli narsalarni donalab sanashda
- B. Har qanday donalab sanaladigan narsalarning miqdorida ko'rsatishda?
- C. Nima? so'rog'iga javob bo'luvchi otlardan oldin kelib, uning miqdorini ko'rsatadi.
- D. Shaxslarga nisbatan miqdorini ko'rsatishda

16. Hisob so'zi qatnashgan gapni toping.

- A. Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi
- B. Poyezddan tushgan uch-to'rt yo'lovchi tarqalib, bekatda Yigitalining yolg'iz o'zi qoldi
- C. Cho'ponlar har kuni tunda bittadan qo'y yo'qolib qolayotganini sezib qolishdi
- D. Ikki hafta davomida erta tongdan qorong'i tushguncha loy tashishdi

17. Qaysi gapda hisob so'zi qo'llangan?

- A. Ikki hafta davomida erta tongdan qorong'i tushguncha loy tashishdi?
- B. Poyezddan tushgan uch-to'rt yo'lovchi tarqalib, bekatda Yigitalining yolg'iz o'zi qoldi
- C. Cho'ponlar har kuni tunda bittadan qo'y g'oyib bo'layotganini sezib qolishdi
- D. Laylak har yili uchtadan bola ochar ekan

18. Paysa tarixiy o'lchov so'zi hisob so'zlarning qaysi turiga masub?

- A. donalik o'lchovi
- B. maydon o'lchovi
- C. uzunlik o'lchovi
- D. og'irlik o'lchovi

19. Berilgan qaysi gapda tartib son «dastlabki», «ilk» degan ma'noda ishlatilgan?

- A. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana amirning oldiga bordi
- B. Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik
- C. Atirgullar, ko'rkam kamaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg'irinlarini pisand qilmaydi

D. Ikkinchi kattalarning soʻziga aralashma

20. Qalam tarixiy oʻlchov soʻzi hisob soʻzlarning qaysi turiga masub?

- A. uzunlik oʻlchovi                      B. ogʻirlik oʻlchovi  
C. maydon oʻlchovi                      D. donalik oʻlchovi

21. 5 tup, 2 gramm kabilar sonning qaysi turiga mansub?

- A. chama sonlar                      B. sanoq sonlar  
C. jamlovchi sonlar                      D. dona sonlar

22. Berilgan qaysi gapda tartib son «dastlabki», «lik» degan maʼnoda ishlatilgan?

- A. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana amirning oldiga bordi  
B. Atirgullar, koʻrkam kamaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izgʻirinlarini pisand qilmaydi  
C. Ikkinchi kattalarning soʻziga aralashma  
D. Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik

23. Quyidagi qaysi sonlar oʻzaro omonimlikni yuzaga keltiradi?

- 1) qirq; 2) yuz; 3) toʻrt; 4) uch; 5) oʻn; 6) bir; 7) yeti;  
A. 1, 3, 5                      B. 1, 2, 4                      C. 1, 3, 7                      D. 3, 5, 6

24. Son turkumiga oid qanday soʻzlarni hosil qilishda baʼzi sanoq sonlar tarkibida tovush tushishi kuzatiladi?

- A. chama sonlarda                      B. tartib sonlarda  
C. jamlovchi son                      D. taqsim sonlarda

25. Hisob soʻzi bilan birga qoʻllangan gapni toping.

- A. Poyezddan tushgan uch-toʻrt yoʻlovchi tarqalib, bekatda Yigitalining yolgʻiz oʻzi qoldi  
B. Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi  
C. Ikki hafta davomida erta tongdan qorongʻigacha ishlashdi  
D. Choʻponlar har kuni tunda bittadan qoʻy gʻoyib boʻlayotganini sezib qolishdi

26. Donalab sanaladigan narsalarning turini taʼkidlash uchun qoʻllanuvchi nafar soʻzi asosan qanday holatda ishlatiladi?

- A. har qanday donalab sanaladigan narsalarning miqdorini koʻrsatishda  
B. jonli narsalarni donalab sanashda  
C. shaxslarga nisbatan miqdorni koʻrsatishda  
D. nima? soʻrogʻiga javob boʻluvchi barcha otlardan oldin kelib, uning miqdorini koʻrsatadi

27. Qaysi gapda qoʻllangan oʻlchov soʻzi alohida olinganda predmet nomini bildirib, matn ichidagina oʻlchov maʼnosini bildiradi?

- A. Shahargacha hali uch chaqirim bor  
B. Uygacha yuz qadam qoldi



- C. Uyning orqasida 4 sotix ekin maydoni bor  
D. To'rt nafar talaba darsga qatnashmadi

28. Berilgan o'lchov so'zlarining qaysilari faqat o'lchov-hisob ma'nosini bildiradi, qaysilari alohida olinganda predmet nomini bildirib, matn ichidagina o'lchov birligi ma'nosini bildiradi?

1) qarich 2) qadam 3) quchoq 4) bochka 5) paqir 6) shisha

A. 1, 4-faqat o'lchov-hisob; 2, 3, 5, 6-ham o'lchov-hisob, ham predmet ma'nosini bildiradi

B. 1, 2, 4-faqat o'lchov-hisob, 3, 5, 6-ham o'lchov-hisob, ham predmet ma'nosini bildiradi

C. berilganlarning barchasi faqat o'lchov-hisob ma'nosini bildiradi

D. berilganlarning hammasi ham o'lchov hisob, ham predmet nomini bildiradi

29. Tarixiy o'lchov so'zlar berilgan javobni belgilang.

A. Yog'och, gaz, qalam      B. Botmon, nafar, paysa

C. Tanob, sotix, misqol      D. Chaqirim, tub, qarich

30. O'lchov so'zlardan qaysi biri og'irlik o'lchovi uchun qo'llanilgan?

A. tanob      B. dahsar      C. gaz      D. chaqirim

31. Sehrli sonlarni belgilang.

A. uch, yetti, to'qqiz, qirq      B. yeti, yigirma, besh, hol

C. sakkiz, olti, o'n, o'ttiz      D. o'n bir, to'rt, besh, sakkiz

32. Otlashgan sonning gapdagi vazifasini aniqlang:

To'rtovlon ancha suhbatlashdi, keyin ikkitasi uy ichida qoldi, yana ikkitasi esa otiga minib yo'lga ravona bo'ldi.

A. To'ldiruvchi      B. Ega, to'ldiruvchi

C. Ega      D. Kesim

33. Burda, shingil, qultum kabi hisob so'zlari qanday ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi?

A. butunning qismini hisoblash      B. donalab hisoblash

C. chamalab hisoblash      D. to'dalab, guruhlab ko'rsatish

34. Qaysi qatorda kasr son qo'llangan?

A. ...to'rt-besh-tacha chakana havaskorlargina kelibdi

B. ikki hovli qo'shib yuboriigan edi

C. ...qizarib-bo'zarib, ketmondek oyning yarmi ko'rinadi

D. Novvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay

35. Javoblar mosligini aniqlang: 1. Misqol; 2. Chaqirim; 3. Dona;

4. Botmon; 5. Qarich; 6. Bosh; 7. Nafar; 8. Paysa; 9. Dahsar; 10. Yog'och; 11. Gaz; 12. Qalam; 13. Tanob.

A. 1, 4, 8, 9 – og'irlik ; 2, 5, 10, 11, 12- uzunlik; 3, 6, 7 - donalik; 13 - maydon o'lchovi

B. 4, 5, 11, – uzunlik; 1, 8, 6 - og'irlik; 2, 7, 13 - donalik; 9, 12, 10- maydon o'lchovi

C. 6, 7, 10 – og'irlik; 4, 5, 2 - uzunlik; 8, 9, 11, 13 - donalik; 1 - maydon o'lchovi

D. 11, 12, 5 – og'irlik; 4, 2, 6 - uzunlik; 13, 7- donalik; 8, 9, 3, 10 – maydon o'lchovi

36. 1. Tayog'i yo'g'on birni urar, so'zi yo'g'on mingni urar; 2. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini undirar. 3. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan. 4. Beshovining ham fikri bir yerdan chiqdi.

Sonlarning sintaktik vazifasini belgilang.

A. 1, 3 - to'ldiruvchi; 2 - ega, 4 - aniqlovchi

B. 1, 4 - aniqlovchi; 2 - to'ldiruvchi; 3 - ega

C. 2 - aniqlovchi; 3, 4 - to'ldiruvchi; 1 - ega

D. 4 - ega; 1, 2 - aniqlovchi; 3 - to'ldiruvchi

## OLMOSH SO'Z TURKUMI

Boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh hisoblanadi. Masalan, *Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.*

Birinchi gapda undan olmoshi kitob so'zi (ot) o'rnida, ikkinchi gapda shuki olmoshi doimo tinchlik bo'lsin gapi o'rnida qo'llanilgan.

Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotganligi matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi. Olmoshlar son kabi o'zidan oldin aniqlovchi olmaydi. Olmoshlar yasalmaydi, lekin yasash uchun asos bo'ladi. Masalan, menbop (kishilik olmoshidan sifat), sensira (kishilik olmoshidan fe'l), o'zicha (o'zlik olmoshidan egalik vositasida ravish), o'zlik (o'zlik olmoshidan ot) yasalishi mumkin.

**Eslatma:** *Manmansiramoq fe'lining asosi sifat hisoblanadi. O'z-o'zidan so'zi yasama hisoblanmaydi.*

U fe'l oldidan kelib holat ma'nosini berganda ravish, vergul bilan ajratilganda modal, morfemalarga ajratilganda, shaxs ma'nosini bersagina olmosh hisoblanadi. Qiyoslang: Qizcha o'z-o'zidan o'ynadi. O'z-o'zidan, bu siyosiy masala. Bola o'z-o'zidan javob axtarardi.

## Olmoshlarning ma'no xususiyatlari

Olmoshlar ot, sifat, son, ravish, fe'l o'rnida va ba'zan yordamchi so'z, gap o'rnida almashinib keladi. Masalan, Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat bag'ishladi. Gullarning ko'pi pushti rangda. Ana shu rang menga juda yoqadi. Salim gullarni uza boshladi. Bu esa bog'bonning jahlini chiqardi. Va bog'lovchisi o'zaro teng ma'noli gaplarni bog'laydi. Bu teng bog'lovchilar sirasiga kiradi. Bu gaplarning birinchisida gul (ot) o'rnida u, ikkinchisida pushti (sifat) o'rnida ana shu, uchinchi gapda uza boshladi (fe'l) o'rnida bu so'zlari, to'rtinchi gapda va bog'lovchi o'rnida bu olmoshi almashinib kelyapti.

Olmoshlar bevosita atash ma'nosiga ega bo'lmaganligi uchun «ichi bo'sh so'zlar» deb ham yuritiladi.

**Olmoshlar ma'nosiga ko'ra quyidagi yetti guruhga bo'linadi:**

Turlari	Olmoshlar
Kishilik olmoshlari	Men, sen, u; biz, siz, (sizlar), ular
O'zlik olmoshi	O'z
Ko'rsatish olmoshlari	Bu, shu, u, o'sha, ana, mana, mana bu, mana shu, manavi, anovi
So'roq olmoshlari	Kim? nima? qayer? qanaqa? qayda? qaysi? qalay? qancha? necha? nega?
Birgalik-ajratish (belgilash) olmoshlari	Hamma, barcha, bari, har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi, shuncha
Bo'lishsizlik olmoshlari	Hech kim, hech narsa, hech qachon, hech qanaqa, hech qaysi
Gumon olmoshlari	Kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqancha, allaqaysi

### Kishilik olmoshlari

Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi.

So'zlovchi – I shaxs, tinglovchi – II shaxs, nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqea-hodisalar (o'zga) – III shaxs sifatida qaraladi.

Men, biz – I shaxs, sen, siz-II shaxs, u, ular – III shaxs kishilik olmoshlari. Men, sen, u birlik; biz, siz (lar), ular ko'plik.

Ba'zan biz kamtarlik, o'zini ta'kidlamaslik; siz, ular hurmat ma'nosida birlik o'rnida qo'llanadi. Masalan, Men g'olib chiqdim o'rniga Biz g'olib chiqdik. Sen kelding o'rniga Siz keldingiz, U keldi o'rniga Ular keldilar.

Siz hurmat ma'nosini bildirganda, ko'pincha, ko'plik ma'nosini ifodalash uchun unga -lar qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: *Sizlarga doimo baxt yor bo'lsin.*

Men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda, talaffuzda bir n tovushi tushib qoladi, u olmoshiga -ga,-da,-dan qo'shilganda, aksincha, bir n tovushi ortadi va shunday yoziladi.

## O'zlik olmoshi

Kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanilib, ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi o'z so'zi o'zlik olmoshi sanaladi.

O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini olib, kishilik olmoshlari bilan ma'nodosh bo'ladi: **O'zim-men, o'zing-sen, o'zi-u.**

O'zlik olmoshi kelishik qo'shimchalarini egalik qo'shimchasi orqali bilvosita oladi: o'z-im -ni.

O'zim, o'zing, o'zi so'zlari ba'zan egalik qo'shimchalariga mos kishilik olmoshlari bilan mening o'zim, sening o'zing, sen o'zing, uning o'zi, u o'zi tarzida qo'llanib, kishilik olmoshlariga ta'kid ma'nosi yuklaydi.

O'zlik olmoshi gapda, asosan, belgili-belgisiz qaratqich shaklida keladi. O'zlik olmoshining bu shaklida unga bog'lanib kelgan so'z egalik qo'shimchasini oladi.

O'zlik olmoshi I, II shaxsda insonni, III shaxsda inson va predmetni anglatadi.

## Ko'rsatish olmoshlari

Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko'rsatish olmoshlari hisoblanadi.

So'z ma'nosini aniqlab keluvchi olmoshtar o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin qo'llanadi. Masalan: Bu daftar meniki.

**Bu, shu, u, o'sha, ana, mana** kabi so'zlar ko'rsatish olmoshlari sanaladi.

Yozuvda mana bu, mana shu, ana bu, ana shu olmoshlari ajratib, ba'zan og'zaki nutqda manavi, anavi tarzida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi mumkin.

Egalik, kelishik hamda -day, -dek, -aqa, -cha qo'shimchalari qo'shilganda, asos bilan qo'shimcha o'rtasiga bir n tovushi ortirib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan: shunday, o'shanaqa, buncha.

*Elatma: U olmoshi kim so'rogini olsa kishilik, orqasidan ot kelib, qaysi so'rog'ini olsa, ko'rsatish olmoshi hisoblanadi.*

## So'roq olmoshlari

Shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsad o'rin, payt haqida so'roqni bildiruvchi olmoshlar **so'roq olmoshlari** sanaladi.

So'roq olmoshlari ishtirok etgan gaplar so'roq gap hisoblanadi. Bunday gaplar so'roq ohangi bilan talaffuz qilinadi va yozuvda gap oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.

Nisbiy so'zli qo'shma gaplarda so'roq olmoshi so'rash ma'nosini bermaydi. Masalan: Kim birovga choh qazisa, unga o'zi tushadi.

So'roq olmoshlari takror kelganda grammatik ko'plik ma'nosini bildirishi mumkin. Masalan: Kim-kim keldi? (kimlar)

So'roq olmoshlari ba'zan belgisiz tushum shaklida kelishi mumkin. Masalan, Bozordan nima(ni) olding?

## Birgalik-ajratish (belgilash) olmoshlari

Har so'zi so'roq olmoshlariga, bir so'ziga qo'shilib to'pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradigan **belgilash olmoshlarini** hosil qiladi.

Hamma, barcha, bari, butun, jami(yki), yalpi olmoshlari esa shaxs, narsa, belgi, harakatlarni jamlab ifodalaydi.

Demak, to'pdan ajratilgan yoki jamlab ko'rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-ho'latlarni ifodalaydigan olmoshlar belgilash olmoshlari sanaladi va ot va sifat o'mida qo'llanadi.

## Gumon olmoshlari

So'roq olmoshlariga **alla-** yoki **-dir** qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan **gumon olmoshlari** hosil qilinadi.

**Alla-** qo'shimchasi so'roq olmoshlari oldidan, **-dir** qo'shimchasi esa so'roq olmoshlari so'ngidan qo'shiladi.

Har ikki qo'shimcha asos qism bilan qo'shib yoziladi.

Narsa so'zi faqat **alla-** qo'shimchasi yordamida gumon olmoshiga aylanadi.

Bir so'zi kishi, narsa, nima kabi so'zlarga qo'shilib bu so'zlarga gumon ma'nosini yuklaydi. Ularni kimdir, nimadir, qachondir singari gumon olmoshlari bilan almashtirish mumkin. Bunday vaqtda bir so'zi gumon olmoshi o'mida qo'llangan bo'ladi. Shu bilan birga, birov so'zi ham kimdir so'zi bilan erkin almashina olganligi uchun gumon olmoshi hisoblanadi.

**-dir** qo'shimchasi shakl yasovchi qo'shimchalarni o'zidan oldin, olmoshdan keyin qabul qiladi: kimlarnidir

## Bo'lishsizlik olmoshlari

So'roq olmoshlari va bir, narsa, nima so'zlari oldidan hech so'zining qo'llanishi natijasida **bo'lishsizlik olmoshlari** hosil bo'ladi. Hech kim, hech

nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha, hech narsa, kimsa so'zlari bo'lishsizlik olmoshlari sanaladi va ular yozuvda ajratib yoziladi. Hech so'zi yakka holda qo'llansa, ravish yoki yuklama vazifasini bajaradi.

Bu olmoshlar ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklida bo'ladi: Hech kim kelmadi. shaklida, ba'zan esa I shaxs shaklida (asosan, eski o'zbek tilida) bo'lishi mumkin.

## Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Olmoshlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy bo'ladi.

Faqat bir asosdan iborat bo'lgan olmoshlar sodda, ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar qo'shma olmoshlar hisoblanadi.

*Kim? nima? hamma, harcha singari tub olmoshlar, kimdir, qaysidir, allakim, allaqanday* (gumon olmoshlari) singari yasama olmoshlar sodda olmoshlardir.

*Hech kim, hech qachon, har bir, har kim, mana shu, ana o'sha* kabi olmoshlar qo'shma olmoshlardir.

Yasama sodda olmosh qismlari qo'shib (asosan, gumon olmoshi), qo'shma olmosh qismlari esa ajratib yoziladi.

Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikuvidan hosil bo'lgan olmoshlar **juft olmoshlar** sanaladi.

Bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o'zgarishi bilan (masalan, uncha-muncha) takrorlanishidan hosil bo'lgan olmoshlar **takroriy olmoshlar** hisoblanadi.

Juft va takroriy olmoshlar qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Olmoshlar boshqa so'zlarning yasalishiga asos bo'lishi mumkin. O'zboshimcha, o'zbilarmon, manman kabilar sifat, o'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq – iboralar sanaladi.

## Olmoshning tuzilishiga ko'ra turi

kishilik	ko'rsatish	so'rog'i	belgilash	gumon	bo'- lishsizlik	o'zlik	tuzilish turi
+	+	+	+	+		+	sodda
	+		+		+		qo'shma
+	+						juft
	+	+	+			+	takror
Men, sen sen-men siz-u biz	bu, mana bu u-bu, shu-shu	kim, nima- nima	Hamma, har bir hamma- hammasi	kimdir	hech kim	O'z, o'z- o'zini	

## Olmoshning grammatik tahlili

1. Olmosh. 2. So'rog'i. 3. Ma'no turi. 4. Otlashgan / otlashmaganligi. 5. Tuzilish turi. 6. Gapdagi vazifasi.

O'zim kichkina, ko'rimsiz bo'lsam ham, orzularim ulkan.

O'zim – olmosh, kim? o'zlik olmoshi, otlashmagan, I shaxs egalik qo'shimchasini olgan, sodda, tub, ega.

Shularga havasim keldi.

Shularga – olmosh, kimlarga? ko'rsatish olmoshi, otlashgan, ko'plik, jo'nalish kelishigi, sodda, tub, to'ldiruvchi.

**Topshiriq: 1. Olmoshlarni ma'no turlariga ajrating.**

Olmoshlar: kim, nima, qayer, men, sen, o'z, u, bu, shu, qanaqa, qanday, hamma, barcha, bari, kimdir, nimadir, biz, siz, o'sha, ana, mana, hech kim, hech nima, har bir, har kim, har qanday, ular, nega, necha, mana bu, anovi, ba'zi, ayrim.

**1. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gapdagi vazifasini yozish.**

Namuna: uning – kishilik olmoshi, aniqlovchi.

1. Yigit bechoraning rangi quv o'chib ketgan. ... lablari pir-pir uchadi.

2. Tog'am – tajribali yurist. ... ko'p ishlarni adolatli hal qilgan.

3. Hovlimizdagi qi p-qizil lolalar yay-yal yonadi....lolalar hammaning havasini keltiradi. 4. Bizning sinfimizda yigirma beshta o'quvchi bor. Muzaffarlarning sinfida ham ... o'quvchi bor.

**2. Ko'rsatish olmoshlarini topib, otlashgan va otlashmagan holatini yozish.**

1. Niyatimga yetaman, mana bu to'polonlar o'tib olsin-chi... – derdi u Onabibiga. 2. Ehsanning Moskvaga ketishi mana shu kunlarga to'g'ri keldi. 3. Voy, manavi bolaning shirinligini! – Parcha xola do'rillab xitob qildi. 4. Anavini qara-ya, o'zimizning to'pori Zebimi shu? 5. Mana buni aytsa bo'lar Eng oliy, zo'r muammo! O'rab oldi uni beshov, Miq etmasdi u ammo. 6. Mana bu fikringizga jonlar tasadduq bo'lsin! – qichqirdi Sultonmurod.

**3. Olmoshlarga qo'shimcha qo'shib, tovush orttirilishini belgilang.**

Namuna: bu+n+day; bu+n+aqa; bu+n+cha; bu+n+ga; bu+n+dan; bu+n+im; bu+n+ing; bu+n+i+si.

Bu, shu, o'sha, mana bu. Mana shu, ana u, ana shu.

**4. Men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -ga, -da, -dan, -niki qo'shimchalarini qo'shing.** -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda asosning tovush tarkibida qanday o'zgarish bo'layotganini ayting.

**5. Kishilik olmoshlarining gapdagi vazifasini aniqlang.**

1. Mening og'am ichinda, Soqollari tashinda. 2. Iloji bo'lsa, unga bildirmaylik. 3. Sening xayolingmi tonggi shabnamlar, Mehrdan so'ylashsa ko'zingda namlar. 4. To'ybekaning shuningdek hangamalari boshqa vaqtlarda Kumushni yaxshigina kuldirsa ham, hozir unga yotishib kelmadi. 5. Anovi

kungi yosh mehmonni senga maqtasam, achchig'landing, ammo kelib-kelib bu kun seni o'shanga berdilar. 6. Sening qancha puling bor edi? – deb so'radi mirshab sho'rlik kosib yigitdan.

6. O'zlik olmoshi kimning yoki nimaning ma'nosini ta'kidlayotganini yozish.

*Namuna: 1. Ikromjon xotinini qoldirib, o'zi (kim?) idora tarafga ketdi.*

2. O'zi bukir, Tishi o'tkir, Dehqonga o'rtoq, Nomi-chi – o'roq. 3. O'zi po'latdan, Dumri yog'ochdan. 4. Maksimichning qo'lidagi pidjagi g'ijimlangan, o'zi terlab, bo'g'riqib ketgan edi. 5. Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. 6. O'zi dumaloq, Qor kabi oq.

7. O'zlik olmoshi qaysi gap bo'lagi bo'lib kelayotganini aniqlang.

1. O'zining ovozi o'ziga uzoqdan eshitilganday tuyuldi. 2. O'zim ham hayronman. 3. Qimirlamang, biroz o'zingizga keling, – dedi yigit mehribonlik bilan, – uyingizga o'zim kuzatib qo'yaman. 4. Qurvonbibi fотиha to'yidan keyin biroz o'ziga kelgan edi. 5. Bu ishlarni qilgan o'zi.

8. Quyidagi jadvalni tegishli so'roq olmoshlari bilan to'ldiring.

So'roq turlari	Olmoshlar
Shaxs so'rog'i	
Narsa-hodisa so'rog'i	
Belgi-xususiyat so'roqlari	
Miqdor so'roqlari	
Sabab-maqсад so'roqlari	
O'rin-joy so'roqlari	
Payt so'roqlari	

1. So'roq olmoshi va so'roq turini yozing.

1. Nega uni otdami, aravadami eltib qo'ymadi? 2. Mukarrama, ular kim ekan? 3. Kechagi gaplardan keyin qaysi yuzi bilan boradi? 4. Nima ishlari bor ekan? – so'radi Zulayho xola. 5. Xudoyo, tavba qildim, bu qanday kun? Yo qudratingdan, bu qanday odam? 6. Nega muncha g'amgin nayning navosi, nega qalbim to'la o'kinch va malol?

2. So'roq olmoshlarining gapdagi vazifalarini aniqlang.

1. To'g'ri so'zlik, poklik va muloyimlik deganda nimani tushunasiz? 2. Qanday fazilatlar insonga ziynat bag'ishlaydi? 3. Yoshlar qanday



xislatlarga ega bo'lmog'i kerak? 4. Siz hayotda qanday kishilarga ergashasiz? 5. Mehnatsevarlik, rostgo'ylik, samimiylkning nima ekanligini bilasizmi?

### **3. Belgilash olmoshlarini ajrating.**

1. 1. Agar u guzardan hassasini do'qillatib o'tib qolsa, hamma barobar qalqib, to o'tib ketguncha ta'zimda turardi. 2. Har bir bekning navkarlari o'zlariga qarashli yuklarni tuya qo'shilgan og'ir aravalarga ortib kelmoqda edilar. 3. Biznikiga mehmon keldi, Hammasining qoshi qora. 4. Hamma nopok, hamma egri, yolg'iz siz to'g'ri. 5. Aybdor o'zi har bir savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqror qildi. 6. Bu gapning butun dahshati shu topda bilindi.

2. 1. O'g'limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangdir. 2. Hamma perronda. Hamma o'z jigarini qidiradi. 3. Barcha shodlik senga bo'lsin, bor sitam, zorlik menga. Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga. 4. Har kim o'z quvonch ham orzularini bildirib turarkan, Majdiddin, Nizomulmulk, Amir Mo'g'ul va bir ko'p beklar, a'yonlar kirishdi. 5. Dildorning bari gaplari haqiqat edi.

### **4. Gumon olmoshlarini ajrating.**

1. 1. Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o'tarmanmi, allanima baloga turtinib ketdim. 2. Shorahim ko'z yoshidan hech narsani ko'rmay, allanimalar deb g'udrandi. 3. Allaqayerdan oyim paydo bo'ldi. 4. Aniq yili esimda yo'q. Allaqaysi zamonda Bir qishloqda ota-o'g'il Yashar ekan omonda. 5. O'zbekoyim nimadir demoqchi edi, Oybodoq dasturxon ko'tarib kirib qoldi.

2. 1. Kimdir qarshi so'z aytgan edi, muallim jerkib berdi. 2. Normurod Shomurodov allaqanday shubhadan yuragi zirqirab o'z kabinetiga kirdi. 3. Kimdir ot yetaklab o'tar azonda, Uzilar ko'chaniq sahargi tushi. 4. Ayol qalbi tosh bo'lsaham, allaqayeri paxtadan yumshoq, i pakdan mayin bo'ladi. 5. Hazil-huzul bilan birpasda allaqancha piyozni qanorlarga joyladik.

### **5. Bo'lishsizlik olmoshlarini ajrating.**

1. Moziylar sasiga quloq tutgum jim, ustun bo'lgan emas dunyoga hech kim. 2. Haqing berma hech kimga, urho-yo, urho. 3. Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman. Hech bandaning boshiga farzand dog'ini solmasin ekan. 4. Yo'q, xo'jayin, qorin to'q, hech nima yegim kelmay turibdi. 5. Hozir ham hech kim o'z ismimni aytmaydi, «Ulfat» deyishadi. 6. Hech kimni shafe keltirmay tura turing, hali.

6. Kishilik olmoshi o'rnida qo'llangan so'zlarni ajratib, kesim bilan bog'lab yozing.

1. Faqir hozir taxmin qildimkim, Movarounnahrda ko'chki bosgan buloq balki shu yerga kelib qayta ko'z ochgandir? 2. Kechirasiz, rais, kamina bugun emas, o'g'lingizni shogirdlikka olgandayoq aytganman. 3. Janoblar! Kamina hoziroq Xuttalonga o'tlanurmen! 4. Sizga ne bo'tdi, ikki haftadan buyon faqiringizni zoriqtirib qo'ydingiz.

### **7. Quyida berilgan olmoshlarni tuzilishiga ko'ra jadvalga joylashtiring:**

1. Olmoshlar: men, mana shu, u, o'sha-o'sha, u-bu, siz-biz, hech kim, har bir, hech nima, kim, qanday, allakim, sen-men, kimdir, shu-shu, ana shu, allaqaysi, nega, qandaydir.

2. O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat buyuk ajdodlari xizmatlarini e'zozlashni o'rniga qo'yadi, boshqalarga ham uni e'tirof ettiradi.

O'tmishda yashab o'tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini bilish shu kunning asosiy talabi sanaladi. Bularni egallamay turib, biron-bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi. Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, Vatanga xizmat qilish namunasi bo'lib qolishi lozim.

1. 1. Meni Sodir Badalovich yubordilar, — dedi so'rashish uchun ikkala qo'lini baravar uzatib. 2. Yigitning dong'i o'zi tug'ilib o'sgan shaharga ham yetib boribdi. 3. So'fi hech narsa demay o'midan turdi. 4. O'zingga o'zingni maqtagandan qo'rq. 5. Ana o'sha yerda o'zimizni ko'rsatamiz. 6. Tesha Saidiy bilan bahslashish qo'ldan kelmaganini har bir so'zi, har bir harakati bilan bildirib turar edi.

2. Baxtni har kim o'zicha tushunadi. Kimlarningdir qorni, ust-boshi but. Shuni baxt sanaydi. Kimlardir yeng uchida yashaydi. Ko'ngli tinch. Siz o'z ota-onangizning jigargo'shalarisiz. Bu kam. Siz o'z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning ko'z qarog'larisiz, ammo unutmang: tanbal, daqqi, bezori kishi ma'naviy nogiron degan so'z. unga hech kishining ko'zi uchib turgani yo'q. o'zi uchun, qorni uchun yashab, nafs gadosi bo'lib yurganlar jamiyat uchun ortiqcha odamlardir. Bunday nusxalarning bor-yo'qligidan hech kimga hech qanday foyda yoki zarar yo'q. Komil inson esa hammaning joni.

2. 1. Shu-shu Nabijon ham dilni erkalovchi, ham allaqanday iztirobga soluvchi g'alati hislar girdobiga tushib qoldi. 2. Halimaxonni ko'rdim, sira o'zgarabdi: hamon o'sha-o'sha. 3. Yormat Yo'lchi bilan yonma-yon yurib eski tanish kabi undan-bundan so'zlashib bordi. 4. Mashina yuborsam, ubuiarni berib yuborarsiz.

#### 8. Olmoshlarni tahlil qiling.

1. O'zingdan kichiklarga doim yordam bergin. Bu bizning eng birinchi vazifamiz. 2. Hamma hayvonlar birdaniga tandinga yugurishib, uning ichida pisib yotgan Egriboyni tutib olishibdi va «chaqimchining jazosi - shu» deb, uni tilka-pora qilib tashlashibdi. 3. Nima eksang, shuni o'rasan. 4. Ammo shuni, bolajonlar, unutmang, Qor yoqqanda qushlar holi bo'lar tang. O'shanda siz qushlarga yordam bering, Uvoq seping, ularga inlar quring.

## Olmosh bo'yicha test topshirig'i

### I-variant

1. Qaysi so'z turkumlari turlanadi?  
A. Olmosh, ot, otlashgan so'zlar  
B. Sifat, son, olmosh, fe'l  
C. Ravish, olmosh, bog'lovchi  
D. Mustaqil so'z turkumlarining barchasi
2. Turlanish qaysi turkumlarga xos?  
A, Olmosh, son, fe'l                      B. Fe'l, olmosh  
C. Sifat, ravish                              D. Ot, olmosh
3. Olmoshning gapdagi vazifasi qaysi qatorda to'liqroq va tog'ri ko'rsatilgan?  
A. Ega    B. To'ldiruvchi    C. Aniqlovchi  
D. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, ega, undalma
4. Qaysi gapda to'rtta o'rinda olmosh ishtirok etgan?  
A. U kishi faqirni nechundir ko'p xushlamaydilar...  
B. Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman  
C. Qaysi kuni redaksiyaga kirib, qanaqadir felyetonni bosilayotgan yerida to'xtatib qo'yibdi  
D. Shu vaqt kimdir uning ustidan bosib o'tdi-da, birdan to'xtab, yelkasidan tortdi
5. Olmoshlardan yasalgan so'zlar berilgan qatorni toping.  
A. Ularga, meningcha, unday                      B. Sizlamoq, senbop, sensiramoq  
C. Shunda, shu yerda, shuni                      D. Qachondir, allaqancha, nimani
6. Qaysi kelishik qo'shimchalari ayrim olmoshlarga qo'shilganda, tovush ortishi kuzatiladi?  
A. Bosh, jonaliish                                      B. Tushum, o'rin-payt  
C. O'rin-payt, jo'nalish, chiqish                      D. Qaratqich, tushum
7. «Men kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman, chunki undan barcha hayotiy muammolarning yechimini topsa bo'ladi» gapida undan olmoshi qaysi turkum o'rnida kelyapti?  
A. Ot o'rnida                                      B. Sifat o'rnida  
C. A, B    D. Butun gap o'rnida
8. «Shart shuki, har kuni men bilan ishlaysiz?» gapida shuki olmoshi qaysi turkum o'rnida kelyapti?  
A. Ot o'rnida    B. Ravish o'rnida    C. Butun gap o'rnida    D. A,B

9. Qaysi gapdagi birov soʻzini allakim ma'nodoshi bilan almashtirish mumkin?

- A. Bolalardan birovi koʻzlarini chirt yumdi
- B. Bu gaplarni birov eshitmasin
- C. Uzoqdan birovning qorasi koʻrindi
- D. Botirlar birov eshitmasin deb, sekin-sekin qadam bosishdi

10. Kishilik olmoshlarining qaysi biri nutq jarayonida ishtirok etmagan shaxsni ifodalaydi?

- A. I shgaxs kishilik olmoshlari
- B. II shaxs kishilik olmoshlari
- C. III shaxs kishilik olmoshi
- D. I va II shaxs kishilik olmoshlari

11. Har kimning bilgani – oʻziga.

Ushbu gapda nechta va qanday olmoshlar ishtirok etgan?

- A. Ikkita, oʻzlik va takror olmoshlari
- B. Ikkita, gumon va oʻzlik olmoshlari
- C. Ikkita, juft va oʻzlik olmoshlari
- D. Ikkita, oʻzlik va belgilash olmoshlari

12. Qaysi gapda belgilash olmoshi ot oʻmida qoʻllangan?

A. Ertaga biz ham ularning nasibasiga sherik boʻlib, magazindan goʻsht olib yesak, davlat bizga qanday goʻsht yetkazadi?

B. Ammo siz menga yordamlashing, qayerda boʻlmasin qizni topishga bel bogʻlaylik

C. Yusufjonning kirim-chiqim daftaridagi barcha jonli-jonsiz mulkni oʻganib olibdi

D. Hamma perronda, hamma oʻz jigarini qidiradi

13. Jamlash, umumlashtirish ma'nosini ifodalovchi olmoshlarni toping.

- A. har kim, har qaysi, har qanday
- B. qay bir, hech nima, allakim
- C. har doim, ba'zi, butun
- D. barcha, hamma, bari

14. Belgilash olmoshi ishtirok etgan gapni toping.

- A. Axloqqa tayanmagan ilm hech narsaga arzimaydi
- B. Oʻzini hurmat qilgan odam boshqalarni ham izzat-ehtiromga oʻrgatadi
- C. Soʻz qanday ishga yoʻllashi bilangina qimmatlidir
- D. Hamma qiyinchiliklardan faqat mehnat bilan qutulish mumkin

15. Olmoshlarining qaysi turida kelishiklar belgisiz qoʻllanishi mumkin?

- A. oʻzlik va soʻroq olmoshlarida
- B. kishilik olmoshlarida
- C. koʻrsatish olmoshlarida
- D. oʻzlik va kishilik olmoshlarida

16. Qaysi olmoshlarni hosil qilishda soʻroq olmoshlari ham ishtirok etishi mumkin?

- A. ko'rsatish, belgilash, bo'lishsizlik va gumon olmoshlari
- B. kishilik olmoshlari
- C. ko'rsatish va belgilash olmoshlari
- D. belgilash, bo'lishsizlik va gumon olmoshlari

17. meni, seni olmoshlari qaysi kelishik shaklida qo'llangan?

- A. qaratqich    B. tushum    C. jo'nalish    D. o'rin-payt

18. Saida bunga ham e'tibor berdi. Ushbu gapda olmoshning qaysi turi qo'llangan?

- A. kishilik olmoshi                      B. ko'rsatish olmoshi
- C. o'zlik olmoshi                         D. belgilash olmoshi

19. Qaysi qatorda belgilash olmoshi ishtirok etgan gap berilgan?

- A. Hech bir his aqldan ustun bo'lmaydi
- B. Har kim o'z qilmishiga yarasha mukofot oladi
- C. Eshik orqasidan kimningdir xirgoyisi eshitildi
- D. Siz bilan allaqayerda uchrashganmiz

20. Qaysi gapda o'zlik olmoshi hurmat ma'nosida qo'llangan?

- A. Rais amakim o'zlari kelib ketdilar
- B. O'zlari xon, ko'lankalari maydon
- C. O'zlarimi, kelsinlar!
- D. Donolar uchun o'zlarining hayotlari o'zlariga ravshan

21. Qaysi qatordagi olmosh shaxsning tanholigini ta'kidlaydi?

- A. hech kim, hech nima, hech qanday    B. bu, shu, o'sha
- C. hamma, barcha, bari                      D. o'zim, o'zing, o'zi

22. Bo'lishsizlik olmoshi qaysi javobda qo'llangan?

- A. Olg'irlar hech narsadan qaytmaydilar
- B. O'z tilini idora qilolmagan odamda haqiqat bo'lmaydi
- C. Iroda barcha dori-darmonlardan ko'ra ko'proq yordam beradi
- D. Yoshlik shu narsa bilan baxtiyorki, uning kelajagi bor

23. Tarkibidagi gumon olmoshi qo'llangan gapni belgilang.

- A. Hech kim uni xunuk demaydi
- B. Birov uni bo'g'ayotgandek, yelkalarini qimirlatib, nafasini rostladi
- C. Bu hovuz ikki odam bo'yi chamasi chuqur edi
- D. Hamma xotirjam...

24. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan ko'rsatish olmoshi quyida berilgan qaysi so'zlar bilan birikadi?

- A. tashqari, buyon    B. A, C    C. sayin, sari    D. qarab, ko'ra

25. Ko'rsatish olmoshlari turlanganda qanday fonetik o'zgarish kuzatiladi?

- A. Barcha kelishik qo'shimchalari to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi

- B. Barcha kelishik qo'shimchalaridan oldin kelgan undosh tushib qoladi
- C. Barcha kelishik qo'shimchalaridan oldin bir n tovushi orttiriladi
- D. Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishik qo'shimchalaridan oldin bir n tovushi orttiriladi

26. O'z, u, bu, o'sha, kimdir, allanarsa, ana.

Ushbu olmoshlar orasida olmoshning qaysi turiga mansub bo'lgan so'zlar umuman berilmagan?

- A. Kishilik, so'roq, belgilash, o'zlik, bo'lishsizlik olmoshlari
- B. Kishilik, belgilash, o'zlik, bo'lishsizlik olmoshlari
- C. Kishilik, belgilash, bo'lishsizlik, gumon olmoshlari
- D. Kishilik, belgilash, bo'lishsizlik olmoshlari

27. Kishilik olmoshlariga odatda qaysi qo'shimchalar qo'shilib kelmaydi?

- A. so'z yasovchi qo'shimcha
- B. -lar qo'shimchasi
- C. egalik qo'shimchasi
- D. kelishik qo'shimchasi

28. Kishilik olmoshlari qaysi shaxsda badiiy adabiyotda narsalarga nisbatan ham ishlatiladi?

- A. I, II shaxsda
- B. III shaxsda
- C. II shaxsda
- D. II, III shaxsda

29. Natijasida so'zidan oldin qaysi kelishikdagi ko'rsatish olmoshi qo'llanishi mumkin?

- A. o'rin-payt
- B. jo'nalish
- C. tushum
- D. qaratqich

30. Olmoshlarda qaysi kelishik belgisiz qo'llanishi mumkin?

- A. qaratqich kelishigi
- B. tushum kelishigi
- C. jo'nalish kelishigi
- D. A, B

31. Qaysi qatordagi gapda gumon olmoshi qo'llanmagan?

- A. Vaqt allamahol bo'lib qolgan edi
- B. Ali Qushchi allanimalarni o'ylab ketdi
- C. Ot nima uchundir o'rnidan jilmasdi
- D. Negadir taftishchining ovozi menga yoqmadi

32. Olmoshlar haqida bildirilgan qaysi hukm noto'g'ri?

- A. Olmoshlarni gap o'rnida almashtirib qo'llash mumkin
- B. Bir so'zi gumon olmoshi o'rnida qo'llanishi mumkin
- C. Barcha hukmlar to'g'ri
- D. Yasama sodda olmosh qismlari qo'shib, qo'shma olmosh qismlari esa, ajratib yoziladi

33. Qaysi olmoshlar hurmat ma'nosida qo'llanganda bosh harf bilan yozilishi mumkin?

- A. biz, siz
- B. men, biz
- C. kamina, faqir
- D. u, ular

34. Tinglovchiga ishora qiluvchi kishilik olmoshlarini belgilang.

A. sen, siz      B. men, biz      C. kamina, faqir      D. u, ular

35. Kishilik olmoshlariga quyidagi qo'shimchalardan qaysi biri qo'shilishi mumkin?

A. nisbat yasovchi qo'shimchasi      B. C, D  
C. so'z yasovchi qo'shimcha      D. shaxs-son qo'shimchalari

36. Qaysi olmosh yakka shaxsga ishora qilib, hurmat ma'nosini ham bildiradi?

A. biz      B. siz      C. ular      D. B,C

## 2-variant

1. Berilgan gaplarning qaysi birida olmosh sifat o'rni qo'llangan?

A. Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat berdi  
B. Barchasi to'g'ri  
C. Karim gullarni uza boshladi. Bu esa, bog'bonning jahlini chiqardi  
D. Gullarning ko'pi pushtirang. Ana shu rang menga juda yoqadi

2. Har uchala shaxs birlik va ko'plikdagi kishilik olmoshlari o'rnida ma'nodosh (sinonim) sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan olmosh turini toping.

A. O'zlik olmoshi      B. So'roq olmoshlari  
C. Gumon olmoshi      D. Ko'rsatish olmoshlari

3. Quyidagi qaysi gap tarkibida uchta olmosh qatnashgan?

A. Ayajon, ularga o'zi nima kerak ekan-a?  
B. Kattalar orasida aqlli va farosattiroq biror kishini uchratganimda, unga 1-raqamli rasmimni ko'rsatardim

C. Ana shundan keyin, olti yashar paytimda rassomlikning porloq kelajagidan voz kechishga majbur bo'ldim

D. Lekin ...bu yerda nima qilib yuiri psan?

4. Qaysi gapda to'rtta o'rinda olmosh qo'llanilgan?

A. Hamma unga o'girilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni ko'rmas edi

B. Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman

C. Hozir ham hech kim o'z ismini aytmaydi

D. Sizga ne bo'ldi, ikki haftadan buyon faqiringizni zoriqtirib qo'ydingiz

5. Quyidagi qaysi so'zlar ba'zan nutqda men kishilik olmoshi o'rnida qo'llanilishi mumkin?

1) -lar; 2) -im; 3) -imiz; 4) -jon; 5) -da; 6) -cha  
A. 1,3,5      B. 1,2,5      C. 1,4,6      D. 2,3,5

6. Olmoshlar asosida yasalgan sifatlar berilgan javobni aniqlang.  
 A. Manmanlik, o'zboshimcha      B. O'zboshimcha, o'zbilarmon  
 C. Har xil, shunchaki              D. O'shanday, shunaqa
7. So'zlovchining nutqi odatda kishilik olmoshlarining qaysi biriga qaratilgan bo'ladi?  
 A. U, ular      B. Siz, ular      C. Men, biz      D. Sen, siz
8. Belgilash olmoshi berilgan qatorni toping  
 A. Hech yoqdan                      B. Hech qachon  
 C. Har yerda                          D. Har qaysi
9. Qaysi olmosh hurmat ma'nosini ifodalaganda, ko'pincha ko'plik ma'nosini ifodalash uchun -lar qo'shimchasi ham qo'shiladi?  
 A. Biz      B. Siz      C. U      D. A, B
10. Men, sen olmoshlariga qaysi qo'shimchalar qo'shilganda talaffuzda bir «n» tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi?  
 A. -niki      B. -ki      C. -ni, -ning      D. A va C
11. Kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanib, ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi olmosh berilgan javobni toping.  
 A. Ko'rsatish olmoshlari      B. O'zlik olmoshlari  
 C. Kishilik olmoshi              D. So'roq olmoshi
12. Eski o'zbek tilida kamina, kaminai kamtaringiz, faqir, qulingiz, bandayi ojizingiz singari so'zlar qaysi olmosh o'rnida qo'llangan?  
 A. I shaxs egalik qo'shimchasini olgan so'roq olmoshi o'rnida  
 B. I shaxs birlikdagi bo'lishsizlik olmoshi o'rnida  
 C. II shaxs birlikdagi kishilik olmoshi o'rnida  
 D. I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi o'rnida
13. Eski o'zbek tilida qo'llangan kamina, kaminai kamtaringiz, faqir, qulingiz, bandayi ojizingiz singari so'zlardan qaysi biri hozir ham ishlatiladi?  
 A. Kamina      B. Kaminai kamtaringiz  
 C. Faqir              D. Bandai ojizingiz
14. Eski o'zbek tilida kamina, kaminai kamtaringiz, faqir, qulingiz, Bandayi ojizingiz singari so'zlar qo'llanganda gapning kesimi qaysi shaklda bo'ladi?  
 A. I shaxs shaklida      B. II shaxs shaklida  
 C. III shaxs shaklida      D. A, C
15. Quyidagi olmoshlardan qaysi biri egalik qo'shimchasi bilan qo'llanmaydi?  
 A. Nima      B. Kim      C. Biz      D. O'z



16. Qaysi qatorda ko'rsatish olmoshli gap o'rnida qo'llangan?  
A. Yolg'on gapirish yaxshi emas, bu yomon oqibatlariga olib keladi  
B. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin  
C. Men bugun ketaman, sen qachon ketasan?  
D. Karim juda quvondi, chunki u orzusiga erishgan edi.

17. Qaysi qatordagi gapda o'zlik olmoshi o'mida kishilik olmoshini qo'llab bo'lmaydi?

- A. Kunda ikkita non o'ziga qolsa, shu katta davlat...  
B. O'zi kim, nima tirikchilik qiladi, unisiga e'tibor qilmagan ekanman  
C. Nimangiz bor-u, nimangiz yo'q, ayting, o'zingiz eplashirasizmi yo odam chaqirtiraymi?  
D. Qurvonbibi fotiha to'yidan keyin biroz o'ziga kelgan edi

18. Olmoshlarning qaysi turi turlanganda tovush orttirilishi yoki tushishini kuzatish mumkin?

- A. O'zlik olmoshida                      B. Kishilik olmoshida  
C. Ko'rsatish olmoshida                D. Belgilash olmoshida

19. Qaysi gapda qo'shma olmosh mavjud?

- A. Hamma unga o'girilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni ko'rmas edi  
B. Nima qilib bu yerda turibsan, chirog'im, yaxshilikka bo'lsin edi, - dedi chol  
C. Men unga nima debman, u qayerdan bilibdi, yuzimga solsin  
D. Kim biladi, Yo'lchiboyni xizmatkorlarga bizlar olamizmi?

20. Olmoshlarning qaysi turi sodda, qo'shma, juft, takroriy shakllarga ega?

- A. Bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari  
B. So'roq , bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari  
C. Ko'rsatish olmoshlari  
D. Kishilik va o'zlik olmoshlaridan tashqari olmoshlarining barcha turlari

21. Juft olmoshlar ishtirok etgan gapni toping.

- A. U har qanday vaziyatda ham o'zini yoqotmasdi  
B. Har kim ekanini o'radi  
C. To'yga kim-kimlar borishdi?  
D. U-bu yeb ol, o'g'lim

22. Qaysi olmoshlar juft holda qo'llanilishi mumkin?

- A. Ko'rsatish va kishilik                B. Gumon va o'zlik  
C. So'roq va belgilash                 D. O'zlik va belgilash

23. Qaysi olmoshlar juft holda ishlatiladi?

- A. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari  
B. faqat ko'rsatish olmoshlari

- C. Ko'rsatish, so'roq va belgilash olmoshlari  
 D. Ko'rsatish va o'zlik olmoshlari
24. Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Ushbu gapdagi olmosh qaysi birlik o'rnida qo'llangan?  
 A. Sifat o'rnida                      B. Ot o'rnida  
 C. Son o'rnida                        D. Ravish o'rnida
25. Istagim shuki, doim tinchlik bo'lsin. Ushbu gapdagi olmosh qaysi birlik o'rnida qo'llangan?  
 A. Gap o'rnida                        B. So'z o'rnida  
 C. Ot o'rnida                         D. Matn o'rnida
26. Olmosh qaysi turkum o'rnida almashib qo'llanishi mumkin?  
 A. Ot, sifat, son, ravish, fe'l                      B. Ot, sifat, son, ravish  
 C. Ot, sifat, son, ravish, bog'lovchi, fe'l                      D. Ot, sifat, ravish
27. Qaysi so'z kishi, narsa, nima so'zlari bilan ishlatilsa, gumon ma'nosini ifodalaydi?  
 A. Bir            B. Har            C. Hech            D. Ko'p
28. Olmosh + ot shaklidagi bitishuv yo'li bilan hosil bo'lgan o'tli birikmalarda, olmoshning qaysi turlari tobe so'z vazifasida kela oladi?  
 A. Kishilik, o'zlik va ko'rsatish olmoshlari  
 B. Ko'rsatish, so'roq va belgilash olmoshlari  
 C. Kishilik, o'zlik, ko'rsatish va so'roq olmoshlari  
 D. Bo'lishsizlik olmoshlaridan tashqari barcha
29. Qaysi qatorda olmosh bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchi ishtirok etgan?  
 A. Yaxshi kulgi ruhni sog'lomlashtiradi  
 B. Odamning guli — hamisha quvnoq odam  
 C. Bizning butun qadr-qimmatimiz tafakkurda jamlangan  
 D. Xushchaqchaq odamning buguni ham ertasi ham quvnoq o'tadi
30. Olmoshlar asosida yasalgan sifatlar berilgan javobni aniqlang?  
 A. o'zboshimcha, o'zbiarmon                      B. manmanlik, o'zboshimcha  
 C. o'shanday, shunaqa                              D. har xil, shunchaki
31. Qaysi olmoshlar yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nosini ham bildiradi?  
 A. biz, ular            B. ular, sizlar            C. siz, ular            D. sizlar, bizlar
32. Quyidagi qaysi so'zlar ba'zan nutqda men kishilik olmoshi o'rnida qo'llanishi mumkin? 1. kamina; 2. qulingiz; 3. faqir; 4. bandayi ojizingiz:  
 A. 1,2            B. 1,3,4            C. 1,2,3            D. 1,2,3,4

33. So'roq olmoshlari ravishga xos sintaktik vazifa bajargan qatorni toping?
- A. Mukarrama, ular kim ekan?
  - B. — Nima ishlari bor ekan? — so'radi Zulayho xola
  - C. Nega qalbim to'la o'kinch va malol
  - D. Kechagi gaplardan keyin qaysi yuz bilan boradi
34. To'pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgini bildiradigan olmoshlar qanday hosil bo'ladi?
- A. Ba'zi so'ziga bir, narsa so'zlarini qo'shish orqali
  - B. Kim nima, qanday olmoshlariga alla -yoki -dir qo'shimchasini qo'shish orqali
  - C. Bir so'zining kishi, narsa, nima so'zlariga qo'shilishidan
  - D. Har so'zining so'roq olmoshlariga va bir so'ziga qo'shilishidan
35. Olmoshning qaysi turida kelishik va egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush orttiriladi?
- A. kishilik, belgilash
  - B. gumon, ko'rsatish
  - C. bo'lishsizlik, kishilik
  - D. ko'rsatish, kishilik
36. O'zlik olmoshi hurmat ma'nosida qo'llangan gapni aniqlang?
- A. Donolar uchun o'zlarining hayotlari o'zlariga ravshan
  - B. O'zlari xon, ko'lankalari maydon
  - C. Rais amakim o'zlari kelib ketdilar
  - D. O'zimiz keldik

---

---

## FE'L

**Harakat-holat ma'nosini ifodalab, nima qildi (bo'ldi)?, nima qilyapti (bo'lyapti)? nima qiladi (bo'ladi)? singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'z turkumiga fe'l deyiladi.**

Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.

### Harakat va holat fe'llari

Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi.

Harakat fe'llari-shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar. Masalan: yurdi, sakradi. Holat fe'llari-shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar. Masalan: siqildi, qizardi.

### Fe'lning ma'no turlari (Akad. litsey)

1. Yumush fe'llari: ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi va boshqalar.
  2. Tafakkur fe'llari: o'ylaydi, o'qidi, kashf qildi kabi.
  3. Sezgi fe'llari: sezdi, his qildi.
  4. Ruhiiy holat fe'llari: kuldi, xursand bo'ldi, qayg'urdi, iztirob chekdi.
  5. Nutq fe'llari: gapirdi, so'zlandi, bayon qildi, ifoda qildi, ming'irladi, do'ng'illadi.
  6. Ishora fe'llari: imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi.
  7. Jismoniy holat fe'llari: og'ridi, isitma chiqdi, xastalandi, sog'aydi, kuchaydi, charchadi.
  8. Tabiiy holat fe'llari: eridi, muzladi, etdi, uxladi.
  9. Ko'rish fe'llari: qaradi, ko'rdi, boqdi, termuldi.
- Eslatma: O'ra maktabda fe'lning ma'noviy guruhlari 4 ga bo'linadi: nutqiy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, holat fe'llari.*
- Fe'lning 6 ta kategoriyasi (xususiyati) mavjud. Bular: 1.shaxs-son, 2. zamon, 3.mayl, 4.o'timli-o'timsizlik, 5.nisbat, 6.bo'lishli-bo'lishsizlik.

### 1. Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari shakllari

Fe'llarning shaxslarga munosabatini bildirgan qo'shimchalarga shaxs-son qo'shimchalari deyiladi. Masalan, *keldim, yozding, boraman* so'zlaridagi *-m, -ng, -man* qo'shimchalari.

Fe'llarning I va II shaxsi maxsus shakllar orqali ifodalanadi. III shaxsda esa zamon qo'shimchalari shaxs ma'nosini ham anglatadi.

O'tgan zamonning -di hamda kelasi zamon shart mayli -sa shakllaridan so'ng -m, -ng, -k, -ngiz qo'shimchalari; ravishdosh, sifatdosh shakllari hamda sof fe'lning hozirgi zamon shakllaridan so'ng -man, -miz, -san, -siz qo'shimchalari qo'llaniladi.

Bunday qo'shimchalarning shaxs-son qo'shimchalari deb yuritilishiga sabab shuki, shaxs qo'shimchalari ayni paytda sonni ham bildirib turadi: yo birlik, yo ko'plik shaklida bo'ladi. Masalan,

<b>Birlik</b>	<b>Ko'plik</b>
O'qidi-m	o'qidi-k
O'qidi-ng	o'qidi-ngiz (laring)
O'qidi-	o'qidi-lar (o'qishdi)

Ba'zi hollarda I shaxsni ifodalash uchun II shaxs qo'shimchasi, shuningdek, birlik ma'nosini ifodalash uchun ko'plik qo'shimchalari qo'llanishi mumkin. Bunday holatlar ma'lum uslubiy maqsadda ro'y beradi. Masalan, *Yurasan, yurasan, hech masofa kamaymaydi - yuraman, yuraman, hech masofa kamaymaydi.*

II va III shaxs birlik shakllari o'rniida ko'plik shakli qo'llanilsa, shaxs ko'pligi emas, balki shaxsga hurmat ma'nosi ifodalanadi. Masalan, Dadam keldilar. Siz juda yoqimli kuyladingiz. So'zlang.

Ayrim o'zbek shevalarida shart maylidan keyin qo'shiladigan shaxs-son shakllari o'rniga o'tgan zamonning -gan shakli, hozirgi va kelasi zamon shakllaridan keyin ishlatiladigan shakl qo'llaniladi. *Masalan, borsa o'rniga borsamiz, borsavuz.*

### Shaxs-son qo'shimchalarini quyidagi jadvalda ko'ring:

Shaxs-son asosi	shaxs	Shaxs-son shakllari		misollar	
		Birlik	Ko'plik	Birlik	Ko'plik
a) o'tgan zamon aniq maylni -di shakli b) kelasi zamon shart mayli	I	-m	-k	keldim	keldik
	II	-ng	-ngiz	kelsam	kelsak
	III		-lar	kelding	keldingiz
				kelsang	kelsangiz
				keldi	keldilar
				kelsa	kelsalar

a) o'tgan zamon aniq maylining -gan shakli I-b hozirgi zamon aniq maylining shakllari) kelasi zamon aniq mayli	I	-man	-miz	kelganman	kelganmiz
	II	-san	-siz	kelyapman	kelyapmiz
	III	-adi	-adilar	kelaman	kelamiz
				kelgansan	kelgansiz
				kelyapsan	kelyapsiz
				kelyapti	kelyaptilar
				kelaman	kelamiz
				kelasan	kelasiz
				keladi	keladilar
a) kelasi zamon buyruq-istak mayli	I	-ay, -y, -gin, -sin	-aylik, -ylik, -ngiz (lar), -sinlar	kelay	kelaylik
				kelgin	keling(iz)
				kelsin	kelsinlar

## Fe'llarning zamon shakllari va uslubiy xususiyatlari

Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning uch zamondan birida sodir bo'lishini bildiruvchi shakllar zamon shakllari sanaladi. Zamon turini belgilashda so'zlanayotgan nutq vaqti (hozirgi zamon) asosiy tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi. Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllarga **zamon shakllari**, ana shunday shakllar tizimiga zamon kategoriyasi deyiladi. Fe'l uchta zamon shakllariga ega: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon. Keldim, kelyapman, kelaman fe'llarining uchalasi ham I shaxsni bildiradi, lekin ular harakatning nutq momentiga nisbatan qachon bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan farq qiladi.

### O'tgan zamon shakllari

Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bo'lib o'tganligini bildirgan shakllar o'tgan zamon shakllari sanaladi.

O'tgan zamon shakllariga quyidagi shakllar kiradi: *-di, -gan, -ib, (-man, -san, -di)* kabi, masalan, keldi, kelgan, kelibman, kelibsan va boshqalar.

Bu shakllar garchi «o'tgan zamon» umumiy ma'nosi asosida birlashsa ham, lekin ularning har qaysisi bir-biri bilan ma'lum ma'nosiga ko'ra farq qiladi: *-gan shakli -di ga nisbatan harakatning nutq so'zlangan vaqtdan*

ancha oldin ro'y berganini bildiradi. *-ibdi, -ibman, -ihsan* shakllari esa so'zlovchi nutq momentidan oldin ro'y bergan harakatni boshqa shaxsdan eshitganligini yoki oldindan kutilgan harakatning amalga oshganligini bildiradi. Masalan, O'g'rini eshakka teskari mindiribdi.

*-di* shakli, umuman, harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi.

*Solishtiring:* keldi  
kelgan  
kelgan edi  
kelibdi

Bu zamon shakllari fe'l asoslariga *-di, -(i)b, -gan (-kan, -qan)* qo'shimchalarini va ulardan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

### **O'tgan zamon shakllarining yasalishi**

*-di* qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli so'zlovchining bevosita o'zi ko'rgan harakat va holatni bildiradi. Bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining *-m, -k (qoldim, qoldik), -ng, -ngiz (qolding, qoldingiz)* shakllari qo'llaniladi.

*-(i)b* qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli ilgari ro'y bergan harakat va holatning so'zlovchi tomonidan eshitib bilganini ifodalaydi va bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining *-man, -miz, -san, -siz, -di(-lar)* shakllari qo'shiladi.

*-gan* qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli harakat va holatning ilgariroq bajarilganini bildiradi va bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining *-man, -miz; -san, -siz* shakllari qo'shiladi.

### **O'tgan zamon shakllarida to'liqsiz fe'lning ishlatilishi**

Edi, emish, ekan fe'llari to'liqsiz fe'llar sanaladi. Bu fe'llar yetakchi fe'lning zamon shakllaridan so'ng keladi, shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: kelgan ekansan (eding, emishsan), kelayotgan ekansan (eding, emishsan).

Edi, emish, ekan to'liqsiz fe'llari *-di, -mish, -kan* shaklida ham qo'llaniladi. Masalan: borgandi, borganmish, kelarkan.

### **Hozirgi zamon shakllari**

Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanayotgan vaqtda ro'y berishi yoki bermasligini bildirgan shakllarga hozirgi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa, hozirgi zamon kategoriyasi deyiladi.

Hozirgi zamon ma'nosi *-yapti, -yotir, -moqda* singari qo'shimchalar qo'shish orqali ifodalanadi. Masalan, *yozyapti, yozmoqda, yozayotir*.

Bulardan **-yapti, -moqda, fe'l asoslariga, -yotir esa fe'ning ravishdosh shakliga qo'shiladi.**

Hozirgi zamon shakllari ma'lum uslubga xoslangani bilan o'zaro farqlanadi, **-yapti uslubiy betaraf (neytral) shakl bo'lsa, -moqda, -yotir yozma nutq uslubiga xosdir.**

Hozirgi zamon shakllari fe'l asoslariga **-yap, -moqda, -(a)yotib** qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Hozirgi zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtda yuz berishini ifodalaydi. Shaxs-son qo'shimchalari zamon qo'shimchalaridan so'ng qo'shiladi.

### **Hozirgi zamon shakllarining talaffuzi va imlosi**

**-yotir, -yotib shakllari unli bilan tugagan fe'l asoslariga, -ayotir, -ayotib shakllari esa, undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi.**

**-yap shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, -ayap holida talaffuz qilinsa ham, -yap yoziladi.**

### **Kelasi zamon shakllari**

Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanayotgan vaqtdan so'ng ro'y berish-bermasligini bildirgan zamon shakllariga **kelasi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa, kelasi zamon kategoriyasi deyiladi.**

Bu zamon shakllari fe'l asoslariga **-a, -y, -(a)r** qo'shimchalarini va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Bu shakllar ba'zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini ham ifodalaydi. Masalan: Akam kolleжда o'qiydi.

Undosh bilan tugagan fe'l asoslariga kelasi zamonning **-a, -ar, unli bilan tugagan fe'l asoslariga -y, -r, bo'lishsiz fe'l shakllariga esa, -s** qo'shimchasi qo'shiladi.

Kelasi zamon ma'nosi fe'ning **-a ravishdosh shakliga -di, -jak; fe'l asoslariga -ar, -ur, -gusi** qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan, keladi, kelajak, kelar (ur), kelgusi kabi.

Bulardan **-adi, -ar uslubiy betaraf shakllar bo'lsa, -jak, -gay (-gay),ur, -gusi shakllari badiiy va publitsistik uslubga xosdir.**

Uslubiy betaraflik belgisiga ko'ra **-adi va -ar shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham, ular ifodalanayotgan harakatga gumon-taxmin ma'nosini bildirish-bildirmasligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. -adi betaraf bo'lsa, -ar gumon-taxmin ma'nosiga ega. Solishtiring: keladi-kelar.**

### **Zamon qo'shimchalarining bir-biriga ko'chishi**

Ba'zan turli zamonga mansub bo'lgan shakllar o'zaro almashinishi mumkin. Masalan, Tanklar, zambaraklar ag'anab yotibdi. Bir jangchining peshonasi bog'langan, bir jangchining esa, yelkasidan qon oqmoqda.



O'tgan zamonda bo'lib o'tgan voqealarga tinglovchini olib kirish, ulami uning ko'z oldiga olib kelish maqsadida hozirgi zamon shakli ishlatilgan.

## Mayl shakllari

Fe'l ifodalagan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari mayl shakllari sanaladi. Fe'llarning uchta mayl shakli mavjud: 1) xabar mayli; 2) buyruq-istak mayli; 3) shart mayli.

### Mayl qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari

Fe'ldan anglashilgan harakat-holatni bildirgan fe'l shakllariga mayl shakllari, shunday shakllar tizimiga esa mayl kategoriyasi deyiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida yuqoridagi ma'nolarga muvofiq keladigan to'rt turdagi mayl shakllari mavjud. Ularni quyidagi jadvalda ko'ring:

№	Mayl turlari	Mayl ko'rsatkichlari	Misolalar	Ma'nolari
1	Ijro mayli		Ko'rdim, ko'ryapman, ko'raman, ko'rding, ko'ryapsan, ko'rasan, ko'rdi, ko'ryapti, ko'radi	Harakatning ijro qilish-qilinishini bildiradi
2	Buyruq-istak mayli	-y (-ay), -ylik (-aylik), -ng (-ing), -ngiz, (-inglar), -sin, -sinar	to'qiy, yozay, yoz, yozing, yozgin, yozingiz, yozsin, yozsinar	Harakatni bajarishga da'vat etish ma'nosini bildiradi
3	Shart mayli	-sa	yozsam, yozsang, yozsas	Shart bo'lgan harakatni ifodalaydi
4	Maqsad mayli	-moqchi	yozmoqchiman, yozmoqchisan, yozmoqchi	Harakatning biror maqsadda bajarilishini bildiradi

Xabar (aniqlik, ijro) mayli	Buyruq-istak mayli	Shart mayli
Asos+zamon+shaxs-son bordin boryapman ko'rgansiz o'ylaganman	Asos+buyruq-istak mayli qo'shimchasi I sh: -ay, -aylik II sh: -gin, -ingiz III sh: -sin, -sinar bor, o'qima, yozay, borigin, yozingiz, borsinar, o'qingiz, avaylaylik, ko'ring, o'qimangiz	Asos+ sa+ tuslovchi borsak borsam borsangiz -sa edi - orzu (borsa edi) -sa kerak - faraz (yoqsa kerak)
Harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqida xabar, darakni ifodalovchi fe'l shakli	Harakat va holatni bajarish yoki bajarmaslik haqidagi buyruq, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan fe'l shakli	Boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni bildiradi

**Yoki asosida ifodalangan harakat, holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari mayli shakllari sanaladi:**

*Eslatma:* Litsey darsligida maqsad mayli -moqchi shaklida yasalishi berilgan: *yozmoqchi, ko'rmoqchi, bormoqchi.*

Yuqoridagi fe'l shakllaridan o'rinli foydalanish nutqingizni aniq, ravon ifodalashga yordam beradi.

II shaxs buyruq mayli qo'shimchalari o'rniga III shaxs buyruq mayli qo'shimchasi ishlatiladi. Masalan, kiring o'rniga kirsinlar, o'tiring o'rniga o'tirsinlar. Bunday holat o'zidan katta yoki obro'li kishilarga nisbatan qo'llanilib, hurmat ma'nosi ifodalanadi.

## **Xabar mayli**

Harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabar, darakni bildiruvchi fe'l shakli **xabar mayli** shakli hisoblanadi. Bu mayli fe'l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalanadi.

## **Buyruq-istak mayli**

Harakat va holatni yoki bajarmaslik haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan fe'l shakli **buyruq-istak mayli** shakli sanaladi.

Buyruq-istak mayli shakllari fe'l asoslariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: -(a)y, -(a)yin, -gin, (-kin, -qin), -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar.

## **II shaxs buyruq-istak mayli qo'shimchalarining qo'llanilishi va ma'nolari**

Fe'lning zamon, shaxs-son qo'shimchalarsiz qismi II shaxs buyruq-istak maylini ifodalaydi. Bu qismga buyruq-istak ma'nosini kuchaytirish uchun -gin qo'shimchasini qo'shish ham mumkin, shuning uchun bu ikki shakl ma'nodosh sanaladi.

## **Shart mayli**

Boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan fe'l shakli shart mayli shakli sanaladi, -sa qo'shimchasi yordamida yasaladi.

Shart mayli edi, ekan to'liqsiz fe'llari bilan kelganda orzu-istak ma'nosini bildiradi. -sa edi shakli ba'zan -saydi tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Shart mayli shakli kerak so'zi bilan kelganda taxmin-gumon ma'nosini bildiradi.

## O'timli va o'timsiz fe'llar

Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanadigan fe'llar o'timli fe'llar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan fe'llar o'timsiz fe'llar sanaladi.

### Nisbat shakllari uslubiyoti

Fe'dan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi fe'l shakllariga nisbat shakllari, shunday shakllar tizimiga esa, nisbat kategoriyasi deyiladi. (akad. litsey)

Bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Nisbat shakllari fe'lining asos qismidan keyin qo'shiladi. (6-sinf)

Nisbat shakllari va ularning ma'nolarini quyidagi jadvalda ko'ring:

№	Nisbat turlari	Nisbat shakllari	Ma'nolari	Misolalar
1	Bosh (aniq) nisbat	Ø	Harakatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi  bajaruvchisi aniq bo'ladi	O'qidi, kelyapti
2	Birgalik nisbat	-sh, -ish	Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatning bir necha shaxs tomonidan bajarilganini ifodalaydi	o'qishdi, kelishyapti
3	Orttirma nisbat	-dir (-tir), -giz, (-qiz, -g'iz), -kaz (-qaz), -t, -iz, -ar, -sat	Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatga da'vat qilingan shaxs ma'nosini bildiradi   Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiradi	qoldirdi, keltirdi, kirgizdi, o'tkazdi (o'tkizdi), o'qitdi, tomizdi, qaytardi, ko'rsatdi
4	O'zlik nisbat	-l (-il), -n (-in)	Harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi  Bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydi	yuvindi, kiyindi, qo'zg'aldi
5	Majhol nisbat	-l (-il),-n (-in)	Harakatni bajaruvchi shaxs noma'lum bo'ladi	yuvildi, qilindi, bajarildi

## Nisbat shakllari uslubiyoti

Nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalardir.

O'zlik va majhul nisbat shakllari aynan bir xil, lekin ular harakat yoki holatning bajaruvchisi nuqtayi nazaridan farq qiladi. O'zlik nisbatida harakat-holat bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadi, majhul nisbatda esa bajaruvchi noma'lum bo'ladi. Solishtiring: *tarandi – taraldi, kiyindi – kiyildi.*

**Yayra, qichqir, bor kabi fe'llardan o'zlik nisbati yasalmaydi.**

Majhul nisbat, asosan, o'timli fe'llardan va o'timsiz fe'lning orttirma nisbat shaklidan hosil qilinadi. Masalan: *pishdi (aniq nisbat, o'timsiz) – pishirildi (orttirma nisbat, o'timli).*

Yemoq, demoq fe'llari majhul nisbatda «y» orttirilgan holatda yoziladi: yeyildi, deyildi.

Majhul nisbat bajaruvchining noaniqligini ifodalaydi va aniq nisbatdagi to'ldiruvchini gapning egasi darajasiga ko'taradi. Masalan: Binokorlar bu uyni tez qurdilar. – Bu uy tez qurildi.

Zavqlandi, bahslashdi, salomlashdi, ko'maktashdi, faxrlandi, surishtirdi kabi fe'llar aniq nisbatdagi fe'llar hisoblanadi. Chunki ular -n, -sh, -tir kabi qo'shimchalarga ajralmaydi. -lan, -lash murakkab qo'shimchalardir.

Orttirma nisbatning -t qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi. Masalan, to'qit, ishlat.

Jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga (kel so'zidan tashqari) -dir (bildir), jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa -tir (kestir) qo'shimchasi qo'shiladi.

-ir, -ar, -iz qo'shimchalari undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi. Masalan, shoshir, chiqar, oqiz.

-giz, -g'iz qo'shimchalari jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, -kiz, -qiz qo'shimchalari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi. Masalan, yutqiz, ketskiz, yurgiz, turg'iz.

Ba'zan fe'l asosiga orttirma nisbat hosil qiluvchi birdan ortiq qo'shimchalar qo'shilishi mumkin. Masalan, o'qit – o'qittir, to'ldir – to'ldirg'iz, yozdir – yozdirtir. Bunday holatda orttirma nisbat ma'nosi kuchayadi.

O'timsiz fe'llarga qo'shilib kelgan orttirma nisbat qo'shimchasi ularni o'timli fe'lga aylantiradi. Masalan, *uxladi (aniq nisbat, o'timsiz) –uxlatdi (orttirma nisbat, o'timli)*

Agar fe'l bir necha nisbat qo'shimchasini olsa, oxirgi nisbat

qo'shimchasiga qarab fe'l nisbati aniqlanadi, masalan, kuldirildi- majhul, kiyintirishdi — birgalik.

Barcha fe'llardan hamma nisbatlarni hosil qilish mumkin emas. Masalan, yayradi — aniq, yayratdi — orttirma, yayrashdi — birgalik, yayratildi — majhul; o'zlik nisbatdagi fe'l bu fe'ldan hosil qilib bo'lmaydi; o'yladi — aniq, o'ylatdi — orttirma, o'ylashdi — birgalik, o'ylatildi — majhul, o'ylandi — o'zlik.

Nutqda birgalik va majhul nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar o'zidan keyin zamon va shaxs-son qo'shimchalarisiz qo'llanmaydi. Masalan, bor+il+di, ko'r+ish+gan.

### Bo'lishli va bo'lishsizlik shakllarining uslubiy xususiyatlari

Bordi, bormadi, borgan emas, borgani yo'q fe'l shakllariga e'tibor bersangiz, birinchi shakl bilan qolgan shakllar bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosini ifodalashlariga ko'ra, bir-biridan farq qilayotganini ko'rishingiz mumkin.

Fe'l asosidan ifodalangan harakatning ro'y berish yoki bermasligini bildirgan shakllarga bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari, shunday shakllar sistemasiga bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi deyiladi.

Bo'lishsizlik ma'nosi maxsus shakllarga ega. Bo'lishlilik ma'nosi esa, aksincha, bunday shakllarga ega emas.

*Masalan, keldi-bo'lishli; kelgan emas, kelgan (i) yo'q- bo'lishsiz.*

Bo'lishsiz fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi o'ziga xos xususiyatga ega. Bo'lishsizlik ma'nosi emas yordamida ifodalanganda shaxs-son qo'shimchasi undan so'ng, yo'q yordamida ifodalanganda esa, oldin qo'llaniladi. Qiyoslang:


keldim	{	kelmadim	kelding	{	kelmading	keldi	{	kelmadi
		kelgan emasman			kelgan emassan			kelgan emas
		kelganim yo'q			kelganing yo'q			kelgan (i) yo'q

### Fe'llarning munosabat shakllari

Fe'l asoslariga qo'shilib, gapda kesim vazifasida qo'llanilishiga xoslovchi shakllar fe'llarning munosabat shakllari hisoblanadi.

Fe'llarning zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo'lgan har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Yuqoridagi ma'no va shakllardan xoli bo'lgan fe'l asosi fe'lning noaniq shakli hisoblanadi va bu shakl -moq qo'shimchasi yordamida ifodalanadi.

## Munosabat shakllari



Fe'l asosiga qo'shilib, gapda  
kesim vazifasida qo'llanilishiga  
xoslovchi shakl

Masalan: 1. O'ktam supa+ga o'tirdi.

1 munosabat - ism  
1 munosabat - fe'l } 2 munosabat shakli

1. U yaqinroq kelib qaradi, yo'q, sinibdi-yu, uzilmabdi - 3 ta fe'l munosabat shakli.

2. U ochgan gul+lari+ning muattar hid+i kishilar chehra+si+ga tabassum, shodlik baxsh etadi, qalb+lar+i-ni ravshan qiladi.

7 ta ism munosabat shakli

2 ta fe'l munosabat shakli, ya'ni 9 ta munosabat shakli bor.

## Fe'llarning yasalishi

### Qo'shimchalar yordamida fe'l yasash

Fe'llar ham boshqa mustaqil so'z turkumlari kabi **tub** va **yasama** bo'ladi. Masalan, kel, ket, yur, o'qi singari fe'llar **tub** fe'llar: ishla, o'yna, jonlan, tasdiq qildi, kasal bo'ldi kabi fe'llar **yasama** sanaladi.

**Yasama fe'llar** yasashga asos qismga ma'lum **yasovchi vosita qo'shish** yordami bilan hosil qilinadi. Yasovchi vosita qo'shimcha yoki so'z bo'lishi mumkin. Jumladan, yuqorida keltirilgan misollardan oxirgi ikkitasi yasashga asos qismga (tasdiq, kasal) so'z holidagi yasovchi vosita (qildi, bo'ldi) qo'shish yordamida hosil qilingan. Boshqalari esa, qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yasalgan.

## Fe'l yasalishi

a) qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan (affiksatsiya) (sodda fe'llar)

b) so'z qo'shish yo'li bilan (kompozitsiya) (qo'shma fe'llar)

### Affiksatsiya

Fe'l yasashning eng keng tarqalgan turi qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan fe'l yasash sanaladi. Bunday usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlardan fe'l yasaladi. Hozirgi o'zbek tilida eng faol fe'l yasovchi qo'shimcha -la qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha sondan boshqa barcha so'z turkumlariga qo'shilib fe'l yasay oladi. Masalan, oqla, ishla, tekisla, tezla, dodla, voyvoyla kabi.

1. -la qo'shimchasi otlarga qo'shilib fe'l yasaganda, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

a) yasashga asos qismdan anglashilgan narsa-predmet bilan ta'minlash: o'g'itla, moyla;

b) narsa-qurol bildiruvchi otlarga qo'shilib, shu asbob bilan bajariladigan harakatni bildiradi: qaychila, arrala, egovla, ketmonla;

v) yasashga asos qismdan anglashilgan narsani yuzaga keltirish ma'nosini bildiradi: urug'la, bolala.

2. Sifat va ravishlarga -la yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi. Masalan, tekisla, silliqla, to'g'rila, tezla, tozala.

3. -la qo'shimchasi undov so'zlarga qo'shilib, yasashga asos qismdan ifodalangan his-hayajon, buyruq-xitoblarning bajarish harakatini bildiradi: hihila, ufla, dodla kabi.

4. -la qo'shimchasi taqlid so'zlarga qo'shilib, yasashga asos qism ifodalagan tovushning yuz berishini ifodalaydi: gumburla, taraqla kabi.

Sifat, ravish, undov va taqlid so'zlarga -la yasovchi qo'shimchasi qo'shilib fe'l yasalganda, yasovchi qo'shimcha qil, et, de singari ko'makchi fe'llari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi va ularni ko'pincha biri o'mida ikkinchisini qo'llash imkoniyati bo'ladi. Masalan, tekisla-tekis qil, silliq-la-silliq qil, ufla-uf de, dodla-dod de, gumburla-gumbur et, taraqladi-taraq etdi kabi. Lekin doimo emas. Masalan, tezlan tez qilga almashtirib bo'lmaydi.

Eslatma: 1. -la fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan -ta (izla, -ista), -ga, -ka (hidla-iska) holida ham talaffuz qilinadi.

1. -la fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan bilan ko'makchisining qisqargan shakli -la (qo'l-la bajarib bo'lmaydi) hamda -la (-oq, -yoq yuklamasi bilan ma'nodosh) yuklamasi bilan omonimlik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun -la yasovchisini so'zga kuchaytiruv-ta'kid ma'nosini yuklaydigan -la yuklamasidan farq qilish kerak. Masalan, kelib -la ketdi - kelib ketdi; qo'lla, (madad qil) va qo'l-la (qo'l bilan).

Hozirgi o'zbek tilida **-la** qo'shimchasidan tashqari yana quyidagi qo'shimchalar yordamida fe'l yasaladi:

- i**: boy-boyi, tinch-tinchi, chang-changi kabi
- illa**: chirq-chirqilla, uv-uvulla, guv-guvulla kabi
- ira**: yarq-yarqira, chirq-chirqira kabi
- (a)y**: past-pasay, sust-susay, ko'p-ko'pay, oz-ozay
- (a)r**: ko'k-ko'kar, sariq-sarg'ay, eski-eskir, qisqa-qisqar kabi
- sira**: suv-suvsira, yot-yotsira, tuz-tuzsira kabi
- (i)**, **(i)q**: yo'l-yo'liq, kech-kechik, zo'r-zo'riq va boshqalar.

### Ayrim fe'l yasovchi qo'shimchalar imlosi

Fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi o'yin, qiyin kabi ikki bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda bu so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi **i** unlisi talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi.

Fe'l yasovchi **-ay** qo'shimchasi **past**, **sust** so'zlariga qo'shilganda bu so'zlar oxiridagi **t** talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi.

**-illa** qo'shimchasi tarkibida **u** unlisi yo **v** undoshi bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda **-ulla** tarzida aytiladi va shu holda yoziladi.

### Kompozitsiya usuli bilan fe'l yasalishi va uning sinonimiyasi

Yasashga asos qismga yasovchi vosita sifatida **aylamoq**, **qilmoq**, **etmoq**, **olmoq**, **bermoq** singari so'zlar qo'shilib yangi fe'l yasalishi ham mumkin. Masalan, javob berdi, olib keldi, bayon qildi, kasal bo'ldi va hokazo.

Bunday yo'l bilan, odatda, **qo'shma fe'llar** hosil bo'ladi.

Qo'shma fe'llar tarkibiga ko'ra ikki turli bo'ladi: a) **ot+fe'l** tuzilishidagi **qo'shma fe'llar**. Masalan: tasdiq qildi, vayron bo'ldi kabi b) **fe'l+fe'l** tuzilishidagi **qo'shma fe'llar**. Masalan, *borib keldi*, *kirib chiqdi*, *olib keldi* kabi.

Fe'ldan boshqa so'zlarga **qilmoq**, **aylamoq**, **etmoq**, **bo'lmoq** fe'llarining qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar **ot+fe'l** tuzilishidagi **qo'shma fe'llarni** hosil qiladi. Masalan, bayon qilmoq, (etmoq, aytmoq), turmush qilmoq, o'sal bo'lmoq, o'sal qilmoq, bayram qilmoq (etmoq), yangi bo'lmoq, shunday bo'ldi, taraq etdi kabi.

**Ikki fe'lning** o'zaro birikishidan hosil bo'lgan fe'llar **fe'l+fe'l** tuzilishidagi **qo'shma fe'llar** sanaladi. Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi fe'lning **-b** (**-ib**), ba'zan **-a** ravishdosh shaklida bo'ladi. Shaxs-son, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik singari qo'shimchalar qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi. Masalan, *sotib olmoq*, *olib keldi* (*ola keldi*).

**Ot+fe'l** tuzilishidagi qo'shma fe'llarda ikkinchi qismni tashkil etgan



ayla uslubiy xoslangan bo‘lib, faqat badiiy uslub doirasida qo‘llaniladi. **Qilmoq, etmoq, bo‘lmoq** fe‘llari esa uslubiy betaraf so‘zlardir. Masalan, javob qildi, javob berdi, javob etdi, javob ayladi kabi qo‘shma fe‘llar o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lib, ular uslubiy jihatdangina farqlanadi. **Javob ayladi** badiiy uslubga xos, qolganlari uslubiy betaraf so‘zlar sanaladi.

**-la, -a** qo‘shimchalari **ot, sifat, undov** so‘zlardan, **-(a)y, -i, -sira, -sa** qo‘shimchalari **ot va sifatlardan**, **-(a)r** qo‘shimchasi sifatlardan, **-illa, -ira** qo‘shimchalari taqlid so‘zlardan fe‘l yasaydi.

**-sira** qo‘shimchasi **sen, siz** olmoshlaridan ham fe‘l yasaydi.

### **Ko‘makchi fe‘llar**

Ravishdoshning **-a// -y, -(i)b** shakllariga qo‘shilib, o‘z mustaqil ma‘nolarini yo‘qotgan, asosan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq singari fe‘llar ko‘makchi fe‘llar hisoblanadi.

Ko‘makchi fe‘lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe‘l hisoblanadi. Ko‘makchi fe‘l faqat yetakchi fe‘l bilan birgalikda qo‘llanadi. Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo‘llanuvchi olmoq (xatni olmoq), tugatmoq (o‘qishni tugatmoq), turmoq (o‘rman turmoq), tashlamoq (qog‘oz tashlamoq) fe‘llaridan farq qiladi. Ko‘pincha ko‘makchi fe‘llarni qo‘shma fe‘llardan farqlash qiyin bo‘ladi.

### **Ko‘makchi fe‘lning ma‘nolari**

Ravishdoshning **-a// -y** shakliga qo‘shiluvchi boshlamoq ko‘makchi fe‘li harakatning boshlanishi, **olmoq** ko‘makchi fe‘li esa, harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma‘nosini ifodalaydi.

Yotmoq, yurmoq, turmoq ko‘makchi fe‘llari ravishdoshning **-(i)b** shakliga qo‘shilib, harakatning davomiyligini bildiradi.

**Yubormoq, tashlamoq, qo‘ymoq** ko‘makchi fe‘llari harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi.

**Chiqmoq** ko‘makchi fe‘li harakatning to‘la yakunlanganini bildiradi.

**Yozmoq** harakat tugallanishiga oz qolganlik ma‘nosini qo‘shadi. **Boshlamoq** harakatni boshlanishi ma‘nosini qo‘shadi. Bir qator fe‘llar yetakchi fe‘lga qo‘shilgandagina ko‘makchi fe‘l vazifasida keladi: *boshla, yor, tur, bor, o‘tir, bo‘l, bitir, bit, ol, ber, qol, qo‘y, chiq, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, yot, qara, boq*. Yuqoridagi fe‘llar faqat yetakchi fe‘lga qo‘shilgandagina ko‘makchi fe‘l vazifasini bajaradi, o‘zbek tilida faqat ko‘makchi fe‘l vazifasini bajaruvchi alohida fe‘llar mavjud emas.

## Ko'makchi fe'llarning birikuvchi

-b, -ib ravishdosh shakliga birikuvchi	-a, -y ravishdosh shakliga birikuvchi	Hech qanday grammatik vositasiz birikuvchi
O'qi+b chiqmoq o'qi+b yuribman o'qi+b tashladim o'qi+b yubordim o'qi+b kelyapman	O'qiy boshladi ko'ra bildi tugata yozdi	yozdi-oldi uxlabman-qolibman ketsin-qo'ysin ayt-qo'y
Yot, o'tir, yur, kel, bo'l, bit, chiq, yet, o't, o'l, qara, yubor, tashla, tush, boq, qo'y...	Boshla, bil, yoz	Juft fe'llar hosil bo'ladi Bular harakatning tez va kutilmaganda ro'y berishini ko'rsatadi

### Ko'makchi fe'llarda nisbat qo'shimchalari

- O'zlik nisbat —————> yetakchi fe'lda bo'ladi: kiyinib chiqdim
- majhul nisbat —————> ko'makchi fe'lda bo'ladi: yozib berildi
- orttirma nisbat —————> asosan yetakchi fe'lda bo'ladi: o'qitib qo'ydim
- birgalik nisbat —————> ham yetakchi, ham ko'makchi fe'lga qo'shilishi mumkin: aytishib qolishibdi

### Ko'makchi fe'llarda bo'lishsizlik

1. Fe'ning yetakchi qismi bo'lishsiz bo'lsa, davomiy bo'lishsizlik ma'nosi anglashiladi: masalan, *o'qimay qo'ydi*.

2. Fe'ning ko'makchi qismi bo'lishsiz bo'lsa, bir martalik harakat inkori ma'nosi anglashiladi: *o'qib qo'ymadi*.

3. Fe'ning har ikkala shakli bo'lishsiz bo'lsa, tasdiq ma'nosi anglashiladi: *o'qimay qo'ymaydi*.


Ba'zan yetakchi fe'l uyushib kelishi mumkin: *Men seni o'n yoshingdan beri yedirib, ichirib, kiyintirib kelyapman*.

Ba'zan ko'makchi fe'l birdan ortiq bo'lishi mumkin: Sen menga aytib berib tur. Aytib — mustaqil (yetakchi) fe'l, berib tur — ko'makchi fe'l.

Ba'zan fe'lning yetakchi fe'l qismi qo'shma fe'ldan tuziladi: *Menga qo'ng'iroq qilib tur.* (*qo'ng'iroq qilib* — *qo'shma fe'l*, *tur* — *ko'makchi fe'l*)

Ba'zan: Gap bilan ovora bo'lib kechikib ham qolibman shaklida kelishi ham mumkin, ovora bo'lib — qo'shma fe'l, kechikib ham qolibman — ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi.

Nisbat va bo'lishsizlik shakllari yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham kelishi mumkin. Zamon, shaxs-son qo'shimchalari faqat ko'makchi fe'llarga qo'shiladi. Ravishdosh qo'shimchalari faqat yetakchi fe'lga qo'shiladi.



Sodda fe'llar bir asosdan tarkib topadi. Sodda tub fe'llar asos holatida ish-harakat va holatni anglatadi. Masalan, qurmoq, yurmoq, ketmoq.

Sodda yasama fe'llar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: *shod-shodlanmoq*, *yangi-yangilamoq*, *gap-gapirmoq*, *guv-guvullamoq*, *tez-tezlamoq*.

Eslatma: Fe'ldan fe'l yasalmaydi, fe'l shakli hosil qilinadi: kulsa, kuldirdi

## Qo'shma fe'llar

Birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'llar qo'shma fe'llar sanaladi. Masalan: sayr etmoq, taq etmoq, olib kelmoq, bunyod qilmoq.

Qo'shma fe'llar ot, sifat, son, olmosh, undov va taqlid so'zlarga qil, et, bo'l singari so'zlarni fe'l shakllariga kelmoq, ketmoq singari fe'llarni qo'shish bilan hosil bo'ladi. Masalan, tarbiya qilmoq, eski bo'lmoq, bir bo'lmoq, chirs etmoq, kirib chiqmoq, sotib olmoq kabi.

Qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi. Masalan: borib keldi (ham bordi, ham keldi), ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanilmaganda ko'makchi fe'li so'z shakli hosil bo'ladi. Masalan: o'qib chiqdi (o'qidi, lekin chiqmadi, balki o'qishni tamomladi, tugatdi).

Qo'shma fe'l qismlari ajratib yoziladi.

Or+fe'l	Sifat+ fe'l	Fe'l+fe'l
Tarbiya qilmoq	Eski bo'lmoq	Mustaqil+ mustaqil    Yetakchi+ yetakchi
Sayr etmoq	Yangi bo'lmoq	(har ikkala fe'l o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi)
Ogoh aylamoq	Son+ fe'l	Borib keldi (ham bordi, ham keldi)
Bayon qilmoq	Bir bo'lmoq	Qiyoslaymiz:      Chiqib o'tirdi
Javob bermoq	Taqlid + fe'l	Olib keldi              Kirib chiqdi
Olmosh + fe'l	Taraq etmoq	Yutib oldi              Sotib oldi
Shunday bo'lmoq	Chirs etmoq	Turib o'ynadi          Turib o'qimoq
Yasama fe'l		Yasama fe'l
Kompozitsiya usuli bilan yasalgan fe'l		Kompozitsiya usuli bilan yasalgan fe'l
Qo'shma fe'l		Ko'makchi fe'l
turib o'qimoq		o'qib turmoq
turib aytmq		aytib turmoq
turib yugurmoq		yugurib turmoq
turib olmoq		olib turmoq
turib o'ylamoq		o'ylab turmoq
turib o'ynamoq		o'ynab turmoq
yetakchi+yetakchi		yetakchi+ko'makchi
mustaqil+mustaqil		mustaqil+ yordamchi

## Juft fe'llar

Ikki fe'l juftligidan tashkil topgan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi va gapda bitta gap bo'lagi vazifasida keluvchi fe'llar juft fe'llar sanaladi.

Juft fe'llar ish-harakatning tez va kutilmaganda ro'y berishini ifodalaydi.

Juft fe'l qismlari doimo chiziqcha bilan yoziladi.

Oldi-berdi, bordi-keldi kabi juft so'zlar ot turkumiga o'tgan so'zlar hisoblanadi.

Asosni takrorlash bilan hosil bo'lgan juft fe'llar takroriy fe'llar ham deyiladi. takroriy fe'l qismlari ham chiziqcha bilan yoziladi: ishlay-ishlay, kuta-kuta, o'yladi-o'yladi kabi.

## Fe'llarning vazifa shakllari

Fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus

shakllarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari fe'lining vazifa shakllari sanaladi.

Fe'llarning to'rt vazifa shakli mavjud: 1) sof fe'l shakli (o'qidi); 2) harakat nomi shakli (o'qimoq, o'qish); 3) sifatdosh shakli (o'qigan, oqar); 4) ravishdosh shakli (o'qib, kelgach).

## Harakat nomi

Fe'ning otga xoslangan shakli harakat nomi deyiladi va fe'l asoslariga **-(i)sh, -(u)v, -moq** qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi. Harakat nomi ham otlik, ham fe'llik belgilariga ega.

Otlik belgilari: 1. Otning so'rog'ini oladi. 2. Otga o'xshab egalik qo'shimchasi bilan turlanadi (yozuving yomon emas). 3. Otga o'xshab kelishiklarda turlanadi (chiroyli yozishni o'rgan). 4. Otga o'xshab ko'plik qo'shimchasini oladi (o'qishlar qalay ketyapti?). 5. Otning bajaradigan sintaktik vazifasida keladi, **ot kabi ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo'lib keladi**.

Fe'llik belgilari: 1. fe'l asosiga **-moq, -ish, -v, -uv** qo'shimchalari qo'shiladi.

Masalan, **yasha+ssh, kel+ish, ayt+uv, bil+moq.**

a yoki i unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga **-v** qo'shimchasi qo'shilganda, a unlisi o ga, i unlisi u ga aylanadi va shunday yoziladi. Masalan, **ishla-ishlov, tani-tanuv.**

1. Fe'llar kabi bo'lishli-bo'lishsiz shaklga ega bo'ladi: **o'qimoq – bo'lishli, o'qimaslik – bo'lishsiz.**

2. Fe'llar kabi nisbat qo'shimchalarini oladi: **sevintirmoq, yozilmoq.**

## Harakat nomi tahlili

1. Harakat nomi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli-bo'lishsizligi. 4. Qaysi qo'shimcha bilan yasalgan. 5. Nisbati. 6. Kelishik, egalik, birlik, ko'plik qo'shimchalari bilan kelishi. 7. Gapdagi vazifasi.

Namuna: O'qishlarimiz tugadi. O'qishlarimiz – harakat nomi, nimamiz?, bo'lishli, -sh bilan yasalgan, aniq nisbat, bosh kelishik, I shaxs, ko'plik, ega.

## Sifatdosh

Fe'ning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi.

Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. **Sifatlar shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi.** Solishtiring: katta (sifat) daryo, oqar (sifatdosh) daryo.

Sifatdoshlar ham sifatlik, ham fe'llik belgilariga ega bo'ladi.

**Sifatlik belgilari:**

1. Sifatning so'rog'ini oladi: qanday?, qanaqa?: to'kilgan paxta – qanday paxta?

2. Sifat kabi aniqlovchi bo'lib keladi: ishlayotgan xonamiz keng va yorug'.

3. Sifat kabi otlashadi va otning so'rog'i hamda gapdagi sintaktik vazifasini bajaradi: bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar.

**Fe'llik belgilari:** 1. Sifatdoshlar fe'l asoslariga **-gan (-kan, -qan), -ydigan (-adigan), -(a)yotgan, -(a)r (-mas), -jak, -ajak, -(u)vchi**, qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi. Masalan, tikkan qiz, kelgan shaxs, ko'rgan odam, oqar daryo, kelayotgan mashina, o'sadigan nihol, keluvchi odam, borajak kishi.

1. **Fe'l kabi bo'lishli-bo'lishsizlik shaklida bo'ladi:** o'qigan – bo'lishli, o'qimagan – bo'lishsiz, oqar – bo'lishli, oqmas – bo'lishsiz.

2. **Fe'l kabi zamonni oladi**

*O'tgan zamon sifatdoshi:* ko'rgan kishi.

Bu qo'shimcha unli bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, **-gan** holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, **-kan** holida talaffuz qilinsa ham, **-gan** yoziladi (ko'chgan, o'sgan).

Jarangsiz q undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda **-qan**, k undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda **-kan** holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi (tiq-tiqqan, tik-tikkan).

Jarangli g' undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda **-qan** holida talaffuz qilinsa ham **-gan** yoziladi (tug'- tug'gan).

*Hozirgi zamon sifatdoshlari:*

Hozirgi zamon sifatdoshi fe'l asoslariga **-(a) yotgan** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: kelayotgan odam.

*Kelasi zamon sifatdoshi* fe'l asoslariga **-ydigan, -adigan, -(a)r** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi: o'qiydigan kitob, kelar odam, ketmas davlat.

## Sifatdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari

Sifatdoshning bo'lishsiz shakli fe'llardagi kabi **-ma** qo'shimchasi yordamida yasaladi. **-(a)r** qo'shimchasi bilan yasalgan sifatdoshlarga **-ma** qo'shimchasi qo'shilganda **-r** tovushi **-s** ga aylanadi. Masalan, kelar-kelmas.

Fe'l nisbatini oladi: to'kilgan paxta – majhu'l nisbat, boradigan joy – aniq nisbat, ko'rsatgan odam – orttirma nisbat.

## Sifatdosh tahlili

1. Sifatdosh. 2. So'rog'i. 3. Otlashgan-otlashmaganligi. 4. Qaysi qo'shimcha bilan yasalgan. 5. Zamoni. 6. Nisbati. 7. Bo'lishli-bo'lishsizligi. 8. Agar otlashgan bo'lsa, kelishik, egalik, birlik, ko'plik. 9. Gapdagi vazifasi.

Namuna: To'kilgan paxtani ter!

To'kilgan – sifatdosh, qanday? otlashmagan, -gan bilan yasalgan, o'tgan zamon, majhul nisbat, bo'lishli, aniqlovchi.

**Otlashgan sifatdosh tahlili.**

Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yniga olmaslik ayb.

Bilmaganini – sifatdosh, nimani? otlashgan, -gan bilan yasalgan, o'tgan zamon, aniq nisbat, bo'lishsiz, III shaxs egalik, tushum, birlik, gapda to'ldiruvchi.

## Ravishdosh

Fe'ning ravishga xoslangan shakli ravishdosh deyiladi.

**Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o'xshaydi.** Ravishdosh ham ravish kabi fe'lga bog'lanib, uning belgisini bildiradi, solishtiring: piyoda (ravish) keldi, shoshilib (ravishdosh) keldi.

Ravishdosh ham fe'llik, ham ravishlik belgilariga ega:

**Ravishlik belgisi:** 1. Ravishning so'roqlarini oladi: shoshilib keldi, kulmasdan o'tir - qay holatda? qachon? nima maqsadda? nima sababli?

1. *Ravish kabi ma'no guruhlarga ega:* holat (-gancha, -b, -ib, -a, -y), payt (-gach, -kach, -guncha), maqsad (-gani, -qani), sabab (-b, -ib).

2. *Ravish kabi gapda ko'pincha hol bo'lib keladi:* O'qigani keldim.

3. *Ravish kabi fe'lga bog'lanadi.*

**Fe'llik belgilari:** 1. Fe'l asoslariga qo'shiladi: -(ib, -a/-y, -kancha, -qancha, -gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha, -gani, -kani, -qani, -gali, -gudek).

1. *Bo'lishli-bo'lishsiz shakllariga ega:* borib – bo'lishli; bormay, bormasdan, bormayin, bormagach – bo'lishsiz.

2. *Fe'l nisbati qo'shimchasini oladi:* borib – aniq, borilib – majhul, ko'rsatib - orttirma, borishgach – birgalik.

## Ravishdoshlarning ma'no turlari

Ravishdoshning -(i)jb, -a// -y shakllari ko'proq harakatning holatini, ba'zan payt, sababini, -gancha (-kancha, -qancha) shakli holatini, -gach, (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -qancha) shakllari paytini, -gani (-kani, -qani, -gali) shakli maqsadini anglatadi.

## Ravishdosh yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosi

Unli va jarangli undoshlar bilan tugagan fe'l asoslariga ravishdoshning -gach, -guncha, -gancha, -gani qo‘shimchalari qo‘shiladi.

Bu qo‘shimchalar k undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo‘shilib, -kach, -kuncha, -kancha, -kani holida: q undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo‘shilib, qach, -quncha, -qancha, -qani shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga bu qo‘shimchalar qo‘shilganda, -kach, -kuncha, -kancha, -kani shaklida talaffuz qilinsa ham, -gach, -guncha, -gancha, -gani tarzida yoziladi.

## Ravishdosh tahlili

1. Ravishdosh. 2. So‘rog‘i. 3. Ma‘no turi. 4. Bo‘lishli-bo‘lishsizligi. 5. Nisbati. 6. Qaysi qo‘shimcha bilan yasalgan. 7. Gapdagi vazifasi.

Namuna: Gapni bilib-bilmay gapirmaslik kerak. Bilib-bilmay – ravishdosh, qay holatda? holat, bo‘lishli (bilib), bo‘lishsiz (bilmay), aniq nisbat, -ib, -may bilan yasalgan, gapda hol.

## Sof fe'l tahlili

1. Fe‘l. 2. So‘rog‘i. 3. Ma‘no turi (harakat, holat). 4. Bo‘lishli, bo‘lishsizligi. 5. O‘timli- o‘timsizligi. 6. Nisbati. 7. Zamoni. 8. Shaxs-soni. 9. Mayl. 10. Vazifa turi (sof fe‘l, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi). 11. Tuzilish turi (sodda, qo‘shma, juft, takror). 12. Gapdagi vazifasi.

Bugun litseyga bordim.

Bordim – fe‘l, nima qildim?, harakat, bo‘lishli, o‘timsiz, aniq nisbat, aniq mayl, o‘tgan zamon, I shaxs birlik, sof fe‘l, to‘liq fe‘l, sodda, tub, kesim.

## To‘liqsiz fe‘l tahlili

Inson tirik ekan, umidsizlanmasligi kerak.

Tirik ekan - fe‘l, nima ekan? bo‘lishli, o‘timsiz, to‘liqsiz fe‘l, ekan sifat (tirik) bilan birga kelgan, gapda kesim bo‘lib kelgan.

**Topshiriq: 1. Harakat va holat fe‘llariga ajrating.**

1. Qizardi, yashardi, chopdi, sug‘ordi, gapirdi, qichqirdi, to‘xtadi, tashladi, yugurdi, qimirladi, topdi.

2. U choyxona yonidan o‘tib borarkan, ichkaridan taralayotgan kuy tovushlarini eshitib, to‘xtab qoldi.

Bolaning yuragi hapriqib ketdi. Uyi tarafga yugurdi. Bir bo‘lak yog‘och parchasini topib, uni pichoq bilan yo‘ndi, tekisladi... Nihoyat, shakli dutorga



o'xshagan bir nima yasadi. Keyin unga ot qilidan tor tortdi va tirnoq barmoqlari bilan asta chertib ko'rdi. Ojizgina vizillagan tovush eshitildi. Yana chertdi... Yana... Shu kuni ohang tug'ildi. Bola uchun yangi, ohangli bir olam paydo bo'ldi.

3. Tasvirlamoq, kuylamoq, taralmoq, qotmoq, o'ylamoq, eshitilmoq, porlamoq, yiqilmoq, jimirlamoq, unmoq, o'smoq, fikrlamoq, ikkilanmoq, qaytarmoq.

#### 1. Otimli va o'timsiz fe'llarga ajrating.

1. Sinfdoshlarim biram yaxshi, biram sodda, biram dilkash. Qizlar ham, bolalar ham — hammasi meni yaxshi ko'rishadi. Faqat bitta bola bor. Suyun. Laqabi «Burgut». Hamma uni «Suyun burgut» deydi. O'ziam juda g'alati. Bitta ko'k qashqa oti bor... Maktabgayam o'sha duldulni o'ynatib, xujuniga do'mbirasini solib keladi. Tanaffus bo'ldi deguncha do'mbirasini chalib, hammani og'ziga qaratadi, goh kuldiradi, goh (lof emas, momojon) yig'latadi.

2. Almashmoq, jiringlamoq, o'xshamoq, jilmaymoq, yuzlanmoq, kiyinmoq, kiyimoq, so'roqlamoq, so'ramoq, so'rattirmoq, quvonmoq, quvontirmoq, joylashmoq, joylashtirmoq.

#### 2. Fe'llarning nisbatini aniqlang.

1. Bir yigit ko'zlari xiralashgan, ovqat yeganda qaltiraydigan qari otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi.

Bir kuni chol bechora qo'li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi, buni ko'rgan kelini nordon so'zlar aytib, uning ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi. Kelin esa eri keltirib bergan yog'och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi. O'g'li va kelinning bu kabi yaramas muomalalaridan ko'ngli ozor topgan ota vafot etgan kampirini eslab, ba'zan o'ksib yig'lardi. Besholti yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola bobosining yoniga kelib o'tirardi, ma'sum so'zlari, yoqimli qiliqlari bilan bobosini kuldirib, uning qayg'u-alamlarini yengillashtirardi.

#### 3. Berilgan fe'llarni barcha nisbatlarda yozing.

Namuna: o'ylamoq — aniq

o'ylandi — o'zlik

o'ylatildi — majhul

o'ylashdi — birgalik

o'ylatdi — ortirma

Pishmoq, gullamoq, kulmoq, chanqamoq, o'qimoq, otmoq, turmoq, varaqlamoq, uzmoq.

#### 4. Nisbatni aniqlang.

1. Iim zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi, savobni gunohdan, halolni haromdan, pokni nopokdan ajra... (-t, -l, -sh)ib beradi.

2. Ammo kampirning dodiga odam tez to'pla... (-l, -n, -t)di. 3. Uning og'ilga

kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zdan haddan ziyoda sev... (-il, -in, -dir)di. 4. Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'... (-in, -l, -il)di qorong'i janga. 5. Yaltiraydi, doim tovla... (-t, -n, -l)ar, Oy nuriga cho'miluvchi tosh.

**5. O'zlik va majhul nisbatni farqlang.**

1. I. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy 1441-yilda tug'ilgan. 2. U yuziga belbog'ini tashlab, ko'rpachaga cho'zildi. 3. Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berilmoqda. 4. Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo xushnavo bulbul yaratilmagan ekan. 5. Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

**1. Berilgan fe'llarni jadvalga joylashtiring.**

Aniq nisbat	Orttirma nisbat

Bitirmoq, aytmoq, tomchilamoq, to'ydimmoq, chaqirmoq, tushuntirmoq, anglamoq, yotqizmoq, asramoq, o'tkazmoq, topmoq, keltirmoq, qaramoq, tasvirlamoq, tushirmoq, ko'rmoq, ko'rsatmoq, ishlatmoq.

**1. Fe'l nisbatlarini aniqlang.**

1. Abdulla Avloniy o'z ishini maktab ochishdan boshladi. Gazeta chiqardi, darsliklar yozdi. Kitoblar bostirdi. Teatr ishlarini yo'lga qo'ydi. O'zi pyesalar yozdi. Havaskorlarni yig'ib, tomoshalar ko'rsatdi.

Abdulla Avloniy o'z xizmatlari bilan o'zbek ma'rifatchiligiga juda katta hissa qo'shdi. Yangi zamonaviy o'qitishni ilmiy-amaliy asoslab berdi.

2. Vodil qishlog'ining choyxonasi yo'l boshidagi ikkita katta keksa chinorning soyasiga joylashgan. O'tgan yili qishloq jamoasi choyxonani ta'mirlashdi, obod qilishdi. Bir burchakda katta stol atrofida yoshlar o'tirib gazeta, jurnal va kitob o'qishadi, bir burchakda radiodan so'nggi xabar eshitishadi. Past-baland chorpoalarda qip-qizil, ozoda gilamlar ustida odamlar guruh-guruh bo'lib choy ichishadi, chaqchaqlashadi, ish yuzasidan maslahat qilishadi. O'ng tomondagi chorpoada to'rt-besh kishi o'tirib, qah-qah urib kulishadi.

3. I. Qayumxon Olimovichning uyida zo'r tantana. Shaharning ko'zga ko'ringan odamlari taklif etilgan. Ikki qavatli kottejning hovlisi taxta so'rilar, institut oshxonasidan keltirilgan stol-stullar bilan bezatilgan. 2. Studentlar bir chekkada samovar qo'yan, choynak-piyolalarni yuvib, artishgan, qo'li to'rta, oyog'i oltita bo'lib, u yoqdan bu yoqqa narsa tashigan, domlarning ko'z qiri tushib qolarmikan degan niyatda ko'ngil erib xizmat qilishardi. Mehmantar kechroqqa taklif etilgan edi. 3. Lagan-tovoqning biri-birisiga tekkan tovush eshilib, Otabek o'zini ohistagina yo'lakka oldi. 4. «Sarob»

romani 1953-yilda Stalin o'lgach, mamlakatda boshqacha - iliq shabadalar esa boshlagan, KPSS XX syezdi «dohiy» shaxsiga sig'inish va uning o'tkazgan siyosatini qoralagan bir paytdagina qayta qo'lga olindi. 5. Ahmoq yolg'onga to'n kiygizdi boplab, bor-yo'g'i bir hamroh emish-a, qaysi nodon ishonar bunga.

6. Bizning asabimiz necha ming yillar,  
 Kishanlar ostida shu qadar pishdiki,  
 Shuncha og'irlik ostida aslo  
 Shoshmadik, dushmanlar hayron qolishdi!  
 O'n olti martaba to'plandik bizlar  
 Rejalar tortishdik yangi ishlarga,  
 Nima deyishni bilmaydi dushman,  
 Bir reja bo'yicha yugurishlarga!

1. Tashidi, kiyindi, tortdi, tortirdi, tanish, bezaldi, bezatdi, tashlandi, tashlandik, o'qish, ilit, ilitildi, puflandi, chalindi, chaldirdi, tinglashdi, chiqdi, chizildi, boyidi, qo'llanma, qo'lladi, qo'llattirdi, ortdi, eslashdi, achindi, achitqi, aytishdi, tushuntirdi, ishlash, olqish, so'zlashdi, so'zlashishdi, uqtirilgan, tiklatildi, bo'lindi, qaltiradi, ochildi, ochdi, suhbatlash, toshdi, pishdi, tinglandi, tinglash, o'matishdi, to'lashdi, dalillash, o'tinsh, o'tirishdi, sezdi, seskandi, kechirtirdi, taltaytirdi, bilgizdi, chinqirtirdi, siltatdi, chuvildi, tugaldi, tirmashdi, topishdi, o'zgarildi.

**2. Berilgan gaplardagi fe'llarning vazifa shaklini aniqlang.**

Namuna:	bordi	borish	borgan	borib
	sof fe'l	harakat nomi	sifatdosh	ravishdosh

1. Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo'lishdi. 2. Azim, qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang. 3. Suv kelguncha, podani tepaga haydab chiqdi. Misoli suvga kalla qilganday o'zini soyga otdi. 4. Tursunboy tizzasini ushlab zo'rg'a qadam bosardi. 5. Siddiqjon borishni ham, qaytishni ham bilmay qoldi.

**3. Berilgan so'zlarni tub va yasamaga ajrating.**

Masalan:	tub	yasama
	chiqmoq	son+a+sh

Sanash, chiqmoq, chizuv, chaqirish, aytish, to'plash, foydalanish, quymoq, sindirmoq, yopish, quyuv, ho'plamoq, yuguruv, tanishuv, qarov, ishlov, haydov.

### **1. Harakat nomini tahlil qiling.**

1. Yozuvchi turmushni har taraflama o'rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo'lishi kerak. 2. Xalqning sha'niga, ming yillar davomida to'plagan obro'-e'tiboriga dog' tushirishga hech kimning haqqi yo'q. 3. Vaqtni samarasiz tortishuvlarga sarflamaylik. Har bir voqea va hodisaga katta mas'uliyat, xalqimizga xos donolik va aql-zakovat bilan yondashishimiz kerak.

2. 1. Jo'yakda cho'zilib, soya-salqinda dam olish...(-ni, -ning, -ga) nima yetsin? 2. Aql odamga o'ylash...(haqida, uchun, to'g'nsida) berilgan. 3. Nasiba ertalab barvaqt kelish sharti bilan dugonasiga ketish...(-dan, -ga, -ni) ijozat berdi. 4. Uning bu boqishi... (-ida, -ining, -iga) Sobining bilag'onligiga qoyil bo'lish... (-ga, -dan, -qa) tashqari ajablanish ham bor edi.

### **2. Sifatdoshlarni tahlil qiling.**

1. Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yniga olmaslik ayb. 2. O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi. 3. Arslondan qo'rqqandan ko'ra o'z nafsidan qo'rqqan foydaliroq. 4. Ilm insonni izzat va sharafga yetkazuvchi vositadir. 5. Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ekkani odam chinakam insondir.

2. 1. Bu ovoz hali mag'zi ilimagan dalalarga, osmondagi oqimtir yulduzlarga tegib aks-sado berayotgandek tuyulardi. 2. Bola boshini qo'llari orqasiga qo'yib, Boysun tog'i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi. 3. Qoradaryo hamisha to'lib oqqan, lekin hech qachon bunday suvsiz bo'lmagan. 4. Or -bu o'ziga nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. 5. Keng fe'l, ketmas davlat bersin.

### **3. Ravishdoshlarni tahlil qiling.**

1. Aslida, qosh qorayguncha yetib olish kerak. 2. Tog'ga yetgach, qo'ylarni o'z holiga tashlab qo'ydi. 3. Gapni bilib-bilmay gapirmaslik kerak. 4. Yodgor kelib-kelmay hasharni adog'iga yetkazdi. 5. Doirani olgach, chalgani odam izlab ketdi. 6. Tog'ga chiqqach, osmonning pastligini his qildi. 7. Kechga yaqinlashgach, havo aynib, shamol turdi.

2. 1. Ona kelar yo'lda yugurib, Ko'ringandan qizini so'rab. 2. Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay qiqirladi. 3. Bobur gulni yana bir hidlab, boshidagi sallasining qatiga qistirib qo'ydi. 4. Taxtga chiqqach, adolat bilan ish tutibdi. 5. Shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi.

### **4. Quyidagi fe'llar ishtirokida ko'makchi fe'lli birikma yozing.**

Masalan, o'ylab ko'rmoq.

Ko'rmoq, burmoq, solmoq, qaramoq, qo'ymoq, yoqmoq, kelmoq, yubormoq, tashlamoq.

### **5. Ko'makchi fe'llarni izohlang.**

1. O'yin-kulgi, askiya yarim kechagacha cho'zilib ketdi. 2. Mo'ysafid gullarni shiyponga qo'yib, mehmonlar bilan ko'risha ketdi. 3. Bu nima degan

gap o'zi, juda jim bo'lib ketdingiz! 4. Sahnaga ko'zi tushdi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. 5. Do'simboy ota uyga kirib ketganda hech nimaga tushunolmay o'tirgan Mirsaid so'radi: — Hotamjonga nima qilgan? 6. Mirsodiq eshikni sekin ochdi-yu, sevinib ketdi.

2. 1. Hozircha muvaqqat sim tortib turaylik, doimiy simni Farhodan elektr olganimizda tortamiz. 2. Hozir men Toshkentdaman. Yodgor o'z yonimda. Ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi. 3. Ukam orqasiga qayrilib ham qaramadi. Dadasining qo'lidan ushlab dikir-dikir sakrab, o'ynoqlab keta berdi. 4. Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.

5. Men gilosman, quloq sol,  
Rangim ol-u, totim bo'.  
Topsang qo'shalog'imni,  
Qulog'ingga taqib ol.

1.1. Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini yig'ishtirib oldi, qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi. 2. Birpasgina bo'lsa ham... ko'rinish berib, notavon ko'nnglimni tinchitib ketsang bo'lgani. 3. Sovuq bo'shshagan hamon, ko'klam daragi kelmasdan, tag'in ayvonga ko'chib olar edi. 4. Umarali o'rnidan turdi-da, tashqariga chiqib ketdi.

6. Ko'makchi fe'llarni ajratib yozing.

Masalan, chaqirib dedi — mustaqil+ mustaqil= qo'shma fe'l; bitib kel — mustaqil+ mustaqil= qo'shma fe'l; mo'ljallab kelmoq — yetakchi+ ko'makchi= ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi; dedi — mustaqil fe'l.

1. Podsho xizmatkorini qoshiga chaqirib dedi:

— Ushbu shahardagi barcha tentaklarning nomini qog'ozga bitib kel!

— Bosh ustiga, — dedi xizmatkor, lekin bir shartim bor: ro'yxatni olganingizdan keyin meni jazolamaysiz.

Podsho rozi bo'ldi.

Xizmatkor ertasiga ro'yxatni keltirgach, podsho unga ko'z yugurtirmasdan o'shqirdi:

— Nega mening nomimni birinchi qilib yozib qo'yding. Hoziroq dorga osilasani. Uni o'chirib tashla!

— Meni afv eting, — dedi tiz cho'kib xizmatkor, — nomingiz, albatta, o'chiriladi.

## Shijoatli chumoli

Chumoli jon-jahdi bilan o'zidan o'n barobar katta chigirtkani sudrab borar edi. Ko'rganlar taajjublandilar.

— Chumolini qaranglar-a, qiltiriq holida ham shunday og'ir yukni sudrab ketyapti-ya?

Chumoli bu gapdan kuldi va shunday dedi:

— Mardlar yukni jussasi va qudrati bilan emas, balki g'ayrat hamda shijoati bilan tortadilar.

2.1. Tog'lar loqayd bir ulug'vorlik bilan sukut saqlashar va bag'ridagi odamlarning yaxshi-yomon ishlariga tilsiz guvoh bo'lib turishar edi. 2. Yerdan aziz narsa yo'q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan narilar – hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan... Rostmi? 3. Shundoq bekat ro'parasida ikki qavatli univermag oynavand eshiklarini ochgan, xaridorlar chumoliday g'imirlashib kirib-chiqib turishardi. 4. Turg'unoy yovvoyi quyonday har bir so'z, har bir harakatdan hurkib o'tirar va to Maston olib bermaguncha qo'l uzatib bir narsa olmas edi. Kishi yaxshi narsaga intiladi, yomon narsadan qochadi. Turg'unlikka, ayniqsa, uzoq davom etgan turg'un holatga ko'nikadi. Illatga ko'nikish esa qabohatga olib keladi.

Ahli ma'ni guruhida zinhor,  
Hech or aylama gadolig'din.  
Kim, alarga gadolig' ortiqdur,  
Ahli suratqa podsholig'din.

3. Eshik ochilganda Sherzod mudrab yotardi. U ildam qaddini rostladi-yu, ichkariga kirib kelayotgan bo'lim mudirini ko'rdi. Mudir xalatining tugmalarini yechib yuborgan, ingichka bo'ynidagi guldor galstugining bog'ichini bo'shatib qo'ygan, tez yurib kelganidan bo'lsa kerak, yonoqlari turtib chiqqan, yuzi qizarib ketgan edi.

«Joyning egasini olib kelayotgan bo'lsa kerak», deb o'yladi Sherzod undan ko'z uzmay. Bo'lim mudiri palata o'rtasida to'xtadi-da, eshik tomon qarab gapirdi:

– Sayfi Soqiyevich! Marhamat, kiravering.

U bu gapni xuddi aziz mehmonni uyiga chorlagan mezbon singari ichki hurmat bilan iymanib aytdi...

1. Quyidagi fe'l yasovchilardan mosini qo'yib, fe'llarning qaysi so'z turkumidan yasalayotganini aniqlang.

1. Odobli va adolatli inson qo'lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qilib yurgan odamlarni zavq... (-la, -ir, -lan) tiradi, bir-biriga yaqin... (-sa, -lash, -man) tirib, do'stlikni mustahkam... (-sira, -la, -y) di. 2. Goho miriqib gap... (-cha, -ir, -la) shib, o'y...(-in, -la, -choq) shib olish ham kerak-ku? Xotiralar odamning yuragini toza... (-lik, -gar, -la)ydi. 3. Yuzimga qarab turib «sen... (-la, -sira, -sa) mang» deydi-ya?! 4. U Marg'ilonga yaqin... (-roq, -lash, -la)jib qolganda kun og'ib qolgan edi.

2. Tuzlamoq, dodlamoq, yangilamoq, tezlamoq, voyvoylamoq, yaxshilamoq, varaqlamoq, to'g'rilamoq, sekinlamoq, ho'plamoq, qishlamoq.

Otdan yasalgan fe'llar	Sifatdan yasalgan fe'llar	Ravishdan yasalgan fe'llar	Undovdan yasalgan fe'llar

### **1. Fe'l yasovchining tahlili.**

1. Bulaming ichida bitta kattasi bor ekan. Bizga yaqinlashmadi. 2. Shundan so'ng To'maris qo'shin to'plab, jangga otlandi. 3. Gapirganda ovozi xuddi ichidan chiqqanday guldirab, jaranglab eshtiladi. 4. Qizlar o'zaro sekin suhbatlashib turishardi.

1. Yuragim hayajondan gupillab uradi. 2. Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga bosh urib shovullab oqyapti. 3. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi. 4. Mahallamizdagi o'toqlarim ham otlarini lo'killatib kelib qoldilar.

### **2. Fe'l yasovchini ajratish.**

1. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi.

Ichkarida chaqaloq yig'ladi. Beshikning g'ichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar yig'lay boshladi.

Shokarim uxladimi, yo'qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog'ga kirdimi, anglay olmay qoldi.

2. Devor bo'ylab yuksalgan daraxtlarning tepasida yirik-yirik oshqovoqlar quyoshning so'nggi shu'lalari bilan oltinlanardi. Komila bir chekkada g'uj-g'uj ochilgan atirgulni hidlab, oshxonaga qaytdi, chaqqonlik bilan sabzi to'g'rayotgan Sharofatbibi yonida u-bu to'g'risida gaplashdi...

Dalada mashinalar ko'paymoqda. O'g'it solishni ham mashinaga yukladik. Dehqonchilik mashinalari yana-yana yaxshilanaerverdi.

### **1. Fe'llarni morfem tahlil qiling.**

1. Taraqlamoq, shovullamoq, qitirlamoq, sharaqlamoq, chiyil-lamoq, charaqlamoq, uvullamoq, chirsillamoq, hayhaylamoq.

### **2. Sodda tub va sodda yasama fe'llarga ajrating.**

1. Kunlardan bir kuni Durroj: «Men tuzoqqa tushdim!» — deb sherni aldadi. Sher o'zining aldanganini bilib: «Meni aldamagil, yolg'onchidan el nafratlanadi», desa ham, Durroj quloq solmas, yolg'onchilikni, aldashni qo'ymas edi. Bir kuni Durroj tuzoqqa ilindi va: «Meni tutib oldilar!» deb qattiq qichqirdi. Sher: «Bu gal ham Durroj meni aldayapti», qutqarishga bormadi.

Ko'rdingizmi, bolalar! Durroj yolg'on so'zlagani, noto'g'ri gapirgani uchun tuzoqqa tushdi.

2. Bilmoq, eslamq, qutlamoq, ta'sirlanmoq, qo'ymoq, yo'llamoq, suvsiramoq, tashlanmoq, g'ichirlamoq, achchiqlanmoq.

3. 1. Ko'klam. Butun mavjudod qaytadan yasharmoqda. 2. Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi. 3. Usta temirni chog'ga solib bolg'alaydi, cho'zadi, yassilaydi, yana olovga soladi. 4. Bir-birimiz bilan tezda eski qadrdonlardek suhbatlashdik. 5. Mirtursun Xalifaning terakzoriga yaqinlashgach, u qadamini sekinlatdi.

### 3. Qo'shma fe'lni aniqlash.

1. 1. Xamir yaxshi qorilsa, barakasi ham yaxshi bo'ladi, – dedi Matqovul.  
2. Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi. 3. Shunday o'ylasangiz, yanglishasiz, – deb e'tiroz bildirdi Abdukarim.

#### 2. Oygul turishi bilan

Saroy charaqlab ketdi.

Hammayoq bo'lib ravshan,

Uylar yaraqlab ketdi.

1. ... Choyxonachi yoshi elliklardan oshib qolgan bo'lsa ham, xuddi o'smirlarday yengil qadam tashlardi, yugurib-yelardi. So'ridagi eskiroq ko'rpachani darrov yig'ishtirib olib, supurib, ko'z ochib yumguncha yangi yakandoz to'shab, joy soldi. Choyxonachi patnida non bilan qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi.

#### 1. Fe'llarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

Urindi-turtindi, bahslashmoq, bahs yuritmoq, haydamoq, so'radi-qo'ydi, shitirlamoq, havas qilmoq, qochdi-ketdi, ishladi-qo'ydi, yordam bermoq.

Sodda fe'llar	Qo'shma fe'llar	Juft fe'llar

#### Topshiriq. Jadvalga joylashtirish.

Chaqirmoq, qimirlatmoq, fahmlamoq, xo'rsinmoq, kiyintirmoq, o'rtoqlashmoq, sevinib ketmoq, tushuntirmoq, fikrlamoq, kutmoq, jilmaymoq, burilmoq, ko'tarmoq, ovqatlanmoq, g'izillamoq, tekislaroq, parvarishlaroq, duduqlanmoq.

Nutqiy faoliyat fe'llari	Aqliy faoliyat fe'llari	Jismoniy faoliyat fe'llari	Holat fe'llari

#### 1. Munosabat shakllarini topish.

Mirsodiq ko'chaning ikki betidagi turnaqator fonarlar nurida eron gilamidek tovlanib yotgan bu gullarga suq bilan tikilib borar ekan, bir shoxi singan na'matakka ko'zi tushib qoldi. Qaysi bag'ritosh sindirdi ekan? U yaqinroq kelib qaradi, yo'q, sinibdi-yu, uzilmabdi. Quyoshga tomon bo'y cho'zib qaddini rostlab boryapti. Mirsodiq jilmayib qo'ydi. U, albatta, o'sadi, ulg'ayadi. U ochgan gullarining muattar hidi kishilar chehrasiga tabassum, shodlik baxsh etadi, qalblarini ravshan qiladi. Hayot qonuni shunday!



## 2. Fe'llarni jadvalga joylash (zamon bo'yicha).

O'tgan zamon fe'li	Hozirgi zamon fe'li	Kelasi zamon fe'li

1. Hayqirar edi, kuylamoqchi, yayradi, qo'ndi, qichqirmoqda, to'lib-toshdi, qoplagandi, yig'lamoqchi, ichyapti, adashib qoldi, yozar edi, yurdik, qarayapmiz.

1. 1. Qizlar to'da-to'da bo'lib lapar aytishdi. 2. Sinf rahbarimiz Hasan aka menga bildimay G'anini uyga yuboribdilar. 3. Aka-ukalar to'qayda bo'ri, to'ng'iz, tulkilar ko'p bo'lishini eshitishgan edi. 4. Mana bu shotutni bobosi ekkani ekan. 5. Ho'so'ridagi cholni ko'rdinglarmi, yonidagi chollarga Navoiy g'azallarini o'qib berib o'tiribdi.

2. 1. Oq yer ochdim, qora bug'doy sochdim. 2. O'zi qator joylashgan, bir-biriga boylangan, bir-birini kuzatar, behisob nur uzatar. 3. Mixlangan qulog'idan, suv quyay oyog'idan. 4. Ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim.

3. 1. Sen ko'rmayapsan, oshna, oy botib, yulduzlar birin-ketin so'nib boryapti. 2. O'qishlar boshlanib, o'quvchilarham maktabga kelyapti. 3. Yo'llarning chekkasidagi gullar barchaga salom berayotir. 4. Ko'chadagi shamchiroqlar xira-xira shu'la sochmoqda.

4. 1. Daryoning suvi ko'paysa, baliqlarning chiqishi oson bo'ladi. 2. Kunlaming sanog'in bilmay qolasan. 3. Maktabga boray, siz aytding narsani topay, keyin aytaman. 4. Dalaga suv chiqaraman, ekinlar gurkirab, yashnab ketadi. 5. Ertaga mashina kelar, kelmasa, yo'lga chiqmayman.

5. 1. Har holda menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. 2. Sen choyni jindek qo'yib turib, chala qoldirgan yerlaringni supuratur, kelib qolar. 3. Qushlar sovuq tushishi bilan issiq o'lkalarga uchib ketadi. 4. Bahorning iliq kunlarida dam olishga boraman. 5. Mix bolg'adan qutulaman deb, taxtaga kirib ketdi.

### Fe'llarni mayl jadvaliga joylashtirish

Xabar	Buyruq-istak	Shart

1. Avvallari yashash uchun yozdim, endi yozish uchun yashayapman.  
 2. Inson qanchalik uzoq yashasa, yana shuncha ko'proq yashagisi keladi.  
 3. Qarilikdan qo'rqma, unga hali yetish kerak. 4. O'n olti asr oldin toshga o'yib bitilgan O'rxun bitiklarini o'qing.

2. 1. Zebi yuragida tugilib yotgan zo'r tugunni yechib yuborgan edi. 2. Koyima, qizim, — dedi ona, — o'rtog'ingni quruq jo'natmaymiz. 3. Puch yong'oq bilan qo'yin to'lg'azma. 4. To'qlikda ochlikni o'yla, boyiganda muhtojlikni. 5. Odamlar seni bilmasa ham, sen odamlarni bil.

3. 1. Bola chaqqonlik bilan o'zini suvga otdi. 2. Ishyoqmaslarning diorama-idora yurib arz qilishdan boshqa ishi yo'q. 3. Kabob uchun shahardan zira-piralarni ham olib chiqib qo'ydik. 4. Otasi Qo'qonning Madalixon madrasasida bir necha yillar mudarris bo'lib ishlagan. 5. Cho'pon gapiradi, xotini aytadi, o'g'li chaqiradi. 6. Kunduzi bo'lishiga qaramay, birdan hamma yoq qop-qorong'u bo'lib ketdi.

4. 1. Ovqatni yedig-u, meni uyqu bosdi: — Dada, keling, uxlaylik. 2. Qani endi, hamma ham shunday g'alabalarga erishsa. 3. Koshki edi, o'sha tog'ga men ham borsam. 4. Kel, do'stim, yuragimni senga ochay. 5. Hayot saboqlarini o'rgangin, chunki hayotni o'rganish zarur.

5. 1. Ikkalang ham og'zingni ochmay, jim o'tirgin. 2. Qani, qo'lni bering, bir tabriklab qo'yay, — dedi zavqi oshib. 3. Yaxshilik qilsang, oxirigacha yaxshilik qilgin, zinhor minnat qilma. 4. Kun bo'yi g'afolat bosib uxlama, sergak bo'l. 5. Qo'lingni ochiq tutgin, boshingni g'oz tut.

6. 1. Uyiga javob beraylik, o'n besh-yigirma kunga borib kelsin. 2. Qog'ozlarga keraksiz narsalarni yozma, isrof qilsang, zor bo'lasan. 3. Yozning issiq kunlari g'animat ekanligini esdan chiqarmanglar. 4. O'qiylik, do'stlar, o'qishning qadriga yetaylik. 5. Sen ham sezgandirsan, tezroq gapir.

7. 1. Yaxshi so'z eshitmoqchi bo'lsang, yomon gap aytma. 2. Boshqalarga yordam bersang, kulfat seni chetlab o'tadi. 3. Haqiqatni inkor etsang, o'z umringni qisqartirasan. 4. To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan, egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan. 5. To'g'ri turgan bo'lsang, soyaning egriligidan qo'rqma. 6. Oz yesang, ko'p yashaysan.

1. **Fe'llarning shaxs-sonini yozish:** bor+a+man ( I shaxs birlik).

1. Boraman, o'qiyman, kelasan, ishladim, o'ynading, ketsam, o'ylasang.

2. 1. Zebi: Ana, so'roq tamom bo'ldi... (-gan, -di, -ib) endi uyimni qandoq qilib topib bora... (-di, -ib, -man), - deb o'yladi. — O'tir... (-gan, -ing, -ib), - dedi sud raisi Zebiga. Zebi sekingina va ehtiyot bilan o'tir... (-gan, -di, -ib). 2. Hazratim, hech bo'lmasa, Humoyunni Kobulda qoldir... (-ib, -ing, -gach). Axir, siz Hindga ketsa... (-ngiz, -gach, -ar), kimdir Kobulni boshqarishi kerak-ku! 3. Men bu yo'ldan necha bor qishlog'imga o'tgan... (-man, -san, -miz), lolazorning sayriga to'la olmay ketgan... (-man, -siz, -miz).

1. 1. Yuringlar, — dedi kampir o'rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi. — Sen ham yur, shirin bola. 2. Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o'tirib qolibman. 3. O'shanda yetti yoshlarda edim. Tog'da yashardik. 4. To'g'ri gapirding. Yaxshi gap, diqqat-e'tibor har qanday doridan kuchli ekan. 5. Imtihon ro'yxatida Odil bilan men ham bor ekanmiz. Sevindik...

## 2. Fe'llarni tahlil qiling.

1. Nonning nomi ulug', nomidan ham o'zi ulug'. Bolaga ins-jins ziyon yetkazmasin deb, ona o'z go'dagi yostig'i ostiga non qo'ygan. Ota o'g'lini o'zga yurtga safarga otlantirib, oq fotiha berarkan, «balo-qazolardan saqlaydi» degan ma'noda farzandining qo'liga non tutqazgan.

Yo'lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan. Toki non nasiba tortib, u uyga sog'-salomat, beshikast qaytsin.

Xastani, keksalarni ko'rish, ustozni ziyorat qilish, hol-ahvol so'rash uyiga non tugib borishdan boshlangan.

2. 1. Shamol toy ekan, Kuchga boy ekan, Yengil ko'charkan, Ko'kka ucharkan. 2. Ko'zim tikdim parq-u bulutlar, Ko'char edi zilol va toza. Lochin kabi samolyot uchar, Uchar edi solib ovoza. 3. Kampir tong qorong'usida xamir qilgani turib, ho'kizidan xabar oldi. 4. Ra'no javob berish o'rniga birdan yig'ladi, ancha vaqt ko'z yosh to'kib turdi. 5. Qobil yugurib borib do'konxona eshigidan ko'chaga qaradi.

3. Suv qahr bilan uning biqiniga urilib, shovullar, boshidan oshib o'tguday bo'lar, lekin tog'day gavdasini qimirlata olmas edi. U soydan o'ta olmay qaytganlarning hammasini birma-bir qo'lidan ushlab o'tkazib qo'ydi. Rota yana bir qator bo'lib yo'lida davom etdi. Bular shag'al to'kilgan katta yo'lni kesib o'tib, adirga tomon chiqib ketayotganda botayotgan quyoshning horg'in nuri ro'paradagi qorli tog' cho'qqisini, uning tepasida uvadaday osilib turgan qora bulutni bir lahza qizartirdi-da, so'ndi. Shu bilan, uzoqdagi tog' oraliqlaridan boshlangan qorong'ilik asta-sekin hamma yoqqa tarala boshladi.

### 1. Zulfiyaxonim

Dunyo qadim-qadimdan sharq ayoli, turkiy ayollarni yaxshi tanigan. Tarixning barcha bosqichlarida ular dunyoga o'zining borligini goh mardlik, jasorat bilan, goh tadbir-u oqilalik bilan, goh she'riyat bilan bildirib, tanitib, tan oldirib kelganlar. Ana shu zotlardan biri Zulfiyaxonim bo'lib, u el muhabbatiga, ayollar ishonchiga tasodifiy bir holatda muyassar bo'lgan emas. Opaning huzuriga olis qishloqlardan yuzlari quyoshda qorayib ketgan, ajinlari bolalagan ayollar qo'llarida go'dagi bilan madad so'rab kelardi. Ustoz ularning boshini silar edi, yupatar edi.

«Sakson yil lovullab so'nmagan o'tman», — deydi Zulfiyaxonim she'rlarining birida.

Men dengizning labida turdim,  
Dengiz to'lib chayqaldi yurak.

Xalqning og'riqlariga, quvonchlariga joni bilan tutashmagan shoir a bunday yoza olmaydi.

Biz shoiraning ovozlari, chiroyli qarashlarini, issiq qo'llarini sog'ingan edik. Ular xonaga kirganda bir qalqib tushib, o'zimizni o'nglab olar edik.

Balki Prezidentimiz farmoni bilan adabiyotimizga kirib kelayotgan yangi

Zulfiya qizlarining kuchli ovozlari bu sog'inchimizni bosar. Balki ustozni ko'rgan ko'zlarimiz bilan bir-birimizga termulib, bu sog'inchga malham toparmiz. Nima bo'lganda ham biz «Bu bog'lar bir bog'lar bo'ladi hali» degan taskin bilan yashaymiz.

## 2. Eng yaxshi dori

Shunday xastaliklar bo'ladiki, ularni faqat so'z bilan davolamoq zarur. Abu Ali Ibn Sinoning fikriga qaraganda, bemorni dori-darmon bilan birga so'z bilan davolagan ham afzal, chunki so'z shunchalik sir-sinoatga ega bir mo'jiza hisoblanadi.

Bir og'iz shirin so'z. Siz bu so'zning naqadar umidbaxsh va katta qudratga ega ekanligini hiz qilganmisiz? Qiziq, ba'zan, noyob dori-darmonlaru zamonaviy meditsina asbob-uskunalari ham ojizlik qilib qolganda ana shu bir og'iz so'z bemorga ruhiy dalda, jismoniy quvvat bag'ishlaydi! Chunki so'z xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, avvalo, bosh miyaga ta'sir qiladi. Bosh miya esa organizmdagi butun jarayonlarni boshqaradi va nazorat qilib turadi. Yomon so'z orqali asabiylashganda, odamning aft-angori o'zgaradi, rangi o'chadi, qo'l va oyoqlari titraydi, quloqqa so'z kirmaydi, nafas olishi va yurak urishi tezlashadi. Shu payt kishi o'zini bosib ololmasa, yomon kasallikka chalinishi mumkin.

## Fe'l so'z turkumi bo'yicha test topshirig'i

### 1-variant

1. Fe'lning orttirma nisbatini hosil qiluvchi -gaz, -kaz, -qaz qo'shimchalari o'tmoq fe'lga qay tarzda qo'shilishi mumkin?

- A. O'tkaz, o'tqaz tarzida                      B. Faqat o'tqaz tarzida  
C. O'tgaz, o'tkaz, o'tqaz tarzida            D. Faqat o'tkaz tarzida

2. Qaysi gap tarkibida 2 ta mustaqil fe'l ishtirok etgan?

- A. Nigora birdan qo'lidagi choynakni tashlab yubordi  
B. Qo'shni qabilalar o'rtasida o'ldi-berdi boshlandi  
C. Rais hammaga bir-bir gapira boshladi  
D. Maslahatingni qo'y, o'rtoq, dedi-dedilardan charchab ketdim

3. Aqliy faoliyat fe'llari qaysi qatorda keltirilgan?

- A. Fahmlamoq, pichirlamoq, ma'qullamoq  
B. Imzolamoq, susaymoq, sergaklanmoq  
C. Fikrlamoq, sevinib ketmoq, chaqirmoq  
D. Ijod qilmoq, tushunmoq, o'ylanmoq

4. Ortirma nisbat shakli yetakchi fe'lga qo'shilgan gapni toping.

- A. U eng avval malikalar-u, nabiralarni Samarqandga jo'natdi  
B. Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o'tirib qolibman

- C. Tushga yaqin dadam bizga ovqat keltirib berdi
- D. Birdan bozor boshida dod-faryod ko'tarilib qoldi

5. Odamlar g'urur, chegarasiz manmansirash tufayli ne-ne kulfatlarga duchor bo'lmagan deysiz, shuning uchun ham, islom tafakkurining buyuk natijasi hisoblangan so'fizmda inson o'z «men» idan kechmay turib Oллоhni tanimaydi degan aqida bor edi.

Ushbu gapda nechta yasama fe'l bor?

- A. 3 ta
- B. 5 ta
- C. 4 ta
- D. 2 ta

6. 1) kut; 2) qiyna; 3) ayir; 4) yayra; 5) so'ra; 6) ishla

Ushbu fe'llarning qaysilaridan o'zlik nisbati hosil qilib bo'lmaydi?

- A. 1,3,4,6
- B. 2,3,4
- C. 1,2,5,6
- D. 1,4,5,6

7. Fe'l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalanadigan maylni belgilang.

A. Barcha fe'l mayllari zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi

- B. Shart
- C. Buyruq-istak,shart
- D. Xabar

8. Qaysi qatorda shaxs-son shakllarining xususiyatlari noto'g'ri ko'rsatilgan?

A. Harakat va holatni bildiruvchi shaxsni ko'rsatadi

B. Fe'l kesimni ega bilan bog'lab keladi

C. Ismlarni kesimlik shakliga xoslaydi

D. Fe'lni kesim sifatida shakllantiradi

9. Juft fe'l berilmagan qatorni toping.

A. Bordi-keldi

B. Yozdi oldi

C. Ochilib-sochilib

D. Qochdi ketdi

10. Bosh so'z tarkibida ikkita nisbat qo'shimchasi bo'lgan so'z birikmasini belgilang.

A. Yaxshilikka yo'naltirilgan

B. O'zigacha yaratilgan

C. Ko'rsatilgan film

D. Ustalik bilan kiritgan

11. Qaysi gapda maqsad ravishdoshi berilgan?

A. Gulbahor bu gapni dugonasidan tasodifan eshitib qoldi

B. Guliston dugonasini ko'rgani kasalxonaga kelgan edi

C. Chol labini tishlagancha o'ylanib qoldi

D. Xolida bu gapni aytganidan afsuslandi

12. -la fe'l yasovchi qo'shimchasi qaysi qatorda yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi?

A. Urug'la, bolala

B. O'g'itla, moyla

C. Silliqla, tozala

D. Dodla, ufla

13. Sifatdosh va harakat nomi egalik qo'shimchasini qabul qilganda nima sababdan qaratqich kelishigini olgan so'zga ehtiyoj bo'lmaydi?

A. Egalik qo'shimchasi xoslik, umumdan ajratilganlik ma'nosini ifodalagani uchun

B. Egalik qo'shimchasi harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildirgani uchun

C. Bu so'zlarda egalik qo'shimchasi yaxlitlanib qolishi sababli

D. Egalik qo'shimchasi harakat bildiruvchi so'zlarga qo'shilishi sababli

14. 1. Qushlar uni yaxshi ko'rishib, Mayna deb ism qo'yishibdi. 2. Yozuvchi turmushni har tarafdama o'rganishi, buning uchun uning hamma sohalardan xabardor bo'lishi kerak. Ushbu gaplardagi fe'llarda qo'llangan -ish qo'shimchasi haqidagi qaysi hukm tog'ri?

A. Birinchi gapda harakat nomi, ikkinchi gapda birgalik nisbat shaklini hosil qilgan

B. Har ikkala gapda birgalik nisbat shaklini hosil qilgan

C. Har ikkala gapda harakat nomi shaklini hosil qilgan

D. Birinchi gapda birgalik nisbat, ikkinchi gapda harakat nomi shaklini hosil qilgan.

15. Yemoq, demoaq fe'llaridan majhul nisbat qay tarzda hosil qilinadi?

A. Yemoq, demoaq fe'llaridan majhul nisbat yasalmaydi

B. So'z asosi va majhul nisbat qo'shimchasi orasida y tovushini orttirish orqali

C. So'z asosi va majhul nisbat qo'shimchasi orasida y tovushini orttirish orqali

D. So'z asosi unli tovush bilan tugaganligi uchun -l undoshini qo'shish orqali

16. To'liqsiz fe'llar yetakchi fe'lining qanday shaklidan so'ng keladi?

A. Shaxs-son shakllaridan so'ng

B. Nisbat va shaxs -son shakllaridan so'ng

C. Zamon shakllaridan so'ng

D. Nisbat shakllaridan so'ng

17. Qaysi gapda ravishdan yasalgan fe'llar berilgan?

A. Izg'irindan ko'zlar yoshlandi, oyoq ostidagi qor g'irchillaydi

B. Shokarim uxladimi, yo'qmi, bilolmadi

C. Mirsalim Xalifaning terakzoriga yaqinlashgach, qadamini sekinlatdi

D. Peshonangiz devorga qarsillab urilganidan keyin esingiz kiradi

18. Oqibati nima bilan tugashini o'ylab ham ko'rmadi. Bu sirni hech kimga ayta ko'rma. Har ikkala gapdagi ko'rma fe'lini izohlang.

A. Ko'makchi fe'!

B. Birinchi gapda – mustaqil, ikkinchi gapda ko'makchi fe'l

C. Mustaqil fe'l                      D. Qo'shma fe'l tarkibida kelgan

19. O'zlik nisbati shaklidagi gap berilgan qatorni toping.

A. Baxtni har kim o'zicha tushunadi

B. Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi

C. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi

D. Belbog'imga bitta kulcha tug'ilgan

20. Otlashgan sifatdosh qo'llangan gapni toping.

A. Men she'rga soldim aytar so'zimni, Baxtiyor sezaman g'oyat o'zimni

B. Chaqirilganlar ro'yxatga tirkalgandir

C. U bugungi pochmani indamay ko'ra boshladi

D. To'tixon xatni ko'zlariga surtar, o'par, hidlar edi

21. 1) xo'rsindi; 2) tirmashdi; 3) tortdi; 4) ortdi; 5) havaslandi; 6) taltaytirdi; 7) chizildi; 8) tinglashdi; 9) bo'lindi; 10) tinglandi

Ushbu fe'llardan qaysilari aniq nisbat shaklini hosil qilgan ?

A. 1, 2, 5, 7, 9

B. 1, 2, 3, 4, 5

C. 3, 4, 5, 6, 7

D. 3, 4, 7, 9, 10

22. Biror chaqirim yurilsa, bu yo'l katta guzarga olib chiqadi.

Ushbu gapda majhul nisbatdagi fe'l shakli qanday sintaktik vazifada kelmoqda?

A. kesim

B. aniqlovchi

C. to'ldiruvchi

D. ega

23. 1) tiklatildi; 2) achitdi; 3) o'qitishdi; 4) uxlatishdi; 5) tashlandi; 6) ilitildi; 7) tashidi; 8) tirmashdi

Ushbu so'zlarning qaysilarida birdan ortiq fe'l nisbatlari qo'llangan?

A. 1, 3, 6, 8,

B. 1, 3, 5, 7

C. 2, 4, 6, 8,

D. 1, 3, 4, 6

24. Noshukurlikning bexosiyat tomoni shundaki, bu illatga o'ralgan kishi his etis, jamiki narsadan lazzatlanish, bahramand bo'lish qobiliyatini yo'qotadi. Ushbu gapda nechta yasama fe'l ishtirok etgan?

A. 5 ta

B. 4 ta

C. 3 ta

D. 2 ta

25. Qaysi gapda fe'l yasovchi va sifat yasovchi qo'shimcha ta'sirida ham asos, ham qo'shimcha qismining tovush tarkibida o'zgarish ro'y bergan so'z ishtirok etgan?

A. Inson o'z umrining hisobli ekanligini hamisha kech anglaydi

B. Qizcha dumaloq sharchani qo'lida mahkam ushlab turardi

C. Qiynoqlarga tashlading meni

D. Radiodan o'ynoqi musiqa yangradi

26. Aniqladim-aniqtandi, qildim-qilindi.

Berilgan ma'nodosh juftliklarning ikkinchi so'zida qanday uslubiy ma'no ifodalangan ?

- A. Mensimaslik, e'tiroz                      B. Hurmat, kamtarlik  
C. Ta'sirchanlik, g'ururlanish              D. Buyurish, xabar

27. Fe'ning qaysi vazifa shakllari orasida so'z yasovchi qo'shimcha bilan shakldoshlik hosil qiluvchi qo'shimchalar bor?

- A. Sifatdosh , ravishdosh                      B. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi  
C. Harkat nomi, ravishdosh                      D. Harakat nomi, sifatdosh

28. Navoiy asarlari tilining lug'atidan keltirilgan boshidin quyymoq fe'lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang?

- A. Esidan chiqarmoq                              B. Ulug' martaba hosil qilmoq  
C. Bosh olmoq, o'ldirmoq                      D. Ko'rina boshlamoq

29. Orttirma nisbatning qaysi qo'shimchalari bir so'zga qo'shilib paronimlik hosil qiladi?

- A. -g'iz, -giz    B. -ir, -iz    C. giz, -kiz                      D. -kaz, -qaz

30. Aqliy faoliyat fe'llari qaysi qatorda keltirilgan?

- A. imzolamoq, susaymoq, sergaklanmoq  
B. ijod qilmoq, tushunmoq, o'ylanmoq  
C. fahmlamoq, pichirlamoq, ma'qullamoq  
D. fikrlamoq, sevinib ketmoq, chaqirmoq

31. Bilib bilmagandan, bilmay bilgan yaxshiroq.

Ushbu gapda fe'ning qaysi vazifa shakllari ishtirok etgan?

- A. faqat ravishdosh                              B. ravishdosh, harakat nomi  
C. sifatdosh, ravishdosh                      D. faqat sifatdosh

32. Quyidagi gapda fe'ning qaysi nisbat shakli berilgan?

Otasini hovlining chekkasidagi zax uyga ko'chirdi.

- A. Majhul nisbat                                      B. Aniq nisbat  
C. O'zlik nisbati                                      D. O'ttirma nisbat

33. O'ttirma nisbatning qaysi qo'shimchalari bir so'zga qo'shilib paronimlik hosil qiladi?

- A. giz, -kiz    B. -g'iz, -giz    C. -ir, -iz    D. -kaz, -qaz

34. Qaysi nisbatni hosil qiluvchi qo'shimchalar bir fe'lga birdan ortiq o'rinda qo'shilishi mumkin?

- A. o'zlik nisbatini hosil qiluvchi qo'shimchalar  
B. birgalik nisbatini hosil qiluvchi qo'shimchalar  
C. majhul nisbatini hosil qiluvchi qo'shimchalar  
D. orttirma nisbatni hosil qiluvchi qo'shimchalar

35. Qaysi gapda maqsad ravishdoshi berilgan?



- A. Gulbahor bu gapni dugonasidan tasodifan eshitib qoldi.
- B. Guliston dugonasini ko'rgani kasalxonaga kelgan edi
- C. Xolida bu gapni ayrganidan afsuslandi
- D. Chol labini tishlagan cha o'ylanib qoldi

36. Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yniga olmaslik ayb. Ushbu gapda fe'lining qanday vazifa shakllari bor?

- A. 1 ta sifatdosh
- B. 2 ta ravishdosh, 1 ta sifatdosh
- C. 2 ta harakat nomi, 1 ta ravishdosh
- D. 2 ta harakat nomi, 1 ta sifatdosh

## 2-variant

1. Quyidagilardan qaysi biri fe'lining lug'aviy shakllaridan hisoblanadi?

- A. to'liqsiz fe'llar
- B. ko'makchi fe'llar
- C. harakat tarzi fe'llari
- D. sifatdoshlar

2. Shakldosh (omonim)lik xusiyatiga ega bo'lgan -ma qo'shimchasi qanday holatda urg'usiz qo'shimcha hisoblanadi?

- A. fe'ldan bo'lishsizlik shaklini hosil qiluvchi bo'lganda
- B. -ma qo'shimchalari barcha hollarda urg'usiz qo'shimcha
- C. fe'ldan ot hosil qiluvchi bo'lganda
- D. -ma qo'shimchalari barcha hollarda urg'uli qo'shimcha

3. Harakat fe'llariga to'g'ri ta'rif bo'lgan javobni toping.

A. shaxsning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar

B. narsaning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar

C. Shaxsning aqliy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar

D. A, B

4. Holat fe'llariga to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping.

A. shaxslarning ichki kechinmalarini ifodalovchi fe'llar

B. narsalarning bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishini ifodalovchi fe'llar

C. A, B

D. shaxsning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar

5. 1) kul; 2) qiyna; 3) ayir; 4) yayra; 5) so'ra; 6) ishla

Ushbu fe'llarning qaysilaridan o'zlik nisbat fe'llari hosil qilib bo'lmaydi?

- A. 1, 3, 4, 6
- B. 2, 3, 4
- C. 1, 2, 5, 6
- D. 1, 4, 5, 6

6. Fe'lning zamon, shaxs-son qo'shimchalarisiz qismi ...
- O'tgan zamon
  - Sof fe'lni ifodalaydi
  - II shaxs buyruq-istak maylini ifodalaydi
  - Hozirgi zamonni ifodalaydi
7. -la fe'l yasovchi qo'shimchasi qaysi qatorda yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi?
- silliqla, tozala
  - o'g'itla, moyla
  - urug'la, bolala
  - dodla, ufla
8. Quyidagi qo'shimchalardan qaysilari o'tgan zamonning shart maylidan keyin qo'shiladi?
- miz, -siz
  - man, -san, -di
  - m, -k, -ng, -ngiz
  - m, -k, -miz, -siz
9. Bozorda tushga yaqin oldi-berdi boshlanib ketdi. Ushbu gapda nechta fe'l ishtirok etgan?
- 4 ta
  - 2 ta
  - 3 ta
  - 1 ta
10. Berilgan qaysi sodda fe'l tarkibidagi -la fe'l yasovchisini qil, et, de singari fe'llarning birortasi bilan sinonimik munosabatda qo'llab bo'lmaydi?
- ufla
  - tekisla
  - tezla
  - gumburla
11. Quyidagi qo'shimchalardan qaysilari o'tgan zamonning -di va kelasi zamonning shart maylidan keyin qo'shiladi?
- miz, -siz
  - m, -k, -ng, -ngiz
  - man, -san, -di
  - m, -k, -miz, -siz
12. Qaysi javobda bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay dajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari to'g'ri ko'rsatilgan?
- gach, -guncha, -gani, -ib-guncha, -la, -in, -il, -gan
  - gach, -t, -ir, -n, -i
  - in, -t, -ir, -ish, -il
  - gach, -guncha, -gani, -gan
13. Juft fe'l berilmagan qatomi toping.
- qochdi-ketdi
  - bordi-keldi
  - ochilib-sochilib
  - yozdi-oldi
14. aniqladim-aniqlandi, qildim-qilindi  
Berilgan ma'nodosh juftliklarning ikkinchi so'zida qanday uslubiy ma'no ifodalangan?
- hurmat, kamtarlik
  - ta'sirchanlik, g'ururlanish
  - mensimaslik, e'tiroz
  - buyurish, xabar

15. Quyidagi gaplardagi fe'llarning nisbatini aniqlang.

1) Gul ochildi. 2) Yig'ilish ochildi.

- A. 1-gapda o'zlik nisbati, 2- gapda majhul nisbat
- B. 1-gapda majhul nisbat, 2-gapda o'zlik nisbat
- C. 1-gapda aniq nisbati, 2- gapda majhul nisbat
- D. Har ikkala gapda majhul nisbat

16. Qaysi fe'l nisbatida harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi?

- A. majhul nisbat
- B. orttirma nisbat
- C. o'zlik nisbati
- D. birgalik nisbati

17. 1) xo'rsindi; 2) tirmashdi; 3) tortdi; 4) ortdi; 5) havaslandi; 6) taltaytirdi; 7) chizildi; 8) tinglashdi; 9) bo'lindi; 10) tinglandi.

Ushbu fe'llardan qaysilari aniq nisbat shaklini hosil qilgan?

- A. 3, 4, 5, 6, 7
- B. 1, 2, 3, 4, 5
- C. 3, 4, 7, 9, 10
- D. 1, 2, 5, 7, 9

18. Yasama fe'l berilgan gapni toping.

- A. Dadasining qo'lidan ushlab, dikir-dikir sakrab keta berdi
- B. Bugun havo juda isidi
- C. Mashinada u-bularni yuborasiz
- D. Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi

19. Qaysi qatorda o'timli fe'l berilgan?

- A. sayrshmoq
- B. taranmoq
- C. ko'rilmoq
- D. sayratmoq

20. Quyidagi fe'llar ichidan o'timlilari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1. almashmoq; 2. jiringlamoq; 3. o'xshanoq; 4. jilmaymoq; 5. yuzlanmoq; 6. kuyinmoq; 7. kiymoq; 8. so'roqlamoq; 9. so'ramoq; 10. quvonmoq; 11. joylashtirmoq.

- A. 1, 7, 8, 9, 11
- B. 1, 2, 4, 5, 10
- C. 2, 7, 9, 11
- D. 1, 3, 4, 6, 7

21. Qaysi qatordagi fe'llarda ikkitadan nisbat qo'shimchasi bor?

- A. Qurdirdi, yozdirildi, keltirdi
- B. Sevintirdi, yozdirildi, so'rattirdi
- C. Surishtirdi, o'tkazdi, ozgartirdi
- D. Yozdirildi, urindi, o'zgartirdi

22. O'zlik nisbat shaklidagi fe'l qaysi gap tarkibida berilgan?

- A. Feruza katta yo'llarning toshlariga qoqilib, idora binosiga yetib keldi
- B. ... texnika gektarga qarab bo'lib berildi
- C. U soatiga qaradi: besh yarim
- D. Bir burchakda yoshlar gazeta va kitob o'qishadi

23. Odatlanmoq fe'li qaysi nisbatdagi fe'l hisoblanadi?  
 A. majhul nisbat                      B. orttirma nisbat  
 C. aniq nisbat                            D. o'zlik nisbati
24. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari qaysi qatorda berilgan?  
 A. -guncha, -la, -in, -il, -gan                      B. -gach, -t, -ir, -n, -i  
 C. -in, -t, -ir, -ish, -il                              D. -gach, -guncha, -gani, -ib
25. U yuziga belbog'ini tashlab ko'rpachaga cho'zildi. Lag'mon ingichka qilib cho'zildi.  
 Ushbu gapdagi «cho'zildi» so'zining nisbatini aniqlang.  
 A. 1-gapda o'zlik nisbati, 2-gapda majhul nisbat  
 B. 1-gapda majhul nisbat, 2-gapda o'zlik nisbati  
 C. Har 2ala gapda majhul nisbat  
 D. 1-gapda aniq nisbat, 2-gapda majhul nisbat
26. «Aytib berib tura qol» shaklidagi birikuv qaysi qatorda to'g'ri ifodalangan?  
 A. aytib berib tura – mustaqil fe'l, qol – ko'makchi fe'l  
 B. aytib berib – yetakchi fe'l, tura qol – ko'makchi fe'l  
 C. aytib – mustaqil fe'l, berib tura qol – ko'makchi fe'l  
 D. aytib berib – mustaqil fe'l, tura qol – ko'makchi fe'l
27. Ko'r fe'li ko'makchi fe'l vazifasida qo'llangan gapni aniqlang.  
 A. Qilingan ishlarni o'z ko'zing bilan ko'r  
 B. Uning qanday inson ekanligini shuncha yillar mobaynida bilmay, ko'r ekanman  
 C. Bo'lib o'tgan voqealarni eslab ko'r  
 D. Bugun uzoq safardan qaytayotgan do'stlarimni ko'rib qoldim
28. Aytdi-qo'ydi, javob berdi birliklari o'zaro qaysi jihatidan farqlanadi?  
 A. har ikkalasi ham ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, faqat ma'no jihatdan farqlanadi  
 B. ma'nosiga ko'ra farqlanadi. lekin har ikkilasi ham qo'shma fe'l  
 C. ma'nosiga ko'ra farqlanadi va aytdi-qo'ydi – ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, javob berdi – qo'shma fe'l  
 D. ma'nosiga ko'ra farqlanadi va aytdi-qo'ydi – qo'shma fe'l, javob berdi – ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi
29. -a, -ay, -illa, fe'l yasovchi qo'shimchalari so'zlarga qo'shilganda qo'shimcha tarkibida qanday o'zgarish bo'ladi?  
 A. tovush almashinishi                      B. tovush tushishi  
 C. tovush orttirilishi                            D. tovush almashinishi va tushishi
30. Titramoq so'zi fe'lning qaysi ma'noviy guruhiga mansub?

A. aqliy faoliyat fe'li  
C. holat fe'li

B. nutqiy faoliyat fe'li  
D. jismoniy faoliyat turi

31. Gapirganda ovozi ichidan chiqqanday guldirab, jaranglab eshitaladi. Ushbu gapda nechta yasama fe'l bor va ular qaysi so'z turkumlaridan hosil bo'lgan?

A. 3 ta, ot va taqlid so'zdan      B. 2 ta, ot va fe'ldan  
C. 2 ta, ot va taqlid so'zdan      D. 3 ta, ot, taqlid so'z va undov so'zdan

32. -(a)r qo'shimchasi bilan yasalgan sifatdoshlardan sifatdoshning bo'lishsiz shakli hosil qilinganda qanday fonetik o'zgarish vujudga keladi?

A. tovush almashinishi      B. tovush o'zgarishi sodir bo'lmaydi  
C. tovush ortirilishi      D. tovush tushishi

33. Qaysi qatorda munosabat shakllari to'g'ri va to'liq keltirilgan?

A. egalik, kelishik, shaxs-son, zamon, mayl shakllari  
B. egalik, kelishik, fe'lning sifatdosh shakli  
C. egalik, kelishik, shaxs-son  
D. egalik, kelishik, shaxs-son, fe'lning bo'lishsizlik shakli

34. Yasama fe'l ishtirok etgan gapni aniqlang.

A. Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, – dedi Kamol  
B. Berilgan gaplarda yasama fe'l mavjud emas  
C. Shabada endigina qad ko'targan yosh nihollarni tebratar edi  
D. Xolida gulzorga chiqmoqchi edi, oyisi to'xtatdi

35. Qaysi qatorda bo'lishsizlik shakli orqali davomiy bo'lishsizlik ma'nosi ifodalangan?

A. U darslarini tayyorlamay qo'ymadi  
B. U darslarini tayyorlab qo'ymadi  
C. Barcha javoblarda davomiy bo'lishsizlik ifodalanmagan  
D. U darslarni tayyorlamay qo'ydi

36. Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim.

Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan nechta so'z bor, ularning nechtasi fe'l so'z turkumiga mansub?

A. 6 ta, 2 tasi fe'l      B. 5 ta, 2 tasi fe'l  
C. 5 ta, 3 tasi fe'l      D. 6 ta, 3 tasi fe'l

## RAVISH VA UNING USLUBIY XOSSALARI

Ravish — harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'ri, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi so'zlar. Asosan, fe'lga, ba'zan otga bog'lanadi. Morfologik belgilari: otlashadi (Piyoda askarlar)lar hujum boshladilar), darajalanadi( juda, eng, nihoyatda tez — orttirma daraja; sal, bir oz, picha sekin — ozaytirma daraja). Sintaktik vazifalari: hol, kesim, sifatlovchi aniqlovchi, otlashganda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, undalma.

### Ravishlarning ma'no turlari

№	Ravishlarning ma'no turlari	Ma'nosi va qoidasi	Sinonimik so'rog'i, vazifasi	Misollar
1	Holat ravishi	Harakatning qay tarzda bajarilishini bildirgan ravishlarga holat ravishi deyiladi	qanday? qanaqa?	qo'qqisdan, hexosdan, sekin, tez, (da, -dan), yayov, piyoda, darhol kabilar
2	Payt ravishi	Harakatning bajarilish paytin bildirgan ravishlarga payt ravishi deyiladi	qachon? qachongacha? qachondan?	bugun, kecha, avval, hozir, doim, erta-indin, yaqinda kabilar
3	O'rin ravishi	Harakatning bajarilish o'rini bildirgan ravishlarga o'rin ravishi deyiladi	qayer? qayerda? qayerdan? qayerga?	oldinda, olisda, uzoqdan, yaqindan, yuqoriga, pastga
4	Miqdor-daraja ravishi	Harakatning miqdor-darajasini bildirgan ravishlarga miqdor-daraja ravishlari deyiladi	qancha? qanchacha?	oz, ko'p, ancha, picha, sal-pal kabilar
5	Maqsad ravishi	Harakatning bajarilish maqsadini bildirgan ravishlarga maqsad ravishlari deyiladi	nimaga? nahot? nega?	atay, ataylab, qasddan, jo'rttaga, azza-bazza kabilar
6	Sabab ravishi	Harakatning bajarilish sababini bildirgan ravishlarga sabab ravishlari deyiladi	nimaga? nima uchun? nima sababdan?	noiloj, ilojisiz, noilojlikdan, chorasizlikdan

## Ravishlarning yasalishi va uning uslubiy xossalari



**Ravishlar tub va yasama ravishlarga bo'linadi.** Hech qanday yasovchi qo'shimchalarsiz qo'llaniladigan ravishlarga tub ravishlar deyiladi. Masalan, ko'p, tez, avval, keyin, birpas va boshqa.

**Affiksatsiya usuli yasashga asos qismga yasovchi vositalar qo'shib hosil qilingan ravishlar.** Masalan, xotinchasiga, bolalarcha, mardona.

Yasashga asos qism ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ba'zan ravish bo'lishi mumkin. Quyidagi qo'shimchalar ravish yasash uchun xizmat qiladi:

- cha:** yangicha, eskicha, hozircha, uningcha, shuncha, o'zbekcha kabi
- larcha:** mardlarcha, do'stlarcha, qardoshlarcha
- lab:** harflab, haftalab, tonnalab
- ona:** itoatkorona, mardona, mag'rurona
- lay:** (-layin): tiriklay, tiriklayin, butunlay

-**n (-in, -un):** ertan-kechin, qishin-yozin, ochin-to'qin, ostin-ustun

Ravish yasovchi -larcha qo'shimchasidagi -cha qismi kabi, singari ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ular ko'pincha almashtirib qo'llaniladi.

Masalan, mardlarcha-mardlar kabi, yovuzlarcha-yovuzlar singari.

Shuningdek, ravish yasovchi -cha qo'shimchasi otlardagi kichraytirish-erkalash qo'shimchasi bo'lgan -cha bilan omonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, yosh yigitcha-yigitcha ishladi.

Bu o'rinda -cha qo'shimchasining omonimligi asosida leksema omonimligi vujudga kelgan: yigitcha: 1. Kichkina yigit. 2. Yigit kabi.

-cha ning bu ikki vazifasi urg'u bilan ham farqlanadi. Kichraytirish-erkalash ma'nosini bildiruvchi -cha qo'shimchasi urg'u oladi. Yigitcha, qizcha, kuchukcha kabi. Ravish yasovchi -cha qo'shimchasi esa urg'u olmaydi. Urg'u so'zning bu qo'shimchadan oldingi bo'g'iniga tushadi: yigi'tcha, xoti'ncha, erka'kcha kabi. -cha qo'shimchasini tushirib qoldirib, bu qo'shimchani olgan so'z oldidan kichkina so'zini qo'yish mumkin bo'lsa, -cha qo'shimchasi otning kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha sanaladi. Masalan, quticha- kichkina quti, uycha – kichkina uy kabi.

-cha o'rniga -dek, kabi, singari ko'makchilarini qo'shish mumkin bo'lsa, ravish yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan, yigitcha-yigit kabi.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma ravishlar yasaladi.

1. u, bu, shu, o'sha kabi ko'rsatish olmoshlariga o'rin va payt ma'nosidagi so'zlarni qo'shish orqali: u yerga, o'sha yoqdan, shu o'rtada, shu kuni, o'sha zahoti, o'sha zamonda.

2. Tarkibida har, hech hamma, bir so'zlari bo'lgan ravishlar: har vaqt, har zamon, bir zum, biryola, bir varakayiga, birpas.

3. Tarkibida alla- elementi bo'lgan ravishlar: allaqachon, allavaqt, allaqayerda.

**Eslatma:** Qo'shma ravish va qo'shma olmoshlar bir-biriga o'xshab ketadi. Ularning farqi: qo'shma olmoshlar shaxs, narsa, belgi tushunchasini (har kim, har nima, har qaysi, har qanday kabi), qo'shma ravishlar esa, vaqt, o'rin, daraja -miqdor tushunchasini bildiradi (har vaqt, har yerda, bir talay).

### So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ravish yasash

So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ham ravish yasash mumkin. Masalan, nari-beri, hali-beri, naridan-beri, erta-indin, tez-tez, juda-juda, qadam-baqadam singari ravishlarga e'tibor bersangiz, ularda bir so'zning takrorlanishini yoki o'zaro ma'nodosh va zid ma'noli ikki so'zning juft keltirilganligining guvohi bo'lasiz. Masalan, tez-tez (bir so'zning takrori), eson-omon (ma'nodosh so'zlarning juftlashishi), avval-oxir, erta-kech (zid ma'noli so'zlar juftlashishi). Bunday ravish qismlari o'rtasiga yozuvda doimo chiziqcha qo'yib yoziladi. Takror qo'llangan ot o'rtasida -ma, ba-, -dan qo'shimchalarini qo'llash bilan ot emas, yangi yasama ravish hosil bo'ladi. Masalan, uyma -uy, ko'chama- ko'cha, qadam- baqadam, yildan yilga. Bu holatni ba'zan sifatda ham uchratish mumkin. Masalan, ochiqdan ochiq, uzundan uzun. Sonda bu shakl qo'shimchali va qo'shimchasiz kelishi mumkin: bir-bir, birma-bir.



#### Ravishlarning o'ziga xos xususiyatlari:

Ravishlarda uchraydigan -dan, -ga, -da kelishik, -(s)i egalik va ko'plik qo'shimchalari asos qism bilan yaxlitlanib, hozirgi kunda ajralmas holga kelgan, ular qotib qolgan holda o'z ma'nosini bermaydi va yaxlit leksema hisoblanadi. Masalan, birdan, birga, shoshmasdan, olisda, kechasi, ilgari, oqshomlari.



## Ravishning grammatik tahlili

1. Ravish . 2. So'rog'i. 3. Ma'no turi. 4. Otlashgan, otlashmaganligi. 5. Tuzilish turi. 6. Gapdagi vazifasi.

Archa hamisha ko'm-ko'k.

Hamisha – ravish, qachon? payt, otlashmagan, sodda, tub, hol.

Kelganlarning ko'pi yoshlar edi.

Ko'pi – ravish, qanchasi? miqdor-daraja, otlashgan, sodda, tub, III shaxs egalik, birlik, bosh kelishik, ega.

*Eslatma:* Amaliyotda ba'zan egalar kim?, nima? so'rog'idan tashqari, qaysisi? nechtasi? qanchasi? kabi egalik qo'shimchasini olgan sifat, son va ravishning savollarini olishi mumkin.

**Topshiriq: 1. Ravishlarni ajrating.**

1. Shu vaqt nima uchundir, hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. 2. Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da. 3. Tinib-tinchimas bu chol umr bo'yi o'z loyihalarini, chizmalarini Ma'suma bekaga gapirib keldi, aslida u uning loyiha-yu chizmalariga aslo tushunmasdi. 4. Vladimir janoblari Namoz Pirmul o'g'li ishini qabul qilib olganiga bir hafta bo'lgan bo'lsa ham, uni darrov tergovga chaqirmadi.

**2. Ravishlarni tub va yasamaga ajrating.**

Namuna:

<b>Tub</b>	<b>yasama</b>
Birdan	yoppasiga (affiksatsiya)
Ancha har	doim (kompozitsiya) qo'shma
Birga	oldin-ketin (juft)
Kechasi	oz-oz (takror)

1. 1. Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. 2. Vodiyarlarni yayov kechganda, Bir ajib his bor edi menda. 3. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib yo'rtib ketishibdi. 4. Keyin sal hushimni yig'ib qaragam, oyoqlarim go'yo o'zidan-o'zi yurib ketyapti. 5. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim. 6. Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men ertalab uloqqi ketganligini aytdim. 7. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan.

2. Mardlarcha, noil'j, qishin-yozin, asta-sekin, majburan, jo'rttaga.

1. 1. ... Garchi bu hol ularni oqlashga himoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglimga tasalli, o'z-o'zini aldash deysizmi – shularning biri edi. 2. Oldinda, hurmatli o'rtoqlar, meni shon-u shuhrat kutardi. 3. Borib anhordan endi suv ichaman deb engashganimni bilaman, changalzor bilinar-bilinmas shitirlagandek bo'ldi. 4. Inson, millat, xalq biron narsaga erishmagan bo'lsa, yo o'zi go'l, yo o'zi tanbal, yo majburan uyquda, bexabarlikda tutilgan! 5. Terak bilan yong'oq yonma-yon o'sibdi.

2. 1. Barno ertalab tursa, yonida mushugi yo'q. 2. Bu gaplarni eshitib turgan mushuk birdan kelib Zaynabning tizzasiga boshini qo'ydi. 3. Men xuddi shu savolni kutib turgandek, darhol javob bera qoldim. 4. Xo'roz arang qochib qutulibdi. 5. Otamizning o'lganiga ancha yil o'tib ketdi.

**1. Quyidagi mashqlarni ravishlarning ma'no turi jadvaliga joylashtiring:**

1.1. Men har kuni bir necha marotaba o'zimni o'zim tergayman, maslahatlarim yetarlicha samimiymikin? Do'stlarimga yetarlicha sadoqatlimanmi? 2. Ho'kiz kechqurun qorni ochib, charchab kelsa, uning oldiga bir bog' quruq poyani tashlab qo'yar ekan. 3. Xafa bo'lma, o'g'lim, — dedi Davronov asta boshini ko'tarib. 4. Ertalab tursa, ko'cha eshik lang ochiq, yong'oqqa bog'loqlik sigir yo'q. 5. Bayramga taraddud hozirdanoq qizib ketdi.

2. 1. Shunda bechora sayyoh iltimos qilmish darrov. Vasiyatimni aytay. Agar bo'lsa bemalol. 2. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da6 chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit ancha yergacha gandraklab borib tizzalab qoldi. 3. Elchi hozir o'z podshohining topshirig'ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog'lamalik qilib, To'marisni maqtab, ko'klarga ko'tarar edi. 4. O'g'illari suyunib, safar tayyorgarligini ko'rishib, erta saharda otlanib yo'lga tushibdilar. 5. Ba'zan Hasanni ham birga olib ketadi.

3.1. Shu payt uydan — yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. 2. O'rtancha botir qo'rqmadi, jim turdi. 3. Uzoqdan, kun botish tomondan g'ira-shira uchqun ko'rinib qoldi. 4. Bular piyoda, asta-sekin o'rdaga bordilar. 5. Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizajagini aytdi.

4.1. Tinglar edim betinim, Uzun tunlar yotib jim. 2. Ikki oshna kechki salqin bilan piyoda yo'lga tushishdi. 3. Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. 4. Jo'raboyev ham jimgina o'tirib, hammaga razm solardi.

1.1. Keyin u yoqqa o'tamiz, — deb o'z tarafdagi oynavand uyga ishora qildi. 2. Jiydazordan hozirgina keldim. 3. Ertaga chigit ekishni boshlaymiz. 4. Uni buguncha tinch qo'y. 5. Yolg'on gapga ishonmang, erta-yu kech daladaman. 6. Yarim kechadan keyin Salmon otaning uyqusi butunlay qoshdi. 7. Erta-indin rejani to'ldirgani haqidagi xushxabarni topshirmoqchi.

2.1. Ular yerni kavlab kirolmabdilar, lekin bir zumda allaqancha yerni o'yib yuboribdilar. 2. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti. 3. Ertaga uzum, qovun pishadi, bularni qo'yib yubor. 4. Dehqon jo'xorini quritibdi, to'qmoqlab, donini ajratib olibdi. Keyin bozorga olib boribdi. 5. Kun kech bo'ldi. Ertaga erta bilan yo'lga chiqamiz.

3. Asta-sekin, jim, endi, orqada, hozircha, yangicha, so'ngra, bittalab, dastlab, qishin-yozin, uzun-uzun, eson-omon, erta-indin.

4.1. Tashqariga chiqib, G'ofurjon boydan ketishga izn so'radi. 2. Sherqo'ziga ko'zi oldidan nari ketishi uchun ruxsat bermay qo'ydi. 3. Salmon ota gapni uzoqdan boshladi. 4. Idoraga yaqin qolganda, Nuriddin otga qamchi urdi. 5. Oldinda Shirinbuloq qishlog'i butun bo'y basti bilan yastanib yotardi.

1.1. Bizga yaqinlashmadi, lekin naniroqda turib ish o'rgatib, bularga baqirib turdi. 2. Ichkariga kiring, bir piyola choy iching, - dedi uy egasi. 3. Oldiga dasturxon yozibdi, kechqurun palov qilib olib chiqibdi. 4. Bir chaqirim ichkariga kirib borganimizdan keyin tepada teshik ko'rindi. 5. Oldimdan bir uy chiqib qoldi, jon holatda unga o'zimni urdim. 6. Uzoqdan bir ayol kela boshlabdi. Cholning yoniga kelib salom beribdi.

2.1. Uzoqdan kelgan mehmonlar chaqirilib, katta ziyofat berilibdi. 2. Bu gaplar amirzoda qulog'iga borib yetganiga aslo shubha qilmasa ham bo'ladi. 3. G'uvullab uchayotgan bo'ron ichida yigitlar naridan-beri xashag-u bedalarni arava tagiga olib kirib, g'ildiraklarga namat yopishdi. 4. Hozir mol-jon o'rtada, inim, Buxoroga yetib olaylik, u yog'i bir gap bo'lar. 5. Avval oyog'imdan kishanlarni olib qo'yishlariga buyruq bering, - istehzoli kulib qo'ydi Namoz.

3.1. Yaxshiligingiz sira-sira yerda qolmaydi. 2. Qaddini rostlab, eshikni uzoq taqillatdi. 3. Abdushukur bu yerdan tezda chiqib ketish payiga tushdi. 4. Bo'ying sal cho'zilsin, bironta duradgor usta topilsa, shogirdlikka topshirardim. 5. U aravani Nuriddin minganini ko'rib, xiyla yengil tortdi. 6. Ko'p o'tmay hamma ichkariga taklif etildi. 7. Kunduzi o'ralashib yurganlardan bu yerda qittay ham qolmagan.

4.1. Sarvigulni podsho hammadan ko'proq sevar ekan. 2. Mehmondorchilik tugagach, u uzundan-uzun duo qilib o'rnidan turibdi. 3. Ko'p yaxshi o'yabsiz, ammo saltanatingiz uzoqqa bormasa kerak. 4. Qozi kambag'alni sira yengolmagan ekan. 5. Ikkita tuxum topib olibdi. Suyunib cho'ntagiga solib, biroz yuribdi. 6. Tong yaqinlashib qolyapti, bu yerdan tez ketishimiz kerak. 7. Dehqon: «Hay, mayli, ustki qismi oz bo'lsa ham, bizga qola qolsin», - dedi. 8. Chol va kampir behad sevinishibdi.

## 2. Ravishlarni tahlil qiling.

1. Archa hamisha ko'm-ko'k. Uning rangi hech o'zgormaydi. Ko'm-ko'k, yam-yashil. 2. Qiz atrofga qarab turib birdan o'z uyining tomini ko'rib qolibdi. 3. Biz qurilishda kechgacha yurib zerikmadik. 4. Qizining chug'urlab biyron-biyron gapirayotganini ko'rgan Sabohat opa unga mamnun jilmayib qo'ydi. 5. Burro-burro so'zlayman, Kelajagim ko'zlayman. Istiqbolim, iqbolim — o'zbek tilim, o'z tilim.

## Ravish bo'yicha test topshirig'i

### I-variant

1. Qizining chug'urlab biyron-biyron gapirayotganini ko'rgan Sabohat opa unga mamnun jilmayib qo'ydi. Gapdagi ravishning ma'no turini aniqlang.

- A. holat      B. payt      C. o'rin      D. daraja-miqdor

2. Tuma bo'ynini biroz oldinga cho'zib, yuqoriga bir harakat qildi-yu, uzoqlarga uchib ketdi. Gapdagi ravishlarning sonini toping.

- A. 4 ta      B. 2 ta      C. 3 ta      D. 1 ta

3. Tushida o'sha tuma bilan yana uchrashdi. Gapdagi ravish bog'langan so'zning turkumini toping.

- A. ot      B. olmosh      C. fe'l      D. ravish

4. Tez yongan bot soviydi. Gapdagi ravishlar so'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra qanday turini hosil qiladi?

- A. shakldosh      B. ma'nodosh      C. uyadosh      D. zid ma'noli

5. Tez fursatda bu yerni eski shahar va halqa yo'l bilan bog'lab turuvchi yo'llar birin-ketin foydalanishga topshiriladi. Ushbu gapdagi ravishlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Tez, fursatda, bu yerni, birin-ketin  
B. Tez fursatda, bu yerni, birin-ketin  
C. Tez, bu yerni, birin-ketin  
D. Tez, fursatda, bu yerni, eski, birin-ketin

6. Ziyofat, keldi-ketdi allapallagancha davom etdi. Ushbu gapda qo'llangan so'z tirkumlarining turi va miqdorini aniqlang.

- A. 1ta ot, 1ta -ravish, 2ta -fe'l      B. 2ta ot, 1ta -ravish, 2ta -fe'l  
C. 3ta ot, 1ta -ravish, 1ta -fe'l      D. 2ta ot, 1ta -ravish, 1ta -fe'l

7. Quyidagi qo'shimchalarining qaysilari ravish tarkibida yaxlitlanib qolishi mumkin? 1) -ga; 2) -dan; 3) -da; 4) -i(si); 5) -lar;

- A. 1,2,4,5      B. 1,2,3,4,5      C. 1,2,3      D. 1,2,4,5

8. Ravish tarkibidagi qaysi egalik qo'shimchalari yaxditlanib kelishi mumkin?

- A. II shaxs birlik qo'shimchalari  
B. I shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalari  
C. Barcha egalik qo'shimchalari  
D. III shaxs birlik qo'shimchalari

9. U gazetani nari-beri o'qigan bo'ldi-yu, hech narsa demay chiqib ketdi. Ushbu gapda qo'llangan nari-beri so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A. Sifat    B. Holat ravish    C. O'rin ravishi    D. Payt ravishi

10. Sabab ravishini toping?

- A. Erta ekan xirmon qilur, kech ekan armon qilur
- B. Qorong'i tushgach, noiloj o'yinni tugatishga majbur bo'ldik
- C. Bu yil azamat dehqonlarimiz fidokorona mehnat qiladilar
- D. Horib-charchab, zo'rg'a-zo'rg'a oyoq tashlab, yotoqxonalariga qaytgan

vaqtlarida yarim kechadan ancha o'tib qolgan edi

11. Holat ravishini aniqlang.

- A. U bilan jiddiy suhbatlashdik
- B. Oldinda juda jiddiy, murakkab hayot borligini qayoqdan bilaman
- C. U jo'shib gapirdi
- D. U tezroq anhora yetib olishga shoshilardi

12. Payt ravishini toping.

- A. Balxdan qaytgach, Navoiy yangi qazilgan ariqlarni ko'zdan kechirdi
- B. Pastda toshqin Amu pishqirib, shag'illab ko'hna Orol tomon

shoshilmoqda

C. Qishloqdan stansiyaga o'tayotganimda, yuragimda chiroyli hislar g'alayon qiladi

D. Ertagayoq Abduxalilni Quvasoyga jo'nataman

13. O'rin ravishini toping.

- A. Ko'pincha tog' tomondan shamol esib turardi
- B. To'lagan chol o'rnidan turdi
- C. Xuddi ... shu do'kondan ikki respublikaning chegarasi o'tardi
- D. Shamol oldindan esardi

14. Sabab ravishini toping.

A. Mana shu mablag' behuda sarf etilmasligi uchun komissiya qat'iy bir qarorga kelishi kerak

- B. U qah-qah urib yuborishdan o'zini arang tiyib, ko'zlarini suzdi
- C. U esa hamon o'sha qo'rqoqligi tufayli kechalari ko'chaga chiqmasdi
- D. Xayrulla bu shartga noiloj ko'ndi

15. Maqsad ravishini toping.

- A. Men sizni olib ketgani keldim
- B. Ovozingizni eshitish umidi bilan ataylab kelgan edim
- C. Umringga yuz bahor zamondosh bo'lsin
- D. Feruza bilan Shahnoza Azizani o'ynatmoqchi bo'lib kelishgan ekan

16. O'rin ravishini toping.

- A. Ular hech ikkilanmay olg'a yurishdi.
- B. Yo'lchi boshini quyi solib, birpas jim o'tirdi.

- C. Kechasi bilan yog'ib chiqqan qor tongotar paytida tinib qoldi.
- D. Bular yaqinda Toshkentga ko'chib kelishdi.

17. Maqsad ravishi qatnashgan gapni toping.

- A. Horib-charchab, zo'rg'a-zo'rg'a oyoq tashlab, yotoqxonalarga qaytgan vaqtlarida yarim kechadan ancha o'tib qolgan edi
- B. Bu yil azamat dehqonlarimiz fidokorona mehnat qildi
- C. Siz odamlarga yaxshi ko'rinish uchun shunday qilsangiz kerak
- D. Omonovdek odam sizni tabriklash uchun azza-bazza direktor xonasidan chiqib kelarmidi?

18. Ravishlar tarkibida uchraydigan ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalari qanday qo'shimcha sanaladi?

- A. So'z yasovchi qo'shimcha
- B. So'z shakli yasovchi qo'shimcha
- C. Sintaktik hosil qiluvchi qo'shimcha
- D. Bu qo'shimchalar ravishning o'zak qismiga kirib, shu qo'shimchalar bilangina u so'z ravish hisoblanadi

19. Qaysi kelishikdagi so'zlar yaxlit holatda ravishga aylanishi mumkin?

- A. Jo'nalish, chiqish va o'rin-payt kelishigidagi so'zlar
- B. Jo'nalish va o'rin-payt kelishigidagi so'zlar
- C. Tushum, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi so'zlar
- D. Bosh va qaratqich kelishiklaridan tashqari so'zlar

20. Qaysi gapda tub ravish bor?

- A. Biz do'stona yashaymiz va ishlaymiz
- B. Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozu
- C. O'quvchilar sayohatga qisman ketdilar
- D. Majlis kechroq boshlandi

21. Qaysi gapda juft fe'llardan hosil qilingan ravish mavjud?

- A. Bu tashvishdan uzil-kesil qutuldim
- B. Har jihatdan kuydi-pishti xodim kerak
- C. Ishning kam-ko'stini tekshirib ko'r
- D. Sizga bor-yo'g'imni aytdim-ku, oshna

22. Holat ravishi berilgan qatorni aniqlang.

- A. Ular bir-birlarining yuzlariga tikilib qolishdi
- B. Akbaralining hayotida, shubhasiz, bir musibat yuz bergan edi
- C. Mehmonga choy qo'yish esiga kelmabdi
- D. Tinglar edim betinim, Uzun tunlar yotib jim

23. Yarim kechadan keyin Salmon otaning uyqusi butunlay qochdi gapida qanday ravishlar mavjud?

- A. payt va holat
- B. holat va o'rin

C. payt va sabab                      D. payt va maqsad

24. O'rin ravishi qatnashgan gapni aniqlang.

- A. Akbarali yana kulib qo'ydi
- B. Elektr hamon chirsillab ko'z ochirmas edi
- C. Salmon ota gapni uzoqdan boshladi
- D. U negadir birdan darmonsizlandi

25. Anvar Soliyevich bemaqsad azza-bazza kelarmidi? Ushbu gapda ravishning qanday turi qo'llangan?

- A. maqsad                      B. o'rin                      C. payt                      D. sabab

26. Aksariyat fe'l-kesimga bog'lanib keladigan mustaqil so'z turkumini aniqlang.

- A. olmosh                      B. ot                      C. sifat                      D. ravish

27. Unda-bunda juft ravishi gapdagi o'rniga ko'ra ravishning qaysi ma'no guruhiga mansub bo'ladi?

- A. o'rin yoki payt ravishi                      B. sabab yoki maqsad ravishi
- C. ravishga kirmaydi                      D. miqdor yoki daraja ravishi

28. Qaysi qatorda o'rin ravishi mavjud?

- A. olg'a                      B. ust                      C. ko'chada                      D. shaharga

29. Payt ravishlarini aniqlang. 1) to'xtovsiz; 2) zo'rg'a; 3) erta-kech; 4) ozgina; 5) qishin-yozin; 6) yuqorida; 7) mardlarcha; 8) endi; 9) inglizcha; 10) to'g'riga.

- A. 1, 3, 5, 6, 9.                      B. 2, 4, 6, 8, 10.
- C. 1, 3, 5, 7, 9.                      D. 3, 5, 8.

30. Qaysi ravishlarda munosabat shakllari yaxlitlanib ketgan?

- A. Ko'pga, oziga                      B. Yuqoridan, to'g'riga
- C. Shu yerda, bu yerda                      D. Ertasini, buguniga

31. Quyida berilgan gapda qaysi so'z turkumiga mansub yasama so'zlar qo'llangan? Devor bo'ylab yuksalgan daraxtlarning tepasida yirik-yirik oshqovoqlar quyoshning nuri bilan oltinlanardi.

- A. ot, ravish, fe'l                      B. ot va fe'l                      C. sifat va fe'l                      D. ot, sifat, fe'l

32. Qaysi qatordagi gapda yasama ravish qo'llangan?

A. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib yo'rtib ketishdi

- B. Choyni naridan-beri ichib, oshxonaga yugurdim
- C. Yig'ilishga faollardan vakillar kirib kelishdi
- D. Bayramga taraddud hozirdanoq qizib ketdi

33. 1. Endi nima qilsam ekan, — deya Otabek o'z-o'zidan so'radi. 2. Qizcha

o'z-o'zidan raqsga tushib ketdi. 3. O'z-o'zidan, mamlakat taqdiri hammani qiziqtiradi. Berilgan gaplardagi o'z-o'zidan so'zining qaysi turkumga mansubligini izohlang.

- A. 1- 2 gaplarda olmosh, 3-gapda kirish so'z
- B. 1 - gapda olmosh, 2 -gapda ravish, 3-gapda kirish so'z
- C. Har uchta gapda ham olmosh
- D. 1 -gapda olmosh, 2-gapda ravish, 3- gapda modal so'z

34. 1. Yaxshiyam, universitet yaqinida. 2. Yaqinda o'qishni tugatadi. Ushbu gaplardagi yaqinda so'zi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- A. Har ikkala gapda payt ravishi
- B. 1-gapda payt ravishi, 2-gapda o'rin ravishi
- C. Har ikkala gapda o'rin ravishi
- D. 1 -gapda o'rin ravishi, 2-gapda payt ravishi

35. 1. Partalarni nari-beri surdik. 2. Akbar nari-beri dars qildi. Ushbu gaplardagi nari-beri so'zi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- A. 1- gapda holat ravishi, 2-gapda o'rin ravishi
- B. Har ikkala gapda o'rin ravishi
- C. Har ikkala gapda holat ravishi
- D. 1-gapda o'rin ravishi, 2-gapda holat ravishi

36. 1. Kampir ba'zan mudrar, ba'zan o'g'li bilan nimalarnidir gaplashardi. 2. Ba'zan yaxshilik maqsadida aytilgan yolg'on so'z ham ziyon emas. Ushbu gaplardagi ba'zan so'zini izohlang.

- A. 1-gapda ravish, 2-gapda ayiruv bog'lovchisi
- B. Har ikkalisida ham ayiruv bog'lovchisi
- C. Har ikkalisida ham ravish
- D. 1-gapda ayiruv bog'lovchisi, 2-gapda ravish

## 2-variant

1. Hoshimjon maktabning nomiga e'tibor bermagan ekan. U nima qilishini bilmasdan ishlarni nomiga qilardi. Berilgan gaplardagi nomiga so'ziga qaysi javobda to'g'ri izoh berilgan?

- A. 1-gapda turlangan ot, 2-gapda ravish
- B. har ikkala gapda ham turlangan ot
- C. 1-gapda turlangan ravish, 2-gapda yasama ravish
- D. 1-gapa ravish, 2-gapda turlangan ot

2. Odamlar baravariga qarsak chalishar, Alimardonning raqibini olqishlashardi. Ushbu gapda qaysi so'z turkumga mansub yasama so'zlar mavjud?

- A. ot, fe'l
- B. ravish, fe'l
- C. ravish, ot, fe'l
- D. ot,ot,fe'l



3. Ota-bobolarimiz hamisha astoydil olg'a intilganlar. Ushbu gapda qaysi so'z turkumga mansub yasama so'zlar mavjud?

- A. payt va holat ravishlari      B. holat, o'rin va payt ravishlari  
C. o'rin va payt ravishlari      D. o'rin ravishi

4. Kunduzi o'ralashib yurganlardan qittay ham qolmagan. Ushbu gapdagi ravishlar sonini aniqlang?

- A. 1      B. 4      C. 2      D. 3

5. Qaysi egalik qo'shimchasi ravish tarkibida yaxlitlanib kelishi mumkin?

- A. II shaxs birlik qo'shimchasi  
B. III shaxs birlik qo'shimchasi  
C. I shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalari  
D. Barcha egalik qo'shimchalari

6. Qaysi qatordagi gapda -i, -si egalik qo'shimchalari o'z vazifasini yo'qotgan? 1) Kechasi yomg'ir yog'di. 2) Ona tuni bilan uxlamadi. 3) O'tgan yili hosil yaxshi bo'lgan edi.

- A. 1, 2, 3      B. 1, 2      C. 2, 3      D. 1, 3

7. Ertasiga ertalab Nayman ona yana yo'lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyotkorona o'tib, uzoq yo'l bosdi. Ushbu gaplardagi ravishlar miqdorini aniqlang.

- A. 6      B. 7      C. 8      D. 5

8. Daraja-miqdor ravishi ishtirok etmagan gapni toping.

- A. Qaddini rostlab, eshikni uzoq taqillatdi  
B. U aravani Nuriddin minganini ko'rib, xiyla yengil tortdi  
C. Kecha boshlangan yomg'ir ertalabgacha tinmay quydi  
D. Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da

9. Qaysi qatorda sifat va ravish yasovchi omonim qo'shimcha(lar) berilgan?

- A. -an, -lik      B. -siz, -in      C. -siz, -in, -lab      D. -larcha

10. Ilgari ustalar pichoqqa sop izlab, atay sayg'oq oviga chiqisharkan. Ushbu gapda ravishning ma'no jihatdan qaysi turi ifodalangan?

- A. O'rin va daraja-miqdor      B. Maqsad va holat  
C. Payt va maqsad      D. Payt va holat

11. Qaysi gapda qo'llangan sifat yasovchi qo'shimcha ham ot yasovchi, ham ravish yasovchi, ham fe'lining nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bilan shakldosh bo'la oladi?

- A. Oqsoqol kirib, yig'in boshlanganini e'lon qildi  
B. Tinmay yog'ayotgan kuzgi yomg'ir menga bolalikning olis yillarini eslatadi

C. Iltimos, ochiqroq gapirsangiz, hech narsaga tushunmayapman  
D. Shahzoda qizni o'z huzuriga yashirin yo'llar orqali olib kelishlarini buyurdi

12. Qismlari o'zaro zid ma'noli so'zlardan tuzilgan juft ravishni aniqlang.

- A. Kecha-kunduz      B. Katta-kichik  
C. Eson-omon      D. Asta-sekin

13. Ravishlar tarkibida qaysi kelishik qo'shimchalari yaxlitlanib qolishi mumkin?

- A. Jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kelishigi qo'shimchalari  
B. Tushum, jo'nalish, o'rin-payt chiqish kelishigi qo'shimchalari  
C. Qaratqich, tushum, jo'nalish, chiqish kelishigi qo'shimchalari  
D. Jo'nalish, o'rin-payt, qaratqich kelishigi qo'shimchalari

14. Qaysi qatorda sifatarning takrorlanishi bilan yasalgan ravishlar berilgan?

- A. Hali-beri, birin-ketin      B. Bosh-boshiga, gul-gul  
C. O'zidan-o'zi, birma-bir      D. To'g'ridan-to'g'ri, uzundan-uzoq

15. Qaysi so'z birikmasi tarkibida ravish o'rnida kelgan sifat mavjud?

- A. Yaxshi kiyingan      B. Tez kelmoq  
C. Ko'p odam      D. Tiniq daryo

16. Qaysi gapda sifat va ravish yasovchi hamda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar bilan omonim bo'la oladigan ot yasovchi qo'shimcha qatnashgan so'z bor?

- A. Qizcha qo'g'irchog'ini avaytab yotqizib qo'ydi  
B. Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak  
C. Sotqinlarga safimizda o'rin yo'q  
D. Ilm kelinchakka o'xshaydi: u xilvat va pinhoniyligni yoqtiradi

17. Qaysi qatorda ravish yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi omonim qo'shimchalar berilgan?

- A. -siz, -lik, -an      B. -lab, -cha, -in  
C. -cha, -an      D. Be-, -ona, -cha

18. Qaysi qatorda ravishdan yasalgan fe'l berilgan?

A. Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi  
B. Dunyoda pok odamlar qanchalik ko'paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi

- C. Bir-birimiz bilan tezda eski qadrdonlardek suhbatlashdik  
D. Bolaning yuragi hapqirib ketdi

19. Qaysi gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan ravish qatnashgan?

- A. Oz so'z - soz so'z

- B. Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o'g'lim  
C. Odamni o'rganmay turib, uning to'g'risida yomon gapirish mumkin emas  
D. Ko'pni ko'rgan qari dunyoda, Baxt axtarib ko'plar o'tdilar

20. To'sindan so'zi qaysi ravishning dialektal varianti hisoblanadi?

- A. To'satdan B. Qo'qqisdan C. Kutilmaganda D. Birdaniga

21. Yaqinda, uzoq ravishlari ravishning qaysi ma'no guruhiga mansub?

- A. O'rin B. Payt C. O'rin va payt D. Holat

22. Yaqinda keldi, yaqinda joylashgan leksemalari...

- A. Ikkita mustaqil leksema  
B. Bitta mustaqil leksema  
C. Umuman leksema emas  
D. Bular sifat turkumiga mansub bo'lgani uchun leksema hisoblanmaydi

23. Ravishlarning asos qismi qaysi so'z turkumidan bo'lishi mumkin?

- A. Ot  
B. Ot, sifat  
C. Ot, sifat, olmosh, sifatdosh  
D. Ot, sifat, olmosh, sifatdosh, ravish

24. Ravish yasovchi -larcha qo'shimchasidagi -cha qismi qaysi ko'makchi bilan sinonim bo'la oladi?

- A. Bilan B. Haqida C. Singari D. Orqali

25. Ravishlarning hosil qilinishini izohlang.

1. Tez-tez; 2. Eson-omon; 3. Avval-oxir;

A. Tez-tez bir so'z takroridan, eson-omon ma'nodosh so'zlar juftlashuvidan, avval-oxir zid ma'noli so'zlardan

B. Tez-tez, eson-omon — ma'nodosh so'zlar juftlashuvidan, avval-oxir zid ma'noli so'zlardan

C. Tez-tez, eson-omon bir so'z takroridan, avval-oxir zid ma'noli so'zlardan

D. Tez-tez, eson-omon — ma'nodosh so'zlarda juftlashuvidan, avval-oxir bir so'z takroridan

26. Atay, ataylab, qasddan, jo'rttaga ravishning qaysi ma'no guruhiga mansub?

- A. Sabab B. Maqsad C. Holat D. Miqdor-daraja

27. Asta-sekin yuradi ham yonma-yon turadi,

Qaysi oldin yuradi?

Topishmoqdagi ravishlarni ajrating.

- A. Asta-sekin, yonma-yon B. Asta-sekin, yonma-yon, qaysi  
C. Asta-sekin, yonma-yon, oldin D. Yuradi, turadi

28. Yaxshu yuvgin, yaxshi yegin, yaxshi bola, yaxshi soʻzin farqin degin. Ushbu misradagi «yaxshi» soʻzini izohlang.

- A. Birinchi va uchinchi yaxshi ravish
- B. 3 , 4 - sifat, 1, 2 - ravish
- C. Barcha «yaxshi»lar ravish soʻz turkumiga mansub
- D. 1, 2, 3 - ravish, 4 - sifat

29. Ota-onaning roziligi ummi ziyoda qiladi. Ravishning gapdagi vazifasini aniqlang.

- A. Toʻldiruvchi
- B. Aniqlovchi
- C. Hol
- D. Kesim

30. Baxtni har kim oʻzicha tushunadi. Ravish qaysi soʻz turkumidan yasalgan?

- A. Ot
- B. Olmosh
- C. Sifat
- D. Feʼl

31. Qaysi birikma tarkibida ravish oʻrnida kelgan sifat bor?

- A. Koʻp odam
- B. Tiniq daryo
- C. Yaxshi kiyingan
- D. Tez kelmoq

32. Koʻp tinglang, oz gapiring. Ravishning maʼno turini aniqlang.

- A. Sabab
- B. Miqdor-daraja
- C. Holat
- D. Oʻrin

33. Qaysi qoʻshimchalar ravish soʻz turkumi bilan omonim soʻz hosil qilishi mumkin?

- A. - lab, -cha, -larcha, -n, -in
- B. -gan, -yotgan, -cha, -larcha
- C. -moqda, -lab, -cha, -lay
- D. -cha, -digan, -chasiga

34. Archa hamisha koʻm-koʻk.

Ravishning qaysi maʼno turi qatnashgan?

- A. Payt
- B. Holat
- C. Miqdor-daraja
- D. Oʻrin

35. Oldinda, olisda, uzoqdan, yaqindan, yuqoriga, pastga. Ushbu ravishlardagi -da, -dan, -ga qoʻshimchalariga izoh bering.

- A. Kelishik qoʻshimchalari
- B. Sintaktik shakl yasovchilar
- C. Egalik qoʻshimchalari
- D. Bu qoʻshimchalar ravishning asos qismining ichiga kiradi

36. Yigitcha, xotinchacha, erkakchacha soʻzlarida urgʻu nechanchi boʻgʻinga tushadi?

- A. Birinchi boʻgʻinga
- B. Ikkinchi boʻgʻinga
- C. Uchinchi boʻgʻinga
- D. Birinchi va ikkinchi boʻgʻinga

---

---

## YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI

Yordamchi so‘zlar — leksik ma‘nosini yo‘qotib, grammatik ma‘no ifodalaydigan, ma‘lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan so‘zlar. Ular mustaqil so‘zlar bilan qo‘shimchalar oralig‘ida turgan grammatik vositalardir.

### I. Leksik belgilari:

1. Yordamchi so‘zlar lug‘aviy ma‘noga ega emas, ya‘ni tushuncha bildirmaydi.

2. Yakka holda so‘roqqa javob bo‘lmaydi.

### II. Morfologik belgilari:

Yordamchi so‘zlar o‘zgarmaydi, ya‘ni turlanmaydi, tuslanmaydi; shuningdek, yasalmaydi, yasalish uchun asos bo‘la olmaydi.

### III. Sintaktik belgisi:

Gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi.

Yordamchi so‘zlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ko‘makchi.

2. Bog‘lovchi.

3. Yuklama.

## KO‘MAKCHI

Ot, olmosh, otlashgan so‘zlar, harakat nomi, sifatodoshdan keyin kelib, ularni hokim so‘zga tobe bog‘laydigan yordamchi so‘zlarga ko‘makchi deyiladi. Demak, ko‘makchilar tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lashga xizmat qiladi. Masalan, ishlash *uchun* borgan, do‘sti *bilan* kelmoq, men *uchun* olgan.

Ko‘makchi qaysi so‘zdan keyin kelsa, o‘sha so‘z bilan birgalikda so‘roqqa javob bo‘ladi va vazifa bajaradi. Chunki ularning lug‘aviy ma‘nolari yo‘qolgan, faqat grammatik ma‘nolarigina saqlangan.

*Ko‘makchilar kelib chiqishiga ko‘ra 2 xil ho‘ladi:*

Sof ko‘makchilar — lug‘aviy ma‘nosini butunlay yo‘qotib, vazifa jihatidan kelishik qo‘shimchalariga yaqin turadigan so‘zlar: uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig‘, tufayli, haqida.

Sof ko‘makchilar urg‘u olmaydi. Urg‘u ko‘makchidan keyin kelgan mustaqil so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

Vazifadosh ko‘makchilar (yarim ko‘makchilar): gapda ba‘zan ko‘makchi, ba‘zan mustaqil so‘z bo‘lib keladi. Bulardan tomon, tashqari, bo‘yi, chamasi, holda, yo‘sinda kabilar ot turkumidan; sababli, orqali, qarshi,

chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa kabilar sifat turkumidan; qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata kabilar fe'l turkumidan; avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, buyon, asosan, binoan kabilar ravish turkumidan o'tgan so'zlardir.

Bulardan tashqari, ko'makchi otlar ham mavjud bo'lib, ular o'z lug'aviy ma'nolarini saqlagan holda ko'makchi o'rnida keladi. Bu so'zlar o'rin-payt, chiqish kelishigi va egalik qo'shimchalarini qabul qiladi: old, o'rta, yon, orqa, ich, ust, ket, tepa, ost, tag, ora, o'rin, bosh, qosh, tomon, yoqa. Bu so'zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelsa, ko'makchi ot hisoblanadi. Gulnor ota-onasining siqig'i ostida boyga turmushga chiqishga ko'nikkandir. Gulandom yer ostida ilon qimirlasa biladigan ayol. Boshqa holatlarda ular o'rin otlari hisoblanadi: stolning ustida, binoning yonida.

Vazifadosh ko'makchilar ko'maklashayotgan ot va fe'llardir. Shunga ko'ra bunday so'zlar mustaqil so'z vazifasida ham kelishi mumkin bo'ladi. Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelashtirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, Maktabga ketdi – maktab tomon ketdi. Onam uchun sovg'a oldim – onamga sovg'a oldim.

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy umumiylik bo'lsagina biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa, umumiyroq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa, bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: Qashqadaryoga ketdi – Qashqadaryo tomon (ga) ketdi.

Ko'makchi -cha, -day, -dek kabi qo'shimchalarga ma'nodosh bo'ladi: -cha chegara ma'nosini bildiradi va qadar ko'makchisiga sinonim bo'ladi: uygacha- uyga qadar, peshingacha-peshinga qadar.

-dek, -day o'xshatish ma'nosini bildiradi va kabi, singari, yanglig', misoli ko'makchilariga sinonim bo'ladi: kumushday – kumush kabi.

Ko'makchilar turlanmaydi, tuslanmaydi, yasalmaydi. Bosh, jo'nalish, chiqish, ba'zan qaratqich, kelishikdagi so'zlar bilan birga keladi, ammo tushum, o'rin-payt qo'shimchalari bilan turlangan ismlarga bo'g'lanmaydi:

#### **I. Bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:**

Bilan – birgalik, vosita, qurol, tez boshlanish, payt, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi. Bu ko'makchi badiiy uslubda birlan, birla, ila, -la shaklida uchraydi.

Uchun – maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini bildiradi. Badiiy uslubda -chun shaklida ishlatiladi: sen-chun.

**Kabi, singari, misoli, yanglig'** – sinonim ko'makchilar. Ular o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini bildiradi.

**Sayin** – payt ma'nosini; **sari** – yo'nalish; **orqali** – vosita; **chog'li, chamasi** – chama, taxmin; **sababli, tufayli** – sabab; **asha, bo'ylab** – makon; **bo'yicha** – moslik, mulanosiblik; **uzra** – sath bo'ylab yo'nalish; **to'g'risida, haqida** – fikr qaratilgan predmet ma'nolarini bildiradi.

Misollar: Komila bilan teatrga bordik. Kitob bilan do'st tutindim. Qizil ruchka bilan yozdi. Kechasi bilan kitob o'qib chiqdi. Chet elga ishlash uchun ketdi. Onam uchun sovg'a oldim. Tashrifingiz uchun minnatdorman.

Qor yog'adi paxta kabi oq, Par to'shakday, momiqday yumshoq.

Kelinposhsha uyalgan kabi boshini quyi egdi. Ishlar xamirdan qil sug'urgan singari oson bitdi. Iqtidorli yoshlarimiz yil sayin ortib bormoqda. Kelajak sari olg'a intilishadi. Majlisga yigirma chog'li odam qatnashdi. Tog' uzra quyoshning zarrin nurlari tarala boshladi.

## II. Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan keladigan ko'makchilar:

**Tomon** – yo'nalish (bu so'z bosh kelishik bilan ham keladi); **qadar** – chegara, makon; **ko'ra** – sabab, ayirish, ta'kidlash; **qarab** – yo'nalish, o'lchov; **qaraganda** – ayirib ko'rsatish, ta'kidlash; **qaramasdan, qaramay** – to'siqsizlik; **yarasha** – teng, mos, loyiq; **doir** – aloqadorlik, bog'liqlik; **asosan, binoan, muvofiq** – ish-harakatning sodir bo'lishiga asos bo'lgan obyekt; **qarata** – ish-harakat yo'nalgan predmet, shaxs, joy, tomon ma'nolarini bildiradi.

Misollar: Azimjon maktab tomon yo'l oldi. Mehmonlar kechga tomon kirib kelishdi. Men shu vaqtga qadar bunaqa tomoshani ko'rmagan edim. Nosirali tizzasiga qadar loyga botgan edi. Zamiraning ko'ngli bir qadar hotirjam bo'ldi. Sudda shu sabablarga ko'ra ish ko'rildi. Sanamjon opasidan ko'ra ko'hliroq edi. Davron tubanlikka qarab borayotganini hali anglamas edi. Cho'ntagingga qarab ishlat, yana uyalib qolmagin. Mish-mishlarga qaraganda yana bozorda narx-navo oshadi. Dehqonlar ob-havoning sovuqligiga qaramasdan ishni boshlab yubordilar. Toirjon xizmatiga yarasha mukofotga ega bo'ldi. Ular fanga doir masalada gaplashishdi. Talablarga binoan yana bitta qo'shiq eshitildi.

## III. Chiqish kelishigidagi so'zlar bilan keladigan ko'makchilar:

**So'ng, keyin, burun, ilgari, oldin, avval, beri, buyon** ko'makchilari – payt; **boshqa, tashqari, bo'lak, o'zga** – mustasnoqlik; **nari/ nariga** – chegara; **boshlab** – harakatning boshlanish nuqtasi, **tortib** – harakatning boshlanish o'rnini kabi ma'nolarni bildiradi.

Misollar: Aziza boshiga ish tushgandan so'ng buni anglab yetdi. Peshindan keyin uchrashadigan bo'ldik. Bu do'stim bilan sen tug'ilmasingdan burun tanishganmiz. Dunyoda o'yin-kulgidan boshqa narsalar ham bor. Yig'ilishga Anvardan bo'lak hamma o'z vaqtida yetib keldi. Sharifjon Ozodadan o'zga qizni xayoliga keltirolmas edi. Bugundan boshlab hamma o'z vaqtida yetib

kelsin. Kechadan buyon yomg'ir tinmadi. Hovli tozalashdan tortib, ko'chalarni supurishgacha uning o'zi bajarardi.

**IV. Qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan keladigan ko'makchilar: ust, ost, old-** o'rin yoki payt kabi ma'nolarni bildiradi. Bular belgisiz qaratqich shaklida ham qo'llana oladi.

**Eslatma:** ko'makchilarning ma'no turi maktab va litsey darsliklarida batafsil berilmagan, ammo test sinovlarida qo'l keladi degan umidda yuqoridagi ma'no izohlarida oliy ta'lim dasturidan foydalandik. Chunki birgina ko'makchi turli gapda har xil ma'no anglatishi mumkin. Qiyoslang: Bolaning usti loy edi. (ot) Yozuvchi hikoya ustida uzoq o'tirdi. (ko'makchi)

Ko'makchilarning ma'no turlari. (7-sinf)

**Maqsad:** sababli, tufayli, uchun.

**Yo'nalish:** tomon, qarab sari, bo'ylab.

**Fikr mavzusi:** haqida, to'g'risida.

**O'xshatish-qiyoslash:** kabi, singari.

**Chegara:** qadar.

**Ko'makchilar kelishik qo'shimchalariga sinonim bo'la oladi:**

Qalamda yozdi – Qalam bilan yozdi.

Onamga oldim – Onam uchun oldim.

Telefonda gaplashdi - Telefon orqali gaplashdi.

Yo'ldan ketdi – Yo'l bo'ylab ketdi.

Kelajakka intildi- Kelajak sari intildi.

Kinoni gapirdi – Kino haqida gapirdi.

Ba'zan ko'makchilarning **-day, -dek** yasovchi qo'shimchalarga ma'nodoshligini ham kuzatish mumkin: Shunday kishilar bor. – Shu kabi kishilar bor.

**Ko'makchi-bog'lovchilar: bilan, deb, deya**

## **Ko'makchining grammatik tahlili**

1. Ko'makchi. 2. Sof yoki vazifadosh. 3. Qaysi kelishikdagi so'z bilan kelgan? 4. Gapda o'zi bog'lagan so'z bilan qanday sintaktik vazifada kelgan?

**Namuna:** Anvarda Ra'no haqida ikki og'iz so'z eshitish orzusi kuchli edi.

Haqida – ko'makchi, sof, bosh kelishikdagi so'z bilan birga kelgan, so'zga fikr qaratilgan mavzu ma'nosini qo'shyapti. Gapda Ra'no haqida – to'ldiruvchi (kim haqida?) vazifasini bajargan.

**Topshiriq:**

**1. Ajarlab ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.**

1. Avval o'yla, keyin so'yla. 2. Bu kitob qo'lga tushgandan keyin bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi. 3. Siz bilan hamsuhbat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim. 4. Devor usti yomg'irdan uviy boshladi. 5. Kitob ustida uzoq ishladi.



## **2. Ko'makchilarni tahlil qiling.**

1. Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi... Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko'rinmas, fikr-tuyg'u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinardi.

1. Barchasidan qovun soz, Paykal uzra dumalar. 2. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklikning ayni o'zidir. 3. Qalam-lamen to'qiyman qo'shiq, U – insonga, elgaxizmatim. 4. Abdulla Ori povga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

1. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. 2. Insonning fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi. 3. To'ydan keyin nog'ora chalmoq nodonlar ishi. 4. Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi. 5. Donolar oldida doim eshitguvchi bo'l.

### **3. Sof va vazifadosh ko'makchilarga ajrating.**

Bilan, sari, kabi, tomon, uchun, ko'ra, bo'ylab, keyin, haqida, sababli, ichida, oldida, to'g'risida, qadar, qarab, qarshi, tufayli, sayin.

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi qaysi qo'shimchalarni ko'makchilar bilan almashtirish mumkin? Daftaringizga yozing.

1. Ark suv quygandek jimjit. 2. Shunday yashar – sokin, bezavol, Pastakkina tandiri bilan, Katta uyda kichkina bir chol, Kichkina bir kampiri bilan. 3. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalarida suv yaltiraydi. 4. – Ko'rmaysizmi, chaqaloq tinchimaypti. O'zim itday charchaganman.

2. Berilgan ko'makchilarning qaysi kelishik shakllaridagi ismlar bilan qo'llanilishini aniqlang.

Namuna: sen bilan – olmosh+ sof ko'makchi, bosh kelishik.

Oy kabi, gul singari, o'qish uchun, borgan sari, o'qigan sayin, daryo bo'ylab, aytishiga ko'ra, shunga qaramay, mehnatiga yarasha, qarorga asosan, hayotga doir, o'qishdan so'ng, tushdan keyin, va'daga muvofiq, bundan bo'lak.

## **BOG'LOVCHI**

Bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklari va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lovchi yordamchi so'zlardir. Masalan, Karim va Nodir birga maktabga ketishdi gapida va bog'lovchisi uyushiq bo'laklarni bog'lagan. Qo'ng'iroq chalindi va dars boshtandi gapida va bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lagan.

Bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydi va leksik ma'noga ega emas.

## Bog'lovchilar (qo'llanishiga ko'ra)

### Yakka:

va, hamda, ammo, lekin, biroq,  
chunki, holbuki, vaholanki, yoki, yohud.  
yo, gar, agar, agarda, basharti, garchi,  
go'yo, go'yoki, -ki, -kim, zero, zotan.

### Takror:

goh..., goh, dam..., dam,  
ba'zan..., ba'zan, xoh..., xoh.  
bir..., bir, yoki..., yoki, yo..., yo.

Takroriy bog'lovchilarning ayrimlari faqat takrorlangandagina bog'lovchi bo'la oladi. Yakka qo'llanganda so'z turkumlaridan birortasiga taalluqli bo'ladi. Masalan, bir – son, ham – yuklama, ba'zan – ravish. O'shanda ham imorat xolos-da gapida ham yuklama. Ham takrorlanib, uyushiq bo'lakdan so'ng kelganda yuklama hisoblanadi: Nodira tinimsiz so'zlar, menga ham, o'ziga ham tasalli berar edi. (ham – yuklama). Ham uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, bog'lovchi hisoblanadi. Ham hayotiy, ham siyosiy jumboqlar uni gangitib qo'yadi. Ham qo'shma gap tarkibida sodda gaplarni bog'lab kelsa, bog'lovchi hisoblanadi: Uyim sotilmadi ham yerim o'zimga qoldi (ham – bog'lovchi). Demak, yuqoridagi xususiyatiga ko'ra bog'lovchilar 2 turga bo'linadi:

1. **Sof bog'lovchilar.** Ular faqat bog'lovchi vazifasini bajaradi: va, ammo, lekin, chunki.

2. **Vazifadosh bog'lovchilar.** Ular bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasini bajaradi: ham, na-na, -u (-yu), -da, balki.

## Bog'lovchilar (vazifasiga ko'ra):

Teng  
bog'lovchilar

Ergashtiruvchi  
bog'lovchilar

### Teng bog'lovchilar

1. Gapning uyushiq bo'laklarini bog'laydi. Majlis uzoq va davomli bo'ldi.
2. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog'laydi. Havo bulut bo'ldi, ammo yomg'ir yog'madi.

Shu bilan birga teng bog'lovchilar o'zi bog'layotgan bo'lak orasidagi mazmuniy munosabatni ro'yobga chiqaradi va 4 turga bo'linadi:

**1. Biriktiruv bog'lovchilari: va, hamda. Bilan ko'makchisi, ham, -u, -yu, -da yuklamalari biriktiruv bog'lovchisi vazifasini bajarishi mumkin.** Masalan, *Seni ham olib ketmoqchimiz gapida* ham yuklama, *Qo'rqaman ham bilгим keladi gapida* ham bog'lovchi. Sen bilan suhbatlashmoqchiman gapida bilan ko'makchi, *Sug'diyona bilan Soliha yaqin dugona gapida* bilan bog'lovchi. **Bilan bog'lovchisi fe'l kesimlarni bog'lamaydi.**

**Va bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi gaplarni bir-biriga bog'laganda:**  
**a) bir vaqtda bo'lgan voqea-hodisani ko'rsatadi:** Ularning bellari toldi va qo'llari og'ridi. **b) ish-harakatning ketma-ket bo'lganini ko'rsatadi:** Bahor keldi va butun borliq ko'm-ko'k libosga burkandi.

**2. Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, -a, -u, -yu, -da yuklamalari zidlov bog'lovchisi vazifasini bajarishi mumkin.** Avtobus kelib to'xtadi, lekin Noibaning qorasi ko'rinmasdi. Lekin bog'lovchisiga **ammo, biroq, holbuki** bog'lovchilari sinonim bo'ladi. Kumushbibining bo'yi ham onasiga yetayozgan, ammo (biroq, lekin, holbuki) jussasi onasiga ko'ra to'laroq edi. **Ammo, lekin** bog'lovchilari ustma-ust ishlatilishi mumkin. Shuningdek, ular zidlov bog'lovchisi vazifasida kelgan **-u, -yu, -da** dan keyin ham qo'llanishi mumkin: *U va'dani berdi-yu, lekin bajarmadi.* «a» bog'lovchisi og'zaki nutqda va badiiy uslubda ishlatiladi, qiyoslash, zidlash munosabatlarini ifodalaydi: *Salimjon mening yaqin o'rtog'im, juda epchil, kotletni u pishirsin-da, a (lekin) o'zimizning taomlarni do'ndirib tashlaydi.*

**Balki so'zi aslida modal (gumon ma'nosini bildirib, vergul bilan ajratilganda), biroq zidlov munosabatli qo'shma gapning 2-gapi boshida kelsa, bog'lovchi hisoblanadi:** *Bu jarang- jurung ovozlar uning g'ashini keltirmas, balki xayolini chalg'itib, unga orom bag'ishlardi.*

**3. Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, yohud, yoinki, goh..., goh, dam...dam, ba'zan...ba'zan, yo.....yo, yoki... yoki, xoh... xoh.** Bu bog'lovchilardan yo, yoki, yohud, yoinki, yo...yo ish-harakat, voqea-hodisaning biri amalga oshishini bildiradi: *Yo o'qi, yo ishga kir. Goh... goh, dam...dam, bir...bir, ba'zan...ba'zan* bog'lovchilari esa **galma-gallik, almashinib turish ma'nolarini** bildiradi: *Goh quyosh chiqadi, goh yomg'ir yog'adi.*

**Ba'zan ayiruv bog'lovchisi o'rmda -mi yuklamasi qo'llanishi mumkin:** *Dadam ishgami, bozorgami* ketibdilar.

**4. Inkor bog'lovchisi. Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'laydigan na..., na... yordamchisi inkor bog'lovchisi hisoblanadi.** Bunda gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi:

**Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitiladi.**

**Eslatma: Gapning kesimi bo'lishsiz shaklda bo'lsa, na...na yuklama hisoblanadi.**

## Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi tobe gapni bosh gapga tobe qilib, ergashtirib bog'laydi: chunki, shuning uchun, agar, agarda, garchi, basharti, go'yo, go'yoki, ya'ni, -ki, -kim, zero, zotan.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Aniqlov bog'lovchilari:** *ya'ni, toki*. U bosh gapda ifodalangan fikrni aniqlab, izohlab ko'rsatadi. *-ki, -kim* yuklamalari bog'lovchi vazifasini bajarishi mumkin: Bilib qo'yki, seni vatan kutadi. *-ki* qo'shma gap tarkibidagi bosh gapning kesimiga bog'langan bo'lsa, bog'lovchi hisoblanadi. Shuni aytmoqchimanki, men sen bilan ortiq do'st bo'la olmayman. Sodda gapda ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, ayirish ma'nolarini bildirganda yuklama hisoblanadi: Har yigitlarki bir-biridan chiroyli.

2. **Sabab bog'lovchilari:** *chunki, negaki, zero, zero, zotan*. Sabab ergash gapli qo'shma gaplarni bosh gapga bog'laydi. Bolalar uyga yo'l olishdi, chunki hamma darslar tugadi. Ozoda xafa bo'lib qoldi, negaki dugonasi uni aldadi.

3. **Shart bog'lovchilari:** *agar, gar, agarda, garchi, basharti, mabodo*. Shart va to'siqsiz ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi. Bordi-yu so'zi shart bog'lovchisi bo'lib kelishi mumkin. Bordi-yu bu rejamiz amalga oshmasa, biz yon bergan bo'lamiz. Agar shikoyating qabul qilinmas ekan, undan voz kech.

## Bog'lovchilarning uslubiy xususiyatlari

Bog'lovchilar bir-biridan uslubiy xoslanishga egaligi bilan farq qiladi.

**Biriktiruv bog'lovchi** sifatida **oddiy so'zlashuv** uslubida ko'proq bilan (minan) ko'makchisi ishlatiladi. **Va, ham, hamda** yordamchilari esa, **yozma nutq** uslublari uchun xoslangan.

**Zidlov bog'lovchisi** sifatida **so'zlashuv uslub** uchun *ammo, lekin* bog'lovchilarining birikkan holda *ammo-lekin* (ammolek) shakli ko'proq ishlatiladi. Lekin bog'lovchisining *lek, vale* (valekin) shakllari ham **badiiy uslub** uchun xoslangan.

**Ayiruv bog'lovchilaridan yoxud, yoinki yozma nutq uslub** (publitsistik, badiiy uslub) dagina qo'llaniladi. **Aniqlov bog'lovchilari faqat yozma nutq** uslubida qo'llaniladi.

**Sabab bog'lovchilaridan chunki, shu sabab, shu tufayli ko'proq yozma nutq uslubida** qo'llaniladi.

**Shart bog'lovchilaridan garchi yozma nutq uslub** uchun xoslangan. **Chog'ishtiruv bog'lovchilaridan xuddi uslubiy betaraf, go'yo yozma nutq** uchun xoslangan.

**Bilan ko'makchisi ba'zan uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganda bog'lovchi** vazifasini bajaradi. Masalan, Qalam bilan daftar oldim. O'zaro tobe **bog'lanuvchi** so'zlarni bog'lab kelganda **ko'makchi** vazifasini bajaradi. Masalan, Qalam bilan yozdim.

## Bog'lovchining grammatik tahlili

1. Bog'lovchi. 2. Sof yoki vazifadosh. 3. Qo'llanish turi (yakka, takror).
4. Ma'no hamda vazifa turi (teng, ergashtiruvchi, ularning turi). 5. Nimani bog'lagan?

*Namuna: Yo hushingiz joyida emas, yoki siz o'zingizni ovsar qilib ko'rsatyapsiz.*

Yo...yoki... – bog'lovchi, sof bog'lovchi, takror, teng bog'lovchi, ayiruv bog'lovchi, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'layapti.

### Topshiriq:

#### 1. Bilan bog'lovchi vazifasida kelgan o'rinlarni aniqlang.

1. Millat tushunchasi hamisha Vatan bilan yonma-yondir, misoli jism-u jondir. 2. Endi buva bilan nevara teng odamday gaplashishadi. 3. Odam odam bilan tirik. 4. Yer bilan suv egizak, bir-birisiz yashay olmaydi. 5. Eshon bilan Kifoyatxon qulay bir joyni topib, bularni kuzatishardi.

#### 2. Bog'lovchilarni tahlil qiling.

1. Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirdan yoki tengdoshdan. 2. Nozimaxon goh mashinkasini, goh tikuv mashinasini yurguzib allamahalgacha ishlab o'tiribdi. 3. Matniyoz xotini nima desa shuni qilardi-yu, lekin ich-ichidan unga achinib qo'yardi. 4. Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra.

2. 1. Mamlakatimizda bayramlar ko'p, lekin Navro'zning tarovati, shukuhi o'zgacha. 2. Ma'nisiz hayot kechirish yomon turmush kechirish degani emas, ammo sekin-asta o'lish demakdir. 3. Yo'qchilik g'ayratli, ishchan odamning eshigidan mo'ralaydi-yu, ichkariga kira olmaydi.

3. 1. Bo'rondan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko'paydi. 2. Xalqni qo'rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir. 3. Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi. 4. Balki ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyyotgandir.

#### 3. Sof va vazifadosh bog'lovchilarni ajrating.

1. Mushuk yarmi qizil, yarmi sariq koptokni u yoqdan bu yoqqa dumalatish bilan ovora edi. 2. Goh jahлга minsam-da sal, Ichim to'la mehr, qizim. Goh sal qo'pol, goh sal dag'al Dadajoning kechir, qizim. 3. U chiroqni o'chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko'nglidagi g'ulg'ula kuchayib ketaverdi. 4. Boyvachcha yer o'pib, tavba qilibdi va keksa ota-onasini rozi qilish uchun o'sha zahoti ularning huzuriga shoshilibdi.

2. 1. Tan olaman, tergovchi janoblari, berishadi-yu, lekin nima sababdan bu ishni qilganimni daftaringizga qayd qilib qo'ysangiz. 2. Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko'rishmaydi? 3. Ayniqsa, uning odob va axloq haqidagi «Turkiy Guliston» asari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. 4. Kuyuk saksovulzor duch kelishi bilan kiyikcha o'zini shu panohgohga urdi-yu, arang jon saqlab qoldi.

3. Qaysi gaplarda na ... na yordamchisi bog'lovchi, qaysi gaplarda yuklama vazifasida kelganligini aniqlang.

1. Sharifning haqiqat ufurib turgan gaplariga qarshi na Nozima bir narsa deya oldi, na Nabijon. 2. Bepoyon dasht bag'riga yashiringan chashmani na Qahramon, na Bahrom topa oldi. 3. Sen na boy erursan va na kambag'al, Yashaysan bir-biring aldab galma-gal. 4. Hamid yaratmoqchi bo'lgan yangi paxta navi haqida hozircha na institut direktoriga, na do'sti Umidga hech narsa dedi.

#### 4. Bog'lovchilarni turlarga ajrating.

Hamda, biroq, va, yo...yo, garchi, chunki, ammo, ham, dam...dam, lekin, basharti, biroq, yoki, agar, goh ...goh, ya'ni.

## YUKLAMA

Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no qo'shadigan yordamchi so'zlarga yuklama deyiladi. Yuklamalar so'zga yoki gapga qo'shilib, *so'roq*, *taajjub*, *ta'kid*, *ayiruv*, *chegaralash*, *kuchaytirish*, *inkor* kabi ma'nolarni bildiradi:

U sengagina emas, menga ham qadrdon edi. (ayirish ma'nosi)

Yoshlik chog'larimiz yodingdami? (so'roq ma'nosi)

Juda katta-ku (taajjub ma'nosi)

Eslatma: yuklamalar urg'u olmaydi.

### Yuklamalar tuzilishiga ko'ra

#### Affiks yuklamalar:

-mi, -chi, -a, -ya, -da, -u, -yu,  
-ku, -oq, -yoq, -ki, (-kim),  
-gina, -kina, -qin

#### So'z yuklamalar:

faqat, ham, axir, hatto, hattoki,  
nahotki, xuddi, go'yo, go'yoki  
naq, hech, sira.

### Yuklamalarning ma'no turlari

1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya.

**-mi yuklamasi:**

– *so'roq ma'nosini bildiradi:* Bordimi?

– *taajjub bildiradi:* Men ishlarmishmanmi?

Bu yuklama so'zga qo'shib yoziladi.

**-chi yuklamasi:**

– *so'roq bildiradi:* Biz-chi?

– *buyruq, do'q, iltimos, istak ma'nolarini bildiradi:* Qani aytib ko'r-chi!

Daftaringni berib tur-chi.

Bu yuklama o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

-a, -ya yuklamasi:

– so'roq ma'nosini bildiradi: Yo'l juda olis ekan-a?

– his-hayajon ma'nosini bildiradi: Qanday rohatbaxsh manzara-ya?

– taajjub ma'nosini bildiradi: Yosh bolaga o'xshaysan-a?

Bu yuklama o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq, -yoq, -ki, -kim, ham, hattoki, nahotki, g'irt: Sen-ku kelding-a, Ravshan kelmadi-da.

-u, -yu, -ku, -da yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi. Ba'zan bu yuklamalar bog'lovchi, ya'ni biriktiruv va zidlov bog'lovchilari vazifasini bajarishi mumkin.

Ham yuklamasi qisqargan shaklda ishlatilishi mumkin: Bu ishning amalga oshishiga ishonmayman qo'ydim. Menam borarman.

-da yuklamasi ham yuklamasiga sinonim bo'ladi: Hali o'quvchi bo'lsa-da, kattalarday fikrlaydi. Hali o'quvchi bo'lsa ham, kattalarday fikrlaydi.

Axir, hatto, hattoki, nahotki yuklamalari kuchaytiruv, ta'kid, taajjub ma'nolarini bildiradi: Axir, sizga aytdimku, hormayman deb. Nahotki tushunmasangiz.

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: -gina, -kina, -qina, faqat: Tadbirga faqat qizlar qatnashadi. Vazifani Asrorgina to'g'ri bajaribdi.

Faqat, -gina yuklamalari birgalikda ishlatilishi mumkin: Uy ishini faqatgina Shahzod bajargan. Ma'no kuchayadi.

Faqat yuklamasi o'rnida yolg'iz so'zi ishlatilishi mumkin. Yolg'iz sen sinfni orqaga tortayapsan.

-gina, -kina, -qina yuklamalari so'zga qo'shib yoziladi.

Faqat – sof yuklama, -gina (kichraytirish-erkalash qo'shimchasi) – vazifadosh yuklama.

1. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari – go'yo, go'yoki, xuddi, naq. Naq gumbazday keladi. Bo'lib go'yo yoqut piyola.

2. Gumon yuklamasi: -dir. Qayerdandir gumburlagan ovoz eshitildi.

3. Inkor yuklamalari: hech, sira, na. Na takrorlanib ishlatiladi. Na uyda topolaman, na ishda.

Yuklamalarning qanday ma'no guruhlariga bo'linishini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin.

Yuklamalar-ning ma'no turlari	So'roq va taajjub	Kuchaytiruv va ta'kid	Ayiruv-chegaralov	Gumon yuklamasi	Inkor yuklamasi
Yuklamalar	-mi, -chi, -a, (-ya)	-ku, -u (-yu) -da, -oq (-yoq), ham, hatto	-gina (-kina, -qina), faqat	-dir	na...na

## Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari

Yuqorida keltirilgan yuklamalardan **-ku, na...na** yuklamalari **yoзма nutq uslub**i uchun xoslangan bo'lsa, qolganlari **uslubiy betaraf** yuklamalar sanaladi.

**Ham yuklamasi** bog'lovchi vazifasida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda qaysi vazifada (yuklama yoki bog'lovchi vazifasida) kelayotganligini farqlash kerak bo'ladi.

Ikki o'zaro teng munosabatga kirishgan so'zlarni bog'lab, va bog'lovchisi bilan almashtirish mumkin bo'lsa, **ham bog'lovchi** vazifasida qo'llangan bo'ladi. **Ham** yordamchisi qo'llanilgan jumla tarkibiga **hatto** yordamchisini ham qo'llash mumkin bo'lsa, ham yordamchisi **yuklama** vazifasida, ya'ni o'z vazifasida qo'llanilgan bo'ladi. Solishtiring: Nabi ham Salim keldi. **Hatto** Salim ham keldi.

Yuklamalardan **-mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq)** o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoziladi. Qolganlari o'zi birikib kelayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Ko'p o'rinda bir yuklamaning o'rnida ikkinchisini almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, Faqat (yolg'iz) Nazira kelmadi.

**-gina (-kina, -qina)** shakllari **ot, sifat, ravishga** qo'shilib, ma'noni kuchaytirish, erkalash ta'kidlash uchun ishlatiladi. Masalan, qizgina, ukaginar, yaxshigina, sekingina, ko'pgina, ozzgina...

## Yuklama tahlili

1. Yuklama. 2. So'z yoki qo'shimcha. 3. Sof yoki vazifadosh. 4. Ma'no turi: gumon, kuchaytiruv-ta'kid, o'xshatish, ayiruv-chegaralov, so'roq-taajjub.

Namuna: Sen mehmonga borasanmi?

-mi yuklama, qo'shimcha yuklama, sof yuklama, so'roq yuklama.

**Topshiriq:**

**1. Yuklamalarni tahlil qiling.**

1. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyr gurullab ketdi. 2. Biladilar-da, bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a! 3. Mana endi daradan chiqar-chiqmas, uning isitmasi ko'tarilib, ko'z oldini g'alati tuman qoplab oldi-yu, hamma narsa tushday tuyula boshladi. 4. Men-ku yolg'iz edim, na otam, na onam, na oilam bor... 5. Na so'ngiga yetoldi ishning, Na dunyoni anglab ulgurdi. 6. Dunyoga to'zg'iding bamisoli par, Na saljuq, na Chingiz qildi shafqat.

2. 1. Ayt-chi, go'zal Sanobar, Qayer sening makoning? 2. Faqat ojjiz qalamim manim, O'zbekiston — Vatanim manim. 3. Ona zaminda o'sadigan mevali, manzarali dov-daraxtlar, o'simliklar hayot uchun, inson salomatligi uchun naqadar zarur. Ularning shifobaxshligi-chi? 4. Qarshiligi ko'rinib



turibdi-ku! Bu qarshilik emasmi? 5. Nahotki, sezmasangiz? Axir, bir oydirki, yurak -bag'rim yonadi.

## 2. Yuklamalarni ma'no turlarini aniqlang.

-mi, faqat, bilan, va, -ku, hatto, ya'ni, -a (-ya), hamda, ham, nahot, -chi, -da, uchun, tomon, -yu, barcha, ammo, goh, lekin, yoki, biroq.

## 3. Yuklamarni grammatik tahlil qiling.

1. I. Men bor-ku! – deb qichqirdi Akbarali kulib. 2. Bola-chaqa omon ekanmi? 3. Nega yo'q bo'larkan? Muattar Zokirovna-chi? Lobarxon-chi? 4. – Ba'zan ko'cha-ko'yda ham bir narsalarni topib oladi-ya. – Bekor yurmay deydi-da! 5. Xatini ham ololdingizmi? – dedi va sabrsizlanib Sodiqning og'ziga tikildi.

## 2. Hatto it urishsa zirqirar qalbim,

Odam odam payin qirqmoq bo'lsa-chi?

So'zsiz qichqiraman, nega tug'ildim,

Quloqlarim batang bo'lib qolsa-chi!

O'rtada bo'lsin deb qadr ham izzat,

Ayriliq va o'lim yaralganmi yo?

Shunda ham tantilik qilib tabiat,

Buyuk bir aqlni bergan-ku, ammo

Shu aql tantana qilar, azizim,

Tantana qiladi shafqat va vijdon.

## 4. Yordamchi so'zlarni aniqlang.

So'z yoki so'zlar orqali ifoda etiladigan fikr gapdir. Boshqacha aytganda, uni mantiq ipigatizilgan so'zlar marjoni deyish ham mumkin. Bu marjon mazmun yuzakiligi yoki teranligiga qarab, ko'zmunchoqlar tizimi yoki bir shoda marvarid ham bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish ham lozimki, eng qadimgi turkiy so'zlar qisqa, lo'nda – bir bo'g'inli bo'lgan: bosh, qosh, ko'z, qo'l, kul, bor, yot, o't va hokazo. Boshqacha aytganda, ajdodlarimiz bir so'z ila fikrni to'la ifodalay olganlar va bu xislat biz, avlodlarga to hanzur meros bo'lib kelayotir. Masalan, «kel» buyruqdan tashqari, o'zi tomonga chorlash ma'nosini ifodalasa, «ket» o'zidan uzoqlashtirish ma'nosini bildirilgan.

Xuddi so'z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o'miga qarab ma'nolari ko'p.

## Yordamchi so'z turkumi bo'yicha test topshiriqlari

### I-variant

1. Qaysi qatorda bilan so'zi ko'makchi vazifasida qo'llangan?

A. Do'st bilan dushmanning farqiga bormagan bola edi

B. Ruboiy bilan tuyuqning nima farqi bor?

C. Nodira qizi bilan o'g'lini uyda qoldirdi

D. Aql birla qul bo'lmish ozod

2. Maqsad ma'nosini anglatgan uchun ko'makchisi qatnashgan gapni toping.

- A. Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetga burdi
- B. Daftarni ukam uchun keltirdim
- C. G'o'za erta ekilgani uchun hosil mo'l bo'ldi
- D. Yig'ilish uchun imkon yaralmadi

3. Yuklamalarning qaysi tur(lar)i vazifadosh bog'lovchi bo'lib kelishi mumkin?

- A. ta'kid va inkor B. ta'kid
- C. ta'kid, ayiruv-chegaralov, inkor
- D. ta'kid va ayiruv-chegaralov

4. Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p xislatlarga ega bo'lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi... Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko'rinmas, fikr-u tuyg'u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinardi.

Ushbu parchada yordamchi so'z turkumlariga xos birliklar qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A. ko'makchi - 5 ta, bog'lovchi - 1 ta, yuklama - 1 ta
- B. ko'makchi - 4 ta, bog'lovchi - 2 ta, yuklama - 1ta
- C. ko'makchi - 4 ta, bog'lovchi - 1 ta, yuklama - 2 ta
- D. ko'makchi - 5 ta, bog'lovchi - 2 ta, yuklama - 1ta

5. Qaysi gapda qo'llangan sifat yasovchi qo'shimcha ham ot yasovchi, ham ravish yasovchi, ham fe'ning nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bilan shakldosh bo'la oladi?

- A. Oqsoqol kirib, yig'in boshlanganini e'lon qildi
- B. Shahzoda qizni o'z huzuriga yashirin yo'llar orqali olib kelishlarini buyurdi
- C. Tinmay yo'g'ayotgan kuzgi yomg'ir menga bolalikning olis yillarini eslatadi.
- D. Iltimos, ochiqroq gapirsangiz, hech narsaga tushunmayapman.

6. Qaysi javobda faqat ergashtiruvchi bog'lovchilar berilgan?

- A. shuning uchun, hamda, ya'ni, ham
- B. balki, chunki, bilan, va
- C. hamda, bilan, chunki, agar
- D. negaki, basharti, garchi, agar

7. Vazifadosh bog'lovchilar yana qanday vazifada kelishi mumkin?

- 1) ko'makchi; 2) yuklama; 3) modal so'z; 4) undov so'z
- A. 1 B. 1, 2 C. 1, 2, 3, 4 D. 1, 2, 3

8. Qaysi qatorda ko'makchilarga xos xususiyat no'to'g'ri izohlangan?

A. ko'makchilar ravishdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi

B. ko'makchilar harakat nomidan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi

C. ko'makchilar olmoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi

D. ko'makchilar sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi

9. Vazifadosh ko'makchilar qaysi qatorda keltirilgan?

A. ko'ra, old, qadar      B. oldin, bilan, uchun

C. atab, ust, avval      D. uzra, deb, qarab

10. Vazifadosh bog'lovchi sifatida ham qo'llanuvchi so'zlar qatorini aniqlang.

A. bilan, ham, balki

B. bilan, ham, na... -u(-yu), -da, ba'zan

C. ham, na... -u(-yu), -da, balki, bir...bir

D. bilan, balki, balki

11. Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p xislatlarga ega bo'lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi... Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko'rinmas, fikr-u tuyg'u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinadi.

Ushbu parchada yordamchi so'z turkumlariga xos birliklar nechta?

A. 9      B. 7      C. 6      D. 8

12. «bilan» so'zi bog'lovchi o'rnida ishlatilgan gapni toping.

A. Ishchi bilan dehqonning mehnati teng emas

B. Abror otasining so'zi bilan hushiga keldi

C. Aql bilan qul bo'lar ozod

D. Lobar bilan Buxoroda tanishgan edim

13. qo'lla, qo'l-la, kelib-la ketibdi. Ushbu so'zlardagi -la qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

A. 1- lug'aviy shakl yasovchi, 2,3 - so'z yasovchi

B. 1 - so'z yasovchi, 2,3 - lug'aviy shakl yasovchi

C. 1- so'z yasovchi, 2 - lug'aviy shakl yasovchi, 3- yuklama

D. 1 - so'z yasovchi, 2- bilan ko'makchisi, 3 - oq-yoq yuklamasining ma'nodoshi

14. Qaysi gapda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar ishtirok etgan?

A. Mustaqillik seni hayotim bilan ham, san'atim bilan ham she'rim bilan ham asrayman

B. O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim vazirligi shunchalik bakalavr emas, balki qo'sh ixtisoslikni ko'zda tutgan bakalavr mutaxassis zarurligini hisobga olish va barcha hujjatlarni shu yo'nalishga moslashtirish kerak

C. Ipak kiyim-kechak dazmollanmasligi ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomondan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib qizimagan dazmol bilan dazmollanadi

D. Ayol va ijod tushunchalari ayol va bahor kabi bir-biriga yaqin, uyg'un

15. Qaysi javobda faqat ergashtiruvchi bog'lovchilar berilgan?

A. negaki, basharti, garchi, agar

B. balki, chunki, bilan, va

C. shuning uchun, hamda, ya'ni, ham

D. hamda, bilan, chunki, agar

16. Qaysi qatorda vazifadosh ko'makchilar berilgan ?

A. so'ng, qarab, orqali, sari

B. ust, oldin, avval, qosh

C. ost, ro'para, bilan, kabi

D. avval, qadar, bo'ylab, deb

17. Qaysi gapda yuklama odatiy o'rinda qo'llanmagan?

A. Yo zardo'zi to'ning to'zibmi qoldi,

Yoki so'kildimi suvsar telpaging

B. Ayt-chi, go'zal Sanobar,

Qayer sening makoning?

C. Yupanch topdingmi dunyoga kelib,

Ustoz yo shogirdan yoki tengdoshdan

D. Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitilmadi.

18. Qaysi qatorda bog'lovchi-yuklama berilgan qatorni toping.

A. hamda

B. ham ... ham

C. deb

D. bilan

19. Vazifadosh bog'lovchi qaysi gapda qo'llangan?

A. Badiya bilan Ma'suma beka arava tagiga kirib yashirinshdi

B. Kun isishi bilan daraxtlar kurtak yoza boshladi

C. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir

D. Sen ham shunga ishonibsan-a?

20. Yasama ravishlarni toping.

A. Do'stona, saharlab, yangicha

B. mardlarcha, ustma-ust

S. jirkanch, galma-gal, aqlan D. Aslo, sira, bemalol

21. 1. Nigora yigitga ma'noli qarab gapirdi.

2. Yigit otasiga qarab yura boshladi.

3. Mardon olislarga qarab turardi.

Ushbu gaplar tarkibida berilgan qarab so'zi haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

A. 1-gapda mustaqil fe'l, 2- va 3-gaplarda ko'makchi  
B. 1- va 2-gaplarda ko'makchi, 3-gapda qo'shma fe'l tarkibida kelgan yetakchi fe'l

C. 1-gapda mustaqil fe'l, 2-gapda ko'makchi, 3-gapda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l

D. 1- va 2-gaplarda mustaqil fe'l, 3-gapda ko'makchi

22. Quyidagi qaysi gapda sof ko'makchi ishtirok etmagan?

A. Barchasidan qovun soz, paykal uzra dumalar.

B. Salima kitob ustida uzoq ishladi

C. A'zamjon qilmishi uchun undan uzr so'radi

D. Temur tig'i yetmagan joyni, Qalam bilan oldi Alisher

23. Yuklamalarning qaysi turlari faqat so'z yuklamalardan iborat?

A. so'roq-taajjub, kuchaytiruv- ta'kid

B. inkor, ayiruv-chegaralov

C. o'xshatish-qiyoslash, inkor

D. ayiruv-chegaralov, gumon

24. Qaysi gapda ustida so'zi ko'makchi vazifasida qo'llangan?

A. Kitob stolning ustida turibdi

B. Lolalar qirning ustida ochilgan

C. U kechgacha ish ustida o'tirdi

D. Qo'ng'iz yaproqning ustida o'rmalardi

25. Qaysi gapda yuklama ishtirok etgan?

A. Bu, shubhasiz, bizning yutug'imiz

B. Hattoki ish shu qadar jiddiy bo'ldi

C. Yana boplab ta'ziringni beradigan bo'ldim, shekilli

D. Ko'zlarimga surtmog'im kerak

26. Vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan gapni toping.

A. Avval o'yla, keyin so'yla

B. Bu kitob qo'lga tushgandan keyin bosh ko'tarolmay mutolaaga tushdi

C. Ish bilan ovora bo'lib, kunning o'tganini ham sezmay qolasan

D. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg'oq bo'lmog'i darkor

27. She'riy asarlarda uchraydigan bilan va uchun ko'makchilari o'mida ishlatiladigan -la , -chun shakllari qanday yoziladi?

A. -la shakli so'zga qo'shib, -chun shakli ajratilib yoziladi

B. O'zi birikib kelgan so'zga qo'shib yoziladi

C. O'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi

D. O'zi birikib kelgan so'zdan keyin chiziqcha bilan yoziladi

28. Vazifadosh modal so'zlar berilgan javobni belgilang.

- A. albatta, afsuski, taxminan, aftidan  
 B. aftidan, attang, taxminan, umuman  
 C. albatta, afsuski, taxminan, umuman  
 D. taxminan, aftidan, albatta, afsuski
29. Qaysi gapda vazifadosh bog'lovchi ishtirok etmagan?  
 A. Choy qaynatib ichishni-da unutdi  
 B. Bulut bo'ldi-da, yomg'ir yog'madi  
 C. Birrov kirdi-da, chiqib ketdi  
 D. ... chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi
30. Quyidagi modal so'zlar ichidan vazifadoshlarini ajrating.  
 1) Balki; 2) chamasi; 3) albatta; 4) shekilli; 5) ehtimol; 6) xullas;  
 7) afsuski; 8) aftidan  
 A. 1, 3, 4, 6    B. 5, 6, 7, 8    C. 2, 6, 7, 8    D. 1, 2, 5, 8
31. Yuklama qatnashgan gapni toping.  
 A. Ahmad bu gapni sira kutmagandi, tok urgandek eti jimirlashib ketdi  
 B. Bu xabar unda hech qanday norozilik tug'dirmadi  
 C. Vatanimiz poytaxtida, ya'ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p  
 D. Abdumalik ota nevaralarim yeyishar deb, bahorda ko'chat ekadi
32. Ko'makchilar vazifasiga ko'ra qaysi birliklarga o'xshash?  
 A. Nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalarga    B. Kelishik qo'shimchalarga  
 C. To'liqsiz fe'llarga    D. Ko'makchi fe'llarga
33. Qaysi qatorda sof ko'makchilar berilgan?  
 A. so'ng, ko'ra    B. qadar, uchun  
 C. oldin, avval    D. ich, ost
34. Faqat sof ko'makchilar berilgan qatorni toping.  
 A. Kabi, bo'ylab, muvofiq    B. uchun, doir, so'ng  
 C. Sari, yarasha, tomon    D. qadar, singari, uchun
35. Ko'makchi ishtirok etgan gapni toping.  
 A. Kasbim sharofati-la qaysi jumlangiz yolg'on ekanini gapingiz ohangidan bilib olaman  
 B. Bu xitobni eshitgan hech bir odam undan bo'yin tovlashni o'ziga munosib bilmaydi-da  
 C. Barcha gaplarda ko'makchi ishtirok etgan  
 D. O'zga yurtlarning behisob mo'jizalarini ko'pchilik ko'rgan, ammo hech kim ularga mahliyo bo'lib o'z yurtini unutib qo'ygan emas-ku?!
36. Qaysi so'z turkumiga kiruvchi so'zlardan keyin yozuvda vergul qo'yiladi?  
 A. Maqsad bog'lovchisi, modal so'zlar, yuklamalar  
 B. Undov so'zlar, modal so'zlar, yuklama, bog'lovchilar

C. Undov soʻzlar, modal soʻzlar

D. Sabab bogʻlovchisi, undov soʻzlar, modal soʻzlar

## 2-variant

1. Qaysi bogʻlovchilardan oldin yozuvda vergul qoʻyiladi?

A. Sabab bogʻlovchilari, takror qoʻllanuvchi ayiruv bogʻlovchilari, zidlov bogʻlovchilari, aniqlov bogʻlovchisi

B. Biriktiruv bogʻlovchilari, inkor bogʻlovchisi, sabab bogʻlovchilari

C. Biriktiruv bogʻlovchilaridan tashqari, hamma bogʻlovchilar

D. Sabab bogʻlovchilari, biriktiruv bogʻlovchilari, shart bogʻlovchilari, inkor bogʻlovchisi

2. Qaysi gapda teng bogʻlovchi qoʻllangan?

A. Haqiqat tikanli gulga oʻxshaydi, shuning uchun ham, u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi

B. Barcha gaplarda teng bogʻlovchi mavjud

C. Menga Pushkin bir jahon-u,

Menga Bayron bir jahon,

Lek Navoiydek bobom bor,

Koʻksim osmon oʻzbekim

D. El netib topgay menikim,

Gar oʻzimni topmasam

3. Javoblarning qaysi birida kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari berilgan?

A. Hatto, ham

B. faqat, -oq (-yoq)

C. -da, -gina (-kina, -qina)

D. -ku, -dir

4. Koʻmakchilarga xos xususiyatlar qaysi qatorda notoʻgʻri izohlangan?

A. Koʻmakchilar olmoshlardan keyin kelib, ularni hokim soʻzga bogʻlash uchun xizmat qiladi

B. Koʻmakchilar harakat nomidan keyin kelib, ularni hokim soʻzga bogʻlash uchun xizmat qiladi

C. Koʻmakchilar sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim soʻzga bogʻlash uchun xizmat qiladi

D. Koʻmakchilar ravishdoshlardan keyin kelib, ularni hokim soʻzga bogʻlash uchun xizmat qiladi

5. Sari, sayin kabi koʻmakchilar qaysi kelishik shaklidagi soʻzlarga qoʻshiladi?

A. qaratqich kelishik

B. chiqish kelishik

C. bosh kelishik

D. joʻnalish kelishik

6. Quyidagi koʻmakchilardan qaysilari oʻzlari birikib kelgan soʻzlardan joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi (-ga) ni qabul qilishni talab qiladi?

- A. tashqari, bo'lak  
C. asosan, binoan
- B. avval, orqali  
D. haqida, chamasi

7. Qaysi javobda bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga 2 tadan misol keltirilgan?

- A. nahotki, negaki, sayin, atigi, hamda, uzra  
B. nahotki, basharti, qadar, agar, hatto, faqat  
C. nahotki, hatto, sayin, ya'ni, tufayli, uzra  
D. nahotki, basharti, misoli, ya'ni, tufayli, uzra

8. Zeroki bog'lovchisi bog'lovchilarning qaysi turiga mansub?

- A. sabab bog'lovchisi  
B. zidlov bog'lovchisi  
C. ayiruv bog'lovchisi  
D. aniqlov bog'lovchisi

9. Ko'makchi vazifasida keladigan ravishdoshlar qaysi qatorda berilgan?

- A. yon, uch  
B. ost, ust  
C. oldin, avval  
D. ko'ra, o'xshab

10. Quyidagi modal so'zlar ichidan vazifadoshlarini ajrating.

- 1) balki; 2) chamasi; 3) albatta; 4) shekilli; 5) ehtimol; 6) xullas;  
7) afsuski; 8) aftidan
- A. 1, 2, 5, 8  
B. 5, 6, 7, 8  
C. 2, 6, 7, 8  
D. 1, 3, 4, 6

11. Qaysi gapda vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan?

A. Onasidan mash'um xabarni eshitgandan boshlab tinmay yig'ladi, suyaklariga qadar zirqirab og'riydi

B. Adirdagi lolalar ko'm-ko'k maysa uzra chiroy kasb etgan

C. Ukasining mantig'i qarshisida Hakimboyvachcha ham esankirab qoldi (Oybek)

D. Siz haqingizda ko'p yaxshi gaplar bo'ldi

12. Gaplarning qaysi birida yuklama ishtirok etgan?

A. Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol

B. Nihoyat, unday inson ham ko'rindi

C. Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruratdir

D. U o'z ishini sira vaqtida qilmaydi

13. Qaysi qatorda vazifadosh ko'makchi otlashgan so'zdan keyin qo'llangan?

A. Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqat yotadi

B. To'ydan keyin nog'ora chalmoq - nodonlar ishi

C. Insonning fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi

D. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas

14. Qanday so'zlar vazifadosh bog'lovchilar bo'lishi mumkin?



- 1) ko'makchilar; 2) yuklamalar; 3) modal so'zlar; 4) taqlid so'zlar;  
5) bog'lovchilar  
A. 1, 2, 3, 4    B. 1, 2, 3, 4, 5    C. 1, 2    D. 1, 2, 3

15. Faqat vazifadosh ko'makchilar berilgan javobni toping.

- A. kabi, singari, yanglig' zero    B. bilan, uchun, sari, sayin  
C. ustida, ichida, qoshida, tomon    D. ila, mabodo, nainki, nechun

16. Qiyoslash ma'nosiga ega bo'lgan ko'makchini aniqlang.

- A. bilan    B. singari    C. orqali    D. bo'yicha

17. Qaysi qatorda bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadigan ko'makchi berilgan?

- A. qarata    B. tashqari    C. chog'li    D. yarasha

18. Qaysi qatorda ergashtiruvchi bog'lovchi berilgan ?

- A. ham, hamda, va    B. bilan, uchun, sari  
C. balki, -u, -da    D. chunki, agar, -ki

19. Qaysi qatorga bog'lovchi bor?

- A. Adham bilan Karim bizni ko'rgani kelishdi  
B. U ko'pdan beri biron bilan gaplashmagan  
C. Tog'a atrofni o'raganlarga jahl bilan qaradi  
D. Ikromjon g'ayritabiiy intilish bilan bir oyoqlab o'midan turib ketdi

20. Ayiruv bog'lovchilari qaysi qatorga to'g'ri qo'llanga?

- A. Hatto o'z ko'zi bilan ko'rmagan tavsilotlar ham ko'rinib ketdi ko'ziga  
B. Goh yomg'ir, goh qor yog'adi  
C. Lekin Azimjon payqadiki, boboning o'zi uxlayotgani yo'q  
D. U hadeb u yoqdan-bu yoqqa ag'darilaverdi

21. Sabab bog'lovchisini toping

- A. chunon, nega    B. chunki, negaki  
C. chunonchi, negadir    D. chunonam, hech

22. Julqunboy ... A. Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisidir.

Ko'p nuqta o'miga qaysi bog'lovchi qo'yiladi?

- A. hamda    B. va    C. bilan    D. ya'ni

23. Axir, faqat dalalarda ish boshlanadi-ku!

Gapda nechta yuklama bor?

- A. 2 ta    B. 3 ta    C. 4 ta    D. 5 ta

24. 1. nahotki 2. axir 3. hatto 4. g'irt 5. xuddi 6. naq

Bulardan qaysi biri yuklama hisoblanadi?

- A. barchasi    B. 1,2,3,4    C. 1,3,5    D. 2,4,6

25. Bilasizmi, siz bilan biz bir ariqdan suv ichamiz-a?

Ushbu gapda mustaqil so'z turkumiga kirmaydigan nechta birlik mavjud?

- A. 2ta      B. 4ta      C. 3ta      D. 1ta

26. Qaysi qatordagi ko'makchi chiqish kelishigidagi so'z bilan birga qo'llanadi?

- A. yarasha, qarab      B. bilan, uchun  
C. sari, qaraganda      D. keyin, tortib

27. Na ...na bog'lovchi qo'llangan gaplarning kesimi qanday shaklda bo'ladi?

- A. bo'lishli shaklda      B. barcha javob to'g'ri  
C. bo'lishsiz shaklda      D. o'rni bilan bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda

28. Qaysi qatorda vazifadosh bog'lovchi bor?

- A. Olim kishilar har yerda hurmatli va azizdir  
B. Kun ilishi bilan daraxtlar kurtak yoza boshladi  
C. Sen ham, men ham shunga ishonibmiz-a?  
D. Badia bilan Ma'suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi

29. Gumon yuklamasi qo'llanmagan qatorni toping

- A. Suv hayot manbaidir  
B. U sizni yo'qlab kelgandir  
C. Barcha gaplarda gumon yuklamasi qo'llangan  
D. Urug'ingdir, aymog'ingdir, biror og'zi maymog'ingdir

30. Quyidagi gapda na so'zi qanday gap bo'laklarini bog'lashga xizmat qilgan?

Avvalo shuki, kovush tikishga na charim bor, na sirach, na mix, na lok  
A. ega      B. kesim      C. ega, to'ldiruvchi      D. to'ldiruvchi

31. Qaysi qatordagi gapda vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan?

- A. Bu kitob qo'lga tushgandan keyin, bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi  
B. Avval o'yla, keyin so'yla  
C. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan uyg'oq bo'lmog'i darkor  
D. Ish bilan ovora bo'lib, kunnig o'tkanini ham sezmay qolasan

32. Vazifadosh bog'lovchi berilgan qatorni toping

- A. Xalqni qo'rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir  
B. Nega endi natijaga balto berishadi-yu, sababini tekshirib ko'rishmaydi  
C. Barcha gaplarda vazifadosh ko'makchi qo'llangan  
D. Onam bilan men ertalab yo'lga chiqdik

33. Qaysi qatorda faqat kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi berilgan?

- A. -da, -u, -yu, axir, faqat      B. -ki, -chi, -a, sira  
C. hatto, -ku, ham, nahotki      D. -oq(-yoq), -dir, ham, xuddi

34. Qaysi gapda uchta o'rinda yordamchi so'z turkumiga oid birliklar qo'llangan?

A. Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirdan, yoki tengdoshdan

B. Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra

C. berilgan barcha gaplarda

D. Bildilar-da bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a

35. Qaysi qatorda vazifadosh ko'makchi ishtirok etmagan?

A. To'g'ri so'z o'z egasini najot sari yetaklaydi

B. Gap futbol o'yini ustida ketardi

C. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas

D. Orqadan chuqur soy oqardi.

36. Qaysi gapda zidlov bog'lovchisi vazifasidagi so'z qo'llangan?

A. Bo'rondan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko'paydi

B. U turmushidan, o'tgan umridan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmasdi

C. Berilgan barcha gaplarda

D. Ma'nisiz hayot kechirish yomon turmush kechirish degani emas, ammo sekin-asta o'lish demakdir

---

---

## ALOHIDA SO‘ZLAR GURUHI

### MODAL SO‘ZLAR

So‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini bildirgan so‘zlarga modal so‘zlar deyiladi. Ular *fikrning chinligi, aniqligi, xatoligi, gumontligi, chamali ekanligi kabi ma‘nolarni bildiradi*: Yana ta‘zirini yeydi, shekilli. Aftidan, bunday gaplarni eshitaverib eti qotib ketgan. O‘ylasam, albatta, achinaman.

Belgilari:

1. Modal so‘zlarning turli modal ma‘nolarni ifodalashi ularning leksik belgisidir.

2. Modal so‘zlarning o‘zgarماسligi uning morfologik belgisidir. Modal so‘zlar turlanmaydi, tuslanmaydi, morfemalarga ajralmaydi. Masalan, shubhasiz, so‘zsiz so‘zlari aslida sifat. Ular keyinchalik modal so‘zga o‘tgan. Ular modal so‘z hisoblanganda bu so‘zlarni o‘zak va qo‘shimchaga ajratish mumkin emas.

3. Gapning biror bo‘lagi bo‘la olmasligi, **kirish so‘z** yoki **so‘z-gap** bo‘lib kelishi **sintaktik belgisidir**.

Eslatma: Maktab va litse darsliklarida bu mavzu batafsil yoritilmagani sababli modal so‘zlarning ma‘nolarini birmuncha kengroq berishni lozim topdik.

Modal so‘zlar ma‘no jihatidan quyidagicha guruhlanadi:

I. **Fikrning aniqligini bildiruvchi modal so‘zlar**:

1. **Fikrning rostligi tasdiqlanadi**: darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatan ham, filhaqiqat (eskirgan), nafsambiriga (iste‘moldan chiqib bormoqda), muhaqqaq, voqean (eski lug‘aviy birlik).

2. **Fikrning qat‘iyligi ta‘kidlanadi**: shubhasiz, so‘zsiz, shaksiz.

3. **Ishonch bildiradi**: albatta.

4. Anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiyligini bildiradi: tabiiy, o‘z-o‘zidan.

5. **Fikrning chinligi eslatiladi**: rostdan ham, darvoqe, aslida, asli, aslan.

II. **Fikrning noaniqligini bildiruvchi modal so‘zlar**:

1. **Fikrning taxminiyligini bildiradi**: shekilli, chog‘i, chamasi.

2. **Gumon bildiradi**: ehtimol, balki.

3. **Tusmol bildiradi**: hoynahoy, aftidan, mazmuni.

4. **Fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradi**: har qalay, har holda.

III. **Xulosa bildiruvchi modal so‘zlar**: demak, xususan, masalan, aksincha, jumladan, xullas, chunonchi, binobarin.

IV. **Afsuslanishni ifodalovchi modal so‘zlar**: afsus, attang, esiz, ajabo.

V. **Tartibni ko'rsatuvchi modal so'zlar:** avvalo, dastlab, qolaversa, birinchidan, ikkinchidan, oxiri, nihoyat.

VI. **Zaruriyatni ifodalovchi modal so'zlar:** kerak, lozim, zarur, mumkin, darkor, shart.

VII. **Mavjudlik, mavjud emaslikni bildiruvchi modal so'zlar:** bor, yo'q.

VIII. **Fikrning dalillanishi:** masalan, jumladan.

IX. **Quvonch:** hayriyat.

*Modal so'zlar ikkiga bo'linadi:*

1. **Sof modal so'zlar** (faqat modal ma'no uchun xoslangan so'zlar : *xullas, demak, haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, koshki, masalan* kabilar)

2. **Vazifadosh modal so'zlar** (o'rni bilan modal so'z, o'rni bilan mustaqil so'z bo'lib keladi:

so'z'siz, aftidan, tabiiy, chamasi, balki, umuman, ehtimol, taxminan, shubhasiz kabilar

*Qiyoslang:* To'g'ri yo'lda ikkita yengil mashina ketayotgan edi.

To'g'ri, yo'lda ikkita yengil mashina ketayotgan edi.

Birinci gapda to'g'ri sifat, ikkinchi gapda to'g'ri modal so'z hisoblanadi.

Bunday so'zlar modal so'z bo'lib kelganda yozuvda vergul bilan ajratiladi.

Modal so'zlar gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmaydi, odatda, butun gapga taalluqli bo'ladi. Gap bo'lagi vazifasida kelmaydi. Modal so'zlar **kirish so'z** yoki **so'z-gap bo'lib kelishi** mumkin:

– Bizning kasbimiz og'ir, shunday emasmi?

– Albatta. (Modal so'z **so'z-gap bo'lib kelgan**).

– Bizning kasbimiz og'ir, shunday emasmi?

– Albatta, shunday. (Modal so'z **kirish so'z bo'lib kelgan**).

Fikrning aniqligini ifodalovchi modal so'zlar nutq oqimida pauza bilan, yozuvda esa vergul bilan ajratiladi: Shubhasiz, bizga ilmiy yoshlar kerak. (1-gapda modal-kirish so'z). Bizga ilmiy yoshlar kerakligi shubhasiz. (2-gapda sifat-kesim)

Modal so'zlarning ko'pchiligi mustaqil so'z turkumlaridan o'sib chiqqan:

– otdan: ehtimol, haqiqatan, darhaqiqat, darvoqe, filhaqiqat, aslida, aftidan, mazmuni;

– sifatdan: to'g'ri, so'z'siz, shubhasiz, muhaqqaq;

– ravishdan: albatta;

– bog'lovchidan: balki.

## **Modal so'zlarning uslubiyoti**

So'zlashuv jarayonida **albatta, shubhasiz, ehtimol** singari so'zlarni ko'p eshitasiz, lekin bunday so'zlar borliqdagi narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlarni nomlamaydi. Shu bilan birgalikda yordamchi so'zlarga o'xshab

sof grammatik ma'no ham ifodalamaydi. Bunday soʻzlar bildirilayotgan axborotga soʻzlovchining tasdiq, ishonch, gumon kabi munosabatlarini bildiradi.

Akademik litsey darsliklarida modal soʻzlarning ma'no tasnifi quyidagicha guruhlangan:

Tasdiqni bildiruvchi modal soʻzlar	Taxmin va gumonni bildiruvchi modal soʻzlar	Afsus va ajablanishni bildiruvchi modal soʻzlar	Fikrning tartibini bildiruvchi modal soʻzlar	Umumlashtiruvchi, yakunlashtiruvchi modal soʻzlar
Albatta, haqiqatan, darhaqiqat, soʻzsiz, shubhasiz	Ehtimol, chamasi, aftidan, shekilli	Attang, afsuski, ajabo	Avvalo, jumladan, masalan	Xullas, demak, umuman

### Modal soʻzlarning grammatik tahlili

1. Modal. 2. Ma'no turi. 3. Sof yoki vazifadosh. 4. Gapdagi vazifasi.

1. Avvalo, insonning qalbi goʻzal boʻlmogʻi kerak.

Avvalo - modal soʻz, fikr tartibi, sof modal soʻz, gapda kirish soʻz.

2. Aftidan, Gʻulomjon bu gʻalvalarni ataylab boshlagan.

Aftidan - modal soʻz, fikrga gumon, vazifadosh, gapda kirish soʻz.

**Topshiriq:**

1. Modal soʻzlarni tahlil qiling.

1. I. Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, muz tobora yupqalashib bordi-yu, nihoyat, qoyatoshlar chekinib, yaylov koʻrindi. 2. Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi, ibratli ertak oʻytab topib, buvisiga soʻzlab beradigan boʻlibdi. 3. Kattasi ham uygʻonib ketdi, shekilli, qoʻshilishib yigʻlashga tushdi. 4. Ehtimol, ertalab oʻziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir. 5. Toʻgʻri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin, chamasi, kursdoshlar orasida yolgʻizlanib qolish, ming bir taʼnalarni eshitishdan ham qoʻrqdim, shekilli.

2. Modal soʻzlarni topib izohlang.

Attang, faqat, birdan, aftidan, qoʻqqisdan, haqiqatan, essiz, nahotki, nihoyat, xayriyat, xullas, hatto, masalan, biroq, ehtimol, umuman.

3. Modal soʻzlarni tahlil qiling.

1. I. Darhaqiqat, siz toʻgʻri ish qildingiz. Avvalo, insonning qalbi goʻzal boʻlmogʻi kerak. 2. Afsuski, besh qoʻl barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi. 3. Ularga qarshi kurashish hammamizning burchimiz, albatta. 4. Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytmoqda. 5. Xullas, biz ulugʻ odamlarning farzandlarimiz.

2. I. Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi.  
2. Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi.  
3. - Opangiz «Ukam qaynanasini boqib yotibdi» deb o'ylaydi, shekilli-da!  
4. Lekin Me'morning, avvalo, raiyat, qolaversa, saltanat oldidagi mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi. 5. Yomg'ir yog'yapti, shekilli, deb o'ylab, boshini ichiga tiqib, yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog'idan tutib xaltaga solaman.

#### **4. Ajratilgan so'zlar qanday ma'nolarda qo'llanganini tushuntiring.**

1. Bo'ron bo'lishi ehtimol, qizim. Ehtimol, bu onasidan yagona esdalik.  
2. Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga. Gulchehraning chamasi to'g'ri chiqdi. 3. Onajonim, balki, bir kun Men ham shoir bo'larinan. U nafaqat kattalarga, balki kichiklarga ham shunday muomalada bo'lar edi. 4. Aftidan, G'ulomjon bu g'alvalarni ataylab boshlagan. Uning «ko'cha bolasi» ekanligini aftidan bilib olish qiyin emas edi.

#### **5. Sof va vazifadosh modal so'zlarni ajrating.**

1. Haqiqatan ham, ko'rshapalaklar qushlar bilan hayvonlar orasidagi jonivorlardir. 2. Xullas, shunday edi olam va ishlar Seni tanimagan paytlar. (Asqad Muxtor) 3. Darhaqiqat, chang-to'zon ancha narilab, Karki tomonga ketardi. 4. Me'morning xayol surib giyohvandlardek qotib qolganini ko'rgan Xorunbek ... bu, ehtimol, achchiq alamning oqibaidir deb o'ylardi. 5. Uning oldida bakni qaynatishyapti, shekilli, bak karmayidan qizil alanga chiqib qolardi. 6. Amakimning farzandi bo'lmagani uchun otam meni amakimga o'g'il qilib bergan. Bu, taxminan, 3-4 yoshlarimda bo'lsa kerak.

#### **6. Modal so'zlarni ajrating.**

Ammo, hamisha, avvalo, so'ng, afsus, shubhasiz, noiloj, albatta, taxminan, balki, ehtimol, biroq, birdan, aftidan, masalan, darhaqiqat.

## **UNDOV SO'ZLAR**

**Undov so'zlar his-hayajon, haydash-chaqirish, buyruq-xitobni bildiradi.**

Undov so'zlar mustaqil so'z turkumlari hamda yordamchi so'z turkumlari ega bo'lgan xususiyatlarga ega emas. Ular turlanmaydi, tuslanmaydi, maxsus qo'shimchalari yo'q, atab ko'rsatmaydi.

**Undovlar mustaqil leksik ma'noga ega emas. Ular gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydi, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi.** Shuning uchun undov so'zlar gapping boshqa bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi: *Eh, kech qolibman!*

Undovlar otlashishi mumkin. Bu vaqtda barcha otlashgan so'zlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi: Ohimni falakka chiqardi. Oh, urarman, oh urarman ohlarim ursin seni. Undov so'zlar otlashganda ega, qaratqich aniqlovchi yoki to'ldiruvchi bo'la oladi.

Sof undovlar egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini olmaydi. Gapda

vazifa bajarilmaydi. Undov soʻzlar gapda kirish soʻz boʻlib kelishi mumkin. Baʼzan undov soʻzlar gap oxirida kelib, kesim vazifasini bajarishi mumkin: Endi bu ishning oxiri voy.

Undov soʻzlar yakka holda, juft holda, takror holda qoʻllanadi: oh, e, eh, uh, uf, voy, salom, balli, barakalla kabilar yakka undovlarga, oh-voh, voy-boʻy, voy-dod kabilar juft undovlarga, oh-oh, voh-voh, voy-voy, tu-tu-tu, qurey-qurey kabilar takror undovlarga misol boʻladi. Undov soʻzlar juftlashganda, takrorlanganda chiziqcha bilan yoziladi.

Boshqa soʻz turkumlaridan undov soʻzlarni yasab boʻlmaydi. Lekin undov soʻzlardan feʼl va ot yasash mumkin: oh+lamoq, voy-voy+lamoq, haybarakalla+chi.

Undov soʻzlar maʼno jihatidan ikki turga boʻlinadi.

1. His-hayajon undovlari: e, eh, uh, uf, oh, voy, ...

2. Buyruq-xitob undovlari: tu-tu-tu, dir, hoʻk, xoʻsh-xoʻsh, chux, kisht, pisth, dirr, hey, tiss, hu, huv, hov, xoʻsh, allo...

**Eslatma:** Yuqoridagi tasnifdan tashqari, nutqiy odat undovlari ham mavjud: salom, assalomu alaykum, xayr, marhabo, marhamat, hormang, rahmat, qulluq, balli, barakalla, ofarin, shukur, bor boʻling, esonmisiz, omonmisiz.

His-hayajon undovlari insonning turli ichki his-tuygʻularini: quvonch, erkalash, rohatlanish, hayron qolish, norozilik, gʻazab, nafrat, ogʻriq kabilarni bildiradi.

(Oʻquvchiga kengpoq tushuncha berish maqsadida, undovning quyidagi turlarini qoʻshimcha maʼlumot tarzida berishni lozim koʻrdik.)

1. *Shafqat, mehribonlik*: iye, o, voy-ey, eh, voy. Iye, bu yerlarda nima qilib yuribsiz?

2. *Sevinch, xursandchilik, zavqlanish, havas*: voy, ho, oʻh-hoʻ, ehe, e. Oʻh-hoʻ, ismimni unutmabsiz. Ho, muncha noz qilmasangiz!

3. *Qoyil qolish, ragʻbatlantirish*: hay-hay, voy, ehe. Voy, buncha suluv boʻlmasangiz!

4. *Mamnuniyat, faxrlanish, magʻrurlanish*: e-ha, eh, ehe, oʻxoʻ, voy, oʻ.

5. *Undash, ogohlantirish, tasdiq*: hay-hay, ha.

6. *Eʼtiroz, norozilik, shikoyat, zorlanish*: ha, ho, voy, oh, obbo, oʻh.

7. *Jirkinish, nafratlanish, gʻazab*: e, he, o.

8. *Achinish, afsuslanish*: he, eh, oʻoʻ, oh.

9. *Kinoya, kesatq, koyish*: obbo, ehe, hay-hay, e, ha.

10. *Choʻchish, vahima, qoʻrquv*: voy, voy-ey, e, o.

11. *Ajablanish, hayrat*: voy, e-e, bay-bay, iye-voy, iyi, ura.

Baʼzan boshqa soʻzlar ham undov soʻzlarga koʻchishi mumkin: kel, yasha, horma, bor-e (feʼl), qani (olmosh). Kel, shu masalani ham yechib qoʻyaylik.

His-hayajon undovlari koʻproq soʻzlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi.



Buyruq-xitob undovlari kishilar diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish, to'xtatish uchun qo'llanadi. Bu undov so'zlar odatda **deb, degan** so'zlari bilan qo'llanib, gapda ko'pincha hol, ba'zan **aniqlovchi** bo'lib keladi: Anora kis-kis-kis deb mushukchasini chaqirdi gapida kis-kis-kis deb qay holda? so'rog'iga javob bo'lib, gapda hol bo'lib kelgan. Turdali amakining query-qurey degan ovozi eshitildi gapida qurey-qurey degan qanday? so'rog'iga javob bo'lib, aniqlovchi bo'lib kelgan.

Undovlar **undalma, so'z-gap** sifatida ishlatilishi mumkin: Hoy, og'zingni yum! Ey, qachongacha bunday xo'raysiz?

**Buyruq-xitob undovlari ikki xil bo'ladi:**

1. *Odamlarga qaratilgan undovlar:* hoy, oy, hey, allo, ey, ma, tiss, jim, marsh. Bulardan tiss, tishsh, jim, marsh undovlari buyruq-xitob ma'nolarini bildiradi.

2. *Hayvonlarga qaratilgan undovlar:* beh-beh, kisht, tu-tu-tu, dirr kabi.

Yuqoridagilardan tashqari, undovlarning ko'rsatish, ta'kid ma'nosini bildiruvchi alohida guruhi ham mavjud: hu, huv, hov, xo'sh, a, labbay, ha-ha-ha-ha.

## Undov so'zlar uslubiyoti

Undov so'zlar ham modal so'zlar kabi qo'shimchalar olib o'zgar olmaydi. Masalan, hoy so'zi kelishik, egalik qo'shimchalari olmaydi. Unga yasovchi qo'shimchalar qo'shilib yangi so'z yasalmaydi.

Ayrim undov so'zlar otlashganda, ya'ni ot vazifasida qo'llanganda, egalik qo'shimchasini olishi mumkin. Masalan, *Ohi falakka yetdi. Bu o'rinda ohi nimasi so'rog'iga javob bo'lib, oh deyishning, nola qilishning nomini bildirib kelyapti.*

Undovlar boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Ba'zan kishilarning undov so'zlar orqali ifodalagan his-hayajonini, buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov so'zlarga **demoq, solmoq, urmoq, tortmoq** singari fe'llar qo'shilib keladi va qo'shma fe'llar hosil bo'ladi: *voy demoq, dod solmoq, oh urmoq, oh tortmoq, pisht demoq* kabi.

Undovlar undov ohangi bilan ajralib turadi, lekin undov ohangi xilma-xildir. Bir undov so'z turli ohang bilan talaffuz qilinib, turli xil ma'nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, *Hay-hay, qanday mazali (rohatlanish, zavqlanish); Hay-hay, tegma (buyurish); Hay-hay, yigitlar bu yoqqa! (undash, ta'kidlash); Hay-hay, shakkoklik qilmang (fikrdan qaytarish) va boshq.*

Nutq jarayonida so'zlovchilarning yoshi, amali nuqtayi nazaridan undovlardan foydalanish ham ma'lum darajada farq qiladi. Xususan, o'zidan katta yoshdagilarga murojaat qilinganda yoki ma'lum lavozimni egallagan shaxslarga uning qo'l ostida ishlayotgan shaxslar hoy deb murojaat etmaydi yoki balli undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yoki qilayotgan

ishlaridan mamnunligini ifodalash, ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan kattalarning ishlariga nisbatan bunday undov orqali baho berilmaydi.

Shuningdek, undovlar og'zaki so'zlashuv, badiiy, qisman publitsistik uslubda keng qo'llanilib, rasmiy va ilmiy uslubda qo'llanilish doirasi cheklangan. Ba'zan xat janrida, ma'lum voqea-hodisalar bayoni yuzasidan o'zaro maktublarda yoki ishqiy maktublarda, undovlar qo'llanilishi mumkin. **Rasmiy doiralarning xatlarida undovlar qo'llanilmaydi.** Sababi rasmiy doiralarning xatlari har qanday ehtirolardan holi bo'ladi.

## Undov so'zlarning grammatik tahlili

1. Undov. 2. His-hayajon/ buyruq-xitob. 3. Otlashgan/ otlashmaganligi. 4. Gapdagi vazifasi.

1. Voy-bo', — deb yubordi u.

Voy-bo' — undov, his-hayajon, otlashmagan, so'z-gap.

2. Hay-hayi yo'q, Qori aka! — dedi mirshab.

Hay-hay — undov, buyruq-xitob, otlashgan, III shaxs egalik, birlik, ega.

1. Keksalarning oh-vohi eshitildi.

Oh-vohi — undov, his-hayajon, otlashgan, III shaxs egalik, birlik, bosh kelishik, gapda ega.

2. Hay, menga qara.

Hay — undov, buyruq-xitob, otlashmagan, kirish so'z.

Topshiriq:

1. Undovlarni tahlil qiling.

1. 1. Dastlab ular Umidjonni ko'rganda pisandsiz: «E, bu mishiqli bola-ku», — deyishar, biroq uning ertaklarini eshitgach, «Yo'q, bu bola emas, dunyo ko'rgan chol ekan», — deya tan berib ketisharkan. 2. Abduqodir «tss» deb barmog'ini labiga qo'ydi. 3. -Xo'sh, ishlar yaxshimi, Hotamjon? — so'radi Mirsidiq aravacha yonida bitta-bitta odim bosib borishar ekan. 4. Faryodim, fig'onim butun bir jahon, Ey muhtaram shoir, izladim, keldim. 5. Voy, shoshmang, diydorginasiga bir to'yvohay.

2. 1. — Hay, shoshma, — dedi Zebi. 2. Hoy, nima balo bo'ldi? — deb alangladi Inoyat oqsoqol. 3. Voy, nimalarni o'ylayapman men? 4. Oho, jiyaningiz vazir bo'пти-ya! — deya xursandchiligini izhor qildim. 5. O! Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan. 6. O'h! — deb yubordi bir yigitcha.

3. 1. E -e, yeb bo'пти, Ko'kyol deydilar uni! — dedi Isoy bobo kuyib-pishib. 2. Voy-bo', — deb yubordi u. — Yerimiz muncha chiroyli! Globusning o'zginasi-ya! 3. O, muazzam Enasoy daryosi! 4. Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar...

4. 1. Boshqoq tortmasdan bug'doy Yeb qo'yibdi qo'y, — Ey-voy. 2. «Voy to'ymagur, berib yubording-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisan-da!»

... deb har xil tovushda baqirishadilar. 3. — O‘, ma‘lumotli ekansiz-ku! 4. Men yetim o‘sganman, oh u yetimlik. Voy bechora jonim, desam arziydi. (*G‘afur G‘ulom*)

5.1. Ey qotil, nega shunday katta azim terakni nobud qilding? 2. — Hoy, aylanay, o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi? 3. Ey Luqmoni Hakim, sening Dong‘ing tutdi olamni. 4. Hay, usta, — dedi Ma‘suma beka, — shu payt bu chiziqqlaringiz kimning qulog‘iga kiradi!

## TAQLID SO‘ZLAR

Taqlid so‘zlar shaxs, predmet va turli jonivorlarning tovushiga taqlidni bildiradi. Ular turli xildagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz tovush va qichqiriqlarni, harakat yoki holatni bildiradi.



Tovushga taqlid so‘zlar borliqdagi turli xil tovushlarga taqlid qilish, ularni qayta takrorlash asosida hosil qilinadi: *tars-turs, qars-qurs, gumbur-gumbur, chiy-chiy, ship-ship* kabilar. Ular quyidagicha hosil qilinadi:

1. Odamlarning ovozigaga taqlid qilish asosida: *qurt-qurt, pichir-pichir, piqir-piqir*.

2. Jonsiz predmetning tovushiga taqlid qilish asosida: *qir-qir, tars-turs, to‘q, taraq...*

3. Jonivorlarning tovushiga taqlid asosida: *miyov, pitpildiq, g‘iz-g‘iz...*

Harakat va holatga taqlid bildiruvchi so‘zlar shaxs va narsaning, shu‘la, harakat, holat yoki miqdorning tasviri, ularga taqlid qilish asosida hosil qilinadi: *yalt, milt-milt, lapang-lapang* kabilar. Taqlid so‘zlarning bu guruhi ko‘rish bilan bog‘langan hodisalarni ifodalaydi.

Ular quyidagicha hosil qilinadi:

1. Bir lahzalik yoki kutilmagan shu‘la, harakat yoki holatni bildiradi: *milt, yalt, yarq*.

2. Harakatdagi narsalarning tashqi qiyofasini, holatini bildiradi: *dir-dir, milt-milt*.

## Taqlid so‘zlar tuzilishi va imlosi

Asos qismining aynan takrorlanishi yoki ayrim tovush o‘zgarishi bilan hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar takror (juft so‘zlar emas) taqlid so‘zlardir: *gumbur-gumbur, yalt-yult, yarq-yurq, chars-churs sharaq-shuruq, taraq-turuq, taq-taq, qilt-qilt*.

**Taqlid soʻzlar** mustaqil soʻzlar kabi gap boʻlagi boʻlib kela oladi. Taqlid soʻzlar, asosan, hol va aniqlovchi boʻlib keladi. Koʻchada gʻir-gʻir shamol esmoqda gapida gʻir-gʻir soʻzi qay holda? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda hol boʻlib kelgan. Uzoqdan taraq-turuq ovozlari eshitilib turardi gapida taraq-turuq soʻzi ovozlari soʻziga bogʻlanib, gapda aniqlovchi boʻlib kelgan. Baʼzan kesim boʻlib keladi. Koʻchada odamlar gʻij-gʻij.

Tovushga taqlid bildiruvchi soʻzlar otlashib, egalik va kelishik qoʻshimchalarini oladi. Ular otlashsa, ega yoki toʻldiruvchi, qaratqich aniqlovchi boʻlib keladi: Ayollarning pichir-pichiri eshitilib turardi. Bu gapda pichir-pichiri nimasi? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan. Bedananing pitpildigʻini eshitdim gapida pitpildigʻini nimasini? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

Taqlid soʻzlardan ot (xushtak, xurrak, qarsak, qahqaha, sharshara, shaqildoq), sifat (hiqildoq, likildoq) feʼl (taqilla, yarqira) va boshqa mustaqil soʻz turkumlari yasaladi: xushtak, hiqildoq, qahqaha, va boshqalar. Koʻpgina taqlid soʻzlar asosida qoʻshma feʼllar ham yasaladi: yarq etmoq, lip-lip etadi.

### **Taqlid soʻzlarning grammatik tahlili**

1. Taqlid. 2. Tovushga yoki holatga taqlid. 3. Sodda yoki takror. 4. Otlashgan, otlashmaganligi. 5. Gapdagi vazifasi.

2. Yetti qarochi yulduzi tik kelganda gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir ovozdan uygʻonib ketdim.

Gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir — taqlid soʻz, tovushga taqlid, takror taqlid, otlashmagan, aniqlovchi.

3. Jigarim otashiga tegardi jiz-jiz.

Jiz-jiz — taqlid, holatga taqlid, takror, otlashmagan, hol.

4. Daraxtlarning shitiri eshitila boshladi. Shitiri — taqlid, tovushga taqlid, sodda taqlid, otlashgan, III shaxs egalik birlik, bosh kelishik, ega.

**Topshiriq:**

1. Taqlid soʻzlarni tahlil qiling.

1. Namoz gʻazabi oshib, dagʻ-dagʻ qaltiray boshladi.

2. Namiqqan shuvoqlar oldin toʻxtab yaxshi yonmasa ham, keyinroq churs-churs uchqun sochdi-da, axiyni gurillab ketdi.

3. Endi, ehtimol, dir-dir qaltiragan bolalar yuk koʻtarishga yaramas edi, yaxshiyam Qoʻchqor bor ekan, kutilmaganda ajoyib bir ish qildi. 4. Boshidagi toj yal-yal yonarmish.

1. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. 2. Bironing oldiga borib «voy-voy» qilib hursa, podshoh gunohkorni yetmish ikki darra urdirar ekan. 3. Albatta, yoʻl yaxshi boʻlib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilinmas, quloq-burunlarni «jaz-jaz» chaqmas edi,

lekin iz tushmagan yo'ldan yurish mushkul. 4. To'rtta savag'ich bilan tap-tap urib, par singari qilib titibdi. 5. Shunday bo'lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi.

## Tasdiq va inkor so'zlar

**Tasdiq so'zlar** ha, xo'p, mayli singari so'zlar; **inkor so'zlar** yo'q, mutlaqo singari so'zlardir. Bunday so'zlar dialogik nutqda -mi so'roq yuklamasi orqali ifodalangan so'roq gaplarning javobi bo'lib keladi.

**Mashq:** Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Sizlarga uy topib bersam, qiroatxona ochmaysizlarmi? - ..., ochamiz. Lekin kitoblarni qayerdan olamiz? 2. Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam. - ..., ...- e, buvi, yomon niyat qilmang. Hahuv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi. - Xayr, o'g'rigina bolam, kelib tur. -..., ona, ... 3. -Suv beraymi, ota? Chol o'ziga keldi. - ..., suv ichmayman! - dedi Me'mor, - Buni qara, qizim, meni xayol olibdi, mana shu tomonda bir katta qasr solingan emish. 4. ..., kechasi allamahalgacha kitob o'qib, kam uxlagan. Biz chiqquncha damini olib turar.

**So'zlar:** Yo'q, yo'q-yo'q, xo'p-xo'p, mayli.

## Alohida so'z turkumi bo'yicha test topshiriqlari

### I-variant

1. Qaysi qatorda modal so'zlarning sintaktik belgisi berilgan?

- A. Kirish so'z vazifasida kelishi
- B. So'zlarni o'zaro birlashtirishi
- C. Undalma shaklida kelishi
- D. Morfologik jihatdan o'zgarmasligi

2. Qaysi qatordagi gapda modal so'z bilan bog'liq tinish belgisi noto'g'ri qo'yilgan?

- A. To'g'ri, avval jo'n gaplashib olaylik. Xo'p, majlis yopiq
- B. Borliq jim: har bir darchadan zangor shu'lalar porlaydi
- C. Poytaxt bo'lish uchun, avval poytaxtlik maqomi kerak
- D. Shunga ishonchim komilki, qasd qilgan, albatta, past bo'ladi

3. Qaysi gapda ovozga taqlid so'z turlangan?

- A. Bolalarning qiqirlashi quloqni qomatga keltirgan edi
- B. Tuyoqning dupuridan navkarlar bir safga chizilishgan edi
- C. Shundan so'ng afg'ondan tarsaki yeganim bejiz emasligiga - mening navkar ekanligimga ishonishdi.
- D. Suvning shitirlashidan uyg'onib ketdim

4. Qaysi gapdagi yasama soʻzning asosi taqlid soʻzdan iborat?  
 A. Allakim qadamni shi pillatib bosib ayvon labiga kelayotgan boʻlardi  
 B. Mard bir oʻlar, nomard yuz oʻlar (maqol)  
 C. «Uflama, qizim, yomon boʻladi», dedilar buvim  
 D. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi
5. Fikrning tartibi maʼnosini ifodalovchi modal soʻzlarni aniqlang.  
 1) avvalo; 2) darhaqiqat; 3) haqiqatan; 4) masalan; 5) xayriyat; 6) demak.  
 A. 1,4,6                      B. 1,3,4,5                      C. 1,4                      D. 1,2,3,4
6. Sof modal soʻzlar berilgan qatorni toping.  
 A. Afsuski, attang, taxminan, umuman  
 B. Avvalambor, xullas, masalan, shubhasiz  
 C. Albatta, xullas, ehtimol, chamasi  
 D. Haqiqatan, avvalo, koshki, shekilli
7. Balli, ofarin kabi soʻzlar qaysi soʻz turkumiga kiradi?  
 A. Modal                      B. Taqlid                      C. Kirish soʻz                      D. Undov
8. Sof modal soʻzlar qaysi qatorda berilgan?  
 A. Avvalo, xullas, shubhasiz, baxtinga  
 B. Avvalambor, darhaqiqat, jumladan, taxminan  
 C. Haqiqatan, afsuski, attang  
 D. Masalan, umuman, aftidan, chamasi
9. Fikrdan qaytish uchun qoʻllanilgan undov soʻz qatnashgan gapni toping.  
 A. Hay-hay, tegma  
 B. Voy-bu, juda mazali ovqat ekan  
 C. Eh, yoshlar, sizlar tushunmaysiz-da  
 D. Hay-hay, shoshqaloqlik qilmang
10. Modal soʻz mavjud boʻlgan gaplarni aniqlang.  
 1. Albatta, jon shirin, lekin odamning yuragida boshqalarga mehr boʻlishi kerak.  
 2. Azamatlar, ishni doʻndinbsizlar.  
 3. Yoʻlchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin doʻst edi.  
 4. Xayriyat, bizning mojarolardan qayin otam xabardor boʻldi.  
 5. Ammo xatning mazmuni shunday edi.  
 6. Tabiiy, Xushroʻyning feʼlini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsa aytolmadi.  
 A. 1,2,3,6                      B. 1,3,4,6  
 C. Berilgan barcha gaplarda                      D. 1,3,4,5

11. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A. Ko'p nuqta                      B. Nuqta                      C. Undov                      D. Vergul

12. Balki modal so'zi gapda yana qanday vazifani bajarishga xizmat qiladi?

- A. Ko'makchi                      B. Gumon olmoshi  
C. Yuklama                      D. Bog'lovchi

13. Davradagilar shivir-shivir gap boshlashdi.

Yuqoridagi gapda shivir-shivir so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?

- A. Taqlid so'z                      B. Sifat                      C. Ravish                      D. Modal so'z

14. 1.balki; 2. keyin; 3. boshqa; 4. nahotki; 5.axir; 6. esa.

Yuqorida berilgan yordamchi so'z turkumlari turini aniqlang.

- A. 6-bog'lovchi, 2,3-ko'makchi, 1,4,5-yuklama  
B. 1- bog'lovchi,2,3-ko'makchi, 4,5,6-yuklama  
C. 1,2- bog'lovchi, 3,6-ko'makchi, 4,5- yuklama  
D. 1,6-bog'lovchi, 2,3-ko'makchi, 4,5-yuklama

15. Vazifadosh modal so'zlar berilgan qatorni toping.

- A. Aftidan, attang, taxminan, umuman  
B. Taxminan, darhaqiqat,balki, shekilli  
C. Umuman, ehtimol, chamasi, shubhasiz  
D. Albatta, afsuski, taxminan, aftidan

16. Bizning g'olib chiqishimiz shubhasiz.

Ushbu gapda modal so'z orqali qanday ma'no ifodalangan?

- A. Tasdiq munosabati                      B. Ishonch munosabati  
C. Modal so'z ishtirok etmagan                      D. Fikrni xulosalash

17. Taqlid so'z otlashgan gapni belgilang.

- A. Yigitlar apil-tapil safga tizila boshladilar  
B. Fotoapparatlarning chaqmoqlari yilt-yilt yonib-o'char, ruchkalar oq qog'ozlarda qitirlardi

C. Tashqarida ot tuyoqlarining dukur-dukuri eshitildi

D. Eshiklar sharaq-shuruq ochilib-yopilar, shivir-shivir ovozlari eshitilar edi

18. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A. Modal so'zlar                      B. Ko'makchilar  
C. Bog'lovchilar                      D. Yuklamalar

19. Fikrni xulosalash ma'nosini bildiruvchi modal so'zlar qatorini belgilang.

- A. Xullas, demak, masalan, jumladan

- B. Xullas, demak, darhaqiqat  
 C. Xullas, umuman, haqiqatan  
 D. Xullas, demak, haqiqatan
20. Qaysi gapda modal soʻz bor?  
 A. Balki, uning kimligini aftidan bilsa boʻlar  
 B. Obbo, yana ish pachava deng  
 C. Bu yil hamma fanlarni «a'lo» bilan yakunlashim shubhasiz  
 D. Ofarin, azamatlar, ishni doʻndiribsiz
21. Qaysi gapda modal soʻz bor?  
 1. Soʻzsiz, buni hamma biladi-ku!  
 2. Har bir ishning chamasi boʻladi, har daryoning kemasi.  
 3. Yoʻlchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan doʻst edi.  
 4. Mayda-chuyda kamchiliklar topilibdi, mazmuni.  
 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi.  
 6. Tabiiy, Xushroʻyning feʼlini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi.
7. Siz balki, mening tilimga tushunarsiz.  
 A. Barcha gaplarda    B. 1,2,3,6    C. 1,3,4,5,6    D. 1,3,4,6,7
22. Qaysi gapda chamasi soʻzi gap boʻlaklaridan vergul bilan ajratilmaydi?  
 A. Ertaga havo ochiladi chamasi  
 B. Kechasi chamasi biroz yomgʻir yogʻdi  
 C. Chamasi Nodir bu gapni eshitdi  
 D. Uning chamasi toʻgʻri chiqdi
23. Qaysi qatordagi soʻz chamasi modal soʻziga sinonim boʻla oladi?  
 A. Balki    B. Darvoqe    C. Tabiiy    D. Mazmuni
24. Qaysi gaplarda modal soʻz bor?  
 1. Afsuski, rejadagi ishlar koʻngildagidek bajarilmadi.  
 2. Ofarin, azamatlar ishni doʻndiribsizlar.  
 3. Kanizak, aftidan, shuni aytmogʻchi emas edi, shekilli, noilloj «ha»dedi.  
 4. Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi, ibratli ertak oʻylab topib, buvisiga soʻzlab beradigan boʻlibdi.  
 5. Ehtimol, ertalab oʻziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.  
 6. Aftidan, u yolgʻon gapirayapti.  
 7. Abduqodirning ham tomogʻiga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi.  
 8. Uning ishlari, aftidan, yaxshi emasga oʻxshaydi.  
 A. 1,3,4,5,6,7,8    B. 1,3,4,5,6  
 C. 1,2,3,6,8    D. Berilgan barcha gaplarda
25. Qaysi gaplarda modal soʻz bor?



1. To'g'ri, jon shirin, lekin odamning yuragida boshqalarga mehr bo'lishi kerak.

2. Assalomu alaykum, oyijon, yaxshi keldingizmi?

3. Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytmoqda.

4. Yaxshiki, bizning mojarolardan qayin otam xabardor bo'ldi.

5. Xullas, biz ulug' odamlarning farzandlarimiz.

6. Alqissa, xaloyiq va har tarafdin kelgan kishilar to'lda bo'lishib maslahat qildilar.

A. Barcha gaplarda      B. 1,2,3,5,6      C. 1,3,4,5,6      D. 1,3,4,6

26. Qanday so'zlar ko'pincha gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi?

A. Bog'lovchilar

B. Yuklamalar

C. Ko'makchilar

D. Modal so'zlar

27. Fikrning dallilanishini bildiruvchi modal so'z berilgan javobni toping.

A. Albatta, shaksiz

B. Darhaqiqat, haqiqatdan

C. Masalan, jumladan

D. Dalil, isbot

28. Sof modal so'zlar berilgan qatorni toping

A. Albatta, attang

B. Aftidan, chamasi

C. Balki, ehtimol

D. Shubhasiz, demak

29. Tarkibida his-hayajon undovlari bo'lgan gaplarni aniqlang

A. O'g'lim, umringizdan baraka toping!

B. Hay Oynisa, buvingni chaqir

C. Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku!

D. Voy, nega qulluq qilishar ekan?

30. Avvalo, Azimjon, salom! Iya, yashang, tanimadingizmi? Ha, shukur, men ham, albatta! Ushbu matndagi qo'llangan undov so'zlar miqdorini aniqlang.

A. 2 ta

B. 3 ta

C. 4 ta

D. 5 ta

31. Tilshunoskilning morfologiya bo'limiga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?

A. Modal sozlar, ravishdosh, harakat nomi

B. Faol sozlar, sinonim so'zlar, atamalar

C. Ot-kesim, undalma, bog'lama

D. Badiiy uslub, ot yasovchi qoshimchalar, bo'g'in

32. Morfologiyaga tegishli atamani (terminni) aniqlang.

A. Bog'lama

B. Otlashish

C. Kirish so'z

D. Undalma

33. Ushbu gapda qanday so'z turkumiga oid so'zlar qatnashgan?

Nasimjon birpasda o'g'lining qulog'iga hamma gapni aytdi, chamasi, u yugirdi-da, chiqib ketdi

- A. Ot, fe'l, ravish, ko'makchi, yuklama
- B. Ot, fe'l, sifat, ko'makchi, modal so'z
- C. Ot, fe'l, ravish, yuklama, modal so'z, olmosh
- D. Ot, fe'l, olmosh, ravish

34. Albatta, yigit ham bu savolni kutmagani uchun hatto ancha vaqtga qadar javob berolmay qolgan edi. Ushbu gapda mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydigan nechta so'z bor?

- A. 6 ta    B. 5 ta    C. 4 ta    D. 7 ta

35. Tilshunoslikning morfologiya bo'limiga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?

- A. Zidlov bog'lovchilar, holat ravishi, ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi
- B. Ot, undalma, bog'lama
- C. Bosh bo'lak bosh kelishik, morfologik uslubiyat
- D. Modal so'zlar, kirish so'z, morfologik yozuv

36. Ushbu gapda qanday so'z turkumiga oid so'zlar qatnashgan? Mashina biroz yurib, keng paxtazorga qarab burildi-yu, to'xtadi.

- A. Ot, fe'l, son, sifat
- B. Ot, fe'l, ravish, yuklama, bog'lovchi, olmosh, sifat
- C. Ot, fe'l, sifat, ko'makchi, modal so'z
- D. Ot, fe'l, ravish komakchi, yuklama, sifat

## 2-variant

1. – Hoy, g'alati gapni gapirasiz-a, domlasi, axir, ona o'z bolasiga yomonlikni ravo ko'radimi? Berilgan gapda mustaqil so'z turkumlariga oid bo'lmagan til birliklarining miqdorini aniqlang.

- A. 3    B. 4    C. 5    D. 6

2. Tilshunoslikning morfologiya bo'limiga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?

- A. Modal so'zlar, morfologik yozuv, kirish so'z
- B. Ergashtiruvchi bog'lovchilar, otlashish, orttirma daraja
- C. Ot, undalma, bog'lama
- D. Hol, bosh kelishik, undov so'zlar

3. Davradagilar shivir-shivir gap boshlashdi. Gapdagi shivir-shivir so'zi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A. Aniqlovchi    B. hol    C. vaziyat holi    D. sifatlovchi aniqlovchi

4. Tovushga taqlidni bildiruvchi so'z qaysi gap bolagi vazifasida kelgan?

- A. Osmonda yulduzlar g'uj-g'uj
- B. Bay-bay, zap choy bo'libdi-da
- C. Yalt-yult etib chaqmoq chaqdi
- D. Ko'chadan mashinalar viz-viz o'tadi

5. «Atrofdagi ovozlarga gala-gala chug'urchuqlarning vijir-vijiri qo'shilib ketmoqda»

Gapdagi taqlid so'zning turini aniqlang.

- A. Holatga taqlid            B. tovushga taqlid  
C. harakatga taqlid        D. ko'inishga taqlid

6. Otlashgan taqlid so'z ishtirok etgan gapni toping

- A. Shivir-shivir gaplar to'xtamadi  
B. Olomon g'uv-g'uv qaynaydi  
C. Yuragi gup-gup urib ketdi  
D. Tokchaga in qurgan musichaning g'uv-g'uvi eshitildi

7. Taqlid so'zlarga qo'shimchalar qo'shish orqali qaysi turkumga oid so'zlar yasash mumkin?

- A. Ot, sifat va fe'l            B. Faqat fe'l    C. Faqat ot    D. Undov, modal

8. Taqlidiy so'zlardan yasalgan sifatlar berilgan qatorni toping

- A. Yaltiroq, yaltirama        B. Dang'illama, yarqira  
C. G'ijjak, yarqira            D. To'g'ri javob yo'q

9. Tasdiq so'zlar berilgan qatorni toping

- A. Bo'lar, bo'pti                B. Xo'p, boraman  
C. Ha, mayli                    D. Bor, hm

10. Inkor so'zlar berilgan javobni toping

- A. Mutlaqo, aslo                B. Yo'q, rozimasman  
C. Noroziman, ko'nmadi        D. A,B

11. Qaysi qatorda sof modal so'zlar berilgan?

- A. Avvalo, xullas, shubhasiz, baxtimga  
B. Haqiqatdan, afsuski, attang  
C. Avvalambor, darhaqiqat, jumladan, shaksiz  
D. Masalan, umuman, aftidan, chamasi

12. Qaysi qatorda tovushga taqlid so'z hol vazifasida kelgan?

- A. Uning havoga ko'tarilgan qo'llari shaloplab ikki tizzasiga tushdi  
B. Onaning yurak bag'ri ezilib, ko'zlaridan mo'lt-mo'lt yosh dumaladi  
C. Ikromjon boshini sarak-sarak qildi  
D. Qiz piq-piq yig'lay boshladi

13. Q aysi qatordagi chamasi so'zi vergul bilan ajratiladi?

- A. Qila olishiga chamasi yetmadi  
B. Oldin qilinajak ishning chamasi olindi  
C. Har ishning chamasi bo'ladi  
D. Bugun chamasi yong'ir yog'adi

14. Qaysi qatordagi modal soʻz kishining quvonchini ifodalashi mumkin?  
A. Ura B. oh-oh C. yashang D. xayriyat
15. Quyidagilardan qaysi biri aniqlovchi va hol vazifasida kelishi mumkin?  
A. Modal soʻz B. taqlid soʻz  
C. koʻmakchi D. buyruq-xitob undovlari
16. Taqlid soʻzlardan yasalgan fe'llarni aniqlang.  
A. Uvulla, yaltira, dangʻilla, miltilla  
B. Pilla, tilla, bokira  
C. Sensira, suvsira, dodla, qimirla  
D. Imilla, similla, xotirla, yarimla
17. 1. Dodla 2. Voyvoyla 3. Shiltira 4. Chiyilla  
Ushbulardan qaysi biri undov soʻzlardan yasalgan fe'l hisoblanadi?  
A. 1,3,4 B. 2,4 C. 1,2 D. 1,4
18. Qaysi gapdagi modal soʻz fikrning tartibini bildiradi?  
A. Nihoyat, unday inson ham koʻrindi  
B. Alqissa, xaloyiq va har tarafdin kelgan kishilar toʻda boʻlishib maslahat qildilar  
C. Darhaqiqat, chang-toʻzon narilab, Karki tomonga ketardi  
D. Xullas, kayfim chogʻ edi
19. Qaysi qatorda vazifadosh modal soʻzlar berilgan?  
A. Balki, ehtimol, chamasi, aftidan  
B. Afsuski, haqiqatdan, avvalo, xullas  
C. Albatta, shekilli, tabiiy, toʻgʻri  
D. Attang, umuman, taxminan, shubhasiz
20. Qaysi qatorda undov soʻzlarga xos xususiyat notoʻgʻri koʻrsatilgan?  
A. Gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirishi mumkin  
B. Undov soʻzlar oʻzi undov gap boʻlib kelishi mumkin  
C. Undov soʻzlar gap bilan grammatik jihatdan bogʻlanishi mumkin  
D. Undov soʻzlar otlashganda gapda maʼlum vazifada qoʻllanishi mumkin
21. Modal soʻzlarni toping  
1. attang 2. faqat 3. birdan 4. aftidan 5. masalan 6. nihoyat 7. nahotki 8. xayriyat 9. biroq 10. ehtimol  
A. 4,5,7,8 B. 1,3,6,8,10  
C. 1,4,5,6,8,10 D. 1,4,7,8,9,10
22. Qaysi qatordagi gapda modal soʻz bilan bogʻliq tinish belgisi notoʻgʻri qoʻllangan?  
A. Toʻgʻri, avval joʻn gaplashib olaylik. Xoʻp, majlis yopiq  
B. Borliq jim: har bir darchadan zangor shuʼlalar porlaydi

- C. Poytaxt bo'lish uchun, avvalo poytaxtlik maqomi kerak  
 D. Shunga ishonchim komilki, qasd qilgan, albatta, past bo'ladi
23. Modal so'z berilgan qatorni toping.  
 A. Feruzaning chamasi to'g'ri chiqdi  
 B. Uning «ko'cha bolasi» ekanligini aftidan bilib olish qiyin edi  
 C. Ehtimol, bu onasidan yagona esdalik?  
 D. Bo'ron bo'lishi ehtimol, qizim.
24. Qaysi gapda ovozga taqlid so'z turlangan?  
 A. Bolalarning qiqirlashi quloqni qomatga keltirgan edi  
 B. Tuyuqning dupuridan navkarlar bir safga chizilishgan edi  
 C. Shundan so'ng afg'ondan tarsaki yeganim bejiz emasligiga — mening navkar ekanligimga ishonishdi  
 D. Suvning shitirlashidan uyg'onib ketdim
25. Qaysi qatordagi gapda vazifadosh modal so'z ishtirok etmagan?  
 A. Durust, mana yigirma yildirki, bu takabbur hakam bizga xizmat qilishdan bosh tortadi  
 B. Ikkinchidan, agar yaxshiliging seni xursand qilsa, sen mo'minsan  
 C. UZR ayuvchi ishlarni, shubhasiz, kamaytiringerlar  
 D. Uning oldida bakni qaynatishyapti, shekilli, bak kamayidan qizil alanga chiqib qolardi
26. Quyidagi modal so'zlar ichidan vazifadoshlarini ajrating.  
 1) balki; 2) chamasi; 3) albatta; 4) shekilli; 5) ehtimol; 6) xullas; 7) afsuski; 8) aftidan.  
 A. 1, 2, 5, 8    B. 1, 3, 4, 6    C. 2, 6, 7, 8    D. 5, 6, 7, 8
27. Holatga taqlid so'zlar qaysi qatorda berilgan?  
 A. lik-lik, qult, pix-pix    B. yilt-yilt, jiq, dik  
 C. tap-tap, g'iz-g'iz, hang-mang    D. gurs-gurs, taq-tuq, li p
28. Qaysi gapdagi yasama so'zning asosi taqlid so'zdan iborat?  
 A. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi  
 B. Dildorning yuragi dukullab urardi  
 C. «Uflama, qizim, yomon bo'ladi», — dedilar buvim  
 D. Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar
29. Fikrdan qaytarish uchun qo'llanilgan undov so'z qatnashgan gapni toping.  
 A. Hay-hay, tegma  
 B. Voy-bu, juda mazali ovqat ekan  
 C. Eh, yoshlar, sizlar tushunmaysiz-da  
 D. Hay-hay, shoshqaloqlik qilmang

30. Undov so'zlarning qo'llanish doirasi qaysi uslubda cheklangan?  
 1) so'zlashuv; 2) badiiy; 3) publitsistik; 4) rasmiy; 5) ilmiy.  
 A. 1, 2, 3, 5    B. 3, 4, 5    C. 4, 5    D. 1, 3, 4
31. Qaysi qatorda undov so'z berilgan?  
 A. Obbo, Kech tushib qolibdi-ku!  
 B. Xullas, kayfim chog' edi  
 C. Sizga ta'zim, onajon!  
 D. Xayriyat, testni ham to'g'ri yechibman
32. Tovushga taqlid so'zlar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.  
 A. Taraq, shalop, jimir-jimir, dik-dik  
 B. Duv-duv, tap, lip-lip, yalt-yult  
 C. Gumbur-gumbur, shov-shuv, taraq, shalop  
 D. Qars-qars, shitir-shitir, lapang-lapang, dik-dik
33. Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi. Ushbu gapda taqlid so'zning qanday turi mavjud?  
 A. Obrazga taqlid so'z    B. Holatga taqlid so'z  
 C. Taqlid so'z yo'q    D. Tovushga taqlid so'z
34. Taxmin va gumonni bildiruvchi modal so'zlar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.  
 A. Shekilli, albatta, avvalo, xullas  
 B. Afsuski, chamasi, shekilli, demak  
 C. Shekilli, aftidan, chamasi, ehtimol  
 D. Haqiqatan, jumladan, xullas, afsuski
35. Fikrning tartibini bildiruvchi modal so'zlar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.  
 A. Albatta, so'zsiz, xullas, demak    B. Avvalo, jumladan, masalan  
 C. Masalan, attang, so'zsiz, ajabo    D. Haqiqatan, albatta, jumladan
36. Ohi olamni tutdi. Ushbu gapda undov so'z qanday sintaktik vazifada kelgan?  
 A. ega    B. kesim    C. aniqlovchi    D. to'ldiruvchi

## ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

### Ismlar haqida

Soʻzlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar soʻzlarni **otlar, fe'llar, yordamchilarga ajratgan edilar**.

Hindlarning tilshunoslik gʻoyalari bilan oziqlangan arablar soʻzlarni uchga: **ismlar, fe'llar, yordamchilarga boʻladilar**.

Hind tilshunoslari fikrlari asosida **yunon olimlari, xususan, Arastu ham soʻzlarni ana shunday uchga ajratadi**. Faqat, keyinchalik yunonlar ismlar ichidan **sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqaradilar**.

Gʻarb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu anʼanaga amal qilib, **mustaqil soʻzlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'lga ajratadilar**. Aslida, dastlabki toʻrtta soʻz turkumining barchasi nomlar sanaladi: **narsaning nomi (ot), belgining nomi (sifat), miqdorning nomi (son), nomlar oʻrnida almashinib keluvchi soʻzlar (olmosh)**. Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida **ism bildiruvchi soʻzlar** nomi bilan birlashtiradilar.

Bizning ajdodlarimiz qadimdan **ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda, ismlar nomi bilan oʻrganib kelganlar**.

Bu soʻz turkumlarining deyarli hammasi **egalik, kelishik va koʻplik shakllari bilan oʻzgaradi**. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki sifat, son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifat-dosh va taqlid soʻzlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu soʻzlarni boshqa soʻzlarga tobelantirib bogʻlab keladi. Bu esa, **egalik, kelishik qoʻshimchalari bilan oʻzgarish xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlarni ismlar atamasi ostida birlashtirish zarurligini koʻrsatadi**. Demak, **ismlar deganda ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifat-dosh, taqlid tushuniladi**.

### Ismlarning lugʻaviy va munosabat shakllari

**Ismlarning koʻplik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash maʼnolarini bildiruvchi qoʻshimchalarga ega boʻlgan shakli lugʻaviy shakl sanaladi**.

**Egalik, kelishik, -man, -miz, -siz, -dir qoʻshimchalariga ega boʻlgan shakli esa, munosabat shakllari hisoblanadi**.

**Ism asoslariga qoʻshilib, ularni boshqa soʻzlarga bogʻlab kelish va gap boʻlaklarini shakllantirishga xizmat qilganligi uchun egalik, kelishik, -man, -miz, -siz, -dir qoʻshimchalari munosabat shakllari deyiladi**

**Demak, ismlarning munosabat shakllariga quyidagilar kiradi:**

**1) egalik skallari; 2) kelishik shakllari; 3) ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi -man, -miz, -san, -siz, -dir qo‘shimchalari, bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq so‘zlari. Uchinchi turdagi qo‘shimchalar bog‘lamalar deb ham yuritiladi.**

**Topshiriq:**

**1. Munosabat shakllari yasovchi qo‘shimchalarni ajrating.**

1. Jon do‘sting jonidan kechsa ham, Mol do‘sting kechmas. 2. Qurbon cholning gapini eshitib hayron qoldi. 3. Ra‘noning yerga qaragan ko‘zi sekingina Anvarga ko‘tarilib, yana yerga og‘di. 4. Hammaning ko‘zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi. 5. Humoyun hamma dardini aytib ko‘nglini bo‘shatsin uchun Xonzoda begim uning so‘zini bo‘lmay toqat bilan jim tingladi. 6. Chol podshoning oldiga borib, savoliga javob beribdi.

**2. Ismlarning lug‘aviy va munosabat shakllarini aniqlang.**

Nonushta yo tushlikka  
Yozarkanmiz dasturxon,  
Dasturxonga zeb berib  
Bo‘y taratar kulcha non.  
Noz-ne‘matning sarasi  
Va tabiat ne‘mati.  
Bu ne‘matni yaratar  
Oltin qo‘llar mehnati.  
Kech kuzakda sochib don,  
Kelguncha yoz-saraton  
Bug‘doyzorda ter to‘kar  
G‘allakor – asl dehqon.  
Bepoyon qir-adirda  
To‘lishganda boshqolar,  
Kombaynchi amaki  
O‘rimga o‘zin chog‘lar.  
Tegirmonchi akalar  
Mahtal etmas novvoyni.  
Novvoy esa yopadi  
Tandir-tandir shirmoyni.  
Shu bois har burdasin  
Tabarruk deb bitaman.  
Yo‘l ustida uchrasa,  
Olib ko‘zga surtaman.

**3. Quyidagi matndan ismlar va ism bo‘lmaganlarni ajrating.**

**Eslatma:** ismlar guruhiga ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, taqlid kiradi. Lekin fe‘l, ravishdosh, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov, modal ismlarga kirmaydi.



## Vaqt qadri

Oltindan qadrli, javhardan qimmatli bir narsa bor bo'lsa, u ham bo'lsa vaqtdir. Vaqt bizning har turli ishni qilishga kuchimiz yetadigan fursatdir. Bir soatning bekor o'tgani – ixtiyorimizda bo'lgan fursatning zoye bo'lgani demak. Holbuki, shu fursat ichida foydali ishlarga ixtiyorimiz bor edi. Fursatni g'animat bilgan odam vaqtdan unumli foydalana oladi. Vaqt qadrini bilgan odam havoyi nafsdan tiyila oladi. Vaqt qadrini bilgan odam buyuk bo'lishga haqlidir. Aqlsizlarning eng yaramas ko'rinishi – vaqtни bekorга o'tkazishdir. Shoir aytganidek:

Garchi piyodamiz, garchi otliqimiz,  
Kim yaxshi, kim esa yomonotliqimiz.  
Qanchalar fursatni o'tkazdik zoye,  
Xudoning oldida ko'p uyotliqimiz.

Miqdori ko'p narsa qadr-qiyamatini tez yo'qotadi. Ammo aql egalari uchun vaqt sira qadrsizlanmaydi. Yuz yil qancha qimmatga ega bo'lsa, soat yoki daqiqaning qadri ham shu kabidir. Vaqt odamiga qarab eng qimmat yoki eng arzon matohdir. Payg'ambarimiz alayhissalom dedilar: «Ikki narsa borki, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi: biri – sog'lik, ikkinchisi – bo'sh vaqt». Kishi umrining hamma soatlarini, hatto daqiqalarini foydali va sog'liqqa muvofiq mashg'ulot bilan to'ldirishi kerak, toki qayg'u-alam bosh suqadigan bo'sh joy qolmasin.

---

---

## SINTAKSIS

Soʻz birikmalari va gaplarning qurilishi va ifoda xususiyatlarini oʻrganuvchi til boʻlimi sintaksis (grekcha tuzish) deyiladi.

Sintaksis soʻzlarning bir-biri bilan bogʻlanishi hamda gap tuzilishi qonun-qoidalarini oʻrganganligi uchun unda: 1) soʻz birikmasi sintaksisi; 2) gap sintaksisi kabi boʻlimlar mavjuddir.

Gap ogʻzaki nutqda maʼlum bir ohang bilan aytiladi. Bu ohang yozuvda tinish belgilari bilan ifoda etiladi. Har qanday til oʻzining nutq tovushlari, soʻzlari (iboralari) va qoʻshimchalaridagi imkoniyatlarini sintaksisda, yaʼni gap qurilishida namoyon qiladi.



### Gapda soʻzlarning bogʻlanishi

Gap odatda bir soʻzdan yoki bir necha soʻzlarning oʻzaro grammatik va mazmuniy bogʻlanishidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan, Kuz... Bogʻlarda mevalar qiygʻos pishgan. Yuqoridagi gaplarning birinchisi faqat bir soʻzdan tashkil topgan boʻlsa, ikkinchisi toʻrtta soʻzning oʻzaro grammatik va mazmuniy bogʻlanishi natijasida hosil boʻlgan.

Gap ikki va undan ortiq soʻzlardan iborat boʻlganda, bu soʻzlar oʻzaro grammatik va mazmun tomondan bogʻlanadi.

Bir soʻzning boshqa soʻzga maʼlum grammatik vositalar (grammatik qoʻshimchalar, yordamchi soʻzlar) yordamida bogʻlanishi grammatik bogʻlanish hisoblanadi.

Masalan, yuqorida keltirilgan ikkinchi misolda *bogʻlarda* soʻzi pishgan soʻziga -da kelishik qoʻshimchasi yordamida bogʻlanyapti.

Gapda soʻzlarning bogʻlanishi faqat grammatik bogʻlanish bilan cheklanib qolmaydi. Bogʻlanayotgan soʻzlar mazmuniy tomondan ham oʻzaro muvofiq boʻladi. Masalan, *gullamoq* soʻzi *gul chiqarmoq* maʼnosi bilan gullash xususiyatiga ega boʻlgan narsalarni bildiruvchi soʻzlarga bogʻlanadi: oʻrik gulladi, jiyda gulladi kabi, lekin *tosh*, *loy*, *suv* kabi soʻzlar bilan bogʻlana olmaydi. Yashnadi, rivojlandi maʼnosi bilan yashnashi mumkin boʻlgan

turli jamoa, tashkilot, mahalla nomlarini bildiruvchi soʻzlarga ham bogʻlanadi: qishloq gulladi, litsey gulladi kabi. Koʻrinadiki, oʻzaro bogʻlanayotgan soʻzlarda mazmuniy uygʻunlik boʻladi.

Gapda soʻzlarning bogʻlanishi ikki xil boʻladi: a) teng bogʻlanish; b) tobe bogʻlanish

Masalan, Kalila va Dimna; Kitobni oʻqimoq. Bularning birinchisida Kalila soʻzi Dimna soʻzi bilan va teng bogʻlovchisi yordamida; kitobni soʻzi esa, oʻqimoq soʻziga -ni tushum kelishigi yordamida bogʻlanyapti. Birinchi bogʻlanish teng bogʻlanish, ikkinchi bogʻlanish esa, tobe bogʻlanish sanaladi.

## Teng bogʻlanish

Oʻzaro teng bogʻlangan boʻlaklar bir xil gap boʻlagi vazifasida keladi va koʻpincha bir xil soʻroqqa javob boʻladi. Ularni bir-biri bilan bogʻlovchi vosita sifatida teng bogʻlovchilar yoki sanash ohangi ishtirok etadi. Xususan, yuqoridagi oʻzaro teng bogʻlangan boʻlaklar qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan, kimning? soʻrogʻiga javob boʻladi. Hofiz, Navoiy, Bedil boʻlaklari bir-biri bilan sanash ohangi yordamida, Bedil esa Fuzuliy bilan va bogʻlovchisi yordamida bogʻlangan.

Bir xil gap boʻlagi vazifasida kelib, koʻpincha bir xil soʻroqqa javob boʻluvchi boʻlaklarning oʻzaro teng bogʻlovchilar yoki sanash ohangi yordamida bogʻlanishi teng bogʻlanish sanaladi.

Teng bogʻlanishni quyidagi ishoralar bilan ifodalash mumkin:

	,		- sanash ohangi yordamida bosil boʻlgan teng bogʻlanish
	ammo lekin va bilan hamda -u (-yu) -da		- teng bogʻlovchilar yordamida bosil boʻlgan teng bogʻlanish

Quyidagi vositalar teng bogʻlovchi vazifasini bajaradi.

1. a) **biriktiruvchi bogʻlovchilar:** va, hamda (koʻpincha va oʻrnida bilan koʻmakchisi ham qoʻllanadi. Masalan, Oygul va Baxriyor; Oygul bilan Baxtiyor.

b) **zidlov bogʻlovchilari:** ammo, lekin, biroq;

d) **ayiruv bogʻlovchilari:** yo, yoki, yo-yo, goh-goh, dam-dam.

2. **Bogʻlovchi vazifasidagi yuklamalar:**

a) **gumon yuklamasi:** na...na

b) **kichraytiruv va taʼkid yuklamasi:** -u (-yu), -da.

## **Tobe bog‘lanish. Tobe bog‘lanishning tuzilishi.**

### **Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bog‘lanish yo‘llari**


Bir bo‘lakning boshqa bo‘lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo‘shimchalari, ko‘makchilar va so‘z tartibi va ohang yordamida bog‘lanishiga tobe bog‘lanish deyiladi.

Bir so‘z ikkinchi so‘zning, turli xil belgilarini ifodalab, aniqlab unga bog‘lanib keladi. Ana shu turli belgilarni aniqlash uchun berilgan savol belgiga egalik qiluvchi so‘zga bog‘lanadi. Masalan, qanday odam? Xushmuomala odam. Qanday (qanaqa, qaysi) uy? Baland uy. Nimani o‘qidim? Kitobni o‘qidim.

Tobe bog‘lanish doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi: tobe bo‘lak va hokim bo‘lak.

So‘roq bog‘lanib kelgan qism hokim, so‘roqqa javob bo‘lib keluvchi qism tobe bo‘lak sanaladi.

Masalan, chiroyli (qanday?) ko‘ylak, go‘zal (qanday?) mamlakat, dalaga (qayerga?) bormoq.



Tobe-hokimlik munosabatini yozuvda ifodalash uchun strelkadan foydalaniladi. Strelka nayzasi tushgan bo‘lak – hokim, strelka boshlangan bo‘lak – tobe sanaladi:

Sxemadagi «2» raqami bilan berilgan qism hokim sanaladi.

### **Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bog‘lanish yo‘llari**

Tobe bo‘lak hokim bo‘lak bilan kelishik, egalik, shaxs-son qo‘shimchalari, ko‘makchilar va ohang yordamida bog‘lanadi.

Bunday bog‘lanish ikki xil sintaktik birlikni vujudga keltiradi:

a) gap; b) so‘z birikmasi.

Shaxs-son qo‘shimchalari yordamidagi bog‘lanish gapni, qolgan vositalar yordamidagi bog‘lanish so‘z birikmasini hosil qiladi.

Solishtiring: Gul ochildi (shaxs-son, zamon qo‘shimchasi -di yordamida bog‘lanyapti) – gap. Gulning ochilishi (qaratqich va egalik qo‘shimchasi yordamida bog‘lanyapti) – so‘z birikmasi.


### **So‘z birikmasi**

So‘z birikmasi – tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik, egalik qo‘shimchalari, ko‘makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog‘lanishi.

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ma'lum bog'lovchi vosita yordamida bog'lanadi. Demak, bog'lovchi vosita tobe bo'lak oxiriga qo'shiladi. Bundan faqat egalik qo'shimchasi yordamida bog'langani mustasno. Egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shiladi. Tobe bo'lak esa qaratqich kelishigida turadi. Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanganligi ham mumkin. Masalan, *litseyning bog'i* – *litsey bog'i*.

Bundan ko'rinadiki, so'z birikmasida tobe bo'lak bilan hokim bo'lakning joylashish o'rnini ham aniq bo'ladi. Tobe bo'lak oldin, hokim bo'lak esa keyin keladi.

Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi vositaning qo'shilish o'rnini ikki xil bo'ladi: kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi. Uni quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin:



a) qaratqich kelishigi

b) egalik qo'shimchasi

So'z birikmasi bo'lishi uchun gap bo'laklari quyidagicha bog'lanadi:

aniqlovchi + ega: qo'shni bolalar, mening onam;

aniqlovchi + to'ldiruvchi: qiziqarli kitobni;

to'ldiruvchi + kesim: dalalarni kezmoq, gazetadan o'qimoq, bolalar bilan suhbatlashmoq;

hol + kesim: jo'shib gapirmoq, yurakdan sevmok.

So'zlarning o'zaro bog'lanishi ikki xil bo'ladi.

1. Teng bog'lanish – ikki so'zning teng huquqli, biri ikkinchisiga bo'ysunmay bog'lanishi: opam va kitob, uy va tom; qalam, ruchka; men va sen; sen ham men; sen bilan u; yozdi, ammo o'qimadi; goh yozdi, goh chizdi kabi.

2. Tobe bog'lanish – bir so'zning (tobe so'zning) boshqa bir so'zga (hokim so'zga) bo'ysunishi orqali bog'lanishi: opamning kitobi, uyning tomi, qora (ergash) doska (bosh (hokim) so'z) kabi.

Bosh (hokim) so'z – ma'nosi izohlanayotgan so'z.

Ergash so'z (tobe) – bosh so'zning ma'nosini to'ldirib, izohlab kelayotgan so'z.

So'z birikmasi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lishiga qaramay, bitta tushunchani ifodalaydi: opamning kitobi, qizil gul, uyga kirmok.

**Eslatma:** Amaliyotda tobe bog'lanishning quyidagi turlarini ham ko'rish mumkin: **ega +kesim,aniqlovchi+ aniqlanmish, to'ldiruvchi+ to'ldirilmish, hol+hollanmish, ergash gap+bosh gap.** So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi. So'z qo'shilmasida har bir so'z ma'no mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi: opam va kitob, siz bilan biz kabi. So'z qo'shilmalarida so'zlar sanash ohangi (yozuvda vergul) yoki teng bog'lovchilar vositasida birikadi

**Eslatma:** Uyushiq bo'laklar so'z qo'shilmalariga asoslanib, teng bog'lanishni hosil qiladi. Bog'langan qo'shma gap munosabati ham teng bog'lanishni hosil qiladi.

**Bilib oling!** So'z birikmasi hokim so'z va tobe so'zdan tuziladi. Tobe so'z hokim so'zni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi. Turli turkum so'zlari hokim so'z vazifasida kela oladi.

**Esda tuting:** odatda, hokim so'z ikkinchi keladi.

So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi: **otli so'z birikmasi, fe'lli so'z birikmasi.**

**Otli so'z birikmasida hokim so'z ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi:** shaharning ko'chalari, hammasidan katta, mehmonlarning ulug'i, chumchuqning chug'ur-chug'uri, o'quvchilarning beshtasi, beqiyos o'lka, katta qishloq.

**Fe'lli so'z birikmasida hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi:** kitobni o'qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq, ohista gapirmoq, ta'sirli so'zlamoq, zavq bilan o'qimoq.

Yuqoridagi fikrlarni quyidagi jadval orqali ham ko'rish mumkin:

Otli	Fe'lli
<b>Bosh (hokim) so'z:</b> <b>ot:</b> yaxshi niyat <b>sifat:</b> yo'lga intizor <b>son:</b> uying uchitasi <b>olmosh:</b> uning har qaysisi <b>harakat nomi:</b> uyda o'qish <b>ravish:</b> haqiqatga yaqin <b>taqlid:</b> otning dupuri <b>undov:</b> kampirning dodi <b>modal:</b> ishning bori	<b>Bosh (hokim) so'z:</b> <b>fe'l:</b> uyga kelmoq <b>ravishdosh:</b> kitobni o'qib <b>sifatdosh:</b> chet elda o'qigan

## Ergash soʻzning hosh soʻzga birikish yoʻllari

Boshqaruv	Moslashuv	Bitishuv
<p><b>Kelishildi:</b>                      -ni tushum: olma(ni) terish                      -ga joʻnalish: uyga bormoq                      -da oʻrin-payt uyd qolmoq                      -dan chiqish: uydan chiqmoq</p> <p><b>Koʻmakchili:</b>                      sen uchun kuytamoq                      oʻqish uchun kelmoq                      uy tomon bormoq                      telefon orqali gaplashmoq                      yurt uzra kezmoq                      chaman ichra kezmoq</p> <p>Asosan, feʼli birikma, baʼzan oʻdi birikma hosil qiladi.                      Masalan: oʻtdan baland                      Bosh soʻz belgi                      bildiruvchi soʻz boʻlsa, tobe soʻzdan chiqish kelishigini talah qiladi</p>	<p><b>Qaratqich kelishigi + egalik</b>                      qoʻshimchasi                      Maktabning bogʻi                      1. daftaming varagʻi (tobe, hokim belgili)                      2. daftlar varagʻi (tobe belgisiz, hokim belgili)                      3. bizning daftlar (tobe belgili, hokim belgisiz)</p> <p>4. daftlar varoq (tobe belgisiz, hokim belgisiz)</p> <p>Moslashuvda, asosan, oʻlli birikma ishtirok etadi:                      doʻstimning onasi(ot+ot)                      mustaqillik shabadasi(ot+ot)                      mening daftanim (oimosh+ot)</p>	<p><b>Hech qanday grammatik</b>                      koʻrsatkichsiz ohang va mazmun jihatidan bogʻlanadi:                      tantanali qism, qizil uzum, katta koʻcha agar bitishuvda soʻz birikmasidagi bosh va ergash soʻzning oʻmi almasha, gap hosil boʻladi: Koʻcha katta Suv timiq.  <b>Bitishuvda oʻlli, feʼli birikma qatnashadi:</b>                      toʻsaddan kelmoq                      shoshmasdan bormoq                      birga yashamoq                      qush kabi uchmoq</p> <p><b>ravish+ feʼl = bitishuv</b>  <b>Eslatma:</b> Ravish tarkibida kelishik yaxlitlangan boʻlsa, koʻmakchili soʻz qanday? savolini olsa, boshqaruv emas, bitishuv boʻladi. Masalan: Zavq bilan (qanday?) kuytamoq.</p>

Oʻzbek tilida soʻz birikmalarining tobe soʻzi, asosan, hokim soʻzdan oldin keladi. Soʻz birikmalari tarkibidagi tobe va hokim soʻzning hech qanday qoʻshimchasi, faqat ohang va maʼnosiga koʻra bogʻlanishi bitishuv deyiladi: tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan oʻquvchi, mehribon murabbiy.

Tobe soʻzning hokim soʻzga tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalari yoki koʻmakchilar yordamida bogʻlanishi boshqaruv deyiladi: doʻstlarni hurmat qilmoq, gʻalaba uchun kurashmoq, yoshlarga gʻamxoʻrlik qilmoq, sharoitga koʻra yondashmoq.

Tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi yordamida, hokim soʻzning esa, tobe soʻzga egalik qoʻshimchalari yordamida bogʻlanishi moslashuv deyiladi: kitobning muqovasi, xonalarning kattarogʻi, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.

### Soʻz birikmasi va soʻz

Soʻz birikmalari ham soʻzlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin soʻz – leksik hodisa, soʻz birikmasi grammatik hodisadir. Soʻz birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi.

Masalan, kitob soʻzi bir narsaning umumlashgan oti boʻlib, yolgʻiz tushunchani ifodalaydi, oʻrtogʻimning kitobi birkmasida esa faqat «kitob» maʼnosining oʻzi emas, balki «oʻrtogʻimga tegishli kitob» tushunchasi ifodalanadi.

**Soʻz birikmalarida maʼno, tushuncha ancha aniq va ravshan boʻladi.**

*Qiyoslang:* nor-erkak tuya, gʻoʻnan — ikki yashar ot, ezma — sergap odam.

Shuning uchun lugʻatlarda soʻzning maʼnosini ochib berishda soʻz birikmalaridan foydalaniladi.

## Soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz

Soʻz birkmasida ham, soʻzda ham qismlar bir xildagi soʻz turkumlariga oid boʻlishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega boʻlishi mumkin. Bu ularning shakily oʻxshashligidir. Lekin soʻz birikmasidagi qismlar maʼno mustaqilligini saqlagan boʻladi. Qoʻshma soʻz tarkibidagi qismlarning maʼnosi esa saqlanmagan boʻlib, qoʻshma soʻzning umumiy maʼnosi orqali anglashiladi.

Soʻz birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qoʻshma soʻz qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yoʻqolgan boʻladi.

Soʻz birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida-alohida soʻroq berish mumkin: kitobni (nimani?) oʻqimoq, uydan (qayerdan?) chiqmoq kabi. Qoʻshma soʻzlarga esa yaxlit bir savol berish mumkin: kungaboqar (nima?), kamquvvat (qanday?).

Soʻz birikmasining qismlari oʻz mustaqil soʻz urgʻusini saqlagan boʻladi (uyning eshigi, xatni oʻqimoq, tez yugurdi), qoʻshma soʻz esa umumiy bir urgʻuga ega boʻladi (oqkoʻngil, bilaguzuk, Yangiqoʻrgʻon).

Qoʻshma soʻzlarning koʻpchiligi tarixan soʻz birikmalari asosida yuzaga kelgan.

## Soʻz birikmasining shaklan yaqin tushunchalardan farqlari

Soʻz birikmasi - sintaktik birlik	Qoʻshma soʻz - lugʻaviy birlik
Soʻz birikmasi: qora belbogʻ, oshqozon yarasi, litseyga olib kelmoq	Qoʻshma soʻz: belbogʻ, qoʻlqop, oshqozon, havorang, tashrif buyurmoq, olib kelmoq
Soʻz birikmasi: qoʻli egri bola, koʻngli keng odam, qizga koʻzi tushmoq	Ibora - lugʻaviy birlik qoʻli egri, koʻngli keng, koʻzi tushdi
Soʻz birikmasi: kuzning kelishi, bahorning kelishi, koʻm-koʻk oʻtloq	Gap - sintaktik birlik: Kuz. Bahor keldi. Havo toza. Oʻtloq koʻm-koʻk
Soʻz birikmasi: maktab tomon yurmoq, ukam uchun olmoq, qilmishiga yarasha jazolamoq	Soʻz birikmasi darajasiga oʻsib chiqmagan holatlar: maktab tomon, ukam uchun, qilmishiga yarasha
Soʻz birikmasi: kitobni oʻqib chiqmoq, birdan kulib yubormoq, unga aytib berib tura qolmoq	Koʻm-makchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi: oʻqib chiqmoq, kulib yubormoq, aytib berib tura qolmoq



## Soʻz birikmasini ajratish

*Biz rostgoʻylik va halollikni hamisha ulugʻlaymiz.*

$$5 - 2 = 3$$

1. hamisha ulugʻlaymiz
2. halollikni ulugʻlaymiz
3. rostgoʻylikni ulugʻlaymiz

*Anvar oʻz istiqbolini yolgʻiz muhabbat orqali koʻrar edi.*

$$6 - 2 = 4$$

1. muhabbat orqali koʻrar edi
2. yolgʻiz muhabbat
3. istiqbolini koʻrar edi
4. oʻz istiqbolini

*Hayot mendan ayamadi neʼmatlarini,*

*Ne istasam, berdi doim, hech bir tonmayman*

$$10 - 5 = 5$$

1. neʼmatlarini ayamadi
2. mendan ayamadi
3. ne (-ni) istasam
4. berdi doim
5. hech bir tonmayman

**Topshiriq:** soʻz birikmasini ajrating.

Keng yoʻl, doʻppi yarmita, ishyoqmas, olmaning guli, olmaqoqi, shirinsuxan, Koʻhna Urganch, tezoqar, kamunum, sersuv, tishini tishiga qoʻydi, men oʻqidim, olma hamda oʻrik, kecha-yu kunduz, ogʻzi qulogʻida, yosh-u qari, havorang, senda koʻp, zamin uzra, jahon ichra, koʻngli koʻtarilmoq, ogoh aylamoq, saodatli onlar, ona-yurt, koʻcha katta, kulib gapirmoq, yaxshi koʻrmoq, Oʻzbekiston Oliy Majlisi, mehnatiga yarasha, vaʼda boʻyicha, haqiqatga yaqin, serhosil dala, ertak haqida gapirmoq, oz-oz oʻrganib, Salimning kitobi, Biz keldik, belbogʻ, qoʻlqop.

## Soʻz birikmasi va turgʻun bogʻlanma

Soʻz birikmasida soʻzlar oʻzaro erkin bogʻlangan boʻladi: tushuncha anglatadi, turgʻun bogʻlanma (ibora)larda esa soʻzlar maʼnoviy butunlik uchun birlashgan — yaxlitlangan boʻladi va bir leksik maʼno anglatadi.

Turgʻun bogʻlanma (ibora)ga bir soʻz sifatida qaraladi, lugʻatlarda soʻzlar qatorida beriladi, chunki ular ham soʻzlar kabi maʼno ifodalaydi. Masalan, koʻzini yogʻ bosgan iborasi — «magʻrurlangan», yogʻ tushsa yalaguday iborasi — «toza», toʻnini teskari kiyib olmoq iborasi — «qaysarlik qilmoq» maʼnosini beradi, ammo bu maʼnolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

Soʻz birikmalaridagi soʻzlarni, erkin bogʻlangani uchun, almashtirish mumkin, turgʻun bogʻlanma (ibora)lardagi soʻzlarni almashtirib boʻlmaydi, ular bir maʼno ifodalash qonuniyati asosida turgʻunlashgan, yaxlitlangan boʻladi: boʻyniga qoʻymoq (iqrar qilmoq), koʻnglidan oʻtkazmoq (oʻylamoq), oʻpkasi yoʻq (hovliqma) kabi.


Soʻz birikmasi va turgʻun bogʻlanma gapda oʻxshash shaklda uchrashi mumkin, lekin biri tushuncha, biri leksik maʼno ifodalaydi.

*Qiyoslaymiz:* Hozirgina qizcha ushlab olgan togʻ **kapalagi uchib ketdi.** — Sigirning ahvolini koʻrdi-yu, uning ham *kapalagi uchib ketdi.*

### Soʻz birikmalari zanjiri

Gap tarkibida bir soʻz birikmasidagi hokim soʻz boshqa bir soʻzga tobelangani, bir hokim soʻz bir necha hokim soʻzga aloqador boʻlgan hollarda soʻz birikmalari zanjiri hosil boʻladi. Soʻz birikmasidagi tobe va hokim soʻzlar orasida bir necha boshqa soʻzlar va soʻz birikmalari kelishi mumkin.

Buni quyidagi chizmalarda koʻramiz:



## Soʻz birikmasi va gap

Soʻz birikmasi ham, gap ham soʻzlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. Soʻz birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi. Gap esa, maʼlum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmini ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qoʻshimchalari bilan shakllangan boʻladi.

### Soʻz birikmalarini tahlil qilish

1. Berilgan gapdagi soʻz birikmalarini aniqlab, yozib chiqish. 2. Har bir soʻz birikmasini alohida-alohida tahlil qilish:

- a) hokim soʻz bilan tobe soʻzning birikish turini koʻrsatish;
- b) hokim soʻz va tobe soʻzni aniqlash;
- d) hokim soʻz va tobe soʻzni bogʻlovchi grammatik vositani koʻrsatish;
- e) hokim soʻz va tobe soʻzni qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligini izohlash.

#### *Tahlil namunasi:*

Zargarov sahradagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi.

Gapda 4 ta soʻz birikmasi mavjud: yaxshi tasvirlab berdi, miqyosini tasvirlab berdi, ishlarning miqyosi, sahradagi ishlar.

1. yaxshi tasvirlab berdi – bitishuv; hokim soʻz – tasvirlab berdi, tobe soʻz – yaxshi; ohang va maʼno vositasida birikkan; sifat (ravish vazifasida)+feʼl;

2. miqyosini tasvirlab berdi – boshqaruv; hokim soʻz – tasvirlab berdi, tobe soʻz – miqyosini; tushum kelishigi qoʻshimchasi (-ni) vositasida birikkan; ot + feʼl;

3. ishlarning miqyosi – moslashuv; hokim soʻz – miqyos, tobe soʻz – ishlarning; qaratqich kelishigi (-ning) va egalik (-i) qoʻshimchalari vositasida birikkan; ot + ot;

4. sahradagi ishlar – bitishuv; hokim soʻz – ishlar, tobe soʻz – sahradagi; ohang va maʼno vositasida birikkan; ot+ot.

#### **Gapni soʻz birikmalariga ajratish:**

1. Gap sintaktik tahlil qilinadi.

2. Ikkinchi darajali boʻlaklar qaysi boʻlakka tobelanayotgani aniqlanadi: hol + kesim, toʻldiruvchi + kesim, aniqlovchi + ega, aniqlovchi + toʻldiruvchi. Masalan, Mayin shamol derazaning darpardasini sekingina silkitardi. Ushbu gapda quyidagi soʻz birikmalari bor:

hol + kesim: sekingina silkitardi

toʻldiruvchi + kesim: darpardasini silkitardi

aniqlovchi + ega: mayin shamol

aniqlovchi + toʻldiruvchi: derazaning darpardasi

## Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi va ularning sinonimiyasi

Tobe bo'lak hokim bo'lakka bir yoki bir nechta kelishik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi mumkin.

Agar hokim bo'lak egalik qo'shimchasidagi ot bilan ifodalangan bo'lsa, tobe bo'lak faqat qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalanadi:

ot
----

 ning → 

ot
----

 -im (-m), -ing (ng), -i (-si)

Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasa ham, uning izi bilinib turadi.

ot
----

 → 

ot
----

 -im (-m), -ing (ng), -i (-si)

Agar hokim bo'lak belgi bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi so'z chiqish kelishigi orqali bog'lanadi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

Ot
----

 dan → 

Belgi bildiruvchi
-------------------

*Masalan, Oydan go'zal; asaldan shirin; otdan baland kabi.*

Agar hokim bo'lak fe'l bilan ifodalansa, shu fe'lning ma'no talabiga ko'ra tobe bo'lak bir necha kelishik qo'shimchalari orqali bog'lanadi. Uni quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin:

ot
----

 → 

fe'l
------

*Masalan, uzum ye; uzumni ye.*

- s

-ni

-dan

Bularning birinchisida har qanday uzum, ikkinchisida so'zlovchi bilan tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan aniq uzum va uning hammasi, uchinchisida so'zlovchi bilan tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan aniq uzum va undan

bir qism ma'nosi ifodalanadi.

## Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi kelishik o'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida ham bog'lanadi. Masalan,

Istiqlol uchun kurashmoq.

Toshkent tomon yo'nalmoq.

Ba'zan kelishik va ko'makchi birgalikda qo'llaniladi. Bunday vaqtda kelishik tobe so'z oxiriga yoki ko'makchi oxiriga qo'shilishi mumkin.


Masalan,

Dala tomon ketmoq.

dala tomonga ketmoq.

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida bog'langanda, ko'p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo'llanilishi mumkin. Natijada, kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi vujudga keladi.

Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:



- ga
- tomon
- tomonga
- ga tomon

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, ular o'rtasida ma'lum ma'no farqlanishi mavjud. Kelishik qo'shimchasi yordamida bog'langanda hokim bo'lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo'nalish nuqtasi aniq, ko'makchi yordamida bog'langanda esa, noaniq bo'ladi.

*Solishtiring:*

<i>Maktabdan chiqdi</i>	}	<i>Maktabga ketdi</i>
<i>Maktab tomondan chiqdi</i>		<i>Maktab tomonga ketdi</i>
		<i>Maktab tomon ketdi</i>
		<i>Maktabga tomon ketdi</i>

## **Qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchalarining qo'llanilishi**

Tobe bo'lak hokim bo'lakka qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi yordamida bog'langanda ikki tomonlama bog'lanish ro'y beradi. Tobe bo'lak qaratqich kelishigi qo'shimchasini, hokim bo'lak esa, egalik qo'shimchasini oladi. Bunday bog'lanishda tobe qism qaratqich, hokim qism qaralmish deb ham nomlanadi.

Ko'pincha qaratqich kelishigi yoki egalik qo'shimchasi, ba'zan esa, har ikkisi ifodalanmaydi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

- a) -ning (do'stimni ng)            (ona) -si
- b) (mustaqillik) ☞            (shabada) -si
- c) -ning (bizning)            (Vatan) – ☞

Qaratqich kelishigi doimo tushib qola bermaydi. U quyidagi hollarda, albatta, qo'llaniladi:

a) qaratqich bilan qaralmish o'rtasida boshqa so'z kelsa. Masalan, Derazaning qora oynasi;

b) qaratqich atoqli ot,olmosh va sifatdoshlar bilan ifodalanganda. Masalan, Ahmadning daftari, Mening daftarim, o'qiganning foydasi kabi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qaratqich va qaralmish munosabatida qaratqich va egalik qo'shimchalarining ifodalanishi to'rt xil ko'rinishga ega:

Bu ko'rinishlar o'rtasida ma'lum mazmuniy va uslubiy farqlanish bor.

Solishtiring:

- 1) daftarning varag'i;
- 2) daftar varag'i;
- 3) bizning daftar;
- 4) daftar varaq.

Birinchi bog'lanish bilan ikkinchi bog'lanish o'rtasida **aniqlik-noaniqlik ma'nosi bor yoki yo'qligiga ko'ra farqlanish mavjud**. Agar varaq so'zlovchi va tinglovchi uchun aniq bitta daftarga qarashli bo'lsa, birinchi bog'lanish qo'llaniladi, **umuman daftarga qarashli bo'lsa**, ikkinchi bog'lanish qo'llaniladi. Uchinchi bog'lanish ko'proq qaratqich I shaxs ko'plikdagi olmoshlar bilan ifodalanganda ishlatiladi. To'rtinchi bog'lanish esa, birinchi va ikkinchisidan ko'proq so'zlashuv uslubiga xosligi bilan farqlanadi.


Shunday qilib, qaratqichli birikmalarning qay holatda qaysi biridan foydalanishni bilish madaniy nutq uchun katta ahamiyatga ega.

## Soʻz birikmalarida qaratqich va tushum kelishiklaridan oʻrinli foydalanish

Qaratqich va tushum kelishik qoʻshimchalari bir-biriga shakl jihatdan juda yaqin. Shuning uchun ogʻzaki soʻzlashuvda qaratqich kelishigi oʻrnida ham koʻpincha tushum kelishigi qoʻshimchasi qoʻllaniladi. Masalan, olmaning sharbati oʻrniga olmani sharbati deyiladi. Natijada, yozuvda ham koʻpchilik ogʻzaki soʻzlashuv taʼsirida shunday yozib qoʻyadi. Bunday xatodan qutilish uchun hokim soʻzning ifodalanishiga eʼtibor berish kerak.

Agar hokim boʻlak soʻf feʼl bilan ifodalansa va bu feʼl *kimni? nimani? qayerni?* soʻroqlariga javob boʻluvchi soʻzni talab qilsa, tobe boʻlak tushum kelishigida qoʻllanadi, hokim boʻlak egalik qoʻshimchasini olgan ot, haʼzan harakat nomi va sifatosh bilan ifodalansa, tobe boʻlak qaratqich kelishigida qoʻllaniladi.

Uni quyidagi sxemadan koʻring:



### Topshiriqlar

1. Gaplar (maqollar) tarkibidagi soʻz birikmalarini aniqlab, ularni oʻtti soʻz birikmasi hamda feʼli soʻz birikmasiga ajrating.

Namuna: Hayot mendan ayamadi neʼmatlarini

Ne istasam, doim berdi hech bir tonmayman.

1. mendan ayamadi – boshqaruv, feʼli;
2. neʼmatlarini ayamadi – boshqaruv, feʼli;
3. ne istasam – boshqaruv, feʼli;
4. doim berdi – bitishuv, feʼli;
5. hech bir tonmayman – bitishuv, feʼli.

1. Boʻzchi belbogʻga yolchimas. 2. Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan. 3. Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni. 4. Maydonda sinalgan odam – elda aziz. 5. Ona yurtning omon boʻlsa, rangi-roʻying somon boʻlmas. 6. Oʻzingni er bilsang, oʻzgani sher bil.

1. Gapdagi soʻz birikmalarini aniqlovchili birikmalar, toʻldiruvchili birikmalar va hollli birikmalar kabi guruhlarga ajratib koʻchiring.

1. Shaharda koʻp qavatli binolar qurish avj olgan.

2. Kechasi tiniq osmonda yulduzlar charaqlaydi.

2. Berilgan gapni soʻz birikmalariga ajrating. Bu soʻzlar gapda qanday vositalar orqali bir-biriga bogʻlanayotganini izohlang.

Biz rostgo'ylik va halollikni hamisha ulug'laymiz.

**3. Quyida berilgan gaplarda 6 tadan so'z birikmasi bor, ularning tobe va hokim so'zlari grammatik jihatdan shakllangan. Ularni diqqat bilan tahlil qilib, so'z birikmalari zanjiri nima ekanligi va qanday hosil bo'lishi haqida hukm chiqaring.**

1. O'z Vatani sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.

2. Kechqurunlari buvimdan oy yorug'ida turli rivoyatlar tinglardim.

**4. Berilgan gaplarni so'z birikmalariga ajrating. So'z birikmalari zanjirini aniqlang. Bir gapda nechtagacha so'z birikmalari zanjiri bo'la olishi haqida xulosa chiqaring.**

1. Kishi moliga suq podsholarni ko'p ko'rgan Binoiy o'n olti yoshli Boburning bunchalik halolligidan juda qattiq ta'sirlandi. 2. Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi. 3. Bu masalarni tezda yechish kerak.

**5. Gaplardagi so'z birikmalari zanjirini chizmalar asosida ko'rsating.**

1. Badanni junjituvcchi sovuq shamol izg'ib qoldi. 2. Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar.

**6. Berilgan so'z birikmalari va gaplarni qiyoslang, so'z birikmasi va gap orasidagi farqlarni aniqlang. Kesim ularning qay biriga xos?**

1. Oydin kecha — Kecha oydindir. 2. O'qishli asar — Asar o'qishli. 3. Qiziqarli mashg'ulot — Mashg'ulot qiziqarlidir. 4. Maqolani o'qimoq — Maqolani o'qidim. 5. Qattiq sovuq — Sovuq qattiq.

**7. Berilgan so'z birikmalaridagi hokim va tobe so'zlarni aniqlab, qaysi turkum so'zlar bilan ifodalanganini ayting.**

*Namuna: ishonchli do'st — sifat+ot — otli, bitishuv.*

1) oq kabutar, qizargan olma; 2) do'stona munosabat, g'oyat qiziqarli, o'zbekcha nutq; 3) qiyinchilikni yengmoq, devorni buzmoq, daraxtga chiqmoq; 4) hovlining o'rtasi, qushning qanoti, do'stimning maktubi.

**8. Berilgan so'z birikmalarini moslashuv, boshqaruv, bitishuv usulida ajrating.**

*Namuna: Nazirjonning do'stlari — ot+ot, moslashuv.*

Erta turmoq, bog'ga kirmoq, uydan chiqmoq, bolalardan biri, katta xona, bemor uchun dori, maktabimizning jamoasi, xonani bezamoq, shaharda yashamoq, oltin uzuk, do'stlar bilan uchrashuv, o'quvchiga e'tibor.

**9. Berilgan so'z juftliklaridan bitishuv, boshqaruv, moslashuv usullari bilan so'z birikmalari hosil qiling.**

*Namuna: tilla tish - bitishuv*

1) masala, yechmoq; 2) o'rtoqlar, suhbatlashmoq; 3) quvnoq, yashamoq; 4) shahrimiz, ko'chalar; 5) Salima, ko'rishish; 6) qizil, olma.

**10. Berilgan misollarda so'zlar qanday vositalar bilan o'zaro birikkanligini aniqlang.**



*Namuna: Abdusattor, Qahramon, Botir va men - sanash ohangi; va - teng bog'lovchi.*

1) yer-u osmon; 2) oy-u quyosh; 3) Sarvinoz yoki Diyora; 4) ba'zan qor, ba'zan yomg'ir; 5) na kitob, na daftar; 6) ko'z hamda quloq.

**11. Berilgan gaplardagi ajratilgan so'z birikmalarini mashqdan so'ng berilgan so'zlar bilan almashtiring.**

*Namuna: qanotli do'stlar - qushlar.*

1. Yurtimiz zangori olov, qora oltin zaxiralariga juda ham boy. 2. Ko'rgazmada atoqli mo'yqalam ustalari yaratgan rasmlarni tomosha qildik. 3. Otamning akalari - haydovchi. 4. Echking bolasi onasining atrofida sakrab o'ynardi. 5. Maktabimizda taniqli so'z san'atkori bilan uchrashuv bo'ldi. 6. Mamlakatimizda juda katta miqdorda kumush tola yetishtiriladi. 7. Bu yil bahor elchilari erta uchib keldilar. 8. Vatanimizda ishlab chiqarilgan havo kemalari dunyo bo'ylab parvoz qilmoqda. 9. Dehqonlarning oq oltin yetishtirishning barcha sirlarini bilishadi.

So'zlar: yozuvchi, rassomlar, gaz, neft, pilla, samolyotlar, paxta, amakim, uloqcha, qaldirg'ochlar.

**12. Berilgan gap juftliklaridagi ajratib ko'rsatilgan til birliklarini qiyoslab, ularning ma'nolaridagi va yozilishdagi farqlarni aniqlang.**

*Namuna: bosh og'rig'ini - so'z birikmasi,*

*boshog'riqni - qo'shma so'z*

1. Dori bosh og'rig'ini darrov qoldirdi. «Boshog'riqni ko'paytirmang», - dedi rahbarimiz. 2. Qayerdandir oq qushlar uchib keldi. Bola jarohatlangan oqqushni davoladi. 3. Qiziqchi qizil ishton kiygan edi. Qizilishton daraxt po'stlog'i orasidagi qurtlarni terib yeydi. 4. Qizilurug' kechroq unadi, lekin ko'p hosil beradi. Qizil urug'dan ungan ko'katlar sog'lom rivojlandi. 5. Maktab direktori kotiba olib kirgan hujjatlarga qo'l qo'ydi. Rahimjon ma'yus holda so'ri suyanchig'iga qo'l qo'ydi.

**13. Juft holda berilgan gaplar tarkibida ajratib ko'rsatilgan til birliklarining ma'noviy jihatini qiyoslab, ularni so'z birikmasi yoki turg'un birikmalarga ajrating.**

*Namuna: boshiga yetdi - so'z birikmasi,*

*boshiga yetdi - turg'un birikma.*

1. Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi. - Qo'rsligi, bema'ni gaplari, axir uning boshiga yetdi. 2. Shifokor dorini bolaning qulog'iga quydi. - Ota-bobolari nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga quydi. 3. Semiz qo'y go'shti o'z yog'ida qovurildi. - Yakka qolgan Hasanboy vijdan azobida o'z yog'ida qovurildi. 4. «Qizingizning ko'zlari yaxshi ko'radi», - dedi hakim. - «Shahzoda falon mahallada yashovchi kosibning qizini yaxshi ko'radi», - dedi tabib.

**14. Berilgan birliklarning har birini so'z birikmasi va ibora sifatida qo'llab, ikkitadan gap tuzing.**

*Namuna:* 1) bo'yniga ilmoq – arqonni bo'yniga ilmoq; aybni bo'yniga ilmoq; 2) tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; 3) to'nini teskari, kiymoq; 4) qo'li ochiq; 5) tosh otmoq.

15. So'z birikmasi va gap hosil qiling.

Namuna: berilgan topshiriq – Topshiriq berilgan.

1) vazifa, bajarmoq; 2) samarali, ishlamoq; 3) maktab, kelmoq.

## So'z birikmasi bo'yicha test topshiriqlari

### 1-variant

1. Javoblarning qaysi birida bosh so'z ham, ergash so'z ham yasama so'zlardan iborat otli birikma berilgan?

- A. ana shu qadriyatlar                      B. aloqalar kuchaygan.  
C. talaffuz ko'nikmalari                  D. insoniy kamolot

2. Berilgan birikmalarning qaysi birida bosh so'z fonetik qoida asosida yozilgan?

- A. dostonchilikdagi o'rmi                  B. asriy orzu  
C. mustaqilligimizning poydevori      D. mohiyati va kelajagi

3. Qaysi birikmadagi tobe so'z tarkibida ikkita so'z yasovchi qo'shimcha bor?

- A. taniqli shoir                              B. cho'qqiga intilmoq  
C. porloq kelajak                          D. hayotiy ehtiyoji

4. Tobe so'z qismlari yasama bo'lgan juft so'zlardan iborat birikmani toping.

- A. ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot          B. qo'llab-quvvatlashi bilan  
C. ilmiy-tanqidiy matn                      D. el-yurt farovonligi

5. Bosh so'z tarkibida ikkita nisbat qo'shimchasi bo'lgan so'z birikmasini belgilang.

- A. o'zgacha yaratilgan                      B. ustalik bilan kiritgan  
C. yaxshilikka yo'naltirilgan              D. ko'rsatilgan film

6. Qaysi so'z birikmasida bosh so'z ham, ergash so'z ham morfologik tamoyil asosida yozilgan?

- A. el-u yurt dard-u tashvishlari          B. og'ir- bosqlik bilan  
C. aql-idrok bilan anglamoq              D. yig'im-terim mavsumi

7. Yasama so'zlar teng bog'langan javobni toping.

- A. sog'lom fikrli                              B. jo'shqin va serqirra  
C. keskin va murakkab                      D. muhabbat bilan tug'ilmoq

8. Tarkibida fe'l yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan otli birikmani toping.

- A. yo'qotilgan yillar                          B. ijtimoiy ko'rsatkichlar

C. mehr-oqibatni ko'rib                      D. munosabat o'rnatilgan

9. Tobe so'zida faqat til undoshlari ishtirok etgan otli birikmani toping.

A. anglatadigan so'z

B. har bir yurt

C. ma'naviy boylik

D. imkoniyat yaratish

10. Har ikki qismi yasama so'zlardan iborat bo'lgan fe'lli birikmani belgilang.

A. umumli ishlab

B. ehtiyoji kuchayib

C. manbalardan foydalanilgan

D. uzoq o'tmish

11. So'zlarning teng bog'lanmagan qatorini belgilang.

A. ko'z bilan ko'rish

B. mashaqqatli, lekin sharafli

C. shodlik bilan qayg'u

D. nazariy ham amaliy

12. Tobe bo'lakning hokim bo'lakka vazifadosh ko'makchi yordamida bog'langan so'z birikmasi berilgan javobni toping.

A. undan ko'ra kuchli

B. farovonlik haqida kitob

C. yigit kabi navqiron

D. adabiy uyushma

13. Qaysi gapda teng bog'langan so'zlar faqat sanash ohangi yordamida birikkan?

A. Insonning qalbi va aqlida xuddi nutqidagi kabi u tug'ilib o'sgan yurtning muhri bo'ladi

B. Ahmoqlar hamda tentaklarga butun dunyo o'z tentakliklari nurida ko'rinadi

C. Dunyoni taqdir va nayrang boshqaradi

D. Bugun ma'naviyat, mafkura davlat siyosati darajasiga ko'tarildi

14. Qaysi gapdagi teng bog'langan so'zlar vazifadosh bog'lovchi yordamida bog'langan?

A. Ma'lumki, koinotdagi barcha narsa muayyan va ma'lum qonunga bo'ysunadi

B. Quyosh, oy hamda yulduzlar umumiy bir qoidaga itoat etib, undan qilcha ham chetlashmaydi

C. Qayg'u bilan shodlik yonma-yon bo'lishini unutmang

D. Mashaqqatli, lekin sharafli ishga qo'l urasiz

15. So'z birikmasi tarkibida kelishik qo'shimchalari va ko'makchi birgalikda qo'llanilgan va gapda kelishik qo'shimchasi qay tarzda qo'shiladi?

A. kelishik qo'shimchasi ko'makchi bilan birgalikda qo'llanilmaydi

B. kelishik qo'shimchasi tobe so'z oxiriga qo'shiladi

C. kelishik qo'shimchasi tobe so'z oxiriga yoki ko'makchi oxiriga qo'shilishi mumkin

D. A,C

16. Ular Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy baytlarini tahlil qilishdi. Ushbu gapda tobe bog‘lanishlar soni nechta ?

- A. 5 ta    B. 6 ta    C. 4 ta    D. 7 ta

17. Daftarning varag‘i va daftar varag‘i birikmalari o‘rtasida qanday farqlanish bor?

- A. So‘zlashuv uslubiga xosligiga ko‘ra  
B. Aniqlik-noaniqlik ma‘nosi bor yoki yo‘qligiga ko‘ra  
C. Butun va qism ma‘nosini bildirishiga ko‘ra  
D. Birikmalar o‘rtasida mazmuniy va uslubiy farqlanish kuzatilmaydi

18. 1) daftarning varag‘i; 2) daftar varag‘i; 3) bizning daftar; 4) daftar varaq. Berilgan birikmalardan qaysi birida so‘zlovchi va tinglovchi uchun aniq daftarga qarashli bo‘lgan varaq ma‘nosi ifodalangan?

- A. 1    B. 1, 2    C. 2    D. 3, 4

19. Berilgan birikmalardan qaysi biri so‘zlashuv uslubiga xosligi bilan farqlanadi? 1) daftarning varag‘i; 2) daftar varag‘i; 3) bizning daftar; 4) daftar varaq.

- A. 1    B. 2    C. 3    D. 4

20. Bosh so‘z sifatdosh bilan ifodalangan so‘z birikmasini toping.

- A. Vazifani bajarib    B. Kelajakka umid  
C. Chet elda o‘qigan    D. O‘qigan bola

21. Keltirilgan misollarning qaysi biri teng bog‘lanishli birikma?

- A. Oppoq paxtazor    B. Talabalar o‘qimoqdalar  
C. Jamoa xo‘jaligi a‘zolari va hasharchilar    D. Karimning kitobi

22. Grammatik vosita orqali bog‘langan birikmani toping.

- A. Serhosil dala    B. Ma‘noli so‘z  
C. Katta daryo    D. Ertak haqida bayon qilmoq

23. Bosh so‘z sifatdosh bilan ifodalangan so‘z birikmasini aniqlang.

- A. Vazifani bajarib    B. Kelajakka umid  
C. Birga o‘qigan    D. Muzeysga bormoq

24. Ravishdosh bosh so‘z bo‘lib kelgan qatorni belgilang.

- A. Shivir-shivir gap    B. Po‘latdan mustahkam  
C. Kelajakni o‘ylagan    D. Oz-ozdan o‘rganib

25. Tobe bog‘lanishli so‘z qo‘shilmasini toping.

- A. Yosh-u qari    B. Markaziy Osiyo  
C. Mehnatda fidokor    D. Shaftoli va o‘niklar

26. Qanday so‘z birikmalarida ergash so‘z bosh so‘zga grammatik vositalarsiz bog‘lanadi?

- A. Boshqaruvda                      B. Bitishuvda  
C. Moslashuvda                     D. Boshqaruv va bitishuvda

27. Quyidagi grammatik vositalarning qaysi biri soʻz birikmasi doirasida qoʻllanadi? 1. Bogʻlovchilar; 2. Kelishik qoʻshimchalari; 3. Egalik qoʻshimchalari; 4. Shaxs-son qoʻshimchalari; 5. Yuklamalar; 6. Koʻmakchilar.

- A. 1, 2, 3, 4, 5, 6      B. 2, 3, 6      C. 1, 2, 5, 6      D. 2, 3, 4

28. Berilgan qaysi soʻz juftligidan soʻz birikmasi va gap hosil qilish mumkin? 1. Berilgan, topshiriq; 2. Vazifa, bajarmoq; 3. Qiziqarli, mashgʻulot; 4. Oʻqishli, asar; 5. Samarali, ishlamoq.

- A. 1, 2, 5                      B. 1, 3, 4      C. 1, 3, 5      D. 4, 5

29. Hayot mendan ayamadi neʼmatlarini, Ne istasam, berdi doim, hech bir tonmayman. Ushbu parchada nechta boshqaruvli birikma mavjud?

- A. 2 ta      B. 3 ta      C. 4 ta      D. 5 ta

30. Daraning pillapoya kabi yotiq yeri. Ushbu murakkab soʻz birikmasida hokim qism toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni aniqlang.

- A. yotiq yeri                      B. daraning  
C. pillapoya kabi                D. pillapoya kabi yotiq yerlari

31. Yosh hunarmand oʻz kasbiga, uyiga, bola-chaqasiga, doʻkoniga ega boʻlibdi, oilasi, farzandlari bilan tinch yashay boshlabdi. Ushbu gapda nechta boshqaruvli birikma bor?

- A. 3 ta      B. 4 ta      C. 5 ta      D. 6 ta

32. Bosh soʻzi ot bilan ifodalangan soʻz birikmalarini toping.

- A. hammadan koʻp, otdan baland, tovushdan tez  
B. mendan sekin, undan yaxshi, Karimning kitobi  
C. Navroʻz bayrami, oʻrik hidi, qattiq aziyat  
D. yongʻoqdan qattiq, nondan yumshoq, mendan yaxshi

33. Boshqaruvli birikmalarda tobe soʻz qaysi kelishik shakllarida boʻladi?

- A. Bosh, qaratqich, tushum  
B. Qaratqich, tushum  
C. Tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish  
D. Faqat chiqish kelishigi

34. Hokim soʻz ot boʻlib kelishi mumkin boʻlgan bogʻlanishlar qaysi qatorda toʻliq berilgan?

- A. moslashuv, bitishuv, boshqaruv      B. moslashuv, bitishuv  
C. moslashuv                                      D. moslashuv, boshqaruv

35. Oʻz Vatanini sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi. Ushbu gapda qatnashgan soʻz birikmalaridagi soʻzlarning bogʻlanish usullari va ularning sonini aniqlang.

- A. 3 ta bitishuvli, 2 ta boshqaruvli, 2 ta moslashuvli soʻz birikmasi
- B. 2 ta bitishuvli, 2 ta boshqaruvli, 2 ta moslashuvli soʻz birikmasi
- C. 4 ta bitishuvli, 2 ta boshqaruvli, 1 ta moslashuvli soʻz birikmasi
- D. 3 ta bitishuvli, 2 ta boshqaruvli, 1 ta moslashuvli soʻz birikmasi

36. Quyidagi qaysi gapda moslashuv va boshqaruv aloqasi mavjud?

- A. Yillar mana shu xilda osoyishta oʻtar edi
- B. Oʻzingni er bilsang, oʻzgani sher bil
- C. Biz rostgoʻylik va halollikni hamisha ulugʻlaymiz
- D. Umidsizlik uyini buzsang, umidingga yetarsan

## 2-variant

1. Shimoldan esgan shamol soʻz birikmasi zanjiridagi tobe qismni aniqlang.

- A. esgan    B. shamol    C. shimoldan esgan    D. shimoldan

2. Hokim soʻz sifat bilan ifodalangan boshqaruvli birikmalar berilgan javobni aniqlang.

1) gulday chiroyli; 2) choynakdan kattaroq; 3) bolalarning aqllisi; 4) hayot goʻzal; 5) oʻqishda ilgʻor; 6) osmon begʻubor.

- A. 2, 4, 5, 6    B. 1, 5    C. 1, 2, 3, 4, 5, 6    D. 1, 2, 4, 5, 6

3. Toʻrtta qora koʻzoynakli semiz kishi soʻz birikmasi zanjiridagi tobe soʻzni toping.

- A. toʻrtta qora koʻzoynakli    B. toʻrtta
- C. toʻrtta qora koʻzoynakli semiz    D. semiz kishi

4. Qaysi gapda bitishuv aloqali soʻz birikmasi qatnashgan?

- A. Uzun uzishga yordamchilar yetib kelishdi
- B. Avtobus bekatida doʻstim bilan uchrashib qoldim
- C. Direktorning kabinetida yigʻilish boʻlib oʻtdi
- D. Yozgi taʼtilda choʻmilib dam oldik

5. Teng bogʻlanish haqidagi notoʻgʻri hukmni aniqlang.

- A. Teng bogʻlangan boʻlaklar bir xil gap boʻlagi vazifasida keladi
- B. Teng bogʻlanishda soʻzlar teng bogʻlovchilar yoki sanash ohangi yordamida bogʻlanadi
- C. Teng bogʻlangan boʻlaklar koʻpincha bir xil soʻroqqa javob boʻladi
- D. Teng bogʻlanishda nechta soʻz boʻlishidan qatʼiy nazar, ular bitta tushunchani ifodalaydi

6. Chaqimchining tilidan ilon zahar oladi. Ushbu gapda qanday munosabatli soʻz birikmalari qoʻllangan?

- A. 1 ta moslashuv, 1 ta boshqaruv
- B. 1 ta moslashuv, 2 ta boshqaruv

- C. 1 ta moslashuv, 1 ta boshqaruv, 1 ta bitishuv  
 D. 1 ta moslashuv, 2 ta boshqaruv, 1 ta bitishuv
7. Bitishuvli birikmalardan qaysi biri otli birikma emas?  
 A. ko'tarilgan masala                      B. sekin yurgan  
 C. kishilarning g'ala-g'ovuri              D. do'stlar bilan uchrashuv
8. So'z birikmasi qaysi qatorda berilgan?  
 A. ko'zi tushdi    B. oq ko'ngil    C. sozni chalib    D. O'ra Osiyo
9. Qaysi gapda bitishuvli so'z birikmasi tarkibidagi hokim so'z ega vazifasini bajargan?  
 A. Dardchil yuraklarning sevinchlari yog'di  
 B. Do'st siri o'z siringga aylansin  
 C. Sabrsiz odam o'z boshiga kulfat keltiradi  
 D. O'tinganlardan biri so'zga chiqdi
10. Sifat boshqaruvi qaysi qatorda berilgan?  
 A. Yaxshi niyat, serdaromad ish  
 B. O'ziga ma'lum, yo'lida intizor  
 C. Burchga beparvolik, ahhdiga sodiqlik  
 D. O'qdan tez, haqiqatga yaqin
11. Qaysi qatordagi birikuv erkin birikma sanaladi?  
 A. Aybni bo'yniga qo'yimoq, qilichni bo'yniga qo'yimoq  
 B. Ariqning boshiga yetmoq, onasining boshiga yetmoq  
 C. Ko'prikdan o'tkazmoq, ko'rikdan o'tkazmoq  
 D. Dorini qulog'iga quymoq, gapni qulog'iga quymoq
12. Qaysi qatordagi atama (termin)lar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli?  
 A. Fe'l-kesim, bosh so'z, kirish so'z  
 B. Aralash qo'shma gaplar, omonimlar, sifat  
 C. Birikma, qo'shma gap, rasmiy uslub  
 D. Taqlid so'z, jamlovchi otlar, nisbat yasovchi qo'shimchalar
13. Teatrimizning ijodiy kuchlari birikmasidagi tobe so'z qaysi qatorda berilgan?  
 A. kuchlari                      B. teatrimizning kuchlari  
 C. teatrimizning              D. ijodiy kuchlari
14. Bosh (hokim) so'z ot bilan ifodalangan so'z birikmalarini toping.  
 A. Navro'z bayrami, o'rik hidi, qattiq aziyat  
 B. Bahoriy kayfiyat, oydan ham go'zal, yosh ijodkorlar  
 C. Ishga shoshilmoq, bayram fayzi, yurakdan o'qimoq  
 D. Kamalakdek egik, anketa so'rovi, tarixiy shaxs

15. Ikki qavatli uy birikmasidagi tobe so'z qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Uy      B. Qavatli uy      C. Ikki      D. Ikki qavatli

16. Ot+fe'l shaklidagi birikmalarda so'zlarni o'zaro bog'lovchi vositalar ko'rsatilgan javobni toping.

- A. Kelishiklar      B. Tartib va intonatsiya (ohang)  
C. Ko'makchilar      D. Kelishik va ko'makchilar

17. Shoshmasdan bajarmoq, to'g'riga yurmoq kabi birikmalardagi so'zlar o'zaro qanday yo'l bilan bog'langan?

- A. Moslashuv usuli bilan      B. Ko'makchili boshqaruv usuli bilan  
C. Bitishuv usuli bilan      D. Kelishikli boshqaruv usuli bilan

18. Qaysi qatorda so'z birikmasi bor?

- A. Va'da bo'yicha      B. Ota yurt  
C. Mehnatiga yarasha      D. O'zbekiston Oliy Majlisi

19. Bosh so'z ravish bilan ifodalangan so'z birikmasini toping.

- A. Farovon hayot      B. Haqiqatga yaqin  
C. Ko'p gapirmoq      D. Hammadan kuchli

20. Bosh so'z sifatdosh bilan ifodalangan so'z birikmasini toping.

- A. Vazifani bajarib      B. Kelajakka umid  
C. Chet elda o'qigan      D. O'qigan bola

21. Keltirilgan misollarning qaysi biri teng bog'lanishli birikma?

- A. Oppoq paxtazor  
B. Talabalar o'qimoqdalar  
C. Jamoa xo'jaligi a'zolari va hasharchilar  
D. Karimning kitobi

22. Grammatik vosita orqali bog'langan birikmani toping.

- A. Serhosil dala      B. Ma'noli so'z  
C. Katta daryo      D. Ertak haqida bayon qilmoq

23. Qaysi qatordagi birikma tarkibidagi ergash so'z turlanmagan?

- A. Yoppasiga ommalashmoq      B. Unga bildirmoq  
C. Ukasiga bemoq      D. Chiroylisini tanlamoq

24. Bitishuvli so'z birikmasi qaysi qatorda berilgan ?

- A. ukamdan olmoq      B. qiz husni  
C. birdan gapirmoq      D. ukam uchun olmoq

25. Qaysi gapda so'zlarning teng bog'lanishi mavjud ?

- A. Ularga choyni achchiq damlaydi  
B. Vatan mung'aygan tandirli, pastakkinna tomli kulbadan boshlanadi



- C. Kecha kechqurun Salim biznikiga keldi  
 D. Bir-biriga o'ynab yurgan mehribonlarga salom!
26. Qaysi hukm noto'g'ri?  
 A. So'z – leksik hodisa, so'z birikmasi grammatik hodisadir  
 B. So'z birikmalari ham so'zlar kabi narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifodalashga xizmat qiladi  
 C. Lug'atlarda so'zning ma'nosini ochib berishda so'z birikmalaridan foydalaniladi  
 D. So'z tushuncha, so'z birikmalari esa, fikr ifodalaydi
27. Hokim so'z fe'lining sifat-dosh shakli bilan ifodalangan so'z birikmasini belgilang.  
 A. tashqarida yura-yura                      B. olomonning ovozasini  
 C. yemi zirillatib                                D. ifodali o'qigan (bola)
28. Tobe so'z fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan moslashuvli birikmalar berilgan qatorni aniqlang.  
 A. Ayriliq azobi, yashash gashti  
 B. Uzum shirasi, oila baxti  
 C. Karimning kitobi, Salimning do'sti  
 D. Litsey bog'i, daraxt yaprog'i
29. So'z birikmalari tarkibida so'zlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiluvchi vositalarni aniqlang.  
 A. munosabat shakllari, ko'makchilar, bog'lovchilar  
 B. faqat ko'makchilar  
 C. ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalar  
 D. kelishik shakllari, ko'makchilar
30. Berilgan so'z birikmalaridan hokim so'z ravishdosh bilan ifodalangan fe'lli birikmani toping.  
 A. hurmat bilan yondashgan                      B. senga ko'p  
 C. gulni sevmog'                                      D. onasini o'ylab
31. Berilgan birikmalarning qaysida sifat boshqaruvchi vazifasida kelgan?  
 A. kamalakdek egik, onadek aziz  
 B. qalampirdan achchiq, men uchun aziz  
 C. barchasida sifat boshqaruvchi vazifasida kelgan  
 D. asalday shirin, nonday aziz
32. Berilgan gaplarning qaysi biri tarkibida sifat boshqaruvchi mavjud?  
 A. Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,  
     Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman  
 B. Barcha javoblarda sifat boshqaruvchi mavjud

- C. Men suygan suyuqli shunchalar go'zal  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal
- D. Shoirlar bor, o'z yurtin butun  
Olam aro atagan tanho

33. So'z birikmasida egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shilsa, tobe bo'lak qanday shaklda bo'ladi?

- A. tobe bo'lakdan so'ng ko'makchi keladi
- B. tobe bo'lak qaratqich kelishigida bo'ladi
- D. tobe bo'lak ko'makchi yoki kelishik qo'shimchalarini olgan shaklda bo'ladi
- C. tobe bo'lakdan so'ng tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalaridan biri kelishi mumkin

34. So'z birikmasida tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi vositalarning qo'shilish o'rni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. kelishik, ko'makchi va ohang hokim qismga, egalik qo'shimchasi esa, tobe qismga qo'shiladi
- B. kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa, hokim qismga qo'shiladi
- C. kelishik hokim qismga, egalik qo'shimchasi tobe qismga qo'shiladi, ko'makchi va ohang hech qaysi qismga qo'shilmaydi
- D. kelishik tobe qismga, egalik qo'shimchasi hokim qismga qo'shiladi, ko'makchi va ohang hech qaysi qismga qo'shilmaydi

35. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi. Ushbu gapda nechta so'z birikmasi bor, ularning nechtasi bitishuvli birikmaga mansub?

- A. 6 ta; 3ta      B. 5 ta; 3ta      C. 6 ta; 2ta      D. 5ta; 2ta

36. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi.

Ushbu gapda nechta fe'li birikma mavjud?

- A. 3 ta      B. 4 ta      C. 5 ta      D. 2 ta

---

---

## GAP

**Asosiy helgilari:**

1. Gap muomalaning eng kichik birligi hisoblanadi.

2. Gap nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi: Qish. Hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan. Kuz. Daraxtlarning yaproqlari sarg'aya boshladi.

3. Har bir gap grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi, gap uchun eng muhim belgi kesimlik belgisidir. Gap hosil qilish uchun so'z va so'z birikmalari grammatik jihatdan bog'lanishi shart: Rasmni qalam bilan chizdi.

4. Har bir gap tugallangan ohang bilan aytiladi, ya'ni gapning ohangidan uning boshlanishi va tugallanishi sezilib turadi.

Gap bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap so'z birikmasidan kesim va ega yoki faqat kesim bo'laklariga aloqador grammatik asosga egaligi bilan farq qiladi, so'z birikmasi tushuncha, gap fikr ifodalaydi. Grammatik asosda gapning fikriy mundarijasi ifodalanadi. Bu fikriy mundarija fe'l kesimning mayl va zamon ma'notari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Bolalar ishlayaptilar. Ozoda rasm chizmoqda gaplari ish-harakatning hozirgi zamonda bo'layotganidan darak bersa, Bolalar ishladi. Ozoda rasm chizdi gaplari esa, ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lganidan darak beradi. Siz dalaga borasizmi? Sen hikoyani o'qidingmi? Gaplari o'tgan zamonda bo'lgan ish-harakat haqida so'roqni bildiradi. Siz she'rni o'qing. Siz shu ishni bajarib qo'ysangiz gaplari istak-buyruq ma'nosiga ega. Gap tarkibidagi so'zlar ham ma'no tomondan ham grammatik tomondan o'zaro bog'lanadi.

Biz morfologiya bo'limida o'rgangan kelishik, egalik, son, zamon, shaxs-son qo'shimchalari, shuningdek, ko'makchi va bog'lovchilar sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim hollarda gapdagi so'zlar tartib va ohang yordamida ham o'zaro bog'lanadi. Masalan, Oq paxtalar ochildi, Teraylik quvna-b quvna-b. Bu gapda oq va paxtalar so'zlari bir-biri bilan so'z tartibi orqali bog'langan.

Har bir gap biror maqsadni — mazmunni ifodalaydi. Og'zaki nutqda ana shu mazmunga mos keladigan tugal ohang bo'ladi. Ohang, ayni bir vaqtda gaplarni bir-biridan ajratib ham turadi.

Ohang gap uchun eng muhim belgidir. Ayrim so'z yoki so'z birikmalarini tugallik ohangi bilan aytganda, gap yuzaga keladi va biror fikr-maqsad anglashiladi: Ko'm-ko'k dala. G'arbiy chegaralardan biri.

Ayni bir sodda gapning ohangini o'zgartirish orqali ba'zan uch xil

mazmun ifodalash mumkin: Buvijonim keldilar. — Buvijonim keldilar! — Buvijonim keldilar?

Yozma nutqda ana shu ohangga qarab har bir gap oxiriga yo nuqta, yo so'roq, yo undov belgisi qo'yiladi.

## Gap turlari

Gap quyidagi xususiyatlariga ko'ra guruhlarga bo'linadi:

1. *Ifoda maqsadiga ko'ra turlari:*

- darak gap;
- so'roq gap;
- buyruq gap;
- istak gap.

2. *Gapning ohangiga ko'ra turlari:*

- his-hayajon gap;
- his-hayajonsiz gap.

3. *Gapning tuzilishiga ko'ra turlari:*

- sodda gap;
- qo'shma gap.

4. *Gapning grammatik asosga ko'ra turlari:*

- egali gap;
- egasiz gap.

Har bir gapda ma'lum bir maqsad, niyat yoki his-hayajon ifodalanadi. So'zlovchi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar qiladi, yoki o'ziga noma'tum bo'lgan narsa va voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot olishni istaydi, tinglovchiga biror ishni bajarish bo'yicha buyruq-xitobini bildiradi. Gaplar ana shu maqsadlarga ko'ra turlicha quriladi: o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, alohida ohang bilan talaffuz etiladi.

Darak, so'roq, buyruq va istak gaplar egali va egasiz, yig'iq va yoyiq, sodda va qo'shma gap shaklida bo'lishi mumkin.

Gaplar his-hayajonning ishtirokiga ko'ra ikki turli: 1) his-hayajonsiz gaplar; 2) his-hayajonli (undov) gaplar. Darak, so'roq va buyruq gaplar his-hayajonsiz gaplardir. Eular nutqda kuchli his-hayajonga ega bo'lishi bilan his-hayajonli gaplarga aylanishi mumkin. His-hayajonli gaplar undov gap deb ham nomlanadi.

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytiladigan gapdir. Ular shodlik, quvonch, suyunish, qo'rquv, tantana, taajjub, qayg'u, afsuslanish kabi turli hissiyotlarni ifodalaydi va baland ohangda aytilishi bilan boshqa gap turlaridan farq qiladi. Yozuvda undov gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan, Voy, qomatingdan onang o'rgilsin! O'z qilmishlaringizdan uyalmay-sizmi? Qadamlaringizga hasanot!

Salomlashish — soʻrashish, xayrlashish singari holatlar bilan bogʻlangan gaplar ham yuqori ohang bilan aytiladi va undov gaplar hisoblanadi. Undov gap soʻroq gapdan hosil boʻlgan boʻlsa, oldin soʻroq, keyin undov belgisi qoʻyiladi: Aysangiz-chi, nima dedi?!

### Gapning tuzilishiga koʻra turlari

sodda gaplar

qoʻshma gaplar

Nutqimizdagi gaplar bir yoki ikki grammatik asosdan, baʼzan esa, ikkitadan ortiq grammatik asosdan tuzilishi mumkin. Shu jihatdan gaplar ikkiga boʻlinadi:

**Grammatik asosi bitta boʻlib, maʼlum bir fikrni ifodalovchi gaplar sodda gap deyiladi:** Soʻgʻdiyona oʻqidi. Soʻgʻdiyona kitobni oʻqidi. Soʻgʻdiyona shu kitobni oʻqidi. Soʻgʻdiyona shu kitobni hayajon bilan oʻqidi kabi.

**Ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topib, murakkabroq fikr anglatuvchi gap qoʻshma gap deyiladi:** Shu payt eshik ochildi va hovliga harbiycha kiyingan bir yigit kirib keldi. Bilimli oʻzar, bilimsiz toʻzar. Odam borki, odamlarning naqshidir.

### Sodda gap haqida umumiy maʼlumot

Grammatik asoslarning miqdoriga koʻra gaplar sodda va qoʻshma gaplarga boʻlinadi. Qiyoslang: Bu shaharda tanish-bilish yoʻqligi Mirzayevga shu bugun bilindi. Kampirning koʻzlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.

Sodda gaplar eganing ishtirok etish yoki etmasligiga koʻra ikki xil boʻladi: egasi mavjud gaplar va egasiz gaplar.

Sodda gaplar ikkinchi darajali boʻlaklarning ishtirok etgani yoki etmaganiga koʻra: sodda yigʻiq gaplar, sodda yoyiq gaplarga boʻlinadi.

Sodda gaplar bosh boʻlaklar ishtirokiga koʻra: bir bosh boʻlakli, ikki bosh boʻlakli

**Topshiriq:**

**1. Quyidagi gaplarni tuzilishiga koʻra sodda va qoʻshma gaplarga ajratib yozing.**

1. Qimirlagan qir oshar. 2. Ahillik bor yerda temir ham suvga choʻkmaydi. 3. Mard bir oʻlar, nomard yuz oʻlar. 4. Nizomjon konvertni dadasining qoʻliga berdi-yu, gʻizillaganicha chiqib ketdi. 5. Goʻyo hayot tamomila uxlaganday, hammayoq jimjit edi. 6. Xalil ota halol va mehnatsevar kishiga xos izzat-obroʻsini va qadr-qimmatini chuqur tushuntirdi.

## **2. Gap bo'laklarini aniqlang.**

1. Bola bir guruh jangchilarni botqoqlikdan xatarsiz o'tkazib qo'rganini aytdi.

2. Arava katta to'lgatida to'xtashi bilan shu yerdagi ko'cha devori yonida o'tirgan odam o'midan turib keldi.

## **Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari**

So'zlovchining maqsadiga xoslangan gap turlariga gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari deyiladi.

Kesimi aniqlik maylidagi fe'llardan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi otlardan ifodalaniib, biror voqea-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi.

Masalan, Ana bu — bizning bog'imiz.

Yozuvda darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Ba'zan darak gaplardagi gap bo'laklarining me'yoridagi tartibi o'zgarishi mumkin. Masalan:

a) Urug'chilik instituti shahar markazidan xiyla chetda joylashgan.

b) Shahar markazidan urug'chilik instituti xiyla chetda joylashgan.

d) Xiyla chetda joylashgan urug'chilik instituti shahar markazidan uzoqda edi.

Darak gaplardagi bunday uch xil gap bo'laklarining tartibi gapning umumiy mazmunini bir xil ifodalasa ham, lekin uslubiy xoslanishlik va gap bo'laklaridan birining ahamiyatlilik darajasini ifodalashga ko'ra o'zaro farqlanadi: a) va b) harflari bilan berilgan gaplar kitobiy uslubga; d) harfi bilan berilgan gap esa so'zlashuv uslubiga xoslangan; Darak gaplar ma'lum axborotni tasdiq va inkor yo'li bilan ifodalaydi. Kesimi bo'lishsiz fe'llardan, yo'q, emas so'zlarini olgan sifatdosh va otlardan ifodalangan gaplar darak- inkor gaplar sanaladi.

Ba'zan gapning inkor shakli orqali tasdiq ma'nosi ifodalangani. Bunday vaqtda ikkita inkor shakl qo'llanilib, gapga tasdiq ma'nosini beradi. Masalan, o'qimay qo'ymayman. Inkor shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosi tasdiq shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

## **Buyruq hamda istak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari**

Kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalaniib buyruq-xitob ma'nolarini ifodalangan gaplarga buyruq gaplar deyiladi.

Buyruq gaplarning buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalangan kesimi ba'zan tushib qolishi mumkun, lekin uning o'zi nutq vaziyatidan biliniib turadi. *Masalan, Hamma paxta terimiga!*

Buyruq gaplarning oxiriga yozuvda nuqta, baʼzan undov belgisi qoʻyiladi. Buyruq gaplarning kesimi aniqlik nisbati, II shaxs, buyruq maylidagi feʼllar bilan ifodalanadi. Masalan, Chekmang!

Baʼzan majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi feʼllar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, Ishga qabul qilinsin.

Ayrim hollarda III shaxs buyruq maylidagi feʼllar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs maʼnosida qoʻllaniladi. Masalan, Chekmang oʻrinda Chekilmasin. Uygʻa kiring oʻrnida Uygʻa kirilsin. Bunday vaqtda iltifot, mulozamat bildirish, kesatiq kabi maʼnolarni ifodalaydi.

Buyruq gapning kesimi odatda gap oxirida keladi. Baʼzan buyruqni kuchaytirish, doʻq-poʻpisa maʼnosi ifodalanganda kesim gap boshida keladi. Masalan, Qoʻlingizni oling oʻrniga Oling qoʻlingizni.

Kesimi shart-istak maylidagi feʼllar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi.

Yozuvda istak gaplar oxiriga nuqta qoʻyiladi.

### **Soʻroq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari**

Soʻroq olmoshlari, soʻroq yuklamalari, soʻroq ohangi yordamida ifodalanib, soʻzlovchiga nomaʼlum boʻlgan voqea-hodisa haqida axborot olish maqsadida qoʻllaniluvchi gaplarga soʻroq gaplar deyiladi.

Soʻroq olmoshlari yordamida ifodalangan soʻroq gaplar bilan soʻroq yuklamalari va soʻroq ohangi yordamida ifodalangan soʻroq gaplar qanday javob talab qilishi bilan farq qiladi. Soʻroq olmoshlari maʼnosiga muvofiq aniq javobni talab etadi. Masalan,

– Guruhingizda kim yaxshi oʻqiydi?

– Nargiza.

Soʻroq yuklamasi va soʻroq olmoshlari ishtirok etgan soʻroq gaplar esa, ha yoki yoʻq javobini talab etadi. Ha va yoʻq soʻzlarini javob tarzda qoʻllab, soʻngra unga izoh beriladi. Masalan,

– Sen akademik litseyda oʻqiyasmi?

– Ha, men akademik litseyning bitiruvchi oʻquvchisiman.

Yoki: – Bu litseymi?

– Ha, bu litsey.

Soʻroq gaplar oxiriga doimo soʻroq belgisi qoʻyiladi.

Baʼzan darak maʼnosini ifodalash uchun soʻzlovchi darak shaklidan emas, balki soʻroq gap shaklidan foydalanadi. Masalan, Buni kim bilmaydi?

Bunday soʻroq gaplar javob talab qilmaydi. Javobi shu gapning oʻzida boʻladi. Soʻroq gap kesimi boʻlishsiz feʼllar bilan ifodalangan boʻlsa, tasdiq darak gap maʼnosini; aksincha, boʻlishli feʼllar bilan ifodalangan boʻlsa, inkor gap maʼnosini bildiradi.

Masalan, Bu daraxtni kesishga kim jur'at qiladi? («Bu daraxtni kesishga hech kim jur'at qilolmaydi» ma'nosini bildiradi).

So'roq gap orqali ifodalangan darak ma'nosi darak gap orqali ifodalangan darak ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

Shuningdek, so'roq gap shakli orqali buyruq ma'nosi ham ifodalanishi mumkin. Masalan,

– Yurmaysizmi? («yuring» ma'nosida)

So'roq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosi buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

Darak ma'nosini ifodalagan so'roq gaplarga so'roq-darak gaplar, buyruq ma'nosini bildirgan so'roq gaplarga esa so'roq-buyruq gaplar deyiladi.

## Gaplarning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turlari

His-hayajon bilan aytilgan gaplar undov gap deyiladi. His-hayajonli (undov) gaplarda kesim ko'pincha gapning oldida keladi, tarkibida ko'pincha eh, oh, singari undov so'zlari ishtirok etadi va kuchli hayajon bilan talaffuz qilinadi. Shuning uchun yozuvda undov gapdan so'ng undov belgisi qo'yiladi.

Agar his-hayajon so'roq gapga qo'shilib, uni undov gapga aylantirsa, avval so'roq belgisi, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi. Masalan, Qo'shiqdan kim bahra olmaydi?!

## Gap bo'laklari

Gap bo'laklari gapni tashkil etishi va tuzilishiga qarab ikkiga bo'linadi:

1. *Gapning bosh bo'laklari: ega va kesim.*

2. *Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.*

Gapda ega guruhiga oid bo'laklar va kesim guruhiga oid bo'laklar bo'ladi, ya'ni egaga bog'liq bo'laklar ega guruhini, kesimga bog'liq bo'laklar kesim guruhini tashkil qiladi: Quyoshning o'tkir nurlari oppoq qorlarni eritdi. Bu gapda quyoshning o'tkir nurlari ega guruhini, oppoq qorlarni eritdi kesim guruhini tashkil qilgan. A'lochi o'quvchilar uy vazifasini puxta bajaradilar. Bu gapda a'lochi o'quvchilar ega guruhini, uy vazifasini puxta bajaradilar kesim guruhini tashkil qilgan.

Gapni bo'laklarda ajratishda so'zlarning tobe bog'lanishi asosiy mezon qilib belgilanadi. Teng bog'lanish gapning bo'laklarini belgilashda mezon bo'la olmaydi.



## Ega va uning ifodalanishi

**Ega** — gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, *kim?, kimlar?, nima?, nimalar?, qayer?* soʻroqlariga javob boʻladi. Baʼzan egalik qoʻshimchalarini olganda sifat, son va ravishning soʻroqlarini olishi mumkin (qaysisi?, nechitasi?, qanchasi?) Ega, asosan, bosh kelishikdagi soʻz orqali ifodalanadi: Atrof jimjit. Nima gunohi bor? Lekin ega toʻddan ajratilgan qismni bildirganda chiqish kelishigi shaklida boʻladi: Unda ham bu kitoblardan bor. Maktabimizda hamma millatdan bor.

Ega quyidagi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi:

1. **Ot:** Bogʻchalarda qushlar chiyillar.
2. **Otlashgan sifat:** Yaxshi niyatiga yetsin.
3. **Son:** Besh — oʻnning yarmi. Ikkalamiz (otlashgan son) vazifani bajardik.
4. **Olmosh:** Har kim bilganicha idrok etsin.
5. **Otlashgan sifatdosh:** Intilgan elga yoqar. Birlashgan oʻzar — birlashmagan toʻzar.
6. **Harakat nomi:** Eshikning qoʻqqisidan ochilishi ayollarni choʻchitib yubordi.
7. **Otlashgan ravish:** Koʻplar bu masalaning mohiyatini tushundi.
8. **Otlashgan undov soʻz:** Bolaning voy-voyi eshitildi.
9. **Otlashgan taqlid soʻz:** Daraxt barglarining shitir-shitiri xayolimni boʻldi.
10. **Otlashgan modal soʻz:** Bor boricha, yoʻq holicha.
11. **Ibora:** Aravani quruq olib qochish yaramaydi.

## Topshiriq

1. Eganing qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganini izohlang.

1. Aqlli oʻzini ayblar, aqlsiz — doʻstini. 2. Oʻlmas noxushlik bilan qovun pallasidagi non quyuqlariga qaradi. 3. Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar. 4. Mastura Mashrabning koʻzlariga qadalib qaradi. 5. Yalqov bilan anqov — dushman uchun katta ov. 6. Kamtarlik kishiga zeb-u ziyatdir. 7. Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar. 8. Qoʻshni xonadan qizlarning qahqahasi eshitildi.

2. 1. Oʻlmas kechqurun juda horgʻin uyga qaytib keldi. 2. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmogʻin tishlar. 3. Yugurish sportning bir turidir. 4. U Toshkentda turadigan uzoqroq qarindoshlarining qizi edi.

## Egali va egasiz gaplar

Sodda gaplar egali (shaxsli) va egasiz (shaxssiz) boʻlishi mumkin. Egasi mavjud boʻlgan gaplar shaxsli gaplardir. (masalan, Biz bugun

Samarqandga jo'namiz), egasi mavjud bo'lmagan gaplar esa, shaxssiz gaplardir. (masalan, Bugun Samarqandga jo'natadi). Birinchi gapda ega (biz) ishtirok etgan, ikkinchi gapda esa, ega ishtirok etmagan, kesimdan ifodalangan ish-harakatning kim tomonidan bajarilishi ma'lum emas.

### Egasi yashiringan gaplar

*Egasi (shaxsi) ma'lum gaplar*

*Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar*

Egasi ma'lum gaplarda gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turadi. Bunday gaplarning kesimi, odatda, I va II shaxs shaklida bo'ladi.

Egasi umumlashgan gaplarda gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi. Bunday gaplarning kesimi II va III shaxs shakllarida keladi: Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. Avtobusga orqa eshikdan kiriladi (kirishadi). Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo'ladi.

### Egasisiz gaplar

*shaxsi noma'lum gap*

*atov gaplar*

*so'z-gaplar*

**Eslatma:** *Egasisiz gaplarda ega umuman bo'lmaydi va gap ma'nosidan anglashilmaydi.*

Shaxsi noma'lum gaplarda kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi.

### Atov gaplar

**Atov gaplar** so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavalantirishga, uning xotirasida yoki xayolida ular bilan aloqador bo'lgan voqea-hodisalarni tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviriy vositadir. Atov gaplar, asosan, **aniqlik maylining hozirgi-kelasi**, ba'zan esa, **o'tgan zamon shakllaridagina** keladi. Atov gaplar **bitta so'zdan** iborat bo'lishi ham, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin.

## Soʻz-gaplar

Bir soʻzdan iborat boʻlib, tarkibga ajralmaydigan, boshqa soʻzlar bilan kengaya olish imkoniyatiga deyarli ega boʻlmagan gaplar soʻz-gaplar deyiladi. Ular tasdiq, inkor, soʻroq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, matn bilan bogʻliq boʻladi. Soʻz-gaplar, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarni ifoda etgani uchun ham, koʻproq dialogik va baʼzan monologik nutqqa xosdir. Masalan:

– Endi soʻzingizdan aynamang, xoʻpmi?

– Mayli, – dedi Fazliddin.

– Yoʻq, – dedi Otabek, lekin uning taajjubi uy egasiga ochiq koʻrinib turar edi.

Yoʻlchi eshikchani ochib kirdi:

– Assalomu alaykum, hormang, ota!

Kishilar oʻrtasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir soʻz yoki ibora (birlik)lar soʻz-gaplar vazifasida qoʻllanadigan boʻlib qolgan: assalomu alaykum, yoqimli ishtaha, marhamat, salomat boʻling, qulluq, osh boʻlsin, yaxshi boring, xush koʻrdik, labbay, jonim bilan, bajonidil kabi.

## Yoyiq atov va soʻz-gaplar

Atov gaplar turli xildagi sodda va murakkab aniqlovchilar bilan bemalol kengayadi. Atov gap kengaygan harakat nomi birikmalari bilan ham ifodalanishi mumkin. Soʻz-gaplarning kengayishi juda qiyin va oʻta chegaralangan.

Baʼzan soʻz-gaplar takrorlanib qoʻllanadi:


Ergash tushunmadi:

– Nima-nima? – dedi koʻzini katta ochib.

– Biror gap eshitdingizmi? – soʻradi Joʻraxon.

– Yoʻq-yoʻq.

**Yuqoridagi fikrlarni quyidagi sxema orqali ham ko'rish mumkin:**



## Shaxsi noma'lum gap

1. Kesimi majhul nisbatdagi fe'l (-il): Zalda chekilmasin.
2. Kesim tarkibida bo'ladi, bo'lmaydi; to'g'ri keladi, to'g'ri kelmaydi so'zlari qatnashadi: Xom suvni ichib bo'lmaydi.
3. Kesimda harakat nomidan keyin kerak, joiz, mumkin, shart, zarur, darkor so'zlari bo'ladi: Toshni gavhardan farqlash kerak.
4. Kesimda -mas qo'shimchali so'z bo'ladi: Oyni etak bilan yopib bo'lmas.

### Topshiriq

1. Quyidagi mashqlarni namunadagidek yozing.

Namuna: Shaftolizor bog'larni ko'rdim.

Shaxsi ma'lum gap (egasi mavjud emas, egasi yashiringan)

1. Sermanzara bog'ni tomosha qilib yurgan edim. 2. Bilmagan ishga urinma, urinib tuzoqqa ilinma. 3. Onalarimizni avaylaylik! 4. O'ylab qaragam, haq ekansiz. 5. Boshing osmonga yetgan bo'lsa ham, kallangni xam qil.

2. 1. Vazifani bajarish kerak. Bu vazifani bajar. 2. Yo'lda ukam menga to'g'ri kelib qoldi. Yo'lda biroz to'xtashga to'g'ri kelib qoldi. 3. Bugun to'garakka borishimiz lozim edi. To'garakka borish kerak.

3. 1. Ko'ngilda armon qolmasin deb, chilyosin ham qildirishga to'g'ri keldi. 2. Ko'p o'tmay tandir kabobni ochish marosimini boshlashdi. 3. Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak. 4. Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir.

4. 1. O'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasin. 2. Tarbiyachi va o'qituvchi bo'lish uchun chidam bilan o'qiladi. 3. O'zinigina o'ylovchi kishini yaxshi odam deb bo'lmaydi. 4. Yangi binolar qishloqlarning husniga husn qo'shmoqda. 5. Uquvi yo'q har qadamda qoqiladi. 6. Bu yerda chekilmaydi.

### Ikki bosh bo'takli gap tuzilishiga ko'ra turlari

Sodda yig'iq

Ega va kesimgina  
mavjud bo'ladi

*Gulnora keldi.  
Vazira bilan singlim kelishdi.  
Yigit ham shunaga  
bo'ladimi?  
Manzuraxon ham baxti bor qiz ekan.*

Sodda yoyiq

Ega, kesim, to'ldiruvchi,  
aniqlovchi, hol

*O'lkamizga altin kuz fasli kirib keldi.*

## Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar

Faqat ega va kesimdan iborat bo'lgan gap sodda yig'iq gap hisoblanadi. Ega va kesimdan boshqa bo'laklar bilan kengaygan gap sodda yoyiq gap deyiladi.

Gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergashib keladigan bo'laklar ikkinchi darajali bo'laklardir. Ikkinchi darajali bo'laklar: *aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol*. Ular fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid so'z, olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol gapni, uning ayrim bo'laklarini kengaytirishga, aniqlashga xizmat qiladi. Gap tarkibida ikkinchi darajali bo'laklardan birontasi ishtirok etsa, bunday gap yoyiq gap hisoblanadi.

## To'liq va to'liqsiz gaplar

Sodda gaplar shakllanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

**1. To'liq gaplar. 2. To'liqsiz gaplar.**

**To'liq gap** – zarur bo'lgan barcha bo'laklari mavjud bo'lgan gap.

**To'liqsiz gap** – nutq vaziyatidan ma'lum bo'lgan ayrim bo'laklari tushirilgan gap.

– Shu voqeadan so'ng aniq kelgan edimi? Bu – to'liq gap.

– Kelgan edi, qizim. Bu – to'liqsiz gap.

To'liqsiz gaplar mazmunan to'liq bo'ladi. Chunki ularda yashiringan bo'lakni oldingi gapning mazmunidan anglash mumkin. To'liqsiz gap sodda gapning alohida bir ko'rinishi hisoblanadi. Ular ma'lum bir maqsadni ifodalovchi uslubiy vosita hisoblanadi.

To'liqsiz gaplar qo'shma gap tarkibida ham kelishi mumkin. Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod.

Ba'zan nutqda mustaqil qo'llanuvchi to'liqsiz gaplar ham ishlatiladi. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi. Uyning oldida bog'. Eshik yonida shkaf.

Ayrim to'liqsiz gaplar frazeologik birikmalardan tashkil topishi mumkin. Ular salomlashish, tabriklash va chaqiriq ma'nolarini ifodalaydi: Hayrli kech! Bayramingiz bilan! Tug'ilgan kuningiz bilan! Vatan uchun!

## Gapning tuzilish jihatdan turlari bo'yicha test topshiriqlari 1-variant

1. Egali sodda gapni aniqlang.

- A. Tuyani cho'mich bilan sug'orib bo'lmaydi
- B. Hazillashganda ham aqlni ishlatib hazillashing
- C. Inson nimaga erisholmasa, o'sha aziz tuyiladi
- D. Sabr-toqat – umr xazinasi

2. Egali gap qaysi qatorda berilgan?

- A. Aqlli yoshlar fursatlarini bekorga sochmaydilar, g'ayrat bilan o'qiydilar, ishlaydilar
- B. Har kuni sport bilan shug'ullaning
- C. Paxtakorlik kasbini ulug'layapmiz
- D. Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi

3. Qaysi qatorda egali gap berilgan?

- A. Cho'lga ketish rejasini tuzdik
- B. Bu kitobni o'qib chiqqanman
- C. Opa-singilning majlisdan kelishlarini kutishdi.
- D. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi – shu

4. Egali gapni aniqlang.

- A. Jasorat maqsad sari boradigan yo'lni osonlashtiradi
- B. Bolaligidan hayotni sevaman
- C. Jindek arz qilib keldik
- D. Qiziqmasang, ishga o'rganolmaysan

5. Egali gap qaysi qatorda?

- A. Kulmoq hamisha ummi uzaytiradi
- B. Har kuni sport bilan shug'ullaning
- C. Paxtakorlik kasbini ulug'layapmiz
- D. Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi

6. Qaysi qatorda egali gap berilgan?

- A. Siz bilan bu haqda gaplashishga to'g'ri keladi
- B. Ertalabki salqinda yetib borish kerak
- C. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l
- D. Katta qizi bir choynak va ikkita piyola olib kirdi

7. Gapning kesimiga asoslanib, egasini aniqlash mumkin bo'lgan egasiz gapni toping.

- A. Shaxsi ma'lum gap
- B. Egasi noma'lum gap
- C. Egasi umumlashgan gap
- D. Atov gap

8. Qaysi qatordagi gap egasiz gap emas?

- A. Xom suvni ichib bo'lmaydi
- B. Biznikida papiros chekilmaydi
- C. Tokni xomtok qilish kerak
- D. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi

9. Qaysi qatorda egasiz gap berilgan?

- A. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi
- B. Xom suvni ichib bo'lmaydi
- C. Qimirlagan qir oshar
- D. Ko'chada hech kim yo'q

10. Atov gap qaysi qatorda?

- A. Xo'p, o'rtoq shifokor!
- B. Bolalikka buyuk ehtirom bilan qarash lozim
- C. Mana Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda
- D. Shu yorug' yo'lda sizga zo'r baxtlar tilayman

11. Atov (nominativ) gapni aniqlang.

- A. Unga hujjat berishdi
- B. Qiziqmasang, ishga o'rganolmaysan
- C. Yaxshi ishlashni o'rganish uchun ishga sidqidildan berilish kerak
- D. Mana Humoxonning derazasi. Ochiq fortotchkadan patefon xirillab

eshitilar edi

12. Atov gap qaysi qatorda berilgan?

- A. Hozir bu hodisani so'zma-so'z aytib berolmayman.
- B. Yoz. Qovun-tarvuz g'araq pishgan
- C. Asl mard tilga zo'r bermaydi
- D. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi

13. Qaysi qatorda so'z-gaplar berilgan?

- A. Ulardan xat keladimi? – Keladi, keladi
- B. – Sening bundan xabaring bormi, Ali? – Yo'q ustod
- C. – Siz qayerdan, mehmon? – Toshkentdan
- D. Shu voqeadan so'ng kuyovingiz aniq kelganmi edi? – Kelgan edi, qizim

14. Tasdiqni ifodalovchi so'z-gap qaysi qatorda berilgan?

- A. – U ham boradimi? – Yo'q
- B. – Muborak bo'lsin! – dedi Suhrob singillarini tabriklab
- C. – Mayli, o'tgan ishga salovat
- D. – Bu gap esingdan chiqmasin – Xo'p, taqdir

15. Imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rdingmi? – Ha, tayyorgarlik ko'rdim.  
Ushbu gapdagi ha so'zini qanday izohlaysiz?

- A. Gap
- B. so'z gap
- C. kirish so'z
- D. atov gap



16. Sodda yoyiq gap berilgan qatorni toping.  
 A. Alisher o'ylanib qoldi.  
 B. Yigit ham shunaqa bo'ladimi?  
 C. Siz farg'onalikmisiz?  
 D. Berilgan barcha gaplar sodda yig'iq gaplardir
17. Sodda yoyiq gap qaysi qatorda berilgan?  
 A. Anvar kulib qo'ya qoldi.                      B. Nasiba indamay qo'ya qolmadi  
 C. Bu narsa o'z yechimini topadi              D. B, C
18. Yigit ham shunaqa bo'ladimi? Ushbu gap qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?  
 A. Sodda yig'iq gap              B. bir bosh bo'lakli gap  
 C. Sodda yoyiq gap              D. A va C
19. Qaysi qatorda to'liqsiz gap bor?  
 A. Bu maydonga nima ekiladi?  
 B. Olamni quyosh yoritadi, insonni — ilm  
 C. Farg'ona vodiysi naqadar go'zal!  
 D. Abdulla kelayotgan emish — Rostanmi?
20. Aniqlovchi tushirilgan (ifodalanmay qolgan) to'liqsiz gapni toping.  
 A. Ukang ketdimi? — Ketdi  
 B. — Salimanning opasi keldimi? — Opasi keldi  
 C. — Akang qachon keladi? — Ertaga  
 D. — Kim vazifani bajarmadi? — Hamma bajardi
21. To'liqsiz gapni toping.  
 A. — Shundaymi? — yoqasini ushladi chol  
 B. — Familiyangiz nima? — A'zamxonova  
 C. Sabr-toqat — umr xazinasi  
 D. — Ertaga Qorabuloqqa borar ekansiz-da?
22. Siddiqjon nimalar to'g'risida so'z'ladi? — Maktab tajriba uchastkasi haqida. Bu to'liqsiz gapda qaysi bo'laklar ifodalanmagan?  
 A. Ega    B. kesim    C. aniqlovchi    D. ega, kesim
23. To'liqsiz gapni aniqlang.  
 A. Bolalik uyda sir yotmas  
 B. Bolalik uyda g'iybat yo'q  
 C. Bol shirin, boldan bola shirin  
 D. Qochoqqa shafqat yo'q, qo'rqqoqa hurmat
24. To'liqsiz gap berilgan qatorni aniqlang.  
 A. Hayot bizni hamon o'z oqimida qalqitib borardi  
 B. Mayda ishlarga zeb bergan odam buyuk ishlarga noqobil bo'ladi

- C. – O'zining kimi bor? – Bobosi, ammasi  
D. – Xo'sh, xo'sh?

25. Qaysi qo'shma gapning bir qismi to'liqsiz gap tarzida shakllangan?

- A. O'tob yorug'i bilan aziz, odam – bilimi bilan.  
B. Yaxshini kim sevmaydi, yomondan kim kuymaydi?  
C. Bilgan topib gapirar, bilmagan – qopib.  
D. Salim, qara, qanday go'zal manzara.

26. Kesim bilan o'rin holi ifodalanmagan (tushirilgan) to'liqsiz gapni belgilang.

- A. – Muallimdan xabar oldingizmi, xola? – Xabar oldim, bolam.  
B. – Necha kishi bilan gaplashdingiz? – O'n bir kishi bilan.  
C. – Uyda kimingiz bor? – Onam.  
D. – Siz A'zamxonova emasmisiz? – Mahbuba A'zamxonovaman.

27. Qaysi qatorda to'liqsiz gap mavjud emas?

- A. Salim, qara, qanday go'zal manzara  
B. Hamma shanbalikka!  
C. Olg'a, bolalar  
D. Bilimsizga ish yo'q, ishsizga osh

28. Qaysi to'liqsiz gapda ega va uning aniqlovchisi ifodalanmagan, ya'ni qo'llanmagan?

- A. – Uni taniysizmi? – Taniyman.  
B. – Yechilgan masala to'g'rimi? – To'g'ri  
C. – Bu ishni kim bajarsin? – O'zing  
D. – Shu kunda ushlahsa nima qilisharkin? – Bilmadim

29. Qaysi qatorda shaxsi noma'lum gap berilgan?

1. Yo'lda biroz to'xtashga to'g'ri kelib qoldi.  
2. Ko'nglida armon qolmasligi uchun chilyosin qildirishga to'g'ri keldi.  
3. Yo'lda ukam menga to'g'ri kelib qoldi.  
4. To'garakka barvaqt borishga to'g'ri keldi.  
A. 2, 3, 4      B. 1, 2, 3, 4      C. 1, 2, 4      D. 1, 2, 3

30. Qor yog'ardi bo'ralab,  
Qolishmasdi dovuldan.  
To'yga aytib ketishdi,  
Shundoq qo'shni ovuldan.

Berilgan she'riy parchada nechta sodda gap bor?

- A. 3ta      B. 2ta      C. 1ta      D. 4ta

31. Sodda gapning to'liq sintaktik tahlilda quyidagi vazifalardan qaysilarini amalga oshirish kerak?

1. Gap va so'zlarning o'zaro bog'lanishi bo'yicha tahlil.

2. Gap bo'laklarini aniqlash.

3. Gapda qaysi so'z turkumiga oid so'zlar borligini aniqlash.

4. Gap qurilishi bo'yicha tahlil.

5. Gapda nechta tinish belgisi borligini aniqlash.

A. 1,2,4      B. 2,3,4      C. 1,2,3,5      D. 1,2,3,4

32. Eganing ishtirokiga ko'ra, sodda gaplarning turlari haqida berilgan noto'g'ri hukmni aniqlang.

A. Ega ishtirok etmagan gaplar shaxs tushunchasi ifodasiga ko'ra ikkiga bo'linadi, ya'ni egasi yashiringan va egasiz gaplar.

B. Egasiz gaplarning uch ko'rinishi bor, ya'ni shaxsi noma'lum gaplar, atov gaplar, so'z gaplar

C. Egasi umumlashgan gaplar o'z ichida ikkiga bo'linadi, ya'ni egasi ma'lum va egasi yashiringan gaplar

D. Berilgan hukmlarning barchasi to'g'ri

33. Qaysi qatorda ritorik so'roq gap herilmagan?

A. Nahotki Alimardonning shuncha mehnatlari besamar ketsa?

B. Bilmayman, bu ijod kishilarisiz qanday olar edim qalbinga o'tni?

C. Onang seni nahotki shu umid bilan katta qilgan bo'lsa?!

D. Xo'sh, sen o'tkazadigan tajriba nimani isbot qilishi kerak?

34. Maslahat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalaydigan gaplar gapning ifoda maqsadiga ko'ra, qanday turiga mansub bo'ladi?

A. Darak gap

B. his-hayajon gap

C. buyruq gap

D. istak gap

35. Kiritma gap va ajratilgan bo'lak bilan murakkablashgan sodda gap qaysi qatorda berilgan?

A. Biz (bu safar menga Maktuba xola hamroh bo'ldi) qishloqqa kechqurun, qosh qorayganda, kirib bordik

B. Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi

C. Biz Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida, besh yil birga xizmat qilganmiz, begim

D. Xojam, yaxshiyamki, Sulton Mahmud yoshlik chog'larida, yuragida insof va adolat tuyg'usi tamoman so'nib bitmagan mahallarda, bu adolatli farmonni bergan ekan

36. Kerak, joiz kabi so'zlar harakat nomlari bilan birikib qanday gaplar tarkibida murakkab kesim vazifasida kelgan?

A. shaxsi ma'lum gaplarda

B. shaxsi umumlashgan gaplarda

C. shaxsi noma'lum gaplarda

D. atov gaplarda

## 2-variant

1. Halollik islomda eng oliy matlab ekanligini kim bilmaydi? Ushbu gap mazmunan qanday gap?

- A. darak gap
- B. so'roq gap
- C. his-hayajon gap
- D. ritorik so'roq gap

2. Tasdiq mazmunini bildirgan ritorik so'roq gapni toping.

A. Nahotki yerimiz chappa aylanib, Nahotki, daryolar oqar teskari?  
B. Sut ko'r qilur haromi Gitler oqqadar, Farzandning qadrini qayerdan bilsin?

- C. Siz odamlarni yaxshi bilasiz
- D. Suv dehqonlar uchun durday noyob ekanligini kim bilmaydi?

3. Berilgan gapning qaysi birida tasdiq ma'nosi kuchliroq ifodalangan?

- A. Bu kitobni o'qimay qo'ymayman
- B. Bu kitobni o'qiyman
- C. Bu kitobni o'qigim keladi
- D. Bu kitobni balki o'qirman

4. Berilgan gaplarning qaysi birida buyruq ma'nosi kuchli ifodalangan?

- A. yuring
- B. tezroq yuring
- C. yura qoling
- D. yurmaysizmi

5. So'roq gap shakli orqali qanday ma'nosi ifodalanishi mumkin?

- A. So'roq
- B. darak
- C. buyruq
- D. A, B, C

6. Berilgan gaplarning qaysi birida darak ma'nosi kuchliroq ifodalangan?

- A. Demak, shunday katta boylikdan voz kechish mumkin emas
- B. Umuman, savdo-sotiq ayollarga xos kasbi, nima deysiz?
- C. Bu daraxtni kesishga kim ju'rat etdi
- D. Dadang, qayerga borib kelganini aytaymi? — deb qoldi

7. His-hayajon gaplar ifoda maqsadiga ko'ra gapning qaysi turi asosida kelib chiqishi mumkin?

1. darak 2. so'roq 3. istak 4. buyruq  
A. 1      B. 1, 2      C. 1, 2, 3      D. 1, 2, 3, 4

8. Egasi mavjud gapni toping

A. Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo'lining azobidan ham ortiqroq bo'ladi.

- B. Xayriyat, vaqtida yetib keldik
- C. Inim, kitoblarni sandiqqa joylashtiravering
- D. Sobir, eski oshnalaringni topib keldim

9. Berilgan dialoglarning qaysi birida to'liqsiz gap ishtirok etgan?

A. — Sizing bunday yo'qolganingizni Mahmud akangiz ham bilmasmidilar?

B. — Qaytganlaringdan keyin sheriklaringni ko'rdinglarmi? — Ko'rdim

C. — Kimga bog'tanish kerakligini aytishdimi? — Ha

D. Barchasida to'liqsiz gap mavjud

10. Istak gaplarning kesimi qanday shakldagi fe'llar bilan ifodalanadi?

A. — sa shaklidagi fe'llar orqali      B. — sin shaklidagi fe'llar orqali

C. — di shaklidagi fe'llar orqali      D. — ib shaklidagi fe'llar orqali

11. So'roq gaplarni hosil qiluvchi vositalar qaysi qatorda?

A. So'roq olmoshlari bilan      B. A, C, D

C. So'roq ohangi yordamida      D. So'roq yuklamalari vositasida

12. Yashirin inkor mazmunini bildiradigan ritorik so'roq gapni belgilang.

A. Nahotki yerimiz chappa aylanib, Nahotki daryolar oqar teskari?

B. Farzandni kim sevmaydi?

C. Siz Salimovning o'g'li emasmisiz?

D. Suv dehqonlar uchun durday noyob ekanini kim bilmaydi?

13. Yashirin tasdiq mazmunini bildiradigan ritorik so'roq gapni belgilang.

A. Kimda bor bunchalik latofat, husn!

B. Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor?

C. Inson qila olmaydigan ish bormi?

D. Oftob nurlariga g'arq bo'lib yotgan bu ko'rkam, aziz Vatanimizda nimalar yo'q?

14. Faqat so'roq ohangining o'zi bilan tuzilgan so'roq gapni aniqlang?

A. Bugun uni ko'rasiz-a?      B. Sizni qaysi masalalar qiziqtiradi?

C. Uyda mehmon bor?      D. Yaxshini kim sevmaydi?

15. Dunyoda eng ulug' zot bo'lgan onani kim sevmaydi? Mazkur gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

A. Sof so'roq gap      B. His-hayajon gap

C. Ritorik so'roq gap      D. Buyruq gap

16. Tasdiq mazmunini bildirgan ritorik so'roq gapni toping?

A. Kimda bor bunchalik latofat, husn?

B. Inson qila olmaydigan ish bormi?

C. Onang seni, nahotki, shu umid bilan katta qilgan bo'lsa?

D. Suv dehqonlar uchun durday noyob ekanini kim bilmaydi?

17. So'roq shaklida tasdiq ifodalaydigan ritorik so'roq gapni aniqlang?

A. Safar qilmagan kishi orom olish farog'atini qaydan bilsin?

B. Ilmi hisob o'qiganingiz bormi?

- C. Ayting–chi, bunaqa o‘qituvchi haqiqiy pedagog bo‘la oladimi?  
 D. To‘qlikka sho‘xlikni judayam oshirib yubormayapsizmi?
18. Misollarning qaysi biri ritorik so‘roq gap?  
 A. Shundan beri qancha soylar oqib ketdi? Dunyo necha marta aylandi?  
 B. Xo‘sh, o‘zingizning ahvolingiz qanday, do‘stim?  
 C. Soatim to‘xtab qolibdi? Buzilibdimi?  
 D. Nimadan xafasiz? Kim hafa qildi?
19. Ritorik so‘roq gapni toping.  
 A. Umuman, savdo-sotiq ayollarga xos kasbmi, nima deysiz?  
 B. Umr o‘rtasida poytaxtga ko‘chib kelishga nima majbur qildi?  
 C. O‘qishga kirolmasa, shu ham fojiami?  
 D. U yerga kim bilan bormoqchisan?
20. Ritorik so‘roq gapni toping.  
 A. O‘qish qachon boshlanadi?  
 B. Dadang qayerga borib kelganini aytaymi?  
 C. Salomat yuribsizmi, Bahromjon?  
 D. Sut ko‘r qilgur haromi, Gitler oqpadar, Farzandning qadrini qayerdan bilsin?!
21. Berilgan gaplarning qaysi biri istak gapga mansub emas?  
 1. Qani endi, dunyodagi barcha bolalar baxtli bo‘lsa  
 2. Hammamiz o‘quv yilini muvaffaqiyatli yakunlaylik  
 3. Millatning dardiga darmon bo‘linglar  
 4. Xorijiy tillarni o‘rganib, chet ellarga o‘qishga borsam  
 A. 2      B. 3      C. 2,3      D. berilgan barcha gaplar istak gap
22. Egasi noma‘lum gap tarkibida qo‘llangan belgilash olmoshini toping.  
 A. Vatanni har jihatdan yuksaltirishga va ko‘ksini qalqon qilib himoya qilishga da‘vat etadi  
 B. Har qanday ishda mashaqqat borligini yodda tutish kerak  
 C. O‘z o‘rnida aytilmagan so‘z hech kim yo‘q yerda chalingan kuyga o‘xshaydi:  
 D. Har kim ekanini o‘radi
23. Qaysi javobda to‘liqsiz gap berilgan?  
 A. Hayot bizni hamon o‘z oqimida qalqitib borardi  
 B. – O‘zining kimi bor?  
     – Bobosi, ammasi  
 C. – Xo‘sh, xo‘sh?  
 D. Mayda ishlarga zeb bergan odam buyuk ishlarga noqobil bo‘ladi
24. So‘z-gap qaysi qatorda qo‘llangan?

- A. – Siz qayerdan, mehmon?  
– Toshkentdan
- B. – Sening bundan xabaring bormi, Ali?  
– Yo‘q
- C. – Ulardan xat keladimi?  
– Keladi, keladi
- D. – Shu voqeadan so‘ng kuyovingiz aniq kelganmi edi?  
– Kelgan edi, qizim

25. Xalil ota halol va mehnatsevar kishiga xos izzat-obro‘cini va qadr-qimmatini chuqur tushuntirdi. Ushbu gap qaysi javobda gap qurilishi bo‘yicha to‘g‘ri tahlil qilingan?

- A. Darak gap, his-hayajonsiz gap, sodda yoyiq gap, to‘liq gap, egali gap
- B. Darak gap, tobe va teng bog‘lanishli, egali gap, gap bo‘laklari me‘yoriy joylashgan
- C. Darak gap, sodda yoyiq gap, egali gap, gap bo‘laklarining joylashuvi me‘yoriy
- D. Darak gap, uyushiq bo‘lak ishtirok etgan, undalma yo‘q, sodda yoyiq gap

26. Yomon urug‘dan yaxshi hosil kutma. Ushbu gap grammatik asosiga ko‘ra qanday gap?

- A. shaxsi ma‘lum gap
- B. shaxsi umumlashgan gap
- C. shaxsi noma‘lum gap
- D. atov gap

27. Shaxsi noma‘lum gapni toping.

- A. She‘rda aql bovar qilmas sehr bor
- B. Sharqda savdogarlarga alohida hurmat bilan qaraganlar
- C. Go‘zallikka boshqa yaxshi fazilatni qo‘shishga intiling
- D. Yolg‘onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo‘lmaydi

28. Shaxsi (egasi) noma‘lum gapni belgilang.

- A. Kiyimni bo‘yga qarab bichadilar
- B. Umr bo‘yi bilimni boyitib borish lozim
- C. Har kimning baxt-u saodati yo‘lida xizmat qilishga tayyorman.
- D. Do‘stini yomonlagandan qoch

29. Atov gapni toping.

- A. Haqiqatni yashirib bo‘lmaydi
- B. Ko‘p yig‘lasang, ko‘zdan ajraysan
- C. Bu yerda bemorni musiqa bilan davolaydilar
- D. Bahor. Tog‘lar, qirlar yashnab ko‘rinadi

30. So‘z-gap qaysi qatorda bor?

- A. Hayot kitobiga hech qachon yakun yasab bo‘lmaydi
- B. Bu gap esingdan chiqmasin. Xo‘p, taqdir

- C. – Ertaga teatrga borasizmi? Yo'q, borolmayman  
 D. Avlod uchun otadan ham ulug'roq kishi bormi? – Bor.
31. Qaysi qatorda egasi yashiringan gap berilgan?  
 A. Bu yil olma bilan o'rik hosili mo'l bo'ldi  
 B. Sochilgan urug' tez unib chiqdi  
 C. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek  
 D. Suvlar tiniq, yaproqlar oltin
32. Egasiz gap qo'llangan qatorni aniqlang.  
 A. Qo'rqqoq hamma narsadan mahrum  
 B. Elni ixtilof buzadi  
 C. O'tgan narsa hamisha totli  
 D. Toshidan gavharni hamisha farqlash kerak
33. Egasiz gap qaysi qatorda berilgan?  
 A. Mayin shamol sadalarning ko'm-ko'k yaproqlari bilan o'ynashmoqda  
 B. Ma'naviy fazilatlar husnni oshiradi  
 C. Hamma narsaga asta-sekin erishiladi  
 D. Tog' suvlari yangi kanaldan to'lqinlanib oqa boshladi
34. Shaxsi umumlashgan gap qaysi qatorda berilgan?  
 A. Yaxshilik qilganga zinhor yomonlik qilma  
 B. Qirq besh yildan beri she'r yozaman  
 C. Bolalar, soat o'nga yetib keeling  
 D. Ma'naviyatsiz yashab bo'lmaydi
35. Shaxsi noma'lum gapni toping.  
 A. Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan  
 B. Halol odamni badnom qilib bo'lmaydi  
 C. Bilmaganni boshqalardan o'rganadilar  
 D. Sizga baxt tilayman.
36. Qaysi qatorda to'liqsiz gap bor?  
 A. Bu maydonga nima ekiladi?  
 B. Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm  
 C. Farg'ona vodiysi naqadar go'zal!  
 D. Yashil xiyobonlarda eski do'stlar ila yuraman



## KESIM

**Kesim** – ega haqidagi xabarni bildirib, gapning markazi hisoblanadi. *Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?, u kim?, u nima?, qayer?, qanday? qancha? nechta? nechanchi?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi: *Havo mayin, osmon ttp-tiniq. Ochilibdi gullar rang-barang.*

Ega gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildirsa, kesim ega haqidagi xabarni, hukmni bildiradi, tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini bildiradi va boshqa bo'laklarni o'z atrofida birlashtiradi. Gapda ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi.

Kesim quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. **Fe'l:** U baland ovoz bilan onasini chaqirdi.
2. **Sifatdosh:** Go'zal favvoralar qurilishi endi boshlangan.
3. **Ravishdosh:** Ishning boshi boshlanguncha.
4. **Ot:** Bu yigitning qo'li – gul.
5. **Sifat:** Siz bilan olam go'zal.
6. **Son:** Dunyoda o'zbek millati bitta.
7. **Olmosh:** Kitob meniki. Maqsadim – shu.
8. **Ravish:** Shoshilgan ishning pushaymoni ko'p.
9. **Taqlid so'z:** Olmalar g'uj-g'uj. Uzumlar shig'il-shig'il.
10. **Modal so'z:** Ko'chada mashinalar bor.
11. **Ihora:** Sobir so'zining ustidan chiqdi.

### Kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra

Fe'l-kesim

Ot-kesim

**Fe'l-kesim.** Gapning kesimi fe'l, fe'lning ravishdosh va sifatdosh shakllari bilan ifodalanadi: *Ishning boshi boshlanguncha.*

Fe'l-kesim tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi: 1. **Sodda fe'l-kesim.** 2. **Murakkab fe'l-kesim.**

1. **Sodda fe'l-kesim** bir so'z bilan ifodalanadi: Polizlarda oq qirovga asralgan qirqma qovunlar uzildi. Mard maydonda bilinadi. Karima otasini chaqirtirdi

2. **Murakkab fe'l-kesim** quyidagicha ifodalanadi:

1) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan iborat bo'ladi: *Odil uyalganidan qizarib ketdi. Oradan ko'p o'tmay, darsdan chiqishga qo'ng'iroq chalinib qoldi.*

2) sifatdosh yoki maqsad maylidagi fe'lga bo'lmoq fe'lini yoki to'liqsiz fe'lni qo'shish bilan: *Mashg'ulotimiz haftasiga bir marta o'tadigan bo'ldi. Nafisa otasini chaqirtirmoqchi bo'lgan edi.*

**Ot-kesim.** Gapning kesimi ot, sifat, son, olmosh, ravish va harakat nomi bilan ifodalanadi. Ot-kesim ham tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. **Sodda ot-kesim.** Kesimning bu turi so'zdan iborat bo'ladi. Yaxshining gapi – moy, yomonning gapi – loy.

2. **Murakkab ot-kesim** quyidagicha tuziladi:

1) ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi + bo'lmoq yoki to'liqsiz fe'l (edi, ekan, emish): *Mehnatning noni shirin bo'ladi. U yoshligida bo'shavgina bola edi.*

2) yo'q, bor, oz, ko'p, zarur, kerak, lozim, darkor + bo'lmoq yoki to'liqsiz fe'l : *Sharpa bir zumda yo'q bo'ldi. O'ylab gapirish kerak edi.*

3) harakat nomidan so'ng kerak, lozim, zarur, darkor kabi kesimlik so'zlarini keltirish bilan: *So'z har tomonlama tanlanishi lozim.*

## Bog'lama

**Bog'lama** ot-kesim tarkibida ishtirok etadi va ot-kesimni shakllantiradi. Quyidagilar bog'lama bo'lib keladi:

-dir, -tir, -dur, -durur;

ot-kesim tarkibidagi bo'lmoq, hisoblanadi, sanaladi fe'llari;

-man, -san, -miz, -siz kabi tuslovchi qo'shimchalari;

edi, ekan, emish, emas to'liqsiz fe'llari.

Bularning biri o'rinda ikkinchisini ishlatish, ba'zan tushirib qoldirish ham mumkin: Men onang bo'laman. Men onangman. Mening vatanim O'zbekistondir: Mening vatanim – O'zbekiston.

Bog'lamaning asosiy vazifasi kesimni shakllantirishdan iborat.

## Ega va kesimning moslashuvi

Ega kesim bilan grammatik va mazmun tomondan bog'langanligi uchun doimo kesimning shakliga mos shaklda turadi. Eganing kesim shakliga mos (shaxs-son) shaklida kelishiga moslashuv deyiladi.

Kesim bilan ega ba'zan son shakli bo'yicha moslashmasligi mumkin. Xususan, ega narsa, hayvonlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganda. Masalan, qushlar sayraydilar emas, qushlar sayraydi, lekin shaxsda doimo moslik bo'lishi shart.

Kesim ot-kesim bo'lib, uning kesimlik shaklini ko'rsatuvchi bog'lamalarni qo'llanilmasa, u vaqtida kesim ohang yordamida shakllanadi.

Ot-kesimning kesimlik shakllari maxsus ifodalanmay, ohang yordamida shakllanganda, shu tugallangan ohangni ifodalash uchun ega bilan kesim o'rtasiga yozuvda tire qo'yiladi. Masalan, Ro'paradagi bino – maktab. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Samarqand – azim shahar.

## Ot-kesim va ega orasida tirening qo'llanishi

Quyidagi hollarda ot-kesim va ega orasida tire qo'yiladi:

1. Ot-kesim kesimlik qo'shimchalarisiz yoki bog'lamasiz qo'llanganda: *Tinchlik-farovon hayot manbai. Mening aytadigan gapim – shu. Uch karra uch – to'qqiz.*

2. Ot-kesim sifatdan va tartib sonidan bo'lganda: *Vatanimiz go'zal. Bino katta. Qizilqum sahrosi bepoyon. Bu qovun shirin. Ko'ylakning rangi sariq. Bizning sinfimiz sakkizinchi.*

3. Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalaniib, kesim tarkibida kesimlik qo'shimchasi yoki bog'lama bo'lmaganda: *O'qish – ulg'ayish. Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat. Maqsadim – o'qimoq.*

4. Eganing ma'nosi bilan ifodalanganda: *Bu – siz uchun katta sinovdir.*

5. Eganing ma'nosi ta'kidlab ko'rsatilganda: *Men – mana shu minglarning biriman. Urush – quyon ovi emas. Sen – bizni ozod etuvchisan.*

Agar ega bilan ot kesim orasida ham yordamchisi bo'lsa, tire qo'llanmaydi: Bular ham a'lochi. Mening opam ham talaba. Sharifa ham to'quvchi.

## Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari

Tilimizda shart mayli -sa nomustaqil kesim shaklini yasaydi. Bunday kesimli gaplarning mustaqil ravishda qo'llanilishi uchun maxsus nutqiy sharoit talab etiladi. Shart maylidagi fe'l ergash gapli qo'shma gap tarkibida nomustaqil kesimni shakllantiradi. Istak gapning kesimi nomustaqil kesim hisoblanmaydi.

Kesim 2 xil shaklda uchrashi mumkin: mustaqil kesim va nomustaqil kesim. Mustaqil kesim shaxs-son va zamon qo'shimchalarini olgan fe'l kesim hamda bog'lamali-bog'lamasiz ot-kesimdir: kel+di+m, bor edi.

Topshiriq: 1. Gapdagi ajratib ko'rsatilgan kesimlarni tahlil qiling.

Namuna: *shafqatsiz bo'lgan – murakkab ot-kesim*

## Nima eksang, shuni o'rsan

Rivoyat qiladilarki, Luqmoni hakim avval zolim va badjahl, qullariga shafqatsiz bo'lgan. Ekin paytida bir kuni qishloqda bahorgi ishlar qanday borayotganligi bilan tanishish uchun dalaga aylanib chiqibdi. Shunda bir dehqonning bug'doy ek deb buyurilgan yerga tariq sochayotganini ko'rib qolibdi. Luqmoni hakimning jahli chiqibdi: «Hoy, ahmoq, to'xta. Sen jinnimisan?! Men gapirganda karmiding? Nega bu yerga tariq sochyapsan, bug'doy ek deb aytmaganmidim», – deb do'q qilibdi.

– Hojam, tariq ekyapman, xudodan tilaymanki, bug'doy unsin, – deb javob beribdi dehqon.

– Nodonsan-da, – debdi luqmon. – Shuning uchun qulsan. Tariq eksang, bug'doy o'rsanmi?! Xudo ekkaningni beradi.

Shunda dehqon: -Hojam, axir siz bizga doim jabr-zulm qilib, evaziga faqat yaxshilik, halol mehnat va mo'1 hosil talab qilasiz-ku, - debdi.

Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq ta'sir qilibdi.

**2. Gaplardagi ot va fe'l kesimlarni ajratng.**

1. Oltita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi - shu. 2. Mo'tabar eshikni sekin yopib chiqib ketdi. 3. Sanasangiz-sanamasangiz ham hammasi qirqta. 4. ...Tez hal qilish kerak, talabgorlar ko'p. 5. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam - o'qish, o'qiganda ham a'lo o'qish edi.

**3. Quyidagi gaplardan kesimni izohlang.**

1. I. Bu maskan Umidning shodligini ham, kulfatini ham, muhabbatini ham ko'rgan. U qoramag'iz, chayir yigit bilan qarddonlashib ketgan. 2. Endi ularning xatosini tuzatish uchun hammamiz qancha mashaqqat chekamiz.

2. 1. Bolalar yo'g'on archa yonida to'xtadilar. 2. Keksa bog'bon ko'm-ko'k ajriq ustida hordiq chiqardi. 3. Bu hovlining teng yarmi mevazor edi. 4. Boshqa xonada bolalar uxlab qolishibdi. 5. Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda. 6. Ahmoq do'stdan aqlli dushman yaxshi.

**4. Tirening ishlatilish va ishlatilmaslik sabablarini izohlang.**

1. Ukam - o'quvchi. 2. Bu gul qizil. 3. Aziza - shifokor. 4. Sug'diyona - alochilarimizdan. 5. Akam uchuvchi bo'ladi. 6. Taniganim - shular. 7. Taniganim - do'stlarim. 8. Eshitganlarim haqiqat edi. 9. Eshitganlarim - haqiqat.

**5. Gaplarni tire qo'yib ko'chiring.**

1. Qo'l yugurigi oshga, til yugurigi boshga. 2. Mehmonlarning aksariyati o'рта yoshli, o'ttiz-qirq orasidagi odamlar edi. 3. Yaxshining gapi moy, yomonning gapi loy. 4. Hosilning otasi suv, onasi yer. 5. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi shu. 6. Mardga o'lim yo'q. 7. Ozod yuraklarga baxt nuri to'lgan.

**6. Gaplardagi mustaqil va nomustaqil kesimni izohlang.**

Namuna: Qalb salomat bo'lsa (nomustaqil kesim), aql ham, fikr ham salomat bo'ladi (mustaqil kesim).

1. Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi. 2. Agar shu ko'rganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar. 3. Aravalar bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin. 4. Havo bulut bo'lsa ham, yomg'ir yog'madi. 5. Mehnat qilsang, baxting ochiladi.

## Hol haqida umumiy ma'lumot

Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap bo'lagiga hol deyiladi.

Hol ko'proq gap markazi - kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

Hollar ravish so'zlar bilan, kelishik shaklidagi va ko'makchili otlar

bilan, sifat, son, taqlid soʻz va undovlar bilan, feʼlning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin.

Hollar *sodda* (bir soʻzdan iborat) va *murakkab* (ikki va undan ortiq soʻzdan iborat) tuzilishga ega boʻladi.

Hol doimo feʼl kesimga bogʻlanadi. Masalan, Quyosh koʻkdan moʻralab qarar gapida qarar soʻziga moʻralab soʻzi bogʻlanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, koʻkdan soʻzi qarar soʻziga bogʻlanib, uning oʻrnini bildiradi. Baʼzan hol ot kesimlarga ham bogʻlanishi mumkin. Bunday vaqtda hol ot kesimdan anglashilgan predmetning oʻrnini bildiradi. Masalan, *Andijonda oʻt yoqsam, Fargʻonada tutuni.*

### Holning maʼno turlari jadvali

№	Holning maʼno turlari	Izohi	Soʻrogʻi	Shakllari	Misollar
1.	Ravish holi	Feʼl kesimdan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilishini ifodalaydi.	<i>qanday?</i> <i>qanday qilib?</i> <i>qay holda?</i>	Ravish, -ib, taqlid soʻzlar	Tez oʻqidi, yugurib keldi, gʻir-gʻir esdi.
2.	Oʻrin holi	Kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish oʻrnini bildiradi.	<i>qayerda?</i> <i>qayerdan?</i> <i>qayerga?</i>	Oʻrin oti+da, +dan oʻrin ravishi+ga sari, tomon, +ga qarab	Bozordan oldim. Bogʻga chiqdim. Dala tomon ketdi. Dalaga qarab ketdi.
3.	Payt holi	Feʼl kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish paytini bildiradi.	<i>qachon?</i> <i>qachongacha?</i> <i>qachondan?</i> <i>qachondan buyon?</i>	Payt oti+da +dan payt ravishi +gacha, +guncha	Tongda, ayozda, hozirdan tayyorlan. Hozirgacha oʻtiribdi. Charchaguncha ishla.
4.	Sabab holi	Feʼl kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik sababini bildiradi.	<i>nimaga?</i> <i>nima uchun?</i> <i>nima sabab?</i>	-ligi (sababli, uchun, tufayli) -ligidan, -ib	Yaxshi oʻqiganligidan institutga kirdi.
5.	Maqsad holi	Feʼl kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish maqsadini bildiradi.	<i>nima maqsadda?</i> <i>nima uchun?</i>	-gani, -sin deb, -(i)sh maqsadida; uchun	Oʻqigani ketdi. Oʻqish maqsadida ketdi.

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan fe'llarga ham bog'lanishi mumkin. Hol bog'lanib kelgan fe'lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko'ra hollar xuddi to'ldiruvchilar kabi **mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linadi**.

**To'g'ridan-to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar deyiladi.**

Masalan, *Dalalarda boshlanadi ish*. Bu gapda qayerda so'rog'iga javob bo'luvchi dalalarda o'rin holi nima qiladi? nima bo'ladi? so'roqlariga javob bo'luvchi fe'l kesimiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol mustaqil holdir.

**Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqil hol hisoblanadi.**

Masalan, Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi. Bu gapda qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelayotgan daladan bo'lagi kesimga emas, balki aniqlovchi vazifasidagi charchab kelgan bo'lagiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol **nomustaqil hol** hisoblanadi.

O'rin holi o'zi ergashgan so'zga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. O'rin holi makon-zamon (jo'nalish, o'rin-payt, chiqish) kelishiklaridagi so'zlar yoki ko'makchili otlar va o'rin ravishlari bilan ifodalanadi.

Payt holi ko'pincha ot yoki payt ravishi bilan, shuningdek, son birikmalari bilan ifodalanadi.

Ravish holi ravish, fe'l va ko'makchili otlar bilan ifodalanadi. Ravish holi kesimga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Demak, u , ko'pincha, o'zi ergashgan so'zdan oldin keladi.

Sabab holi -lik, -sizlik qo'shimchalarini olgan otlar, -gani qo'shimchali sifat-doshlar va sababli, uchun ko'makchi qurilmalar bilan ifodalanadi.

Maqsad holi maqsad ravishdoshlaridan, ot yoki fe'llardan keyin uchun, deb, maqsadida, maqsadi bilan kabi so'zlarni keltirish orqali, shuningdek, jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan ish otlari orqali ifodalanadi.

Daraja-miqdor hollari sonlar bilan, miqdor ravishlari bilan, marta so'zi qatnashgan birikmalar bilan ifodalanadi.

#### **Topshiriq:**

#### **1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni jadvalga joylashtiring.**

1. Ayol sochlari **parishon**, oyoqlari **yalang**, yoqasi **ochiq** ko'chaga otildi. 2. Tursunali **bir-bir** bosib minbarga chiqdi va **dona-dona** gapirdi. U vazifaning muhimligini **takror-takror** ta'kidladi. 3. O'g'lining to'yini ko'rolmadi bechora, dunyodan **ko'zi ochiq** ketdi. 4. Urush **boshlanganda** u hali ko'krakdan ajralmagan go'dak edi. 5. Tiniq suvdan **hovuch-hovuch** oldi, **qonib-qonib** ichdi. 6. Shodmonbek zarbdan **ko'zi tinib** hushdan ketdi. 7. **So'g'diyona bilan Muslima arazlashanda** Soliha ularni yarashtirib qo'ydi.

## Murakkab hollarning ifodalanishi

Takror soʻzlar bilan	Soʻz birikmasi bilan	Iboralar bilan	Kengaygan birikmalar bilan

**1. Gaplarni koʻchirib, gap boʻlaklariga ajrating. Hollarning maʼno turini aniqlang.**

1. 1. Uy ichida odam koʻp edi. 2. Poʻlatjon juda erta, hammadan oldin uygʻondi. 3. Tevarakda gala-gala chumchuqlar toʻxtovsiz chirqillashadi. 4. Sal oʻtmay Shirinoy daladan qaytib keldi. 5. Bundaqurtlar i paktoʻqiydi. 6. Ota yuz-qoʻllarini yuvgandan soʻng sal nariga borib... oʻtirdi.

2. 1. U oʻychan koʻzlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi. 2. Koʻp soʻzlama, oz soʻzla, oz soʻzlasang ham, soz soʻzla. 3. Hozigacha gʻoʻza uch marta chopiq qilindi. 4. Hamdam ikkovini ham bilmadi va yigʻlaganicha narigi uyga kirib ketdi. 5. Yigʻlab-yigʻlab marza olsang, oʻynab-oʻynab sugʻorasan. 6. Umringda necha marta asal yegansan?

3. 1. Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yigʻlab yubordi. 2. Hammamiz ham umid bilan mehnat qildik, rohatini ham koʻraylik. 3. Eshik oldi gul hovuz, Gul tergali kelganmiz. 4. Salima darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovga sazovor boʻldi. 5. Oʻquvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi. 6. Boshqa hech narsasi yoʻqligi uchun bitta-yu bitta hoʻkizini berib yubordi.

4. 1. Bogʻbon chiqish uchun bir necha odim yurgach, ishkom ichida suyanib turgan qizga koʻzi tushdi; uyalganidan bir zumda qizarib-boʻzarib ketdi, ketmonga tikilib qadamini tezlattirdi. 2. U qasddan Suqsuroyni xonga olib berdi. 3. Bir chimdim uxlash uchun koʻzini yumdi. 4. Ertalab atayin Sizni izlab kelgan edim. 5. Bugun joʻrttaga qilganday yomgʻir ham tinmadi. ... Oling, ataylab siz uchun qildim. 6. Muzaffar aka, bular atayin sizni izlab kelibdi.

### Toʻldiruvchi haqida umumiy maʼlumot

**Gapning kesimi bilan bogʻlanib predmetlik maʼnosini ifodalovchi va kimni? nimani? kim (bilan, orqali, uchun), nima (bilan, orqali, uchun) soʻroqlariga javob boʻlgan ikkinchi darajali boʻlakka toʻldiruvchi deyiladi. Masalan, Men undan (kimdan?) soʻradim: Mehringni qoʻyib, bunchalar saralab gul (nimani) terding kimga? Gulidan (nimadan?) koʻzini (nimani?) uzmayin singlim. Asta javob berdi: — Oʻqituvchimga (kimga?).**

Toʻldiruvchi quyidagicha ifodalanadi:

**1. Ot bilan: Dilshod maktubni xolasiga berib, koʻchaga chiqib ketdi. Odilov doʻstlari bilan xayrlashdi.**

2. Otlashgan sifat bilan: *Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.*
3. Otlashgan son bilan: *O'nni o'nga qo'shsak, yigirma bo'ladi.*
4. Sifatdosh bilan: *Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi.*
5. Harakat nomi bilan: *uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.*

6. Taqlid so'z bilan: *Pichir-pichiringni yig'ishtir.*

7. Modal so'z bilan: *Yo'qni yo'q deydi, borni hor deydi.*

To'ldiruvchilar, boshqa gap bo'laklari kabi, birikmali holda ham qo'llanadi: *Men uning go'zal siymosida qalbm ko'zgasini, visol orzusini, umidim gulshanini ko'rardim.*

To'ldiruvchilar yordamida aytilmoqchi bo'lgan fikr ravshanlashadi: Oyni (etak bilan) yopib bo'lmas.

To'ldiruvchi doimo gapning kesimi bilan bog'lanadi. Agar u bog'langan so'z kesim bo'lib shakllana olmagan bo'lsa, ana shu so'z bilan birgalikda kesimga nisbatan bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. Bunday vaqtda u gapning emas, bo'lakning bo'lagi bo'ladi. Masalan, *Onamdan eshitgan gaplarni aytdim.*

To'ldiruvchilar kesimga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish-bog'lanmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) mustaqil to'ldiruvchilar; b) nomustaqil to'ldiruvchilar.

To'g'ridan-to'g'ri kesimga tobe bog'lanib kelgan to'ldiruvchilar mustaqil to'ldiruvchilar sanaladi: *Seni sog'indim.*

Kesimga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan to'ldiruvchi nomustaqil to'ldiruvchi hisoblanadi. Shuning uchun u biron bir ikkinchi darajali bo'lakning tarkibiy qismi – bo'lakning bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, *Dangasaning non yeyishini ko'r*: bu gapda dangasaning non yeyishini birikmasi nimani? so'rog'iga javob bo'lib, birikmali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Birikmali gap bo'lagi esa, kimning? va nimani? so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchi (dangasaning) va to'ldiruvchi (non)larni o'z ichiga oladi. Bu bo'lak tarkibidagi *non* bo'lagi nomustaqil to'ldiruvchi, bo'lakning bo'lagidir.

To'ldiruvchilar kesim bilan qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'lanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) kelishikli to'ldiruvchilar; b) ko'makchili to'ldiruvchilar. Masalan, sen bilan (kim bilan?) olam munavvar gapida sen bilan bo'lagi ko'makchili to'ldiruvchi. Senga (kimga?) aytar gapim hor gapida senga bo'lagi kelishikli to'ldiruvchi sanaladi.

Tushum kelishigi bilan shakllangan to'ldiruvchilarda to'ldiruvchi bilan u bog'langan hokim bo'lak yonma-yon turganda tushum kelishigi ifodalanmasligi mumkin, lekin uning borligi so'rog'idan va kesimning o'timli fe'l ekanligidan bilinib turadi. Masalan, shoirlari g'azal bitadi, gapida g'azal so'zi u bog'langan kesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lib, nimani? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zning bo'lishini talab qiladi. Agar to'ldiruvchini kesimdan uzoqlashtirsak, to'ldiruvchi bilan kesim o'rtasiga boshqa bir so'zni



kiritsak, tushum kelishigi tiklanadi. Masalan, g'azalni shoirlari yozadi. Ko'rinadiki, tushum kelishigi doimo tushib qola bermaydi.

To'ldiruvchi hokim bo'lakdan anglashilgan harakatiga, munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) vositasiz to'ldiruvchi; 2) vositali to'ldiruvchi.

To'ldiruvchi tushum kelishigi qo'shimchasi -ni bilan belgili va qo'shimchasiz — belgisiz ko'rinishlarda kela oladi.

Belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchi deyiladi.

Hokim so'zning kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kim uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan? kabi so'roqlarga javob bo'lib keladigan kengaytiruvchilari vositali to'ldiruvchilar deyiladi.

Vositali to'ldiruvchi jo'nalish, chiqish, ba'zan o'rin-payt kelishiklari qo'shimchalarini yoki uchun, bilan, orqali, xususida, to'g'risida kabi ko'makchilarni olgan so'zlar bilan ifodalanadi.

### Topshiriq

#### 1. Gaplardagi to'ldiruvchini topib izohlang.

1. Yana atadim she'r, azizim ustoz,  
Sizni desam, tanda jo'shar hayajon.  
Quyoshga yetguncha yozsam-da, oz-oz,  
Sizga muhabbatim dilda bir jahon!

Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,  
Sha'niga barcha el rahmatlar aytar,  
Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi  
Yurak qo'ri bilan toshni eritar.

2. Radiodan taralayotgan kuy poyezdning taraqa-turuqiga jo'r bo'lib, kishini hayratga solardi.

1. 1. Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi. 2. Qarilari kutadi mehmon, pazandasi yopadi shirmon. Kelinlari aytadi alla, qo'shiqchisi kuylaydi yalla. 3. Birni kessang, o'nni ek. 4. O'tirganlar otning dupur-dupurini baralla eshitishdi. 5. Yashashni istasang, ishlashni o'rgan. 6. Yaxshini yomondan farqlang. 7. Bechoraning oh-u dodini tinglang, uni xushnud qiling. 8. Yurgan daryo, o'tirgan bo'ya, deydilar.

2. 1. Beshga uchni qo'shsak, sakkiz bo'ladi. 2. Chizmani kitobdan daftarga ko'chirdim. 3. Chaqmoqning yalt-yultidan bola qo'rqdi. 4. Yaxshiga yondash, yomondan qoch. 5. Bekorchidan xudo bezor. 6. So'rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal.

3. 1. Bu kitobni ukamga oldim. 2. Kutubxonachi yangi kitoblardan gapira boshladi. 3. Kechada o'tmish voqealaridan bahs ketdi. 4. Xat qizil qalamda yozilgan edi. 5. Mufassal hisobotni pochtdan yuboraman. 6. Qishloqqa

avtobusda ketadigan bo'ldim. 7. Sayohat vaqtida ko'rganlarimdan batafsil gapirdim.

4. Otdan baland, itdan past. 2. Kitob ikki qismdan iborat. 3. Ochko'z – molga qul, saxiy – elga hokim. 4. Azamat – futbolchilarimizga sardor. 5. Yutuq kutganimizdan ziyodroq bo'ldi. 6. Qizg'ish – pushtidan to'qroq, qizildan ochroq rang.

2. Gap bo'laklarini tahlil qiling.

1. Nodonga yuz aytasang ham, befoyda. 2. Kechqurun salqin bo'ldi, ertalab shudring tushdi. 3. To'g'ri yursang, murodingga oson yetarsan. 4. Bunda bor harorat, muhabbat, shafqat. 5. Shamol g'ir-g'ir esardi. 6. Hozir maktab o'quvchisiman, kelasi yil talaba bo'laman.

## Aniqlovchi haqida umumiy ma'lumot

Ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak aniqlovchi hisoblanadi.

Aniqlovchi *qanday? qaysi? nechanchi? qancha? nechta? kimning? nimaning?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Aniqlovchi aniqlagan (bog'langan) bo'lak aniqlanmish hisoblanadi.

Aniqlovchi narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashlilikini bildiradi.

Aniqlovchilar sifat, olmosh va sifat-doshlar bilan ifodalanadi.

Aniqlovchilar predmetning qanday belgisini ifodalashiga ko'ra uch turli bo'ladi:

- a) sifatlovchi aniqlovchilar;
- b) qaratqich aniqlovchilar;
- d) izohlovchi aniqlovchilar.

Predmetning belgisini (ta'm-maza, xil-xususiyat, miqdor, tartib, o'rin-paytga munosabat) bildirgan aniqlovchilarga **sifatlovchi aniqlovchi** deyiladi.

Sifatlovchi aniqlovchilar *qanday? qanauqa? qancha? nechta? qaysi? qayerdagi? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi. masalan, oq (qanday?) gul, uchta (necha?) gul, ana bu (qaysi?) gul, adirdagi (qayerdagi?) gul, kechagi (qachongi?) gul, beshinchi (nechanchi?)* sinf kabi.

Sifatlovchi aniqlovchi **sifatlovchi**, aniqlanayotgan predmet esa **sifatlanmish** deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabati **sifatlovchili** **birikma** sanaladi.

Sifatlovchi aniqlovchilar quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

- 1) sifat bilan: *Uning ziyrak qo'ng'ir ko'zlarida horg'inlik bor edi.*
- 2) son bilan: *Tepalikdagi chinor, ikki tup sadaqayrag'och to'rt-hesh kishilik talay supalarga soya solib turardi.*
- 3) olmosh bilan: *Qirlardan esayotgan mayin shabada ana shu ajoyib gullarning g'unchalarini yozmoqda.*

4) ot bilan: *Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziyinati.*

5) ravish bilan: *Uzoq-yaqin yerlardan odamlar yig'ila boshladi.*

6) sifatdosh bilan: *Mayin esgan shabada ko'nglimizni chog' qildi.*

7) modal so'z bilan: *Zarur ishlarimizni bitirdik.*

8) taqlidiy so'z bilan: *Zavodning mashina bo'limidan gurs-gurs zarb uzluksiz eshitilib turardi.*

Aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdoshlar birikmali qo'llanib, sifatdosh qurilmani hosil qiladi.

Gapning biror shaxs yoki narsa-buyumga qarashlilikini, xosligini bildirgan bo'lagi qaratqichli aniqlovchi deyiladi.

Masalan, *Namanganning olmasi. Bodom guli kabi.*

Qaratqich aniqlovchi qaratqich, qaratqich aniqlovchi bog'langan bo'lak esa, qaralmish deyiladi. Qaratqich va qaralmish munosabati qaratqichli birikma hisoblanadi.

Qaratqich aniqlovchi qaratqich kelishigi shaklini, qaralmish egalik qo'shimchasi shaklini olgan bo'ladi.

Qaratqichda qaratqich kelishigi doimo tushib qola bermaydi. Agar qaratqich atoqli otlar, olmoshlar, otlashgan so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa, albatta, qaratqich kelishigi bilan qo'llanadi.

Shuningdek, qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa bir so'z bo'lsa, qaratqich kelishigi tushib qolmaydi. Masalan, *Namangan olmasi, Namanganning shirin olmasi.*

Qaratqich bilan qaralmish o'zaro shaxs-sonda moslashadi.

Qaratqichli aniqlovchilar qaralmish bilan munosabatga kirishganda turlicha shakllanadi:

1) qaratqich va qaralmish belgisi keladi;

2) qaratqich belgisiz, qaralmish belgisi keladi;

3) qaratqich va qaralmish belgisiz qo'llanadi.

Ayrim vaqtda qaratqich belgisi, qaralmish belgisiz kelishi ham mumkin: *bizning maktab.*

Qaratqich aniqlovchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) ot bilan: *Shiftga osig'liq qirqinchi chiroqning qalpog'i uy devorlarining tepa yog'iga cho'ziq soya solgan.*

2) otlashgan sifat bilan: *Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning yomonligi tegar tor yerda.*

3) otlashgan son bilan: *Birining ko'zi qora, ikkinchisining ko'zi ko'k edi.*

4) olmosh bilan: *Bizning eshon — kabobpazlarning piri.*

5) otlashgan sifatdosh bilan: *So'raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora.*

Predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlaydigan bo'lakka izohlovchi aniqlovchi deyiladi.

Masalan, professor Boqijon To'xliyev, Nabi aravakash, raqqosa qizlar kabi.

Izohlovchi bog'langan hokim bo'lak izohlanmish deyiladi. Izohlovchi va izohlanmish munosabati izohlovchili birikma sanaladi.

Izohlovchi-izohlanmish munosabati sifatlovchi-sifatlanmish munosabatiga o'xshaydi, lekin ular qanday so'zlar bilan ifodalanishi bilan farq qiladi.

Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganda, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan, *Baxt kuychisi – Hamid Olimjon she'rlarini sevib o'qiymen*.

Izohlovchilar ko'pincha ot so'zlar bilan ifodalanadi: *akademik G'aniyev, polkovnik Mamajonov, shoira Zulfiya, usta Olim kabi*.

Izohlanmish shaxsning millati, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi, jinsi va boshqa qo'shimcha belgilarini tavsiflovchi bo'lak izohlovchi deb yuritiladi:

- 1) unvon, amal: *mayor Zokirov, direktor Nishonov.*
- 2) mashg'ulot, kasb: *sartarosh Nazir, bog'bon Nurali, kassir Vali...*
- 3) yosh, jins, qarindoshlik: *Shoira xola, Baxtiyor amaki, Lola amma...*
- 4) laqab: *Salim pismiq, Dilshod naynov...*
- 5) taxallus: *Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir.*

#### **Topshiriq: quyidagi gaplardagi aniqlovchilarni izohlang.**

1. Bizning maktabimizda «Mohir qo'llar» to'garagining ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Katta to'garak ikki guruhdan iborat. Birinchi guruh chevar qizlarni birlashtiradi. Unda oqila qizlarimiz tikuvchilik san'atini, bichuvchilik mahoratini, kashtado'zlik va zardo'zlik sirlarini, popopchilik kasbini o'rganadilar. To'garagimizning ikkinchi guruhi «Hunarmand yigit» deb ataladi. Bu guruhda «Hattotlik», «Yog'och o'ymakorligi» bo'limlari bor. Hozirgi kunda to'garak 124 o'g'il-qizni birlashtiradi. To'garagimizni tumanda «Hunarmandlar maktabi» deb ataydilar. Mashhur to'garagimizning nomi maktabimizga ham ko'chgan. Hamma kishilar bu maktabni «Hunar maktabi» deydi. Bizning to'garagimiz tumanimizdagi milliy hunarlar kollejining otalig'idadir. To'garagimizning ko'pgina a'zolari o'qishni shu kollejda davom ettirmoqchilar.

5. 1. Soyning tagidan ko'm-ko'k suv oqib o'tardi. 2. Bu yilgi bahorning kech kelishi ko'plarning tinka-madorini quritdi. 3. Shu payt ichkaridan shi p-shi p qadam tovushi eshitildi. 4. Yaxshi o'g'il otga mindirar, yomon o'g'il otdan indirar. 5. Po'lat sandiq ochildi, ichidan zar sochildi. 6. Bu yil tog'-tog' paxta xirmoni yaratildi. 7. Bir kishi ariq qazyidi, ming kishi suv ichadi. 8. Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziynati.

6. 1. Ko'm-ko'k g'o'zalar hosilga kirib, nishonasi gulga, guli ko'sakka aylanmoqda. 2. Bu kishining fe'l-atvori menga juda yoqib tushdi. 3. Mahallada

duv-duv gap tarqaldi. 4. Aytilgan soʻz — otilgan oʻq. 5. Sanjar sakkizinchi sinfda oʻqiydi. 6. Besh-olti keksa yigʻilib maslahat qilishdi. 7. Koʻcha tomondan gurs-gurs oyoq tovushi keldi.

7. 1. Daraxtni undiradigan, oʻstiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv boʻlsa, badiiy mahoratni undiradigan va oʻstiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir. 2. Baqirgandan koʻra, maromi bilan sekinroq qilingan taʼna quloqqa yaxshiroq kiradi, zehnga yaxshiroq oʻrnashadi. 3. Odobsizlik taraqqiy topib yetib boradigan joyi «jinoyat» degan narsa, aytmogga oson, uning zamirida barbod etilgan salomatlik, nomus, nohaq toʻkilgan hovuch-hovuch koʻz yoshi yotadi.

8. 1. Biz boy otangizga Yormatning qizini olib bermoqchi edik. 2. Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning gapiga kir. 3. Ikkining kvadrati toʻrt boʻladi. 4. Ikki nechaning yarmi? 5. Oʻqishning foydasi koʻp. 6. Kelganlarning birortasi ham uni tanimas edi. 7. Jismoniy tarbiya darsi maktab hovlisida oʻtkazildi. 8. Daryo labida turib koʻklam quchogʻida tovlanayotgan Olmazor chiroyiga suqlanardim.

9. 1. Dutor torlarining jarangi Zumradning tovushiga qoʻshilib ketdi. 2. Mana shu oʻyin-kulgilar, qoʻshiqlar va kuylar yoshlar va keksalarning diliga orom va quvonch bagʻishlagan lola sayili yaqindagina boʻlgan edi. 3. Osmondagi umid yulduziga boqib, hayot chashmasini qidiraman. 4. Yosh yigitning yuragiday qaynab, joʻsh urib turgan zilol suvli buloqni koʻz yoshi bulogʻi deb ataganlari qiziq. 5. Qorongʻi dala jimjit. Faqat hasharotlarning chiyillashi, suvning shildir-shildir oqishi eshitiladi...

## Gap boʻlaklarining tartibi

Gap boʻlaklari gap tarkibida ikki xil tartibda joylashadi:

### 1. Odatdagi tartib.

1) ega oʻzining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: Bilimdon talabalar topshiriqni puxta va aniq bajaradilar.

2) toʻldiruvchi oʻzining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: Kechagi vazifani bajarish kerak.

3) payt holi va vaziyat holi kesimdan oldin keladi: Topshiriqni ertaga bajaramiz. Kechagi voqeani kula-kula soʻzlab berdi.

### 2. Oʻzgargan tartib (inversiya) asosan haddiy uslubda uchraydi:

1) ega kesimdan keyin keladi: Boʻldi taajjub qiziq hangomalar.

2) toʻldiruvchi kesimdan keyin keladi: Kezdim gulzor yangligʻ bogʻlarni.

3) payt holi, oʻrin holi va vaziyat holi kesimdan keyin keladi: Bir doktor kelibdi Toshkentdan. Gapirdi zavqlanib.

4) qaratqich qaralmishdan keyin: Oʻzbekiston — Vatanim manim.

Mashq: 1. Gap boʻlaklarini aniqlang. Ikkinchi darajali boʻlaklarning egadan va kesimdan keyin kelgan holatlarini aniqlab, jadvalga joylashtiring.

Namuna:

O'zgargan tartib	Oddiy tartib
1. shovulladi shamol	1. shamol shovulladi

Shovulladi tun bo'yi shamol,  
Qaldiroqlar ko'chdi, larzakor.  
Shivirlading yonimda, xushhol:  
«Yana keldi, do'stginam, bahor».

Shovulladi tun bo'yi shamol,  
Qorliklarda o'chdi izimiz.

Shivirlading yonimda xushhol:

«Mangu birmiz, do'stim, ikkimiz».

2. Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun Vatan deya yer-u osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor,

Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?

Yoki quyoshimi sevgimga sabab?

Axir, quyoshli-ku butun Osiyo.

## Gap bo'laklari bo'yicha test

### 1-variant

1. Sifat aniqlovchi vazifasida qo'llangan gap qaysi?

A. Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat

B. To'g'ri yursang, murodingga oson yetasan

C. Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko'chaga chiqdi

D. Bir xotin sabzavotlar solingan xaltasini ko'tarib kelayotgandi

2. Quyidagi she'riy misra gap bo'laklariga to'g'ri ajratilgan qatorni belgilang.

Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin.

A. ega, aniqlovchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim

B. aniqlovchi, aniqlovchi, aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, hol, kesim

C. Aniqlovchi, aniqlovchi, ega, kesim

D. Ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim

3. Javoblarning qaysi birida vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan gap berilgan?

- A. Bilaman, -- dedi suhbatdoshi, -- Odiljon oqil, dono va matonatli edi
- B. Berilgan gaplarda vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etmagan
- C. Bizning to'garagimiz tumanimizdagi milliy hunarmandlar kollejinining otalig'idadir

D. Qarilar kutadi mehmon, pazandasi yopadi shirmon

4. Berilgan gapda kesimdan oldin kelgan gap bo'laklarini ko'rsating. Baxt kuyini sevinch bilan kuylaylik. (*Qo'shiqdan*)

- A. maqsad holi
- B. ravish holi
- C. vositali to'ldiruvchi
- D. vositasiz to'ldiruvchi

5. Qaysi gapda kishilik olmoshi to'ldiruvchi vazifasida kelgan ?

- A. Ular bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmoqdalar
- B. Parizod bo'lgan voqeani unga aytib berdi
- C. Siz bir oz dam oling
- D. Shubhasiz, bu -- sizning yutug'ingiz

6. Yaxshining yaxshiligi har yerda tegar.

Gapdagi otlashgan sifatning sintaktik vazifasini aniqlang.

- A. hol
- B. kesim
- C. aniqlovchi
- D. aniqlovchi, ega

7. Qaysi gapda murakkab ot-kesim qo'llangan?

- A. O'sha kuni sovuq qattiq edi
- B. berilgan barcha bo'laklarda
- C. Hammasini aytib berishing darkor
- D. Men kutib olishim kerak

8. To'ldiruvchi bilan bog'liq berilgan hukmlarning qaysi biri notog'ri?

- A. Vositasiz to'ldiruvchi faqat o'timli fe'lga bog'lanadi
- B. Barch hukmlar to'g'ri
- C. vositali to'ldiruvchi o'timli va o'timsiz fe'lga bog'lanishi mumkin
- D. vositali to'ldiruvchi fe'l bo'lmagan so'zlariga bog'lanishi mumkin

9. Sifat bilan ifodalangan vaziyat holi qaysi gap tarkibida qo'llangan?

A. Samoning zangorisimon sahnida hali to'lishmagan qandaydir beshakl oy xira, rangsiz yiltiradi

B. Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi. Suvning etagi ko'k bilan tutashib ketgan

C. Yo'llarimizda zangori ko'llar, oyna kabi tiniq va bejon

D. Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar

10. Inkorni bildiruvchi so'z-gap qaysi qatorda qo'llangan?

- A. Onangni sog'intirma
- B. Sen metroda borasanmi? -- Aslo
- C. Shunday ulug' narsani himoya qilmay bo'ladimi?!
- D. Bundan keyin meni hech eslamang

11. Qaysi gapda ravishdosh holni ifodalashga xizmay qiladi?
- Bu yangilikdan Diyor qotib kuldi
  - Salimni ko'rishi bilan qotib qoldi
  - U she'r yozmay qo'ydi
  - Xatni bir pasda o'qib tashladi
12. Kesim vazifasida berilgan sifat qaysi gapda berilgan?
- Har qanday tashqi odob o'zining ichki poydevoriga ega
  - Ishonch – eng qudratli ijodiy kuch
  - Ota-onaga muhabbat – barcha yaxshi fazilatlarining asosi
  - Toza yurakni qo'rqitish qiyin
13. Berilgan gapda qo'llangan jo'nalish kelishigidagi otning sintaktik vazifasini aniqlang.
- Mungli ko'zlari mehrga to'la edi
- Ega
  - Aniqlovchi
  - To'ldiruvchi
  - Kesim
13. Vositali to'ldiruvchilar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
- belgisiz tushum kelishigi shakli bilan ifodalangan to'ldiruvchi
  - belgili tushum kelishigi shakli bilan ifodalangan to'ldiruvchi
  - jo'nalish, orin- payt, chiqish kelishigi shakllari yoki ko'makchilar bilan ifodalangan to'ldiruvchi
  - belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to'ldiruvchi
14. Ega bilan kesim orasida tire noto'g'ri qo'yilgan gap qaysi qatorda berilgan?
- Kurashmoq – o'mak bo'lib yashamoq
  - O'zbekiston – mustaqil davlat
  - Hosil bayrami – zafar bayrami
  - O'qish-hayotni tushunishdir
15. Hol ishtirok etgan gap qaysi?
- Bobur she'r haqida, uning vaznlari haqida tinimsiz oylardi
  - Nodirbek televizor tomosha qilishni yoqtirmasdi
  - Saodat bilan do'stlik haqida she'r yodladik
  - Ishlining ishi bitar, ishsizning kuni o'tar
16. Ega belgilash-jamlash olmoshi bilan ifodalangan gapni aniqlang.
- Har bir inson o'z baxti uchun kurashadi
  - Kela berdilar bari kattakon chinor sari
  - Dildorning bari gaplari haqiqat edi
  - Gilosning yonidan o'tayotganimizda allanima baloga turtinib ketdim
17. Odobli va hunarli bo'lmagan kishidan baxt va omad ketadi. Ushbu gapda ismlar qanday sintaktik vazifani bajargan?



- A. aniqlovchi, to'ldiruvchi, ega      B. to'ldiruvchi, hol, ega  
 C. ega, aniqlovchi, hol                  D. to'ldiruvchi, ega

18. Berilgan gaplarni sabab va maqsad holi qatnashgan gaplarga ajrating.

1. Eshik oldi gul hovuz,  
Gul terгани kelganmiz.
2. Hammamiz ham umid bilan mehnat qildik
3. Bir chimdim uyqlab olish uchun ko'zini yumdi
4. Qul tarlon shodligidan,  
To'xtolmay yig'idan.

- A. 1-maqsad holi; 2, 3, 4, – sabab holi  
 B. 1, 2, 3 – maqsad holi; 4 – sabab holi  
 C. 1, 3 – maqsad holi; 2, 4 – sabab holi  
 D. 1, 2 – maqsad holi; 3, 4 – sabab holi

19. Jo'nalish kelishigini qo'shimchasini olgan so'zlar gapda qanday bo'lak vazifasini bajaradi?

- A. Vositali to'ldiruvchi, o'rin holi  
 B. Vositali to'ldiruvchi, o'rin holi, payt holi  
 C. Faqat vositali to'ldiruvchi  
 D. Vositali to'ldiruvchi, o'rin holi, vaziyat holi

20. Bog'lama qaysi gapda mavjud?

- A. Deydilarki, sog'liq – hayot bergan ehson ekan  
 B. O'rmonjon to'nini teskari kiyib oldi  
 C. E. Vohidov – xalq sevgan shoir  
 D. Humoyun do'stlarini aytib keldi

21. Qaysi gapda ibora ega vazifasida qo'llangan?

- A. Ko'zimning ostiga olib yurgan bir popukday qiz bor  
 B. Bir odam yozda mehnatimni «suv» qildi  
 C. Saida uning kecha to'qimi teskari bo'lib yurgani va hozir qildan qiyiq topayotganining sababini darrov fahmladi  
 D. Ayol kishiga qo'l ko'tarish erkakning ishi emas

22. Qaysi gapda ravish ishtirok etmagan?

- A. U ko'chadan kiyimlari yirtilib, titilib kirdi  
 B. Hamma yerda bulbulning shirin kuylari hamisha jaranglab turardi  
 C. Bu gapni eshitgach, da'vogarlar bir-biriga mo'ltillab, javdirab qarab qolishdi  
 D. Roziya buvi inqillab, sinqillab bir amallab yetib keldi

23. Qaysi gapda ibora ega vazifasida qo'llangan?

- A. Saida uning kecha to'qimi teskari bo'lib yurgani va hozir qildan qiyiq ahtarayotganining sababini bildi

- B. Ayol kishiga qo'l ko'tarish erkakning ishi emas  
 C. Bir odam yozda mehnatimni «suv» qildi  
 D. Ko'zimning ostiga olib yurgan bir popukday qiz bor
24. Berilgan gaplarning qaysi birida darak ma'nosi kuchliroq ifodalangan?  
 A. Har bir farzand ona nasihatini jon qulog'i bilan eshitishi kerak  
 B. Qush uyasida ko'rganini qiladi  
 C. Oqsaqol bilan bobom kechasi chiqib ketgancha qaytib kelishmagan edi  
 D. Bu daraxni kesishga kim ham jur'at qiladi
25. Men undan so'radim: bunchalar saralab gul terding kimga?  
 Ushbu gapda nechta to'ldiruvchi bor, ulardan nechtasi mustaqil to'ldiruvchi sanaladi?  
 A. 3 ta to'ldiruvchi, uchalsi ham mustaqil  
 B. 2 ta to'ldiruvchi, bittasi mustaqil  
 C. 3 ta to'ldiruvchi, ikkitasi mustaqil  
 D. 2 ta to'ldiruvchi, ikkalasi ham mustaqil
26. Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida gapida o'rin holi, me'yoriy tartibga ko'ra, qaysi bo'lakdan oldin, qaysi bo'lakdan keyin joylashishi kerak?  
 A. To'ldiruvchidan keyin, egadan oldin  
 B. O'rin holi gapda me'yoriy tartibga ko'ra joylashgan  
 C. To'ldiruvchidan oldin, kesimdan keyin  
 D. Egadan keyin, to'ldiruvchidan oldin
27. Qaysi gapda vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan?  
 A. To'g'ri so'z tosh yoradi, egri so'z bosh yoradi  
 B. Inson go'zallikka intiladi  
 C. Bu roman Pirimqul Qodirov tomonidan yozilgan  
 D. Yomon bilan yondosh bo'lma
28. Hayot mendan ayamadi ne'matlarini  
 Ne istasam, berdi doim, hech bir tonmayman.  
 Ushbu parchada qaysi gap bo'laklari kesimga nisbatan o'rnini almashtirgan?  
 A. Vositasiz to'ldiruvchi va payt holi  
 B. Vositali va vositasiz to'ldiruvchi  
 C. Faqat vositali to'ldiruvchi  
 D. Vositasiz to'ldiruvchi va daraja-miqdor holi
29. Maslahat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalaydigan gaplar, gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turiga mansub bo'ladi?  
 A. Darak gap                      B. Undov gap  
 C. So'roq gap                     D. Buyruq gap

30. Urush — quyon ovi emas.

Ushbu gapdagi tirening ishlatilish sababini aniqlang.

A. O'xshatish munosabatini ifodalagani uchun

B. Izohlash munosabatini ifodalagani uchun

C. Ega ma'nosi ta'kidlangani uchun

D. Bu gapda tire ishlatilmaydi, chunki ot kesim tarkibida bog'lama bor

31. Yigit-qizlarimiz o'z aql-zakovati, kuch-qudratini to'la-to'kis namoyon qila olishi kerak. Ushbu gapda juft so'zlar qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?

A. ega, vositasiz to'ldiruvchi, kesim

B. qaratqich aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi

C. ega, vositasiz to'ldiruvchi, hol

D. ega, vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi

32. Bog'lama qatnashmagan gapni toping.

A. Menga, albatta, kitob, daftar, qalamlar — hammasi kerak.

B. Yozuvchi turmushni har taraflama o'rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo'lishi kerak

C. Do'st, sen eding ko'nglim rahbari, Meni bog'la, topshir dushmanga

D. Turli katta-kichik marosimlar: bayramlar, tug'ilgan kunlar, to'ylar bilan bir qatorda do'stona yig'inlar ham bu munosabatlarni tobora mustahkamlab boruvchi vositadir

33. Islohotlarni chuqurlashtirish amalga oshirayotgan tadbirlarimiz-ning samarasini yaxshilamoqda. Ushbu gapda fe'ning vazifa shakllari qaysi gap bo'lagi vazifasiga ixtisoslashgan? 1. Ega; 2. Kesim; 3. Aniqlovchi; 4. To'ldiruvchi; 5. Hol.

A. 2, 3, 4

B. 1, 2, 3

C. 1 va 2

D. 1, 4, 5

34. Azizlar! Bir kuni kelib afsus-nadomatning zahar-zaqqum sharobini ichmaslik uchun qo'lning kiri bo'lgan mol-mulknii insoniy qadr-qiymatdan yuqori qo'ymaylik. Ushbu gapda juft so'zlar qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan? 1. Vositali to'ldiruvchi; 2. Vositasiz to'ldiruvchi; 3. Sifatlovchi aniqlovchi; 4. Qaratqich aniqlovchi; 5. Ega; 6. Kesim.

A. 1, 2, 4

B. 1, 2, 4, 5

C. 1, 2, 3, 4

D. 1, 2, 4, 6

35. Qaysi qatorda holning ma'no jihatdan 3 turi mavjud?

A. Oz so'zlasang ham, doim soz so'zla

B. Barcha gaplarda holning ma'no jihatdan 2 turi mavjud

C. Ota yuvingandan so'ng sal nariga bordi

D. Sal o'tmay Shirinboy daladan qaytdi.

36. Gavharshodbegim shunday dedi: «Sirdaryoning suvi Zarafshonnikidan ham ko'p, amirzodam. Agar undan shohariq chiqarilsa, qancha suvsiz joylar obod bo'lardi». Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gap

o'zlashtirma gapga aylantirilganda, amirzodam so'zi qaysi gap bo'lagi shaklida keladi?

- A. Vositasiz to'ldiruvchi      B. Ega  
C. Undalma      D. Vositali to'ldiruvchi

## 2-variant

1. Berilgan gaplarning qaysi birida sabab holi qatnashgan?

- A. Qoratoy do'stining dov-daragini surishtirish uchun yelib-yugurdi  
B. Bir chimdim uxlash uchun ko'zini yumdi  
C. Eshik oldi gul hovuz, Gul tergali kelganmiz  
D. Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig'lab yubordi

2. Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim. Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? 1. Ega; 2. Kesim; 3. Aniqlovchi; 4. To'ldiruvchi.

- A. 1, 2, 4      B. 1 va 2      C. 2, 4      D. 1, 2, 3, 4

3. Qaysi gapda o'tgan zamon sifatdoshi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan?

1. Bo'ladigan savdoning tezroq bo'lgani yaxshi.  
2. Bu ovoz hali mag'zi ilimagan dalalarga tegib aks-sado berayotgandek tuyulardi.

3. Qoradaryo hamisha to'lib oqqan, lekin hech qachon bunday suvsiz bo'lmagan.

- A. 2      B. 1      C. 2 va 3      D. 1 va 2

4. Boshimda o'ynar qamchilar, qon ko'zlarimdan tomchilar, bir benavo gul yanchilar, ozodkorim kelmasa. Ushbu qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlarini belgilang.

- A. O'ynar, tomchilar, yanchilar, kelmasa  
B. Qamchilar, tomchilar, yanchilar, ozodkorim  
C. O'ynar, ko'zlarimdan, yanchilar, kelmasa  
D. Qamchilar, tomchilar, yanchilar, kelmasa

5. Sevgi shunday navbahorki, u tikondan gul qilur. Bosh gap tarkibidagi aniqlovchi qaysi bo'lakka tobelangan?

- A. Egaga      B. To'ldiruvchiga      C. Ot-kesimga      D. Fe'l-kesimga

6. Ayo'l qalbi tosh bo'lsaham, allaqayeri paxtadan yumshoq, i pakdan mayin bo'ladi. Ushbu gapda gumon olmoshi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A. To'ldiruvchi      B. Ega      C. Aniqlovchi      D. O'rin holi

7. Berilgan fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

A. Ravish holi qanday? qanday qilib? qanday ahvolda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi

B. Ravish holi ko'pincha o'zi ergashgan so'zdan oldin keladi

C. Ravish holi ravish va ravishdoshlar bilan ifodalanadi

D. Ravish holi kesimga bitishuv va boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi

8. Qanday bo'lak aniqlanmish sanaladi?

A. Aniqlovchiga nisbatan hokim bo'lgan bo'lak

B. Narsa-buyumni ifodalaydigan so'zga tobelanib, uning belgisini aniqlaydigan bo'lak

C. Aniqlovchi tobe bo'lgan hokim bo'lak

D. Gapda o'zidan oldingi aniqlovchining ma'nosini izohlab kelgan bo'lak

9. 1. Gul tergani kelganmiz; 2. O'qish uchun kelganmiz; 3. Dam olishga kelganmiz; 4. Ataylab kelganmiz. Berilgan sintaktik birliklarning qaysi birida tobe so'z maqsad ma'nosini ifodalaydi?

A. 2, 3                      B. 1, 4                      C. 1, 3, 4

D. Barchasida maqsad ma'nosi ifodalangan

10. O'rin-payt kelishigining to'ldiruvchi tarkibida kelishi qaysi gapda berilgan?

A. Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko'rinmas, fikr-tuyg'u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinadi

B. Kech kuzakda sochib don, kelguncha yoz-saraton, Bug'doyzorda ter to'kar

C. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir

D. To'lishganda boshloqlar, O'ringa o'zin chog'lar

11. Qaysi gapda ibora ega vazifasida kelgan?

A. Barcha gaplarda ibora kesim vazifasida kelgan?

B. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi

C. Kovushini to'g'rilab qo'yish kerak: qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi

D. Yo'qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi, jonimga oro kirdi

12. Ega sifatdosh bilan ifodalangan gap berilgan qatorni aniqlang.

A. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga

B. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar

C. Yalqov bilan anqov – dushman uchun katta ov

D. Qo'shni xonadan qizlarning quvnoq qahqahasi eshitildi

13. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi. Bosh gapdagi olmoshning sintaktik vazifasini aniqlang.

A. Vositasiz to'ldiruvchi                      B. Vositali to'ldiruvchi

C. Qaratqich aniqlovchi                      D. Sifatlovchi aniqlovchi

14. Tongdagi go'zalligingni ko'z-ko'z qilganingda, baxtdan, quvonchdan kundan kun munavvar oy kabi to'lib borayotgan jamolingni ko'rganimda yuragim yayrab ketadi. Ushbu gapning kesimi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ketadi
- B. Yayrab ketadi, to'lib borayotgan
- C. Yayrab ketadi
- D. Yayrab ketadi, to'lib borayotgan, ko'z-ko'z qilganingda, ko'rganimda

15. Xo'sh, menda qanday ishingiz bor, qulog'im sizda? Berilgan gapda sintaktik bo'laklar tartibi qanday?

- A. Kirish so'z, to'ldiruvchi, aniqlovchi, ega, kesim, kesim
- B. Kirish so'z, to'ldiruvchi, aniqlovchi, kesim
- C. Kirish so'z, hol, aniqlovchi, ega, kesim
- D. Kirish so'z, hol, ega, kesim

16. Gap kesimi hisoblanadi bog'lamasi bilan shakllangan bo'lsa, gapning kesimi qanday kesim sanaladi?

- A. Murakkab ot-kesim
- B. Sodda fe'l-kesim
- C. Sodda ot-kesim
- D. Qo'shma fe'l-kesim

17. Ravish holi kesimga qaysi yo'l bilan birikadi?

- A. Bitishuv
- B. Moslashuv, bitishuv
- C. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv
- D. Boshqaruv, moslashuv

18. Uning nurlarida qishning poyonsiz oq ko'rpasi mayda oltin uchqunlatib, hamma yoqni chuqur jimjitlik bilan o'rab yotardi. Ushbu gapda nechta o'rinda aniqlovchi qo'llangan?

- A. 5 ta
- B. 4 ta
- C. 7 ta
- D. 6 ta

19. Qaysi qatorda gap bo'laklarining me'yoriy tartibi ko'rsatilgan?

- A. Hol va to'ldiruvchi kesimdan oldin, aniqlovchi egadan oldin joylashadi.
- B. Hol va to'ldiruvchi kesimdan keyin, aniqlovchi egadan keyin joylashadi
- C. Ega kesimdan oldin, to'ldiruvchi kesimdan keyin joylashadi
- D. Hol, to'ldiruvchi va aniqlovchi kesimdan keyin joylashadi

20. Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig'lab yubordi. Ushbu gap qanday gap bo'laklaridan iborat?

A. Ega, kesim, sifatlovchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi va ravish holidan iborat

- B. Ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi, sabab va ravish holidan iborat
- C. Ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi, sabab holidan iborat
- D. Ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi, ravish holidan iborat

21. Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin. Mazkur jumla gap bo'laklariga to'g'ri ajratilgan qatorni belgilang.

- A. Ega, aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, hol, kesim
- B. Aniqlovchi, aniqlovchi, aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, kesim, hol
- C. Ega, aniqlovchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim
- D. Aniqlovchi, aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, hol, kesim

22. Gap bo'laklarining o'zgargan tartibi (inversiya) qaysi javobda berilgan?

- A. Sen u toza gulshandan yiroqsan
- B. Sening jamoling gulistonga ko'rkamlik baxsh etadi
- C. Ular o'zlarining avvalgi tinch, osuda hayotlarini sog'inib, bog'-u bo'stonlar va gulzorlar qo'ynidagi sokin uyalarini qo'msaydilar
- D. Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan, sernavo bulbullar, sayramang bir oz

23. 1.o'qib chiqishim kerak; 2.ozod bo'ldi; 3.obod qildi; 4.uxlab qolishgan ekan; 5.o'qimoqchi bo'ldi; 6.mehribonlik qilgan ekan; 7.aytib berib qo'ya qol; 8.unutib qo'ymaslik kerak

Berilgan birliklar gapda kesim vazifasida qo'llanganda kesimning qaysi turini yuzaga keltiradi?

- A. 1, 2, 3,6, 8 – murakkab ot- kesim, 4,5,7 – murakkab fe'l-kesim
- B. 2,4,6,8 – murakkab ot-kesim, 1,2,5,7 – murakkab fe'l-kesim
- C. 1,3,5,8 – murakkab ot-kesim, 2,4,6,7 – murakkab fe'l-kesim
- D. 2,4,5,6 – murakkab ot-kesim, 1,2,3,8 – murakkab fe'l-kesim

24. 1.Kitobni qunt bilan o'qidim.

2. Darsni diqqat bilan tingladim.

3. Guruchni qopi bilan oldik.

4. Ish bilan ovora bo'ldim.

5. Mening baxtim sen bilan.

6. Ona bilan bola – gul bilan lola. Berilgan gaplarda bilan ko'makchisi qaysi gap bo'lagi tarkibida kelgan?

A. 1,2 - ravish holi, 3 - daraja miqdor holi, 4 - vositali to'ldiruvchi, 5-kesim, 6-bog'lovchi vazifasida

B. 3,4 - ravish holi, 1 - daraja miqdor holi, 2 - vositali to'ldiruvchi, 5 - kesim, 6-bog'lovchi vazifasida

C. 5,6 - ravish holi, 4 - daraja miqdor holi, 2 - vositali to'ldiruvchi, 1 - kesim, 3 - bog'lovchi vazifasida

D. 1,2 - ravish holi, 5 - daraja miqdor holi, 3 - vositali to'ldiruvchi, 6 - kesim, 4- bog'lovchi vazifasida

25. Bog'dan chiqish uchun ozgina yurdi, ishkomb ichida uyalib turgan qizga ko'zi tushdi, uyalganidan bir zumda qizarib ketdi, ketmonga tikilib qadamini tezlattirdi.

Ushbu gapda holning ma'no jihatidan qaysi turlari mavjud?

1. o'rin; 2. payt; 3. ravish; 4. daraja miqdor; 5. sabab; 6. maqsad.  
A. 1,2,3      B. 1,2,3,4,5      C. 1,2,3,4,5,6      D. 2,4,5

26. To'ldiruvchining grammatik belgisi noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A. To'diruvchi odatda boshqa so'zlarga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi
- B. To'diruvchi tushum kelishigidagi so'z bilan belgili yoki belgisiz qo'llanishi mumkin
- C. To'ldiruvchi o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishiklari shaklida bo'lishi mumkin
- D. To'ldiruvchi o'zi bog'langan so'zga nisbatan tobe yoki hokim sanalishi mumkin

27. Vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan gapni belgilang.

- A. Qalam bilan emas, qalb bilan yozish kerak
- B. Mashg'ulotlarda ishtirok etgani keldik
- C. Yurtimizda ko'plab ilm maskanlari mavjud
- D. Qiziq bir hikoya o'qidim

28. Gap bo'laklari odatdagicha joylashgan gapni belgilang.

- A. Tanish bu yo'llar menga
- B. Tanish menga bu yo'llar
- C. Bu yo'llar tanish menga
- D. Bu yo'llar menga tanish

29. Men undan so'radim: Bunchalar saralab gul terding, kimga? Ushbu gapda nechta to'ldiruvchi bor, ulardan nechtasi mustaqil to'ldiruvchi sanaladi?

- A. 2 ta to'ldiruvchi, ikkalasi ham mustaqil
- B. 3 ta to'ldiruvchi, uchalasi ham mustaqil
- C. 1 ta mustaqil to'ldiruvchi
- D. 2 ta to'ldiruvchi, mustaqil to'ldiruvchi berilmagan

30. Berilgan gaplarning qaysi birida ham mustaqil to'ldiruvchi, ham nomustaqil to'ldiruvchi ishtirok etgan?

- A. Opamdan eshitgan gaplarni aytdim
- B. Dangasaning non yeyishini ko'r
- C. Senga aytgan nasihatlarimni yodda tut
- D. Barcha javoblar to'g'ri

31. To'ldiruvchi gap bo'lagining bo'lagi sifatida qo'llangan qatorni aniqlang.

- A. Mening do'stlarim ko'p
- B. Buni faqat senga aytaman
- C. Dangasaning non yeyishini ko'r
- D. Karimaning otasi zavodda ishlaydi



32. Nomustaqil hol qoʻllangan gapni aniqlang.
- A. Litseyda musobaqa boʻladi
  - B. Litseyning 3-bosqich oʻquvchisiman
  - C. Ariq boʻylab ketdi
  - D. Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi
33. Izohlovchi ishtirok etmagan gapni aniqlang.
- A. Bilaman, xabarim bor, mulla Haydarning bir oʻgʻli Samarqandda ekanimda qoshimga kelib erdi
  - B. Goʻshtni belbogʻiga tugib, usta Shonazarning doʻkoniga bosh suqdi
  - C. Yoʻlchi oʻz doʻsti Qoratoy temirchi bilan hangomalashib oʻtirar edi
  - D. Barcha javoblarda izohlovchi ishtirok etgan
34. Qanday vaqtda toʻldiruvchi gapning emas, boʻlakning boʻlagi boʻladi?
- A. kesim oldida joylashsa
  - B. ega oldida joylashsa
  - C. toʻldiruvchi bogʻlangan soʻz kesimi boʻlib shakllana olmagan boʻlsa
  - D. toʻldiruvchi bogʻlangan soʻz kesimi boʻlib shakllana olgan boʻlsa
35. Qaysi qatorda olmosh bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchi ishtirok etgan?
- A. Yaxshi kulgi ruhni sogʻlomlashtiradi
  - B. Odamning guli – hamisha quvnoq odam
  - C. Bizning butun qadr-qimmatimiz tafakkurda jamlangan
  - D. Xushchaqchaq odamning buguni ham, ertasi ham quvnoq oʻtadi
36. Vositasiz toʻldiruvchi belgisiz qoʻllangan gapni belgilang.
- A. Bu – mening Vatanim.
  - B. Karim suvni miriqib ichdi.
  - C. U kitobni berilib oʻqidi.
  - D. Tadbirkorlar ariq boʻyiga charxpalak oʻrnatdilar.

---

---

## UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

Bir gap tarkibida bir turdagi bo'laklar birdan ortiq holda kelishi mumkin: Yo'lda ba'zan katta-katta maydonni qoplab olgan oq, pushti, sariq va qizil gullar uchraydi. Ular daryo bo'yidagi toshlardan, har xil giyohlardan namunalar olishdi.

Birinchi gapda aniqlovchi (oq, pushti, sariq, qizil), ikkinchi gapda to'ldiruvchi (toshlardan, giyohlardan) o'zaro teng aloqada ketma-ket kelgan.

**Gapda bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so'roqqa javob bo'luvchi, o'zaro teng aloqada, boshqa bo'laklar bilan esa tobe aloqada bo'lgan bo'laklar uyushiq bo'laklar deyiladi.** Ular o'zaro teng bog'lovchilar yoki tenglanish ohangi orqali birikadi. Uyushiq bo'laklar bir-birdan pauza bilan ajralib, sanash ohangi bilan aytiladi. Har bir uyushiq bo'lakning o'z ayrim urg'usi bo'ladi.

Gapning kesimi va egasi ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin.

**Topshiriq:** Berilgan gaplarda qaysi bo'lak yoki bo'laklar uyushib kelganini aniqlang.

1. Ichkaridagi gilos, tashqaridagi o'rik daraxtlari qiyg'os gullagan. // Ichkaridagi va tashqaridagi gilos daraxtlari qiyg'os gullagan. //Ichkaridagi va tashqaridagi gilos hamda o'rik daraxtlari qiyg'os gullagan. 2. Salomatning singlisi, Akramning ukasi – 6-sinf a'lochilari. //Salomat va Akramlarning singil va ukalari – 6-sinf a'lochilari. //Salomatning va Akramning singillari – 6-sinf a'lochilari. 3. Qirlardagi lolalar va tog' etaklaridagi binafshalar kishiga huzur bag'ishlaydi. //Qirlardagi va tog' etaklaridagi lolalar hamda binafshalar kishiga huzur bag'ishlaydi.

### Uyushiq kesim

Gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklari (so'z, ibora, so'z birikmalar) bilan ifodalangan kesim bo'lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador bo'lsa, bunday ko'p kesimli gap **uyushiq kesimli gap** sanaladi.

Uyushiq kesimlar bitta bajaruvchiga – egaga aloqador bo'lishi zarur. Masalan, *Xolida yozdi, o'qidi va dam oldi.*

Shakllangan, ya'ni kesimlik shakllari (tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolari)ga ega bo'lgan kesim alohida bir hukmni ifodalaydi, muayyan gap markazini tashkil eta oladi. Shuning uchun ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar **qo'shma gaplar** sanaladi.

**Mashq: Gap juftliklarini qiyoslab, ular orasida qanday shakliy va ma'naviy farq borligini tushuntiring.**

1. 1. Siz a'lochi va jamoatchisiz. //Siz a'lochisiz va jamoatchisiz. 2. Biz harbiy uchuvchi va Vatan posbonlari bo'lamiz. //Biz harbiy uchuvchi bo'lamiz va Vatan posbonlari bo'lamiz. 3. Men bu masalani uqqan va yechganman. // Men bu masalani uqqanman va yechganman. 4. Biz voqea sodir bo'lgan joyga borishimiz, hammasini o'z ko'zimiz bilan ko'rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak. // Biz voqea sodir bo'lgan joyga borishimiz kerak, hammasini o'z ko'zimiz bilan ko'rishimiz kerak va ishonch hosil qilishimiz kerak. 5. Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turishardi. // Do'kondorlar molini maqtab turishardi va xaridorlarni chorlab turishardi.

**2. Uyushiq kesimli sodda gaplarni va qo'shma gaplarni ajratib yozing.**

1. Bog'da bodomlar, o'riklar va shaftolilar gulladi. 2. Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, songgilari esa, uni vahimaga soldi. 3. Tig' yarasi tuzaladi, lekin til yarasi tuzalmaydi. 4. Hamma chuqur xo'rsindi, Anorxon piq-piq yig'ladi. 5. Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko'tarilib, birga ulg'aydi.

## Uyushiq ega

Bir sodda gap tarkibida birdan ortiq ega qator kelishi mumkin. Sodda gap kesimiga bir xil munosabatda bo'lib, sanash ohangi bilan aytiluvchi birdan ortiq eganing ketma-ket kelishi **uyushiq ega** hisoblanadi.

Uyushiq egalar bir-biri bilan sanash ohangi yoki bog'lovchilar orqali bog'lanadi: *Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi. Siz bilan biz bu oddiy haqiqatni tushunmagan ekanmiz.*

**Mashq: Berilgan gaplarning egasini toping. Ularning gapdagi qaysi bo'lakka bog'lanayotganini ayting.**

1. Shu payt hovlida Davron aka bilan Iskandarov kirib kelishdi. 2. Bog'chada yosh-yosh qizchalar va o'g'il bolalar davra qurib o'ynashmoqda. 3. Siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladi. 4. Bir necha qo'sh ho'kiz, ot, omoch-bo'yinturuqlar ham shular nomiga yozdirildi. 5. Puiemyot, miltiqlarning ovozigina xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig'isi, dod-voyi qo'shilib ketdi.

## Uyushiq hol

Bir xil mazmun-munosabatni (yo tarz, yo o'rin, yo payt va b. munosabatlarni) bildirgan bir necha holning o'zaro sanash ohangi bilan, teng bog'lanib kelishi **uyushiq holni** hosil qiladi: *Tomlardan, ivigan devorlardan bug' ko'tarila boshladi. Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi. U dam hazil bilan, dam jiddiy so'rardi.*

Bir sodda gap tarkibida yonma-yon, qator kelgan bir necha payt holi hamma vaqt uyushiq bo'lavermaydi. Masalan, U kecha ertalab biznikiga kelib ketdi gapida ikkita payt holi (kecha, ertalab) bor. Lekin ular uyushiq emas: *bundagi ertalab holi kecha holi ma'nosidagi paytni chegaralab, aniqlashtirib beradi.*

**Mashq:** Berilgan gaplardagi hol bo'laklarni aniqlang. Ularning gapdagi qaysi bo'lakka bog'lanayotgani va qanday ohang bilan aytilayotganini izohlang.

1. Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bog'otlarda chumchuqlar chirqillashadi. 2. Shu masalada sizni Moskvaga, Leningradga safarga yubordik. 3. Qush goh ko'tarilib, goh pastlab bir joyda uchib turdi. 4. Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo'lga olar, suyar va gaplariga, qiliqlariga zavq bilan kular edi. 5. Endi qizlar charchashib, terlashib... tog'ning ustiga chiqib olishdi.

### Uyushiq to'ldiruvchi. Uyushiq aniqlovchi

Gapdagi ikki va undan ortiq to'ldiruvchi bir xil ma'noni (shaxsni yoki narsani) bildirib, bir xil shaklda (kelishik shaklida yoki ko'makchi bilan) kelsa va sanash ohangiga ega bo'lsa, bular uyushiq to'ldiruvchilardir: *Taram-taram otmalarni, asl nashvatilarni, po'sti yupqa luchchak shaftolilarni, quyumoqqa o'xshash anjirlarni aytmay sizmi, bay-bay.*

Har xil ma'noni bildirgan, turli shakllarda kelgan to'ldiruvchilar uyushiq hisoblanavermaydi. *Masalan, Bu daftarni senga oldim* gapidagi daftarni va senga to'ldiruvchilari uyushmagan. Chunki ularning biri (daftarni) narsa-buyum ma'nosini, ikkinchisi (senga) atalganlik ma'nosini ifodalaydi.

Narsa-buyumlarning bir turdagi belgilari (yo rang-tusini, yo mazata'mini, yo son-miqdorini va hokazo)ni bildirgan birdan ortiq aniqlovchilar uyushiq aniqlovchilar hisoblanadi: *Bog'imizda oq, qizil, pushti gullar qiyg'os ochilib yotibdi.*

Shuningdek, bir narsa-buyumning turli belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchilar ham uyushiq aniqlovchilar sanaladi: *Chaqalog kichkina, oppoq va dumaloq qo'llarini cho'zib, menga talpinar edi.*

Uyushiq aniqlovchilar o'zaro sanash ohangi bilan teng bog'lanadi va aniqlanishga baravar tobe bo'ladi.

Qaratqich aniqlovchilar uyushib kelganda, ulardagi -ning qo'shimchasi ba'zan barcha bo'laklarda saqlanadi, ba'zan esa, faqat oxirgi aniqlovchiga qo'shiladi, u oldingilarga ham taalluqli bo'ladi: *Sharifning, Gulnoraning va Saidaning ukalari bog'chada tarbiyalanadilar. — Sharif, Gulnora va Saidaning ukalari bog'chada tarbiyalanadilar.*

**Mashq:** 1. Gaplardagi to'ldiruvchi va aniqlovchilarni topib, bog'langan so'zi bilan ko'chirib yozing.

1. Maxdum bo'ychan, olago'sht, siyrak mo'y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi. 2. Tog' etaklaridan nafis gullarning, xushbo'y giyohlarning hidlari aniqydi. 3. O'n-o'n bir yoshli bola dushmanlar keltirgan ochlik va boshqa kulfatlarni kattalar qatori boshidan kechirdi. 4. Hulkar eshik oldida bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qo'yardi. 5. Men onam, otam va opam bilan xayrlashib, yo'lga tushdim. 6. Munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko'k, qizil, oq, pushti, sariq, qora gullari yulduzlardek yashnab, uyga bir hayotiylik berar edi.

**1. Uyushgan aniqlovchilarni toping. Avval uyushgan sifatlovchi aniqlovchilarni, so'ng uyushgan qaratqich aniqlovchilarni ko'chiring.**

1. Men sizga O'zbekistonning uzoq qishloqlaridan birida o'sgan, beg'ubor yaylov havosida chiniqqan, bir necha bor yirtqich hayvonlar hujumiga yo'liqqan qo'rqmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola haqida hikoya qilmoqchiman. 2. Yoqimli, orombaxsh shamol esadi. 3. Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi. 4. Unga Volkov mashinalarning va turbinalarning vagonga yuklangani haqida xabar qilgan edi. 5. Ko'p o'tmasdan sergo'sht, juda mazali shavla tortildi. 6. Shu payt yonimizdan ikki muloyim, nuroniy chol o'tib qoldi.

**2. Uyushiq bo'laklarining ohangiga e'tibor berib, tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.**

1. Uning niyatini do'stligini qushlar tushundilar. 2. Jannatxon musiqani ashulani juda sevar edi. 3. Bola qoshida ota-onaning so'zi bilan ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat va hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan o'tkir boltadir. 4. Quyosh yorug'ida ko'k sariq qizg'ish qum zarrachalari yaltirardi.

**Mashq: Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o'z o'rniga qo'yib gaplarni ko'chiring.**

1. Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar sa'va bulbul mayna va boshqalar unga jo'r bo'ldi. 2. Samarqandlik bag'dodlik misrlik hindlik va xitoylik hamma sayyohlarga bu shahar manzur bo'ldi. 3. Hamma narsa uylar devorlar daraxtlar qorong'ilikka jimgina cho'kdi. 4. Botirali endi shu paytgacha o'z aqli bilan hal qilolmagan tushunmagan narsalarning tagiga yeta boshladi.

Gapda ikki va undan ortiq bir xil gap bo'laklari ishlatilishi mumkin. Masalan, Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy. (A. Oripov) Bu gapda eshilib, to'lg'onib so'zlari bir hokim bo'lakka – ingranadi ga tobe bog'lanadi va har ikkisi bir xil so'roqqa (qanday? so'rog'iga) javob bo'ladi. Har ikkisi bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Bu ikki bir xil bo'lak bir-biri bilan sanash ohangi yordamida bog'lanadi.

**Esda saqlang. Bir umumiy bo'lakka tobe bog'lanuvchi, bir xil sintaktik vazifa bajaradigan, o'zaro teng bog'lovchilar va sanash ohangi yordamida bog'langan, ko'pincha bir xil so'roqqa bo'luvchi ikki yoki undan ortiq bo'laklarga uyushgan bo'laklar deyiladi.**

Gap bo'laklari ham, bo'lakning bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin. Masalan, *Rangi o'chgan, umri kechgan kuz guli...egil (Cho'lpon)* gapida rangi o'chgan, umri kechgan bo'laklarining har ikkisi qanday? so'rog'iga javob bo'lib, kuz guli bo'lagiga tobe bog'langan. Bu bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida teng bog'langan eganing aniqlovchilari sifatida bo'lakning uyushgan bo'laklari sanaladi.

Uyushgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar uyushiq bo'lakli gaplar hisoblanadi.

### **Uyushgan bo'laklarning shakllari va ularda teng bog'lovchilarning qo'llanishi**

Uyushgan bo'laklarning xarakterli xususiyati shundaki, ular bir xil grammatik shaklda bo'ladi.

Bu grammatik shakllarning qo'llanilishi ikki xil:

a) uyushgan bo'laklarning har birida takrorlanadi:

*Yam-yashil vohalarga,*

*Badiiy lavhalarga,*

*She'riy sarlavhalarga,*

*Boy ekansan, Farg'ona.*

Runday vaqtda uyushgan bo'laklarning har biri ta'kidlangan bo'ladi;

b) uyushgan bo'laklarning eng oxirida qo'llanib, hammasi uchun tegishli bo'ladi:

Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'lishdi.

Bunday vaqtda sanalayotgan bo'laklarning har qaysisi ta'kidlanmaydi, balki sanab ko'rsatiladi.

*Uyushgan bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar (ham, -u(-yu), na...na... yuklamalari, bilan ko'makchisi)va sanash ohangi yordamida hog'lanadi.*

Uyushgan bo'laklar biriktiruv bog'lovchisi bo'lgan va, hamda bog'lovchisi vazifasidagi bilan yordamida bog'langanda ular ko'pincha takrorlanib keladi.

*Adol bilan o'yinchi Sora,*

*Asat bilan quvnoq Ruxsora... (H. Olimjon)*

Bunday vaqtda uyushgan bo'laklar orqali ifodalangan shaxs, predmetlarning guruh-guruh ekanligi ifodalanadi.

Ana shunday ma'no ifodalaganda va, hamda, bilan bog'lovchilari bir-biri bilan erkin almashinib keladi.

Va, hamda, bilan bog'lovchilari ikkidan ortiq uyushgan bo'laklar tarkibida bir marta qo'llanilsa, uyushiq bo'laklarning oxirgi juftligi orasida keladi va sanashning tugallanganligini bildiradi: *Bog'imizda o'rik, shaftoli, gilos va olmalar bor.*

Uyushgan bo'laklar ikki a'zodan iborat bo'lib, biriktiruv munosabatini bildirsa, bu a'zolar o'rtasida *va, bilan, -u (-yu)* bog'lovchilari ishlatiladi.

Solishtiring: Bir sevgikim, jon berur tanga,  
Faqat Zaynab-u Omonlarga xos.

*Zaynab-u Omonni Zaynab va Omon, Zaynab bilan Omon* deb ishlatish mumkin.

Uyushiq bo'laklar otlar bilan ifodalanganda *va, hamda, bilan* o'zaro almashinadi. Fe'llar bilan ifodalanganda *esa, va, hamda, -u (-yu)* o'zaro almashina oladi, lekin «*va*» ning o'rniga «*bilan*»ni qo'yib bo'lmaydi.

Solishtiring: Keldi va ketdi.  
Keldi-yu ketdi.

Uyushiq bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida bog'lanib ularning har birining ma'nosi ta'kidkanganda, har bir bo'lak oxirida **ham** yuklamasi qo'llaniladi: *Sen ham, u ham farishta emas.*

Uyushgan bo'laklar o'zaro ayiruv munosabatida bo'lganda, ular o'rtasida **yo, yoki, yo-yo, ba'zan ba'zan, dam-dam** singari bog'lovchilar qo'llaniladi. *Masalan, yo kitob, yo ruchka olaman.*

**Yo, yo-yo, yoki** bog'lovchilari uyushgan bo'laklardan **birini tasdiqlab, ikkinchisini esa, inkor etib bog'laydi.**

*Masalan, yuqoridagi misolda kitob olsa, ruchka olmaydi, ruchka olsa, kitob olmaydi.*

**Ba'zan-ba'zan, dam-dam, goh-goh** kabi bog'lovchilar yordamida bog'langanda *esa* uyushgan bo'laklarning **navbatma-navbatligi** ifodalanadi. Solishtiring: *Goh o'ynaydi, goh yig'laydi. Ana shunday ma'no ifodalaganda ba'zan-ba'zan, dam-dam, goh-goh kabi bog'lovchilar o'zaro almashinib keladi.*

Uyushgan bo'laklar o'zaro zidlik munosabatida bo'lganda, ular o'rtasiga **zidlov bog'lovchilari** (ammo, lekin, biroq) qo'llaniladi. *Masalan, Hammasini tinglardim ammo(lekin, biroq) o'xshashini topmasdim aslo. (H. Olimjon)*

Uyushiq bo'laklar ifodalagan ma'no inkor qilinib, ularning har biri ta'kidlab ko'rsatilsa, **na... na...** bog'lovchi vazifasidagi yuklama qo'llaniladi. *Masalan, Na sen, na men buning kafolatini olganmiz. (Shuhrat)*

**Na...na...** uyushgan bo'lakli gapning kesimi tasdiq shaklida bo'lganda ham, inkor shaklda bo'lganda ham qo'llana beradi. Agar uyushiq bo'lakli gap kesimi tasdiq shaklda bo'lsa, **na...na...** uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va gapni inkor gapga aylantirish vazifasini bajaradi. Aksincha, gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa, **na...na...** uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va ularning ma'nosini ta'kidlash vazifasini bajaradi. Solishtiring:

*Na Salim, na Karim keldi,  
Na Salim, na Karim kelmadi.*

## Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'zlarning qo'llanilishi

Uyushgan bo'lakli gaplarda ko'pincha uyushgan bo'laklarning mazmunini jamlovchi umumlashtiruvchi so'zlar ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda **uyushgan bo'laklar narsa va hodisalarni, belgi-xususiyatlarni alohida-alohida ifodalasa, umumlashtiruvchi so'z esa, ularning hammasini jamlagan holda ifodalaydi.**

Demak, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasida xususiylik-umumiylik, jins-tur munosabati mavjud bo'ladi. **Uyushgan bo'laklar xususiyliklarni, jinsni; umumlashtiruvchi so'z esa, umumiylikni, turni bildiradi.**

Bu qism umumlashtiruvchi ma'noli so'zlar (olmoshlar, otlar, fe'llar v.h.), so'z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi mumkin. Uyushuvchi bo'laklar umumlashtiruvchi so'zning ma'nosini izohlab, aniqlab keladi.

Uyushgan bo'laklar qaysi grammatik shaklda bo'lsa va qanday so'roqqa javob bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham ko'pincha ana shunday shaklda bo'ladi va shunday so'roqqa javob bo'ladi.

Uyushgan bo'laklar qaysi bo'lak bilan tobe munosabatda bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham shu bo'lak bilan tobe aloqada bo'ladi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin.

Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan **oldin kelsa**, yozuvda umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan **keyin kelsa**, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasiga tire qo'yiladi.

Uyushgan bo'laklar yozuvda bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Agar uyushgan bo'laklar guruh-guruh bo'lib kelsa, guruhlar bir-biridan **nuqtali vergul** bilan ajratiladi. Masalan, *Bog'imizda qovun, handalaklar; olma, o'rik, shaftolilar pishib yotibdi.*

## Ajratilgan bo'lakli gaplar

Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga **ajratilgan bo'laklar**, shunday bo'lakli gaplarga esa **ajratilgan bo'lakli gaplar** deyiladi.

Gapning ajratilgan bo'laklari o'zlari aloqada bo'lgan bo'laklarning ma'nosini izohlab, bo'rttirib, aniqlashtirib yoki ta'kidlab keladi. Ular boshqa bo'laklardan maxsus to'xtam bilan ajralib, gap urg'u (mantiqiy urg'u) sini



oladi. Misollar. *Lolaxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Munirani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga — Abror bir lahzada yetdi. Sizga, o'ra bo'yli qizga, atlas juda yarashibdi.*

Ajratilgan bo'laklar: a) bir bo'lak holda keladi: *Boyagi yigitning, Nodirning, qo'li gul ekan;* b) birikmali holda keladi: *Shi kuni kechqurun, daladan qaytishda, qori Mansurjonga hamroh bo'lib qoldi.*

Ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakdan doimo keyin keladi va yozuvda vergul, tire va ba'zan qavs bilan ajratiladi.

Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha axborot qo'shiladi. Masalan, Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas. Bu gapda birinchi axborot Tursunali akaga kuyov bo'lish hazil gap emasligi gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot esa Tursunali akaning katta olimligi ajratilgan bo'lak orqali ifodalanadi. Nutq jarayonida ko'pchilikka noma'lum bo'lgan so'zni qo'llasangiz, tinglovchiga tushunarli bo'lish uchun uning yoniga ma'lum bo'lgan so'zni qo'yib bayon qilasz. Masalan, *Lingvistika — tilshunoslik, mening sevgan fanim bo'ladi.*

Ba'zan ma'nosi umumiyroq bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlashtirish uchun uning yoniga konkretroq, aniqroq ma'no bildiruvchi so'zni keltirasz. Masalan, *Bog'chodagi do'stimni — Qodirni ko'rib qoldim.* Ayrim hollarda esa ma'lum bir narsani boshqa narsaga o'xshatib, ularning nomini yonma-yon ishlatamiz. Masalan, *Shu farzandimni — ko'zim qorasini — elning ardog'ida bo'lishini xohlayman.*

Natijada, bir tushunchaning ikkita nomi vujudga keladi. Ikkita nom bo'lishi, har ikki nomning bir xil so'roqqa javob bo'lishi, har ikkisinining ham bir xil grammatik shaklda bo'lishi bilan bunday ajratilgan bo'laklar uyushgan bo'laklarga o'xshaydi.

Solishtiring: *Unda, Komilning ukasida, qiziqarli kitoblar ko'p.* Bu gapdagi unda, Komilning ukasida bo'laklari ikki kishini bildirsa va sanash ohangi bilan talaffuz qilinsa, uyushgan bo'lak, bir kishini bildirib, ikkinchisi birinchisidan biroz to'xtamdan so'ng pastroq ohang bilan talaffuz qilinsa, ajratilgan bo'lak bo'ladi.

Bunday ajratilgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklaridan vergul, ba'zan tire bilan ajratiladi. Gapning hamma bo'laklari ajratilishi mumkin. Qaysi gap bo'lagining so'rog'iga javob bo'lsa, ajratilgan bo'lak o'sha gap bo'lagining nomi bilan yuritiladi.

**Ajratilgan bo'laklar ikki xil vazifani bajaradi:**

a) ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish;

b) ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish.

Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

Ajratilgan bo'laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi:

**a) tartibni o'zgartirish** (Sifatlovchi aniqlovchiga xos bunda aniqlovchi aniqlanishdan keyinga o'tadi.)

**b) bir nomni boshqacha nomlash** (Bunga ajratilgan qaratqich aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol va izohlovchi kiradi.)

Ajratilgan bo'laklar, gapdagi qaysi bo'lakka oid ekanligiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: **ajratilgan hollar, ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan to'ldiruvchilar.**

Ajratilgan hol o'zidan oldin kelgan holning ma'nosiga aniqlik kiritadi, izohlaydi. Ajratilgan bo'lak vazifasida ko'pincha o'rin, payt hollari keladi: *Hu ana shu joyda, taxta ko'prikning ostida, kichik bir buloq bor.*

Ajratilgan to'ldiruvchi o'zidan oldin kelgan to'ldiruvchining ma'nosini izohlaydi, unga aniqlik kiritadi. Vositasiz to'ldiruvchi ham, vositali to'ldiruvchi ham ajratilgan bo'lak sifatida qo'llanishi mumkin: *Nasihatimni, otangning so'zini, esingda tut. Xatni uning o'ziga, Gulnozaga, bering.*

Ajratilgan aniqlovchi shaxs yoki narsaning belgisini, kimga yoki nimaga qarashlilikini ta'kidlab, ayirib ko'rsatish uchun qo'llanadi: *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yonida dag'-dag' titraydi. Bizning, o'quvchi yoshlarning, o'zimizga yarasha or-nomusimiz bor.*

Sifatlovchi aniqlovchi, odatda, aniqlanishdan oldin keladi. Ba'zan tinglovchining diqqati sifatlovchiga tortilganda, so'zlovchi uning odatdagi tartibini o'zgartirib, sifatlanishdan keyin keltiradi. Natijada, sifatlovchi gapning boshqa bo'laklaridan boshqacha ohang bilan ajralib qoladi. Sifatlovchining ma'nosi odatdagi tartib bo'yicha qo'llangan sifatlovchiga nisbatan bo'rtiriladi, alohida ta'kidlanadi. Gapdagi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismga aylanadi.

Tartibi o'zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchilar ajratilgan bo'lakka aylanadi. Masalan, *Bu o'zbek yigiti – tanti, mehribon.*

Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yozuvda boshqa bo'laklardan doimo vergul bilan, agar sifatlovchi aniqlovchilarni o'zi uyushgan bo'lib, ichida vergul bilan ajratilgan bo'lsa, ajratilgan bo'lak boshqa bo'laklardan tire bilan ajratiladi.

Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanishdan keyin keladi va o'ziga xos ohang bilan aytiladi.

Ajratilgan izohlovchilar, ko'pincha, egaga taalluqli bo'ladi: *O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, – dedi ona. Birozdan so'ng Hasan aka, fizika o'qituvchisi kirib keldi.*

## Topshiriqlar

1. Berilgan gaplardagi ajratilgan soʻzlar (yoki soʻz birikmalari)ning qanday vazifa bajarayotganligini va qaysi gap boʻlagi boʻlib kelayotganligini aniqlang.

1. Men, Gʻulomova Shohida, hozir 8-sinfda oʻqiyman. 2. Ularni, qoʻl toʻpi sportchilarini, boshqa ishlarga jalb qilmaslikka qaror qilindi. 3. Bugundan, yaʼni 6-maydan 13-maygacha, biz final musobaqalariga tayyorlanamiz. 4. Onasi ham bolasining, baxti qora jigargoʻshasining, koʻzlarida shu zor-u mushtoqlik olovini koʻrdi.

2. Tinish belgilarini qoʻyib koʻchiring.

1. Biz sizning doʻstlaringiz yoʻl qoʻyilgan xato halokatga olib borguncha indamay turarmidik. 2. Bu xabar koʻplarni shu jumladan Mahkamni ham juda quvontirdi. 3. Biz mana shu xoʻjalik hayotidan nafis film yaʼni *kartina* yaratmoqchimiz. 4. Biz ota-oʻgʻil uydan chiqib bobomning hovlisiga bordik. 5. Bektemirga sobiq choʻponga komandirning fikri gʻoyat yoqdi.

3. Berilgan gaplardagi ajratilgan boʻlaklarning qaysi gap boʻlagiga oidligini ayting.

1. Dadam shu atrofda — qishloqning chiqaverishidan — doʻkon qidirdi. 2. Orqada tikka turgan yoshgina yigit, Mamadali, oʻzini odamlarning orasiga oldi. 3. Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish motam! 4. Choʻpon otadan bir chaqirimcha pastlikda, Boʻzsuvning naq boʻyida, uch-toʻrt tup jiyda oʻsgan bir xilvat joy bor. 5. Bir vaqtlar siz ham, Temir Akbarovich, xato qilishdan qoʻrqmasdik, deb dadil gapirar edingiz.

4. Ajratilgan boʻlaklarni topib, turini belgilang.

1. ... Bu kampir Toshkentda ishlaydigan oʻgʻlinikida bir oy turib, yana qishloqqa, boshqa bolalari, nevaralari huzuriga ketayotgan ekan. 2. Axir uning, Vohidning ham oʻziga yarasha obroʻsi, yigitlik gʻururi, izzat-nafsi bor-ku! 3. Mana hozir ham Akromning yolgʻiz unga, Sayyoraga, tanish boʻlgan boʻlakcha bir samimiyat toʻla xatini oʻqirkan, ...tomogʻiga bir nima kelib tiqildi. 4. Seryoja — oddiy, navqiron, mard yigit — oʻrtoqlari uchun jonini fido qildi. 5. Otam — Rustam Joʻrayev — maktabda biologiyadan dars beradi. 6. Endi ular faqat birgina sayilni - dushman ustidan gʻalaba qilingan kun tantanasini — umid qiladilar.

5. Tinish belgilarini qoʻyib koʻchiring.

1. Siyrak daraxtli ikkinchi bir tepalikda bir necha kishilarning ayol va erkaklarning qorasi koʻrindi. 2. Ulardan biri koʻzoynakli kekxa hammadan keyin qolib uzoq suhbatlashdi. 3. Oʻzim injenerman; Oʻzbekistonning Sizning yurtingizning taʼrifini eshitganman.

**Gapning uyushiq va ajratilgan bo'laklari bo'yicha test  
topshiriqlari  
1-variant**

1. Gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan? Yangi mafkuraning asosi, negizi bormi, yo'qmi?

- A. ega    B. kesim    C. aniqlovchi    D. ega va kesim

2. Onam, opam va singlim bilan mehmonga bordim. Qaysi gap bo'lagi uyushgan?

- A. ega    B. to'ldiruvchi    C. ot    D. aniqlovchi

3. Uyushiq bo'lakli gapni toping.

A. Sabr-toqatga qodir odam xohlagan narsasiga erishishga ham qodir

B. G'azab bilan boshlangan narsa uyat bilan tugaydi

C. Vazmin va xushmuomala qariya hammaga yoqadi

D. Xotirani kuchaytirishning eng muhim sharti asablarning sog'lom bo'lishidir

4. Har bir odamning do'stlari oldida burch va mas'uliyati borki, ularni ado eta olmasa, do'stlari uning do'stligining e'tirof etmaydilar, tan olmaydilar. Ushbu gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?

A. ega va hol    B. aniqlovchi va kesim

C. kesim va hol    D. ega va kesim

5. Yonimizda qizlar, o'g'illar qo'shiq aytsin, yayrasin, kulsin. Ushbu gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?

A. faqat ega    B. faqat kesim

C. to'ldiruvchi    D. bosh bo'lakalar

6. Juft-juft bo'lib qo'llangan uyushiq bo'lakli gapni toping.

A. U mayda-chuyda ishlarni ham aniq va puxta bajaradi

B. Erk va muhabbat, do'stlik va sadoqat, shodlik va baxt, yoshlik va bahor, tabiat va hayot unung ijodida o'zining ifodasini topa bildi

C. Talabalar, o'quvchilar huzurida o'zimni ancha yengil, erkin his etaman

D. Nafis, jo'shqin muhabbat hayotimiz, yoshligimizning gulidir

7. Quyidagi tinish belgilaridan qaysi birlari uyushiq bo'lakli gaplarda ishlatiladi? 1.vergul; 2.ikki nuqta; 3.nuqtali vergul; 4.tire

- A. 1, 2    B. 1, 2, 3    C. 1, 2, 4    D. 1, 2, 3, 4

8. Gapning uyushiq bo'laklari guruh-guruh bo'lsa, yozuvda guruhlar orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A. nuqtali vergul    B. ko'p nuqta    C. ikki nuqta    D. vergul

9. Qaysi gapda uyushiq bo'laklar faqat sanash ohangi yordamida birikkan?
- Yo'lda oq, pushti, sariq va qizil gullar uchraydi
  - Salim she'rni berilib, jo'shib o'qidi
  - Olim sharq xalqlarining madaniyati to'g'risida hurmat va iftixor bilan gapirdi
  - Anorxon bilan Tansiq yo'l qurish bilan band edilar
10. Uyushiq bo'lakli gap qo'llangan qatorni aniqlang.
- Vatandan tashqarida baxt yo'q
  - Uning loyihasi bo'yicha binolar, maydonlar, xiyobonlar qurildi
  - Odamlar qanchalik ma'rifatli bo'lsa, el yurtga shunchalik foydasi tegadi
  - Halollik, to'g'rilik – katta baxt
11. O'rin hollari uyushib kelgan gapni aniqlang.
- Til do'stlik va hamjihatlikni qaror topshirishning eng qulay vositasidir
  - Insonga xos barcha fazilatlarining eng muhimi va eng olijanobi – aql
  - Barcha odamlarning izlanishi, kashf va bilimi uchun o'rin topiladi
  - Bolalar yashilari va bog'chalarida farzandlarimiz tarbiyalanmoqda va kamol topmoqda
12. Uyushgan bo'laklar kengaygan birikmalar qo'shilmalari bilan ifodalangan qatorni toping.
- O'quvchilar maktab bog'ida va xo'jalik o'rikzorlarida yetilgan o'riklarni terdilar
  - O'quvchilar va o'qituvchilar o'rik va olmalarni terishdi
  - O'quvchilar olmalarni, o'qituvchilar o'riklarni terdilar
  - O'quvchilar bargak qilish uchun yaraydigan va yaxshi pishib yetilgan o'riklarni terdilar
13. Qaysi qatorda kesimi uyushgan gap berilgan?
- Latofat atirgul, Zebiniso qizil gul tanladi
  - Biz harbiy uchuvchi va Vatan posbonlari bo'lamiz
  - Yigitning yuz va ko'zida andisha, alam va hayajon alomatlarini ko'rinadi
  - Sandal to'g'risiga cholim bilan Oqsoqol, beriroqqa ovsinim, men, Robiya o'tirdik
14. Shu yerda, jiydazor yonidagi xilvat joyda, u menga o'z o'tmishini, to'g'rirog'i, shu yozda boshidan kechirgan va qalbida chuqur iz qoldirgan bir voqeani hikoya qilib berdi. Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?
- hol va to'ldiruvchi
  - hol va aniqlovchi
  - faqat aniqlovchi
  - faqat to'ldiruvchi
15. Gapda sanash ohangi bilan bog'lanib, bir xil so'roqqa javob bo'ladigan so'zlar nima deyiladi?
- undalma
  - uyushiq bo'lak
  - ega
  - kirish so'z

16. Qaysi qatorda uyushiq kesimli gap berilgan?
- Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turishardi
  - Abdulla Qahhomning ijodi xalq hayoti bilan birga ko'tarilib, birga ulg'aydi
  - Biz voqea sodir bo'lgan joyga borishimiz, hammasini o'z ko'zimiz bilan ko'rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak
  - barcha gaplarda uyushiq kesimlar berilgan
17. Qaysi gapda ham bog'lovchisi uyushiq kesimlarni bog'lagan?
- Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo'liga olar edi
  - Qudratni ham, Zamonni ham shaharga jo'natishdi
  - Uni yotoq ham stipendiyabilan ta'minlabdilar
  - Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar
18. Qaysi uyushiq bo'lakli gapda umumlashtiruvchi bo'lak (umumlashtiruvchi so'z) qo'llangan?
- Kamtarlikni, zahmatkashlikni, sabot va sobirlikni Asqad Muxtordan o'rgansak bo'ladi
  - Aql, bilim va hikmat – oltindan qimmat
  - Insonda hamma narsa: yuz ham, kiyim ham qalb ham go'zal bo'lmog'i lozim
  - Siz bilan biz o'z e'tiqodimizga sodiq ekanmiz.
19. Umumlashtiruvchi bo'lak qaysi gapda qo'llangan?
- Negaki, ular meni katta ehtiros, qiziqish bilan kutib oladilar
  - Bu xabarni eshitish bilan Otabekda ko'riladigan o'zgarishlarni, hollarni, harakatlarni – barchasini birma-bir ko'ngildan kechirar edi
  - Xullas, Vatanimizning osti ham, usti ham oltindir
  - Albatta, vaqt kutib o'tirmaydi, o'tib ketaveradi
20. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan keyin kelganda, umumlashtiruvchi so'zdan oldin qanday tinish belgi qo'yiladi?
- vergul
  - nuqtali vergul
  - ikki nuqta
  - tire
21. Bog'da yetilgan olma, anor, uzumlar – hammasidan oldik. Ushbu misoldagi uyushiq va umumlashtiruvchi bo'laklar gapning qaysi bo'lagi hisoblanadi?
- ega
  - to'ldiruvchi
  - aniqlovchi
  - hol
22. Qaysi uyushiq bo'lakli gapda umumlashtiruvchi so'z (umumlashtiruvchi bo'lak) ham qo'llangan?
- Bu sevinchlarni, maqtanishlarini Akmalga aytmaydi
  - Men hech kim bilan urishmiyman, o'chakishmayman.
  - Dimoqqa behi, olma hidlari uriladi
  - Ko'nglining pokligi, ishonch, mehr – hammasi shu jilmayishida

23. Umumlashtiruvchi bo‘lak (umumlashtiruvchi so‘z ) qo‘llangan uyushiq bo‘lakli gapni aniqlang.

A. Umuman, u g‘alati kishi, bizni ham, darsini ham sidqidildan yaxshi ko‘radi-yu, doim bir nimadan xit, qovog‘i kamdan-kam ochiladi

B. Xullas, yaxshi kitobni o‘qish bilan odam o‘zini yanada kuchli, bilimli, nomusli sezadi

C. Hammasi: olmazor va o‘rikzor, anjirzor va anorzorlar birin- ketin orqada qolmoqda edi

D. Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko‘taradi va kuchiga kuch qo‘shadi

24. Ajratilgan izoh bo‘lak berilmagan qatorni aniqlang.

A. Oshpaz opa, ellik-ellik besh yoshlarga borib qolgan ayol, yopilgan nonlarni dasta-dasta qilib o‘rarkan, kulib javob berdi

B. Yozda, ta‘til kunlarida, bir necha badiiy asarlar o‘qidik

C. Bu xabar ko‘plarni, shu jumladan, meni ham, ajablantirdi

D. Bulbullarning, sa‘valarning sayrashi bizlarga zavq berardi

25. U oilasi bilan – xotini, chaqaloq qizi, o‘n besh yoshli o‘g‘li bilan – Oltiariqqa ko‘chib bordi. Bu gapda qaysi bo‘lak ajratilgan?

A. aniqlovchi      B. to‘ldiruvchi      C. ega      D. kesim

26. 1. Meni, Akrom Madumarovni o‘rtoq Ergashev o‘ziga ishga olmoqchi ekan.

2. Meni, Akrom Madumarovni, o‘rtoq Ergashev o‘ziga ishga olmoqchi ekan.

3. Meni, ya‘ni Akrom Madumarovni, o‘rtoq Ergashev o‘ziga ishga olmoqchi ekan.

Ushbu gaplardan qaysi birida ajratilgan izoh bo‘lak mavjud?

A. Faqat 3      B. 2 va 3      C. 1, 2, 3      D. 1 va 3

27. O‘smoqdamiz biz – yosh avlod, qalbimizda zo‘r istak. Ushbu gapda qanday ajratilgan izoh bo‘lak mavjud?

A. ajratilgan izoh aniqlovchi      B. ajratilgan izoh ega

C. ajratilgan izoh kesim      D. ajratilgan izoh hol

28. Ikkidan ortiq uyushgan bo‘laklar tarkibida va, hamda, bilan bog‘lovchilar bir marta qo‘llansa, qanday ma‘no anglashiladi?

A. uyushgan bo‘laklar orqali ifodalangan shaxs yoki predmetlarning ta‘kid ma‘nosi anglashiladi

B. uyushgan bo‘laklar ikki a‘zodan bo‘lsagina, va, hamda, bilan bog‘lovchilari bir marta qo‘llanadi

C. uyushgan bo‘laklar orqali ifodalangan shaxs, predmetlarning guruh-guruh ekanligi anglashiladi

D. sanashning tugallanganligi anglashiladi

29. Uyushiq bo'laklar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganda va bog'lovchisini o'miga bilan ni almashtirib bo'lmaydi?

- A. son    B. fe'l    C. ravish    D. sifat

30. Ajratilgan holni toping.

A. O'smoqdamiz biz – yosh avlod, qalbimizda zo'r istak  
B. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga

- C. Kuylar chalar shoir – bastakor  
D. Qo'llar ishlar tez – mo'jizakor

31. Ajratilgan aniqlovchi qaysi javobda berilgan?

- A. O'g'lim, adashdim, kechir meni, de!  
B. O'tirganlarning hammasi qahramon onaga, Karomat opaga, qarashdi  
C. O'sha kezlari Shirin opa – mehribon, muloyim – tarbiyachi bo'lib ishlar edi  
D. B, C

32. Ajratilgan to'ldiruvchi qaysi gapda berilgan?

A. Yirik shag'al o'sha yerdan, oltmish-yetmish chaqirim joydan, mashinalarda tashib keltirilar edi

- B. Bu kasbni, harf terishni, menga dadam o'rgatganlar  
C. Bu raqs Lolani ham, Navro'zgulni ham, Nargizni ham juda sevintirdi  
D. B, C

33. Qaysi gapda egaga taalluqli ajratilgan izohlovchi berilgan?

A. Ammo mingboshi – qaynataning po'pisasi kuyovning shaxtini so'ndirishga ojizlik qildi

B. Uning, erining turmushiga chidab, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq degandek, orqasidan ergashib yuribdi.

- C. O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, – dedi ona  
D. Uning qiyqirig'i ko'kda mag'rur suzgan sahro sultoni – burgutning diqqatini ham jalb qildi.

34. Ajratilgan izoh to'ldiruvchini aniqlang.

- A. Soyda, qo'sh yong'oqning tagida, oppoq qorga ko'milib uzoq o'tirdi  
B. O'smoqdamiz biz – yosh avlod, qalbimizda zo'r istak  
C. Nuriddin aka o'sha, o'zgarmabdi  
D. Sizlardan, yoshlardan, aqlli gaplarni kutamiz

35. Ajratilgan izoh hol berilgan qatorni aniqlang.

A. Ultarma bu yerga xiyla olis bo'lsa ham, bu ikki oshna bordi-keldi qilib turishar edi

- B. Kampir tovush chiqarmay, kuyinib yig'ladi  
C. Hu ana o'sha joyda, taxtako'prikning ostida, atrofi qalin yalpiz bilan o'ralgan kichik bir buloq bor



D. Asrorqul bunga rozi bo'lmasa ham, kampirning ra'yini qaytargani botinolmadi

36. Ularning hammasi – xoh ysh, xoh qari – firibgar, zolim. Ushbu gapda nima uchun tire qo'yilgan?

- A. kiritma gap qo'llangani uchun
- B. bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lganligi uchun
- C. uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'z bo'lgani uchun
- D. ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasida

## 2-variant

1. Qaysi qatorda ajratilgan bo'lak tire bilan ajratilishi lozim?

- A. Ismi Barlos sodda, dilovar ov va qush ilmining piridir
- B. Pastda, soy bo'yida tegirmon novdalardan quyilgan suvning bir maromda shovullashi eshitildi
- C. Ular bir-ikki minut sukut qilib, bir-birlarining g'azabli ko'zlaridan ma'no qidirishdi
- D. Unsin o'midan turib, qo'l qovushtirib, bir chekkaga suqildi

2. Ajratilgan bo'laklar haqidagi qaysi hokim noto'g'ri?

- A. Ajratilgan bo'larlar mantig'iy urg'u oladi
- B. Ajratilgan bo'laklar o'zi izohlayotgan bo'lakdan oldin yoki keyin keladi
- C. Barcha hukmlar to'g'ri
- D. Ajratilgan bo'larlar yozuvda vergul, tire yoki qavs bilan ajratiladi

3. Ajratilgan izohlovchili gapni toping.

- A. Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish motam!
- B. Bizing, o'quvchi yoshlarning, o'zimizga yarasha or-nomusimiz bor
- C. Fabrikada qizlar ijodkor, ozod mehnat zavqin suradi
- D. O'g'lim, qo'zichog'im, orim olib uxlayapti

4. Ajratilgan hol vazifasida ko'pincha holning qaysi turlari keladi?

- A. ravish holi va darja miqdor holi
- B. payt holi va o'rin holi
- C. o'rin holi va sabab holi
- D. sabab holi maqsad holi

5. Uyushiq kesimli gapni toping.

- A. Tomog'im qurib borar, suv ichgim kelar, lekin ko'nglim aynardi
- B. Odamga andisha kerak, lekin undan ham ilgariroq insof kerak
- C. Oygul bilan qul Tarlon bo'ldilar yo'lga ravon
- D. Uning so'zlari sodda, samimiy, lekin aniq va ravshan edi

6. Qaysi gapda uyushiq to'ldiruvchi faqat shaxs otlari bilan ifodalangan?

- A. Men onam, otam va opam bilan xayrlashib, yo'lga tushdim
- B. Hulkar eshik oldida bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qo'yardi

C. O'n-o'n bir yoshli bola dushmanlar keltirgan ochlik va boshqa kulfatlarni kattalar qatori boshidan kechirdi

D. Maxdum bo'ychan, siyrak mo'y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi

7. Qaysi bo'laklar doimo o'zi izohlayotgan bo'lakdan keyin keladi?

A. tobe bo'laklar

B. izohlovchilar

C. uyushiq bo'laklar

D. ajratilgan bo'laklar

8. Polvonlar epchillikda bir-biridan o'tadi, kurashda goh unisi, goh bunisu yutadi. Ushbu gapdagi ayiruv bog'lovchisi nimaga xizmat qiladi?

A. uyishgan bolaklarni bog'lash uchun

B. o'zaro tobe bo'laklarni bog'lash uchun

C. qo'shma gap bo'laklarini bog'lash uchun

D. qo'shma gap qismlari va uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun

9. Ayiruv bog'lovchisi yordamida birikkan uyushiq aniqlovchi qatnashgan gapni aniqlang.

A. Qizlar goh undan, goh bundan gaplashib, hovli aylanishdi

B. Bog'imizdagi na qizil, na oq atirgullar ochildi

C. Bir akamning, bir ukamning muammosi chiqib turadi

D. Goh qor, goh yomg'ir yog'adi

10. Qaysi gapda zidlov bog'lovchisi uyushiq bo'laklarni bog'lab kelgan?

A. U turmushidan, o'tgan kunidan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib bera olmas edi

B. Hamma gullaring hidi bor, ammo rayhonning hidi bo'lakcha

C. Dunyoda kasblar ko'p, biroq odamiylik kasbi hammasidan ulug'dir

D. U nafaqat kattalarga, balki kichiklarga ham shunday muomalada bo'lar edi

11. Tarkibida ajratilgan bo'lak, kirish bo'lak va undalma mavjud bo'lgan gapni belgilang.

A. Biz Xorazimda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida, besh yil birga xizmat qilganmiz, begim.

B. Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim, Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?

C. Xojam, yaxshiyamki, Sultom Maxmud yoshlik chog'larida, yuragida insof va adolat tuyg'usi tamoman so'nib bitmagan mahallarda, bu adolatli farmonni bergan ekan

D. Qani, ayt, maqsading nimadir sening, nega tilkalaysan bag'rimni, ohang!?

12. Biz ajdodlar jasoratidan ruhlanib, bebaho madaniy-ma'naviy merosdan kuch olib g'ayrat-shijoat va sabr-toqat bilan mehnat qilib, ushbu murakkab va sharafli tarixiy jarayonda yangi davlat barpo etish yo'lida o'z

qalbimizni, tafakkurimizni, ruhiy dunyomizni namoyon etayotgan xalqimiz. (I. Karimov) Ushbu gapda qanday gap bo'laklari uyushib kelgan va ularning soni nechta?

- A. 2 ta kesim, 5 ta to'ldiruvchi, 2 ta hol
- B. 2 ta kesim, 5 ta to'ldiruvchi, 3 ta aniqlovchi, 2 ta hol
- C. 3 ta kesim, 5 ta to'ldiruvchi, 2 ta aniqlovchi
- D. 3 ta kesim, 3 ta to'ldiruvchi, 2 ta aniqlovchi, 2 ta hol

13. Qaysi gapda ega uyushgan?

A. Jamilovning egniga oq shohi kitel, sariq koverkot shim, oyog'ida kavkazcha etik, boshida chust do'ppi edi.

B. Mana shu o'yin-kulgilar, qo'shiqlar va kuylar, yoshlar va keksalarning diliga orom va quvonch bag'ishlagan lola sayli yaqindagina bo'lgan edi

C. Bola qoshida ota-onaning so'zi bilan ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat-hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan boltadir

D. Munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko'k, qizil, oq, pushti, sariq, qora, gullari yulduzlardek yasanib, uyga hayotiylik berar edi

14. Qaysi gapda ikkita gap bo'laklari uyushib kelgan?

A. «Avesto»da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqichlardan muhofaza qila bilishni o'rganishlari shartligi aytilgan

B. Olgan bilim va tajribangiz, odob-axloq, kasb-hunar bobidagi kamolingiz faqat yaxshilikka, hunyodkorlikka buyursin

C. Bevaning, ayniqsa, tirnoqqa zor bevaning zorli, g'amli ohlariga u qanday chidar ekan?

D. Ona Vatanga muhabbat, millat birligi, uning kelajak istiqboli hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib kuylaydilar

15. Vaziyat holi uyushgan gapni belgilang.

A. Kim harakat qilsa, u baraka topadi

B. Istiqloq davri bolalari g'ayratli va shijoatlidir

C. Shundagina o'z maqsadimizga erishamiz

D. Hamma issiqdan bo'shshab jim, yalqovgina ishlaydi

16. Gapda qanday bo'laklar ajratilgan izoh bo'lakli bo'lishi mumkin?

A. ega

B. kesim

C. bosh va ikkinchi darajali bo'laklar

D. to'ldiruvchi

17. O'smoqdamiz biz – yosh avlod, qalbimizda zo'r istak. Ushbu gapda qanday ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. ajratilgan izoh kesim

B. ajratilgan izoh aniqlovchi

C. ajratilgan izoh to'ldiruvchi

D. ajratilgan izoh hol

18. Birozdan so'ng Hasan aka, fizika o'qituvchisi, kirib keldi. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?

- A. ajratilgan to'ldiruvchi      B. ajratilgan hol  
C. ajratilgan izohlovchi      D. ajratilgan kesim

19. Qaysi qatorda ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. Hovuz bo'yida, yosh tollarning ko'm-ko'k barglari ostida, hali ham allaqanday sokinlik mavjud edi

- B. Bu sevinchlarini, maqtanishlarini Akmalga aytmaydi  
C. Men hech kim bilan uchrashmayman, o'chakishmayman  
D. Dimoqqa behi, olma hidlari uniladi

20. Quyidagi qaysi fikr noto'g'ri?

A. Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakkablashadi

B. Ajratilgan izoh bo'laklar gapning boshida, o'rtasi va oxirida kelishi mumkin

C. Ajratilgan bo'laklar ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash va bo'rttirishga xizmat qiladi

D. Ajratilgan bo'laklar ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirishga xizmat qiladi

21. Aziz ustozlar, do'stlar, opa-singillar, aka-ukalar! Bu sharafli ishda barchamiz mas'ulmiz. Ushbu gapda qanday bo'lak uyushgan?

- A. Undalma      B. Ega      C. Kesim      D. To'ldituvchi

22. Qanday undalmalar yoyiq undalmalar deb yuritiladi?

- A. O'ziga qarashli hol qatnashgan undalmalar  
B. Faqat bir so'z bilan ifodalangan undalmalar  
C. To'g'ri javob yo'q  
D. O'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchi bor undalmalar

23. Ikki o'rtoq – Durdon bilan Nilufar - birga o'tirib, nimalarnidir muhokama qilishdi. Gapda qanday bo'laklar uyushib kelgan?

- A. To'ldiruvchi      B. Ajratilgan bo'lakli izohlovchi  
C. Kesim      D. Hol

24. Gap bo'lagining bo'lagi uyushib kelgan qatorni aniqlang.

A. Cho'lpon umri davomida juda ko'p narsalarni: qiziq, shirin, nash'ali voqealarning guvohi bo'lgan

- B. Rangi o'chgan, umri kechgan kuz guli egildi  
C. Bu safar qizlar uzoq kulishdi, chug'urlashdi, tortishishdi  
D. Oraga sovuq jimlik va sukunat cho'kdi

25. Quyidagi gapda nechta vergul qo'llanilishi kerak? O'zbeklar orasida

qadim-qadimdan chinakam insoniy fazilatlar do'stlik mehr-oqibat odamgarchilik axloqiy teranlik ulug'lanib kelgan.

A. 5 ta      B. 2 ta      C. 4 ta      D. 3 ta

26. Eng muhimi, mustaqillik tufayli odamlarimizning dunyoqarashi va tafakkuri, ma'naviy qiyofasi o'zgardi, jamiyatimizda ahillik, muruvvat, mehr-oqibat, tinchlik va osoyishtalik qaror topdi.

Ushbu gapda vergulning qo'yilish sabablarini qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

1) gapda kirish so'z ishtirok etganligi uchun; 2) gapda ajratilgan bo'lak mavjudligi uchun; 3) so'z-gapdan keyin kelgan bo'laklar bo'lgani uchun; 4) uyushiq bo'laklar ishtirok etgani uchun; 5) sodda gaplar bog'lovchisiz bog'langani uchun 6) bog'langan qo'shma gaplar bo'lgani uchun

A. 1,3,6      B. 1,3,5      C. 1,4,5      D. 2,4,6

27. Qaysi gapda to'ldiruvchining ikki turi ham uyushib kelgan?

A. Kitob va daftarlarni ukam uchun oldim  
B. A'lo o'qish bizning va sizning asosiy va sharaflil vazifamiz  
C. Siz-u bizga bu taxt va toleni istiqloq berdi  
D. Sa'dulla va Jo'rabeklarning katta, yorug' xonasiga kirdik

28. Quyida berilgan grammatik vositalardan qaysilari uyushib kelgan egalarni bog'lash uchun ishlatilishi mumkin? 1) va; 2) hamda; 3) na...na; 4) bilan

A. 1, 2, 3      B. 1, 2      C. 1, 2, 4      D. 1, 2, 3, 4

29. Yo'lakda har xil odamlar: ponfel ko'targan amaldorlar, bola yetaklagan qariyalar, meva to'la savat ko'targan xotinlar...-hammasi qayoqqadir shoshadi. Gapda qaysi gap bo'lagi uyushib kelgan?

A. ega      B. kesim      C. hol      D. to'ldiruvchi

30. Otlashgan sifat qatnashgan gapni toping.

A. Ichki go'zallik bilan yo'g'rilmagan har qanday tashqi husn mukammal bo'la olmaydi

B. Otning yaxshisi uloqda bilinadi  
C. Izchil mehnat hamma to'siqlarni yengadi  
D. Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir

31. Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha tahlilni amalga oshirishda quyidagi vazifalardan qaysilarini bajarish kerak? 1) gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlash 2) gap bo'laklarini belgilash, gapda uyushiq bo'laklar yoki yo'qligini aniqlash; 3) gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmagan «bo'laklar» bor yoki yo'qligini aniqlash; 4) gap bo'laklarini qanday so'z birikmalari tarkibida izohlash; 5) gap bo'laklarinig joylashuv tartibini izohlash

A. 1, 2, 3, 5      B. 1, 2, 3, 4, 5      C. 1, 2, 5      D. 2, 3, 5

31. Noziklardan yosh bo'lganim, paranji yopinmagani sababli, suhbat

mavzusining mag'ziga uncha yetib bormadi. Gapda qaysi bo'lak uyushib kelgan?

- A. vositasiz to'ldiruvchi      B. ega      C. aniqlovchi      D. hol

32. Ikkitadan ortiq uyushgan bo'laklar tarkibida va, hamda, bilan bog'lovchilari bir marta qo'llansa, qanday ma'no anglashiladi?

A. uyushgan bo'laklar ikki a'zodan bo'lsagina va, hamda, bilan bog'lovchilari bir marta qo'llaniladi

B. sanashning tugallanganligi anglashiladi

C. uyushgan bo'laklar orqali ifodalangan shaxs yoki predmetlarning ta'kidi ma'nosi anglashiladi

D. uyushgan bo'laklar orqali ifodalangan shaxs, predmetlarning guruh-guruh ekanligi anglashiladi

33. Dadam shu atrofda — qishloqning chiqaverishidan — do'kon qidirdi. Gapda tire nima uchun ishlatilgan?

A. uyushiq bo'lak qatnashganligi uchun

B. ajratilgan bo'lak qatnashganligi uchun

C. umumlashtiruvchi bo'lak bo'lgani uchun

D. kiritma gap ishtirok etgani uchun

34. Umrzoq hamma narsani: konvertni ham, mayda-mayda qilib yozilgan oq qog'ozni ham undan keyin cheti qora hoshiyali pushtirang qog'ozni ham ko'rdi. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi uyushgan?

- A. Ega      B. Kesim      C. To'ldiruvchi      S. Aniqlovchi

35. Quyidagi gapda uyushgan bo'lak va umumlashtiruvchi qism orasiga qanday tinish belgilari qo'yiladi?

Oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'gil-qizlarini ham, ko'cha-ko'ydagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapiradi.

A. Uyushgan bo'laklardan keyin tire, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin vergul qo'yiladi

B. Umumlashtiruvchi bo'lakdan keyin, uyushgan bo'laklardan oldin ikki nuqta qo'yiladi

C. Uyushgan bo'laklardan keyin, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin vergul qo'yiladi

D. Uyushgan bo'laklardan keyin, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin tire qo'yiladi

36. Ajratilgan bo'laklar qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?


A. qo'shtirnoq ichiga olinadi

B. faqat tire bilan ajratiladi

C. faqat vergul bilan ajratiladi

D. vergul, tire va ba'zan qavs

## Gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan "bo'laklar"



### Kiritish so'zlar va ularning uslubiy xususiyatlari

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikrga qo'shimcha munosabatini bildirgan so'z (sintaktik birlik) ga kiritish so'z (8-sinf), gapning asosiy mazmuniga qo'shimcha axborot beruvchi va alohida ohang bilan ajralib turuvchi qismga kiritmalar (*akad. litsey*) deyiladi.

Kiritma gaplardagi qo'shimcha ma'lumot ifodalovchi qism gapdan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma'nosiga ziyon yetmaydi. Qo'shimcha ma'lumot beruvchi qism gapning asosiy qismlaridan past ohang bilan ajralib turadi.

Kiritmalar, asosan, kitobiy uslubga xos. Kiritmalar fikrga qo'shimcha ma'lumot berganligi uchun, asosan, gap o'rtasida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi.

№	So'zlovchining o'z fikriga munosabati	Shu munosabatni ifodalashga xoslangan so'zlar	Misollar
1.	<i>Ishonch munosabati</i>	<i>Albatta, shaksiz, shubhasiz</i>	<i>Bu iltimosingizni, albatta, bajaraman</i>
2.	<i>Gumon munosabati</i>	<i>Balki, ehtimol, chamasi</i>	<i>Balki, kelib qolar</i>
3.	<i>Tasdiq munosabati</i>	<i>To'g'ri, darhaqiqat, haqiqatan</i>	<i>To'g'ri, bu litsey binosi</i>
4.	<i>Achinish munosabati</i>	<i>Afsuski, atlang</i>	<i>Afsuski, men yordam berolmadim</i>
5.	<i>Fikrga yakun yasash munosabati</i>	<i>Xullas, demak</i>	<i>Xullas, o'qishlar yaxshi</i>
6.	<i>Fikrning kimga qarashli ekanligi</i>	<i>Menimcha, uning ta'kidlashicha, fikri o'zimga, aytilishlaricha</i>	<i>Menimcha, eng yaxshisi shu</i>
7.	<i>Fikrning tartibi</i>	<i>Birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor</i>	<i>Avvalo, men unday demoqchi emasman</i>

Gap orqali ma'lum axborot ifodalanishi bilan birga, so'zlovchining shu axborotga munosabati ham ifodalanadi. So'zlovchining munosabati gapning kesim shakli (mayli shakli, bog'lamar va nol shakli) orqali hamda maxsus modal so'zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, *albatta, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, to'g'ri, ehtimol, balki, chamasi, taxminan* va boshqalar.

*Kiritmalar gapning xususian,matnning umumiy mazmuniga aloqador bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan yozuvda vergul, tire ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa, kichik to'xtamlar bilan ajratiladi.*

*Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig'i, inkori va h.), fikrning birovga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi), o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi (birinchidan, ikkinchidan va h.k.),fikriga va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi. Kiritmalar barcha bo'laklar kabi sodda va murakkab bo'ladi. Sodda kiritmalar so'zlar va so'z-gaplar bilan, murakkab kiritmalar esa, so'z birikmalari, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi.*

## Kirish birikmalar

Kirish birikma so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikrga qo'shimcha munosabatini bildiradi. Kirish birikmalarning tarkibi quyidagicha bo'ladi:

1. Aniqlovchi va aniqlanmishli kirish birikmalar. Ular ikkiga bo'linadi:
  - a) **qaratqichli kirish birikmalar:** uning fikricha, qariyalarning aytishicha, sening baxtingga, buning ustiga, mening nazarimda.
  - b) **sifatlovchili kirish birikmalar:** bir tomondan, bir yoqdan, shu jumladan, bir so'z bilan, fikri ojizimcha, xullasi kalom.
2. **To'ldiruvchili kirish birikmalar:** qisqasini aytсам, to'g'risini aytganda, deganingizdan bilsak, menga desa.
3. **Holli kirish birikmalar:** boshqacha aytganda, ochiq aytganda.

## Kirish gaplar

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikrga qo'shimcha mulohazasini bildirgan gapga **kirish gap** yoki **kiritma gap** deyiladi. Kirish gap asosiy fikrni to'ldirish va izohlash uchun ishlatiladi. Unda ega va kesimlik munosabati bo'ladi. Mana shularni o'yladim-u, men sizga aytсам, ariza tashlashga jazm etdim. U yog'ini so'rasang, aytaymi, dadam Yormatga kuyov bo'lmoqchi.

Kirish gap boshqa gapdan, odatda, vergul bilan ajratiladi. Agar kirish gap yoyiq bo'lsa, asosiy gapdan tire yoki qavs bilan ajratib qo'yiladi: Kunduzi bo'lsa, o'zingizdan o'tar gap yo'q, biroz xunukroq ko'rinadi. Bir kuni kechqurun (bu 1773-yil oktabr oyining boshlarida bo'lgan edi) uyda yakka o'tirardim.



Kirish gaplar dramatik nutqda keng qo'llanadi. Bunda qahramon nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalar (muallif tomonidan qavs ichida beriladigan izohlar)da ko'rsatiladi.

## Undalma

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildirgan so'zga undalma deyiladi. So'zlashish jarayonida tinglovchining diqqatini o'z nutqingizga qaratish uchun, ko'pincha, uning nomini aytib yoki opa, aka, singil, tog'a, amma, xola kabi so'zlar orqali murojaat qilasiz. Ba'zan tinglovchiga murojaat ifodalovchi so'zni qo'llash orqali unga shaxsiy munosabatingizni ifodalaysiz. Masalan, *Arpangizni xom o'ribmanmi, uka. Do'ndig'im, o'ynoqlab yuratur. Onajonim, balki bir kun Aytganingday bo'lar to'y.*

Undalma shaxsni, shaxs bo'lmagan jonli va jonsiz predmetni bildiradi. *Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan, bag'rimni, ohang. Qarg'avoy, men seni yeyman. ) Seni unutilmas yuragim aslo, Ey O'rtasiyo, O'rtasiyo.*

Undalmalar, odatda, 2-shaxsga qaratilgan bo'ladi, tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladi, gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi.

Undalmali gaplarning kesimi ko'pincha I va II shaxs-son shakllarida bo'ladi: *Bolalar, endi siz bilan ta'tildan so'ng uchrashamiz. Karim, ertaga kutubxonaga soat o'n ikkida kel. Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit.*

Undalmalar bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'zlar orqali ifodalanadi: *Shuni aytgin, o'g'lim, o'yinga usta ekanman.(ot) Yaxshilar, bir daqiqa menga qarang.(sifat) Birinchi, birinchi, meni eshityapsizmi? (son) Piyodalar, yo'ldan ehtiyot bo'lib o'ting. (ravish)*

Undalmalar yig'iq yoki yoyiq bo'ladi:

1. Yig'iq undalma bir so'zdan iborat bo'ladi: *Oh, mayin allalarga boy ekansan, Farg'ona! Dunyoni qizg'anma mendan, azizim.*

2. Yoyiq undalma so'z birikmasi bilan ifodalanadi: *Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim. Ko'zimning nuri, nega yig'lab o'tiribsan? Niyatingga yetkur, quloq sol! Kecha razvedkaga borganlar, bir qadam oldinga!*

Ba'zan undalmalar uyushiq holda qo'llanishi mumkin: *Xayr, yashil o'rmonzor, moviy dengizlar.*

Undalmalar uyushib kelishi ham mumkin: *Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opa-singillar, sizga shu haqida murojaat qilamiz kabi.*

O'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar yoyiq undalmalardir.

Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga

kirishmaganligi sababli uning o'rni erkin bo'ladi, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko'ra, alohida-alohida vazifa bajaradi. So'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap boshida keladi; *Otasi, o'g'lingiz bir yaxshi yigit bo'libdi.*

So'zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap o'rtasi va oxirida keladi. Masalan, *Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim. Nechun kerak, rubob, senga shunga g'am?! ...Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo, Sen beshik emassan, dorsan, tabiat.*

Undalmalar nutq jarayoniga undalغان, diqqati jalb qilingan shaxs-predmetlar bo'lgani uchun bosh kelishikda turadi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi, lekin undash ohangi bilan talaffuz qilinishi va kesim bilan moslashmasligi bilan egadan farq qiladi.

Solishtiring: *Ahmad keldi. – Ahmad ega. Kesim bilan grammatik bog'langan.*

*Ahmad, keldi.* Ahmad – undalma. Kimningdir kelganligi Ahmadga aytilyapti, kesim bilan grammatik bog'lanmaydi. Undash ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Undalmalar oldidan undov so'zlar ishlatilganda, yozuvda undalma bilan undov so'zlar orasiga hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi.

Undov so'zlar undalmandan so'ng kelganda esa, undov bilan undalma chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Undalmalar ko'pincha I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasini olib keladi. Bunday vaqtda undalma vazifasida kelayotgan tinglovchi so'zlovchiga yaqin ekanligini, erkalash, suyish ma'nolarini ifodalaydi. *Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.*

Ba'zan undov so'zning o'zi ham undalma bo'lib kelishi mumkin: *Hoy! Sizni kutib turibmiz.*

Bunda undalma nutqda tushib qolib, uning o'rnida undovlar qo'llaniladi. Masalan, *Hoylar, bu yoqqa kelinglar. Hoy, chilim keltir.* Undalma o'rnida hoy kelganda tinglovchiga hurmatsizlik, mensimaslik ma'nosi ifodalanadi.

Ba'zan, er-xotin bir-biriga murojaat etganda, III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi bilan kelgan undalmandan foydalaniladi. Masalan, *Oyisi, keling. Dadajonisi, choy iching* kabi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytilsa, undalmandan keyin vergul emas, undov belgisi qo'yiladi.

Undalma gap boshida kelsa, undan so'ng, o'rtada kelsa, ikki tomondan, oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi.

**Mashq: 1.** Gaplarni o'qib, undalmaning o'qilish ohangi haqida xulosa chiqaring.

1. Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdi-yu, sen bu dorilarni bosib yotaveribsang-da, noinsof! 2. Kitob, sen bo'lmasang, balki kun yorishmasdi. 3. O'-o', boylik, boylik! Mening uyimga sen kiradigan

bo'lsang-u, iymon ketadigan bo'lsa, men senga o't qo'yaman, o't! 4. Yurak, sensan mening sozim. 5. Inim, kitoblarni sandiqlarga joylashtiravering.

**2. Undalmalarni aniqlab, tinish belgilarining qo'llanilish sabablarini tushuntiring.**

1. Multaram Umidaxon, sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan tabriklayman. 2. Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir. 3. Vatanimiz muvaffaqiyatlarini ko'rolmaydigan quzg'unlar, ayting, O'zbekistonning taraqqiyotiga kim g'ov bo'la oladi?!

**3. Tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.**

1. 1. So'zla ko'zgujon haqiqatni et bayon. 2. Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-hushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. 3. Harakat sen ezgulikning haqiqiy qadr-qimmatini belgilaysan. 4. Ha erka qizalog'im sen mening kelajagim, umidimsan.

2. 1. Kelajagimiz porloq o'rtoq Farmonov. 2. To'xtanglar bolalar quyon sal nafasini rostlasin. 3. Ko'chada katta bayram, xalq hammasi ko'chadan, bima qilib uyda o'tiribsiz usta? 4. Aziz kitobxon katta oilaning qissalari tugamadi. 5. Ona yurtim mustaqil O'zbekiston yigirma ikki yillik to'ying muborak!

## Topshiriqlar

**1. Kiritmalar qanday ma'noni ifodalash uchun qo'llanganini tushuntiring.**

1. Afsuski, hali o'zlashtirilmagan yerlar juda ko'p. 2. Menimcha, oqil va sodiq er o'z rafiqasi uchun eng bebaho bezakdir. 3. Uning boshida do'ppi, Marg'ilon nusxa do'ppi, bor edi. 4. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, Mening bilishimcha, sening elingga. 5. To'g'ri, u aravani quruq olib qochadigan maqtanchoqlardan emas. 7. Ehtimol, bu ishni o'zing bajarasan. 8. Chindan ham, mashina dehqonning og'irini yengil qiladigan zabardast kuchga aylandi.

**2. Berilgan gaplar tarkibidagi qavsga olingan qismlarning qanday vazifa bajarib kelayotganini ayting.**

1. Chinorning yonish voqeasi (uning tafsilotini ikkinchi bobda bayon qilgan edik) jamoaga asta-sekin ma'lum bo'la boshladi. 2. Shokir sartarosh (tumanda uni hamma taniydi, siz ham tanisangiz kerak) o'g'lini uylantirmoqchi bo'libdi. 3. «O'tkan kunlar» (siz bu romanni o'qigansiz, albatta) o'zbek romanchiligi tarixida alohida o'rin egallaydi. 4. Musobaqalarda Rahimberdi (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.

**3. Kirish so'zlarni ajrating. Kerakli o'ringa vergul qo'yib ko'chiring.**

1. To'g'ri-da hama ko'ngli yozilgan! Qolaversa kasal onasiga madad bo'ladi. 2. Rais ham Ra'noxonning ahvolini sezdi shekilli haytovur yo'q demadi. 3. To'g'ri qora kunga asrab qo'ygan bug'doyimiz ham, jo'xori ham ko'p edi. 4. Kun botmasidan oxirgi egatdagi kartoshkani ham terib oldik xayriyat. 5. Oyim chamamda bu gapni dadamga aytmadi. 6. Qiziq zakunchi kelib ketishi

bilan oraga g'ashlik tushdi. 7. Binobarin yoshlarimizni hayot so'qmoqlaridan eson-omon olib o'tish har bir insonning muqaddas burchidir. 8. Afsuski bugungi kunda mafkura, targ'ibot va tashviqot kerak emas, degan noto'g'ri xulosa bilan yashayotgan odamlar ham uchrab turibdi. 9. Ma'lumki oqko'ngil odam har qachon boshqalar baxtiga, ularning xizmatdagi yo shaxsiy hayotdagi yutuqlariga xuddi o'z baxti, o'z yutug'i kabi qarab quvonadi. 10. Albatta baxillik qon yo jon bilan o'tadigan fiziologik hodisa emas. 11. Darhaqiqat mundog' o'ylab qaralganda, bola hadeb o'ksinaversa kuyunchakka, kuyunchaklik hasadga, hasad esa baxillikka nihoyat baxillik ziqnalikka aylanganini ko'rish mumkin.

**4. Kirish so'zlarni toping. Ular qaysi uslubda ko'proq qo'llanilishini ayting.**

1. Modomiki, siz halokatdan gap ochibsiz, yuqoridagi mulohaza-larimiz uchun e'tirozga o'rin qolmaydi. 2. Demak, yashash ma'nosining zamirida xalq xizmatini qilish, Vatanni sharaflash burchi ham bor. 3. Ajabo, armonga yo'l qo'ymaslik mumkin bo'lgan holda, bu azobni, bu gumrohlikni nechun o'zingizga ravo ko'rdingiz. 4. Tavba, shunchalik bag'ritosh, bemehr, bemuruvat bola bo'ladimi! 5. Ha, darvoqe, uni gazetaga yozmoqchi ham bo'ldik avval, lekin satqayi gazeta ketsin senga, deb yozmadik. 6. Hayotning eng og'ir, eng shafqatsiz kunlarida ham yiqilmadi, aksincha, qaddini tik tutib, o'zini mehnatga urdi. 7. Qisqasi, yaxshi onaning peshanasida ne xil baxt bo'lsa, hammasi Saodat buvida mo'l-ko'l. 8. Bu so'zdan hamma qarilar aqlli-yu, hamma yoshlar nodon ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak! Aslo! Yoshlar orasida ham aql-hushi joyida, ziyrak, tadbirkorlari ko'p. 9. Xo'p, bugungi gapim tamom, qizim. 10. Aksincha, dami ichiga tushib ketgan odamday churq etmay, hatto, nafas ham olmayotganday o'tirib qolar edi.

## Sodda gap tahlili

Sodda gap bo'yicha to'liq sintaktik tahlil 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi (so'z birikmasi) bo'yicha.

2. Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha.

3. Gap qurilishi bo'yicha.

**Gapda so'zlarning bog'lanishi bo'yicha tahlilda:**

a) birikmaning teng bog'lanishdagi yoki tobe bog'lanishidagi turi;

b) tobe bog'lanish bo'lsa, tobelanish turi (moslashuv, boshqaruv, bitishuv);

c) teng yoki tobe bog'lanishni yuzaga keltirgan vositalar (bog'lovchilar, ohang, so'z shakllari, ko'makchilar, so'z tartibi) aniqlanadi.

**Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha tahlilda:**

a) gap bo'laklari belgilanadi, uyushiq va ajratilgan bo'laklar bor yoki yo'qligi izohlanadi;

- b) gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmagan «bo'laklar» (kiritma, kiritma gap, undalmalarning mavjud yoki mavjud emasligi) ko'rsatiladi;  
 c) gap bo'laklarining joylashuv tartibi (me'yoriy tartibda yoki o'zgargan tartibda) izohlanadi.

**Gap qurilishi bo'yicha tahlilda:**

- a) gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi (darak, so'roq, buyruq, istak);  
 b) gapning his-hayajonning ifodalanishiga ko'ra turi (his-hayajonsiz yoki his-hayajonli (undov) gap);  
 c) yig'iq yoki yoyiq sodda gapligi, to'liq yoki to'liqsiz gapligi, egali yoki egasiz gap ekanligi; egasiz gap bo'lsa: uning shaxsi ma'lum gap, shaxsi noma'lum gap, shaxsi umumlashgan gap, shuningdek, atov gap, so'z-gapligi izohlanadi.

**Tahlil namunasi**

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

**1. Gapda so'zlarning bog'lanishi tahlili:**

- 1) inson baxtli bo'ladi – tobe bog'lanish, moslashuv, kesim va eganing shaxs-sonda mosligi (III shaxs, birlik);  
 2) ilm bilan va mehnat bilan - teng bog'lanish, va teng bog'lovchisi orqali bog'langan;  
 3) ilm bilan baxtli bo'ladi – tobe bog'lanish, boshqaruv, bilan ko'makchisi orqali bog'langan;  
 4) mehnat bilan baxtli bo'ladi – tobe bog'lanish, boshqaruv, bilan ko'makchisi orqali bog'langan.

**2. Gap bo'laklarini aniqlash tahlili:**

*Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.*

Uyushiq bo'lagi bor: *ilm bilan, mehnat bilan.*

Ajratilgan bo'lagi – yo'q.

Kiritma bor: shubhasiz.

Undalma – yo'q.

Gap bo'laklarining joylashuvi – me'yoriy.

**3. Gap qurilishi tahlili:**

1. Ifoda maqsadiga ko'ra – darak gap.

2. His-hayajonning ifodalanishiga ko'ra – his-hayajonsiz gap.

3. Tuzilishiga ko'ra – sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap.

**Topshiriq:** Quyidagi gaplarni sodda gap bo'yicha to'liq sintaktik tahlil qiling.

1. Ertalabki kuchli shamol maktab bog'idagi daraxtlarning mevalarini to'kib yubordi. 2. Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo'lning azobidan ham ortiqroq bo'ldi. 3. Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi! 4. Ota yuz-qo'llarini yuvgandan song sal nariga borib o'tirdi. 5. O'quvchi bolalarga, yigit va qizlarga atab yozilgan qo'shiqlar ko'p. 6. Sobirov (hozir u jamoa xo'jaligi raisi) majlisni qisqa kirish so'zi bilan ochdi.

**Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan aloqaga  
kirishmaydigan «bo'laklar» bo'yicha test topshiriqlari  
I-variant**

1. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'z qaysi gapda qo'llangan?

- A. To'g'ri, o'zbek adabiyotining tarixi ming yillar bilan belgilanadi
- B. Qirlar bag'rini hali ko'm-ko'k, saf-saf pistalar, do'lanalar bezab turibdi
- C. Asal ta'sirida yuzda qizillik, bilakda kuch, ko'zda nur yetarlicha bo'ladi
- D. Ba'zi vaqtda, sug'orish paytlarida, kechalari ham tinim bilmas edi

2. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'z qatnashgan gapni toping.

- A. Shamol, qor, yomg'ir, do'l o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi
- B. Vatanim bor, ko'rkam
- C. Do'stlar, navqiron yoshlikni qadrlang
- D. U yerda, taxtako'prikning ostida, bir buloq bor

3. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'z qaysi qatorda qatnashgan?

- A. Qaro ko'zum, kel-u mardumlig' emdi fan qitg'il
- B. U tanib, bilib, keyin so'ray boshladi
- C. Kecha, desangiz, qor yog'ib qoldi
- D. A, C

4. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'z qaysi gapda berilgan?

- A. Yigitning yuz va ko'zida andisha, alam va hayajon alomatlari ko'rinardi
- B. Xolposh xola goh u keliniga, goh bu keliniga talmovsirab qaradi
- C. Demak, uydan hech kim hech qayoqqa chiqmagan
- D. Non, bodom, shinni keltirib qo'ydi

5. Undalmalar va kirishlarga sintaktik aloqa hamda munosabatlar amal qiladimi?

- A. Faqat sintaktik munosabat amal qiladi
- B. Amal qilmaydi
- C. Faqat sintaktik aloqa amal qiladi
- D. Amal qiladi

6. Tarkibida ega ham qatnashgan undalmali gapni toping.

- A. Umidaxon, bu kishiga kabinetlarini ko'rsating
- B. Ey, yaxshilar, bir-birimizga mehr-oqibatli bo'laylik
- C. Asabga zo'r bermang, odamlar
- D. Ey farzand, aytar so'zing, fe'l-atvoring odamlarni ranjitmasin

7. Undalmaning uyushiq holda kelishi qaysi gapda berilgan?
- Yangi yilni qarshilaymiz, yor-jo'ralar, bu kecha
  - Tiniq suvlar, ko'm-ko'k daraxtlar sho'irning ko'nglini to'ldirantirar edi
  - Dada, oyi, sog'-salomat yuribsizlarmi?
  - Ehtimolki, bu qiz savdogarning qizidir
8. Undalma haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?
- Undalma gap bo'lagi vazifasida keladi.
  - Undalma, asosan, bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanadi.
  - Undash ohangi bilan aytiladi.
  - Undalma ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi.
9. Uyushiq undalma qo'llangan gapni toping.
- Baxt bir zumlik bo'lmaydi, shunday emasmi, So'nagul, Vahobjon?
  - Bugun dars bo'lmaydi, birodarlar
  - Ha, xushchaqchaq yigit, keling, – dedi u meni ko'rib
  - Meni tanir ekansiz-da, Madali aka?
10. Ham undalma, ham ega qatnashgan gapni toping.
- Do'stlar! Tabiatni asraylik
  - Nodirjon, sizni bezovta qildim, kechirasiz
  - O'zbekiston! Sen bizning faxrimizsan
  - Oh, bu o'lka naqadar jozibali
11. Aziz ustozlar, do'stlar, opa-singillar, aka-ukalar! Bu sharaflı ishda barchamiz mas'ulmiz. Ushbu gapda qanday bo'lak uyushgan?
- Undalma
  - Undov so'z
  - Ega
  - Ajratilgan izoh bo'lak
12. O-o, boylik, boylik! Mening uyimga sen kiradigan bo'lsang-u, iymon ketadigan bo'lsa, men senga o't qo'yaman, o't. Ushbu gapda qo'llangan undalmani toping.
- O't
  - Ushbu gapda takrorlar mavjud, undalma qo'llanmagan
  - Boylik, boylik
  - O-o; o't
13. Qanday undalmalar yoyiq undalmalar sanaladi?
- O'ziga qarashli aniqlovchisi bor undalmalar.
  - O'ziga qarashli izohlovchisi bor undalmalar.
  - O'ziga qarashli to'ldiruvchisi bor undalmalar.
  - Undalmadan oldin undov so'z ishlatilsa.
- A. 1, 2, 3      B. 1, 2, 3, 4      C. 2      D. 1, 2
14. Undalma uyushiq holda qo'llangan gapni toping.
- Oyi, oyi, menga-chi, tutib bersin ninachi

- B. So'yla, so'yla, ko'zgujon, Haqiqatni et bayon
- C. Gunafshaxon, gunafsha, kulishlaring chiroyli
- D. Xayr, yashil o'rmonzor, moviy dengizlar

15. I. Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir.

- 2. O'g'lim Yodgor! Aftidan, sen bu gaplarni eshitmagansan.
- 3. O'-o', do'stim. Buning hammasi xomxayol.

4. Sobir! Eski oshnalaringni topib keldim.

Ushbu gaplarning qaysi biri tarkibida yoyiq undalma mavjud?

- A. 1, 2, 3      B. 1, 2      C. 3, 4      D. 2, 3

16. Kirish so'z ishlatilgan gap qaysi qatorda berilgan?

- A. Ol, singlim, bolalarga kiyim-bosh qilib berarsan
- B. Inson tez o'tuvchi orzu-havaslarga o'yinchoq bo'lmasligi kerak.

To'g'onbek

- C. Kunduzi bo'lsa, o'zingdan o'tar gap yo'q, xunukroq ko'rinadi
- D. Koshki, o'zgalarni g'iybat qiluvchilar o'z nuqsonlarini ham bitsa

17. Gumonni bildiradigan kirish so'z qaysi qatorda berilgan?

- A. Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor
- B. Menimcha, u bugun-erta o'yini o'ylab olgani ma'qul
- C. Mening so'zlarim sizga, ehtimol, qattiq botayotgandir
- D. Jigarim esga tushsa, achinaman, albatta

18. To'g'ri so'zi kirish so'z vazifasini bajargan qatorni aniqlang.

- A. To'g'ri so'z toshni kesadi.      B. To'g'ri o'zadi, egri ozadi
- C. Sen misolni to'g'ri yechding      D. To'g'ri, men yanglishibman

19. Kirish gapni aniqlang.

A. O'qish, o'rganish, hormay zo'r ishtiyoq bilan ishlash, shubhasiz, g'alabalarga yetkazadi.

- B. Men sizga aytsam, buyuklikka eng yaqini halollikdir
- C. Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek?
- D. Afsus, ming bor afsuski, bu xayolgina, xolos

20. Gumon ma'nosini bildiradigan kirish so'z qaysi qatorda?

A. Xullas, o'zbek paxtakori mo'l hosil yetishtirish uchun hamma kuch, vositalarga ega bo'lishi kerak

- B. Darvoqe, bu gap agronomning uyida ham aytilgan edi
- C. Yaxshi ishlasam, albatta, chakki bo'lmaydi
- D. Dadam, ehtimol, Qo'qonga ketgandir

21. Xullas, uning uyida allaqanday yangi gaplar ko'paymoqda edi. Ushbu gapda qo'llangan kirish so'z (kiritma) qanday ma'noni bildiradi?



- A. Ishonch va tasdiqni
- B. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanini
- C. Fikrga yakun yasash
- D. Inkorni

22. Bayon qilingan fikrning tartibini bildiradigan kirish so'z qaysi gapda qo'llangan?

- A. Oxiri, tutun hidi anqib turgan choy bizga ham keldi
- B. Xullas, bu savdolar ko'p yillar davomida ko'p kishilarning boshidan kechgan
- C. Aytgancha, Komil tabib ham o'g'lini jo'natdi
- D. – To'g'ri, pulga o'xshaydi, ammo-lekin pulmas...

23. Kirish birikma qo'llangan gapni aniqlang.

- A. Ishqilib, So'nagulga hech bir jihatdan munosib emas
- B. Haqiqatan ham, mening ko'zlarim kirtaygan, ust-boshim, qoshki priklarim chang, rangim so'lgan bo'lsa kerak, shu tobda bu haqda o'ylaganim yo'q
- C. – Avvalo, dastlabki sahro tongi menga yorqin fikr taqdim etdi
- D. Mening fikrimcha, har qanday jamoa – tarbiya maktabi

24. Nasriddinovning xonadonida beminnat xizmat qiladi, bog'-chorbog'idan, chorvasidan xabar oladi. (Nasriddinovning «xobbisi» bir juft qo'y, o'n-o'n besh tovuq boqish edi). Gapdagi qavsga olingan jumla nimani bildiradi?

- A. Ajratilgan izoh bo'laklarni
- B. Kirish birikmani
- C. Kirish gapni
- D. Uyushiq bo'laklarni

25. Qaysi qatordagi gapda kiritmalar aytilayotgan fikrga oid izoh, qo'shimcha axborot berish uchun qo'llangan?

A. Chindan ham, mashina dehqonning og'irini yengil qiladigan zabardast kuchga aylandi

B. Chinorning yonish voqeasi (uning tafsilotini 2-bobda bayon qilgan edik) jamoaga asta-sekin ma'lum bo'la boshladi

C. Ular, mening nazarimda, o'ylashmaydi

D. Shunday bo'lsa ham, mening bilishimcha, jadedlar yangilikni mayl qiladigan odamlarni yaxshi ko'radilar

26. Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatiga – Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga – Sattor bir lahzada yetdi. Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

- A. Kiritma gapli va ajratilgan bo'lakli gap
- B. Uyushiq va ajratilgan bo'lakli gap
- C. Uyushiq bo'lakli gap
- D. Ajratilgan bo'lakli gap

27. Demak, maktabni bitirib, o'qishga kirmoqchisan? Ushbu gapdagi kirish so'z qaysi ma'noni bildiradi?

- A. Ishonch va tasdiq                      B. Fikrning kimga qarshli ekanligini  
C. Fikrning tartibi                         D. Fikrga yakun yasash

28. Menimcha, fikrimcha, aytishlaricha, nazarimda, eshitishimcha kirish so'zlarining ifodasi to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.

- A. His-hayajon ifodalaydi  
B. Fikrni shakllantirishga xizmat qiladi  
C. Fikrning tartibini ko'rsatadi  
D. Fikr manbaini ko'rsatadi

29. Kirish birikmani toping.

- A. Olimning ta'kidlashicha, izchil mehnat hamma to'siqlarni yengadi.  
B. Menimcha, badiiy asar o'qish yaxshi hordiq chiqarishdir.  
C. Nihoyat, Sultonmurod Hirot voqealari haqida gapirishni so'radi.  
D. Haqiqatan, Kimsan bugun unumli mehnat qilgan edi.

30. Kirish gapni aniqlang.

- A. Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek?  
B. Afsus, ming bor afsuski, bu bir xayolgina, xolos  
C. O'qish, o'rganish, hormay, zo'r ishtiyiq bilan ishlash, shubhasiz, g'alabalarga yetkazadi  
D. Bu voqeadan Qodirni ham (sen uni taniysan) xabardor qildim

31. Kirish gapni aniqlang.

- A. Xullas, sayohatimizni ana shunday qilib yakunladik  
B. Baxtga qarshi, yomg'ir shunday quydiki, nima qilishimizni ham bilmay qoldik  
C. Maktuba va Salima ikkovlari, o'shanda hali tong yorishmagan edi, paxtazorga qarab yo'l oldilar  
D. Ehtimol, bu voqea yodidan butunlay ko'tarilib ketgandir

32. Kirish gap (kiritma gap) berilgan qatorni toping.

- A. Niyatingga yetkur, quloq sol  
B. Bir so'z bilan aytganda, tabiat ayolni alohida mahorat va muhabbat bilan yaratgan  
C. Qosimjon aka (u bizdan to'rt-besh yosh katta edi) choy olib keldi  
D. Boboning aytishicha, bir vaqtlar bu telefonni Orif oqsoqolga eng katta oqsoqol sovg'a qilgan ekan

33. To'g'ri yo'ldan uchta yengil mashina kelar edi gapida «to'g'ri» so'zi qay holatda kirish so'zga aylanadi?

- A. Bu so'z gap o'rtasida kelsa  
B. «to'g'ri» so'zidan keyin vergul bo'lsa

C. Bu soʻz gap oxirida kelsa

D. «toʻgʻri» soʻzi har doim sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi

34. Quyidagi gapda qoʻllangan avvalo soʻzi qanday sintaktik vazifa bajargan? Avvalo, mana bu kitobni oʻqib chiqing.

A. Kirish soʻz B. Undalma C. Ajratilgan boʻlak D. Kesim

35. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligi qaysi gapdagi kirish soʻz orqali ifodalangan?

A. Toʻgʻri, mening bu yerga kelganimni sizdan boshqa hech kim bilmaydi

B. Demak, siz shu fikrdasiz

C. – Menimcha, sanoat qurilishini toʻxtatib, turarjoy solishni davom ettirish kerak

D. U, nihoyat, koʻzini ochib, boshini koʻtardi

36. Qaysi gapdagi undalmada faqat til undoshlari ishtirok etgan?

A. Goʻzal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqgʻoni!

B. Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor, Nimaga uzoqroq kulmaysan?

C. Ona tilim, sen ruhimning qanoti,

Abut-turk nafasi, Oltoy chechagi

D. Aytgil, doʻstim, nima qildik vatan uchun?

## 2-variant

1. Qaysi qatorda kirish birikma qoʻllangan?

A. «Avesto»da yozilishicha, Zirvon yoʻqlikdan borliqqa birinchi qadamni qoʻygan

B. Klub ichi dim boʻlib ketganidan terlab, chanqagan edi

C. U ochlikni ham, tanholikni ham unutdi

D. Nima qilsa, bolasining dardiga yem boʻladi?

2. Gap boʻlaklarini aniqlash boʻyicha tahlilni amalga oshirishda quyidagi vazifalardan qaysilarini bajarish kerak?

1. gapning tuzilishiga koʻra turini aniqlash.

2. gapda uyushiq boʻlaklar bor yoki yoʻqligini aniqlash.

3. gap boʻlaklari bilan munosabatga kirishmagan boʻlaklar bor yoki yoʻqligini aniqlash.

4. gap boʻlaklari qanday soʻz birikmalari tarkibida kelganini izohlash.

5. gap boʻlaklarini belgilash.

6. gap boʻlaklarining joylashuv tartibini izohlash.

A. 2, 3, 5, 6

B. 1, 2, 3, 5, 6

C. 1, 2, 3, 4, 5, 6

D. 1, 2, 3, 5

3. Bugun soat 2 da - buni sizga aytish esimdan chiqibdi – tushlikdan

keyin yozuvchilar bilan uchrashuv bo'lar ekan. Berilgan gap qaysi qatorda to'g'ri favsiflangan?

- A. Tarkibida ajratilgan bo'lak va murakkab kiritma mavjud bo'lgan gap
- B. Tarkibida kiritma mavjud bo'lgan sodda gap
- C. Tarkibida sodda kiritma va uyushiq bo'laklar mavjud bo'lgan gap
- D. Tarkibida murakkab kiritma va uyushiq bo'laklar mavjud bo'lgan gap

4. Kiritma gaplar nutqning qaysi ko'rinishida ko'proq qo'llanadi?

- A. Nasriy nutqda
- B. She'riy nutqda
- C. Barcha javoblar to'g'ri
- D. Dramatik nutqda

5. O'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatligi darajasini bildiruvchi kiritma qaysi gapda mavjud?

- A. Yaxshi hamki, vaqtida yetib keldik
- B. Demak, ertalab uchrashamiz
- C. Yaxshi kunlarga yetib keldik, inshoolloh
- D. Birinchidan, bu borada siz nohaqsiz

6. Oqshomdan boshlangay, odatda, tonglar,

Sukutdan uzilgay gulduros, bonglar,

Boshing bukma sira, xokisor banda,

Erta ruhing topgay oliy ohanglar. Ushbu she'riy parchada nechta

undalmali gap mavjud?

- A. 3
- B. 2
- C. undalmali gap qatnashmagan
- D. 1

7. Qaysi qatorda keltirilgan fikr undalma uchun xos emas?

A. Grammatik jihatdan gap bo'laklari bilan bog'lanadi

B. Undalmaning gapdagi o'rni erkindir

C. Undalmali gapning kesimi ko'pincha I va II shaxs-son shakllarida

bo'ladi

D. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi

8. Berilgan undalmali gaplarning qaysi birida so'zlovchi tinglovchiga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib qo'ygan?

A. Hayr, yashit o'rmonlar, moviy dengizlar

B. Uka, arpagizni xom o'rdimmi?

C. Nahotki, bir nima qilishning iloji bo'lmasa buva

D. Meni o'tga solmang, azizim

9. Undalma ishtirok etmagan qatorni aniqlang.

A. Kelinglar, yigitlar, qizlar, davraga tushing

B. Oyi, oyi, menga-chi, tutib bersin bir chumchuq

C. Senda bordir chin muhabbat ham matonat yaxshi qol

D. Mulla G'ulom, bu to'g'risida siz nima deysiz, inim? — dedi u

10. Aytishlaricha, g'am- qayg'u bo'lmasa, inson kamida yuz yil yashar ekan. Ushbu gapda kirish so'z qanday modal munosabat ifodalash uchun xizmat qilgan?

- A. Fikrning tartibini ko'rsatadi
- B. Fikrga yakun yasaydi
- C. Fikrning his-hayajonini ifodalaydi
- D. Fikrning kimga qarashli ekanligi

11. Oqshomdan boshlangay, odatda, tonglar,

Sukutdan uzilgay gulduros, bonglar.

Boshing bukma sira, xokisor banda,

Erta ruhing topgay oliy ohanglar.

Ushbu she'riy parchada nechta undalmali gap mavjud?

- A. 1      B. 2      C. 3      D. undalmali gap qatnashmagan

12. Qaysi qatorda keltirilgan fikr undalma uchun xos emas?

- A. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi
- B. Grammatik jihatdan gap bo'laklari bilan bog'lanadi
- C. Undalmali gapning kesimi ko'pincha I va II shaxs-son shakllarida bo'ladi
- D. Undalmaning gapdagi o'rni erkindir

13. Bugun soat 2 da - buni sizga aytish yodimdan chiqayozibdi - tushlikdan keyin yozuvchilar bilan uchrashuv bo'lar ekan. Berilgan gap qaysi qatorda to'g'ri tasvirlangan?

- A. Tarkibida kiritma mavjud bo'lgan sodda gap
- B. Tarkibida ajratilgan bo'lak va murakkab kiritma mavjud bo'lgan gap
- C. Tarkibida murakkab kiritma va uyushiq bo'laklar mavjud bo'lgan gap
- D. Tarkibida sodda kiritma va uyushiq bo'laklar mavjud bo'lgan gap

14. So'zlovchining o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatliligi darajasini bildiruvchi kiritma qaysi gapda mavjud?

- A. Demak, ertalab uchrashamiz
- B. Yaxshi hamki, vaqtida yetib keldik
- C. Birinchidan, bu borada siz nohaqsiz
- D. Yaxshi kunlarga yetib keldik, inshoolloh

15. Ega bilan kesim orasida tire qo'yiladigan o'rinda undalma kelsa, qanday yo'l tutiladi?

- A. Undalma har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi va tire qo'yiladi
- B. Undalmadan keyin vergul qo'yilib, keyin tire qo'yiladi
- C. Undalma ega tarkibida qoldirilib, undan keyin tire qo'yiladi
- D. Undalmadan keyin tire qo'yiladi

16. Demak, maktabni bitirib, o'qishga kirmoqchisan? Ushbu gapdagi kirish so'z qaysi ma'noni bildiradi?

- A. Ishonch va tasdiq  
C. Fikrga yakun yasash
- B. Fikrning kimga qarashli ekanligini  
D. Gumon munosabati

17. Qaysi qatorda kirish gap qo'llangan?

- A. Sharqning kattakon adabiyotini bilish uchun, afsuski, bizning yoshlarimizda intilish yo'q  
B. Kecha, desangiz, yomg'ir yog'ib qoldi  
C. Gapning po'stkallasini aytganda, kiyim-kechak masalasida ham yordam berishadi  
D. Ibrohim, Qurbon ota aytmoqchi, gullarni o'z ilmi bilan bahramand qilmoqchi

18. Menimcha, fikrimcha, aytishlaricha, nazarimda, eshitishimcha kirish so'zlarining ifodasi to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A. His-hayajonni ifodalaydi  
B. Fikrni shakllantirishga xizmat qiladi  
C. Fikrning tartibini ko'rsatadi  
D. Fikr manbaini

19. Qaysi gapda undalma mavjud emas?

- A. Qulluq, qulluq, G'ofurjon  
B. Samarqand, Samarqand degani shu ekan-da!  
C. Hoy! Sizni kutib turibmiz  
D. Hoy, soqoling to'kilgur, – dedi xotin, bu qanday qiliq.

20. Undalmali gapni aniqlang.

- A. Inson ezgulikni va ulug'likni orzu qilishi kerak  
B. Oh, umr o'tdi-ketdi oqar suvday!  
C. Shahodat, aftidan, bunaqa gaplar bilan Siddiqjonning g'ashiga tegmoqchi edi  
D. Hoy, quyoncha, o'zing qayoqqa ketyapsan?

21. Yig'iq undalmali gapni toping.

- A. Aziz birodarlar, mehnatkash do'stlar, hammamiz ham xalqimiz boyligi bo'lgan paxtadan manfaatdormiz  
B. Duradgor, amakim, kecha mukofot oldi  
C. Oh, mayin allalarga boy ekansan, Farg'ona!  
D. Cho'lni obod qilish savob ish, albatta

22. Sifat bilan ifodalangan undalma qaysi gapda berilgan?

- A. Aziz vatan, mehring, ishqing bilan to'liq ovozim  
B. Sevan ko'li, ruxsoringga g'ubor qo'nmasin  
C. Dunyoni qizg'anma mendan, azizim, Sen ichgan buloqdan ichmasman aslo  
D. Beshinchi, beshinchi, uchinchiga quloq sol

23. Undalmalar gap bo'laklari bilan qay jihatdan bog'lanmaydi?  
 A. Ma'no      B. Ohang      C. Grammatik      D. B, C
24. Undalmalar odatda qaysi shaxsga qaratilgan bo'ladi?  
 A. I shaxs      B. II shaxs      C. III shaxs      D. II va III shaxs
25. Yoyiq undalmani aniqlang.  
 A. Oyi, oyi, menga-chi, tutib bersin, bir chumchug  
 B. Salom senga, polosonlik Haydar kapitan!  
 C. Seni, archa, bugun barcha mehr bilan bezatar  
 D. Asabga zo'r bermang, odamlar
26. Kechir meni nozli malagim, Seni maqtay olmasim tayin. Mazkur gapdagi undalma qanday tushunchani bildiradi?  
 A. Shaxs tushunchasini      B. Mavhum tushunchani  
 C. Jonsiz narsalar nomini      D. Parrandalar va qushlar nomini
27. Undalmalar va kiritmalar sintaktik aloqa hamda munosabatlar amal qiladimi?  
 A. Amal qiladi      C. Faqat sintaktik aloqa amal qiladi  
 B. Amal qilmaydi      D. Faqat sintaktik munosabat amal qiladi
28. Kiritma qo'llangan gapni toping.  
 A. Menimcha, Ko'kbuloqdan, albatta, suv chiqadi  
 B. Qayoqqa yana, tinmagur?  
 C. Baxtga qarshi, yog'ingarchilik boshlandi  
 D. A, C
29. Undalmali gapni aniqlang.  
 A. O, qandayin aziz bu damlar!  
 B. Umringizdan baraka toping!  
 C. Muallimdan o'zingiz xabar oldingizmi, xola?  
 D. Oftob qayerda yotib qoladi?
30. Sifat bilan ifodalangan undalma qaysi gapda berilgan?  
 A. E, to'nim, ye, ich, to'nim, ich  
 B. Ertakjon, siz emassiz ermakjon  
 C. Sen ham shundaymidig, ayt-chi, azizim  
 D. Qo'ying, begim, o'zingizni urintirmang
31. So'zlovchining undalma orqali o'z-o'ziga undashi qaysi qatorda berilgan?  
 A. Shovqin solmang, Arslonbek aka, atrofda odam bor!  
 B. Yashna, ozod, diyorim, o'zingan mehribonim  
 C. Xayr senga, qadrdonim majnuntol, O'ylar surib o'ltirganman soyangda  
 D. So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil, Rost navo nag'maga tahsin degil

32. Kiritma ishtirok etgan gapni aniqlang.
- A. Voy, nariroqda sharshara bor ekan!
  - B. Umuman, uyda kitob, stol va devordagi ov miltig'idan bo'lak narsa ko'rinmaydi
  - C. Dushanjon, borib ukalaringni olib kel, bolam
  - D. E, dadam masalasi shunchaki anglashilmovchilik
33. Ishonch va tasdiqni bildirgan kiritma qaysi gapda berilgan?
- A. Menimcha, qahramonlikdagina emas, har bir xatti-harakatda, hatto eng oddiy, mayda ishda ham bir mantiq, ma'no, mazmun, maqsad bo'lishi kerak
  - B. Ular mening ishoramga qarab yotishibdi, demak, birgamiz
  - C. Haqiqatan ham, aloqachi mulzam bo'lib qaytib keldi.
  - D. Yo'q, men faqat o'zim aybdorman
34. Gumonni anglatadigan kiritma qaysi gapda berilgan?
- A. Umuman, mening ko'nglimda qandaydir muhim bir narsani tushunmaslik, holati bir bezovtalikning xira bir tuyg'usi bor edi
  - B. Bu yerda ba'zi irimlarga moyil bo'lib, masalan, tushga, ko'ngil sezishga ishonadigan ekansan, ochig'i
  - C. Afsuski, men uning otini bilolmay qoldim
  - D. Osongina buyruqni bajarmay, donolik qilib, bu yerga boshlab kelganim, balki, ba'zilarga yoqmayotgandir.
35. Achinishni bildiradigan kiritma qaysi qatorda qo'llangan?
- A. Ha, o'zining duch kelganiga ancha bo'ldi, shekilli...
  - B. Shunday qilib, yoz ham o'tdi
  - C. Demak, Rahmonqulovga bosh egish yo'q!
  - D. Afsuski, yolg'on emas... — dedi Juman
36. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligi qaysi gapdagi kiritma orqali bildirilgan?
- A. To'g'ri, mening bu yerga kelganimni sizdan boshqa hech kim bilmaydi
  - B. Demak, siz shu fikrdasiz
  - C. Sizningcha, sanoat qurilishini to'xtatib, turar joy solishni davom ettirish kerakmi?
  - D. U, nihoyat, ko'zini ochib, boshini ko'tardi



## SODDA VA QO'SHMA GAPLAR

Gapni gap qilib turgan asosiy belgi uning kesimlik (predikativlik) belgisi ekanligidan xabaringiz bor. Gapning kesimlik belgisi kesimlik ma'nolarini zamon, shaxs-son, tasdiq, inkor, modal (mayl)lik ifodalovchi kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Kesimlik ma'nosini ifoda etgan har qanday sintaktik birlik gap sanaladi. Masalan, Borma +sa (y)+di+m. Ko'm-ko'k dala. Bu gaplarning birinchisida kesimlik ma'nolari alohida-alohida kesimlik shakllari: tasdiq-inkor ma'nosi -ma shakli orqali, modal (mayl) ma'no -sa (y) shakli orqali, zamon ma'nosi -di shakli orqali, shaxs ma'nosi esa, -m shakli orqali ifodalanmoqda. Ikkinchi gapda ham shu kesimlik ma'nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik (modal ma'no), hozirgi zamon, III shaxs ma'nolari anglashiladi, lekin ular moddiy ko'rsatkichlarga ega emas. Nol ko'rsatkich orqali umumiy tarzda ifodalangan. Ana shu ma'nolar mavjudligi uchun ham, u sintaktik birlik gap sanaladi.

Gap uchun muhim belgi sanalgan kesimlik belgisining miqdori gaplarni sodda va qo'shma gaplarga bo'lishga asos bo'ladi.

**Bitta kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap sodda, ikki va undan ortiq kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap esa qo'shma gap sanaladi.**

Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topadi.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning grammatik munosabati deganda, shu sodda gaplarning bir-biri bilan, ma'lum grammatik vositalar (bog'lovchilar, yuklamalar, olmoshlar, ohang) yordamida bog'lanishi tushuniladi. Mazmuniy munosabati deganda esa, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuniy muvofiqligi tushuniladi.

Har qanday sodda gap o'zaro bog'lanib, qo'shma gapni hosil qila bermaydi. Faqat o'zaro mazmuniy muvofiq bo'lgan gaplarga bir-biri bilan bog'lanib, qo'shma gapni tashkil etadi. Masalan: *Qor yog'di va gullar ochildi; Bahor keldi, paxta terimi boshlandi* deb bo'lmaydi, chunki bu gaplar bir-biri bilan mazmunan muvofiq kelmaydi.

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar alohida qo'llangan sodda gaplar bilan teng emas. Alohida qo'llangan sodda gaplar grammatik, mazmun va ohang tugalligiga ega bo'ladi, ammo qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar esa, bunday xususiyatga ega emasularning har biri garchi gapning asosiy belgisini o'zida namoyon etsa ham, grammatik, mazmun va ohang tugalligi qo'shma gapning oxirida namoyon bo'ladi. Shuning uchun qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida-alohida gaplar emas, balki bir umumiy gapning qismlari sanaladi. Bir qismning ohangi ikkinchi qismni talab qilib turadi. Masalan: *Suv keldi — nur keldi.*

**Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik, mazmun va**

ohang tomondan bog'lanishidan tashkil topgan sintaktik butunlik qo'shma gap deyiladi.

Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap sodda, ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan, ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik qo'shma gap sanaladi.

Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimning nechtaligi gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi.

### Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Qo'shma gap qismlari quyidagi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi:

1. Bog'lovchilar: a) *teng bog'lovchilar* (va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yo..., yo, dam..., dam...); b) *ergashtiruvchi bog'lovchilar*.

2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar: a) bo'lsa, esa, deb; b) -u (-yu), -da, -ki yuklamalari; d) nisbiy so'zlar; e) shuning uchun, shu tufayli, shu sababli singari ko'makchili qurilmalar; f) shart mayli qo'shimchasi (-sa). 3. Ohang.


### Qo'shma gaplar tasnifi

(qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra)



### Bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot

Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlari, -u (-yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar hisoblanadi. Ularning qoli pi:



### Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplar

Biriktiruv bog'lovchisi qo'shma gapning payt, sabab-natija munosabatlarida bo'lgan qismlarni bog'lab keladi.

Qismlari o'rtasida sabab-natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda ikkinchi qism oldidan natijada, so'zini qo'yish mumkin bo'ladi. Masalan:

*Anor so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar (Hamid Olimjon)*  
– *Anor so'zlar, (va) natijada Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar.*

Ba'zan -u (-yu), -da yuklamalari ham biriktiruv bog'lovchilari bajaragan vazifalarni bajaradi.

### **Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar**

Zidlov bog'lovchilari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi.

-u, (-yu), -da yuklamalari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi.

### **Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar**

Ayiruv bog'lovchilari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ularda ifodalangan voqea-hodisalarning galma-gal ro'y berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi.

Yo (yoki) bog'lovchisi yolg'iz holda ham, takror holda ham qo'llanishi mumkin. Qolgan ayiruv bog'lovchilari takror holda qo'llaniladi va yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi.

### **Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar**

Bo'lsa, esa so'zlari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. Bo'lsa, esa so'zlari qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi.

### **Qismlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar (Bog'lovchisiz qoshma gaplar)**

Qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilar yordamida ham, ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida ham bog'lanmasa, u holda ular bir-biri bilan ohang yordamida bog'lanadi. Ana shunday qo'shma gaplar ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi.

Ohang yordamida bog'langan qo'shma gap qismlari o'rtasida turli xil ma'no munosabatlari bo'ladi. Masalan,

*Zidlik: Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi.*

*Sabab: Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi.*

**Payt:** *Dalasi*da o'smas tikonlar, cho'llarida chopmas ilonlar va hoshqalar.

Bunday ma'nolar bog'langan va ergash gapli qo'shma gap qismlari o'rtasida ham mavjudligidan xabardorsiz. Ana shu ma'no umumiyligi asosida bunday qo'shma gaplar o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi.

Masalan,

*Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi.*

*Ko'prikni biz qurdik, lekin (ammo) dushmanlar o'tdi.*

Yuqoridagi ikkita qo'shma gap qismlari o'rtasida bir xil ma'no munosabati zidlik (birinchi gap ma'nosi bilan ikkinchi gap ma'nosi o'rtasida zidlik bor) munosabati ifodalangan uchun bu ikki gap bir-biri bilan sinonim sanaladi.

Ular o'rtasidagi farq faqat qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday bog'lovchi vositaning ishlatilishidir. Shuningdek, Anor so'ylar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. Qo'shma gap qismlari o'rtasida payt munosabati ifodalangan. Qo'shma gap tarkibidagi ikkita sodda gap bir paytda ro'y berayotgan ikkita voqea-hodisani (birinchisi – Anorning so'zlashi, ikkinchisi – Zaynab qalbining qaltirashi) ifodalaydi. Ikkala qism va bog'lovchisi qatnashmagan holda ohang yordamida ham bog'lanishi mumkin: Anor so'ylar, Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. Bu vaqtda bog'langan qo'shma gap emas, balki bog'lovchisiz, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap hisoblanadi.

Qo'shma gap qismlari o'rtasida sabab-natija (bir sodda gap sababni, ikkinchisi esa undan kelib chiqqan natijani bildiradi) munosabati mavjud bo'lsa, unday qo'shma gaplar ergash gapli qo'shma gap shaklida ham, bog'langan qo'shma gap shaklida ham, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap shaklida ham ifodalanishi mumkin.

Masalan, Paxtalar qiyg'os ochildi, terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg'os ochildi, shuning uchun terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg'os ochildi va terim avjiga chiqdi.

Yuqoridagi uchta qo'shma gap sabab-natija umumiy ma'nosi bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, lekin qo'shma gapning qaysi turiga mansubligi bilan bir-biridan farq qiladi. Ko'rinadiki, bir xil ma'noni turli qo'shma gap shakllari orqali ifodalash mumkin. Shuning uchun ulardan nutqda o'rinli foydalana olish nutq madaniyatiga ega bo'lishda katta ahamiyatga ega.

## **ERGASHGAN QO'SHMA GAP**

Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar hisoblanadi.

### **Bosh va ergash gap**

Ergashgan qo'shma gaplar, tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'i nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi:

1) bosh gap; 2) ergash gap. Mazmuni izohlanayotgan gap bosh gap, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap ergash gap hisoblanadi.

*Ergashgan qo'shma gaplar, asosan,*  *yoki*

 *bog'lovchi*  *qolipida ifodalanaadi.*

ergashgan qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra so'z birikmalariga o'xshaydi. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar nechta bo'lishidan qat'i nazar, doimo ikki qismdan – hokim va tobe so'zlardan tashkil topadi.

Ergash gap bosh gap talab etgan ma'lum so'roqqa javob bo'ladi. *Masalan, Men xursandman, (nima sababli?) chunki sen maqsadingga yetding.*

### **Havola bo'lakli qo'shma gaplar va ularning tasnifi**

Qo'shma gap tarkibida faqat ergash gaggina bosh gappga ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanib qolmaydi. Ko'pincha bosh gap tarkibida ham ergash gapni taqozo etadigan, uning mavjud bo'lishiga ishora (havola) qiladigan ko'rsatish olmoshlari ishtirok etadi. Ergash gap shu olmoshning ma'nosini izohlaydi, uning ma'nosiga teng keladi.

Masalan, Shunday odamlar borki, odamlarning naqshidir. Toleyim shuki, Vatanda bir guliston tanladim. Kim ko'p kitob o'qisa, o'sha ko'p biladi.

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda havola bo'lak qanday gap bo'lagi vazifasida kelsa, ergash gap ham shunday gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi.

Yuqoridagi gaplarda shunday, shuki, o'sha bo'laklarining mazmuni ergash gap orqali izohlanadi. Ular ergash gappga ishora qiladi. Shuning uchun bunday bo'laklar havola bo'laklar sanaladi. Bunday bo'laklar qatnashgan qo'shma gaplar esa havola bo'lakli qo'shma gaplar deyiladi.

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gappga havola bo'lakdan tashqari, -ki va -sa shakllari yordamida bog'lanadi. Bulardan -ki bosh gap kesimi oxiriga, -sa esa ergash gap kesimi oxiriga qo'shiladi. Solishtiring:

1) shu ... -ki, ... -di

2) kim ... -sa, ... -di

### **Havola bo'lakli qo'shma gaplar bilan sodda gaplar sinonimiyasi**

Havola bo'lakli qo'shma gaplarni doimo sodda gappga aylantirish mumkin, chunki qo'shma gapning ergash gap qismi bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining umumiy mavhum ma'nosini konkretlashtirish, izohlash vazifasini bajaradi. Shuning uchun ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'rniga qo'yish mumkin bo'ladi. Natijada,

ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bajargan gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Qo'shma gap esa, sodda gapga aylanadi.

Masalan, Kim mehnatdan qochmasa, unga tole kulib boqadi. \_\_\_\_\_ Mehnatdan qochmaganga tole kulib boqadi; Shunga aminmanki, ertamiz bugungidan porloqroq bo'ladi. \_\_\_\_\_ Ertamiz bugungidan porloqroq bo'lishiga aminman.

Ko'rinadiki, bir axborotni ikki xil gap –sodda va qo'shma gap orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

Garchi gapning bu ikki turi bir xil mazmun ifodalash jihatdan umumiylikni tashkil etsa ham, ular ma'noni ta'kidlash, uslubiy xoslanish jihatidan farq qiladi. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq kitobiy uslubga xos va sodda gaplardagiga nisbatan ma'no ta'kidlangan bo'lsa, sodda gaplar uslubiy betaraflik xususiyatiga ega bo'ladi.

### **Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar**

Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

1) ergashtiruvchi bog'lovchilar; 2) ko'makchili qurilmalar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli va boshqalar); 3) yuklamalar (-ki); 4) nisbiy so'zlar (kim – o'sha, nima – shu, qayer – shu yer va boshqalar); 5) deb so'zi va boshqalar.

### **Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar**

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti yoki qiyosini bildingan ergash gaplar bosh gapga sabab (chunki, negaki), maqsad (toki), shart (agar, agarda, basharti, mabodo), qiyoslash-chog'ishtiruv (go'yo, go'yoki, xuddi) ergashtiruvchi bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Sabab, maqsad, qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari ergash gap boshida qo'llanadi va ergash gap bosh gapdan song keladi. Bunday vaqtda yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

Shart bog'lovchilari gap boshida keladi. Ergash gap kesimi shart maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bunday ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi. Ko'pincha shart bog'lovchilari qo'llanmasa ham, shart mayli shakli qo'shma gap qismlarini bog'layveradi.

### **Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar**

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu tufayli singari ko'makchili qurilmalar vositasida bog'lanadi. Ular bosh gap tarkibida keladi.

## Deb so‘zi yordamida ergashgan qo‘shma gaplar

Bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini, sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko‘pincha deb so‘zi yordamida bog‘lanadi, ergash gaplarning kesimi III shaxs buyruq mayli shaklidagi fe‘llar bilan ifodalanadi. Bunday gaplar tarkibidagi deb so‘zi uchun ko‘makchisi bilan ma‘nodosh sanaladi, shuning uchun bir-biri bilan erkin almasha oladi. Ergash gaplar bosh gapdan yozuvda vergul bilan ajratiladi.

## Shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gaplar

Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe‘llar orqali ifodalanganda, shart mayli qo‘shimchasi ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vosita ham sanaladi. Bunday ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish yoki chiqmaslik shartini, paytini bildiradi. Yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

## Ko‘rsatish olmoshili ergashgan qo‘shma gaplar

Bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi ma‘nosini izohlash uchun qo‘llangan ergash gaplar bosh gapga **-ki yuklamasi yordamida bog‘lanadi**. Bu yuklama bosh gap kesimi tarkibida bo‘ladi va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

Ba‘zan bu bo‘lak qo‘llanmasligi ham mumkin, ammo uning o‘mi bilinib turadi.

## Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar

Ergash gap tarkibida qo‘llanuvchi *kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer* kabi so‘roq olmoshlari va bosh gap tarkibida unga javob bo‘lib keluvchi *shu, o‘sha, shuncha, shunchalik, shunday* kabi olmoshlar bir-biriga nisbatan qo‘llanganligi, biri ikkinchisini taqozo etganligi uchun nisbiy so‘zlar hisoblanadi. Ergash gapning kesimi **shart mayli** shaklidagi fe‘llar bilan ifodalanadi.

## Ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gap bilan ma‘nodoshligi

Tarkibida ko‘rsatish olmoshi mavjud bo‘lgan ergashgan qo‘shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma‘nodosh bo‘la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo‘lagi o‘rniga qo‘yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin. *Masalan: 1. Kim ko‘p o‘qisa, u ko‘p biladi – Ko‘p o‘qigan ko‘p biladi. 2. Shuni bilingki, kengga keng, torga tor dunyo – Dunyoning kengga keng, torga tortligini bilib oling.*

## **Kesim ergash gapli qo'shma gaplar**

Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga **kesim ergash gap** deyiladi.

Kesim ergash gap bosh gapga ko'rsatish olmoshi tarkibidagi **-ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi.

## **Ega ergash gapli qo'shma gaplar**

Bosh gap tarkibida ega vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga **ega ergash gap** deyiladi. Bunday ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar (**kim — o'sha, nima — o'sha** kabi) yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llaniluvchi **-ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi.

Gap qismlari nisbiy so'zlar yordamida bog'langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Gap qismlari **-ki** yordamida bog'langanda esa, ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

Ba'zan bosh gapning egasi vazifasidagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi.

## **Hol ergash gapli qo'shma gaplar**

Bosh gap tarkibida hol vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning **sababi, maqsadi, sharti, payti, holati, miqdor-darajasi** kabilarni bildirgan ergash gaplarga **hol ergash gap** deyiladi.

**Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar, shart mayli shakllari; sabab, maqsad, shart bog'lovchilari; deb so'zi yordamida bog'lanadi.**

Hol ergash gaplar holning ma'no turlariga muvofiq o'z ichida payt, o'rin, sabab, maqsad, shart, miqdor-daraja ergash gaplar singari bir necha turlarga bo'linadi.

## **To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar**

Bosh gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gaplarga **to'ldiruvchi ergash gaplar** deyiladi.

To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llaniluvchi **-ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi.

Gap qismlari nisbiy so'zlar yordamida bog'langanda, ergash gap kesimi



shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi va to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Gap qismlari **-ki** yordamida bog'langanda esa to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

Ba'zan bosh gapning to'ldiruvchisi vazifasidagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi.

### **Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar**


Bosh gap tarkibida aniqlovchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga aniqlovchi ergash gap deyiladi.

Aniqlovchi ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llanuvchi **-ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi. Birinchi holatda ergash gap bosh gapdan oldin, ikkinchi holatda keyin keladi.

Ba'zan bosh gapning aniqlovchisi vazifasida kelgan shunday, shunaqa kabi so'zlar qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi.

### **BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP**

Tarkibida sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar sanaladi.

Tahlilda bog'lovchisiz qo'shma gaplar bir-biri bilan to'g'ri chiziq bilan bog'langan ikki to'rtburchak  orqali ifodalanadi. Bu bog'lovchisiz qo'shma gap qolipi sanaladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgitari ishlatiladi. 1. Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni ifodalasa, ular orasiga vergul qo'yiladi. (Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini supurdilar). 2. Qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart kabi munosabatlar ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi (Hama! keldi — amal keldi). 3. Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganda, ular orasiga ikki nuqta qo'yiladi (Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz).

### **Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ma'nodosligi**









Zidlik, sabab, shart, payt munosabatlari bog'lovchisiz bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan ham ifodalanishi mumkin. Shunga ko'ra, ular ma'nodosh bo'la oladi.

Yuqoridagi mavzularni quyidagi sxema asosida tushunish qulayroq bo'ladi:


Bog'langan qo'shma gap	Ergashgan qo'shma gap	Bog'lovchisiz qo'shma gap
Teng huquqli munosabat	<div style="display: flex; justify-content: space-around; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; padding: 2px;">bosh</div>, <span style="border: 1px solid black; border-radius: 50%; padding: 2px;">er</span>  <span style="border: 1px solid black; border-radius: 50%; padding: 2px;">er</span>, <div style="border: 1px solid black; padding: 2px;">bosh</div> </div>	<div style="display: flex; justify-content: space-between; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div> <p style="text-align: center;">, ohang</p>
1. Biriktiruv munosabati bog'langan qo'shma gap	Tobe-hokim munosabat	Maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'lanadi
<p style="text-align: center;">va, ham hemda, -u, -yu, -da</p> <div style="display: flex; justify-content: space-between; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div>	Bosh gap - ma'nosi izohlanayotgan gap	<p>Yozuvda ajratish uchun:</p> <div style="display: flex; justify-content: space-between; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div> <p style="text-align: center;">,</p> <p>Bir paytda, ketma-ket, sanash ohangi</p>
Sahab-natija, bir paytda, ketma-ketlik	Ergash gap - bosh gapning ma'nosini izohlab, to'ldirib kelayotgan gap	<div style="display: flex; justify-content: space-around; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="font-size: 2em;">;</div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div>
2. Zidlov munosabati bog'langan qo'shma gap	So'roq hamisha bosh gapdan ergash gapga beriladi	Mazmunan unchalik yaqin bo'lmagan yoki ketma-ket sodir bo'ladigan va bir nacha tinish belgisi qo'llangan (o'z ichida yana verguli bo'lgan)
<p style="text-align: center;">ammo, lekin,</p> <div style="display: flex; justify-content: space-between; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div> <p style="text-align: center;">biroq, balki, -u, -yu, -da</p>	<p style="text-align: center;"><i>Tang otgach, biz yo'lga chiqdik. his yo'lga chiqdik - bosh gap (qachon), tong otgach - ergash gap</i></p>	
3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap	Qiymatlari ergashtiruvchi bog'lovchi yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'lanadi	<div style="display: flex; justify-content: space-between; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div> <p style="text-align: center;">;</p> <p style="text-align: center;">izohlash sabab natija</p> <p style="text-align: center;">kesimni to'ldirgan</p>
<p>dam, dam goh, goh yo, yo yoki yoki</p> <div style="display: flex; justify-content: space-around; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div> <p>Voqea-hodisaning galm-gal ro'y berishini yoki ulardan bittasini yuzaga chiqishini ko'rsatadi</p>		
4. Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gap bo'lsa, esa so'zlari qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi, qiyoslash va zidlik munosabati ifodalanaadi	Bosh gap, ergash gap degan tushuncha faqat ergashgan qo'shma gaplarda bo'ladi	<div style="display: flex; justify-content: space-between; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 20px;"></div> </div> <p style="text-align: center;">-</p> <p style="text-align: center;">o'xshatish zidlash shart payt</p> <p>kutilmagan voqea-hodisani ifodalasa</p>
<div style="display: flex; justify-content: space-around; align-items: center;"> <div style="border: 1px solid black; padding: 2px;">1</div>, <div style="border: 1px solid black; padding: 2px;">2</div> </div> <p style="text-align: center;">bo'lsa, esa</p>		

# Ergashgan qo'shma gapni bog'lovchi vositalar qolipi


## I. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

- 1) gar, garchi  - sa,  - shart ergash basharti gap
- 2)  , chunki  - sabab ergash gap negaki
- 3)  , go'yo  - qiyoslash-chog'ishtiruv go'yoki xuddi
- 4)  , toki  - maqsad ergash gap
- Hol ergash gap

## II. Ko'makchi qurilmalar




## III. deb so'zi yordamida



- di deb - sabab munosabati
- sin deb - maqsad munosabati

#### IV. Shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gap qoliplari



#### V. Yuklamalar yordamida birikkan ergashgan qo'shma gap ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gap qoliplari

B -ki, E

shuni -ki, E - to'ldiruvchi ergash gap

shunday -ki, E - aniqlovchi ergash gap

shuki, E - kcsim ergash gap

shunisi -ki, E - ega ergash gap

VI. Nisbiy so'zli ( havola bo'lakli ) ergashgan qo'shma gap qolipi

E -sa,  B

*So'roq olishi*

*Ko'rsatish olishi*

Kim... sa, u – (ega ergash gap)

Kim... sa, unga – (to'ldiruvchi ergash gap)

Kim... sa, uning – (aniqlovchi ergash gap)

Nima... sa, o'sha – (ega ergash gap)

Qanday ... sa, shunday – (aniqlovchi ergash gap)

Qayerda ... sa, shu yerda – (hol ergash gap)

Qanchalik ... sa, shunchalik (miqdor daraja) – (hol ergash gap)

VII. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida.

A. Bo'lsa, esa – bog'langan qo'shma gap ,  bo'lsa, esa

B. Deb - ergashgan qo'shma gap  E deb,  B

C. -u, -yu, -da – bog'langan qo'shma gap  -u, -yu, -da

D. -ki yuklamasi – ergashgan qo'shma gap  B -ki,  E

E. Nisbiy so'zlar – ergashgan qo'shma gap.  E ,  B

F. Shuning uchun, shu tufayli – ergashgan qo'shma gap,  
 E shuning uchun  B

J. Shart mayli – ergashgan qo'shma gap  E -sa,  B

Z. Ohang – bog'lovchisiz qo'shma gap

• : ; -

Misollar:

1. Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma

E , shuning uchun  B ————— sabab ergash gap (Hol tobe gap)  
↓  
ko'makchi qurilma

2. O'zingga do'st tanla, chunki bir o'zing baxtli bo'lolmaysan.

**B**, chunki **E** → sabab ergash gap (hol tobe gap)

↓  
Ergashtiruvchi  
bo'glovchi

3. Shuni bilki, odamlar do'stlik tufayli baxtiyordir.

Shuni **B** -ki, **E** to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

↓  
*ko'rsatish  
almoshi*

↓  
*yuklama*

4. Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir.

**B** esa **B** bog'langan qo'shma gap

↓  
*bog'lovchi  
vosita*

5. O'z tilingni hurmat qil, u senga keng imkoniyatlar ochib beradi.

**B**, **B** – bog'lovchisiz qo'shma gap, ohang yordamida

### Mashq

6. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u mehr kattalar ko'nglida abadiy qoladi.

**B** ba **B** – biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap

7. Fikr ravshan bo'lsa, albatta, uning shakli ham ravshan bo'ladi.

**E** sa, **B** – shart ergash gapli qo'shma gap (hol tobe gap)

↓  
*shart  
mayli*

8. Haqiqiy olim o'zining ilmi bilan maqtanmaydi, chunki u o'zidan ham zo'r olim va fozil borligini biladi.

**B** , chunki **E** – sabab ergash gapli qo'shma gap (hol tobe gap)

↓  
*Sabab,  
 ergashtiruvchi,  
 bog'lovchi*

9. Badanning quvvati – ovqat, aqlning kaliti – hikmat.

**□** , **□** bog'lovchisiz qo'shma gap

↓  
*sanash ohangi*

10. Kimning qalbi pok bo'lsa, u to'g'ri va baxtli hayot kechirishga haqli.

Kimning <b>E</b> sa, u <b>B</b> →	kimning ... sa,	u
↓	↓	↓
<i>ega ergash gap</i>	<i>nisbiy so'z yordamida</i>	<i>shart mayli</i>
		<i>kim?</i>

**Topshiriq:** Quyidagi gaplarni yuqorida berilgan sxema asosida joylashtiring.

1.1. Shogirdlar qancha ko'p bo'lsa, ko'ngil qafasi shuncha ravshanroq bo'ladi. 2. Og'ziga kelganini demoq nodon ishi va oldiga kelganini yemoq hayvon ishi. 3. Oqil gar so'z bila so'zni yopar, Orif o'shal so'zda o'zini topar. 4. Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir, Yopiq eshiklarni ochar birma-bir. 5. Jahonda hammadan to'g'rilik a'lo, Egrilikdan ortiq yo'qdir hech balo.

2. 1. Gapni cho'zma, chunki hayot qisqadir. 2. Vijdonli kishini ta'qib etish mumkin, ammo sharmanda qilish mumkin emas. 3. Uning so'zlari jonli chiqdi-yu, lekin savollar shoshirib qo'ydi. 4. Oyim gapirayapti-yu, mening ko'zlarim Kimsan akamda. 5. Umlar o'tar -u, kitoblar yashar. 5. Mol-u puling ketsa- ketsin, ammo vaqtningni zoye ketkizma. 6. Odam umrining lazzati – farzand, lekin noqobil farzand ota-onaning umrini qisqartiradi. 7. Do'st yomon kuningda asqotadi, biroq qo'rqqoq do'st yaxshi kuningda ham dushmandan xavflidir. 8. Har kimning zari bo'lmasa-da, hunari bo'lsin. 9. Dam kun birdan qizib ketadi, dam bulut kelib, jala quyadi. 10. Yo mehmon kelganini bilmaydi, yo o'zini bilmaganlikka soladi. 11. Yo

urug' aynigan, yoki agrotexnika qoidalarini buzilgan. 12. Goh qah-qah kulgi ovozi eshitiladi, goh muzika sadosi avjiga chiqadi. 13. Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini to'rquv bosadi. 14. Men kuyladim goh dilda kadar, Goh sevinib she'r to'qiyman men. 15. Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini saqlaydi. 16. Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'ri bo'lsa, uni saodatga boshlaydi. 17. Yaxshilik qilmoqlik ulug' fazilatdir, buning qadriga yetmaslik esa illatdir. 18. Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak. 19. To'g'ri til tosh yoradi, egri til esa, bosh yoradi. 20. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan esa dog' qoladi. 21. Jahl — dushman, aql esa do'stdir. 22. Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi. 23. Aql ko'pga yetkazadi, hunar bo'lsa insonni ko'kka ko'taradi. 24. Rostgo'ylik odamni kamolotga yetaklaydi, yolg'onchilik esa, uni halokatga olib boradi. 25. So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi. 26. Agar qiz bo'lsang, otingni Kimsanoy qo'yaman, agar o'g'il bo'lsang, Kimsanboy qo'yaman. 27. Men bilgan yovuz kishilar u yerda bor, shuning uchun men bormayman. 28. Hunar ado bo'lmas boylikdir, shu sababli yoshlik chog'ingdan boshlab biron bir hunarni o'rganish payida bo'l. 29. Chin do'st yurakdan so'zlar, chunki u sening yomon bo'lishingni aslo xohlamaydi. 30. To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan. 31. Olloyorning eng zo'r sifati shuki, uning qo'lida yig'layotgan chaqaloqlar birdan yupanadi-qoladi. 32. Ot xo'rsinsa, bir falokat yuz beradi. 33. Piyoladan bug' chiqib turmasa, choy ichganday bo'lmayman. 34. Majlis vaqtida boshlanmadi, chunki rais ushlanib qoldi. 35. Tilagim shuki, hamma bilan yaxshi muomalada bo'ling. 36. Ortiqcha g'urur obro'yingni yo'q qilur, shuning uchun o'zingni boshqalardan baland tutma. 37. Shuni unutmaginki, g'alvirda suv turmas. 38. Kimda aql oz bo'lsa, undagi shuhratparastlik shunchalik kuchayar. 39. Qo'rqoq keta turib maqtansa, jasur qaytib kelib maqtanadi. 40. Oraga shunday jimlik cho'kdiki, yuragi gupillab urayotgani aniq eshitila boshladi. 41. Shuni bilingki, bitta so'zning tig'i yuzta shamshirdan o'tkirroqdir. 42. Inson qanchalik kamtar bo'lsa, u shunchalik maqtovga loyiqdir. 43. Kimning yuradida yaxshilik bo'lsa, u doimo boshqalarga yaxshilikni ravo ko'radi. 44. Hamisha to'g'rilar yonida bo'linglar, chunki ular hech qachon sizni noto'g'ri yo'lga boshlamaydi. 45. Til tinch bo'lsa, bosh salomat bo'ladi. 46. Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim. 47. Tilagim shuki, tog'a, ayam bilan ukalarim kishilarga muhtoj bo'lmasin. 48. Ikkinchi masala ancha jiddiy, shuning uchun u maxsus o'rganishni talab qiladi. 49. Agar shu tophirini bajarmasa, obro'yi bir pul bo'ladi. 50. Kimki dushmani bilan olishganda ham insonparvarlikni unutmasa, u, albatta, yengadi. 51. Shamol qay tarfga essa, maysa ham o'sha tomonga egiladi. 52. Amir Temur o'g'lining qilich tutgan qo'li baquvvat bo'lsin deb, kechakunduz mashq qildirdi, yuragi to'rquv bilmasin deb, sher yuragini yedirdi,



farosatli bo'lsin deb, kitobga oshna qildi. 53. Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turardi, chunki uni yotqizib, yoqilgan shamni o'zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. 54. Tojixon safardan ikki kun kechikib qaytibdi, shuning uchun brigadasidan hech ko'ngli tinchimayotgan ekan. 55. Mabodo men chiqolmay qolsam, qo'ni-qo'shnilarga o'zing bosh bo'lib, borib kelaveringlar. 56. Ozigina hovliqib turishsa ham, cho'chishsa ham mayliga, negaki keyin yelkalaridan yuk arigan mahali tuyadigan shodliklari ham shunga yarasha bo'ladi. 57. Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlari berar! 58. Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi. 59. Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin. 60. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq, Boholardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon. 61. Shuni yodda tutingkim, dilda e'tiqod butun bo'lsa, aslo naslimiz yo'qolmagay, tilimiz unutilmagay. E'tiqod susaysa, til emas, imon ham unutilgay. 62. Xalqim, tarix hukmi seni agarda, Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi, Qorliklarni makon etgan bo'lsayding, Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?... Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo! 63. Uning bunday odati yo'q edi, shuning uchun yigit hayron bo'lib, biroz qarab turibdi. 64. Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo'l hosil oldik. 65. Ammo shu tobda hordiq chiqarishga fursat yo'q edi, shu bois tag'in jiddiy ishga kirishib ketdilar. 66. Saodat ko'pdan beri ashula aytmagan edi, shuning uchun ham, u jaranglagan ovozlarga qo'shilib ashula aytgisi keldi. 67. O'zimiz juda cho'llab kelgan edik, shuning uchun kechirdik. 68. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l. 69. Ilmsiz inson – mevasiz daraxt, shuning uchun hamisha ilmlilar safida bo'lishga intil. 70. Ilm martabasi martabalarining zo'ridir, shu sababli yoshlikdan ilm olish payida bo'l. 71. Qog'ozga tushirilmagan ilm unutilib ketadi, shuning uchun bilganlaringni kelgusi avlodlarga yozib qoldirishga harakat qil. 72. Ilm - saodatga yo'llovchi mash'al, shu tufayli uning insonlar hayotidagi o'rni nihoyatda katta. 73. Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga. 74. Shu mo'jaz uyimda yonsin deb chiroq, Ne aziz zotlarga yondoshdim gohi. 75. Kamalakdek rango-rang bo'lsin deb, san'at, tillar, Asrlarcha qildim jang. 76. Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elimda. 77. Yovlar yakson bo'lsin deb, Yigitlar jang boshladi, Yovlar qocha boshladi. 78. Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi, seni to'ydiradi. 79. Yomon bo'lar, agar ko'z yoshing tugab qolsa, kelgunicha baxt. 80. Esli-hushli do'stlaringiz bo'lsa, biznikiga olib kelarsiz. 81. Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, ukalaringsnikiga ketib qolaman. 82. Agar daraxt shoxlari yoz faslida sarg'aysa, kuz erta keladi. 83. Olma, olcha kabi mevali daraxtlar ikkinchi bor gullasa, bu kuzning iliq kelishidan darakdir. 84. Qalding'och pastlab uchsa, yog'ingarchilik bo'ladi. 85. Chinnigul o'zidan yoqimli hid

taratsa, tez orada shamolni kutavering. 86. Baliq tez-tez suv betiga sapchib chiqsa, yomg'ir yog'adi. 87. Mevali daraxtlar ko'p hosil qilsa, qish qattiq keladi. 88. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. 89. Seni hurmat qilishlarini istasang, o'zingni hurmat qil. 89. Ichlari achimasa, menga o'sha gaplarni gapirmas edi. 90. Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. 91. Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kirar teshikdan. 92. Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan. 93. Shunga ishonchim komilki, qasd qilganlar, albatta, past bo'ladi. 94. Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan. 95. Shunday ne'matlar borki, ularni pul birligida o'lchab bo'lmaydi. 96. Odam borki, odamlarning naqshidir, Odam borki hayvon andin yaxshidir. 97. Shuni bilingki, aql bilan odob – jism bilan jon. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, aqlsizga so'z uqtirgandan ko'ra, yelkada tosh tashish afzal. 98. Shunga amin bo'ldimki, serjahl boshda aql bo'lmaydi. 99. Shundan ehtiyot bo'lish lozimki, hamrohingiz aslo nodon bo'lmasin. 100. Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon odamning gapi ko'p bo'ladi. 101. Baxtim shuki, seni uchratdim. 102. Shunday o'zgarishlar bo'lmoqdaki, aqling bovar qilmaydi. 103. Shunisi quvonarliki, sinfdagi o'quvchilarning hammasi bir-biri bilan juda ahil. 104. Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi. 105. Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin. 106. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shulaming hammasini jam etib, bir kitob yozmog'ingiz darkor. 107. Qalandarov yugurdagini «Eshon, hoy!» deb chaqirganda, Saida qanchalik xursand bo'lgan bo'lsa, hujrani ko'rib shunchalik ta'bi tirriq bo'ldi. 108. Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning o'zi ham to'g'ri bo'ladi. 109. Kimki o'zining yaxshi ishidan quvonsa, yomon ishidan xafa bo'lsa, demak, u haqiqiy mo'mindir. 110. Bu Vatanni jon bilan saqlashga, Cho'lpon, hozir o'l, Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondin kafan! 111. Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi. 112. Sen birodaringni qanchalik yaxshi ko'rsang, Tangri ham seni shunchalik yaxshi ko'radi. 113. Kim birovga choh qazisa, o'zi yiqiladi. 114. Qayerda ish to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha yerda rivojlanish bo'ladi. 115. Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltiraverar edi. 116. Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi. 117. Kimning aqli ko'p bo'lsa, ayblari yashirin va do'stlari ko'p bo'ladi. 118. Kimki shoshilmay, aql-u tadbir bilan ish tutsa, u o'z maqsadlariga oson erishadi. 119. Nimaiki senga zarar keltirsa, o'sha narsani boshqalarga ham ravo ko'rma. 120. Har kim o'z og'zining qorovuli bo'lsa, uning nafasi hech qachon bo'g'ilmaydi. 121. Kimning ichi nog'ora singari bo'sh bo'lsa, uning behuda so'zlari atrofdagilarning miyasini egovlaydi. 122. Kimki samimiy va pokdil bo'lsa, uning ishlari o'ngidan ketaveradi. 123. Odamlarga qanchalik yaxshilik qilsang, el seni shunchalik e'zozlaydi. 124. Qaysi narsaga o'z mehnating bilan erishsang, o'sha narsa sen uchun qadrlidir. 125. Kimning yuragida o't-olov bo'lsa,

o'sha odamning ishlarida tashabbus bo'ladi. 126. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda yutuq bor.

**2. Ushbu ergashgan qo'shima gaplarni tegishli sodda gaplarga aylantiring.**

1. Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin. 2. Shunga xursandmizki, bolalar o'z yo'lini topib ketishdi. 3. Kim ko'p bilsa, u kamgap bo'ladi. 4. Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo'linglar. 5. Shuni bilingki, dunyoda tinchlikdan ulug'roq ne'mat yo'q. 6. Kimki mustaqil fikr yuritmasa, uni boshqalar oson egib oladi. 7. Shunga ishonch hosil qildimki, ko'p uxlagan oz yashaydi. 8. Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do'stlashmaydi. 9. Badanda nimaiki quvvat bo'lsa, u tozalik va pokizalikdandir. 10. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning hushini buzadi. 11. Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi. 12. Kimki qanoat qilsa, uning yaxshi-yomon bilan ishi bo'lmaydi. 13. Kim alam chekmabdi umrida bir bor, U meni anglamas, anglamas aslo. 14. Maslahatim shuki, bugun o'zga bir go'shaga chekining! 15. Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim, Qo'ldan davlati ketmasin uning.

**3. Bosh va ergash gaplarni aniqlab, bosh gapdagi kesimni tagiga chizing.**

1. Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz. 2. Toleyim shuki, jahonda bir guliston tanladim. 3. Muhammad Yusuf ijodining o'ziga xos xususiyati shundaki, u juda oson o'qiladi, sodda, xalqchil. 4. Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qanshariga musht tushdi. 5. Keragi shuki, ana shu miqqiyni ham boqish kerak. 6. Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi. 7. Eng yaxshi yo'l shuki, yaxshi do'st yor-diyordan ayrilishni ixtiyor etmaydi. 8. O'tgan ota-bobolarning xulosasi shuki, shirin so'z odamlarning qalbini bog'lovchi zanjirdir. 9. Qisqa gap shuki, odam so'zi bilan taniladi, axloqi bilan maqталadi. 10. Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir. 11. Xalqning xulosasi shuki, xudbin odam hech qachon elga qayishmaydi.

**4. Bosh va ergash gaplarni aniqlab, ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositani izohlang.**

1. Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi. 2. Kim izlansa, u, albatta, maqsadiga erishadi. 3. Kimki rostgo'y, samimiy bo'lsa, u el o'rtasida qadr topadi. 4. Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshladi. 5. Kim erta bahordan dalaga chiqib peshona teri to'ksa, u kuzda mehnatining rohatini ko'radi.

**5. Bosh gapning egasi vazifasidagi ko'rsatish olmoshini aniqlang.**

1. Anvarga shunisi qiziq tuyuldi, bu yerda hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf turadi. 2. Bu savollardan ma'lum bo'ldiki, aybnoma uydirma emas. 3. Bir narsa aniqki, ahvol yomon. 4. Kimki taqdirga tan bersa, u hayot to'lqinida g'arq bo'lib ketadi. 5. Kimki birovga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi.

**6. Bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gapni bosh gapga qanday bo'g'lanyotganini va uning bosh gap kesimining qanday belgisi bildirayotganini aniqlang.**

1. Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda borardi. 2. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi. 3. Oyna opa xatni oxirgacha o'qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi. 4. Sizni qo'rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik. 5. Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding. 6. Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko'p ediki, so'rab oxirgacha yetolmasday ko'rindi.

**7. Bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gapni qanday so'roqqa javob bo'layotgani va bosh gap kesimning qanday belgisini bildirayotganini ayting. Ergash gapning ma'no turini aniqlang.**

1. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi. 2. O'simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan. 3. Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo'ladi. 4. Odamlar ishdan qolmasin deb, marosimni soat besh yarimga tayin qilamiz. 5. Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam, menga bergan noningiz harom bo'lgay.

**8. Qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gapni bosh gapga bo'g'lovchi vositalarni belgilang. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining qanday gap bolagi vazifasida kelayotganiga diqqat qiling.**

1. Ahmadjon faqat shuni biladiki, dushman bu tepalikni haddan tashqari qattiq o'qqa tutdi. 2. Bu o'rinda shuni aytilish kerakki, Qalandarovlarni o'sha davr hayoti yarata boshlagan edi. 3. Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring. 4. Shuni hilib qo'yginki, sen suyangan tog'ning tagi nurab qolgan.

**9. To'ldiruvchi ergash gaplarni toping, ularning bosh gapga bog'lanishini izohlang.**

1. Bilingki, jim turib salomat bo'lish gapirib malomatga qolishdan avval. 2. Shuni anglamoq kerakki, ota-ona uchun farzandan ko'ra yaqinroq kimsa yo'q. 3. Shundan ehtiyot bo'lingki, birovning ota-onasini haqorat qilgan odam o'zining ota-onasini ham haqoratlagan bo'ladi. 4. Shuni hamisha yodingizda saqlangki, birovga yolg'on gapirish eng katta gunohdir. 5. Shuni unutmangki, do'stlar bilan suhbat qurmoq gullar orasida sayr qilmoqdan xushdir.

**10. Bosh va ergash gaplarni aniqlab, ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni ayting.**

1. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham xuddi shu yo'ldan yuradi. 2. Sevgi shunday navbahorki, u tikondan gul qilur. 3. Bu suvni ichgandan so'ng kim yolg'on so'zlasa, uning qulog'i o'sib ketarmish. 4. Kim yalqov bo'lsa, uning qo'lida obod yer ham xarob bo'ladi. 5. Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko'rmasan. 6. Kimning quroli bilim bo'lsa, uning kelajagi porloq.

**11. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlab, ergash gapning turini ayting.**

1. Masalaning mohiyati shu ekanki, bosh vrach qabulxonasiga kichkina telefonogramma tushibdi. 2. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to'ladi. 3. Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko'ylagiga qadaladigan o'n-o'n beshta tugma sochilib yotibdi. 4. Agar yurakda quvvat bo'lmasa, qo'lda ham quvvat bo'lmaydi. 5. Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko'payib ketibdi.

### 12. Ergashgan qo'shma gap turlarini aniqlang.

1. Ilm-u ma'rifat e'zozlangan mamlakatda hech kim urush haqida bosh qotirmaydi, chunki ilm-u ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. 2. Oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki kasb-hunari bo'lmagan odam kambag'aldir. 3. Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi. 4. Jahl kelsa, aql qochadi. 5. Do'stinga tushgan xavf meni ham tahlikaga solmas ekan, bu chinakam do'stlik emas.

### 13. Qo'shma gap qismlari o'zaro qanday bog'langaniga va ular qanday tinish belgisi bilan ajratib yozilayotganiga e'tibor bering.

1. Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz. 2. Yuragida qanday dard bor — mana bu menga sir. 3. Kuz keldi, yig'im-terim ishlari boshlandi. 4. To'rt mashina o'g'it yubordik — fermerlarga vaqtida taqsimlansin. 5. Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, osmon dil qulfini zaminga sochdi. 6. Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi — yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi. 7. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarמידan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.

### 14. Qo'shma gapni qismlarga ajrating.

1. Yaxshi o'g'il — el obro'si, yaxshi qiz — uy obro'si. 2. Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan. 3. Sidiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi. 4. Sabr bila bog'liq ish ochilur, Ishda oshiqqan ko'p toyilur. 5. Hamma ishlarinigizda to'g'ni bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin! 6. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagancha, o'rnimdan turib ketaman.

### 15. Qo'shma gapdagi tinish belgilarining qo'yilish sababini izohlang.

1. Kampimning jig'ibiyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib, vaysaganicha, uyiga kirib ketdi. 2. G'animlar duch kelar — jang bo'lar puxta. 3. Mening bir jaydari falsafamdirl shu: Hargiz iltimosga kunning qolmasin. 4. Oyim endi o'midan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi. 5. Qiz uni ushlab olgani urindi, juda qiynalib ketdi: qo'llariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari tirmalandi ... 6. Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi — yiqiladi kishi.

### 16. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni bog'langan va ergashgan qo'shma gapga aylantiring.

1. Qor yog'di — don yog'di. 2. Sir ko'p olam qa'rida, Mo'jizaga kon olam. 3. Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer. 4. Yurgan daryo — o'tirgan bo'yra.

---

---

## MURAKKAB QO'SHMA GAP

Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi murakkab qo'shma gap sanaladi.

Murakkab qo'shma gaplar to'rt guruhga bo'linadi: 1) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar; 2) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar; 3) aralash murakkab qo'shma gaplar; 4) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar.

**Mashq:** Berilgan gap tarkibidagi sodda gaplarni aniqlab, ularning o'zaro qanday vositalar yordamida bog'langanini ayting.

Agar traktor berilsa, yerlar traktor bilan haydalsa, birinchidan, mehnat unumi ortadi, ikkinchidan, hosil mo'l bo'ladi.

### Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar

Tarkibida ikki va undan ortiq ergash gaplari mavjud bo'lgan gaplar bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap sanaladi.

**Mashq: 1.** Murakkab qo'shma gap tarkibida nechta sodda gap borligini va ularning o'zaro qanday bog'langanini aniqlang.

1. Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmushimiz farovon bo'lsin, mustaqilligimiz barqaror bo'lsin. 2. Odamlarimizning huquqiy ongi yuksak bo'lsa, har kim o'z haqini tanisa va o'zini o'zi himoya qilishni bilsa, demokratik jamiyatga erishgan bo'lamiz. 3. Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa, o'sha zarbdor bo'ladi. 4. Tol ekdik suv bo'yiga, Soya-salqin bo'lsin deb, G'ayrat qilgan botirlar yotib damin olsin deb.

**2.** Murakkab qo'shma gap tarkibida nechta ergash gap mavjudligi va ularning qanday ergash gap ekanligini aniqlang.

1. Shunday bo'lmog'iga barcha asoslar bor edi, chunki ular bir qishloqda o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi. 2. To'g'risi shuki, keksa professor unga yoqib qolgan edi, uning samimiy maslahatlaridan qoniqadi, doim bu oqil odamga munosib bo'lishga tirishar edi. 3. Agar siz yoqtirgan odam sizga mehr-muruvvatini ayamasa, e'tibor bilan qarasa, bu olam-olam quvonch bag'ishlaydi. 4. Kun shu qadar isidiki, chumchuqlarning ham ovozi chiqmay qoldi, hamma o'zini salqinga oldi.

### Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar

Tarkibida ikki va undan ortiq bosh gap mavjud bo'lgan qo'shma gaplar bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap hisoblanadi.

**Mashq: 1. Murakkab qo'shma gap tarkibida qanday bosh gaplar mavjudligini aniqlang.**

1. G'anim kelsa, xonumoni kul bo'lur, o'z yurtida pachaqlash ma'qul bo'lur. 2. Boshimda o'ynar qamchilar, qon ko'zlarimdan tomchilar, Bir benavo gul yanchilar, ozodkorim kelmasa. 3. Qo'shnilaring ko'nsa, hammalaring yerlaringni qo'shib yaxlit qilinglar, bir kunda haydatib beraman. 4. Bu gap kutilmagan bo'lsa ham, Mirhamidxo'janing yoshiga munosib ravishda tarang va tiniq qizil yuzi oqarishdi, oq oralagan cho'qqi soqoli xiyol titradi.

**2. Murakkab qo'shma gaplarni topib, tarkibida qanday qo'shma gaplar mavjudligini aniqlang.**

1. Butun dunyoga ma'lumki, siz ham shuni unutmangki, Orolni saqlab qolish hammamizning burchimiz. 2. Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, bahri dili ochiladi, tanasiga quvvat yuguradi. 3. Kimdir mendan zulm emas, mehr topa olsa, bu mening eng katta yutug'imdir, insonlarga tekkan eng katta foydamdir. 4. Chindan ham, odam yurakdan yayrab kulsa, sog'lig'i yaxshilanadi, yengil tortadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi.

**3. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni va ularni o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlang.**

1. Shu narsa ayonki, hamma shu narsani yaxshi biladiki, odobsiz kishilar hech qachon e'tibor qozonmaydi. 2. Kimki ota-onasini hurmat qilsa, u boshqalardan izzat topadi, el orasida yaxshi deb nom qozonadi. 3. Shirinsuxanlik shunday boylikki, u senga obro' keltiradi, u orqali bitmagan ishlaring bitadi, do'stlaring ko'payadi. 4. Kimki umid bilan daraxt o'tkazsa, bir kuni kelib bu daraxt shig'il meva beradi, uni ekan egasiga olqish-u rahmatlar yog'diradi. 5. Kimning qalbi pok bo'lsa, uning ishlari o'z-o'zidan yurishib ketaveradi, hamma unga madadkor bo'ladi.

## **Aralash murakkab qo'shma gaplar**

Tarkibida ergashgan, bog'langan yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lgan gaplar aralash murakkab qo'shma gaplar hisoblanadi.

**Mashq: 1. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang, bog'lovchi vositalarni belgilang.**

1. Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan. 2. Ko'lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida pitirtayotgan ikki-uchta o'rdak ko'rindi. 3. Shuni unutmaki, sen yer farzandisan va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir. 4. Qiz avval qo'rqdi, otasi uning Siddiqjon bilan so'zlashib turganini emas, bog'ga tushganini bilsa ham, terisiga somon tiqadi — bu xususda otasining qamchisidan qon tomar edi; keyin yangi bir olamga kirib, otasining

qamchisini ham, jingul ostida pusib yotgan kurk tovuqni ham unutdi. 5. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir.

## **2. Murakkab qo'shma gaplarni topib, turini belgilang.**

1. Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo'lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i lozim. Bilginki, hunarsiz kishi quruq savlatdir, quruq savlat esa qotib turgan suratga o'xshaydi. Sen suratga boq, u odamga o'xshasa-da, joni bo'lmaydi. Daraxt shoxi mevasiz bo'lsa, uning o'tindan nima farqi bor. Sen abujahl (yovvoyi) tarvuzini ko'r, shirin tarvuzlar kabi chiroylidir, ammo achchiq bo'lgani uchun zarracha qiymati yo'q.

## **3. Aralash murakkab qo'shma gaplarni aniqlab, tarkibidagi sodda gaplarni va ularning o'zaro qanday vositalar bilan bog'langanini belgilang.**

1. Hovlida qarindosh-u qo'ni-qo'shnilar ham yurishadi, nariroqda esa doshqozon to'la sumalak qaynaydi, ayollardan kimdir uni kovlab turadi, atrofida ikki-uch kampir choy ichishib o'tirishadi, bolalarning qo'llarida esa yog'och qoshiq, galma-gal qozon girdiga yopishardilar. 2. Insonlik mohiyati baxt-saodatga erishuvdir, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirsa, u baxt-saodatga erishadi. 3. Esida bor: otasi bilan mana shu o'rindiqqa o'tirsa, mototsikl degani qattiq ovoz chiqarib yurib ketdi-yu, nevara qo'rqqanidan otasini mahkam quchoqlab, ko'zlarini yumib oldi. 4. Hirot, tashdan qaraganda, avvalgiday tinch, hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'lganday ko'rinisa ham, lekin kosib-hunarmandlar, dehqonlar hali g'azabdan tushmagan edilar. 5. Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgudir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi?

## **Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar**

**Bir turdagi uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan gaplar qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar deyiladi.**

**Mashq: 1. Murakkab qo'shma gaplarni aniqlab, ularning nechta sodda gapdan tashkil topganini tushuntiring.**

Avliyolar bosgan tuproq aziz derlar,  
Qat-qatidan chiqaverar ekan sirlar,  
Har tuproqdan har kun o'tmas axir pirlar,  
Ko'kragimni hayrat tiklar, Temur bobo.

Dunyo bilar mehnatsiz bir damimiz yo'q,  
Erkinlikdan balandroq bir g'amimiz yo'q,  
Eshitsinlar, hech kimsadan kamimiz yo'q,  
Sizdan qolgan zuryodmiz mard, yovqur, bobo.



Siz tuzgan ul tuzuklarni o'qib kun-tun,  
Tiklanarmiz, yechimlarni topgay tugun,  
Bo'lmagaymiz hech kimsaga qaram, zabun,  
O'zbek bugun o'z-o'zini tanir, bobo.

Avliyolar alqagan el emish a'lo,  
So'zi butun, tizzasi tik, ko'ksi samo,  
Muzaffarlik ko'rib o'tgan bir avliyo -  
O'zingizsiz, Sohibqiron Temur bobo.

## 2. Murakkab qo'shma gap turini aniqlang.

1. Umrinning anchagina qismi harbiy ishlarda o'tgan, men bu yerda hech qanday qiyinchilik tortmayman, lekin sog'ligim o'z hukmini o'tkazib turibdi. 2. Hosilimiz mo'l bo'lsa, uyimiz donga to'lsa, turmush bo'lar farovon. 3. Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, bahordan darak keladi. 4. O'sha yillar... mashoq terar edik, mol boqardik, g'o'za jo'yakka kultivatsiya yurgizardik.

5. Umr o'tar, vaqt o'tar,  
Xonlar o'tar, taxt o'tar,  
Omad o'tar, baxt o'tar,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan,  
Sening yurishlaring, sening kulishlaring.

## 3. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplarni aniqlang.

Meni bilsang, Qo'ng'irotning og'asi,  
Boshimda botir yigitning jig'asi.  
Yoz bo'lsa yaylovim Amu yoqasi,  
Meni bilsang, Qo'ng'irotning to'rasi.  
Ko'kqamish ko'lidan suqsur uchirdim,  
Suqsurni izlagan lochin bo'laman.  
Rog'larim zumraddan, changalim po'lat,  
Qo'ng'irotdan qo'yilgan shunqor bo'laman.

## KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAP

So'zlovchi ba'zan o'z nutqida bironing gapini aynan keltiradi. Bironing aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap, so'zlovchining gapi esa muallif gapi deyiladi. Muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topgan qo'shma gapga ko'chirma gapli qo'shma gap deyiladi.

Ko'chirma gapli qo'shma gaplar doimo ikki qismdan — muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topadi.

Mashq: 1. Muallif gapi va ko'chirma gaplarni va ularning joylashish o'rnini aniqlang.

1. «Rahmat, ona qizim», — dedi muharrir mehri tovlanib. 2. «Ke, picha

dam ol, chirog'im, toza charchabsan», — dedi bobom. 3. Kampir oyoq ostida o'sgan o'tdan yulib, kiyik tomon yura boshladi: «Ma, jonivor, ma!» 4. «Shoshmang. Ahmadjon», — dedi yigit. 5. Xalil bobo nevarasiga gigitton bo'lib: «Hoy bolam, senga nima bo'ldi? «A? Nima qildi, toychog'im-a, — der edi. 6. «Zar yigit ekansiz-da, Tursunalijon. Barakalla, barakalla», — dedi u.

**2. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarning tuzilishiga e'tibor bering.**

Abdulla Qodiriy bog'da ishlayotganida bir odam o'tib ketayotib:

— Ha, ishlayapsizmi? — deb so'rabdi.

— Yo'q, dam olyapman, — deb javob beribdi yozuvchi.

Ma'lum vaqtdan keyin boyagi odam qaytib o'tsa, Qodiriy bog'da o'ylanganicha, aylanib yurgan ekan.

— Ha, dam olyapsizmi?

— Yo'q, ishlayapman, — deb javob qilibdi ijod olamiga sho'ng'igan yozuvchi.

**3. Gaplarni qavs ichida berilgan muallif nomlaridan foydalangan holda ko'chirma gapli qo'shma gapga aylantiring.**

1. Xalqning ishonchini oqlash har birimizning muqaddas burchimizdir. (Mirtemir) 2. Ertangi kunimiz bundan ham go'zal bo'ladi. (A. Ori pov) 3. Tabiatning betakror go'zalliklari yuragimga juda yaqin. (M. Ulug'ova) 4. Inson mehnati beiz qolmaydi. (E. Azamov)

## **Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi**

Muallif gapi (M) va ko'chirma gap (K) bir-biriga nisbatan turlicha joylashishi mumkin, bunda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1) M: «K»      M: «K?»      M: «K».

2) M: «K», — m. M: «K?» — m. M: «K!» — m.

3) «K», — m. «K?» — m. «K!» — m.

4) «K, — m, — K».

Ko'chirma gap bilan muallif gapi turlicha o'rinlashish xususiyatiga ega. Ularning o'rinlashish tartibini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

**1. Muallif gapi (MG)+ko'chirma gap (KG).**

Xalqimiz deydi: «Sabr tagi — sariq oltin».

Guli dedi: «G'azaldin bahr olmag'ay kim? «(Uyg'un)bunday vaqtda muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi, ko'chirma gap qo'shtirnoq ichiga olinib, bosh harf bilan boshlandi.

Ko'chirma gap oxiriga, agar u darak va buyruq gap bo'lsa, nuqta; so'roq gap bo'lsa, undov belgisi qo'yilib, qo'shtirnoq yopilai.

**2. KG+MG: «To'g'ri, qoloqdan cho'loq yaxshi», dedi qovog'ini solib Dilshod. (Oybek)**

«Nega xat-pat, telegramma yubormadingiz?» – dedi Jo'ra. (Oybek)

3. **KG+MG+KG:** «Endi hamisa xonadon sohibining gapiga quloq solgaysiz, – dedi Bibixonim kelinga, – aytganlarini so'zsiz bajargaysiz». (P. Qodirov)

Bunday vaqtda ko'chirma gap qo'shtirnoq ichidan bosh harf bilan boshlanadi. Muallif gapi bilan ko'chirma gapning uzilgan joyi vergul va tire bilan ajratiladi. Muallif gapidan so'ng ko'chirma gapning qolgan qismi nuqta va tire yoki vergul va tire bilan davom etadi.

Uning sxemasi quyidagicha:

«KG., – MG, – MG», yoki: «KG, – MG – KG»

4. **MG: «KG», MG.**

Qaynonasi Bibixonim: «Bu in'omning teran ma'nosi bor», – dedi sirg'alarni kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan.

Bunday vaqtda muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi, ko'chirma gap qo'shtirnoq ichidan bosh harf bilan boshlanadi. Ko'chirma gap oxiri qo'shtirnoq bilan yopiladi va muallif gapining davomi ko'chirma gapdan vergul va tire bilan ajratilgan holda, kichik harf bilan boshlanadi.

**Mashq. 1. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarni tegishli tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.**

1. Biz tinchlik daraxtini ekdik. Uni endi do'llardan, bo'ronlardan asrashimiz kerak deydi Muhammad Ali. 2. Millatlarni elatlarni deydi M. Ulug'ova buyuk do'slik birlashtiradi. 3. Donolar deydi bolaga mehmi buyruq bilan singdirib bo'lmaydi. 4. Odamlarning manfaatiga kelsak bu narsa mustaqillikdan keyin chinakamiga ustuvorlik kasb etdi deydi Anvar Obidjon.

**2. Ko'chirma gap va muallif gaplarini aniqlang va tinish belgilarning ishlatilishini izohlang.**

1. «Husayn Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs, – deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida. – U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi». 2. Taniqli adabiyotshunos olim Shoislom Shomuhamedov Sa'diy Sheroziy haqida fikr yuritar ekan: «Uning ajoyib asarlari o'zbeklar orasida ham keng tarqalgan. «Guliston» va «Bo'ston» kabi axloqiy kitoblari eski o'zbek maktablarida darslik sifatida o'rganilgan», – deb yozadi. 3. «So'z san'atining qudrati shundaki, – deydi Asqad Muxtor, – u hayotda aynan bo'lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuboradi». 4. «Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz», – deydi Alisher Navoiy.

## Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar

O'zganing gapi hech o'zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gap ko'chirma gap, mazmuni saqlanib, shakli o'zgartirilgan gap o'zlashtirma gap hisoblanadi.

**Mashq. 1.** Avval ko'chirma gapli qo'shma gaplarni, so'ng o'zlashtirma gaplarni ko'chiring.

1. O. Hojiyeva xalqni og'ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug' o'zgarishlar jpslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi. 2. Amakim bizga uqtirdi: «Bir-biringiz bilan ahil bo'linglar!» 3. G'afur G'ulom Erkin Vohidovning mudragan aruzni uyg'otib yuborganini, uni arab, fors so'zlaridan tozalab, sof o'zbek g'azalini yaratayotganini gapirdi. 4. Abdulla Qahhor jilmayib: «Odamzod hasad qilmasligi kerak. Havas qilishi kerak. Havas qilgan odam murodiga yetadi», – dedi.

### **Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish**

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gap shaklini oladi.

**Mashq: 1.** Berilgan ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring.

1. Donolar deydi: «Vaqtning ketdi – baxting ketdi». 2. Balli, Ra'no, – dedi Solih mahdum. 3. Seni ilgari ko'rmagan edim-ku, qayerliksan, – deb so'radi u. 4. Keldik, – dedi Ochil kulib. 5. Olcha juda serob, avval tatib yenglar, keyin terasizlar, – dedi bir mo'ysafid.

**2.** Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring va ular o'rtasidagi farqlarni ayting.

1. Qadimgilar demishki: «O'z uyim - o'lan to'shagim». 2. «Kamgaplik, – deydi H. Olimjon, – donolik yo'lining boshlanishi». 3. Behbudiy: «Maktab dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrhisidir», – deb yozadi. 4. «So'z qoli p, fikr uning ichiga quyilgan g'isht», – deb yozadi A. Qodiriy. 5. «Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi», – deydi Tog'ay Murod.

### **Ko'chirma gapli qo'shma gaplar uslubiyati**

Monologik nutqda so'zlovchining o'zgalar gapidan aynan foydalanishi ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi.

Bunda qo'shma gap ikki qismda tashkil topadi: **1) so'zlovchining (nuallifning) gapi; 2) o'zganing gapi.** Masalan, «*Ko'p narsalarni ko'zimga ko'rsatdingiz. Yanu ko'p narsalarni ko'rgani qo'limga chiroq berdingiz. O'rmonjon aka*», – dedi Siddiqjon.

Yuqoridagi gapda dedi Siddiqjon qismi muallif gapi, ungacha bo'lgan qism esa, o'zganing gapi hisoblanadi. Fikrni asosli va go'zal ifdalamoq uchun ko'p hollarda xalq maqollaridan, hikmatli so'zlardan, adabiy parchalardan foydalaniladi. Nutqqa tayyor olib kirilgan bu maqol va hikmatli so'zlardan so'ng – deydi xalqimiz – deydi adib singari muallif gaplari qo'llanilib, ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi. Masalan, «*Oltin boshing omon ho'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas*», – deydi xalqimiz.

## Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish yo'llari

Ko'p hollarda o'zgalarning gapi muallif tomonidan aynan keltirilmay, mazmuni saqlangan holda, o'z nutqiga singdirib beriladi. Bunday vaqtda ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gapga aylantiriladi.

Ko'chirma gapli qo'shma gapni sodda gapga aylantirish uchun ko'chirma gap va muallif gaplari tarkibida ega va kesim vazifasida kelgan bo'laklarning shakl va vazifasida ayrim o'zgarishlar qilinadi.

Xususan, ko'chirma gapning egasi qaratqich aniqlovchiga, kesim esa to'ldiruvchiga aylantiriladi. Ko'chirma gap kesimini to'ldiruvchiga aylantirish uchun unga *-lik* yoki *ekanlik* shakllari qo'shiladi. Egasi II shaxs kishilik olmoshidan ifodalangan bo'lsa, u I shaxs kishilik olmoshiga aylantiriladi. Muallif gapining kesimi vazifasida kelgan *dedi* so'zi aytdi so'zi bilan almashtiriladi. *Masalan,*

### Ko'chirma gap

*«Sizlar bir oilaning farzandi-sizlar», dedi rais.*

### O'zlashtirma gap

*Rais bizning bir oilaning farzandlari ekanligimizni aytdi.*

Ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gapga aylantirilganda, ko'chirma gaplarga qo'yilgan qo'shtirmoq ham ishlatilmaydi.

## MATN – ENG YIRIK SINTAKTIK BIRLIK

Har qanday og'zaki va yozma nutq parchasi matn (makromatn) hisoblanadi. Matn mikromatnlarning o'zaro mazmuniy va grammatik bog'lanishidan hosil bo'ladi.

Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Masalan, *Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ishtirok etgan harcha mikromatnlar «o'g'irlik» umumiy mavzusi ostida birlashgan.*

Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi. Ular quyidagilardan iborat:

**Bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi ayrim so'zlar, takroriy bo'laklar, olmoshlar, sinonimlar.**

Karimjon a'lo o'qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.

Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan *u olmoshi* birinchi gap tarkibida kelgan *Karimjon* o'rnida kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog'lab keladi. Shuning uchun ham, *u olmoshi* matn qismlarini bog'lovchi, ya'ni **matn hosil qiluvchi vosita** sanaladi.

Mikromatnni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki *u* ham gaplarni bog'lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo'yoqdorlik hosil qiladi.

E'tibor bering:

*Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,*

*Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.*

*Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada*

*Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.*

*Takrorlar gap oxirida qo'llanilishi ham mumkin.*

*Angladimki, olamda*

*Yurt tanho, Vatan tanho,*

*Band etgan xayolimni*

*Tengsiz shul chaman tanho. (A. Oripov)*

## Qo'shma gaplar bo'yicha test topshiriqlari

### 1-variant

1. Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan?

A. Agar odam o'z hayot yo'lida yangi do'st orttirmasa, u tezda yakkalanib qoladi

B. Tarbiyali kishilar inson shaxssini hurmat qiladilar shuning uchun ham ular marhamatli, oq ko'ngil, xushmuomala va ko'ngilchandir

C. Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi

D. Kitobning vazifasi hayotni bilishni osonlashtirish va tezlatishdir, lekin u hayotning o'rnini bosolmaydi

2. Qaysi gapda vergul qo'shma gap qismlari orasida qo'llangan?

A. Maktablarda, oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilmoqda

B. «Avesto»da yigitlar kurash tushishni chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila olishni o'rganishlari shartligi aytilgan

C. Bu gaplarimdan cho'chimang, qo'rqmang, hali boshingizda ne savdolar bordir

D. U to'qayzorda sassiq alafning, qamishlarning, gulni payhon qiluvchi to'ng'izlarning ko'pligidan ajablanmadi

3. Qo'shma gaplarning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A. nuqta

B. ikki nuqta

C. undov belgisi

D. Vergul

4. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalarning qaysilari bosh gap tarkibida bo'ladi? 1) chunki; 2) shuning uchun; 3) go'yo; 4) negaki; 5) -ki; 6) toki

A. 1,2    B. 4, 5, 6    C. 3, 5, 6    D. 2, 5

5. Tarkibida uchta ergash gap mavjud bo'lgan bir necha ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A. O'qituvchi bog'dan kelsa, u tog'dan keladi, Sparta davlatlarini so'rsa, Spartak yurishlariga o'tib ketadi.

B. Chindan ham odam yurakdan yayrab kulsa, sog'ligi yaxshilanadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi.

C. To'g'risi shuki, keksa professor unga yoqib qolgan edi, uning maslahatlaridan doimiy qoniqardi, doim oqil odamga munosib bo'lishga tirishar edi.

D. Reja bajarilsa, dasturxon mo'l bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etaveradi.

6. Qismlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplarga xos xususiyatlar to'g'ri qayd etilgan javoblar mosligini belgilang.

1. Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi.

2. Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi.

3. Anor so'ylar, Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qltirar.

4. Oy tunda kerak, aql - kunda.

a) payt munosabati aks etgan; b) qiyoslash munosabati aks etgan; c) zidlik munosabati aks etgan; d) sabab munosabati aks etgan.

A. 1-a; 2-d; 3-c; 4-b

B. 1-a; 2-d; 3-b; 4-c

C. 1-d; 2-a; 3-b; 4-c

D. 1-c; 2-d; 3-a; 4-b

7. Quyidagi gap qo'shma gaplarning qaysi turiga mansub? Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo'lsa faqat dam olaylik deysan.

A. murakkab qo'shma gap

B. bog'lovchisiz qo'shma gap

C. ergashgan qo'shma gap

D. bo'langan qo'shma gap

8. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi. Ushbu gap ...

A. murakkab qo'shma gap

B. bog'lovchisiz qo'shma gap

C. ergashgan qo'shma gap

D. bog'langan qo'shma gap

9. Ushbu gapning turini aniqlang. Inson nimagaki erisholmasa, o'sha aziz tuyiladi.

A. to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

B. ega ergash gapli qo'shma gap

- C. sodda gap
- D. hol ergash gapli qo'shma gap

10. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gap oxirida keladigan bog'lovchini toping.

- A. go'yo
- B. -ki
- C. deb
- D. negaki

11. Quyida berilgan vositalarning qaysi biri bilan bog'langanda qo'shma gap «ergash gap+bosh gap» shaklida bo'ladi? 1) chunki; 2) shuning uchun; 3) negaki; 4) agar; 5) mabodur; 6) -ki

- A. 4, 5, 6
- B. 2, 4, 5
- C. 4, 6
- D. 1, 2, 3

12. Qaysi qatorda ayiruv bog'lovchisi qo'shma gap qismlarini bog'lamagan?  
A. Men kuylayman goh dilda qadar, Goh sevinib she'r to'qiyman men  
B. Polvonlar epchilikda bir-biridan o'tadi, goh unisi, goh bunisi yutadi  
C. Har kuni oqshomda bu yo'ldan goh paxta dalasidan qaytayotgan terimchilar o'tib qoladi, goh paxta ortgan, traktor u yoqdan-bu yoqqa g'izillaydi

- D. Yo urug' aynigan, yo agrotexnika qoidalari buzilgan

13. Bir necha ergash gapli qo'shma gap qismlari yozuvda qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?

- A. nuqtali vergul
- B. vergul
- C. ikki nuqta
- D. tire

14. Hol ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A. Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko'rmagansan

- B. Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin

C. Berilgan gaplarning barchasi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap sanaladi

- D. Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladi

15. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.

- A. Qayerda janjalli ish bo'lsa, o'sha kishini ro'para qilamiz

- B. Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini yaxshi biladi

C. Shohga bildirdilarki, navkarlar boshqa bir puldor beklar xizmatiga o'tib ketadi

- D. Ukam o'qisin deb, kitob sotib oldim

16. Xalq ertangi kuni yaxshiroq bo'lishini istasa, birlashmog'i, uyushmog'i va haqiqat uchun kurashmog'i kerak. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi uyishib kelgan?

- A. Kesim

- B. Ega

- C. to'ldiruvchi

- D. uyushish hodisasi mavjud emas, bu gap qo'shma gap hisoblanadi



17. Qaysi qo'shma gapda ergash gapning kesimi III shaxs buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalangan?

- A. Shu mo'jaz uyimda yonsin deb chiroq,  
Ne aziz zotlarga yondashdim gohi
- B. Sen otash ichida urasan javlon,  
Dushman qolmasin deb sevgan elimda
- C. Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga
- D. Kamalakdek rango-rang  
Bo'lsin deb, san'at, tillar, Asrlarcha qildim jang

18. Zidlik munosabati ifodalangan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

- A. Burgut yalqovgina, lekin viqor bilan qanotlarini yoyib uchib ketdi
- B. Uydagilar xursand edi, ammo bu xursandchilik unga tatimadi
- C. Na hamdard kishisi, na ovuntiradigan mashg'uloti bor
- D. Kuz tushdi, tog' cho'qqilarini qar bosdi

19. Qaysi qatorda nisbiy so'zli hol ergash gap berilgan?

- A. Bahor keldi, shuning uchun biz dala ishlarini boshladik
- B. Nur borki, soya bor
- C. Kim ko'p mehnat qilsa, u yo'qchilik zahmatini chekmaydi
- D. Men qanchalik yaqin borsam, u shunchalik uzoqlashadi

20. Qaysi bog'lovchi tobe gap boshida keladi?

- A. deb    B. shuning uchun    C. agar    D. -ki (-kim)

21. Quyidagi gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi? Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qanshariga musht tushdi.

- A. natija (hol) ergash gapli qo'shma gap
- B. kesim ergash gapli qo'shma gap
- C. ega ergash gapli qo'shma gap
- D. aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

22. Ergash gapning qaysi turi bosh gappga ko'makchili qurilmalar vositasida bog'lanadi?

- A. miqdor-daraja ergash gap                      B. to'ldiruvchi ergash gap
- C. maqsad ergash gap                                D. sabab ergash gap

23. Quyidagi qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakni izohlab kelgan? Kim insonlikni o'zida sinab ko'rmagan bo'lsa, hech qachon odamlarni chuqur bilmaydi.

- A. kesimni            B. to'ldiruvchini            C. holni            D. egani

24. Rosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchini izohlab kelgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

- A. Kun issiq edi, shuning uchun cho'milgani ketishdi

- B. Shuni bilingki, moshkichirining yaxshisi palovdan a'lo!
- C. Gap shundaki, butun qishloq qahramonni kutib olayotgani bilinsin.
- D. Abror bildiki, oson yo'l bilan maqsadga erishilmaydi

25. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap oxirida keladigan bog'lovchini toping.

- A. deb
- B. -ki
- C. shuning uchun
- D. agar

26. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim.

- A. ega ergash gapli qo'shma gap
- B. kesim ergash gapli qo'shma gap
- C. hol ergash gapli qo'shma gap
- D. to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

27. Quyida berilgan qo'shma gap qismlari orasida qanday munosabat ifodalangan? Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondagi kishiga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.

- A. zidlik munosabati
- B. qiyoslash munosabati
- C. sabab-natija munosabati
- D. payt munosabati

28. Aralash murakkab qo'shma gap tarkibida qo'shma gapning qaysi turi bo'lmaydi?

- A. bog'langan
- B. ergashgan
- C. bog'lovchisiz
- D. barcha turi bo'lishi mumkin

29. Javoblarning qaysi birida aralash murakkab qo'shma gap berilgan?

A. G'anim kelsa, xonumoni kul bo'lur, o'z yurtida pachaqlash ma'qul bo'lur

B. Yigitlar daraxtning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini va uning atrofini supurdilar, o'quvchilar barcha ishlarga bosh-qosh bo'ldilar

C. Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, sen esa akangga yordamchilik qilasan

D. Boshingda tegimmon toshi yurdizsinlar, etimni nishtar bilan tilsinlar, men sizdan ajralmayman

30. Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan?

A. Tarbiyali kishilar inson shaxsini hurmat qiladilar, shuning uchun ham ular marhamatli, oq ko'ngil, xushmuomala va ko'ngilchandirlar

B. Kitobning vazifasi hayotni bilishni osonlashtirish va tezlatishdir, lekin u hayotning o'rnini hosolmaydi

C. Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi

D. Agar odam o'z hayot yo'lida yangi do'st ortirmasa, u tezda yakkalanib qoladi

31. Qaysi qator nisbiy soʻzli hol ergash gap berilgan?

- A. Kim koʻp mehnat qilsa, u yoʻqchilik zahmatini chekmaydi
- B. Bahor keldi, shuning uchun biz dala ishlarini boshladik
- C. Men qanchalik yaqin borsam, u shunchalik uzoqlashadi
- D. Nur borki, soya bor

32. «Muruvvat barcha bermakdur, yemak yoʻq.

Futavvat barcha qilmakdur, demak yoʻq

Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu bayt janri va qoʻshma gap turini aniqlang.

- A. ruboiy, bogʻlangan qoʻshma gap
- B. tuyuq, ergashgan qoʻshma gap
- C. fard, bogʻlovchisiz qoʻshma gap
- D. gʻazal, aralash murakkab qoʻshma gap

33. Qaysi qatorda aralash murakkab qoʻshma gap berilgan?

A. Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, sen esa, akangga yordamchilik qilasan

B. Kun shu qadar isidiki, chumchuqlarning ham ovozi chiqmay qoldi, hamma oʻzini salqinga oldi

C. Kimki umid bilan daraxt oʻtqazsa, bir kuni kelib bu daraxt shigʻil meva beradi, uni ekan egasiga olqish-u rahmatlar yogʻdiradi

D. Yigitlar daraxtning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini va uning atrofini supurdilar, oʻqituvchilar barcha ishlarga bosh-qosh boʻldilar

34. Quyidagi gap haqidagi qaysi hukm toʻgʻri? Yomgʻir tindi–yu, shamol toʻxtamadi.

- A. payt munosabati ifodalangan qoʻshma gap
- B. sabab-natija munosabati ifodalangan qoʻshma gap
- C. zidlash munosabati ifodalangan qoʻshma gap
- D. qiyoslash munosabati ifodalangan qoʻshma gap

35. Berilgan qoʻshma gaplarning qaysi birida ergash gap kesimi qoʻshma feʻldan iborat?

- A. Sen yigʻlasang, men ham qoʻshilib yigʻlab yuboraman
- B. Agar shu koʻrganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar
- C. Aravalar bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin
- D. Bolaga hech kim qaramagan, shuning uchun uni olib ketishdi

36. Quyida berilgan gap qoʻshma gapning qaysi turiga kiradi?

Maktab va oila shunday pokiza gulshan boʻlishi kerakki, unda birorta ham begona oʻt-oʻlan bitmaydigan boʻlsin.

- A. aniqlovchi ergash gapli qoʻshma gap
- B. ega ergash gapli qoʻshma gap

- C. to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- D. kesim ergash gapli qo'shma gap

## 2-variant

1. Qaysi qatorda qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap keltirilgan?
  - A. Birov sening aybingni yuzingga aytsa,so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgidir
  - B. O'sha yillar... mashoq terar edik, mol boqardik,g'o'za jo'yakka kultivatsiya yurgizardik
  - C. Hosilimiz mo'l bo'lsa, uyimiz donga to'lsa, turmush bo'lar farovon
  - D. Uni tanib qolish qiyin edi, chunki yelkalari kengayadi, qiyofasi ancha keskinlashgadi va ko'zlari dumaloq shakl olgandi
2. Odami ersang, demagil odami,  
Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami  
Navoiyning ushbu mashhur bayti qo'shma gapning qaysi turi sanaladi?
  - A. Ega ergash gapli qo'shma gap
  - B. Kesim ergash gapli qo'shma gap
  - C. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
  - D. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
3. Kimki bir tovoq osh-chun qul ersa, kerakdir yuziga qozon qarosi.  
Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turi sanaladi?
  - A. aniqlovchi ergash gapli qoshma gap
  - B. ega ergash gapli qo'shma gap
  - C. to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
  - D. hol ergash gapli qo'shma gap
4. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap berilgan qatorni toping.
  - A. Donolarning o'giti shundaki, so'zning lazzati gapirishda emas, balki eshitishdadir
  - B. Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini
  - C. Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo'lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezamog'i lozim
  - D. Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa, o'sha zarbdor bo'ladi
5. Shubha yo'qki, inson qaysi millat, dinga qaysi xalq-u elatga mansub bo'lmasin,u, avvalambor tabiat farzandidir. (I. Karimov)  
Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?
  - A. Kiritma qatnashgan sodda gap

- B. Bir necha ergash gapli qo'shma gap
- C. Aralash murakkab qo'shma gap
- D. Toldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

6. Qismlari bog'lovchi vazifasidagi bo'lsa so'zi yordamida bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

- A. Kitob bir bog' bo'lsa, yozuvlar uning gullaridir
- B. Ilm bir daraxt bo'lsa, odob uning mevasidir
- C. barcha javoblar to'g'ri
- D. Aql eskirmas kiyim, bilim bo'lsa, tuganmas buloqdir

7. Umidim uldurkim, so'zim martabasi avjdin quyi inmagay.

Navoiy qalamiga mansub ushbu satr qo'shma gapning qaysi turi sanaladi?

- A. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- B. Ega ergash gapli qoshma gap
- C. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
- D. Kesim ergash gapli qo'shma gap

8. 1. Alam qiladigan joyi shundaki, uning yurak dardlarini hech kim tinglagisi kelmasdi. 2. Shunisi borki, biz mahallalarni obod qilishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. 3. Kimki hayotga xo'mrayib boqsa, hayot ham unga zarda berib qaraydi.

- A. 1-kesim, 2, 3-ega ergash gapli qoshma gap
- B. 1, 3-to'ldiruvchi, 2-ega ergash gapli qo'shma gap
- C. 1, 2, 3-to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- D. 1-kesim, 2- ega, 3-to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

9. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan so'ng keladi?

- 1. sabab ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda
- 2. maqsad ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda
- 3. shart ergash gapli bog'lovchilar bilan bog'langanda
- 4. qiyoslash-chog'ishtiruv ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda

- A. 2,3
- B. 1,2,3,4
- C. 1,2,4
- D. 3,4

10. Ko'makchi qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirilsa, qanday o'zgarish ro'y beradi?

A. Ko'makchi qurilma saqlanadi va ergash gap bir bo'lak bo'lib qoladi

B. Komakchi qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirib bo'lmaydi

C. Ko'makchili qurilma tushiriladi, ergashgan gap kengaygan birikmali sabab holiga aylantiriladi

D. Ergash gapning egasi tushiriladi va bosh gap kengaygan birikmaga aylantiriladi

11. Bo'yim barobar oltin-kumush menga ortiqchadir, ammo agar bir xazinangizdan to'la foydalanishga ruxsat bo'lsa, bu men uchun katta mukofot bo'ladi. Ushbu gap — ...

- A. zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap
- B. bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
- C. aralash murakkab qo'shma gap
- D. shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gap

12. Qaysi gapda ergashgan qo'shma gap sodda gapga noto'g'ri aylantirilgan?

- A. Shunga xursandmizki, bolalar o'z yo'lini topib ketishdi. — Bolalar o'z yo'llarini topib ketishganiga xursandmiz
- B. Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin. — Men sherik qilib olishim uchun siz ishonch bildiring
- C. Kim ko'p bilsa, u kamgap bo'ladi. — Ko'p bilgan kamgap bo'ladi
- D. barcha qo'shma gaplar sodda gapga to'g'ri aylantirilgan

13. Kuz quruq keldi, hosil butun yig'ildi, yerlar shudgor qilindi. Berilgan gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
- B. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
- C. Bir necha bosh gapli murakkaqb qo'shma gap
- D. Aralash murakkab qo'shma gap

14. Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, agar oshkor bo'lsa, sen siringning asiri bo'lib qolasan.

Ushbu gap murakkab qo'shma gapning qaysi turi hisoblanadi?

- A. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
- B. Berilgan gap murakkab qo'shma gap hisoblanmaydi
- C. Aralash murakkab qo'shma gap
- D. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

15. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,

Bobolardan qolgan noyob bu tortiq

Toki avlodlarga yetolsin omon. (A. Oripov)

Ushbu gapda ergash gapning qanday ma'no ifodalayotganligini aniqlang.

- A. Sabab
- B. Maqsad
- C. Qiyoslash-chog'ishtiruv
- D. Shart

16. 1. Aql qancha oz bo'lsa, shuhratparastlik shuncha kuchayadi.

2. Kim yolg'on gapirsa, uning qulog'i o'sib ketarmish.

3. Kimda aql oz bo'lsa, unda shuhratparastlik shuncha kuchayadi.

Berilgan ergash qo'shma gaplar qaysi turga mansub?

- A. 1-miqdor-daraja, 2,3-to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- B. 1,2,3- miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap

C. 1,2- miqdor-daraja, 3-to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

D. 1-miqdor-daraja,2-aniqlovchi, 1-miqdor-daraja, 3-to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

17. Qaysi gapda ergash gap bosh gapdan oldin kelgan?

A. Kitob mening do'stim, chunki u-bilim manbai

B. Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim, Qo'lidan davlati ketmasin uni

C. Bolalardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon

D. Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon kishining gapi ko'p bo'ladi

18. Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, shuning uchun mevasiz daraxtni kesib yondirgin. Qo'shma gapning turini va bog'lovchi vositasini aniqlang.

A. Ergashgan qo'shma gap, ko'makchi qurilma

B. Bog'lovchisiz qo'shma gap, ohang

C. Bog'langan qo'shma gap, teng bog'lovchi

D. Murakkab qo'shma gap, teng bog'lovchi

19. Qaysi ergashgan qo'shma gapdagi bosh gap ergash gapga ergashtiruvchi bog'lovchi bilan bog'langan?

A. Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin

B. Ikkovi ham men bilan qadrdonlardek so'rashdi, shuning uchun darrov suhbatimizga jon kirdi

C. Misralarda so'zlar gavhar kabi yonardi, yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi

D. Soliqni bermangiz deyman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlar berar

20. Ergash gapli qo'shma gapning qaysi turida ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar, shart mayli shakli, sabab, maqsad, shart bog'lovchilari, deb so'zi yordamida bog'lanadi?

A. to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

B. aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

C. ega ergash gapli qo'shma gap

D. kesim ergash gapli qo'shma gap

21. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga qanday vosita yordamida bog'lanadi?

A. shart mayli qo'shimchasi

B. teng bog'lovchilar

C. -ki yuklamasi

D. ko'makchili qurilma

22. Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi.

Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turi?

A. Hol ergash gapli qo'shma gap

B. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

- C. Ega ergash gapli qo'shma gap
- D. Kesim ergash gapli qo'shma gap

23. Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap keltirilgan?

- A. Aminmanki, loyihamiz barcha tomonidan yaxshi kutib olinadi
- B. Shuni bilingki, u bolani ham aqlan, ham ma'naviy jihatdan boyitadi
- C. Kim birovlariga yaxshilik qilsa, obro'yi baland bo'ladi
- D. Katta arava qayerdan yursa, kichik arava han shu yerdan yuradi

24. Ergash gapli bosh gapga bog'lovchi quyidagi vositalarning qaysi biri bosh gap tarkibida keladi?

- 1. shart mayli shaklidagi fe'l
  - 2. ko'makchili qurilmalar
  - 3. nisbiy so'zlarga mansub so'roq olmoshlari
  - 4. nisbiy so'zlarga mansub ko'rsatish olmoshlari va -ki yuklamasi
- A. 2, 4    B. 2, 3, 4    C. 1, 2, 3, 4    D. 3, 4

25. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplar tarkibida ishtirok etadi?

- 1. sabab ergashtiruvchi bog'lovchilari
  - 2. maqsad ergashtiruvchi bog'lovchilari
  - 3. shart ergashtiruvchi bog'lovchilari
  - 4. qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilar
- A. 1, 2    B. 1, 2, 3, 4    C. 1, 2, 4    D. 2, 3, 4

26. Sarpardalarning chap tomonida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustida, egniga uzun qora chakmon kiygan bir odam (Yo Rab!-Bu odam G'aznaviy edi!) uzala tushib yotar edi. Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri hukmni aniqlang. 1. qo'shma gap; 2. murakkab qo'shma gap; 3. ajratilgan bo'lak qatnashgan sodda gap; 4. kiritma gap qatnashgan sodda gap.

- A. faqat 1    B. 3 va 4    C. 1 va 4    D. 1 va 2

27. Vaqt xuftondan o'tgan; juvozxonada chiroq ko'rindi. (Oybek) Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga nima uchun nuqtali vergul qo'yilgan?

- A. Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganligi uchun
- B. Qo'shma gap qismlari bir paytda sodir bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalaganligi uchun
- C. Qo'shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo'lmaganligi uchun
- D. Qo'shma gap qismlari orasida sabab munosabati ifodalanganligi uchun

28. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi?

- A. chunki, negaki;
- B. basharti, mabodo;
- C. toki;
- D. go'yoki, xuddi



29. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga, o'xshatish munosabati ifodalanganda, tire qo'yiladi. Qaysi gaplarda ushbu qoida asosida tire qo'yilgan?

1. Yaxshi o'g'il — el obro'si, yaxshi qiz-uy obro'si.
2. Otalar so'zi — aqlning ko'zi.
3. Vaqting ketdi — baxting ketdi.
4. Rejasiz ish — qoli psiz g'isht.
5. Suv keldi — nur keldi.

A. 1, 2, 3, 4, 5      B. 2, 3, 4, 5      C. 2, 4, 5      D. 3, 5

30. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni belgilang.

1. Kimning quroli bilim bo'lsa, uni porloq kelajak kutadi.
2. Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, yo'li ham to'g'ri bo'ladi.
3. Hayot shundayki, uning sinovlaridan hamma ham muvaffaqiyatli o'tolmaydi.

4. Sevgi shunday navbahorki, u tikandan gul qilur.

A. 1, 2, 3, 4      B. 2, 4      C. 1, 2      D. 2, 3, 4

31. Bosh gapda ifodalangan mazmunning qaysi belgisini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko'makchili qurilmalar vositasida bog'lanadi?

A. sababini      B. maqsadini      C. shartini      D. natijasini

32. Bu ayyomda gina-kuduratlar va araz unutiladi, xalqlar, insonlar murosaga keladi, ahillik, birdamlik, mehribonlik qaror topadi. (*I. Karimov*) Ushbu gap...

- A. uyushiq bo'lakli sodda gap
- B. yoyiq sodda gap
- C. uyushiq kesimli sodda gap
- D. qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

33. Kishi dardiga kim hamdard emasdir,

Kishi nazdida ul mard emasdir. Ushbu gap...

- A. Bog'lovchisiz qo'shma gap
- B. Shart ergash gapli qo'shma gap
- C. Natija ergash gapli qo'shma gap
- D. Ega ergash gapli qo'shma gap

34. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlar orasida shart munosabati ifodalangan bo'lsa, ular orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A. ikki nuqta      B. vergul      C. nuqtali vergul      D. tire

35. Ergashgan qo'shma gaplarning qaysi turida ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi?

- A. deb so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplarda
- B. Ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplarda

C. Nisbiy soʻzli ergashgan qoʻshma gaplarda

D. Koʻmakchili qurilmalar yordamida ergashgan qoʻshma gaplarda

36. Nisbiy soʻz yordamida birikkan toʻldiruvchi ergash gapli qoʻshma gap berilgan qatorni aniqlang.

A. Kim odamlarga yaxshilik qilsa, yaxshi inson deyishadi

B. Unga kim yaxshi gapirsa, oʻsha yaxshi odam boʻlib koʻrinardi

C. Kimning koʻngli togʻ boʻlsa, uning yoʻli toʻgʻri boʻladi

D. Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat boʻlmaydi

---

## ASOSIY ATAMALAR LUG'ATI

### Sintaksisga oid atamalar

**Ajratilgan aniqlovchi** – gapda o'zidan oldingi aniqlovchining ma'nosini izohlab, alohida ohang va to'xtam bilan aytiladigan bo'lak.

**Ajratilgan bo'lak** – gapning mazmun va ohang jihatdan ajratilgan bo'lagi.

**Ajratilgan to'ldiruvchi** – gapdagi biror to'ldiruvchining ma'nosini ta'kidlab, unga izoh berib, alohida ohang bilan aytiladigan bo'lak.

**Ajratilgan hol** – gapda o'zidan oldingi holning ma'nosini izohlab, ta'kidlab, maxsus ohang bilan aytiladigan bo'lak.

**Aniqlanmish** – aniqlovchi tobe bo'lgan hokim bo'lak.

**Aniqlovchi** – narsa-buyumni ifodalaydigan so'zga tobelanib, uning belgisini anglatadigan bo'lak.

**Atov gap** – bosh kelishikdagi so'z yoki otli birikma bilan ifodalanadigan bir tarkibli gap.

**Bitishuv (aloqasi)** – tobe so'z hokim so'zga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va ohang orqali bog'lanadigan aloqa turi.

**Boshqaruv (aloqasi)** – tobe so'z hokim so'zning talabi bilan ma'lum bir grammatik shaklga kiradi, shu shakl orqali tobelanadi.

**Buyruq gap** – buyurish, iltimos, maslahat kabi mazmunli gap.

**Darak gap** – voqea-hodisani tasdiq yoki inkor yo'li bilan qayd etuvchi, xabar etuvchi gap.

**Dialog** – suhbatdoshlarning bir-biriga qaratilgan nutqi.

**Ega** – gaplarda fikrning kimga, nimaga qarashli ekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bo'lak.

**Egasiz gap** – fikr asosi faqat kesim tarkibidan iborat bo'lgan gap.

**Fe'l boshqaruvi** – hokim qismi fe'l bilan ifodalangan boshqaruv aloqasi.

**Fe'l kesim** – sodda gaplarni tuslanishi fe'l shakli bilan ifodalangan fe'l shakli.

**Gap** – til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatdan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi.

**Gap bo'laklari** – gap tarkibida ma'lum bir so'roqqa favob bo'lib, ma'lum bir sintaktik vazifada keluvchi so'z yoki so'z birikmasi.

**Grammatik ma'no** – so'zning shakliy qismi – grammatik shakli ifodalaydigan ma'no.

**Grammatik shakl** – grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositasi.

**Hokim bo'lak** – so'z birikmasining hokim qismi.

**Hokim gap** – ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi hokim qism.

**Hol** – ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilishi sababi, maqsadi, o'рни, payti va shu kabi belgilarini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak.

**Kesim** – gapda fikrni ifodalab keluvchi asosiy bo'lak.

**Kesim tarkibi** – kesim va unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali bo'laklar.

**Kiritmalar** – gap bo'laklari bilan shakliy-grammatik bog'lanmagan, asosiy fikrga qo'shimcha fikr bayon qiluvchi, aniqlik kiritish va shu kabi maqsadlarda qo'llanuvchi so'z, so'z birikmasi, gaplar.

**Mantiqiy urg'u** – gapdagi biror so'zni, bo'lakni (ma'nosini ta'kidlab, kuchaytirib) ajratuvchi urg'u, gap urg'usi.

**Maqsad holi** – ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiruvchi hol.

**Miqdor-daraja holi** – ish-harakatning bajarilishidagi miqdor-darajani belgilovchi hol.

**Moslashuv (aloqasi)** – tobe so'z o'z shaklini hokim so'zning shakliga moslaydigan aloqa turi.

**Murakkab gap** – uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, undalma va kiritmalar ishtiroki bilan murakkablashgan sodda gap.

**Murakkab kesim** – birdan ortiq mustaqil so'z bilan ifodalangan kesim.

**Ot kesim** – fe'ldan boshqa so'z turkumlari, shuningdek, harakat nomi va otlashgan sifatdosh shakllari bilan ifodalangan kesim.

**Payt holi** – ish-harakatning ro'y berish vaqtini bildiruvchi hol.

**Ravish holi** – ish-harakatning qay tarzda bajarilishini bildiruvchi hol.

**Ritorik so'roq gap** – o'zida tasdiq yoki inkor mazmuni bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan so'roq gap.

**Sabab holi** – ish-harakatning bajarilish sababini bildiruvchi hol.

**Sanash ohangi** – ketma-ket keluvchi qismlarni aytishda qo'llanadigan teng ohang.

**Sintaktik aloqa** – so'z birikmasi va gap qismlarining o'zaro bog'lanishi.

**Sintaktik birlik** – sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan birlik, ya'ni so'z birikmasi va gap.

**So'z birikmasi** – bir-biri bilan tobelanish asosida birikkan, ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan ikki yoki undan ortiq so'zlar bog'lanmasi.

**So'z-gap** – bir so'z yoki ibora bilan ifodalanadigan gap.

**So'roq gap** – biror noma'lum narsa-hodisani bilish uchun murojaatni ifodalovchi, so'roq mazmuni gap.

**Teng aloqa** – teng huquqli gap bo'laklari, qo'shma gapning qismlari orasidagi sintaktik aloqa.

**Til birligi** – bir-biridan vazifasi, ifoda materiali, tuzilishi va tizimdagi o'рни bilan farqlanadigan til hodisasi.

**Tobe aloqa** – biri ikkinchisiga tobe bo'lgan birliklar orasidagi sintaktik aloqa.

**Tobe soʻz** – soʻz birikmasida sintaktik jihatdan boshqa soʻzga tobe vaziyatdagi soʻz.

**Toʻldiruvchi** – oʻz hokim soʻziga boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanib, shu soʻz anglatgan harakat, narsa, belgiga nisbatan obyekt boʻlib keladigan boʻlak.

**Toʻliq gap** – fikrning toʻla (aniq) ifodalanish imkoniyatini beradigan boʻlaklari mavjud boʻlgan gap.

**Toʻliqsiz gap** – tarkibida bir yoki bir necha boʻlaklari ishtirok etmagan, ammo bu narsa matn yoki vaziyatdan aniq sezilib turadigan gap.

**Undabma** – soʻzlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxs yoki narsani bildiradigan soʻz yoki soʻz birikmasi.

**Undov gap** – fikr bilan birga soʻzlovchining voqelikka boʻlgan turlicha his-hayajonini ifodalovchi gap.

**Uyushiq boʻlaklar** – *gapda bir xil soʻroqqa javob boʻlib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bogʻlovchilar yoki sanash ohangi bilan bogʻlangan boʻlaklar.*

**Yigʻiq gap** – kesim va egadangina tashkil topgan sodda gap.

**Yoyiq gap** – kesim, egadan tashqari ikkinchi darajali boʻlaklar ishtirok etgan gap.

**Yoyiq boʻlak** – birdan ortiq mustaqil soʻz yoki turgʻun bogʻlanma bilan ifodalangan gap boʻlagi.

**Oʻrin holi** – ish-harakatning boʻlish, joʻnalish, boshlanish oʻrmini bildiruvchi hol.

**Shaxsi maʼlum gap** – ega qatnashmagan, lekin harakatni bajaruvchi shaxs kesim tomonidan aniq sezilib turuvchi gap.

**Shaxsi nomaʼlum gap** – ega qatnashmagan, shu bilan birga, uchinchi shaxs shaklidagi feʼl kesim bajaruvchi shaxsni aniq shaxs shaklida boʻlsa-da, lekin mazmunan umumga qaratiladigan gap.

**Shaxssiz gap** – faqat kesim tarkibidan iborat boʻlib, bajaruvchi shaxs maʼnosi umuman ifodalanmaydigan gap.

**Aralash murakkab qoʻshma gap** – tarkibida ergashgan, bogʻlangan yoki bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar mavjud boʻlgan gap.

**Bir necha bosh gapli murakkab qoʻshma gap** – tarkibida ikki va undan ortiq bosh gap mavjud boʻlgan qoʻshma gap.

**Bir necha ergash gapli murakkab qoʻshma gap** – tarkibida ikki va undan ortiq ergash gaplar mavjud boʻlgan qoʻshma gap.

**Bogʻlangan qoʻshma gap** – qismlari teng bogʻlovchilar, boʻlsa, esa soʻzlari, -u (-yu), -da yuklamalari yordamida bogʻlangan gap.

**Bogʻlovchisiz qoʻshma gap** – tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bogʻliq boʻlib, maxsus bogʻlovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bogʻlangan qoʻshma gap.

**Ergashgan qoʻshma gap** – qismlari ergashtiruvchi bogʻlovchilar yoki shunday bogʻlovchi vazifasidagi soʻzlar yordamida bogʻlangan qoʻshma gap.

**Qo'shma gap** – ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik.

**Ko'chirma gap** – birovning aynan keltirilgan yoki o'zganing hech o'zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gapi.

**Muallif gapi** – so'zlovchining gapi.

**Murakkab gap** – turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi.

**Nisbiy so'zlar** – ergash gap tarkibida qo'llaniluvchi kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer kabi so'roq olmoshlari va bosh tarkibida unga javob bo'lib keluvchi shu, shuncha, shunchalik, shunday kabi olmoshlar, bir-biriga nisbatan qo'llaniluvchi, biri ikkinchisini taqozo etuvchi so'zlar.

**Sodda gap** – bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap.

**O'zlashtirma gap** – mazmuni saqlanib, shakli o'zgartirilgan gap.

## USLUBIYAT VA NUTQ USLUBLARI TASNIFI

### So'zlashuv uslubi

Adabiy tilning, ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida qo'llaniladigan ko'rinish **nutq uslublari** deyiladi.

**O'zbek tilining nutq uslublarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga esa, o'zbek tili uslubiyati** deyiladi.

Kundalik hayotda uyda, ko'cha-ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi **so'zlashuv uslubi** orqali yuzaga chiqadi.

So'zlashuv uslubining o'zi ikki turga bo'linadi:

**1) adabiy so'zlashuv uslubi; 2) oddiy so'zlashuv uslubi.**

**Ma'lum adabiy til me'yorlariga bo'ysungan, tartibga solingan so'zlashuv uslubiga adabiy so'zlashuv uslubi** deyiladi.

Adabiy tilning og'zaki shakli adabiy so'zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radio eshittirishlari, televidenie ko'rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi.

**Adabiy til me'yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so'zlashuv uslubi** sanaladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari bo'lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo'l qo'yiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida gap bo'laklarining tartibi ham ancha erkin bo'ladi. Ba'zan shevaga xos so'zlar, qo'pol, dag'al so'zlar ham kuzatiladi, lekin bularni qo'llash so'zlovchining madaniy nutq sohibi emasligini ko'rsatadi.

## Publitsistik uslub

**Publitsistika** (*lat. publika «xalq, omma»*) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televidenie orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta, jurnal, radio, televidenie), Oliy majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamphletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqning nutqlari esa, publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o'zi, masalan, gazeta, radio, televideniya beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o'zida berilayotgan reportaj, pamphlet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko'rinishlari sanaladi. U ham bo'lsa, nutqning jamiyatga qaratilganidir.

## Badiiy uslub

**Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi.**

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, o'zdek shevalariga, kash-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.

Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish) dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so'zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

## Rasmiy uslub

Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo'llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Sof qonunchilik uslubi** (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi);

2. **Idoraviy-devonxona uslubi** (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar.)

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan holi bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – **axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi** amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi **III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar** orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). **Ma'lumotnomada** esa, birinchi gapning kesimi **gap boshida** keladi.

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. *Masalan, «Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G'. Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi...»*

## Ilmiy uslub

**Ilm-fan sohasida qo'llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.**

Ilmiy uslub daliliy ma'lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta'rif-qoidalarga) ega bo'lish, atamalarining keng qo'llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi: 1) **sof ilmiy uslub**; 2) **ilmiy-ommabop uslub**.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatgina qo'llaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma'lum sohasiga doir atamalar keng qo'llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa, **fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish**



maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo'ladi. Ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning o'zi ham fan tarmoqlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. **Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa**, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi.

## **Ma'lumotnona matni va ijodiy-tavsifiy matn**

**Ma'lumotnoma** matnida bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi. Bunday matnda so'zlarning ko'chma ma'nolaridan, tilning badiiy- tasviriy vositalaridan deyarli foydalanilmaydi, voqea-hodisa oddiy va aniq bayon qilinadi.

**Ijodiy-tavsifiy matn** so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir.

Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan ta'riflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir.

**Ilmiy, publitsistik va badiiy uslublar**, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlaridir.

## **Uslubiyatga oid asosiy atamalar**

**Badiiy uslub** — ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo'l bilan tinglovchiga estetik ta'sir etuvchi nutq uslubi.

**Ilmiy uslub** — daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub.

**Rasmiy uslub** — adabiy tilning rasmiy yozma shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qoli p, qat'iy odat tusigakirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi.

**Publitsistik uslub** — ommaviy axborot vositalari uslubi.

**So'zlashuv uslubi** — oilada, ko'cha-ko'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi.

**Uslubiy betaraf so'zlar** — qo'llanishi ayrim nutq uslubi bilan chegaralanmaydigan so'zlar.

**Uslubiy xoslangan so'zlar** — ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar.

## Uslubiyat bo'yicha test 1-variant

- So'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lgan gapni toping?
  - Quyosh hamal yulduzlar burchiga o'tishi bilan kunlar isiy boshladi
  - Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazdik
  - Yo'lchi mashaqatlar, qiyinchiliklar ichida bo'lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o'tkazdi
  - Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashladi
- Qaysi fanlar uslubi publitsistik uslubga yaqinroq turadi?
  - Biologiya, chizmachilik
  - Tarix, adabiyotshunoslik
  - Matematika, kimyo
  - Fizika, kimyo
- Badiiy uslubning kommunikativ vazifasi deganda nima tushuniladi?
  - Ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish
  - O'quvchiga ta'sir qilish
  - Muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik
  - Tasviriy ifodalarni qo'llash
- 1) ilmiy uslub; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub  
Ushbu uslublardan qaysilari ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishi sanaladi?
  - Faqat 3
  - 1, 2, 3
  - 2, 3
  - 1, 2
- Qaysi bog'lovchilar faqat yozma nutq uslubida qo'llaniladi?
  - Sabab bog'lovchilari
  - Shart bog'lovchilari
  - Chog'ishtiruv bog'lovchilari
  - Aniqllov bog'lovchilari
- Qaysi javobda ilmiy uslub namunasi berilgan?
  - Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G. Mo'minov, haqiqatdan ham, O'zbekiston Milliy Universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi
  - Dalalarning keng quchoqlaridan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz og'zidan chiqqan unlarni o'z qanotlariga mindirib, allaqayerlarga, o'lislarga olib ketardilar
  - Milliy mafkura. Millatning tub manfaatlarini nazariy asoslab berishga va himoya qilishga da'vat etilgandir, uning bosh vazifasi ham shudir
  - Ikkinchi darajali bo'laklar fikrni to'laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi
- Qadimgi turkiy tilda qo'llangan art so'zining ma'nosi qaysi javobda keltirilgan?
  - Tepa, dovon
  - Urug', zot
  - Toza, musaffo
  - san`at, go'zallik

8. Quyidagilardan qaysilari publitsistik uslubning yozma shakliga mansub?

1. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar; 2. Felyetonlar; 3. Pamfletlar; 4. Murojaatnomalar; 5. Ilmiy xulosalar; 6. Deklaratsiyalar; 7. Chaqiriqlar

A. 1,2,3,4,6,7    B. 1,2,3,4,5,6    C. 1,2,3,4    D. 1,2,3,4,5,6,7

9. Quyidagilardan qaysi publitsistik uslubning og'zaki shakliga mansub?

1. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar; 2. siyosiy sharhlovchilar; 3. Pamfletlar; 4. Murojaatnomalar; 5. Notiqning nutqi; 6. Deklaratsiyalar.

A. 1,2,3,4,5,6    B. 1,2,3,4,6,    C. 1,2,3,4    D. 1,2,3,4,5

10. Rasmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlang

1 ... ning belgisi, qisqalik, soddalik, aniqlikdir.

2 ... atamalar, ta'riflar, qoidalar, asosida ish ko'radi

3 ... dan iborat vajumlalar bir qoli pdabo'ladi

4 ... fan va texnika tili sanaladi

5 ... da so'zlar ko'chma ina'noda ishlatilmaydi

A. 1, 3, 5    B. 1, 4, 5    C. 1, 3, 4    D. 1, 2, 4

11. Ijbiy va salbiy bahoga ega bo'lishiga ko'ra farqlanuvchi fe'llar qatorini belgilang.

A. Jilmaymoq – kulimsiramoq – kulmoq

B. So'zlamq – nutq irod etmoq – gapirmoq

C. So'zlamq – to'ng'illamoq – ming'irlamoq

D. Kulmoq – tabassum qilmoq – iljaymoq

12. Qaysi javobda badiiy uslub namunasi beriigan?

A. Milliy mafkura millatning tub manfaatlarini nazariy asoslab berishga va himoya qilishga da'vat etilgandir, uning bosh vazifasi ham shudir

B. Dalalarning keng quchoqlaridan uchib kelgan mayin shabadalar qiz og'zidan chiqqan unlarni o'z qanotlariga mindirib allaqayerlarga, olislarga olib ketardilar

C. Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G. Mo'minov, haqiqatdan ham, O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbarsi lavozimida ishlaydi

D. Ikkinchi darajali bo'laklar fikrni to'laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi

13. Badiiy uslubning kommunikativ vazifasi deganda nimani tushuniladi?

A. Muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik

B. Tasviriy ifodalarni qo'llash

C. O'quvchiga ta'sir qilish

D. Ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish

14. Qaysi uslublar o'g'zaki, ham yozma shakllarga ega?  
1. Publitsistik uslub; 2. Badiiy uslub; 3. Rasmiy uslub; 4. Ilmiy uslub; 5. So'zlashuv uslub.

A. 1,2,3,4      B. 1,2,4      C. 1,2,3,4,5      D. 1,2,3

15. Quyidagi hujjatlarning qaysi biri rasmiy uslubning di plomatikuslub turida yoziladi?

A. Jinoiy akt      B. Konvensiya      C. Bildingi      D. Qonun

16. Eski o'zbek tiliga mos butradi fe'lining ma'nosi to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang.

A. To'zg'idi, sochildi      B. Tarqaldi, ketdi  
C. Bitdi, tugadi      D. Eskirdi, aynidi

17. Qaysi javobda rasmiy uslub namunasi berilgan?

A. Milliy mafkura millatning tub manfaatlarini nazariy asoslab berishga va himoya qilishga da'vat etilgandir, uning bosh vazifasi ham shudir

B. Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G. Mo'minov haqiqatdan ham O'zbekiston Milliy universitetning matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi

C. Ikkinchi darajali bo'laklar fikrini to'laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi

D. Dalalarning keng quchoqlaridan uchib kelgan mayin shabadalar qiz og'zidan chiqqan unlarini o'z qanotlariga mindirib allaqayerlarga, olislarga olib ketardilar

18. Xanjarni qindan sug'irib oldi-da, damini oydinga solib boqdi.

A. lahza, nafas, chet, tig'      B. lahza, chet, nafas, tig'  
C. lahza, tig', chet, nafas      D. lahza, nafas, tig', chet

19. Berilgan gaplarda dam so'zi qanday so'zlarga ma'nodosh bo'la olishini mos ravishda aniqlang.

1. Bir dam o'zini yoqotib, esankirab qoldi.

2. Ot pishqirgan damiga erir tog'dagi qorlar.

3. Ibrohimov oyog'ini yozgani o'rnidan turdi va ayvonning damiga borib ... uzoqdagi kaptarrang tog'larga qaradi. 4. Xanjarini qinidan sug'urib oldi-da, damini oydinga solib boqdi.

A. lahza, nafas, chet, tig'      B. lahza, chet, nafas, tig'  
C. lahza, tig', chet, nafas      D. lahza, nafas, tig', chet

20. Bedav boylovda semirar,

Qo'y-qo'zi yaylovda.

Ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi javobda to'g'ri izohlangan

A. o'ynoqi      B. yuvosh      C. yovvoyi      D. oriq

21. Quydagilardan qaysi xususiyat publitsistik uslubga xos?

- A. kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'lishi
- B. axborot berish va ta'sir qilish; obrazlilik
- C. soddalik, tushunarlilik, ta'sirchanlik
- D. adabiy til me'yoriga qat'iy amal qilish

22. 1. Xufton nomozidan so'ng poychiroq yonida o'tirib, Fuzuliy devonini varaqlar edi.

2. Ikkisi birga devonga kirdilar.

3. Devonda yonboshlab yotgan Abbosxon Saidiyning hurmatiga g'imirlab qo'ydi.

Berilgan gaplarda qo'llangan devon so'zi haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.

- A. Uchala gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llanilgan
- B. Birinchi va ikkinchi gapdagi devon so'zi uchinchi gapdagi devon so'ziga nisbatan shakldosh
- C. Ikkinchi va uchinchi gapdagi devon so'zi birinchi gapdagi devon so'ziga nisbatan shakldosh
- D. Uchala gapda shakldosh so'zlar qo'llanilgan

23. Adabiy til uslublarning qaysi biri inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi?

- A. ilmiy uslub
- B. badiiy uslub
- C. publitsistik uslub
- D. so'zlashuv uslubi.

24. O'ng qo'lidagi dastro'mol bilan diydasini artadi.

Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nodoshini qaysi javobda berilgan?

- A. yosh
- B. peshona
- C. ko'z
- D. bosh

25. Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qanshariga musht tushdi.

Qanshar so'zi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Burunning ikki qosh o'rtasidagi yuqori qismi
- B. Yuzning jag' qismi
- C. Boshning orqa qismi
- D. Peshonaning chakka qismi

26. Dunyoda divonat hali mavjuddir,

Hali mard yigitlar yashab yuribdi.

Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nodoshini toping.

- A. Vijdon
- B. Yorug'lik
- C. Savob
- D. Haqiqat

27. To'g'risi, zahar olud maktubingizga odamlarcha tushuna olmadim.

Olud so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A. Alamli
- B. Qorishgan
- C. Yanglig'
- D. Achchiq

28. Bu uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasida amalga oshadi. Ushbu ta'rif adabiy til uslublarning qaysi biri haqida?

- A. publitsistik uslub                      B. rasmiy uslub  
C. so'zlashuv uslubi                      D. ilmiy uslub

29. Quyidagi uyadosh so'zlarning o'sib borish ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A. Qulun, toy, do'nan                      B. qulun, do'nan, toy  
C. toy, qulun, do'nan                      D. toy, do'nan, qulun

30. «Davlat tili haqidagi» Qonunning qaysi moddasida davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidasi va normalariga rioya etilishi qayd qilingan?

- A. 10-moddasida                      B. 5-moddasida  
C. 16-moddasida                      D. 7-moddasida

31. Uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan so'z ishtirok etgan gapni toping.

1. Mashina devon tepasiga ko'tarildi  
2. Otning afzalini shayladi  
3. O'zbek xalqi ichidan o'nlab daholar yetishib chiqqan  
A. 3                      B. 1                      C. 1, 2                      D. 2

32. Sof qonunchilik uslubi, idoraviy uslub, diplomatik uslub – bular qaysi uslubning turlari (ko'rinishlari) hisoblanadi?

- A. ommabop                      B. badiiy                      C. so'zlashuv                      D. rasmiy

33. Qaysi adabiy til uslublari yozma shakllarga ega? 1. So'zlashuv uslubi; 2. Publitsistik uslub; 3. Badiiy uslub; 4. Rasmiy uslub; 5. Ilmiy uslub.

- A. 1, 2, 3                      B. 2, 4                      C. 2, 3, 4, 5                      D. 3, 5

34. Ilmiy uslubning ko'rinishlari (ichki guruhlari) qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. rasmiy                      B. ish qog'ozlari  
C. sof va ilmiy ommabop                      D. ommabop

35. Qaysi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?

1. Besh asirkim nazmiy saroyini titratadi zanjirband bir she'r  
2. Urish, noming o'chsin jahonda!  
3. Sanat saroyiga konsert tomosha qilgani bordik.  
4. Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi  
A. 2, 3                      B. 1, 3                      C. 1, 2, 3, 4                      D. 1, 2, 3

36. Quyidagi hujjatlarning qaysi biri rasmiy uslubning idoraviy-devonxona uslubi turida yoziladi ?

- A. qonun                      B. jinoiy aktlar                      C. bildirgi                      D. konvensiya

## 2-variant

1. Qaysi qatorda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

- A. Mashhur bog'bon Darvesh hoji shaftoli, olhirot ko'chatlarini o'tqazdi
- B. Olisdagi qarindoshdan yaqindagi yod yaxshi
- C. Davraga dutor, tambur, g'ijjak, nay, doira ko'tarib mashshoqlar kirib keldi
- D. Salimning gapi borgan sari unga ko'proq nasha qilar edi

2. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

A. Do'stim, nimaning ko'yida yuribsiz?  
B. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuyga soladi

- C. Men ham uning ko'yida sargardonman
- D. Bastakor she'rga kuy bastalamoqda

3. Qaysi qatordagi paronim juftlikda birining o'rimga ikkinchisini yozib qo'yish uslubiy va imloviy xatoni yuzaga keltiradi?

- A. Yod-yot, hiyla-xiyla, tana-ta'na
- B. Og'u-ohu, oldir-o'ldir, o'lat-o'ladi
- C. Jazo-javzo, hordiq-horidik, karam-qalam
- D. Olam-olim, o'zlik-ozlik, varaq-barak

4. Ajratilgan bo'laklarning uslubiy xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A. Ajratilgan bo'laklar yordamida shaxs va predmet belgisi odatdagidan bir oz orttiriladi

B. Ajratilgan bo'laklar yordamida shaxs va predmet belgisi odatdagidan bir oz qabartiriladi

C. Ajratilgan bo'laklar yordamida shaxs va predmet belgisi boshqa shaxs va predmetga ko'chiriladi

D. Shaxs va predmetga tinglovchi-o'quvchining e'tibori tortiladi

5. Qaysi gapda qaratqich-aniqllovchi belgisi qo'llanishi kerak?

- A. Jarang-jurung qadah ovozlari yangradi
- B. Eski uyimiz yonida uch xonali yangi uy qurib oldik
- C. Maktab binosi oldida to'xtadik
- D. Keksalar oppoq soqollari namlangan edi

6. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi. Ushbu gapda qo'llangan chiqish kelishigi qaysi kelishik bilan ma'nodosh (sinonim)lik munosabatida bo'lishi mumkin?

- A. Tushum kelishigi bilan  
C. O'rin-payt kelishigi bilan
- B. Faqat orqali ko'makchisi bilan  
D. Jo'nalish kelishigi bilan

7. Ko'plikdagi kishilik olmoshlarining qaysi biri uslubiy talab bilan birlikni ko'rsatuvchi olmosh o'rnida kelishi mumkin?

- A. Ular  
C. Biz
- B. Biz, siz, ular  
D. Biz, siz

8. Ifor so'zining ma'nodoshi qaysi javobda berilgan ?

- A. chiroy  
C. ko'rinish
- B. hid  
D. tuzilish

9. Quydagilardan qaysilari publitsistika uslubining yozma shakliga mansub emas?

1) ijtimoiy siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar 2) ariza 3) pamfletlar 4) murojaatnomalar 5) dalolatnoma 6) deklaratsiyalar 7) bitim

- A. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7  
C. 2, 5, 7
- B. 1, 2, 3, 4, 6, 7  
D. 1, 2, 3, 4, 5, 6

10. So'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lgan gapni toping?

- A. Aholi nufuzi ortmoqda  
B. Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazildi  
C. Yo'lchi mashaqqatli, qiyinchiliklar ichida bo'lsa ham faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o'tkazdi.  
D. Bu odamni Toshkentning to'rt dahasi biladi.

11. Radio, televideniya orqali uzatiluvchi suhandon va jurnalist nutqi qanday til shakli hisoblanadi?

- A. og'z'aki adabiy til  
C. og'z'aki badiiy til
- B. yozma adabiy til  
D. yozma badiiy til

12. Qaysi qatordagi gapda -ni qo'shimchasi uslubiy noto'g'ri qo'llangan?

- A. U otini mindi-yu, odamlarni ergashtirib tog' tomon ketdi.  
B. Botirlari kanal qazadi. Naqshdorlar saroy quradi  
C. Chopon dashtni kezib yuradi  
D. ...Fikrni ravon uslubda izchil bayon etish, orfografiya va punktuatsion jihatdan sodda ifodalash hal qiluvchi ro'lni o'ynaydi.

13. Rasmiy uslubga uslubga tegishli bo'lgan qaror, farmonlarning kesimi qaysi nisbatda bo'ladi?

- A. o'zlik nisbat  
C. aniq nisbat
- B. majhul nisbat  
D. birgalik nisbat

14. Qaysi javobda badiiy uslub namunasi berilgan



A. Milliy mafkura millatning tub manfaatlarini nazariy asoslab berishga va himoya qilishga da'vat etilgandir, uning bosh vazifasi ham shudir

B. Dalalarning keng quchoqlaridan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz og'zidan chiqqan unlarni o'z qanotlariga mindirib alaqayerlarga – olislarga olib ketardilar

C. Ushbu ma'lumot nomani ko'rsatuvchi G. Mo'aminov, haqiqatan ham, O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimda ishlaydi

D. Ikkinchi darajali bo'laklar fikrni to'laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi

15. «Davlat tili haqida»gi qonunning qaysi moddasida O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi berilishi qayd etilgan?

A. 6-moddada B. 4-moddada C. 7-moddada D. 9-moddada

16. Qaysi turkumga oid so'zlarning rasmiy va ilmiy uslubda qo'llanish doirasi nihoyatda cheklangan?

A. undov so'zlar B. taqlid so'zlar  
C. modal so'zlar D. bog'lovchilar

17. Quyidagi gaplarning qaysi birida so'z qo'llashga oid uslubiy xato mavjud?

A. Go'zal qiz Oysuluvning basharasida ter ko'rindi  
B. O'zi homush, yuzlari solg'in edi  
C. Xabarni eshitib qizning chehrasi yorishdi  
D. Afting qursin deb qarg'adi

18. 1) ilmiy uslub 2) publitsistik uslub 3) badiiy uslub

Ushbu uslublardan qaysilari ijodiy-tavsifiy matining ko'rinishi sanaladi.

A. Faqat 3 B. 2, 3 C. 1, 2, 3 D. 1, 2

19. Til bilan nutiqning o'ziga xos xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobning belgilang

A. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa, har bir shaxs yaratadi  
B. Til doim harakatda o'zgaruvchan bo'lib, nutq nisbatan turg'un va barqarordir

C. Tilni hajmi noaniq, nutqning hajmi esa, aniqdir  
D. Til aloqa materiali bo'lsa, nutq aloqa shaklidir

20. Quyidagilardan qaysilari publitsistik uslubining yozma shakliga mansub.

1. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar; 2. Felyetonlar; 3. Pamfletlar; 4. Murojaatnomalar; 5. Ilmiy xulosalar; 6. Deklaratsiyalar; 7. Chaqiriqlar:

A. 1,2,3,4,6,7 B. 1,2,3,4,5,6, C. 1,2,3,4 D. 1,2,3,4,5,6,7

21. Quyidagi gapda qo'llangan ko'lanka so'zining manodoshini toping. Abdurahob ayvondagi ko'lankaga o'tirdi, o'g'ilchasini tizzasiga olib peshanasidan o'pdi.

- A. Soya      B. Yer      C. Ko'rpacha      D. Gilam

22. Qaysi birikmalar tarkibida -li va -lik qo'shimchalar to'g'ri qo'llangan

- A. O'zbekistonli sportchilar, yog'li palov  
B. O'zbekistonli sportchilar, yog'lik palov  
C. O'zbekistonlik sportchilar, yog'li palov  
D. O'zbekistonlik sportchilar, yog'lik palov

23. Qaysi gaplarda -dan qo'shimchasi o'rnida -ni qo'shimchasi qo'llasa bo'ladi.

1. Solih mahdum hamon Ra'nodan koyib kelardi.  
2. Mehmonlardan yoshi ulug'i gapirdi.  
3. Ona qizining peshanasidan o'pdi.  
4. Bolaning kelganidan xursand bo'ldi.

- A. 1, 2      B. 1, 2, 3, 4      C. 1, 2, 3      D. 1, 3

24. Ushbu gap qaysi nutq uslubiga tegishli?

«Beshinchidan ikkita»

- A. badiiy      B. rasmiy      C. ommabop      D. so'zlashuv

25. Quyidagi hujjatlarning qaysi biri rasmiy uslubning idoraviy – devonxona uslubi turida yoziladi?

- A. qonun      B. jinoiy aktlar      C. bildirgi      D. konvensiya

26. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud bo'lmagan qatorni aniqlang.

- A. Salimning gapi borgan sari unga ko'proq nasha qilar edi  
B. Mashhur bog'bon darvesh xoji shaftoli, olho'ri ko'chatlarini otkazdi  
C. Olisdagi qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi  
D. Davraga dutor, tanbur, g'ijjak, nay, doira ko'tarib mashshoqlar kirib keldi

27. Qaysi qatordagi gapda qaratqich kelishigi o'rnida tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llangan?

- A. Yormat jahli chiqqanidan otlarni qamchilardi  
B. Latifjonni adasi so'zining ustidan chiqdi  
C. Navoiy gulni sevardi  
D. Birlashgan yovni qaytarar

28. Quyidagi gapda qo'llangan chiqish kelishigi qaysi kelishik bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'lishi mumkin?

Shunday kichik teshikdan sigirning sig'ishi aqlga sig'maydi.

- A. Tushum kelishigi bilan                      B. O'rin-payt kelishigi bilan  
C. Orqali ko'makchisi bilan                    D. Jo'nalish kelishigi bilan

29. Qaratqich o'rni tushum kelishigi noto'g'ri qo'llangan gapni aniqlang.

A. Otdan tushib jilovni Ortiqqa berdi-yu, o'zi direktorni molxonalar tomon boshlab ketdi

- B. Ongni eskirgan g'arazli maqsadlardan tozalash mavjud  
C. Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtasang adashur  
D. Qaynanasini kasalligi sababli kuyovning akasi mehmonlarni kutdi

30. Mehr-muhabbatga to'y maydi inson. Ushbu gapda jo'nalish kelishigi o'rnida qaysi kelishikni sinonim sifatida qo'llash mumkin?

- A. qaratqich kelishigini                      B. tushum kelishigini  
C. o'rin-payt kelishigini                    D. chiqish kelishigini

31. Quyidagi gaplarning qaysi birida tushum kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigini qo'llash mumkin?

- A. Butun dalani o'quvchilarning shovqini tutib ketdi  
B. Dam oluvchilar tog' havosini maqtab ketishdi  
C. Nima dedingiz? Gapingizni tushunmadim  
D. Shoir yangi yozgan she'rini o'qib berdi

32. Qaysi qatoridagi gapda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin emas?

- A. Qishdan ming mashaqqatda chiqib olishdi  
B. Xatni qizil siyohda yozgan edi  
C. Kecha poyezdda kelibdi  
D. Xalq maqollarida chuqur zukkolik bor

33. So'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lgan gapni toping.

A. Qomatiga ishongan qaddini bukib ketadi, ko'pchilikka ishongan maqsadiga yetadi

B. Shahidbek maxdumning mahalla ahillaridan bo'lib, Xudoyorxon zakotchilarining biridir

- C. Birpas bo'shadi deguncha, kitob ustiga mukkalaydi  
D. Kumushning bu daqiqadagi holini qalam bilan chizib ko'rsatdi

34. Qaysi gapda paronimlar noto'g'ri qo'llangan?

- A. Yoriq joyni yamash uchun rosa harakat qildi  
B. Ularning hayoti shunchaki bir ro'zg'or tebratish taxlitida o'tdi  
C. Bir asrga tatigulik yillarni bosib o'tdik  
D. Qadr bilmas qarindoshlardan qadr qilgan yoe yaxshi

35. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A. Otabek hovlining o'rtasida, tut yog'ochining yoniga kelib to'xtagan va janubda kishi yo'qmi deb alanglar edi

B. Mayin tong shabadasi rang-barang gullarni sekin tebratib, atirlarini har yoqqa sepadi

C. Muhabbat juda oz yigitlarga nasib etadigan yurak javharidir

D. Doniyor shanba kuni bo'ladigan to'yga ko'mir, o'tin kabi yonilg'ilarni tayyorlab qo'ydi

36. Berilgan qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A. Quدرات ko'cha aylanib uyga kirsa, hech zog' yo'q

B. Zilola yodsirab, qovog'ini solib teskari burildi

C. Milliard yillar sari yo'l olgan avlodlarning ibtidosiman

D. Anzirat xola o'z-o'zidan javrab, qorong'ida ivirsib yurar edi

---

---

## TINISH BELGILARI

### Nuqta va uning qo'llanilishi

Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan.

Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

**1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan so'ng.**

*Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqularga ham ravo ko'rma. Farzandlarimiz doimo sog'lom bo'lsin.*

**2. Atov gaplardan keyin.**

*Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.*

**3. Ismi, otasining ismi (ba'zan familiyasi ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng.**

*A. Navoiy, A. Fitrat, A. Cho'lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S. Pushkin – rus poeziyasining quyoshi.*

**4. Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng.**

*Va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so'zlashuv tilida); G'.G'. (G'afur G'ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); «O'qituvchi» nashriyoti, 1995-y.*

**5. Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin.**

*Bobodehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg'in.*

**6. Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi: 25. 05. 2013.**

**7. Butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatilishi mumkin.**

*Tovushlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.*

**8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi.  $3 \cdot 3=9$  (uch karra uch to'qqiz).**

## Vergul va uning qo'llanilishi

Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o'rinlarda foydalaniladi.

### 1. Uyushiq bo'laklar orasida.

*Bolalarning xulqi, odohi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tutishi, do'stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim.*

### 2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi.

*Uka, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi. Men Sizni, oyijon, juda yaxshi ko'raman. Salom sizga, purviqor tog'lar!*

### 3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng.

*Shubhasiz, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o'zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'yiladi.

*Ha, hushyor bo'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz. Xo'sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o'ylab ko'rdingizmi?*

### 5. Ajratilgan bo'laklar orasida.

*Onaga, eng ulug' zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O'zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, demokratiya kundan-kunga barqarorlashib bormoqda.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga.

*Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.*

### 7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi.

*Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetaklamasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.*

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi.

*Ey, menga bir minutga qarab qo'ying.*

### 9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi.

*«Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmog'i lozim», deb ayrgan edi Abu Rayhon Beruniy.*

## So'roq belgisi va uning qo'llanilishi

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* — so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan.

So'roq belgisi quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

### 1. So'roq gaplarning oxirida.

*Navoiyning tilshunoslikka bag'ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo'ldim (darak gap). Vazifani bajarib bo'ldim? (ohang o'zgaradi). Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi?*

### 2. Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roq olmoshlaridan so'ng.

*Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi.*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga qo'yiladi. «Toping!» ma'nosida.

*Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» qissasida (?) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi.  $5 \cdot 5 = ?$  (matematikada).*

## Undov belgisi va uning qo'llanilishi

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarining fikricha, u lotincha *lo* — undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi:

### 1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng qo'yiladi.

Oqqodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.

*— Ana tuproq, mana tuproq! — deydi. — Bo'rsildoq tuproq, mag'izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq! (Tog'ay Murod)*

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi.

*« — Siz ham oyoqni ishlating! — deb buyurdi. — Suv ostida o'pqqonlar ko'p, tortib ketmasin!» (P. Qodirov)*

3. So'z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng qo'yiladi.

*Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fothangni ber! (A. Fitrat).*

4. Ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng qo'yiladi.

– *Balli-balli!* – *dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi.*

– *Yo‘q! Borolmayman, – dedi qayrilib. (A. Qodiriy)*

5. Matn ichida alohida ta’kidlangan, ajratib ko’rsatilgan so’zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin.

«*Boburnoma*»da *tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g‘oyat qimmatli ma‘lumotlarni uchratish mumkin.*

6. Aytilishi lozim bo‘lgan fikr o‘ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta undov belgisi qo‘yiladi.

*Charos kaft: bilan yuzini to‘sgancha o‘zini orqaga tashladi.*

– *A-a-a!!! – dedi chinqirib. (O‘. Hoshimov)*

– *Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.*

– *Xanjarimiz qonsirag‘on! (A. Qodiriy)*

7. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq, shuningdek, ritorik so‘roq gaplardan so‘ng.

*Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog‘insang, qanday baxt bu!*

*(O‘. Hoshimov)*

## Qavs va uning qo‘llanilishi

Qavs o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab «*Turkiston viloyatining gazetisi*»da 1873-yilda ishlatilgan.

U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. *Kiritma gaplarda. O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o‘rinda turadi), eksport bo‘yicha AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.*

2. *Remarkalarda. Xon (yolg‘iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turih yuradir). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (A. Fitrat)*

3. *Olingan misollar yoki gaplar manbayida. Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir. (Ahdulla Avloniy) Jannat onalar oyog‘i ostidadur. (Hadisdan). «Qasosli dunyo». («Avlodlar dovoni» romanidan)*

4. *Izoh ma‘nosidagi so‘z yoki so‘z birikmalarida.*

*Ro‘za hayiti (Iyd al Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al Adha)ning birinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyati (demos – xalq, kratos – hokimiyat) ma‘nosini bildiradi.*

5. *Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. «Qutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»). Shuhrat (G‘ulom Aminjonovich Olimov) atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biridir.*



Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi.  $(60+16) - 25 = ?$  ko'rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko'p uchraydi. Masalan, egalik qo'shimchasi qo'shilganda shah [a] ri, o'r [i] ni, sing [i] lisi so'zlaridagi «a», «i» tovushlari qoidaga ko'ra tushiriladi kabi.

## Ko'p nuqta va uning qo'llanilishi

Ko'p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran, «Turkiston viloyatining gazetida» muntazam qo'llangan.

Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida.

*To'ra biroz o'ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi.*

– *Mana shu imperiya...*

*Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho'lpon)*

2. So'zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun.

*Do'xtir ayol og'iz berkitib piq-piq yig'ladi.*

– *Men... men O'zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, – deya yig'ladi.*

– *Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a.. (T. Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...*

3. Matn (jumla) qisqartirilsa.

– *Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?*

– *Xo'sh, xo'sh?*

– *Ilkimdin kelguncha... – deb boshlanar edi.*

– *Ha-ha, bo'tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur.*

*(X. To'xtaboyev).*

4. Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa.

*Muhammadyor yolg'iz:*

– *Turkistonda birinchi m...m...m... artaba iia... t...t...tr, – dedi-da, fikrg'a toldi. (A. Cho'lpon).*

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa.

– *Manavi dub eshiklaringizni yelkamdu tashib kelganman.*

*Tushudingizmi?*

– ...

– *Tushudingizmi, deyaрман? (X. Sultonov)*

6. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rnida.

Nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib ko'chirib yozing.

Xayri...x, a...loq, ...abar.

## Tire va uning ishlatilishi

Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida.

– *Amaki, o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimizni bilasizmi?*

– *Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo'q.*

– *Siz tabihmisiz o'zi?*

– *Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo'lsaman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo'lmasa yo'q.*

– *Nima, mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi? – dedi Kesakpolvon g'ijinib.*

– *Olloh bir meniki emas, barchamizniki, – dedi chol ovozini bir parda ko'tarib. – Siz nomusulmon odamga o'xshab so'zlar ekansiz. (T. Malik).*

2. Bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida.

*Til – millatning qalbi. Yer – don, dehqon – xazinabon. Mehnating – boyliging.*

3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin.

*O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik – barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.*

4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida.

*«Oddiylik axloqiy barkamollikning hosh shartidir», deb yozgan edi L.N. Tolstoy.*

5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida.

*1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:*

– *«Amir Temur» ordeni;*

– *«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa.

*Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.*

7. Ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtasida.

*O'zbekiston Milliy sug'urta kompaniyasi – «O'zbekinvest». Veksel – qimmatli qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.*

8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida.

*Vaqting ketdi – baxting ketdi.*

9. Kirishlar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi.

*Biz – yoshlar – millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida – bir paytlari bu yerdan turib ulug' bobomiz osmon ilmini o'rgangan edi – katta ko'lamda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.*

**10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida:**  
*Toshkent – Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda.*

**11. Nashr, kitobat ishlarida.**

**H. Sultonov.** Onamning yuri. Qissa va hikoyalar. – T., G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

Hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda (tire) ayirish (minus) belgisini bildiradi: 307–23. Bugun Toshkentda – 3<sup>o</sup> C sovuq bo'ladi.

## Qo'shtirnoq va uning qo'llanilish o'rinlari

Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A. Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda ishlatiladi.

**1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi.**

*«Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa», – degan edi Sa'diy Sheroziy. I. V. Gyote shunday deb aytgan edi: «Donishmandlik faqat haqiqatdadir». «Er kishiga zeb-u ziynat, – degan edi Alisher Navoiy, – hikmat va donishdir».*

**2. Sitatalar qo'shtirnoq ichida yoziladi.**

*Buyuk yozuvchimiz A. Qahorning quyidagi gaplari hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: «Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: biri asari bilan tutah, biri yashnab kiradi.*

*Tutah kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko'nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho'g'day yashnab kirgan yozuvchi asardan-asarga yashnayveradi...»*

**3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatliq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichiga olinadi.**

*...oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning «jinoyati» o'n bir yillik qamoq bilan «taqdirlandi». (T. Malik)*

*«Xalq artisti», beliga o'q tekkanday erta-yu kech to'rdagi karavotga yonboshlab «Teatr» jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo'lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E. A'zamov)*

**4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi.**

*«Lison ut-tayr» («Qush tili») asari haqida suhbatlashdik.*

*«Ma'rifati» gazetasi, «Saodat» jurnali, «Mening oppoq kabutarlarim» spektakli, «Sohibqiron» dramasi, «Amir Temur» portreti.*

**5. Korxonalar, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi.**

*«Bilayn» qo'shma korxonasi, «Kochxolding» konserni, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Istiqlol» tennis sport majmuyi, «Diyor» savdo uyi, «Ekosan»*

xalqaro jamg'armasi, «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniysi, «GM – O'zbekiston» qo'shma korxonasi, «O'zbekiston» mehmonxonasi.

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi.

«Neksiya» rusumli yengil mashina, «Boing» samolyoti, «Otayo'lb» avtobusi, «Rayhon» alkogolsiz ichimligi, «Kibo» oyoq kiyimi, «Hojimatov damlamasi».

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi.

«El-yurt hurmati» ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'sis etildi. Professor Q.G' Abdullayev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi.

1995-yilning 6-may kuni «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida» Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida beriladi.

9-«B» sinfi «Quvnoqlar va zukkolar» bahsida g'olib chiqdi. O'qituvchimiz bugungi javobimiga «besh» haho qo'ydi.

## Ikki nuqta va uning qo'llanilishi

Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng.

Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman. (A. Qahhor)

2. Ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so'ng.

Bundan so'ng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo'ldanoq tanchada o'tiruvchi O'foboyim va Kumushga qichqirdi:

– Sir ochildi! (A. Qodiriy)

3. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin.

O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng.

Mavzu: «Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni».

Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qabul qildi:

1. Jamoaning Navro'z hayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.

*II. Navro‘z — umumxalq bayramini ko‘tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.*

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta‘minlash maqsadida turli xil rasmiy ma‘lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan keyin.

*Toshkentda «Mustaqil O‘zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an‘anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.*

6. Sport musobaqalarida raqiblar o‘rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun.

*Sidneydagi XXVII Yozgi Olimpiada o‘yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27:21 hisobi bilan yengdi.*

*«Andijon» va «Paxtakor» jamoalari o‘rtasidagi o‘yin durrang natija bilan tugadi — 2:2.*

*Hisob-kitob ishida bo‘luv alomati sanaladi — 50 : 2= 25.*

## Nuqtali vergul va uning qo‘llanilish o‘rinlari

Nuqtali vergul o‘zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi.

U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi.

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo‘lmagan hollarda.

*Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o‘quvchining ko‘z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o‘ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arzidigan va bu izzatga o‘zining jafokashligi, g‘ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg‘urishi bilan sazovor bo‘lgan bir chol keladi. (A. Qahhor)*

2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda.

*Ish kuchini elga herma, yerga ber; jamg‘armani selga berma, elga ber!*

*Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham;*

*Yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.*

3. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan keyin.

*Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va «O‘zbekiston» degan yozuv tilla rangda; g‘o‘za shoxlari va harglari, vodiylar yashil rangda; tog‘lar havo rangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.*

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida.

*Otabek timsoliga tavsif:*

a) Otabek — o‘qimishli, o‘z davrining yetuk kishisi;

b) Otabek — mard va jasur yigit;

c) Otabek — o‘z ahdiga sodiq, vafoli yor.

## Tinish belgilarining qo‘shaloq holda ishlatilish o‘rinlari

O‘zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma‘nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo‘llash hollari ham uchrab turadi. Ularning qo‘llanilishidagi asosiy o‘rinlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq gaplar oxirida so‘roq va undov belgilari ketma-ket qo‘yiladi.

– *Axir, ablah, – derdi Yunus, – birovning uyiga oyog‘ingni artmasdan kirgani iho qilasan, nega havoni bulg‘atgani ibo qilmaysan?! (A. Qahhor)*

2. So‘roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo‘yilishi mumkin. *Ey, purviqor tog‘lar! Nega jimsizlar, nega!!! (A. Cho‘lpon)*

3. So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi.

«*Ertaga! – deya xotirjam dilidan o‘tkazdi va birdan to‘xtadi. – Xo‘sh, ertaga nima bo‘ladi?..» (N. Qilichev) Berkinboy tuyusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:*

– *Topdi-mm!. Topdi-im!.. (Sh. Bo‘tayev).*

4. Muallif gapi va ko‘chirma gaplar o‘rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin.

«*Adabiyot hunar, uni kashga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi, – deh yozgan edi A. Qahhor.*

### Tinish belgilarining qo‘llanish holatlarini tushuntiring

1. Yangi shahar ko‘chalari quruq va toza, ilk bahor shamollari yoqimli esadi.

2. Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib, dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi: ko‘zlari jovdiraydi, hech kimni ko‘rmaydi.

3. Urilmoq ham foyda: pishiq bo‘lasiz, tajriba hosil qilasiz.

4. Bahor keladi, daraxtlar barg yozadi, gullar ochiladi, gul atrofida bulbullar sayraydi.

5. Elning bir so‘zi bor: o‘zingga ehtiyot bo‘l, qo‘shningni o‘g‘ri tutma.

6. Bir vaqt dasturxon yozildi, turli taomlar kirdi.

7. Jismimiz yo‘qolur – o‘chmas nomimiz.

8. Kimki mehnatning zo‘rini qidiribdi – odamning sarasi ana shu.

9. Suv keldi – nur keldi.

10. Vali yana ertasiga ertalab saharlab uyg‘onganda, G‘ulomjon hujrasida yo‘q edi.

11. Said Jalolxon tovush chiqarmay uning yoniga o‘tirdi – u ko‘rmadi.

12. Yormat shahardan piyoda qaytib xorigani uchun, hamma otlarga Yo‘lchi qaradi.

13. Rais kirib keldi – majlis ochildi.

14. Yoz oxirida Samarqandda kechalari salqin, kunduzlari issiq bo'ladi: kechalari shabada tog'dan salqin va rohatbaxsh havo keltiradi.

15. Chol undan balandroq keldi: men brigadirlikdan tushmayman, deb chiqib ketdi.

16. Siz otam o'rniga otalik qildingiz, sizdan hech yomonlik ko'rmadim.

17. Sizning qilayotgan ishingiz yomg'irga o'xshaydi: har bir tomchisi don undiradi.

18. Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi, past-balandni ajratib olishadi.

19. Sultonmurod o'zini chetga olishga tirishdi, xalq to'liqini uni surib ketdi.

20. Ariqlar chiqardik – yovlar quritdi.

21. U yo'g'on gavdali, yakkam-dukkam. qizg'ish mo'ylovli; keng qoramtir yuzining yonoqlari bo'rtgan; kunlar isib ketgan bo'lsa ham, uning egnida qo'pol eski po'stini, boshida qunduzi qalin katta bo'rk.

22. To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz, maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz.

23. Ishning ko'zini bil – dala ham obod, choyxona ham...

24. Saída hunga juda suyundi: demak, hisobot yuzasidan bo'ladigan muzokara qizg'in tus oladi.

25. Sen o'g'linsan, xotining kelinim.

26. Qarg'a aslo kaklikka teng kelolmas, Arslongina kuchli fildan yengilmas.

27. Yer tosh qotgan, qor moylanmagan aravaday g'ichirlaydi.

28. Chol aqli odam: unga o'rgatish ham mumkin, undan o'rganish ham mumkin.

29. Men tirikman – yovga qolmaydi yurtim.

30. Qirq to'rt so'mdan yigirma yetti so'mni olib tashladik – o'n yetti so'm qoldi.

31. Kitob ajoyib bog'ga o'xshaydi: u kishiga doim zavq bag'ishlaydi.

32. Yurting tinch – sen tinch.

33. Ko'zim tirik ekan, men bilan muomala qilasis.

34. Paxtani qilg'il egat, bo'lar ekan kam mehnat.

35. Faxr bilan silkib qo'l,

Derlar: tilaymiz oq yo'l.

36. Angladim men, sendagi fikr,

Senga bo'lgan qarashlar yangi.

37. Shu fe'llari yaxshi: hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar.

38. Lekin qiyinchilik tortamiz, busiz bo'lmaydi.

39. Uzoqdan oq zar ko'ylakda ko'rinadiki tog'lar tepalar; Gar cho'zilib quyuv o'rmonlar ko'z o'ngidan asta o'tarlar.

40. Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham ( maqtanchoqlik yomon ko'rar edi), ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi.

41. Hayronman, yo hushingiz joyida emas, yo o'zingizni ovsar qilib ko'rsatyapsiz.

42. Bosh turmushim to'ri, ko'nglimning jo'ri? Bularning hammasi sen, Vatanim – onam.
43. Bilasanmi, Yo'lchi, bir shoir? – Bilmadim So'fi Olloyormi, shunday deganlar...
44. Ikki ovsin – Tursunoy bilan Sharofat – birga o'tirib hasratlashar edi.
45. Seni, hur va ozod, seni kuylayman.
46. Ey, Farg'ona! Tushkun kunlar bolasini tishida tishlab, yuvib, tarab, sevib, o'pib, quchib, o'pichlab, ey baxtlarni balog'atga yetkazgan ona!
47. Bu yerga kelgan u – xalq o'g'li, shoir, Vatan tog'lari sari ochib quchog'in.
48. – Eson-omonmisiz, Qutbiniso, – dedi tomdan turib.
49. Zavodlarda yigitlar – ilg'or Po'lat quyib, hayot quradi.
50. Endi odamlar – otliq, piyoda, yosh – qari – uchray boshladi.
51. Respublikamizdagi ko'plab pedagogika institutlari, masalan: Farg'ona, Namangan, Sirdaryo institutlari – universitetiga aylandi.
52. Jaladan so'ng daladagi narsalarning hammasi: polizdagi ekinlar, daraxt nihollari, hatto omonat chayla ham yer bag'irlagan edi.
53. Uyda ko'p ish qildi – supurdi, kir yuvdi, tozaladi.
54. Gulzorning narigi tomonida doroyi, husayni, yakdona, charos, kishmish – turli uzum ishkamlari bor.
55. Siddiqjon – qarol bola, bu – o'ziga to'q bir odamning qizi...
56. Qush mag'rur – qanoti bo'lgani uchun,  
Tog' mag'rur – savlati bo'lgani uchun.
57. Vatanimiz kelgusida buyuk davlat bo'ladi.
58. Yo'lchi, qancha aqchasi bo'lsa ham, berishga tayyor edi.
59. Men yetim o'sganman, oh, u yetimlik!..
60. Gapirsang-chi, nima bo'ldi?!
61. Eh, qanday chiroyli, so'lim joylar-a!?
62. Bu qanday bedodlik, bu qanday zulm!!
63. Tinchlik – bu sevinchdir, hayotda lazzat, Tinchlik – bu totuvlik, har ishda orom.
64. Taraldi kuy: mayin va g'amgin,  
Butun borliq jismi quloqdir.
65. Yuragi qalam-u, qog'ozi – keng yer.
66. Vatan – u mening jon-u tanim, sajdagohimdir.
67. Vatan uchun qurbon bo'lganlarning hoki – muqaddasdir.
68. Do'stlik – xalqimizning xulqi, odati,  
Do'stlik – o'lkamizning qudrati, shoni.
69. Boylikning eng yaxshisi – ko'ngil boyligi.
70. Sakrab tushdi shunda tuyadan, Karvonboshi – berahm, nodon...
71. So'zi e'tiborli, ahdi vafoli, ajoyib bir xalqsan – topilmas tengi.



72. Sakkiz-to'qqizda butun-butun asarlarni – ilmiy, falsafiy, she'riy – zavqqa berilib mutolaa qilgan.

73. Siddiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi.

74. Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtni kesib yondirgan.

75. Sabr bilan bog'liq ish ochilur, ishda oshiqqan ko'p toyilur.

76. To'rt mashina o'g'it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin.

77. Xo'sh, mulla Mamasodiq, sog'liq qalay, tahsil nechuk? Xo'sh, zerikib qolmadingizmi bizda?

78. Xadicha xola bolalik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o'pdi, duo qildi; irim qilib o'zi kuzatgani chiqmadi.

79. Xalqning yutug'i saxiy kishidir,

Saxiylik kishiga sharaf keltiradi.

80. Har kim etsa yaxshi qiliq,

Yetar anga yaxshilikdin onga yaxshilik.

81. Har kimga ozor bera ko'rma, dunyo barchaga barobardir.

82. Hamal keldi – amal keldi.

83. Bor so'zni so'z sanab tebranmasin til, Ko'rib, o'ylab, so'zla keragini bil.

84. Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.

85. Quyoshning uyg'onishi sen ta'riflagandan ham antiqa: tong nihoyatda go'zal bo'ladi.

86. Qor yog'di – don yog'di.

87. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'ya.

88. Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun, qilt etgan shabada yurmaydi.

89. Aslida, Vatan – eng oliy tushuncha, xalqlarning tayanchi, o'tmishi, buguni va ertasidir.

90. Zero, hikmatli so'zlarda aytilmishki: «Vatanni sevmoq iymondandir».

91. Qo'shiq – xalq mulki.

92. Kampirning jig'ibiyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib, vaysaganicha, uyiga kirib ketdi.

93. G'animlar duch kelar – jang bo'lar puxta.

94. Mening bir jaydari falsafam shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

95. Qiz uni ushlab olgani urindi, juda qiynalib ketdi: qo'llariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari tirmalandi.

96. Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi – yiqiladi kishi.

97. Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi.

98. Yana uvlar dahshat shamoli,

Ko'kni qora bulut quchadi.

99. Orzum shul: O'chmasin yongan chirog'ing.

100. Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatadilar, qizlar maktab hovlisini supuradilar.

101. Bizning qarorimiz shu: hasharda hammamiz faol ishtirok etamiz.

102. Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo' naymiz.
103. Yuragida qanday dard bor – mana shu manga sir.
104. Kuz keldi, yig'im - terim ishlari boshlandi.
105. Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, osmon dil qulfini zaminga sochdi.
106. Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si.
107. Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar,  
Xabar berar asl zotidan.
108. Ilmsiz iliksiz so'ngakka qo'l urilmaydi.
109. O'qishlar har xil bo'ladi: birov ermak uchun o'qiydi, birov hordiq chiqarish uchun, birov bo'lak mashg'ufot bo'lmaganidan vaqt o'tkazish uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonning taqdiriga qiziqib o'qiydi.
110. Qiz avval qo'rqdi, otasi uning Siddiqjon bilan so'zlashib turganini emas, bog'ga tushganini bilsa ham, terisiga somon tiqadi – bu xususida otasining qamchisidan qon tomar edi; keyin yangi bir olamga kirib, otasining qamchisini ham, jingul ostida qusib yotgan kurk tovuqni ham unutdi.
111. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir satri ilohiy, bir satri insoniydir; unung bir vazni osmoniy, bir satri zaminiydir.
112. Bola butalar ustidan hatlab, sakrab o'tish qiyin bo'lgan xarsang toshlarni yonlab o'tib, na o'siq o'tlar, na xarsangtoshlar oldida, hular ham shunchaki narsalar emasligini bilsa-da, bir daqiqa to'xtamay chopib borardi.
113. Bola o'zi yashab turgan tog'lar haqida, o'sha xarsang toshlar haqida, daryo va noyob o'rmon haqida, baliqlarday ko'zi ochiq suzishni o'rgangan yeri – bobosining ko'lobi haqida so'zladi.
114. Uning chanqoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'ychan turishi katta hardoshini, sadoqatini, aqlini aks ettirib turardi.
115. Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi.
116. Ayol – tig', toshlarni mumdek tilguvchi,  
Ayol – nur, qalblarni yoqib ketguvchi,  
Quyoshga bas kelar bitta kulgichi,  
Ayol omon bo'lsa, dunyo go'zaldir.
117. Seni Zebo, Zebi qiz deymi,  
Oydin kecha yo kunduz deymi,  
Sohibjamol yo dilbar deymi,  
Yo san'atkor, yo chevar deymi?!
118. Turonli – unvonimiz, turkistonli –  
shonimiz,  
Vatan – bizning qonimiz, fido  
o'lsun qonimiz.

119. Hamma sizning tarafingizda, chunki mana buni bajaruvchi — siz.
120. Vatan, Vatan, der edilar, na der edim bilmay oni, Endi bilsam, Vatan erkan bu tanlarning shirin joni.
121. Yosh do'stim, o'qituvchi ham xuddi onadek mehribon, ulug'; otadek bog'bon, mehnatkash: ularni hurmat qil!
122. Lekin Me'morning, avvalo, raiyat, qolaversa, saltanat oldidagi mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrda shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi.
123. Shubha yo'qki, inson qaysi millat, dinga, qaysi xalq-elatga mansub bo'lmasin u, avvalambor, tabiat farzandidir.
124. Ish kuchini yelga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber!
125. Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgudir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi?
126. Hirot, tashdan qaraganda, avvalgiday tinch, hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'lganday ko'rinsa ham, lekin kosib-hunarmandlar, dehqonlar hali g'azabdan tushmagan edilar.
127. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko'zlari dumaloq shakl olgan edi.
128. Tuzumlar o'zgarsa ham, inson o'zgarmas ekan, shul boisdan Payg'ambar ummat g'amin yeganlar: Allohdan boshqasiga sig'inmagin deganlar.
129. Turnalar arg'imchog'i g'ira-shira osmon ortiga — bulutlar bag'riga singiydi.
130. Halimaxonni ko'rdim, sira o'zgarmabdi: hamon o'sha-o'sha.
131. Bog'dan chiqish uchun bir necha odim yurgach, ishkom ichida suyanib turgan qizga ko'zi tushdi; uyalganidan bir zumda qizarib-bo'zarib ketdi, ketmonga tikilib qadamini tezlatdi.
132. Istiqloq keldi — o'zligimizni angladik, qadriyatlarimiz tiklandi.
133. Xalqimiz mehmondo'st: topgan-tutganini mehmonning oldiga qo'yadi.
134. Bularni ko'rib hamma ishondi: Sobirjon bugun, albatta, g'alabaga erishadi.
135. Qayerdadir xo'roz qichqirdi: tong otishi yaqinlashgan.
136. Odam bolasi borki, u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi, butun taqdirini, tarjimayi holini, orzu-umidlarini va, nihoyat, olamni shu rang orqali ko'radi.
137. Tuprogi zar, ma'danim manim,  
O'zbekiston — Vatanim manim (*A. Oripov*).
138. Yo'q, yo'q! Bu og'ir ishni bo'yninga ololmayman!
139. U oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni

o'g'il-qizlarni ham, ko'cha-ko'ydagi begona bolalarni ham — xullas, barchani sizlab gapirardi.

140. Qushlarning sho'xlik bilan sayrashlari mayin, yoqimli va mungli bu ovozni bosolmaydi; daraxtlarning shitirlagan ovozi yozning xayrlashuv qo'shig'idek eshitiladi.

141. Buloq shu yerda — ammo haligacha bir tomchi suvdan darak yo'q.

142. Paxtakor o'zbekman — zabardast, mag'rur, Sharqning mayog'i deb atalur yurtim.

143. Ismi barlos — sodda, dilovar — ov va qush ilmining piridir.

144. So'zi e'tiborli, ahdi vafoli, ajoyib bir xalqsan — topilmas tenging.

145. Kimki ulug'roq, anga hurmat kerak.

146. Nimani o'zingga ko'rsan ravo, shuni o'zgalarga yo'lla doimo.

147. Aminov kelishi kerak ekan — kelmadi, ishi chiqib birovdan uzr aytib yuboribdi.

148. Borliq jim: har bitta darchada zangori shu'lalar porlaydi.

149. Shoir el- ulus ishlaridan qutilgan damlarda bekor o'tirmas edi: yo o'qir, yo yozar, yo musiqada yangi kuylar yaratishga urinar edi.

150. Oqshom tushgan, osmon yulduzlarga to'lib ketgan.

151. Men darrov idoraga yugurdim — yo'qsiz.

152. Kishidan kishiga qoladigan meros — so'z.

153. Dunyo go'zalligini olmoqchi bo'lgan odamga chora — ezgulik.

154. Bu — mening kimligimga ishora.

155. So'ramoq — oson ish.

156. Sirni eshitishga qobil bo'lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi — vazir, boshqasi — kotib.

157. — Kel, picha dam ol, chirog'im, toza charchabsan, — dedi bobom.

158. Bugun havo ochiq: derazalarni lang ochib qo'ysa ham bo'ladi.

159. Kurashda bir tabiat qonuni bor: polvon, davrada mag'lub bo'lsa, taqdirga tan berib ketmaydi.

160. Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham;

Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.

161. Sultonmurod o'zini chetga olishga tirishdi, xalq to'liqini uni surib ketdi.

162. Dadasi: — Qani, o'g'lim, qarashib yubor, gul ekamiz, — dedi.

163. Faqat bitta iltimos: bir bayt o'qiyman, shuni yaxshilab eshiting.

164. Shinel jiqqa ho'l; Bektemiring yuzidan tomchilar quyilar edi.

165. Pazandasi yopadi shirmon,

Qarilari kutadi mehmon.

166. Bizga shu narsa aniq: mehnat insonni ulug'laydi.

167. Jismimiz yo'qolur — o'chmas nomimiz.

168. Bizning qarorimiz shu: majlisda hammamiz so'zga chiqamiz.

169. Xush kelibsizlar, mehmonlar, poyqadamingizga hasanot.

170. Vaqt xuftondan o'tgan; juvozxonada chiroq ko'rindi.

171. Mening bilishimcha, Qalandarov toshqin suv: tegirmonni buzishi ham mumkin, yurgizishi ham.

172. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi.

173. Siddiqjon – qarol bo'lsa, bu – o'ziga to'q bir odamning qizi...

174. Ikromjon unga qarab qahr-g'azab bilan qichqirdi: – Xoin! Qochoq! Nomard!

175. O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf-shonimiz sanaladi.

176. Kurashmoq – o'rnak bo'lib yashamoq.

177. Hosil bayrami – zafar bayrami.

178. O'zbekiston – mustaqil davlat.

179. O'qish hayotni tushunishdir.

180. Istiqloq davri bolalari g'ayratli, shijoatli; ko'zida chaqini, ko'ksida yolqini bor.

## **Tinish belgilari bo'yicha test topshiriqlari**

### **1-variant**

1. Hamma sizning tarafingizda chunki mana buni bajaruvchi siz. Ushbu gapda qanday tinish belgilari ishlatilishi kerak?

- A. Nuqtali vergul, nuqta      B. Vergul, ikki nuqta, nuqta  
C. Vergul, tire, nuqta      D. Vergul, vergul, nuqta

2. Dadam shu atrofdan – qishloqning chiqaverishidan – do'kon qidirdi. Gapda tire nima uchun ishlatilgan?

- A. Kiritma gap ishtirok etgani uchun  
B. Umumlashtiruvchi bo'lak bo'lgani uchun  
C. Uyushiq bo'lak qatnashganligi uchun  
D. Ajratilgan bo'lak qatnashganligi uchun

3. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi // yuragim gursullaganicha o'rimdan turib ketaman.

Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi // belgisi o'mida qanday tinish belgisi ishlatiladi?

- A. Nuqtali vergul      B. Tire      C. Vergul      D. Ikki nuqta

4. Navbahor (1) ochildi gullar (2) sabza bo'ldi hog'lar (3) Suhbat aylaylik (4) kelinglar (5) jo'ralar (6) o'rtog'lar (7) (Muqimiy)

Ushbu parchada qavs ichidagi raqamlar o'rniga qaysi tinish belgilari qo'llanishi lozim?

A. 1-vergul, 2-vergul, 3-tire, 4-vergul, 5-vergul, 6-vergul, 7-undov belgisi

B. 1-ko'p nuqta, 2-vergul, 3-ikki nuqta, 4-vergul, 5-vergul, 6-vergul, 7-nuqta

C. 1-ikki nuqta, 2-vergul, 3-vergul, 4-vergul, 5-vergul, 6-vergul, 7-nuqta

D. 1-tire, 2-vergul, 3-ikki nuqta, 4-vergul, 5-vergul, 6-vergul, -nuqta

5. Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.

Berilgan qo'shma gapda tire qo'yilishining sababi qayd etilgan to'g'ri javob belgilang.

A. Kesim ot kesim bo'lganligi uchun tire qo'yiladi

B. Qismlar orasida qiyos munosabati bo'lganligi uchun tire qo'yiladi

C. Kesim ot kesim bo'lib, kesimlik bog'lamasi tushirilganligi uchun tire qo'yiladi

D. Ikkinchi qismida kesim tushirilganligi sababli tire qo'yiladi

6. Ularning hammasi // xoh yosh, xoh qari // firibgar, zolim. (Oybek)

Ushbu gapdagi // belgilari o'rnida qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A. Ikki nuqta, tire

B. Ikki nuqta, vergul

C. Tire, tire

D. Tire, vergul

7. Suhbatdoshlarning gapi javobsiz qolganda yozuvda qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A. Ko'p nuqta

B. so'roq va ko'p nuqta

C. so'roq va undov belgisi

D. qavs ichida undov belgisi

8. Yulduzlarni xayolida har xil ranglarga bo'yab ko'rdi // yulduzlar o'z rangida miltillab turaverdi.

Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi // belgisi o'rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi?

A. tire

B. nuqtali vergul

C. ikki nuqta

D. vergul

9. O'zbek yozuvida qavs tinish belgisi sifatida qaysi davrdan boshlab ishlatilgan?

A. XIX asr boshlaridan

B. XIX asrning oxirgi choragidan

C. XVIII asrning oxirlaridan

D. XIX asrning o'rtalaridan

10. Quyidagi gapda uyushgan bo'lak va umumlashtiruvchi qism orasiga qanday tinish belgilari qo'yiladi?

Oppoq soqli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il-qizlarni ham, ko'chadagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapiradi.

A. Uyushgan bo'laklardan keyin, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin vergul qo'yiladi

B. Uyushgan bo'laklardan keyin, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin tire qo'yiladi

C. Umumlashtiruvchi bo'lakdan keyin, uyushgan bo'laklardan oldin ikki nuqta qo'yiladi

D. Uyushgan bo'laklardan keyin tire, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin vergul qo'yiladi

11. Qaysi gapda vergul so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ajratish uchun qo'llanmagan?

A. Uka, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi

B. Ha, hushyor bo'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir

C. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz

D. Xo'sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz?

12. Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon // O'zbekning chamani bog'u bo'stoni. (G'.G'ulom)

// o'rniga qanday tinish belgisini qo'yish kerak?

A. Nuqtali vergul      B. Tire      C. Ko'p nuqta      D. Vergul

13. O'zbek yozuvida ko'p nuqta tinish belgisi sifatida qachondan boshlab ishlatilgan?

A. XIX asrning oxirgi choragidan      B. XIX asr boshlaridan

C. XIX asrning ikkinchi yarmidan      D. XVIII asrning oxirlaridan

14. Quyidagi gapda // belgilari o'rniga qanday tinish belgilar qo'yilishi kerak?

Yaxshi so'z // jon ozig'i, yomon so'z // bosh qozig'i. (maqol)

A. Tinish belgisi qo'yilmaydi      B. Vergul va vergul

C. Tire va tire      D. Ikki nuqta va ikki nuqta

15. Qaysi gapda vergul yoyiq undalmadan keyin qo'llangan?

A. Quyosh, nuring sochaver mo'l-mo'l

B. Men bor joyda senga, chaqimchi bir insonga, nima bor?!

C. Qo'ng'ir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling

D. G'azab, jaholat, adovat, g'iybat, tama, zulm -- yomon xulqlar kishini tubanlik qariga tashlaydi

16. Yozuvda qaysi bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiadi?

A. Biroq, chunki, agar, gar, toki, goh...goh, va

B. Lekin, ya'ni, balki, chunki, negaki

C. Ammo, lekin, agar, takror qo'llanuvchi ayiruvchi bog'lovchilar, hamda

D. Ammo, biroq, agar, gar, toki, basharti, hamda, va

17. Quyidagi gapdagi ko'rsatish olmoshidan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi?

Aziz vatandoshim, bu sening imzong.

- A. Vergul qo'yiladi
- B. Tire qo'yiladi
- C. Ikki nuqta qo'yiladi
- D. Hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi

18. Hayhotday hovli fayzsiz daraxtlar ostini o't-o'lan bosgan hovlining etak tomonida bir juft yirik-yirik qarg'a loqayd kezib yuribdi.

Berilgan gapda qanday tinish belgilari tushirib qoldirilgan?

- A. Nuqtali vergul, vergul
- B. Ikki nuqta, vergul
- C. Vergul, vergul
- D. Tire, vergul

19. O'zbekcha matnlarda tire qachondan boshlab ishlatilgan?

- A. XX asrning 30-yillaridan
- B. XIX asrning 70-yillaridan
- C. XX asrning boshlaridan
- D. XIX asrning 30-yillaridan

20. Vergul tinish belgisi sifatida qayerda va qachondan boshlab yozma nutqqa kiritilgan?

- A. Arab tilshunosligida XII asrdan boshlab qo'llangan
- B. G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab qo'llangan
- C. Rossiyada XIV asrdan boshlab qo'llangan
- D. Yevropada XVIII asrdan boshlab qo'llangan

21. Men yetim o'sganman oh u yetimlik Voy bechora jonim desam arziydi. (*G'ulom*)

Berilgan gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini tiklang.

- A. Vergul, vergul, undov, vergul, undov
- B. Vergul, nuqta, vergul, nuqta
- C. Vergul, vergul, undov, vergul, ko'p nuqta
- D. Vergul, nuqta, vergul, undov

22. Qaysi gapda tire bog'lovchisiz qo'shma gap orasida qo'llanmagan?

- A. Vaqting ketdi – baxting ketdi
- B. Ilim – yorug'lik, jaholat – zulmat
- C. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra
- D. Mehnating – boyliging

23. Tire qaysi gapda noto'g'ri qo'llangan?

- A. Uch karra uch – to'qqiz
- B. Bu qovun – shirin
- C. Yulduz – a'lochilarimizdan
- D. Hosilning otasi – suv, onasi – yer



24. Qiz uni ushlab olgani urindi// juda qiynalib ketdi// qo'llariga tikan kirdi// yuzi va bilaklari tirmalandi. Belgilar o'rniga qanday tinish belgilari qo'yiladi?

- A. Ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul
- B. Vergul, ikki nuqta, vergul
- C. Ikki nuqta, vergul, vergul
- D. Chiziqcha, vergul, vergul

25. Berilgan gaplarning qaysilarida ega va kesim orasida tire ishlatilishi kerak?

- 1. Kishidan kishiga qoladigan meros so'z.
- 2. Dunyo go'zalligini olmoqchi bo'lgan odamga chora ezgulik.
- 3. Bilimsiz kishi yilqi bilan teng.
- 4. Bu mening kimligimga ishora.
- 5. Ko'p so'zlash donolik belgisi emas.
- 6. So'ramoq oson ish.
- 7. Javob bermoq mushkul.
- 8. Sirni eshitishga qobil bo'lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi vazir,

boshqasi kotib

- A. 1, 3, 5, 6, 7, 8
- B. 1, 2, 4, 6, 8
- C. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
- D. 1, 2

26. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda bir gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa ular orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A. Ikki nuqta
- B. Tire
- C. Vergul
- D. Nuqta

27. Gapda quyidagi qaysi yordamchi so'zlardan oldin vergul qo'yiladi?

- A. va
- B. garchi
- C. ya'ni
- D. hamda

28. Qaysi gapda ega bilan kesim o'rtasida tire noto'g'ni qo'yilgan?

- A. O'qish – hayotni tushunishdir
- B. O'qish – juda kata baxt
- C. Karvonboshi – berahm, nodon
- D. Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod

29. Men darrov idoraga yugurdim – yo'qsiz. Ushbu gapda nima sababli tire ishlatilgan?

- A. Birinchi gap ikkinchi gapni sababini bildirgani uchun
- B. Kutilmagan voqea-hodisalar ifodalangan gap bo'lganligi uchun
- C. Birinchi gap ikkinchi gapni shartini bildirgani uchun
- D. Birinchi gap ikkinchi gapni paytini bildirgani uchun

30. Yo'q// yo'q// Bu og'ir ishni bo'ynimga ololmayman// Belgilar o'rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A. Vergul, undov, undov      B. Vergul, nuqta, nuqta  
C. Vergul, vergul, nuqta      D. Vergul, nuqta, undov

31. Muallif gapidan oldin kelgan darak mazmunidagi ko'chirma gap so'ngida qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A. Nuqta      B. Nuqtali vergul      C. Vergul      D. Tire

32. Mehribon kishining pand-nasihatlarini olgin// ular seni saodatga yetaklaydi. Mazkur gapda //belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo'yilishi kerak?

- A. Tire      B. Vergul      C. Nuqta      D. Nuqtali vergul

33. Vatan Vatan der edilar na der edim bilmay oni  
Endi bilsam Vatan erkan bu tanlarning shirin joni. Ushbu parchada nechta o'rinda vergul ishlatiladi?

- A. 4 ta      B. 3 ta      C. 5 ta      D. 2 ta

34. Ayol tig' toshlarni mumdek tilguvchi

Ayol nur qalblarni yoqib ketguvchi

Quyoshga bas kelar bitta kulgichi

Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir.

Ushbu parchada qanday tinish belgilari ishlatiladi?

- A. Vergul, nuqta, tire      B. Vergul, nuqtali vergul, tire  
C. Nuqta, ikki nuqta, ko'p nuqta      D. Nuqta, nuqtali vergul, tire

35. Ayol tig' toshlarni mumdek tilguvchi

Ayol nur qalblarni yoqib ketguvchi

Quyoshga bas kelar bitta kulgichi

Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir

Ushbu parchada nechta vergul ishlatiladi?

- A. 2 ta      B. 4 ta      C. 5 ta      D. 6 ta

36. To'rt mashina o'g'it yubordik // fermerlarga vaqtida taqsimlansin.  
Ushbu gapda // belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo'yilishi kerak?

- A. Tire      B. vergul      C. nuqtali vergul      D. chiziqcha

## 2-variant

1. Turonli unvonimiz, turkistonli shonimiz,  
Vatan bizim jonimiz, fido o'sun qonimiz. Ushbu parchada nechta o'rinda tire qo'yilishi lozim?

- A. 2 ta      B. 3 ta      C. 4 ta      D. 1 ta

2. Dastlab «Turkiston viloyatining gazet» 1873-yilda ishlatilgan tinish belgisi qaysi?

- A. Tire      B. Qavs      C. Qo'shtimoq      D. Nuqtali vergul

3. *Seni Zebo, Zebi qiz deymi//  
Oydin kecha yo kunduz deymi//  
Sohibjamol yo dilbar deymi//  
Yo san'atkor yo chevar deymi//*

Ushbu parchada nechta so'roq belgisi qo'yilishi lozim?

- A. 1 ta      B. 2 ta      C. 3 ta      D. 4 ta

4. O'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydigan, 1990- yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan tinish belgisi qaysi?

- A. Undov belgisi      B. So'roq belgisi  
C. Ko'p nuqta      D. Nuqtali vergul

5. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

- A. Vergul      B. Tire      C. Ikki nuqta      D. Nuqtali vergul

6. Kampirning jig'ibiyroni chiqdi// ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib// vaysaganicha// uyiga kirib ketdi. Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgilari qo'yiladi?

- A. Ikki nuqta, tire, vergul      B. Tire, vergul, vergul  
C. Nuqtali vergul, vergul, vergul      D. Ikki nuqta, vergul, vergul

7. Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?

1. Undov gap so'roq gapdan hosil bo'lsa, oldin so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi.

2. Buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.

3. Kesim ergash gap va bosh gap o'rtasida ikki nuqta ishlatiladi.

4. Kiritma gaplar qo'shtirnoq bilan ajratiladi.

- A. 1, 4      B. 1, 2, 3      C. 2, 3, 4      D. 3, 4

8. Istiqloq davri bolalari g'ayratli (1) shijoatli (2) ko'zida chaqini (3) ko'ksida yolqini bor. Ushbu gapda qaysi raqamlar o'rnida vergul qo'yiladi?

- A. 1, 2, 3      B. 1, 2      C. 1, 3      D. 2, 3

9. Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida to'g'ri?

1. Ko'chirma gaplar qo'shtirnoqqa olinadi.

2. Istak gaplar oxirida undov belgisi qo'yiladi.

3. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin tire qo'yiladi.

4. Undalma alohida ohang hilan aytilsa, undan keyin undov belgisi qo'yiladi.

- A. 1, 2, 3      B. 3, 4      C. 1, 4      D. 2, 3, 4

10. Hayotning poyonsiz ummoni ichra

Bor shunday g'ariblar – temirlar hissiz. Ushbu gapda nima uchun tire

(–) ishlatilgan?

A. Bog'lovchisiz qo'shma gapdagi ikkinchi gapning kesimi tushirilgani uchun

B. Tenglik, taqqoslash ma'nolarini bildiruvchi so'zlar bo'lganligi uchun ular orasida

C. Bog'lamasiz qo'llangan ot-kesim bilan ega orasida

D. Izohlovchi o'xshatish ma'nosini bildirgani uchun, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasida

11. Turnalar arg'imchog'i g'ira-shira osmon ortiga // bulutlar bag'riga singiydi. Ushbu gapda // belgisi o'rnida qanday tinish belgisi qo'llanadi?

A. Vergul

B. Hech qanday tinish belgisi qo'llanmaydi

C. Tire

D. Ikki nuqta

12. Qaysi gapda qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga tire (–) qo'yiladi?

A. Shu fe'llari yaxshi hech kimni bironing oldida behurmat qilmaydilar

B. Urilmoq ham foyda pishiq bo'lasiz tajriba hosil qilasiz

C. El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat

D. Maqtanchoq bo'lmang xijolat tortmaysiz

13. Quyidagi gaplarning qaysi birida ikki nuqta qo'yiladi?

A. Saida bunga juda suyundi, demak, hisob yuzasidan bo'ladigan muzokara ham qizg'in tus oladi

B. Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi past-balandni ajratib olishadi

C. El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat

D. Kimki mehnatning zo'rini qidiribdi odamning sarasi ana shu

14. Fe'l // atvorning o'zgarmas darajada qat'iyligi // ayol tabiatiga yotdir//

Ushbu gapda // belgisi o'rnida qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilari tartibi va ularning nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A. Chiziqcha, tire, nuqta

B. Chiziqcha, ikki nuqta, nuqta

C. Tire, nuqta

D. Chiziqcha, vergul, nuqta

15. Orzum shul o'chmasin yongan chirog'ing. Mazkur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday tinish belgisi ishlatiladi, nima uchun?

A. Tire; sababini ifodalagani uchun

B. Vergul; voqea-hodisa ketma-ket ro'y bergani uchun

C. Nuqtali vergul; mazmunan uzoq bo'lgani uchun

D. Ikki nuqta; izohlash munosabati ifodalangani uchun

16. Yuragida qanday dard bor// mana bu menga sir. Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A. Tire    B. Vergul    C. Ikki nuqta    D. Nuqtali vergul

17. Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?

1. Undalmalar gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi.
2. Kiritmalar ikki nuqta bilan ajratiladi.
3. Ajratilgan bo'laklar ko'p nuqta bilan ajratiladi.
4. Gapning kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, bog'lamasiz qo'llanganda ega va kesim o'rtasiga tire qo'yiladi.

- A. 2, 3    B. 2, 3, 4    C. 1, 2    D. 1, 2, 4

18. Quyoshning uyg'onishi sen ta'riflagandan ham antiqa // tong nihoyatda go'zal bo'ladi. Ushbu gapda // belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo'llanadi?

- A. Nuqtali vergul    B. Vergul    C. Tire    D. Ikki nuqta

19. Quyidagi gapda nechta vergul qo'llanishi kerak?

Bog'dan chiqish uchun bir necha odim yurgach ishkombir ichida suyanib turgan qizga ko'zi tushdi uyalganidan bir zumda qizarib-bo'zarib ketdi ketmonga tikilib qadamini tezlatdi.

- A. 1 ta    B. 3 ta    C. 4 ta    D. 2 ta

20. Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?

1. Ot kesim sifat turkumiga oid so'z bilan ifodalansa, ega va kesim o'rtasida tire ishlatiladi.
2. Ot kesim va ega o'rtasida ham yordamchisi bo'lsa, tire qo'yilmaydi.
3. Ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalansa, tire qo'yiladi.
4. Kesim tartib son bilan ifodalansa, tire qo'yiladi.

- A. 2, 3    B. 1, 2, 3    C. 1, 4    D. 2, 3, 4

21. Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov bog'lovchisi yordamida bog'lansa, ular orasida qanday belgi ishlatiladi?

- A. Ikki nuqta    B. Tire  
C. Hech qanday belgi ishlatilmaydi    D. Vergul

22. Quyida berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasiga qo'yilishi lozim bo'lgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Yuragida qanday dard bor mana bu menga sir.
2. Mening bir jaydari falsafamdir shu hargiz iltimosga kuning qolmasin.
3. To'rt mashina o'g'it yubordik fermerlarga vaqtida taqsimlansin.

- A. Vergul, ikki nuqta, tire    B. Ikki nuqta, tire, ikki nuqta  
C. Tire, ikki nuqta, tire    D. Tire, ikki nuqta, vergul

23. Quyidagi gapda qaysi so'zlardan keyin vergul qo'yilishi kerak? Yo'q faqat meni bilishmaydi lekin boshqalarni jumladan seni ham yaxshi bilishadi.

- A. Yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan
- B. Yo'q, bilishmaydi, lekin, ham
- C. Yo'q, meni, bilishmaydi, jumladan
- D. Yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan, ham

24. Yaxshi xislatlari bor oppoq soqoli bilan farzandlarini ham nevaralarini ham qo'shni o'g'il-qizlarni ham qo'shni ko'chadagi begona bolalarni ham xullas barchasini sizlab gapirardi. Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Tire, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta
- B. Ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, ikki nuta, tire, nuqta
- C. Ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta
- D. Ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, vergul, vergul, nuqta

25. Lekin me'morning avvalo raiyat qolaversa saltanat oldidagi mavqei Xuroson-u Movarounnahrda shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi. Berilgan gapda qo'yiladigan vergullar nima bilan bog'liq?

- A. Kiritma, uyushiq bo'lak
- B. Modal so'z, kiritma
- C. Kiritma qo'shma gap
- D. Kiritma ajratilgan bo'lak

26. Qaysi so'z turkumlariga kiruvchi so'zlardan keyin vergul qoyiladi?

- A. Sabab bog'lovchisi, undov so'zlar, modal so'zlar
- B. Maqsad bog'lovchisi, modal so'zlar, yuklamalar
- C. Undov so'zlar, modal so'zlar
- D. Undov so'zlar modal so'zlar, yuklama, bog'lovchilar

27. Tinish belgilari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. So'roq belgisi, undov belgisi, nuqta, tutuq belgisi
- B. Nuqta, tire, davomli nuqta, qavs
- C. Nuqta, ikki nuqta, uch nuqta, chiziqcha
- D. Nuqta, vergul, qavs, qo'shtirnoq

28. Berilgan gaplarning qaysilarida tinish belgisi qo'yish bilan ma'noda o'zgarish yuz beradi (yangi ma'noli gaplar hosil bo'ladi)?

- 1. Bu gapning yomon bo'lmadi
  - 2. Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi
  - 3. To'g'ri yo'llarda ham mashaqqat bor
  - 4. Gullar chiroyli stolni bezab turibdi
- A. 2, 3, 4      B. Faqat 3      C. 1, 2, 3, 4      D. 2, 3

29. Qaysi qatordagi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ikki nuqta qo'yiladi?

- A. To'rt mashina o'g'it yubordik// fermerlarga vaqtida taqsimlansin
- B. Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi// yiqitadi kishini
- C. Mening bir jaydari falsafamdir shu // hargiz iltimosga kuning qolmasin kuning

D. Yuragida qanday dard bor// mana bu menga sir

30. Quyidagi hukmlarning qaysi biri to'g'ri?

A. Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi

B. Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi, muallifi qavs ichida yoziladi

C. Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng nuqta, so'roq yoki undov belgilaridan biri qo'yiladi, muallifi qavs ichida yozilib, qavsdan keyin nuqta qo'yiladi

D. Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yozilmaydi

31. U ilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, qurbaqaning go'shti ekanligini aytgani uchun ta'qibga uchragan emish. Berilgan gapda vergullarning qo'yilishini quyidagi qaysi qoidalar bilan izohlash mumkin?

A. Aniqlov bog'lo'vchisidan oldin doimo vergul qo'yiladi; uyushiq bo'laklar sanash ohangi bilan bog'tanganda ular orasiga vergul qo'yiladi

B. Uyushiq bo'laklar ohang orqali bog'lansa, ular orasiga vergul qo'yiladi

C. Ya'ni bog'lo'vchisi aniqlov bog'lovchisi sanaladi; inson va qurbaqa so'zlari uyushiq bo'lak hioblanadi

D. Ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakdan vergul bilan ajratiladi; zidlash munosabati ifodalangan bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasiga vergul qo'yiladi

32. Yosh do'stim o'qituvchi ham xuddi onadek mehribon ulug' otadek bog'bon, mehnatkash ularni hurmat qil. Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning taribi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Vergul, vergul, tire, vergul, tire, undov belgisi

B. Vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, undov belgisi

C. Vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, ikki nuqta, undov belgisi

D. Vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, ikki nuqta, undov belgisi

33. Qaysi bog'lo'vchisiz qo'shma gaplar qismlar orasida tire ishlatilishi kerak?

A. Men tirikman// o'lja bo'lmaydi otim

B. Chol aqlli odam// unga o'rgatish ham mumkin, undan o'rganish ham mumkin

C. Bir vaqt dasturxon yozildi// turli taomlar keltirildi

D. Chol undan balandroq keldi// men brigadirlikdan tushmayman deb chiqib ketdi

34. Qiz avval qo'rqdi Sidiqjon bilan so'zlashib turganini emas bog'iga tushganini bilsa ham terisiga somon tiqadi bu xususida otasining qamchisidan qon tomar edi keyin yangi olamga kirib otasining qamchisini ham jingul ostida pisib yotgan kurk tovuqni ham unutdi. Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Vergul, vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta

B. Vergul, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta

C. Vergul, vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, nuqta

D. Vergul, vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, tire, vergul, nuqta

35. Quyidagi gaplarning qaysi birida tinish belgilari to'g'ri qo'yilmagan?

A. O'n yil! O'n yildan beri kasal ekanmi!?

B. Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

C. Assalomu alaykum, hormang, ota!

D. Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi

36. Qaysi gapda tinish belgilari bilan bog'liq xato bor?

A. Balki kutar meni bir qiz, ko'z yoshlari oqizoq

B. – Yoz, – deydi, – azizam, ma, qalam, daftar

C. Ishqilib, ilmi yo hunarli bo'lish payida bo'linglar

D. Mevani gullata bilishgina emas, balki unda mo'l va shirin hosil yetkaza bilish san'atdir



## INSHO – IJODIY MEHNAT

Insho o'quvchining ma'lum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o'z fikrlarini yozma shaklda to'g'ri, ravon, savodli bayon qila olish ko'nikma va malakalarini, *shu mavzu bo'yicha bilimlarini namoyish* etuvchi ijodiy matn kichik bir asardir. Yozuvchi va shoir, olim va muxbir o'zi yozayotgan asar, ilmiy ish, maqolaga katta mas'uliyat bilan qaragani kabi, o'quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Zero insho o'quvchi ma'naviyati va ma'rifati ko'zguvidir. Unda o'quvchining bilimlari, his-tuyg'ulari, fikrlarini bayon etish ko'nikma va malakalari o'z aksini topadi.

Inshoning har bir turi o'z shakliy va mazmuniy xususiyatlariga ega.

Insho ijodiy mehnatning oliy ko'rinishi, murakkab aqliy mehnat jarayonidir. U muallifdan o'z fikrlarini zarur dalillar asosida mantiqan izchil va badiiy tarzda, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri izhor etishni talab qiladi. Shuning uchun ma'lum mavzuda insho yozishdan oldin shu mavzuga oid badiiy yoki hayotiy manbani, unga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur o'rganib chiqish, tezis (qisqa ifoda) yaratish, dalillash uchun ko'chirmalarni yig'ish, xomaki rejani shakllantirib olish talab qilinadi.

Didaktik maqsadlarga ko'ra insholar ikki xil bo'ladi:

a) ta'limiy insholar; b) sinov insholari.

Ta'limiy insholar sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi.

Sinov insholari o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarni sinash uchun yirik mavzular tugagandan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida, olimpiadalarda o'tkaziladi.

### Insho turlari

Insho arabcha so'z bo'lib, «yaratish», «bino qilish», «qurish» ma'nosini beradi. Hozirgi tilimizda bu so'zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan «ijodiy yozma ish» ma'nosida qo'llanadi.

Insho muallifning ma'lum bir mavzu asosida fikrlarini yozma shaklda bayon qiluvchi kichik bir asardir. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikriy ko'nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi.

Insho mazmun-mohiyatiga ko'ra 3 turli bo'ladi:

1. Adabiy mavzudagi insholar.

2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar.

3. Erkin mavzudagi insholar.

Adabiy mavzudagi insholarga adabiyot darsligida qayd qilingan, o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzular asosida yoziladigan insholar kiradi.

**Adabiy-ijodiy mavzulardagi insholarga adabiyot darslarida o'tilgan ma'lumotlarga o'quvchining munosabati (shaxsiy fikrlari) qo'shib ifodalanadigan insholar kiradi.**

**Erkin mavzulardagi insholar** adabiyot fani dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Boshqacha aytganda, o'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi insholar **erkin mavzudagi insholardir.**

Sizga birinchi sinfdan tanish bo'lgan oddiy yozma tasvirlar, rasm asosidagi hikoya, turli xil maktublar ham inshoga o'xshaydi. Lekin ularni asl insho deb bo'lmaydi. Chunki bunday yozma ishlarda o'quvchining mustaqilligi va ijodiyligi chegaralangan bo'ladi.

Muayyan badiiy asar yoki undagi qahramonlar haqidagi insho adabiy mavzudagi inshodir. Bunday mavzudagi inshoda biror asar yoki qahramonlar taqdiri tahlil qilinadi.

**Adabiy-ijodiy mavzudagi inshoda biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdirini tahlil qilishda o'quvchi o'z mustaqil fikri bilan yondashadi.** Ya'ni adabiy-ijodiy inshoda ijodiy fikrlashga katta e'tibor beriladi. Bu insho turining adabiy mavzudagi inshodan farqi ham ana shunda.

O'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insholar erkin mavzudagi insholardir. Erkin mavzudagi insholarda o'quvchining bir mavzu bo'yicha turli fanlardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi.

Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha epigraf deyiladi.

**Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o'ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.**

Inshoda epigraf bo'lishini qat'iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriydir. Lekin mavzuga va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf bo'lsa, inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko'rsatadi.

## **RIVOYA INSHO**

Biror voqeani izchil tasvir etishda rivoya elementi qo'llaniladi. Hayotdagi ayrim voqealar, hodisalar, masalan, bayramlar, turli xil marosimlar, sayohatlar, safar taassurotlari bunday ko'rinishdagi insholar uchun material bo'lib xizmat qiladi.

**Rivoya insho** yozish uchun insho yozayotgan shaxs voqealarni shaxsan boshidan kechirgan yoki eshitgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, o'quvchi voqealarni eslashi, rasmlardan foydalanishi ham mumkin.

## MUHOKAMA INSHO

Bunday turdagi insholar uchun sinfda o'tkazilgan bahs, munozara material vazifasini o'taydi. Muhokama inshoda o'quvchidan o'z fikrini asoslash va dalillash maqsadida mantiqqa jiddiy e'tibor berishi, mustaqil fikrlashi va muhokamada faol ishtirok etishi talab etiladi. Masalan, «Vatanni asrab-avaylash deganda nimani tushunasiz?», «Baxt nima?», «XXI asr insoniyatga nimalar olib keldi?» kabi mavzularda bahs uyushtirish mumkin.

## TASVIRIY INSHO

Bunday insholarda narsa va hodisalar, shaxslarga xos belgilar, ularning boshqalardan farqlari ko'rsatiladi, taqqoslanadi. Ta'sirchanlikni hosil qilish uchun kishilar portreti va manzaralar tasviri badiiy ifodalanadi, o'xshatishlar, sifatlashlar ishlatiladi. Shuningdek, unda oddiy tasvir elementlaridan ham unumli foydalaniladi.

Shaxslar va manzaralar ko'z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy insholar o'quvchilarning fikrini o'stiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi.

Savodxonlik darajasini tekshirishning sinalgan usullaridan biri INSHO sanaladi.

Insho quyidagi ikki bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Inshoning qoralama (xomaki) nusxasini tayyorlash.

2. Uni oqqa ko'chirib yozish.

Qoralama nusxada ham reja tuziladi. Fikrlar izchillik asosida, aniq va lo'nda shakllarda bayon qilinadi. Qoralama nusxani haddan tashqari bo'yab, e'tiborsizlik bilan yozish maqsadga muvofiq emas.

### Inshoning xomaki nusxasini tayyorlash uchun tavsiyalar

1. Qaysi mavzu bo'yicha insho yozishingizni puxta o'ylab oling.

2. Insho mavzusiga oid materiallarni, masalan, yozuvchi, uning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, siz insho yozmoqchi bo'lgan asar va uning yozuvchi ijodida tutgan o'rni, asarning mavzusi va g'oyaviy yo'nalishlari, bosh qahramonlari, asardagi voqealar, asar qahramonlarining xarakteri yuzasidan insho yozish uchun birinchi galda kerak bo'ladigan holatlarni eslang, so'ngra ularni qog'ozga tushira boshlang.

3. Insho bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yig'ib chiqing.

4. Insho mavzusini yoritish uchun o'zingizga ma'qul kelgan usulni tanlang.

5. Insho uchun reja tuzib oling va mazkur reja asosida insho yozishga kirishing.

6. Insho yozayotganda fikrlarning izchilligiga, insho materiallarining aniq va lo'nda shakllarda berilayotganligiga alohida e'tibor bering.

7. Inshoning qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni diqqat bilan o'qib chiqing. Insho mavzusi yetarlicha yoritilganmi? Insho mazmuni talabga javob bera oladimi? Inshoda ortiqcha so'z va gaplar uchramaydimi? Agar shunday so'z va gaplarga duch kelsangiz ularni insho matnidan chiqarib tashlang, bo'sh ko'ringan o'rinlarni to'ldiring.

8. Inshoning tiliga alohida e'tibor qiling.

9. Yozganlaringizni oqqa ko'chiring.

Inshoning qoralama nusxasi but bo'lgach, uni oqqa ko'chirish jarayonida amaldagi husnixat qoidalariga va insho yozishning o'ziga xos tartiblariga rioya qilish kerak.

Inshoning sarvarag'iga o'quvchining ism-sharifi tartib-qoidalar asosida yozib qo'yilishi shart.

Insho yozib bo'lingandan so'ng u o'quvchi tomonidan diqqat bilan o'qib chiqiladi va har ikkala nusxa topshiriladi

### **Insho yozish uchun asosiy yo'l-yo'riqlar**

O'quvchilarga insho yozish uchun 4 akademik soatdan iborat vaqt beriladi.

Inshoni yozish paytida quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim:

1. Tuzilayotgan jumalarning lo'nda va aniq bo'lishiga.

2. Insho mavzusi bilan bog'liq materiallarni bayon qilish uslubi bilan chambarchas bog'liq ekanligini unutmang.

3. Insho mavzusi bilan bog'liq materiallarni bayon qilayotganingizda izchillikka rioya qiling. Imlo qoidalariga rioya qiling.

4. Inshoni yuksak savodxonlik bilan yozishga harakat qiling.

5. Tinish belgilarini ishlatilishiga diqqat qiling. Ularning shakllari aniq va ko'rinarli bo'lsin.

6. Insho husnixat qoidalariga muvofiq yozilsin.

Inshoni hajmi 4-5 sahifadan iborat bo'lsa, yetadi.

Har qanday insho quyidagi uch bo'limdan iborat bo'ladi. Buni foiz nuqtayi nazaridan quyidagicha ko'rsatish mumkin:

<b>Kirish</b>	<b>Asosiy qism</b>	<b>Xulosa</b>
10-15	70-80%	10-15%

7. Insho mavzusi aniqlab olingach, mavzudan kelib chiqqan holda insho rejasi tuziladi.

### **Inshoni baholash metodlari:**

Insholarni baholashda Respublika ta'lim markazi tomonidan tavsiya etilgan yo'riqnomadan foydalaniladi.

Insho mavzusi to'la-to'kis ravishda, hech qanday imloviy xatolarsiz, izchillik asosida, yetarlicha faktlar yordamida ochilgan bo'lsa, ishga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash yaqqol sezilib tursa, bunday insholarga «a'lo» baho qo'yiladi. Mazmuni o'ta yaxshi bo'lgan, 1 ta imloviy va 1 ta ishoraviy xatolikka yo'l qo'yilgan insholarga ham «a'lo» baho qo'yish mumkin.

Insho mavzusi to'liq ochib berilgan bo'lsa, ishda aniqlik va izchillik sezilsa, ijodkorlik ustun bo'lsa, imloviy xatolarning nisbati ishoraviy xatolarga qaraganda ozroq, umumiy miqdori 6 tagacha bo'lgan insholarga «yaxshi» baho qo'yish mumkin.

Insho mavzusi oxirigacha ochib berilgan bo'lsa, lekin unda ayrim chalkashliklar, noaniqliklar uchray tursa, ko'pi bilan 4 ta imlo, 4 ta uslubiy, 2 ta ishoraviy, jami 10 ta xatosi bo'lgan insholarga «qoniqarli» baho qo'yiladi.

O'quvchi tomonidan mavzu yetarlicha yoritilmagan, qo'pol xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, fikrlashda noaniqliklar sezilib tursa, jumlar bir-biri bilan bog'lanmasa, ijodkorlik sezilmasa, xatolarning soni yuqoridagi nisbatlardan ortiq bo'lsa, unday insholarga «qoniqarsiz» baho qo'yiladi.

## DUNYO TILLARI TIZIMIDA O'ZBEK TILINING TUTGAN O'RNI

Hozirgi kunda yer yuzida 3000 dan ortiq til mavjud. Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'lmagan tillar esa, qarindosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, tatar, uyg'ur, boshqird, ozarbayjon, qorachoy-bolqar kabi tillar qarindosh tillar sanaladi. Qarindosh kishilar bir qarindoshdan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir bobo tildan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham, dunyo tillari qarindoshligiga ko'ra tillar oilasi, german tillari oilasi, roman tillari oilasi, eroniy til-oilasi, somiy tillari oilasi, turkiy tillari oilasi va boshqalar.

Bu til oilalarining har qaysisi o'z ichida yana kichik guruhlariga bo'linadi. Xususan, turkiy tillari oilasi qipchoq tillari guruhi, o'g'uz tillari guruhi qorluq tillari guruhiga bo'linadi. O'zbek va uyg'ur tillari qorluq tillari guruhiga; qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash, kabi tillar qipchoq guruhiga; ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillari esa, o'g'uz guruhiga kiradi.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili dunyo tillari tizimida turkiy tillarning qorluq guruhiga mansubdir.

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til bor. Bu tilda so'zlashuvchilar, asosan, Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avstraliya mintaqalarida istiqomat qilishadi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagouz, qrim-tatar, qorachoy-bolqar, qo'miq, no'g'ay, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash va boshqalar.

Turkiy tillar agglutinatív tillar sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar asosan o'zakdan keyin qo'shiladi. Masalan: lit-sey+dosh+lar+im+ga.

**Yozuvchi va A. Ibrohimovning «Biz kim o'zbeklar...» asaridan olingan parchani o'qing. Dunyo va o'zbeklar mavzusi bo'yicha savol-javob qiling.**

«Biz kim, o'zbeklar ko'pni ko'rgan, o'z boshidan ne-ne kunlarni, ne-ne tarixiy sinovlarni o'tkazgan, shonli o'tmishiga, qadim-qadimdan o'z davlatiga ega bo'lib kelayotgan xalqmiz.

O'zbeklar uchun milliy qiyofamiz, qadriyatlarimizni, tilimiz, adabiyotimiz, dinimiz va shu kabilarni himoya qiladigan yakka-yu yagona maskan, bu O'zbekiston Respublikasidir.

O'zbek xalqining ichi to'q, baquvvat, tagli-tugli, palagi toza. O'zbeklarning tafakkur ummoni buyukdir. So'zimizda, so'zlarimizda shu ummonning tomchilari ifodalanadi, ummonimiz bemisl bo'lgani uchun ham, so'zlarimiz ko'p. Millionlab xalqni birlashtirgan omillardan biri millatimizning ma'naviy belbog'i ona tilimizdir.

Biz kim, o'zbeklar asta yig'lab, baralla kuladigan xalqmiz.

Xalqimizning hahibligi shundaki, u irq-u millat ajratmay, bani basharni birday sevadi».

## **Qadimgi turkiy til**

Jamiyat oilalardan tashkil topganidek, tillar ham turli-tuman oilalarga bo'linadi. Til oilalari shu oilaga asos bo'lgan til nomi bilan yuritiladi. O'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq kabi tillarning turkiy til deyilishiga sabab shuki, ularning hammasi qadimgi turkiy tildan ajralib chiqqan.

Demak, hozirgi barcha turkiy tillar (o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, turkman, ozarbayjon, usmonli turk, tatar, xakas, yoqut va boshq) uchun qadimgi turkiy til (bobo til) sanaladi.

Hozirgi turkiy tillarning shakllanish tarixini ko'pchilik olimlar bir necha davrlarga bo'ladi. **1. Oltoy davri. 2. Eng qadimgi turk davri. 3. Qadimgi turk davri. 4. O'rta turk davri** (hozirgi barcha turkiy xalqlar va ular tillarining shakllanishi hamda rivojlanishi davri) va boshqalar.

Mutaxassislarning fikricha, turkiy tillar qadimgi mo'g'il va tungus-manjur tillari bilan birgalikda, bitta oilani tashkil etgan va bu til oltoy tili deb atalgan. Keyinchalik oltoy tili tarmoqlanib ketgan, afsuski, bu davrdan xabar beruvchi yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan, lekin qadimgi

turkiy til davriga oid bir qancha yozma manbalarga egamiz. O'rxun-Enasoy, uyg'ur (qisman moniy), sug'd yozuvlari shular jumlasidandir. Mazkur yozuvlar hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy sanaladi.

**Qadimgi turkiy tilga oid ushbu so'zlarni eslab qoling.**

Budun – xalq	Ko'ch – urug', zot
Bilig – bilim	O'kush – ko'p
Ingek – sigir	O'z – jon, vujud
Yag'i – yov, dushman	Art – tepa, dovon
Batsiq – g'arb	Erik – mard, botir, erkin

## Eski turkiy til

Eramizning XI asrlaridan boshlab qorluq qabila ittifoqi kuchaya boshladi va qoraxoniylar sulolasi hukmronligidagi davlat tashkil topadi. Qoraxoniylar Sirdaryo havzalari hamda somoniylarga qarashli bo'lgan Buxoro va Samarqandga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Qoraxoniylar davlati mayda uyg'ur qabilalarini hamda Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi turk-eron aholisi yashaydigan madaniy yerlarni o'ziga bo'ysundirgan holda, X asr oxirlarida islom dinini qabul qilib, Markaziy Osiyoning eng madaniy turk davlatiga aylandi.

Qoraxoniylar tomonidan ikki rivojlangan madaniy markazning: sharqda uyg'ur madaniyatining va g'arbda, Markaziy Osiyoda turk-eron madaniyatining birlashtirishi uning yozma madaniyatida ham o'z ifodasini topdi. Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri *Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk»* nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning o'sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to'la ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga, turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi namunalarini aks ettirgan yirik badiiy asardir.

Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan holda *qiyosiy-tarixiy tilshunoslik* deb nomlanuvchi tilshunoslik yo'nalishiga asos soldi.

Qoraxoniylar davrining ikkinchi yirik yozma yodgorligi, bu *Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»)* asaridir. Bu asar yirik badiiy-tarbiyaviy asar bo'lib, turkiy adabiyot tarixida juda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, *Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq»* asarlari shu davrning eng buyuk adabiy durdonalaridir.

**Qoraxoniylar davri adabiy tili hozirgi Markaziy Osiyodagi barcha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan til sanaladi va shuning uchun bu davr tili ko'pchilik turkiyshunoslar tomonidan eski turkiy til deb yuritiladi.**

Mahmud Koshg'ariy Chindan tortib to Rumga qadar yashagan turkiy qabilalar haqida shunday deb yozadi:

– Turklar aslida yigirma qabiladir. Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug'leri bor. Men bulardan asosiylarini – ona urug'larini yozdim, shoxobchalarini tashladim.

«Devon-u lug'otit turk»dagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrda bajarak, qipchoq, o'g'uz, boshqird, basmil, yabaqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'raq, uyg'ur kabi turkiy qabilalar tili umumturkiy adabiy tilni tashkil qilgan. Ulardan «eng yengili – o'g'iz, eng to'g'risi, yaxshisi – yag'mo, tuxsi, eng ochiq, ravon til – haqoniy o'lkasida yashovchilarning tili» ekamligi ta'kidlangan.

Eski turkiy til eski o'zbek tilining shakllanishi va rivojida muhim o'rin tutgan.

**Eski turkiy til davriga oid ushbu so'zlarni eslab qoling.**

Ko'kramak – na'ra tortmoq

Sandilach – sa'va

Qirg'ilach – qaldirg'och

Sandug'ach – bulbul

Elig – hukmdor

Bo'g'u – dono

Al – qizil

Ko'ni – tog'ri, rost, haqoniy

## **Eski o'zbek adabiy tili**

Qoraxoniylar davri adabiy tili o'zbek tilining shakllanishi uchun ham asos bo'ldi. Bu davrdagi ikki adabiy til an'anasi sharqiy (qorluq-uyg'ur) adabiy tili va g'arbiy (qipchoq-o'g'uz) adabiy tili o'zbek tilining shakllanishida xizmat qildi.

Xususan, g'arbiy til an'anasida yozilgan *Qul Alining «Qissayi Yusuf» dostoni (1239-yil)* hamda sharqiy til an'anasida yozilgan *Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy» (1309–1310)* asarlari o'zbek adabiy tilining shakllangan davrini ifoda etuvchi badiiy asarlardir. *A. Borovkovning e'tirof etishicha, «Tafsir» (XIII asr)* tili eski o'zbek tilining yorqin namunasidir.

«O'g'uznoma», «Tafsir» (*Qur'onning so'zma-so'z tarjimasi*, izohlar, sharhlar, tushuntirishlar), *Qutbning «Xusrav va Shirin»*, *Sayfi Saroyining «Guliston»*, *Xorazmiyning «Muhabbatnoma»* asarlari eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalardir.

Arab, fors-tojik tillarga xos bo'lgan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar eski o'zbek tiliga ko'plab o'zlashdi. Bu davrda o'zbek qabilalari boshqa qabilalarga nisbatan siyosiy hayotda yetakchilikni o'z qo'llariga ola boshladilar.



O'zbek atamasi tarixda ilk bor XII asrda Rashiddinning «Mo'gullar tarixi» asarida atoqli ot ma'nosida tilga olinadi. Jaloliddin Manguberdinging qo'shin boshliqlaridan biri O'zbektoy deb atalgan.

O'zbek degan so'zning «o'ziga bek», «otliq qo'shin», «sodda», «to'g'ri», «insofli», «saxiy», «odamoxun», «diltortar», «suyukli» kabi ma'nolari ham mavjud. O'zbek atamasining unga qadar ishlatilgan turk, sart, chig'atoy singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror bo'lib qolishi Shayboniyxon boshchiligidagi o'zbek urug'larining Markaziy Osiyoda o'troqlashuvi, hokimiyatni o'z qo'llariga olishi bilan bog'liq.

O'zbek tilining takomillashuvida Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari o'nlab, yuzlab so'z ustalari xizmat qilgan bo'lsalar, Mavlono Alisher Navoiy uning obro'yini dunyoga tanitdi. Navoiy davri va Navoiygacha bo'lgan davrda o'zbek tili turk lafzi, turkiy til nomi bilan yuritilgan. XVI asrdan o'zbek urug'larining nomi butun xalqning nomiga aylanib ketdi. Shuningdek, o'zbek tili mo'g'ullar bosqinidan so'ng shu yerga egalik qilgan Chig'atoy nomi bilan, rus bosqini davrida esa, ruslar tomonidan **sart tili** nomi bilan ham yuritilgan.

**Eski turkiy tildan ajralib to hozirgi o'zbek tilining shakllanishigacha (XX asr boshlarigacha) bo'lgan o'zbek tili eski o'zbek tili deb nomlanadi.**

Demak, eski o'zbek tili XII– XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha bo'lgan o'zbek tili tarixini o'z ichiga oladi va juda katta yozma manbalarni o'zida mujassam etadi.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiylarning eski o'zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta, ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy ulkan ishlar qildi. U o'zbek tilini xazina deb bildi. Bu xazinani ilonlar va tikanlar o'rab turganligini ta'kidladi. Navoiy eski o'zbek tilini ana shu «ilon»lardan va «tikan»lardan tozalab berdi.

Eski o'zbek adabiy tili hozirgi o'zbek adabiy tilining vujudga kelishida muhim bosqich sanaladi.

**Eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan quyidagi so'zlarni eslab qoling:**

Cherik — askar, qo'shin

Ev — uy

Qopungda — eshigingda

Ulus — el, xalq

Butradi — tarqaldi, ketdi

xuvaydo — ayon, ravshan

kilk — qamish, qalam

pesha — kasb, hunar

bilmon — bilmayman

behbud — sog'lomlik

---

---

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILI HAQIDA QONUNI

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

**2-modda.** O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3-modda.** O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasida Davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millat va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

**5-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa, ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

**6-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

**7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishini va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilishini ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

**8-modda.** O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati

va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

**9-modda.** Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

**10-modda.** Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishtovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda, boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**11-modda.** Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishleri yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

**12-modda.** O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki, imkoniyat bo'lgan taqdirda boshqa maqbul tilda beriladi.

**13-modda.** Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasiz takrorlanishi mumkin.

**14-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

**15-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, otasining ismi, familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

**16-modda.** Televidenie va radioeshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

**17-modd.** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

**18-modd.** Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

**19-modd.** Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimai davlat tilida takrorlanadi.

**20-modd.** Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin.

**21-modd.** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yoriqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

**22-modd.** Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

**23-modd.** O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

**24-modd.** O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish, tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

---

---

## TILSHUNOS OLIMLAR

### **Alibek Rustamov**

*(1931)*

Filologiya fanlari doktori (1968), professor (1968), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Alibek Rustamov (1995) o'zbek tili tarixi, tilning badiiy- estetik vazifasi, tilshunoslikning umumiy masalalari bo'yicha bir qancha asarlar yaratdi. Xususan, «Navoiyning badiiy mahorati» (1979), «Qofiya nima?» (1975), «Mahmud Zamahshariy» (1971), akademik G'anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» asarlari alohida qimmatga ega.

Akademik Alibek Rustamov oliy o'quv yurtlarida filologiya ta'limini yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, G'anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Qadimgi turkiy til» (1982) o'quv qo'llanmasi qadimgi turkiy manbalarni o'qish va ularni tahlil etish bo'yicha talabalarning doimiy hamrohiga aylanib qoldi.

### **Iristoy Qo'chqortoyev**

*(1936–2000)*

Filologiya fanlari doktori (1978), professor (1981), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (2000) Iristoy Qo'chqortoyev o'zbek tilining leksikologiyasi, uslubiyati, tilning umumiy, nazariy masalalari bilan bog'liq bir qator asarlarning muallifi. Ular orasida «Ferdinand de- Sossyurining lingvistik konsepsiyasi» (1976), «So'z ma'nosi va uning valentligi» (1977) kabi kitoblari tilshunoslikning nazariy muammolarini yoritishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, u oliy maktablarda til bilimini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha ham ulkan ishlarni amalga oshirdi. Xususan, oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun yozilgan «Badiiy nutq stilistikasi» (1975), «Turkiy filologiyaga kirish» (1976), «Tilshunoslikka kirish» (1976), «Umumiy tilshunoslik», «Lingvistik ta'limot tarixi» (1980) kabi o'quv qo'llanmalari tilshunoslik nazariyasi va turkiyshunoslikni yuqori pog'onaga ko'tarishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

### **Ernst Begmatov**

*(1936)*

Filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov o'zbek nutq madaniyati, leksikologiyasi muammolarini hal qilishda faoliyat ko'rsatib

kelmoqda. Ayniqsa, uning o'zbek onomastikasining shakllanishi va rivojida katta xizmati bor. Olim bu sohada o'zining qator asarlarini e'lon qildi. Ular ichida «Kishi nomlari imlosi» (1972), 14600 ismning izohini o'z ichiga olgan «O'zbek ismlari» (1999) kitoblari alohida qimmatga ega.

### **Shavkat Ubaydullayevich Rahmatullayev** (1926)

Filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Ubaydullayevich Rahmatullayev o'zbek tili leksikologiyasi, leksikografiyasi, morfologiyasining rivoji uchun katta hissa qo'shgan olimdir. Ayniqsa, o'zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishida uning xizmati katta. Shuningdek, o'zbek tilining izohli, etimologik, imlo lug'atlarini tuzishda barakali mehnat qilib kelmoqda. Ular orasida «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati» (1964), «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (1978), «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» (1980), «O'zbek tili omonimlarining lug'ati» (2000) kabi asarlari alohida ajralib turadi.

### **G'ulomov Ayub G'ulomovich** (1914–1984)

A.G'. G'ulomov o'zbek ilmiy tilshunosligining asoschisidir. U 1914-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. A.G'. G'ulomov «O'zbek tilida aniqlovchilar» (1940), «O'zbek tilida kelishiklar (1940), «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi» (1944), «O'zbek tilida urg'u» (1947), «Sodda gap sintaksisi» (1948), «Sodda gap» (1955), «O'zbek tilida tarixiy so'z yasaliş muammolari» (1955), «Fe'l» (1957) kabi qator asarlari bilan o'zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qildi.

O'rtta maktablarning V, VI, IX sinflari uchun uning rahbarligida yozilgan «Ona tili» darsligi yigirma yilga yaqin yosh avlodga til ta'limini singdirishga xizmat qildi.

Respublikamizning barcha ona tili va adabiyot muallimlari A. G'ulomov tomonidan oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari uchun yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis» kitobidan o'zbek tili sintaksisining sir-asrorlarini o'rganganlar.

### **Ne'matov Hamid G'ulomovich**

1941-yili tavallud topgan. Filologiya fanlari doktori, professor.

O'zbek tili tarixi, leksikologiyasi, morfologiyasi bo'yicha qator asarlar muallifi. Ular orasida «Qadimgi tarixiy yodgorliklarning funksional morfologiyasi», professor Ravshan Rasulov bilan hamkorlikda yozgan «O'zbek tilining sistemaviy leksikologiyasi asoslari» kitoblari alohida ajralib turadi.

H. Ne'matov o'rtta umumiy ta'limda «Ona tili» fanini takomillashtirish bo'yicha ham barakali xizmat qildi. U o'rtta maktablarning V-IX sinflari uchun «Amaliyotdan nazariyaga» tamoyiliga asoslangan yangi tipdagi «Ona tili» darsligining yaratilishiga bosh-qosh bo'ldi.

### **G'ani Abdurahmonov** (1925)

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi G'anijon Abdurahmonov o'zining butun ongli faoliyatini o'zbek tilshunosligining ravnaqi uchun sarfladi.

1951-yili «O'zbek tilida sifatlar substantivatsiyasi» mavzusi bo'yicha nomzodlik, 1960-yili «O'zbek tilida qo'shma gap sintaksisi asoslari» mavzusi bo'yicha doktorlik ishlarini himoya qildi.

G'anijon Abdurahmonov oliy va o'rtta maktablarda til ta'limini o'qitish borasida samarali mehnat qildi.

Uning oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili, II qism, Sintaksis», «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» (prof. Sh. Shukurov bilan hamkorlikda), «Qadimgi turkiy til» (akad. A. Rustamov bilan hamkorlikda), o'rtta maktablar uchun yaratilgan «Ona tili» darsliklari hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

### **Mazluma Asqarova** (1924)

O'zbek tilining ravnaqi uchun munosib hissa qo'shgan olimlardan biri filologiya fanlari doktori professor Mazluma Asqarovadir.

Olima turli yillarda yaratgan «Ravishdosh», «Qo'shma gap sintaksisi», «Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar» (akad. G'ani Abdurahmonov bilan hamkorlikda) kabi darsliklar hozirgi kungacha oliy o'quv yurtlari talabalari uchun asosiy manba vazifasini o'tab kelmoqda.

Prof. M. Asqarova hammuallifligida yozilgan IV, V, VI, VII, VIII sinflarning «Ona tili» darsliklari diqqatga sazovor.

### **Shonazar Shoabdurahmonov** (1923)

Filologiya fanlari doktori (1964), professor (1967), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1974) Sh. Abdurahmonov o'zbek tili fonetikasi, o'zbek tilining badiiy-estetik vazifasi, leksikografiyasi, morfologiyasi, dialektologiyasi yuzasidan qator salmoqli asarlar yaratdi.

«O'zbek tilida yordamchi so'zlar» (1953), «Fonetika. O'zbek tili fonetikasiga doir ba'zi masalalar» (1953), «O'zbek tilida punktuatsiya»

(1955), «O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari» (1962) kabi asarlari o'zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Akademik Sh. Abdurahmonov o'rta va oliy ta'limda o'zbek tili va tilshunosligini o'qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qildi. Ayniqsa, uning V.Reshetov bilan hamkorlikda oliy maktablarning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun chiqarilgan «O'zbek dialektologiyasi» (1962, 1969, 1978) darsligi, shuningdek, o'rta maktablarning IX sinfi uchun hammualliflikda yozilgan «O'zbek tili» (1977, 1978, 1980, 1982) hamda oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (1980) darsliklari alohida ahamiyatga ega.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G. Abdurahmonov, D. Xo'jayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2003-yil.
2. N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili/Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. // – T.:, 2007-yil.
3. N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili/Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. // – T.:, 2009-yil.
4. N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili/Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. // – T.:, 2007-yil. •
5. N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili/Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. // – T.:, 2006-yil.
6. M. Qodirov va boshqalar. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. – T.: 2009-yil.
7. A. Nurmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.:, «Ilm ziyο». 2010-yil.
8. A. Nurmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I bosqich talabalari uchun darslik. – T.:, «Ilm-ziyο». 2010-yil.
9. A. Nurmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II bosqich talabalari uchun darslik. – T.:, «Ilm-ziyο». 2010-yil.
10. A. Nurmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. III bosqich talabalari uchun darslik. – T.:, «Ilm-ziyο». 2010-yil.
11. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni. – T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1995-yil.
12. N. Nurmatova, G. Rixsiyeva. O'zbek tili, – T.:, 2008-yil.
13. M. Hamrayev. Ona tili, – T.:, «Sharq» nashriyoti. 2011-yil.
14. B. Mengliyev, O'. Xoliyoro'v. O'zbek tilidan o'quv qo'llanma. – T.: «Akademnashr», 2011-yil.
15. Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.:, «O'qituvchi» nashriyoti, 2003-yil.
16. O'zbek tilining morfem lug'ati. – T.:, «O'qituvchi» nashriyoti, 1977-yil.
17. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili omonimlarning izohli lug'ati. – T.:, «O'qituvchi», 1984-yil.
18. A. Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. – T.:, «O'qituvchi», 1963-yil.
19. F. Kamol va boshqalar. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.:, O'zbekiston «Fan» nashriyoti, 1976-yil.
20. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.:, 1978-yil.

# MUNDARIJA

## FONETIKA VA GRAFIKA

Nutqiy faoliyat haqida.....	4
Nutq tovushlarining uch tomoni.....	5
Nutq tovushi va fonema.....	7
Nutq a'zolari.....	7
Unli tovushlar.....	7
Qator kelgan unli lar talaffuzi va imlosi.....	9
Undoshlar tasnifi.....	9
Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi.....	13
Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi.....	13
Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi.....	16
Tutuq belgisining ishlatilishi.....	16
Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi.....	17
Tovush o'zgarishlari.....	17
Bo'g'in.....	21
Bo'g'in ko'chirish qoidalari.....	22
Talaffuz va ohang.....	24
Urg'u.....	25
Fonetika bo'yicha test topshiriqlari.....	29

## ORFOGRAFIYA

Yozuv va uning tarixi.....	39
Turkiy va o'zbek yozuvlarining tarixi.....	40
Imlo tamoyillari.....	53
Orfografiyaga oid bilimingizni test topshiriqlari asosida nazorat qiling.....	56
ORFOEPIYA (talaffuz) haqida umumiy malumot.....	64

## LEKSIKOLOGIYA

Nutqda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash.....	69
Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.....	70
So'zning o'z va ko'chma ma'nolari.....	70
So'z ma'nosining ko'chish yo'llari.....	71
So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....	75
Omonim so'zlar.....	75
Shakldosh so'zlar.....	76

Sinonim soʻzlar.....	82
Antonimlar va ularning hosil boʻlishi.....	86
Paranomiya hodisasi haqida.....	88
Variantdosh soʻzlar (Leksik dubletlar).....	93
Uyadosh soʻzlar.....	94
Oʻzbek tili leksikasining boyish manbalari.....	94
Qoʻllanish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan soʻzlar.....	96
Sheva va lahjalar.....	97
Noadabiy soʻzlar.....	98
Tasviriy ifoda (Parafraza).....	98
Eskirgan soʻzlar.....	99
Yangi soʻzlar (neologizm).....	103
Atamalar.....	103
Atamashunoslik muammolari.....	104
Nomshunoslik (Onomastika).....	104
Iboralar.....	105
Barqaror birikmalar (paremiologiya).....	109

## LEKSIKOGRAFIYA

Leksikografiya.....	113
Leksikologiya boʻyicha test topshiriqlari.....	116

## MORFEMIKA

Morfemika.....	125
Koʻmakchi morfemalar tasnifi.....	126
Soʻz yasovchi morfemalar (qoʻshimchalar).....	127
Ot yasovchi qoʻshimchalar.....	127
Sintaktik shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar.....	130
Sifat yasovchi qoʻshimchalar.....	131
Feʼl yasovchi qoʻshimchalar.....	133
Ravish yasovchi qoʻshimchalar.....	134
Shakl yasovchi morfemalar va ularning tasnifi.....	135
Tub va yasama soʻzlar.....	135
Feʼllarda shakl yasovchi qoʻshimchalar.....	136
Ot, sifat, son, olmosh va ravishlarda lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalar.....	138
Morfemalarning agglutinatив tabiati.....	140
Old qoʻshimchalar va ularning xususiyatlari.....	142
Qoʻshimchalarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turi.....	142
Shakldosh qoʻshimchalar boʻyicha test topshiriqlari.....	148
Qoʻshimchalar maʼnodoshligi.....	152
Qoʻshimchalarda zid maʼnolilik.....	153

So'z yasalihi.....	154
So'z yasaliшинing tuzilishi.....	154
So'z yasaliш usullari.....	155
Yasamo'z qoli plari.....	156
So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	159
Morfemika bo'yicha test topshiriqlari.....	162

## MORFOLOGIYA

So'z turkumlari.....	172
Ot.....	173
Ot so'z turkumi bo'yicha test topshiriqlari.....	190
Sifat.....	201
Sifat bo'yicha test topshiriqlari.....	213
Son.....	222
Son so'z turkumi bo'yicha test topshiriqlari.....	229
Olmosh so'z turkumi.....	234
Olmosh bo'yicha test topshiriqlari.....	243
Fe'l.....	252
Harakat va holat fe'llari.....	252
Fe'lning ma'no turlari (Akad. litsey).....	252
Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari shakllari.....	252
Fe'llarning zamon shakllari va uslubiy xususiyatlari.....	254
Mayl shakllari.....	257
Nisbat shakllari uslubiyoti.....	259
Bo'lishli va bo'lishsizlik shakllarining uslubiy xususiyatlari.....	261
Fe'llarning munosabat shakllari.....	261
Fe'llarning yasalihi.....	262
Ko'makchi fe'llar.....	265
Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	267
Fe'llarning vazifa shakllari.....	268
Fe'l so'z turkumi bo'yicha test.....	284
Ravish va uning uslubiy xossalari.....	294
Ravish bo'yicha test topshiriqlari.....	300
Yordamchi so'z turkumlari.....	309
Ko'makchi.....	309
Bog'lovchi.....	313
Yuklama.....	318
Yordamchi so'z turkumi bo'yicha test.....	321

## ALOHIDA SO'ZLAR GURUHI

Modal so'zlar.....	332
Undov so'zlar.....	335

Taqlid soʻzlar.....	339
Alohida soʻz turkumi boʻyicha test topshiriqlari.....	341
Ismlarning munosabat shakllari.....	351

## SINTAKSIS

Teng bogʻlanish.....	355
Tobe bogʻlanish.....	356
Soʻz birikmasi.....	356
Ergash soʻzning bosh soʻzga birikish yoʻllari.....	359
Soʻz birikmasi va soʻz.....	359
Soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz.....	360
Soʻz birikmasini ajratish.....	361
Soʻz birikmasi va turgʻun bogʻlanma.....	361
Soʻz birikmalari zanjiri.....	362
Soʻz birikmasi va gap.....	363
Soʻz birikmalarini tahlil qilish.....	363
Gapni soʻz birikmalariga ajratish.....	363
Tobe boʻlakning hokim boʻlakka kelishik qoʻshimchalari yoki koʻmakchilar yordamida bogʻlanishi va ularning sinonimiyasi.....	364
Tobe boʻlakni hokim boʻlakka bogʻlovchi kelishik qoʻshimchalari va koʻmakchilar sinonimiyasi.....	364
Qaratqich kelishigi va egalik qoʻshimchalarining qoʻllanilishi.....	366
Soʻz birikmalarida qaratqich va tushum kelishiklaridan oʻrinli foydalanish.....	367
Soʻz birikmasi boʻyicha test topshiriqlari.....	370
Gap.....	379
Gap turlari.....	380
Gapning tuzilishiga koʻra turlari.....	381
Sodda gap haqida umumiy maʼlumot.....	381
Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	382
Buyruq hamda istak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	382
Soʻroq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	383
Gaplarning his-hayajon ishtirokiga koʻra turlari.....	384
Gap boʻlaklari.....	384
Ega va uning ifodalanishi.....	384
Egali va egasiz gaplar.....	388
Ikki bosh boʻlakli gap tuzilishiga koʻra turlari.....	389
Sodda yigʻiq va sodda yoyiq gaplar.....	390
Toʻliq va toʻliqsiz gaplar.....	390
Gapning tuzilish jihatdan turlari boʻyicha test topshiriqlari.....	391
Kesim.....	401
Kesimlar qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishiga koʻra.....	401

Bog'lama.....	402
Ega va kesimning moslashuvi.....	402
Ot-kesim va ega orasida tirening qo'llanishi.....	403
Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari.....	403
Hol haqida umumiy ma'lumot.....	404
To'ldiruvchi haqida umumiy ma'lumot.....	407
Aniqlovchi haqida umumiy ma'lumot.....	410
Gap bo'laklarining tartibi.....	413
Gap bo'laklari bo'yicha test topshiriqlari.....	414
Uyushiq bo'lakli gaplar.....	426
Uyushgan bo'laklarning shakllari va ularda teng bog'lovchilarning qo'llanishi.....	430
Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'zlarning qo'llanilishi.....	432
Ajratilgan bo'lakli gaplar.....	432
Gapning uyushiq va ajratilgan bo'laklari bo'yicha test topshiriqlari.....	436
Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan aloqaga kirishmaydigan «bo'laklar».....	447
Kirish so'zlar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	447
Undalma.....	449
Gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan «bo'laklar» bo'yicha test topshiriqlari.....	454
Sodda va qo'shma gaplar.....	465
Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar.....	466
Qo'shma gaplar tasnifi.....	466
Bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot.....	466
Qismlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar (Bog'lovchisiz qoshma gaplar).....	467
Ergashgan qo'shma gap.....	468
Havola bo'lakli qo'shma gaplar va ularning tasnifi.....	469
Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar.....	470
Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida ma'lumot.....	473
Murakkab qo'shma gap.....	486
Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar.....	486
Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar.....	486
Aralash murakkab qo'shma gaplar.....	487
Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar.....	488
Ko'chirma gapli qo'shma gap.....	489
Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi.....	490
Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.....	491
Matn — eng katta sintaktik birlik.....	493

Qo'shma gaplar bo'yicha test topshiriqlari.....	494
Asosiy atamalar lug'ati.....	507

## USLUBIYAT VA NUTQ USLUBLARI TASNIFI

So'zlashuv uslubi.....	510
Publitsistik uslub.....	511
Badiiy uslub.....	511
Rasmiy uslub.....	512
Ilmiy uslub.....	512
Ma'lumotnona matni va ijodiy-tavsifiy matn.....	513
Uslubiyatga oid asosiy atamalar.....	513
Uslubiyat bo'yicha test topshiriqlari.....	514

## TINISH BELGILARI

Nuqta va uning qo'llanilishi.....	525
Vergul va uning qo'llanilishi.....	526
So'roq belgisi va uning qo'llanilishi.....	527
Undov belgisi va uning qo'llanilishi.....	527
Qavs va uning qo'llanilishi.....	528
Ko'p nuqta va uning qo'llanilishi.....	529
Tire va uning ishlatilishi.....	530
Qo'shtimoq va uning qo'llanilish o'rinlari.....	531
Ikki nuqta va uning qo'llanilishi.....	532
Nuqtali vergul va uning qo'llanilish o'rinlari.....	533
Tinish belgilarining qo'shaloq holda ishlatilish o'rinlari.....	534
Tinish belgilari bo'yicha test topshiriqlari.....	541
Insho – ijodiy mehnat.....	553
Insho turlari.....	553
Dunyo tillari tizimida o'zbek tilining tutgan o'mi.....	557
Qadimgi turkiy til.....	558
Eski turkiy til.....	559
Eski o'zbek adabiy tili.....	560
O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida» Qonuni.....	562
Tilshunos olimlar.....	565
Foydalanilgan adabiyotlar.....	569

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARHITEKTURA QURILISH  
INSTITUTI QOSHIDAGI AKADEMIK LITSEY

**MATKARIMOVA DILDORA  
MAMATQULOVA NARGIS  
MAMATJANOVA NASIBA**

# **ONA TILINI O'RGANAMIZ**

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari  
uchun o'quv qo'llanma*

Muharrir	<i>Shukur Qurbon</i>
Badiiy muharrir	<i>Jo'raboyev A.</i>
Tehnik muharrir	<i>Jo'rayev A.</i>
Sahifalovchi	<i>Tursinov R.</i>

Nashriyot litsenziyasi: AI №159, 14.08.2009.  
Terishga 2013 yil 25 avgustda berildi.  
Bosishga 2013 yil 7 oktyabrda ruxsat etildi.  
«Times Uz» garniturasini bichimi 60x84.1/16  
Hajmi 36,0 sh.b.t. Nashriyot h.t. 24,31.  
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 214

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy  
kutubxonasi nashriyoti

«SHIDASP» MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.  
Toshkent, Shayxontoxur tumani, Sobir Rahimov ko'chasi 70<sup>b</sup>.